TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

90

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

90

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
Q 46

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Zuhriddin Isomiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-7-9

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

BUGUNGI QIRG'IZ NASRI HAQIDA

Qirg'iz so'z san'atida nasriy asarlar bitila boshlaganiga yuz yilcha bo'ldi, xolos. Unga qadar faqat ertak va miflargina o'z shakliga ko'ra nasriy yo'lda edi. Shuning uchun ham vaqtli matbuot paydo bo'lishi va kitob bosish ishlari yo'lga qo'yilgandan boshlab dastlabki xabar va lavhalar ortidan qirg'iz prozasining ilk namunalari ham yuzaga kelgan. Va ana o'shandan boshlab qirg'iz adabiyotida ijodning bu yangi turi shiddat bilan shakllana boshladi. O'z taraqqiyotining bu davrida u uch manba: avvalo, xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan ertak va naqllarga, ikkinchidan, yozuv an'anasi bo'lmagani bois o'z navbatini kutib turgan ijodiy potensial, va nihoyat, boshqa tillardan qirg'izchaga qilingan nasriy asarlar tarjimalari ta'sirida paydo bo'ldi, tezlikda rivojlandi va ko'p o'tmay, dunyoga Chingiz Aytmatovday buyuk so'z ustasini berdi.

To'g'ri, qirg'iz nasrining oyoqqa turishi birdaniga amalga oshmadi. Dastlabki hikoya, qissa va romanlar (Qosimali Jonto'shev, Muqay Eleboyev)da folklorning ertak shaklidan foydalanish yaqqol sezilib turar edi. Yillar o'tgani sari qirg'iz ovullaridagi oddiy kishilarning hayot tasviri yetakchi o'ringa chiqa boshladi. Jumladan, Tugalboy Sidiqbekovning "Tog'lar orasida" romani (1930-yillarda yozila boshlab, 1958-yilda tamomlangan) misolida bu hol ayon ko'zga tashlanadi. Frontovik adiblar Temirqul Umetaliyev, Uzoqboy Abduqayumov va boshqalarning asarlari yangicha ruhi bilan ajralib turar edi. Aynan elliginchi yillar nasrida ijtimoiy va ma'naviy hayot manzaralari butun chuqurligi va murakkabligi bilan ochilgani e'tiborga molik. Elliginchi yillar oxiri va oltmishinchi yillarda ijod qilgan aksar adiblarning hikoya, qissa va romanlarida badiiylik ham yangi darajaga ko'tarildi. Chingiz Aytmatovning dastlabki hikoya va

qissalaridan keyin esa qirg'iz so'z san'atida turmush dramatizmining tasviri nihoyatda teranlashib ketdi. Badiiyat mezoni ham yanada yuksaldi. Aytish mumkinki, o'sha davrga qadar u yoki bu darajada amal qilib kelgan, "shunchaki o'qish uchun" yozilgan ko'pdan-ko'p belletristik asarlar endilikda o'z ahamiyatini yo'qota bordi, ilgarigiday jo'n hikoya qilish mumkin bo'lmay qoldi. Bu esa yozuvchilardan katta intellekt talab qildi, oqibat — qirg'iz nasri jahon miqyoslariga chiqa boshladi. Nasr millatning ijtimoiy hayotida katta o'rin egallagan kuchga aylandi. Bu o'rinda faqat "tasvir teranligi va dramatizmning yaxshi ochilgani"ni emas, birinchi navbatda qirg'iz nasridagi favqulodda dadillikni ta'kidlab o'tishimiz kerak. Gap shundaki, ikki bor o'tkazilgan qatag'on siyosati natijasida sobiq sho'ro davlati tasarrufidagi aksar o'lkalarda ko'pdan-ko'p mavzularga taqiq solingan, buning ustiga, mash'um "konfliktsizlik nazariyasi"ning zug'umi ostida adiblar ko'pincha hozirgi zamon bir yoqda qolib, moziy haqida qalam tebratar (chunki o'tmish davridagi konfliktlarni tasvirlashga ruxsat bor edi), yoki faqat baxtni tarannum etar edilar.

Ammo bu iddilliyaga qarama-qarshi o'laroq, 1966-yilda Chingiz Aytmatov "Alvido, Gulsari!" qissasini yozdi. Uning sujetida eng oddiy kasb egasi — qirg'iz qo'ychivoni qanday yashayotgani, turmushidagi qiyinchiliklar, o'z hayotini "porloq ideallar"ga baxshida qilib, evaziga esa hatto vafot etganida biron kimsa ham e'tibor bermagani kabi achchiq haqiqatlar tasvirlangan. Oradan besh yil o'tib-o'tmay, To'lagan Qosimbekov "Singan qilich" romanini e'lon qildi. Uning mavzuyi yanada qaltis va qariyb taqiqlangan bir masala — Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan istilo etilishiga bag'ishlangan edi. Bu asar butun O'rta Osiyo adabiyotida zo'r yangilik bo'ldi, ijtimoiy fikri uyg'otishga katta hissa qo'shdi, shoirlar shior haqida emas, diyor haqida, avvalgidan ko'ra dadilroq yozadigan bo'lib qolishdi. Qirg'iz nasrining eng yaxshi namunalari odamlarga jasorat yuqtira oldi, mana shu uning eng katta yutug'idir.

Nasriddin Boytemirov, Shukurbek Beyshenaliyev romanlari qirg'iz nasrida epik tafakkur va epik tasvirning yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

To‘g‘ri, mavjud ijtimoiy voqelik ta’sirida Chingiz Aytmatov, Mar Boyjiyev, Nu’mon Saadiy kabi adiblar asosan rus tilida ijod qilishdi. Ammo ularning hech biri ba’zi ellarning rusiyzabon mahalliy adiblari kabi milliy hayotdan uzoqlashib ketmadi, bitgan qissa va hikoyalarining tili boshqa bo‘lsa-da, ruhi teran milliyligicha qoldi.

Bugungi qirg‘iz nasri — qirg‘iz xalqining o‘tmishi va bugungi kunining ko‘zgusi, uning badiiy yilnomasidir. Bunga misol qilib, bu xalq adabiyotida eng ko‘p qalamga olingan bir mavzu — “Urkin” (hurkish) voqealari tasvirini keltirish mumkin. Gap shundaki, 1916-yilga kelib Turkistonda yalpi elning 6 foizini ruslar, 94 foizi mahalliy xalq vakillari tashkil etgan, ammo Rossiyadan ko‘chib kelgan 6 foiz rus dehqonlariga ekin yerlarining 57,7 foizi olib berilgan, 94 foiz xalqqa esa ulardan ortgan yer “in’om” qilingan. Kelgindilar mahalliy elni xo‘rlagan, suv bermay qiynagan. Bular esa xalqning qo‘zg‘alishiga sabab bo‘lgan. Chor askarlari bir necha yuz ming begunoh qirg‘iz elini otib-chopib, Xitoy chegarasigacha quvalab-urib borgan. Bu voqealar 120 ming kishi o‘limiga sabab bo‘ldi. Bir amallab jon saqlaganlar esa och-nahor, xo‘rlikda kun kechirishgan. Bu voqelik qirg‘iz prozaiklarining asarlarida ko‘p tilga olingan.

Omon Saspayevning “Gugurt”, “Bir chimdim tuz” kabi hikoyalarida ham shu ayanchli voqelik butun teranligi va ikir-chikirlari bilan tasvirlangan.

Shu bilan birga, qirg‘iz adiblari ijodida tabiat, jon-jonivorlar, o‘rmon va yaylovlar tasviri katta o‘rin egallashini aytib o‘tish kerak. Qo‘lingizdagi to‘plamda ham “Kechir, Oqto‘sh!...”, “Yong‘oq qissasi” singari hikoyalar tabiat va inson mavzusiga bag‘ishlangan.

Nu’man Saadiy, Qosim Sulaymonov, Sultan Rayev kabi adiblarning asarlarida esa tasvir ko‘lami yanada kengayadi, ulardagi qahramonlar faqat qirg‘iz eli vakillari bo‘lib qolmay, boshqa xalqlar kishilari, shuningdek hatto boshqa sayyoralar vakillari ham bo‘lib chiqadi. Bundan maqsad, asarga kosmopolitik tus berish emas, balki umuminsoniy g‘oyalarni olg‘a surishdir.

Chindan ham, biz ko‘pincha G‘arbiy Yevropa, Lotin Amerikasi, Yaponiya adabiyoti vakillari ijodiga favqulodda bir hayrat

bilan nazar solamiz, ana o'shalar chinakam buyuk ijod namunalari bo'lib tuyuladi, holbuki, shundoq yon-atrofimizda ham butun dunyo ahlini lol qoldiradigan ajoyib asarlar yaratilyapti, oddiygina Chingiz Aytmatov ijodi bunga yaqqol misol.

Albatta, biz ushbu to'plamda bugungi qirg'iz nasrining eng yaxshi namunalarigina jamlangan, deya olmaymiz. Zero orada o'tgan yaqin o'ttiz yil orasida ma'lum iqtisodiy qiyinchiliklar va siyosiy yangilanishlar tufayli nafaqat qardosh tillardan, balki umuman jahon adabiyotidan o'girish amaliyotida, ozmi-ko'pmi, susayish ro'y berdi. Buning oqibatida, ko'plab yaxshi asarlarni o'z tilimizda o'qish imkoni bo'lavermadi. Shuning uchun ham biz unga qo'limizda mavjud bo'lgan, qolaversa, fidoyi mutarjimlarimiz qisqa vaqt ichida tayyorlab bergan hikoya va qissalarni kiritib, ushbu majmuani sizga taqdim etishga qaror qildik. Har holda, u bugungi qirg'iz nasri haqida o'zbek kitobxonlariga muayyan tasavvur bera olsa, ajab emas.

Har bir muallif va uning asarini talqin qilishni esa, aziz do'stlar, o'zingizga havola qildik. Zero badiiy asarni tushunish, undan maroq olish borasida ko'maklashish kitobxonning uni "hazm" qilishiga faqat xalal berishi tayin.

Zuhriddin Isomiddinov,
filologiya fanlari nomzodi

JUNAY MAVLANOV

(1923–2003)

Jalolobod viloyatining Aqsi tumanida tug'ilgan, Jalolobod pedagogika texnikumni, o'qituvchilar institutini, Qirg'iziston milliy universitetini tamomlagan. Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, Qirg'iziston xalq yozuvchisi. "Kutish", "Non", "Turmush", "Ona", "Ochiq osmon", "Buyuklik", "Yangi tong" singari ko'plab hikoya, qissa va romanlari nashr etilgan.

NON

(hikoya)

Bundan uch-to'rt kun muqaddam Jonibek olmazor etagidagi sichqon qulog'iday yaproqlarini erta-kech esadigan shabadada hilpiratib turadigan yolg'iz tolning ikki shoxini kesgan edi. Po'st-log'i shilib qo'yilgani uchun tezroq qurigan ingichka xodalarni kechqurun dami egovlangan ikki ketmonga sop qildi-da, ertalab quyosh hali nurli yuzini borliqqa ko'rsatmasdan avval, birining ortidan ikkinchisini ham tomning ustiga irg'itdi.

Yog'ochi oftobda kuyib eskirgan shotiga oyog'ini qo'yganida, undan moylanmagan aravaning gupchagiday "g'iych-g'iych" etgan yoqimsiz tovush chiqib turdi.

Mashhur Bo'zbuning sahargi shabadasi...

Subhidam yoki shomda tog'dan esadigan mayin shabadaga ochiq ko'ksingni tutib, to'yib-to'yib nafas olish naqadar rohat!

Tomga chiqishi bilan o'sha huzurbaxsh yel epkiniga duch kelgan Jonibekning tanasi yayradi, yenglari tirsagiga qadar qayrilgan qo'llarini ehtiyotkorlik bilan uchishga shaylanayotgan turnaday yuqoriga ko'tardi.

Tunda olisdan ko'ringan gulxanday yorqin qizil chiziq tortayotgan ufqqa andak tikilib turdi-da, old tomoni terdan qoraygan namat qalpog'ini manglayiga bosib qo'ydi.

Mana, Jonibek o'ttiz to'rt yildan buyon yashab kelayotgan yer — Yoyilma ovuli. U shundoqqina kaftida turganday qarshisida namoyon bo'ldi.

Bir tomoni o'zbeklarning bog'-rog'li qishlog'i, boshqa tomoni Bo'zbu tog'ining etagiga qadar cho'zilgan ovul yerlari ko'l sathiday tep-tekis. Shamolda to'lqin singari tebrangan bug'doyzor ichidan otilib chiqqan dala to'rg'aylari ko'kda qanotlarini dirillatib, nimalarnidir kuyga sola boshlaydi... Hovli yonidagi ariqchada suv shildiraydi... shildiraydi...

Ketmon dastasiga suyangan Jonibek ovuliga ko'z yugurtirdi. Ikki tomoni bir-biriga monand yangi uylarga to'lib borayotgan katta ko'cha "Yangiko'cha" deb ataladi. Ko'zni quvontiradigani — yo'l bo'yidagi yangi uylar. Bog'siz hovli yo'q hisobi. Ayrim hovli egalari qo'llaridagi tok qaychi bilan daraxtdagi ortiqcha novdalarni butab yursa, boshqalari tomorqasidagi piyoz va sabzining egatiga suv taratish bilan band. Yosh bolalar esa chelaklariga suv olib, hovlida ochilgan iforli gullarga "yomg'ir yog'dirib" yurishadi.

Uy yumushlarini ishga ketgunga qadar bajarib qo'yishga odatlangan kolxozchilar barvaqt uyg'onishadi. Sahar payti tom boshida turgan Jonibekning ko'zi birinchi bo'lib Qoraboyga tushdi. U xashak o'rimiga otlangan shekilli, kichik dumli qorabayirining biqiniga depsinib boryapti. Uni kuzata turib, Jonibek nimagadir "pirs" etib kulib qo'ydi.

U hozir havas bilan tikilib turgan "Yangiko'cha"ning bir chetida yosh-yalang orasida turgan mo'ysafidga o'xshagan uy Qoraboy akaniki. Uni urushdan bir yil avval solgan edi. O'sha kezlarda Qoraboy katta amaldorlardan biri edi. Shunday bo'lsa ham, bir kuni o'z ovuliga qaytib kelmog'iga ko'zi yetgan chog'i, shu uyni qurib qo'ygandi. O'shanda bu uyga kimlarning havasi kelmadi, deysiz. "Bu dunyoga ustun bo'lib qolmaganingdan keyin, loaqal, yarim kun bo'lsa ham Qoraboyning muhtasham uyida yashaganga ne yetsin! Osti taxta, tomi shifer, oldi derazali... ich-tashi oppoq.

Kirgan kishining bahri-dili ochiladi. Uymisan, uy! Qo'lidan bir ish kelmasa ham, Qoraboyning zaifasi baxtli ekan".

Qoraboyning hovlisiga borib, uning yangi uyini ko'rib kelgan onasining tang qolib aytgan bu gapi hozirgacha uning qulog'i ostida. Hamma narsaga jiddiy qarab, birovning mulkiga ko'z olaytirishni yomon ko'radigan qo'ng'ir soqolli otasi havaslangan kampirini tinchlantirib, sovuqqonlik bilan shunday degandi: "E, kampir, o'zganing mol-mulkiga suqlanishing nimasi? Ayolligingga borar ekansan-da. Xotin zoti birovning yangi ko'ylagini ko'rsa ham g'ashi keladi. Nima, Qoraboy oltin saroy qurib qo'ydi, deb o'ylayapsanmi? Shunchaki, bir uy-da. "Pul bo'lsa, changalda sho'rva", deydi o'zbek qardoshlarimiz. Uning boyligi, sarmoyasi menda bo'lsa, undan o'n hissa yaxshi qilib uy solishga aqlim yetardi. Yo'limni to'sib turgani ham — pul. Kolxoz shu ahvolda qoladi deysanmi, bizga ham navbat kelib qolar. O'shanda Qoraboy bilan bellashib ko'rarmiz. Mana, Xudoga shukur, uch polaponimiz bir-birining ortidan ishga yarab boryapti. Bizga ertakdagiday oltin saroyni o'shalar solib berishadi, kampir. Hamma gap — chidam bilan kutishda".

Ota-onasining so'zlarini eshitib turgan kenja o'g'il Jonibek keksalarning oldida qanday qarzi borligini o'shanda ilk marta o'ylab ko'rgan bo'lsa, ne ajab.

Buvish ena deysizmi? Qoraboyning uyini ko'rish niyatida, chaqirilmasa ham, dasturxonga ikkita nonni o'rab, uning hovlisiga qadami yetmagan ayol bu ovulda qolmagandi. Uyiga qaytib kelganidan so'ng erini xunob qilganlarni-ku, qo'yaverasiz. Dasturxonni oshxonaga irg'itib: "Shu yerda tug'ilib, shu yerda o'lar ekanmiz-da. Uyni sot. Yetmasa, ikkita echkini ham qo'shib sot. Sovuq osh ichsak ham, yorug'roq uyda o'tirib ichaylik, tiriklay go'rga ko'milmay. O'choqqa o't yoqsang, burningdan boshqa yering ilimaydi. Sandalda o'tirsang, oyog'ing isiydi-yu, burning sovqotadi. Shu ham turmushmi?!" deb, yo'q joydan g'alva ko'tarib, chaqmoqday chaqnab, ko'z yoshi to'kkan ayollarni erlari arang ovutishganini Jonibek ko'p eshitgan.

"Qoraboynikiday uy solish uchun, hech bo'lmasa, Qoraboy bo'lish kerak. Bu deganim, o'shanga o'xshab rayonning bir jilo-

vini qo'lingda tutgan amaldor bo'lishing zarur, esi past. Oylik maoshi qancha ekanligini bilasanmi? Bizning yarim yilda ishlab topganimizni bir oyda olarmish. Undan boshqa mansabdorlarning oyligi qancha ekanligini kim bilsin?! Biz nimamizga uy solamiz? Ma'qul, uy sotildi. Unga qo'shib echkini ham pullaylik. Shugina yetib qoladi, deysanmi? Yog'ochiga, devoriga yetsin, deylik. Shifer degan matohning o'zi qancha turishini bilasanmi? Uni magazindan topolmaysan. Qo'ldan olingan buyum har doim qimmat bo'ladi. Xo'p, ma'qul, unga ham yetsin, deylik. Usta haqiga nima beramiz?.. Ko'p hovliqma, xotin. Har bir ishning o'z vaqti bor. Kolxozning ham davri kelib qolar. Hozirgiday yil bo'yi ishlasang-u, mehnating evaziga berilgan haq tomog'ingdan ortmasa, Qoraboynikiday uy solish to'g'risida o'ylash uyat emasmi? Ko'rpaga qarab oyoq uzatganimiz yaxshi. Yolg'iz uydan yoki ikki echkidan ajrasak, qishda qor yeb, yozda yomg'ir suvini ichib o'tiramizmi?" degan edi uzoqni ko'radigan mulohazali erkaklar.

Qoraboyning uyi haqidagi muhokama o'shanda yil bo'yi davom etdi. Faqatgina urush odamlarning e'tiborini bir-biriga o'ngters bo'lib turgan hayot-mamot tomonga burib yubordi. Bunday mahalda uy esga keladimi? "Jar yoqasida o'tirsak ham, tinch yurganimiz g'animat. Bag'ri butunlik va boshning omonligidan boshqa qadrli narsa yo'q".

Boshga mushkullik tushganda tinchlikning qadri yanada yaqqolroq seziladi. Xotirjamlik bo'lmas ekan, oltin saroyning ham ichi qorong'i, qut-barakasizdir.

Xullas, o'sha yili tog' etagida joylashgan kolxoz a'zolari orasida Qoraboyning uyiga turli sabablar bilan kirib-chiqmagan kishi qolmagan bo'lsa kerak. G'ishtdan qurilgan pechkani, quyosh nuri tushganda yaltiraydigan kumush bilan qoplangan eshik tutqichlarini ham o'shanda ko'rishdi. Kampir va chollar tanglayini taqillatib: "Pechkaning yonida o'tirib, qish chillasida quyuq damlangan pamil choy ichmoqning huzuri boshqacha bo'ladi-da", deb tamshangan edilar.

Odamlarning bundan o'n besh yil burun aytgan gaplarini eslab, hozir o'sha "muhtasham uy"dan chiqqan Qoraboyni ko'rgach, Jonibekning "pirs" etib kulgani shundan edi.

Shunday qilib, bir paytlar Qoraboyning uyiga havas bilan qaraganlar endi uning yonidan kulib o'tadigan bo'lishdi. Kimning ustidan kulishadi? Qoraboyningmi? Faqat uni emas, balki o'zlarini ham qo'shib mazax qilishmayaptimi? Qo'lida qurol bilan G'arbiy Yevropani kezib, yovni yengib qaytgan qirg'iz yigitlari juda ko'p yurtlarni ko'rib qaytishmadimi? Qoraboyning uyini masxara qiladiganlar ham o'shalar bo'ldi.

"Bu uyning nimasiga havas qilgandik o'shanda. Poydevoriga qara, yerni kovlamasdan g'isht terib qo'ya qolgan ekan. Endi yaylovdagi o'tloqni oralab mol izlagan kishi to'nining etagiday nam tortib yotibdi". Uy ichiga kirganlar esa qoraygan eski tolning qobig'iday uzilgan fanerlarni, biror marta yuvilmaganidan tuproqqa qorishib ketgan taxta polni ko'rib, "Boyaqish Qoraboy bir necha yil katta amaldor bo'lib yurgan bo'lsa ham, shift bilan polni yil o'tkazib moylatib qo'yishni bilmagan ekan-da. Zaifasi-chi, zaifasi? Taxtaning ustida yotishni bilgan ayol nega uni yuvib-tozalashni bilmadi ekan?" deb, uning o'zi va uyini gap qilishadi.

Hozir kolxozda xashakchilik brigadasini boshqarayotgan Qoraboy akaning tengdoshlari ko'p. Yuzlashib qolishsa, unga masxaraomuz hazil qilishadi: "Jo'ra, boshpanangni tezroq o'nglamasang, tagida qolib ketasan-ku. Avvalgi yildagiday yer qahrlanib bir silkinib qo'yadigan bo'lsa, zaxi ketmagan uying dosh berolmaydi".

Qoraboy bunday gaplardan hech ham xafa bo'lmaydi, aksincha, sarg'ish mo'ylovini bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan qulog'i tomon chiyrab, ulfatlarining hazil-mutoyibasiga sherik bo'ladi: "Men bu ovulda yangi tipdagi uyni birinchi bo'lib tiklaganman. Endi yangi uyni hammadan keyin qurmoqchiman. Mening uyim ro'yxatning oxirida bo'laversin desam, boshqarmadagilar ham kulishdi. Quyon terisidan tikilgan choriq yarim yilga yaraydi deganlariday, uyim tag'in bir yilga chidab bersa, bas. O'g'lim armiyadan qaytar yili qurilishni boshlayman. Bir yildan keyin muhlati bitadi. Og'aynilar, mening uyimga kulmanglar. Bir paytlar ota-onangizning so'lagini oqizgan uy — mana shu. Har narsa o'z davrida qadrli. Vaqt o'tishi bilan chiroyli husn ham yoshi o'tgan kishiday ko'zning xumorini qondirolmay qoladi. Hozir

maqtalgan uyingizni o'n besh-yigirma yildan keyin ko'raman. Shaharda gaz bilan isitiladigan, ichida hammomi bor, jo'mragidan tinmay issiq va muzdek suv oqadigan uylar paydo bo'lyapti. Hech gazet o'qiysizlarmi? Ko'zingizga oltin saroy bo'lib ko'rinayotgan yangi uyingiz mening manovi boshpanamdek, o'zingizga yoqmay qolishi mumkinligini o'ylamayapsizmi?"

Qoraboy akaning qorasi o'chgandan keyingina, ketmonning sopiga ko'ksini tirab qishlog'ini kuzatayotgan Jonibekning o'sha uy haqidagi o'y-xayollari barham topdi.

Jonibek to'qqiz yildan beri kolxozning tamaki brigadasini boshqaradi. Brigadirdan boshqa kim ham har kun qishloqni oralab yuradi? Shunday bo'lsa ham, u qishlog'iga bugungiday suqlanib qaragan emas edi.

Keyingi yetti-sakkiz yildan buyon yangi ariqqa quyilgan suvday qishlog'iga kirib kelgan qut-barakadan u ham mamnun. Bo'lmasa-chi! Qiyinchilik, talashib-tortishuvlarning hammasi yetishmovchilik tufayli bo'ladi. Elni boshqarganlarni oddiy odamlar bilan kelishmovchilikka olib borgan ham turmushning past-balandi emasmi?

Endi mehnati evaziga tonnalab hosil, dasta-dasta pul olganidan buyon kolxozchining ham manglayi yarqirab, turmushi chiroyli bo'lyapti. Qaysi yangi uyga kirsang, dasturxon to'la non, yangi uzilgan sarxil meva-cheva... Hovlisiga kirsang, yo'lak atrofi yam-yashil o'tloq, boshingda soyabon. Bog'siz hovlini ko'rmaysan. Kolxozchilar Jonibekni "sho'rpeshana" deyishardi. Hozir bu iborani hamma unutgan. Endi uning ham manglayidagi ajinlar tekislanib, yuz-ko'zida tabassum o'ynaydigan bo'lib qoldi.

Uy qurish haqidagi niyat fevral oyining boshida, yil yakuniga bag'ishlangan yig'ilishdan qaytib kelgan kuni paydo bo'lgan edi. Jonibek yangasi Oysalqin va boshqa oila a'zolari bilan dasturxon atrofida o'tirib, o'tgan yil badalida topgan daromadlarini hisoblab chiqdi: uch mingdan ko'proq pul, to'rt tonnaga yaqin hosil olinibdi. Chakana foyda emas bu! Kuzda ularga qo'shilgan Jengishbekni hisoblamaganda, bu atigi uch kishi — Jonibek, ayoli va yangasi Oysalqinning ishlab topgani.

— Mukofotga olgan oltin soatim bunga qo'shilmasin, — deb kuldi Oysalqin yanga, — uni allaqachon sandiqqa solib qo'yganman. Jengishim uylanganda kelinimning bilagiga taqib qo'yaman.

Ularning yonida choy quyib o'tirgan Jengishbek onasining gapini eshitgach, qulog'igacha qizarib, boshini quyi solib, yelkasini qashidi...

— Mayli, yanga, soatingizni daromadga qo'shganim yo'q. Usiz ham topganimiz yangi uy qurishga yetadi. Ancha-muncha qurilish materialimiz ham bor, — dedi Jonibek xotirjamlik bilan.

Navbat bo'yicha ikki kundan keyin kolxozning qurilish brigadasi ularning hovlisiga keladi. Shuning uchun Jonibek va Jengishbek bugun ishga bormay, eski uyni buzish uchun taraddud ko'ra boshlashdi.

Tomga chiqqan Jengishbek uning xayollarini to'zg'itib yubordi.

Jengishbek — katta akasi Sarimsoqdan qolgan yolg'iz tuyoq. U maykachan bo'lib, tom boshidagi peshi osmonga qarab yotgan ketmonni oldi-da, quyoshda toblangan bilagining paylarini o'ynatib, nari-beri qadam bosdi. Rangi unniqqan qora shapkasining ostidan ko'ringan manglayi, quyonnikiday katta-katta ko'zlari, o'ng qoshini yopib turgan quyuq qo'ng'ir sochlari otasini eslatadi. Uning kelbatiga qarab, Jonibekning ko'z o'ngida akasi Sarimsoqning qiyofasi paydo bo'ladi...

Jengishbek kuzda armiyadan keldi. Hozir kolxozda o'sha yoqdan o'rganib kelgan kasbi bo'yicha montyor bo'lib ishlab yuribdi. O'ninchi sinfni bitirganlarning aksariyati armiyadan qaytgach, o'qishga yoki shaharga ishga ketishadi. "Bu ham shunday qilsa kerak, hozirgi yoshlar na ota-onasi, na aka-ukasining gapiga quloq tutadi" deb o'ylab, uning armiyadan qaytishini kutgan yaqinlari ham ikkilanib turishdi. Yo'q, Jengishbek unday qilmadi. Onasining sinab ko'rmoq niyatida "Endi o'qishga ketsang kerak, Jengish?" degan so'rog'iga, "Yo'q, opa, kolxozchi bo'laman deb turibman. Ota-onam kolxozchi bo'lgani uchun men ham dalada ishlamoqchiman. Hamma shaharga ketaversa, kolxozda kim qoladi? Kerak bo'lsa, kolxozning o'zi o'qishga yuboradi. Bordi-yu, o'qishga borsam ham, kolxoz orqali boraman", deb onasining hadigini yo'qqa chiqardi.

Jengishbek otasiga o'xshab vazmin va sipo, sabr-toqatli bo'lgani uchun onasi bilan amakisining undan umidlari katta. Jengish ketmonni qo'liga olishi bilan Jonibek "beri kel" degandek, tomning chetiga qadam tashladi.

U ketmonni yuqori ko'tardi-yu, ozg'in qo'llari madorsizlanganday, qaytadan yerga qo'ydi. Nima uchun? Uning manglayi tirishib, qirra burnining kataklari kerildi. Kim bilsin, balki ota-onasining umri o'tgan, akalari tug'ilgan bu uy hozir polaponlarning uyasiday aziz ko'rinib, uni buzishga ko'zi qiymayotgandir? Ehtimol, shunday bo'lgandir. Ancha yillar muqaddam faol va chaqqon bir yigit otasining eski imoratini buzganda, Jonibekning onasi qattiq norozi bo'lgandi: "Bolasi otasining uyini buzadi, deganlari shumlik emasmi? Ota uyini vayronaga aylantirib, nafratga loyiq bo'lsa ham, uyida qanday xotirjam yashayotganini ko'rib turibmiz. Arvoh rozi bo'lmaguncha, tirik to'ymaydi. Otasi qurgan uyni buzgani — arvohlarni chirqiratgani".

Balki onasining aytgan so'zlari Jonibekni hardamxayol qilgandir. Unday bo'lsa, keyingi besh-olti yil ichida qishloqda o'n besh-yigirma chog'li eski uy buzilib, o'rniga usti shifer, tunuka yoki cherepitsa bilan yopilib, poydevori yarim metr beton bilan ko'tarilgan qo'sh derazali uylar qurilmayaptimi? Jonibek yangasi Oysalqin bilan ham shunday imorat qurishni o'ylab yurishmadimi? Buning ustiga, oila a'zolari ham ko'payib boryapti. Ikki katalak xona, bir dahliz kimga ham boshpana bo'lsin?

Jonibek yuz-ko'zini silab o'tgan tonggi shabadadan ijirg'anganday bir seskanib, o'ziga hayron bo'lgan tikilib turgan Jengishbekka qarab qo'ydi-da, darhol ketmonga qo'l uzatdi.

Umrga umr qo'shmoq niyatida ufqning bir chetidan shoshilib chiqib, olamga kulib boqqan quyosh nurlari Jonibek yuqori ko'targan ketmonning peshiga duch keldi, shekilli, u ko'zgu singari yarq etib ketdi. Birozdan keyin ketmondan irg'itilgan tuproq tomning ortiga gup etib tushgach, chang-to'zon ko'tarildi.

Jengishbek ham ishga kirishdi. Tushgacha arang bitta xonaning tomidan tizzadan keladigan chirigan somon aralash tuproqni ko'chirib, yerga irg'itishdi. Ikkinchi xonaning tomi yarimlagan paytda Jonibek manglayidan oqqan terni yengi bilan sidirib, tama-

ki tutatdi. Tuproqdan bo'shagan ikki to'singa uzun oyoqlarini tirab o'tirdi-da, iyagini silab, tamakisini so'ra boshladi. Ishga berilib ketganidanmi, xumori oshganidanmi, tamakini qayta-qayta tortib, tutunini og'zi-burnidan chiqarib o'tirdi. Amakisining hordiq olayotganidan foydalangan Jengishbek shotini g'iychillatib, suv ichib kelish niyatida pastga tushib ketdi.

Cho'g' tamaki qog'ozining qalin yeriga yetgach, Jonibek unga tupurdi-da, oyoqlari orasidan o'tkazib pastga chertib yubordi. Negadir yosh boladay tamaki qoldig'ining qayerga borib tushishini kuzatdi. Usti yupqa tuproq bilan qoplangan doirasimon narsaga tekkach, tamakining kulga aylangan qismi uzilib ketdi. "Bu to'garak nima bo'ldi ekan? Bolaligimizda onam bizga ovqat quyib beradigan tovoq emasmi? Tovoqqa o'xshamaydi. Yoki tomning ustidan tushgan guvalaning bo'lagimi?" Qandaydir ichki sezgi Jonibekning yuragini kuydirib o'tdi: Non!.. Eski non!.. Holsizlangan kishiday ovozi zo'rg'a eshitildi.

Bir uyum tuproqning ustiga sakragan Janibek uni qo'sh qo'llab olib, ko'ksiga bosdi. Chindan ham non ekan!..

"Oysalqin yangam bu nonni qanday qilib unutdi ekan? Uyning mayda-chuyda jihozlarini o'zi bosh bo'lib yig'ishtirdi-ku. Non yodidan chiqmasligi kerak edi. Yoki irim qilingani bilan bu non nima foyda berdi, undan ko'ra, tuproqqa qorishib ketgani yaxshi", deb ataylab tashladimi? Bunday bo'lishi mumkin emas. Onam o'lganidan keyin uy shiftiga osilgan oq xaltachadagi bu nonni asrab-avaylab, mog'orlatmay, o'rgimchak to'ridan tozalab kelayotgan Oysalqin yangam edi-ku?!"

Jonibek bag'riga bosib turgan non uch joyidan tishlangan. Uning ikkitasi katta akalariga tegishli. Uchinchisi o'ziniki.

To'ng'ichi Sarimsoq qonli maydonga jo'nab ketayotganida, Buvish ena bu nonni yopib, o'z qo'li bilan o'g'liga tutgandi: "Chetidan tishlab qo'y, bolam! Iloyim, o'z uyingdan non-nasibang uzilmasin!"

Bu udumni ikkinchi o'g'il Asilbek ham, keyinroq Jonibek ham bajardi. Yo'q, enaning tilagi mustajob bo'lmadi. Sarimsoq bilan Asilbek urushdan qaytib, onasi tutgan nondan nasiba olisholmadi. Bu, urush tugab, jangga kirmay ortiga esɔn-omon qaytgan

Jonibekka nasib etdi, lekin buni onasi ko'rmay koldi. G'alaba qo'lga kiritilgan yilda to'rt yil yo'lga termulgan onaning ko'zlari abadiy yumildi.

Ikki akasi va onasidan yodgor bo'lib qolgan nonning oyoq ostida toptalib yotganini ko'rgan Jonibekning yuragi jizillab ketdi: onasi, akalarining isi nonda saqlanib qolganday, uni qayta-qayta hidlab ko'rdi. Jonibekning ko'zidan tomgan yosh chang-to'zon qoplagan yuzida iz qoldirib, pastga dumaladi. Suv ichib tomga chiqqan Jengishbek amakisining ahvolini ko'rib qaltirab ketdi...

Ikki yarim oydan keyin oq xaltachaga solingan non yangi uyning shiftidan o'rin oldi...

SHUKURBEK BEYSHENALIYEV

SHOXLI QO'ZICHOQ

(qissa)

AZIZ

Aziz — cho'pon bolasi. Shuning uchun u qishin-yozin baland tog'dagi yaylovda yashaydi. Azizning otasi ertadan kechgacha qo'ylarni o'tlatadi. Onasi bo'lsa o'tovda ovqat pishiradi, kir yuvadi, kechki mahal qo'ylarni qo'raga qamashga yordam beradi.

Mana, oxirgi qo'y ham qo'raga qamaldi. Otasi o'tovga kirib, Azizni dast ko'taradi, osmonga otib erkalaydi.

Onasi bo'lsa xavotirlanadi:

— Bo'ldi, tushib ketmasin tag'in!

— Cho'ponning o'g'li degan pishiq-tetik, dadil bo'lishi kerak, — deb otasi kuladi. — Aziz ham hademay katta bola bo'lib qoladi, keyin chinakam cho'pon bo'lib ot choptirib yuradi-da.

Onasi baribir Azizga qo'lini cho'zib, uni chaqiradi:

— Kel, o'zimga kelaqol, qo'zim.

Biroq Azizning otasidan ajralgisi kelmaydi. Otasi juda yo'g'on, kuchli odam, uning to'nidan qo'y-qo'zilarning, gulxan tutunining g'alati yoqimli hidlari kelib turadi-da.

Bir kuni otasi ertalab:

— Bugun Azizni yaylovga opchiqaman, — deb qolsa bo'ladimi!

Onasi qo'rqib ketdi.

— Yo'q, qo'ying, kichkina bola-ku bu hali.

Ikkovlari rosa tortishib, oxiri shart qo'yildi: Aziz kimning quchog'iga borsa, o'shaning gapi — gap.

Mana, Azizni o'tovning qoq o'rtasiga o'tqazib qo'yildi ham. Dam otasi, dam onasi ikki yoqqa turvolib uni o'zlariga chaqirishardi:

— Aziz, Aziz, menga kelaqol! Kel, o'g'lim, o'zimga!

Aziz onasiga qaraydi — onasi qo'lini cho'zib, unga qarab iljayib turibdi.

Keyin otasiga qaraydi — otasi kattakon qo'llarini cho'zib turibdi.

Aziz hech chidab turolmay, otasining quchog'iga o'zini urdi.

— Senga ot minib, qo'y boqishni o'rgataman! — dedi otasi.

Ota-bola o'tovdan chiqishdi. Otasi egarlangan otga minib, oldiga Azizni o'tqazdi. Ikkovlari xursand so'zlashgancha, suruv qoshiga yo'l olishdi.

Onasi o'tovda qoldi. U ota-bolaning izidan uzoq tikilib turdi, keyin ko'zaga sutdan quyib, xaltaga non soldi-da, ularning ortidan jo'nadi.

AZIZ CHO'PONLIKNI BOSHLADI

Aziz yaylovga birinchi marta chiqqanidan beri uning xayolida dunyoda eng zo'r ish — otasi bilan otga mingashib, yaylovda qo'y boqish bo'lib qoldi. Ilgari o'tovda, onasining yonida yurganida qo'ydan boshqa narsani ko'rmagan edi. Endi bo'lsa...

Endi u otasining issiq to'ni ichidan boshini bedanaday chiqarganicha, chiybaxmal to'shakda, ot ustida ketib boradi.

Ot uni xuddi belanchakday tebratadi. Azizga xuddi bo'yi o'sib, o'zi darrov katta bo'lib qolganday tuyiladi. Anov tog'lar ham endi ilgarigiday vahimali ko'rinmaydi. Aziz endi bildi: tog'lar rosayam go'zal ekan. Tog'da daraxtlarning yaproqlari yuziga tekkanda Aziz quvnab qo'llarini silkitardi.

— Daraxt, daraxt!.. E-ey!..

— Bu archa... bu qayin... bunisi tog'archa... manovi esa shilbi... bu to'bilg'i... — deb otasi daraxtlar, butalarni ko'rsatardi.

— Archa... qayin... tog'archa... — deya takrorlardi Aziz ham.

Uning hamma narsani birdaniga anglab, uqib olgisi kelardi. Ammo bir daraxtni ikkinchisidan darrov farqlab olish oson ekanmi!

Ota-bola ikkovlari ot bilan bulutlardan ham yuqoriga chiqib borishgach, Aziz qoya tepasidan otilib tushayotgan sharsharani ko'rdi. Sharshara suv zarralarini to'zg'itib, oppoq bo'lib pastga qarab uchar, atrof shovqin-suronga to'la edi.

— Suv, suv ekan! — deya qichqirdi Aziz.

Otasi ot tizginini tortdi. Azizning peshonasidagi bir tutam patini erkalab,

— Bu — sharshara, — dedi kulib.

Aziz hayron bo'lib otasiga qaradi:

— Sharshara?

— Ha, shunday, — dedi otasi. — Sharshara degani shu. Qara, suv ho'v balanddan parillab, shar-sharr qilib otilib turadi, uqdingmi?

— Shar-sha-ra, shar-sha-ra, — deya qichqirdi Aziz, biroq uning tovushini suvning shovqini bosib ketdi.

Har kuni Aziz otasi bilan otga mingashib, tog'ga chiqar, har kuni biron yangi narsani bilib kelar edi.

AZIZ OTASINI SOG'INDI

Azizi kun bo'yi otasi bilan tog'ga ketganida onasi dastlab usiz rosa zerikib yurdi, bora-bora ko'nikib qoldi.

"Hamma o'g'il bolalar onasiga qaraganda otasini ko'proq yaxshi ko'radi", deya o'ziga taskin berdi u.

Har kuni kechki payt ota bilan o'g'il qo'ylarni yaylovdan haydab kelishganda onasi ularni kutib olgani chiqar, charchab holdan toygan, ammo shodosh Azizni otdan ko'tarib tushirib, o'tovga olib kirib ketardi. Aziz darrov dong qotib uxlab qolar, tushiga sharsharalar, baland tog' daralaridagi zumrad archalar, yo'g'on bo'rdoqi qo'ylar kirar edi.

Bir kuni ertalab onasi Azizni ataylab uyg'otmadi, uni o'tovda olib qoldi. Uyg'ongach, Aziz rosa yig'ladi, otasini chaqirdi, qochib uning yoniga, tog'ga ketishga shaylandi.

Onasi Azizning yoniga turli-turli ovqatlar, qand-qurslar qo'ydi, ertaklar aytib berdi. Aziz baribir hech yupanmas edi:

— Otamning oldiga boraman! Otamning oldiga!

Onasi kechgacha Azizni ovuta olmadi. Shundan so'ng u har kuni ertalab o'g'lini uyg'otib, otasiga qo'shib tog'ga jo'natadigan bo'ldi.

KATTA BOLA EKANLIGIMNI OTAMGA KO'RSATIB QO'YAY

Aziz ertadan kechgacha otasi bilan otliq yurib, kattakon-kattakon bo'rdoqi qo'ylarni boqishga ko'maklashardi.

U ham haqiqiy qo'ychivonlar kabi gulxan yonida ovqat yeydi, archa tagiga yotqizilgan to'shakda boshiga bolishni egar qilib uxlaydi. Endi Aziz rosa ko'p narsalarni o'rgandi, tog'dagi o'tloqda, qalin o'tlar orasidan g'izillab o'tish, tog' yon bag'irlaridan ravoch, qo'ziqorin terish uning uchun cho't emas. U endi naq tepasida qanot yozib uchib yurgan katta burgutlardan ham hayiqmaydi.

Kunlarning birida Aziz otasi bilan yam-yashil do'nglikda o'tirganicha qo'ylarning yoyilib o'tlashini kuzatardi. Old oyog'igi tushov solingan ot ham erinibgina o't chimchilaydi.

Kutilmaganda otasi sapchib o'rnidan turdi:

— Qo'ylarni qara! Qo'ylar ketib qopti-ku!

— Men! Men o'zim! — deya qichqirdi Aziz, so'ng qo'ylarga qarab yugurdi.

"Mana endi otamga katta bola ekanligimni ko'rsatib qo'yay", — deb o'ylardi chopib ketayotib.

Qo'ylar bo'lsa ancha yoyilib ketgan ekan.

— Qiy-uy! Qiy-uy! — deya Aziz qichqirdi-da, yo'g'on bo'z qo'yni — podadagi eng katta bo'rdoqini quvib ketdi.

Otasi do'ngda turganicha, o'g'li ortidan zavqlanib tikilardi. O'g'li dastyorlikka yaraguday bo'lib qolganidan mamnun edi.

Suruv ham bo'z qo'yga ergashib ketib borardi.

Aziz qichqirib bo'z qo'yga tashlandi. Bolani ko'rib, qo'y kallasini ko'tardi, quloqlarini qimirlatib qo'ydi, keyin hech narsadan bexabarday o't chimchilashga kirishdi. Azizning jahli chiqdi.

U qo'yni bir-ikki savaladi, so'ng orqaga burish uchun quloqlaridan ushlab tortdi. Bo'z qo'y kallasini chayqagan edi, Aziz o'tlar ustiga yiqilib tushdi. Lekin o'rnidan irg'ib turib, qo'yning juniga yopishdi. Bungacha yuvoshgina turgan qo'y cho'chib, Azizni sudragancha chopib ketdi. Aziz ham bo'sh kelmadi, qo'yning

bo‘ynidan mahkam quchoqlab oldi. Oxiri qo‘li tolib, o‘t ustiga yiqilib tushdi.

Bo‘z qo‘y to‘xtadi, kallasini sarak-sarak qilib turib, kutilmaganda toshday tuyoqlari bilan bolaning oyog‘iga tepdi. Aziz qizishib, irg‘ib turdi, yana bo‘z qo‘yni quvmoqqa chog‘landi, biroq oyoqlari chalishib, boshi gir-gir aylanib ketdi-yu, tag‘in yiqilib tushdi.

Uzoqdan qarab turgan otasi qo‘rqib ketdi, shu yoqqa qarab yugurdi. Yetib kelib qarasaki, Aziz o‘t ustida qimir etmay yotibdi, oyog‘ida qon...

Otasi egilib, Azizni ko‘tardi, ehtiyotkorlik bilan bag‘riga bosib asta olib ketdi.

AZIZNING TUZALISHI

Mana, bir necha kundirki, Aziz to‘shakdan turmay yotibdi. Onasi uning yonidan bir qarich ham siljigani yo‘q, ertadan kechgacha o‘g‘lini parvarish qilishiga hech kim to‘sqinlik qilmaydi. Shuning uchun onasi biri biridan shirin ovqatlar pishirib, Azizning og‘ziga tutgani tutgan — hali qovurdoq pishirib beradi desangiz, hali beshbarmoq.

Biroq Azizga bular yoqmaydi. Ko‘rpaga o‘ralib yotaverish tezda joniga tegdi. Otasining yoniga, yaylovga borgisi kelar edi.

Bir kuni ertalab uyg‘onib qarasa, otasi uning to‘shagi yonida o‘tirgan ekan. Aziz boshini ko‘tardi, otasining yengidan ushlab tortdi.

— Siz bilan ketaman... Keta qolaylik!

— Bo‘pti, o‘g‘lim, bo‘pti, — dedi kulib otasi. — Hoziroq jo‘naymiz. Qani, onasi, o‘g‘lingni kiyintir!

Otasi otga minib oldi, oldiga yumshoq par yostiq qo‘yib, Azizni unga o‘tqizdi. Shunday qilib desangiz, ikkovlari tag‘in yo‘lga tushishdi... Biroq yaylov tomonga emas, nima uchundir butunlay boshqa yoqqa yo‘l olishdi.

— Qayoqqa boramiz?

— Ovulga boramiz, o‘g‘lim, — dedi otasi otni jadallatib.

Buni qarang, toza havoning ta'siridan yo otning yo'rtishi foyda qildimi, ishqilib, Aziz birdan yengil tortib, kayfi chog' bo'lib ketdi, yarasi ham uncha lo'qillamay qo'ydi.

Rosayam uzoq yurishdi. Tobora pastga enib, vodiyga tushib borishdi. Oxirida yo'l bo'yiga yetib to'xtashdi. Ko'l qirg'og'iga oppoq qilib palatkalar tikilgan ekan. Otasi otdan tushib, Azizni ko'tarib oldi-da, shu oq palatkalardan biriga kirdi. Bu palatka ichida magazin bor ekan. Magazinja turli-tuman ajoyib-g'aroyib narsalar shunaqayam ko'p ekanki, Azizning ko'zlari qamashib ketdi.

Do'konda mo'ylovli, odamga kulib qaraydigan bir yaxshi amaki o'tirgan ekan. Mehmonlarni ko'rib, amaki o'rnidan turdi, chaqqon so'rashdi. Otasi magazinchiga nimadir degan edi, amaki bosh irg'ab Azizga ko'zini qisib hazillashdi, keyin darparda orqasiga o'tib, ko'zdan yo'qoldi.

Birpasdan so'ng u o'ng qo'lida kichkina jigarrang kastum-shim, ikkinchisida jigarrang botinka ko'tarib chiqib keldi.

— Marhamat, Bakir aka, — dedi sotuvchi. — O'ziyam, naq shu azamat yigitga loyiq ekan.

Azizning yuragi hapriqib ketdi. Nahotki shu narsalar o'ziga bo'lsa?

Otasi kulimsirab, shoshilmaygina cho'ntagidan pul chiqardi, bir qanchasini sanab, sotuvchiga uzatdi.

— Xo'-o'sh, endi bu toyloqqa qand-qurslaringizdan ham bir torting-chi. Ko'proq bo'laversin!

Sotuvchi Azizga yana ko'zini qisib, tegishdi, keyin konfet, pechenye, holvalardan o'lchab, hammasini katta bir qog'oz xaltaga soldi-da, otasiga tutdi.

Magazindan chiqib, qo'shni palatkaga kirishdi.

Bu palatka Azizga yanayam yoqdi. Palatka ichi shunaqayam top-toza ekanki, u ilgari hech qachon shunchalik ozoda joyni ko'rmagan edi. Ularni oppoq xalat kiygan bir qiz kutib oldi. Aziz bu qizni ham sotuvchi deb o'ylab, tag'in sotib olinadigan allanimalarga oldindan quvonib turgan edi.

Biroq unday bo'lmadi. Otasi haligi qiz bilan nimanidir pichirlashib olgach, Azizga qarab baland ovoz bilan:

— Qani, Aziz, yangi kastum-shimingni bir o'lchab ko'raylikchi, deb qoldi.

Qiz chaqqonlik bilan Azizni oq choyshab yozilgan kat ustiga yotqizib, oyog'idan botinkasini yecha boshladi.

Ana shunda Aziz bu qizning hecham sotuvchi emas, do'xtur ekanini payqab qoldi.

Otasi Azizga yangi kiyimlarni kiydirguncha qiz uning oyog'idagi yarani yaxshilab ko'rdi, qandaydir bir dori surtib, ixcham o'rab bog'ladi.

Yarasi qancha og'risa-da, Aziz yig'lamadi, indamay chidab turdi.

— Eh-he, bu chinakam yigit ekan-ku! — deb jilmaydi qiz. — qani, turchi o'rningdan.

Qiz Azizga turishga ko'maklashdi, keyin orqasidan yengil turtib yubordi. Azizning yiqilib tushishiga bir bahya qoldi — yarali oyog'i hali kuchga kirmagan, o'z-o'zidan qaltirar edi.

Biroq, buni qarang, Aziz bir qadam bosdi, so'ng ikki... uch qadam yurdi. Birpasdan keyin esa oyog'ining yarasi esdan ham chiqib ketdi.

Oq xalatli qiz otasiga dori, bint berdi. Xayrlashar ekan,

— Kun ora dori surtib, bog'lab turinglar, — deb tayinladi. — Tez orada ko'rmaganday bo'lib ketadi.

BO'Z QO'YNING YENGILISHI

— Hali ko'rasan, o'g'lim, — dedi otasi Azizga, — vaqti keladi, o'sha bo'z qo'yning adabini berib qo'yamiz, xo'pmi?

Aziz buni hayajonlanib kutar edi. Tezroq o'sha zo'ravon qo'yning oldiga borgisi, oyog'i lat yegani uchun o'chini olgisi kelar edi.

Aziz tamoman sog'ayib ketganida bir kuni otasi:

— Yur, o'g'lim, — deb qoldi. — Anov bo'z qo'y bilan gaplashib qo'yaylik.

Aziz devordagi qamchini qo'liga olib qichqirdi:

— Uramizmi, a, uramizmi?

Otasi unga ta'na bilan qarab bosh chayqadi:

— Urishning nima keragi bor? Biz uni xo'jasini izzat qilishga o'rgatamiz. Shunaqa muloyim bo'lib yuvosh tortadiki, o'ziyam bilmay qoladi. Ammo sen qo'rqib-netib o'tirma, cho'chitgan bo'lsang, aytib qo'yaqol hozir.

— Yo'q, qo'rqmayman, — dedi Aziz dadil, sir bermay. Ammo nimagadir, qo'rqqanidan yuragi orziqib ketdi.

Ota-bola o'tovdan chiqib, poda yoniga kelishdi.

Bo'z qo'y kavsh qaytarishdan to'xtab, Azizga qaradi.

Otasi uning yoniga kelib, tutmoqchi bo'lgan edi, bo'z qo'y shataloq otib qochib ketdi. Cho'chigan qo'ylar durillab har tomonga qochdi. Otasi bo'z qo'yni quvib yetib, orqa oyog'idan tutdi. Keyin chaqqonlik bilan uni minib oldi. Bo'z qo'y xuddi o'rgatilmagan asov otday o'zini u-bu yoqqa tashladi. Har tomonga ketmoqchi bo'lib, goh irg'ishlab, goh yo'rg'alab ko'rdi. Biroq Azizning otasini qo'y tugul, ot ham yerga uloqtirib bo'pti. Axir u manaman degan chavandozlardan-ku!

Nima bo'lganda ham qo'y qo'y-da, ot bo'larmidi. Bo'z qo'y birpasda toliqib, sekin-asta, erinibgina qadamlay boshladi. Otasi uni Aziz tomonga burib kelib, o'g'lini ham orqasiga mingashtirib oldi.

— Mana, ko'rdingmi, o'g'lim? — dedi kulib u. — Bo'z qo'yni o'rgatib ham oldik. Endi u rosa yuvosh bo'lib qoladi. Qayoqqa desang, o'sha yoqqa yuradigan bo'ladi.

Aziz qo'yning yumshoqqina sag'risiga joylashibroq o'tirib oldi-da, niqtab qichqirdi:

— Chop, bo'z otim! Chu, chu!

Qo'yga minib yurish ot minishdan yaxshiroq ekan. Shuning uchun Aziz otasi bilan bo'z qo'yni minvolib poda orasida uzoq yurdi. Boshqa qo'ylar hayron bo'lib ularga qarashar edi.

Axiyri, bo'z qo'y hansirab, horib-tolib yurmay qo'ydi. Junlari terdan ivib, kumushday yaltirar edi. Otasi otdan tushib Azizga:

— Mana endi mulla bo'ldi, — dedi. — Sen bundan keyin doim shuni minib yurasan.

Shu kundan boshlab Aziz o'z "oti"ni — bo'z qo'yni minib yuradigan bo'ldi. Ertalab qo'yni minib, yaylovga borar, kechki payt yana "ot ustida" o'tovga qaytardi, Yoz o'tib, kuz keldi. Hamma qo'ylarni haydab borib, go'sht kombinatga topshirishdi.

Taroziga eng oxiri bo‘z qo‘yni chiqarishdi.

Uni olib ketishayotganida Aziz otasining orqasiga o‘tib, hech kimga bildirmay yig‘lab oldi — qardon do‘sti bilan xayrlashish og‘ir edi.

Shu yerga to‘planganlarning barisi — kolxoz raisidan tortib, ferma mudiri-yu, tarozibonlargacha — hammalari otasining qo‘ylarni semiritib boqqanligi uchun maqtab, minnatdorchilik bildirdi.

Otasi mamnun bo‘lib, kulib:

— Meni ko‘pam maqtayvermanglar, ishning teng yarmini manovi yordamchim qildi-ku, — dedi. — Bekinma, o‘g‘lim, nimaga uyalasan?

Rais bo‘z qo‘y Azizning eng sevimli qo‘yi ekanini fahmladi, shekilli, uning yoniga kelib, peshonasini silarkan:

— Bakir aka, — deb qoldi. — Ertagayoq qo‘zilarni haydab olib ketaveringlar. Azizjon boqadi. O‘g‘lingiz haqiqiy cho‘pon ekan.

SHOXLI QO‘ZI

Ertasi kuni otasi boshqa cho‘ponlarning qo‘ralariga borib, har otardan o‘ttizta-qirqtadan qo‘zini ayirib olib, o‘z qo‘tonlari tomon hayday boshladi. Yetib kelishgach, Azizga qarab:

— Mana, o‘g‘lim, biz shularni boqishimiz kerak, — dedi. Bahor kelsa, ular to‘qli bo‘ladi, yana bir yil o‘tsa, bo‘rdoqiga boqiladigan shishak bo‘ladi. Yaxshilab tanlab, besh-o‘ntasini ajratib ol — o‘zing boqasan.

Aziz suyunib ketdi. Qo‘zilar yoniga borib, bittalab sanay boshladi.

Qo‘zilar hali kichkina, yuvosh, uvolgina edi. Ular Azizni o‘rab olib, munglanib ma’ray boshlashdi: “ma-ma-ma!”

Azizning ularga ichi achishdi. Otasiga qarab:

— Ota, tezroq bularni yaylovga oboraqolaylik! — deb qichqirdi. — Hammasining qorni rosa ochib ketibdi!

Otasi bilan onasi o‘tovdan chiqib, Aziz bilan birga qo‘zilarni yaylov tomonga haydashdi.

Oldinda qo‘zichoqlarning yirik-yirik, dadillari chopqillab borardi. Bahorning boshlarida tug‘ilgan bu qo‘zilarning og‘zi o‘tga

tekkan, hozir ham qayoqqa borishayotganini darrov fahmlab, ildam qadamlashardi.

Biroq ularning orasida hali judayam nimjon, ushoqqinalari ham bor edi. Ular hadeganda podaning ortiga o'tib qolar, tinimsiz zorlanib ma'rashardi.

Aziz o'ntacha eng mayda qo'zichoqni ayirib, otasiga:

— Bularni yaylovga oborishning keragi yo'q, — dedi. — O'zim qarayman bularga.

Otasi o'g'lini maqtadi:

— Barakalla, o'g'lim, yaxshi o'ylabsan! Boshqa qo'zilarni onang ikkovimiz yaylovda boqamiz, bu maydalarni sen parvarish qilasan. Ammo sharti bor: faqat bugungina emas, doim qarashing kerak. Xo'pmi?

— Bo'pti. Siz bilan musobaqa o'ynayman.

Shu-shu bo'ldi-yu, Aziz ushoq qo'zichoqlardan ayrilmay qoldi. Ularni uzoq yurgizib toliqtirmaslik uchun o'tov atrofida, qo'raning yon-verida o'tlatar edi.

Ular ichidan bittasi — qorday oppoq bir qo'zichoq Azizga judayam yoqib qoldi. Aziz qorga o'xshagan bu qo'zichoqqa "Qorqo'zi" deb nom qo'ydi. Qo'zilar ichida u eng aqllisi, yoqimtoyi edi. Aziz "Qorqo'zi! Qorqo'zi!" deb chaqirsa bo'ldi, oppoq qo'zi yugurib uning oldiga yetib kelar, ketidan butun poda chopqillar edi.

Kunlar shunday o'tar, qo'zilar yaylovda o'tlab, tobora o'sib, semirib borardi. Faqat bittasi — bo'z tusdagi tik mo'gizli qo'zichoqqina haligacha nimjon, boshqa qo'zilarga qaraganda ancha ushoq edi. Boshqa qo'zilar shoxsiz, ammo bu qo'zining shoxi bor. Yana kim biladi, deysiz, balki shuning uchun u shunaqa oriqtiriq bo'lib yurgandir?

Aziz nima qilishni bilmay, boshi qotib, otasiga maslahat soldi.

Otasi o'tovga bir qop yem olib kelib qo'ydi.

— Mana, o'g'lim, nimjon, kasal qo'zilarga yorma olib keldim. Anov qo'zingga berib ko'r-chi.

Aziz qalpog'ini to'ldirib yorma solib, shoxli qo'ziga tutdi. Biroq qo'zi yemga qarab ham qo'ymay, o'jarlanib bosh chayqadi.

Aziz noiloj uning mo'gizidan tutib, kuch bilan og'ziga yormani tiqishtirdi.

Shoxli qo'zi ana shunda yemning mazasini bilib qolib, yutoqqanicha yormani yeyishga tushdi.

Aziz to qo'zi yemni oxirigacha yeb bo'lishini kutib, unig yonidan ketmay o'tirdi.

Keyin buloq boshiga borib, qalpog'ini to'latib suv opkeldi-da, shoxli do'stiga tutdi.

— Mah, ich! Ich!.. Endi faqat mening qo'limdan ovqat yeysan! Shunga o'rgan! — dedi.

Mo'gizli qo'zi endi itoatkorlik bilan qalpoqqa intildi, huzurlanib suv icha boshladi.

— Qorqo'zi, Qorqo'zi, mah-mah, — deya Aziz oppoq qo'zini chaqirdi. Unisi istamaygina Azizning yoniga keldi.

Kim biladi deysiz, balki, Qorqo'zi Azizni shoxli qo'zidan qizg'angandir. U qorni to'yib, oftobda isinib yotgan shoxli qo'zini sinchkovlik bilan hidlab ko'rdi. Qolgan qo'zilar ham uni birma-bir hidlab chiqishdi.

— Nari turinglar! — deya qo'lini silkib ularni haydadi Aziz. — Shoxli qo'zi dam olyapti. Xalaqit bermanglar! Mo'gizli qo'zi endigina ovqat yedi.

Qo'zilar nari ketib, bir chetda o'tlay boshladi.

Tez orada shoxli bo'z qo'zi hecham o't yemay qo'ydi. Unga faqat yorma bilan yem bo'lsa bas.

Aziz bundan xursand, erkatoyini boqib, parvarishlab to'ymaydi. Kun bo'yi uni o'ynatadi, shoxlab suzishni o'rgatadi.

Mo'gizli qo'zi kundan-kunga o'sadi, semiradi, uning ilgarigi nozik shoxlari ham endi ancha baquvvat bo'lib qoldi.

Shunday qilib desangiz, bir kuni kutilmagan voqea bo'ldi. Aziz podasi o'tlayotgan joyda maysalar orasida dam olib yotarkan, orqasidan qandaydir dupur eshitildi. Qarasa, qo'zilardan biriga shoxli erkatoyi hamla qilibdi.

Unisi shoxsiz qora qo'zi ekan. Albatta, u mo'gizli raqibiga dosh berolmay chekindi.

Azizning quvonganini ko'rsangiz!

— Qoyil, shoxli polvon! Sen podamdagi eng zo'r qo'zisan!

Avaz boshqa bir qo'zini tutdi-da, yana suzishib ko'rsin, deb uni mo'gizli qo'zining qarshisiga turg'izdi.

Shoxli qo'zi nima gapligini darrov fahmlab, bu qo'zini chunonam gursillatib suzdiki, sho'rlik ikki-uch dumalab ketdi.

Bir kuni otasi yem opkelgan qopining bo'shab qolganini ko'rib:

— Shoxli qo'ziga endi yem berma. O'ziyam hamma qo'zilaringdan katta bo'lib ketibdi, — dedi. — Yorma kasal qo'zilarga kerak.

Aziz xafa bo'lib tumshaydi:

— Bo'pti, kerakmas. Agar yemni ayasangiz, o'zimning ovqatimni beraman.

Otasi unga xo'mrayib qarab qo'ydi-yu, indamadi.

Shoxli qo'zi bo'lsa o'sha kunlarda bosar-tusarini bilmay taltayib ketdi. Qaysi qo'ziga duch kelsa, darhol shoxlab suzishga tushadi. Azizning podachasidagi hamma qo'zini yengib chiqdi. Bir kuni boyagi Qorqo'ziga ham hujum qilib qoldi.

Qorqo'zi u bilan suzishmadi, faqat yordam so'raganday Aziz tomonga qaradi. Biroq Aziz shoxli qo'zini silab-siypab erkalayotganini ko'rdi-yu, yaylovga — otasi boqayotgan qo'zilar podasi tomonga chopqillab ketib qoldi. Qaytib Azizning podasiga qo'shilmadi. Qishga borib shoxli qo'zi hamma qo'zilar orasidagi eng kuchli, eng qo'rqmas qo'zi bo'lib qoldi. U endi hatto itlarga daf qilishdan ham cho'chimasdi.

SUZONG'ICH QO'ZI SHOXIDAN AYRILDI

Bir kuni Aziz mo'gizli qo'zisini ergashtirib, qo'shni qo'raga bordi. U yerda o'rtog'i Sulton bor edi.

— Sening ham shoxli qo'zing bormi? Mening manovi qo'zim bilan urishtirasanmi? — deya maqtanib taklif qildi Aziz erkatoyining mo'gizidan ushlab.

Sulton o'ylanib turib, boshini chayqadi.

— Xohlasang, seni ham suzaberadi, xohlaysanmi?

— Qani, suzib ko'rsin-chi, — dedi Sulton.

— Tag'in keyin yig'lab qolmasang bo'lgani. — Aziz qo'zisini sulton tomonga burib qichqirdi. — Suz, qo'zim, suz uni!

Shoxli qo'zi orqasiga tislanib turib, Sultonga otildi. Sulton qorga ag'darilib tushib, qo'rqib baqirdi:

— Bo'ldi, bo'ldi, tort uningni!

Aziz qo'zisini chetga surib, masxara qilib so'radi:

— Qalay, ishondingmi endi?

— Ishondim, — dedi ust-boshlaridan qorni qoqib Sulton. — Ertaga bu qo'zingni tag'in opke. Men uningga sherik topib qo'yaman. Yakkama-yakka chiqaramiz.

Ertasiga ertalab otasi qo'zilarni yaylov tomon haydab ketgach, Aziz qo'zisini yetaklab, yana Sultonlar tomonga jo'nadi.

Sulton Azizga tashqarida birpas qarab tur, deb tayinlab, qo'raga kirib ketdi-da, ichkaridan yo'g'on shoxlari buralib ketgan katta oq bo'rdoqi qo'yni haydab chiqdi.

Uni ko'rib Aziz qo'lini siltadi:

— Yo'q, yo'q, sen g'irromlik qilyapsan. Buning katta qo'y ekan, mening qo'zim hali kichkina!

Sulton yugurgilab kelib uning qo'lidan ushlab oldi.

— Qo'rqma! Bu qo'y suzisha olmaydi, qari qo'y-ku, ko'rmayapsanmi?

Rostdan ham qo'y sekin burilib chetga keta boshladi. Urishgisi kelmas edi.

"Sulton to'g'ri aytyapti shekilli, — deb o'yladi Aziz. — Shoxli qo'zim hammasini yengdi. Kim biladi, manovi qari qo'yni ham yengsa kerak. Urishtirib ko'ray-chi".

U qo'zisini qo'y tomonga qaratib, qichqirdi:

— Qani, ha, suz uni, qo'zim! Suz, suz!

Qo'zi oq qo'y tomon otilib, biqiniga bir necha marta kalla qo'ydi.

Qari qo'y dastlab unga parvo qilmadi. Keyin jahli chiqib, qontalash ko'zlarini qo'zi tomon tikib, uning kelishiga yo'g'on shoxli kallasini ro'para qildi.

Qo'zi ortiga tisarilib turib, bir sakradi, qo'yning naq qayrilma shoxlarini mo'ljallab kalla urdi.

Buni qarang, qo'zining ingichka mo'gizi qo'yning burama shoxlari orasiga kirib, chalmashib qoldi. Raqiblar harchand urinishmasin, ayrilishning iloji bo'lmadi, shoxlar bir-biriga mahkam ilashib qolgandi.

Qari qo'y endi chinakamiga g'azabiga mindi. Bolalar yordamga yugurib yetib borgunlaricha bo'lmay, mo'gizli qo'zini havoga ko'tarib, bir-ikki qattiq siltalab yubordi. "Qars!" etgan tovush eshitilib, qo'zi bir tomonga uchib tushdi.

Aziz shoxli qo'zisining yoniga chopib yetib borib qarasaki, qo'zi qonga belanib yotibdi, shoxlari bo'lsa yo'q.

Aziz yig'lab yubordi, oq qo'yni ham, uning egasi Sultonni ham rosa so'kib urishdi — biroq nima foyda bor deysiz?!

Noiloj yarador qo'zini olib o'tovga jo'nadi.

Ko'zlarida yosh bilan hiqillab, otasiga arz qilgan edi, u:

— Bunga o'zing aybdorsan, o'g'lim, — dedi. — Qo'zichoqni taltaytirib yuborish kerak emasdi. Tag'in suzishni o'rgatganingni qara. Bir kuni borib, o'zingni ham suzib mayib qilishi hech gap emasdi. Yig'lama. Shu erkatoying shoxidan qutulganiga suyunsa ham bo'ladi. Endi u urishmaydi. Tinchgina yuradi, shunisi tuzuk.

Onasi o'tovdan chiqib, qo'zini qo'liga oldi. Ertagayoq uni podaga qo'shib qo'yishini aytdi.

— Suruv ichida tezroq tuzaladi. Ammo endi qaytib suzishmaydigan bo'ladi.

Otasi Azizning yoniga kelib, yelkasiga qo'lini qo'ydi.

— Endi ishni boshlaymiz, o'g'lim. Bugun podani yangi yaylovga haydaymiz. Sening qo'zilaring ham bemalol bora oladimi? Cho'chiyapsanmi?

— Yo'q, — dedi Aziz. — Cho'chimayman. Endi ularga rosayam yaxshi qarayman.

SHOXIDAN AYRILGAN SUZONG'ICH

Ajablanmang, do'stlar. Kitobimning ikkinchi qismi chindan ham jajjigina ingliz qizi Viktoriyaga bag'ishlanadi. Bu bejiz emas.

Gap shundaki, "Progress" nashriyoti "Shoxli qo'zichoq" deb nomlangan kitobchamni dunyoning bir qancha tillarida nashr etdi. Keyinchalik, 1974-yilning aprelida nashriyot orqali menga shunday bir xat keldi.

"Qadrli janob Beyshenaliyev! Menga "Shoxli qo'zichoq" kitobi juda yoqdi. Shoxidan ayrilgan qo'zichoqni yaxshi ko'rib qoldim. Siz tag'in rosa yaxshi kitoblar yozasiz, deb ishonaman. O'sha qo'zi haqida ham yana yozsangiz-chi?"

Kitobingizdagi rasmlar ham juda ajoyib, chiroyli ekan.

Men hali kichkinaman, yozishni bilmayman. Otam bilan onamga aytib turib yozdirdim. Ular menga xatni o'qib berishdi. Men ularni maqtadim.

Viktoriya Smit, to'rt yoshda.

Saut-Krayden, Angliya".

Viktoriyaning maktubi men uchun sira kutilmagan narsa edi! Shoshib qoldim. Chet elliklar-ku, avval ham xat yozib, "Shoxli qo'zichoq"qa munosabat bildirishgan. Qirg'izistonning go'zal tabiati, ajoyib odamlari to'g'risida kitob o'qish naqadar maroqli ekanini izhor qilishgan edi. Ammo buni qarang: to'rt yashar ingliz qizchasi kitobingizning davomini yozing, deb qistayapti!

Men tez orada javob xati bitolmadim. O'n yilcha tanaffusdan so'ng kitobning davomini yozish qanday bo'larkin? Aziz degan bolakay haqida tag'in nimani yozaman? Ha, bu o'sha, shoxli qo'zini yaxshi boqaman deb taltaytirib yuborgan, duch kelganni suzishga o'rgatgan, oxirida shoxsiz qolishiga sabab bo'lgan bola...

Men baland tog' yaylovlarida sayohat qilishni yaxshi ko'raman. Bu joylarda behisob suruvlar boqiladi. Umrini poda ortida yurib o'tkazgan, o'z ishining piri bo'lib ketgan keksa cho'ponlardan "qo'zining mo'gizlari singan bo'lsa, tag'in o'sib chiqadimi

yo yo'qmi", deb so'radim. Cho'ponlar menga uzil-kesil: "aytish qiyin, — deb javob berishdi, — birda o'sib chiqadi, birda yo'q..."

Albatta, gap bunda emas. Gap yangi kitobni qanday yozishda. Axir u "Shoxli qo'zichoq"dan yomon bo'lmasligi kerak. Undagi qahramonlar ham samimiy, quvnab yayray oladigan, alam-iztiroblar chekishdan o'zini olib qochmaydigan, haqiqiy odamlarday bo'lishsin. Ularning hayoti yosh bolalarni ham, kattalarni ham hayajonlantira olsin. Buning o'zi bo'ladimi?

Men Viktoriyaning taklifini ko'p o'ylab yurdim. Axiyri, oradan to'rt oylar o'tib, qizchaga tag'in o'sha, shoxsiz qolgan qo'zi haqida bir qissa bitishim mumkinligini aytib, uning roziligini so'radim, javob xati yozdim.

Viktoriya tezda quvonch bilan javob qaytardi.

O'shandan beri xat olishib turamiz. Avvallari qizaloq xat hoshiyasiga qo'g'irchoq, quyonlarning rasmini chizib, oxiriga bosma harflar bilan ismini yozib yurdi. Keyin o'zi ixcham xatlar yozishni o'rganib oldi. Hozir u o'zining fotorasmlarini va chizgan suratlarini yuboradi. Endi Viktoriya o'qituvchi ota-onasi haqida, 12 yoshli akasi Patrik haqida yozadi. U meni endi burungiday "janob" deb emas, "amaki" deb ataydi. Xaritadan Qirg'izistonni, men yashaydigan Bishkek shahrini topganini ham yozibdi.

Viktoriya va'da qilingan kitobni kutar edi.

Kitobni bir amallab yozib bitirdim. Bu aynan 1974-yil tugab, 1975-yil kirgan kuni ro'y berdi.

Va'da qilganimday, kitobni Viktoriya Smitga bag'ishlayman. Axir u "Shoxli qo'zichoq"ni davom ettirishni so'ramaganda, men "Shoxidan ayrilgan qo'zichoq"ni yozmagan bo'lar edim-da.

Muallif

QISH BOLASI

Paxtalik to'p, qalin tumoq, jun piyma kiyib, yum-yumaloq bo'lib qolgan Azizni ko'rsangiz... Qiyofasiga qaraganda, oppoq qahraton qish uchun ataylab tug'ilganday, naq ayoz bolasi deguday. Chindan ham Azizga sovuq o'tmaydi. Uning porillagan chaqnoq ko'zidan, qirmizi yanoqlaridan qahraton unga pisand emasligini ko'rishingiz mumkin.

Otasi, onasi va Aziz qo'ra oldidagi maydonchaga yoqqan qorni kurab to'dalashgan edi, uyilib oppoq tepacha paydo bo'ldi. Mana endi Aziz shu tepalik ustiga chiqib olganicha tevarakka qarab turibdi.

"O'h-ho'! Atrof butkul oppoq! Biri biridan katta tepaliklar. Anov qir, Aziz turgan tepachadan qancha katta-yu! Hov naridagi cho'zilib ketgan adirlar esa qirdan ham ulkan. Olisdagi tog' adirlardan ham haybatli. O'sha yoqlarda tog'lar ortida nima bor ekan? Osmon, oy, yulduzlar, quyosh bor. Nega Aziz haligadovur o'sha tog' qoyalariga chiqqan emas-a? Nimaga oy-yulduzlarga yaqtin borolmasdan, bor-yo'g'i bir kichkina qor tepacha ustida o'ylanib turibdi?"

Aziz o'zidan o'zi xijolat bo'lib ketadi. Jahd bilan yer tepgan edi, qor g'ichirladi.

Tepacha ustidagi bolaning ko'zlari atrofga mahliyo bo'lib boqadi.

Aziz qo'ylar orasida uzoq kezdi. Xas-xashaklarni qorga qo'shib yamlayotgan har bir qo'zini ko'zdan o'tkazdi. Yozda otasi yetilgan bo'rdoqilarni go'shtga topshirib, endi og'zi ko'kka tekkan uvoqqina qo'zilarni olgani yodingizdadir. Mana endi ularning ham junlari dag'allashib, tuzukkina to'qliga aylangan mahali. Ayniqsa, kuzda ularning ang'izda boqilgani koni foyda bo'ldi — qo'zichoqlar et qo'yib, tanasi yo'g'onlashdi. Endi qishning sovug'i ularga kor qilmaydi.

Bu yerda, qish yaylog'ida eng durkun, semiz qo'zilar o'tlayapti. Ular sovuqdan qo'rqmaydi, oyoq ostidagi o't-o'lan yemish

o‘rniga o‘taveradi. Oriq-tirriq qo‘zilarni esa otasi iliqqina qo‘rada qoldirgan, ularga Azizning onasi qaraydi.

Azizning o‘zi qishni uyda — onasiga ko‘maklashib o‘tkazyapti. Xohlasa, mana shunday, otasining oldiga keladi. Eh attang, suzong‘ich qo‘zining shoxidan ayrilgani chatoq bo‘ldi-da, bo‘lmasa mana shunaqa qilib bo‘shashib qo‘zilarni oralab yurarmidi. Qo‘zisi avvalgiday shoxli bo‘lganda mana bu g‘imirlagan to‘qlilarni bir chetdan tirqiratib quvalatib, otasini “qo‘y-hoy” dedirib quvnab yurardiku-ya. Otasining po‘pisasiga qaramay qo‘zisini ergashtirib qayoqlarga bormas edi!

Azizning qo‘zisi shu to‘qlilarga tengdosh. Ammo u bular kabi taltaygan emas. U hammasidan chiroyli, hammasidan kuchli. Shoxli qo‘zining har qanday qo‘yni nazar-pisand qilmay irg‘ishlab suza berishi, tuyoqlari bilan yer tepib olishuvga chaqirib pishqirishlari bu to‘qlilarning yodidan chiqmagandir hali.

Endi bo‘lsa u sho‘rlikning mo‘gizlari singan, endi u ham boshqalar qatori o‘tlab yurishga majbur.

Iye, qo‘zisi qani? Berkinib olganmi yo?

Qor yopingan tog‘lar, daralar, vodiylar sukunat og‘ushida. Uni hamma narsa — olis tog‘ tizmalaridan tortib, o‘zi ming martalab ko‘rgan manovi qo‘raning tomlariga qadar — hayratga soladi, yuragini jo‘shtiradi. Tevarakda yastanib yotgan dunyo naqadar ulkan, bepoyon!.. Odam bolasi esa bu yerda — tog‘lar bilan yonma-yon turarkan, qanchalar ushoq, ojizday...

Yo‘q, undaymas. Odamlar ota-onasi — kichkina emas-ku. Ular mana shu bepoyon zaminda, mana shu ulkan osmon ostida yashaydi. Ular kuchli va shijoatli. Axir ular yerdagina emas, afsonadagi devlar kabi tog‘larda ham yura oladi. Odamlar baland tog‘ yonalarida suruv-suruv mol, qo‘y boqishadi.

Aziz o‘zida yo‘q xursand bo‘lib ketdi. U kichkina tepaga ustiga chiqib olganiga xuddi haykalga o‘xshab mag‘rur qotgan. Bugun havo ochiq, shamol ham yo‘q. Bunaqa kunlari otasi, odatda, qo‘ylar suruvini qor siyrak yoqqan o‘ngirlarga yoyadi. Qo‘ra yonida esa kasal va nimjon qo‘zilargina qoladi. Ularga yorma berishadi, to‘yimli ozuqalar bilan boqishadi. Suzong‘ich qo‘zi endi ular orasida yo‘q. Hov o‘sha suzishib, shoxidan ayrilgandan

boshlab otasi uni yaylovga chiqadigan qo'zilarga qo'shib qo'ydi, "Bo'ldi, endi o'zi ovqatini topib yeyishni o'rgansin", dedi.

Azizning yodiga o'tgan yilning yozi tushdi. O'shanda u cho'ldagi yaylovdan oriq, nimjon, ammo mo'gizlari chiqa boshlagan bo'ychangina bir qo'zichoqni bu yoqlarga olib kelgan edi. Bolakay uni faqat yorma berib boqdi, tinimsiz erkalab o'ynatdi, suzishni o'rgatdi, boshqa qo'zilarga gij-gijladi. Mo'gizli qo'zi ham ularni tizzalab yiqilib qolgunlaricha suzadigan bo'ldi.

Erkatoy qo'zi uning buyruqlariga ko'ra itlarni qo'rqitib quvlagani, hatto odamlarga tashlanganini aytmaysizmi! Tuyoqchalari bilan tepinib, quloqlarini chimirganicha kallasini vajohat bilan silkib turishlari-chi!

Aziz oxiri Sultonning qari qo'chqori bilan urishtirib qo'zisining mo'gizlari sinib, kallasi qonaganini, shundan so'ng otasining qat'iy qaroriga ko'nganlarini esladi. "Mayli, meni izza qildi, uni deb uyalib qoldim. Endi boshqa qo'ylarga qo'shib, o'tlashni o'rgansin", degandi o'shanda. Ammo nachora, kunlar o'tgani sayin "shoxsiz qolgan" qo'zichog'ini sog'inar, mayin junlarini silagisi, tag'in ortidan ergashtirib yurgisi kelardi.

"Qo'y endi, o'g'lim. O'zingimi yo boshqa birovnimi suzib mayib qilmasaydi deb cho'chir edim. Bo'lar ish bo'ldi. Tinch yurishni ham o'rgansin", deganida otasiga indayolmay qoluvdi-da.

Bolaning ichi ezilib qiynalganini ko'rib onasi xafa bo'ldi.

— Ey, bo'talog'im, o'zing shoshding-da. Qo'zining boshidagi mo'gizi hali yumshoq, mo'rt edi. Bu yilga kelib o'sar, rostakam shoxga aylanardi. Ana o'shanda o'rtaga solsang, Sultonning qora qo'chqorini dumalatib tashlardi. Bekorga shoxidan ajralgani qoldi.

Aziz bunga o'shanda aqli yetmaganiga o'kinib, do'rdoq lablarini tishladi. Eh, o'shanda otasi yo onasidan so'rasa bo'larkan! So'zsiz qaytarishardi, "shoshmay tur", deyishardi.

— Oyi... gunoh menda ekan, — deb o'pkasi to'liqdi bolaning.

— Qo'y, o'g'lim. Bo'lar ish bo'ldi. Men uyni yig'ishtirib, kasal qo'ylarga qarayman. Sen otangdan xabar ol-chi.

Aziz o'rnidan turdi. Boshi g'urillab, xayolan qo'zisi bilan gaplashar edi. "Qo'zim, sen aybdor emassan. Mo'gizingdan mening shoshqaloqligimdan ajrabsan. Hozir oldingga yetib boraman,

ko'raman seni. Yaylovda o'tlashga o'rgandingmi yo yo'qmi... Kechir meni".

Qo'zisini kasal to'qlilar orasidan topolmagan Aziz yayloqqa yo'l oldi. Otasini qidirib yo'l bosarkan, chor-atrofning go'zalligi uni alaxsitdi. Otliq otasini, yoyilgan qo'ylarni qir ortida topa olmadi. Aftidan, sovuq shamoldan panaroq deb dara bag'riga kirishganga o'xshaydi. Aziz qordan enib, qo'ylarning yangi bosgan izi bilan yo'lga tushgan ham ediki, shu paytda qor bosgan mudroq yaylov tinchini allaqanday gulduros tovush buzib yubordi. Samolyot bo'lsamikin, deya Aziz boshini orqaga tashlab ko'kka tikildi. Osmonda samolyot tugul, burgut ham, quzg'un-puzg'un ham ko'rinmaydi. Boyagi gulduragan tovush esa tobora yaqinlashib, tog'dagi qish osudaligini uzib gumburlar, oyoq osti bilinar-bilinmas titrar edi.

Aziz o'zini yo'qotib, otasi yurgan yaylovga shoxsiz qolgan qo'zichoqni izlab borayotganini ham tamom unutdi. "Bu qanaqa shovqin bo'lsaykin? Tobora yaqin kelayapti-ya?" deb o'ylar edi har yoqqa alanglab. Adir adog'idagi yo'ldan ko'm-ko'k tutun buruqsatib, traktor chiqib keldi. Aziz traktorga tirkalgan qora uyday keladigan yukni ham, kabina ichidagi kishining yuzini ham aniq-tiniq ko'rdi. Traktor toylangan pichan yuklangan tirkamnini tortib ketayotgan ekan.

Aziz telpagini qo'liga olib silkitib,

"Amaki-i! Amaki-i!" — deya shodon qiyqirdi.

Traktor yo'ldan chetga chiqib, yaylov o'rtasidan ichkarilay boshladi. Uning ortidan keng bir en bo'ylab qor bosilib qolar edi. Bola naq kindigidan keladigan qor ichida urinib-surinib traktor tomonga qarab chopdi.

Traktorchi ham uni ko'rib qo'rqib ketdi. Qor qo'ynida ko'milib-netib qolib ketmasin tag'in, deya traktorni bola tomonga burarkan:

— Hey bola! — deb qattiq qichqirdi. — Shoshma, to'xta o'sha joyingda! Hozir oldingga yetib boraman.

Qalin qor kechib oshiqar ekan, Aziz shaxdam javob qaytardi:

— Men o'zim borib olaman. To'xtab turing!

— Bo'pti! Ikkovimiz teng ilgarilay beramiz! Qani, ha!

Bir yoqdan traktor, ikkinchi yoqdan bola — har ikkovi ham qorga bota-bota yaqinlashib yo'l bosishdi.

— Obbo azamat-ey, charchaganing yo'qmi? — deya qorga belanganiga qaramay olg'a intilgan, telpagi qo'lida, yuzlari bo'g'riqqan bolaga traktorchi. — Orqadagi chanadagi yuk ustiga tarmashib chiqib olasanmi?

— Chiqaman, amaki.

Traktor yurishni sekinlatdi. Aziz pichan ustiga chiqib, o'tirib oldi.

— Amaki, pichanni qayoqqa olib boramiz?

Traktorchining og'zi-yu mo'ylovlari qimirladi. Chamasi, u nimadir dedi-yu, traktorning shovqinida Aziz uqmadi. Traktorchi bor ovozini qo'yib qichqirdi:

— Sulton deganni bilasanmi?

— Ha.

— Rais o'shaning otasi qo'y boqayotgan qo'raga olib bor, deb tayinladi.

— Bizga-chi?

Traktorchi darrov javob bera olmay taraddudlanib qoldi.

— Sizlarda pichan ham, yem ham ko'p ekan. Otang ishning ko'zini biladigan, puxta cho'pon. Yanagi safar sizlargayam opkelaman.

Traktorchining otasini maqtagani Azizga yoqdi.

— Yanagi safar deganingiz qachon? Rostmi?

— Rost. Otangga salom ayt. Mo'ylovli traktorchi desang, o'zi biladi.

— Bo'pti, men tushaymi endi?

— Xohlasang tushma, aylanib kelasan.

"Men Sultonlarnikiga bormayman. Uning qari qo'chqori mening qo'zimning shoxini sindirgan", deb yuborishiga sal qoldi Azizning. Boraymi, bormaymi? Traktor sudrab borayotgan haybatli yukning tepasiga chiqib olgan emasmi, tushgisi kelmadi. Uzoqda o'zlarining tuxumday bo'lib ko'ringan uylari, qizg'imtir qo'ralari, qo'ra ichida kasal qo'zilarga yem solayotgan onasi... so'ng o'ng tomon qirning ichki bag'rida qo'y yoyib yurgan otasi — hamma ko'rinyapti unga. Qiziq, ular nega bu yoqqa qarashmadi? Ha, ularga traktor bilan Sultonlarning qo'rasi tomonga bora-

yotgan yuk bilan nimayam ishi bor? Eh, qarashganda uni ko'rishardi. Qichqirsa-chi? Yo'q, uyat bo'ladi.

Shu orada qaydan kelganini ko'rmay qolibdi — anovi Sulton ixrab-sixrab yuk ortilgan qoplar chetini changallaganicha uning yoniga chiqib o'tirib oldi. Chamasi, Aziz onasi, keyin otasi tomonga qarab alaxsib, uning kelganini ko'rmay qolganga o'xshaydi. Tanish traktorchiga indamang, degan shekilli.

— Iya, azamat, sen nima, bizlarga yem opkelyapsanmi? — deya Sulton yumaloq qalpog'ini ensasiga surib, paxtalik shimini baland ko'tardi-da, katta yigitlarday Azizga qo'l uzatib yoniga cho'kkaladi.

— Ha, — deb Aziz uning qo'lini qisib qattiq silkitdi. Sulton sal bo'lmasa yiqilayozdi.

— Eh-he! Qo'zingdan o'zing kuchliga o'xshaysan. Shoxlaring singan edi-ku, jim yurmaysizlarmi endi?

Azizga Sultonning so'zlari og'ir botdi. Unga engashib:

— Hov! Sen maqtanma, — dedi, — o'shanda mening qo'zimning shoxlari hali qotmagan ekan, sening qari qo'chqoring bilan bekor urishtiribman, bildingmi?

— Eh-he, zo'r bo'lsang, bor, ana, o'sha qo'zingning shoxini boshqatdan chiqarib, qotganida opke, yana urishtiramiz. G'irrom ekansan-ku, — deb Sulton eng balanddagi qopga teskari qarab yonboshlab yotvoldi.

Shovqin orasida aniq eshitmasa ham, bolalarning tortishayotganini fahmlagan traktorchi Azizning so'zini bo'lib:

— Hey, jo'jaxo'rozlar! — deb baqirdi. — Jim o'tirib ketinglar, bo'lmasa ikkovingni ham...

Sulton bo'lsa traktorchiga ko'zini qisib, "ko'rdingizmi, bu shunaqa" deganday ishora qildi.

Azizga xuddi traktorchi Sultonga yon bosganday tuyildi. Bo'lmasa, nega Aziz gapirganida so'zini eshitmay shovqin soladi? Aziz Sultonga bir o'qrayib qaradi-da, otasi qo'ylarini yoygan yalanglik uzoqlashishgan mahal lip etib sakrab tushib qoldi.

— Hoy, Aziz, qayerdasan?! — deya Sulton yig'lamsirab baqirdi. Tag'in, biron joyi mayib bo'lsa, baloga qolmayin degan o'yda.

Sultonning qattiq baqirganidan xavotirlanib, mo'ylovli traktorchi qattiq bir yerda traktorni to'xtatib, yerga tushdi-da, orqaga qarab chopdi.

Bola qushday yengil, qor esa yumshoq edi, Azizga hech narsa qilgani yo'q. Uyilib yotgan qor ustiga tushgan Aziz o'rnidan irg'ib turib, traktor va chanalar izi bo'ylab yugura ketdi. Traktorchi amaki unga yetvolishiga ko'zi yetmay to'xtab qoldi. Yuk ustida hurpayganicha aybdorga o'xshab ko'zini pirpiratib o'tirgan Sultonga bir olayib qarab, so'ng yana Azizning ortidan tikildi. Bolaning otasi hov narigi do'nglikda shu yoqqa tikilib turganday. Ot boshini burib, bolasi qarshisiga yo'rtib kelayotgan cho'ponga qarab, traktorchi amaki moy yuqi qo'lini siltab:

— Hoy, Bakir! — deb do'rilladi. — O'g'ling polvon, azamat bola ekan!

AMAN SASPAYEV

Aman Saspayev — 1929-yilda tug'ilgan. "Bir chimdim tuz", Murod", "Mayda to'lqinlar", "Semrug'", "Mo'jiza qushi", "Yangi uy tongi" singari kitoblari chop etilgan.

BIR QUTI GUGURT

(hikoya)

Choy o'rniga yalpiz qaynatib ichish jonga tegib ketdi. Suvning o'zini ichay desam, buvimning jon-poni chiqib, "Qo'y qayoqdagi qilig'ingni, suvni faqat kasal kishigina ichadi!" deb turib oladi.

Kunora buvim ikkalamiz yalpiz terishga chiqamiz, yalpiz terish maza. Bedapoya chetidan o'tgan ariq bo'yida yaproqli otquloq, qilqamish, qo'ziquloq singari o'simliklar uzun-qisqa bo'lib o'sib turadi. Bo'y tortgan giyohlar boshida simday o'ralib chirmovuq selkillaydi. Uning oppoq gullari har bo'g'inida ochilgan. Bundan tashqari mayda gulli anvoyi o'simliklar qulf urib naq suv labida yashil bargchalari sichqonning qulog'idekkina, tupi qizg'imtil yalpizlar suvda titrab boshi qiltayib ko'rinib qoladi. Uning yaproqlarini bittalab terish koni azob, shuning uchun yulib olamiz-da, yaproqlarini sidirib bo'lib, novdasini tashlab yuboramiz. Keyin, yaproqlarini oftobda obdon quritib, "choy" tayyorlaymiz.

— O'zingga shukur Olloh, deydi enam, yam-yashil choyni ho'plab. — Qanday baxtli odamlar sut qo'shilgan pamil choyni ichishar ekan, ko'ngli qonib...

Yalpiz choy ko'nglimga urganidan bir kuni yig'lab yubordim. Buvim yalinib, meni yupatishga tushdi:

— Voy qurib ketmagur bolam-ey, quruq suvning o'zi ichingni shilib yuboradi-ku. Menga qara, sen Luqmon Hakim deganni eshitganmisan?

Men yo'q deb bosh chayqadim.

— Qadim zamonda bir Luqmon degan avliyo kishi o'tgan ekan. Yolg'iz o'g'li bor ekan. Bola ulg'aygan chog'ida yurak og'rig'iga duchor bo'pti. Kasal bo'lib erta-yu kech to'shakda yotarkan. Eshitayapsanmi? Otasi ko'z qarog'iday bo'lgan bolasini tuzataman deb, dunyoda nimaiki dori bo'lsa berib ko'ribdi. Oxiri, hech narsa shifo bo'lmay, bola olamdan o'tibdi. O'shanda, Luqmon hakim, bolamni olib ketgan kasallik nima ekan o'zi, ko'zim bilan ko'ray, deb bolasining yuragini yorib ko'ribdi. Yo tavba, qadimgilar juda sinchkov bo'lishgan-da. Qarasa, bolasining yuragidan sadafday oppoq bir narsa chiqibdi. Luqmon hakim u narsani ariq bo'yiga olib borib, yuvib ko'rib, yalpiz o'tning ustiga qo'yibdi. O'zi yuz-qo'lini yuvib bo'lib qarasa, boyagi oq narsa erib ketibdi. Luqmon hakim: "E attang! Yalpiz bersam, yolg'iz bolam tirik qolar ekan!" — deb afsuslanibdi.

Buvimning mana shu jaydari ertagini eshitib, yana yalpiz "choy"dan icha boshladim.

Bir kuni buvim ikkalamiz yana yalpiz terishga bedapoyaga bordik. Ariq bo'yidan bir to'da yalpizni terib, kungayga o'tirib, yaproqlarini shoshmasdan blishga tushdik. Ketar mahalimiz buvim cho'ntagida shiqirlagan bir nimani paypaslab:

— Voy esim qursin, gugurtni yonimga solib kelaveribman, cho'ntagimda ekan, — deb qoldi. Birov-yarim ilib ketmasin, deb o'choqboshidan olib, qo'limga oluvdim.

— Buvi, — dedim men eshitganimni aytmoqchi bo'lib, — qo'shni xotinni o'g'ri deyishyapti. Jamila opaning tuxumlarini o'g'irlagan emish.

— Rostdanmi? — deya buvim menga ishonqiramay qarab qo'ydi. — Jamilaxonning o'zi yerga kirsin, bultur yozda Bo'kayni bir qaynatim choyimni o'g'irlading, deb nima ko'ylarga solmagan. Qo'shni xotin uning tuxumini o'g'irlay oladimi? O'g'irlatib bo'pti Jamilaxon. — Buvim cho'ntagidagi gugurtni yana paypaslab ko'rib, o'rnidan turdi.

Bedapoya qo'rig'idan o'tin olib, uyga yo'l soldik. Buvimning cho'ntagini qayta-qayta paypaslab ko'rgani menga tog'amning bodroq berganini eslatdi. Ular bizdan olisda yashashadi. Bir necha

kun avval tog'am bir pud tariqni yayov ko'tarib olib kelib, bozorda sotgandi. O'shanda qatiq hidi kelib turgan yog'li qora xurjuniga tuz solib turib, indamasdan buvimning oldiga bir quti gugurtni tashlagandi. Bolalarim yo'l qaraydi, deb olgan to'rtta bodrog'ining bittasini esa menga tutgan. Bodroqni-ku, o'sha ondayoq yeb qo'yganman, ammo gugurt haligacha ishlatilib, sob bo'lay deb qolgandi.

Darvozamiz oldida bir to'p xotin-xalaj, bolalar to'dalashib turganini uzoqdan ko'rdik. Faqirchilik kishini tezfe'l qilib qo'yarkan. Buvim to'bilg'i hassasini yerga to'qillatib urib, ildamladi. Men ham kichkina qora tayog'imni sudraganimcha keyinda qolmay deb ketib boryapman. Bir mahal qo'shni xotin qo'liga obkashni olib, to'da ichiga yugurgilab kirib, birovni urib yuborganday bo'ldi. O'sha mahal "Dod!" degan achchiq qichqiriq eshitildi. Bu onamning ovozi edi!

Onamning chinqirganini eshitganimda, ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi. To'daga qarab yugurdim. Yetib kelsam, onam yiqilib yotibdi, chakkasi qon.

— Ona-a! — deganimni bilaman, baqirgan ko'yi, onamning ustiga yiqilib tushibman.

Buvim harsillab yetib kelganida qo'shni xotin yengini shimarib olib yana urmoqchi bo'lib turgan edi. O'ziyam biqqi, semiz xotin edi. U o'rtaga tushgan odamlarni pisand qilmay yulqinib, ovozi boricha baqirib, qarg'ab yurgan edi. Men o'rnimdan turib yerda yotgan toshni oldim-da, semiz xotinning qorniga otdim. U: "Voy juvonimarg!" deb baqirib, ikkala qo'li bilan qornini ushlab o'tirib qoldi. So'ng yerga ag'anab, baqirib yig'lay boshladi. Men chindan ham qattiq urganimga suyunib, ichimda: "hozir o'lib keta qolsaydi", deb tilar edim. Onam hamon voy-voylab yig'lab, chakkasidan oqqan qonni artar edi. Buvim bo'lsa, "voy o'lay" deb nima qilarini bilmay garang. Nima ish bo'lganini tushuna olmadik. To'plangan xotinlarning "gugurt, gugurt" degan so'zlari qulog'imga kirdi.

Semiz xotin odamlar qo'ltig'idan suyasa ham turmay, meni yerdan olib go'rga tiqib qarg'ar edi. Oxirida g'alati tovushda ingillab yig'lashga tushdi.

Shu tobda osmondan tushganday bir gomindan politsiyachisi kelib qoldi. Men hech narsadan cho'chimadim.

— Nima chatak?!

— Hech gap yo'q, aylanayin, — deya buvim nima gapligini bilmasa ham tushuntira boshladi. — Manovi tentak onasining yonini olaman deb... Hech nimayam bo'lgani yo'q... O'zining qorni og'rib turgan bo'lsa kerak, betingdan buzilgurning...

Semiz xotin bo'lsa, uni ko'rib adashib qolgan onasini topgan boladay ho'ngillab yig'lashga tushdi. So'ng bizlar do'pposlaganimizni, ko'p kaltak yeb, joyidan turolmay yotganini aytib, chaqdi.

Darrov buvim, onam va meni gomindan soqchilik mahkamasiga olib ketishdi.

— Tul xotin Oyshani urgan sizlarmi? — deya sarg'ish qayish osgan tergovchi so'roqqa tutdi. Uning og'zi ham qayishday qalin, arang ochilar edi. Qani menda ixtiyor bo'lsa, buni ham tosh bilan urib dumalatar edim.

— Ha, aylanay, bizmiz... Manovi tentak bola onasining yonini olaman deb sinchaloqday tosh bilan... Qattiq ham tekkani yo'q, — deya javob berdi buvim. — Qarang, manovi kelinimning boshiga obkash bilan urib yorganini...

— Yum og'zingni! — deya baqirdi tergovchi stolni shapalog'i bilan bir urib. — Sizlar uni tosh bilan urganlaringdan keyin u tek turishi kerakmidi, — deb bo'kirganida, boyaqish buvim, rangi oqarib, qo'rqib ketdi. U ish bunaqa bo'lib ketadi, deb o'ylagan emas ekan. Qo'rqqanimizdan hech birimiz so'zlay olmay qoldik. Onam yig'lab yubordi.

— Jamoat tinchini buzib, kishini urgani uchun ona-bolani olib borib, qamab qo'yinglar, kampir ketsin! — deya bizni haydab kelgan mirshabga topshirdi-da, qattiq kekirib, tergovchi ketdi.

Xotinlar qamaladigan qorong'i turmaning tozaroq joyidan o'rin olgandan so'nggina onam nima bo'lganini aytib berdi.

— Sizlar yalpizga ketganlaringdan keyin hovliga chiqib, qaytib kelayotsam, Oysha qurib ketkur cho'ntagini tutamlab, bizning tashqi uydan chiqib ketayotgan ekan. Biron nimani o'mardi, deb

mahkam yopishdim. Shundan keyin u baqir-chaqir qilib urisha boshladi. Ko'zimning qiri nimchasining cho'ntagidagi gugurtga tushdi. Shu payt u meni orqaga itarib yuborib, eshikka qarab yugurdi. Darrov o'rnimdan turib, orqasidan quvib chiqdim-da, tarmashdim. U nimchasidan gugurtni olib, qo'raning naryog'iga irg'itib yubordi, qaytib kelib, men bilan battar urishishga tushdi. Birpasda odam to'plandi. Nimasini aytib tushuntirasan? Bir mahal qarasam, obkashni olib, xezlab kelyapti. Qochguncha bo'lmay, taraqlab boshimga tushdi...

— O'sha gugurt qani? — deb so'radim.

Onam kamzuli cho'ntagidan gugurtni oldi. Shaldiratsak, ichida cho'pi yo'q — eski gugurtning qutisi ekan.

Bu tashqi uydagi ustunga osilgan xalta ichida turgan quti edi.

Boyagi gugurt buvimning cho'ntagida ketganini aytganimda onam chuqur xo'rsinib oldi-da, uzoq jim qoldi.

Avaxtaxonaning burchagidagi yog'och chelakdan chiqayotgan shiptir hididan boshim og'rishga tushdi. Charaqlagan quyosh, to'rg'aylar chuldirab uchgan ko'm-ko'k osmon, cheksiz dalalarni sog'inib... esladim.

— Eh, qurib ketgur bir quti gugurt!

BIR TOTIM TUZ

(Hikoya)

Daryo suvi ikkiga ayrilgan joydagi botqoqlikda o'sgan qamishzorga yaqin uyda yolg'iz bir qirg'iz oilasi hayot kechiradi. Azal-azaldan bu yerda tubjoy uyg'ur dehqonlari yashab kelgandi. Hozir xarsang toshga yondosh qurilgan eski kulbalar xarobasidan tashqari, to'rt uyg'ur oilasining uyi saqlanib qolgan. Uyezd shahri bu yerdan olisroqda joylashganiga qaramay, shaharga qatnaydigan bozorchilar ko'p ham qiynalishmasdi.

Odamlarning aytishiga qaraganda, bir zamonlar issiqko'llik qirg'izlar bu tomonlarga ko'chib kelib, keyin qaytib ketishibdi. O'shalardan biri Kelginboy ismli yigit oilasi bilan bu yerni makon tutib yashab qoladi. Yoshi o'ttizdan oshgan Kelginboy davosi qiyin bo'lmish yuqumli terlama xastaligiga chalinadi. Uning uzoq safarga holi kelmasligini tushungan ayoli Oymoqjon eldan ajrab, erini tuzatib, keyin yurtga qaytmoqni niyat qiladi. Kelginboyning qarindosh-urug'lari yosh oilaning ro'zg'ori-yu kafanligini tayyorlab berib:

— O-o, Oymoqjon! Er deb, uning etagidan tutib qolding. Xor bo'lmagaysan. Ota-bobolarimizning arvohi qo'llab, eringni o'z eliga qo'shgin! — deya qo'l ochib duo qilishadi.

Kelginboyning taqdiri Oymoqjonga topshirilganidan keyin qaynotasi soqoliga tomgan yoshni artib, el-ulusning oldida shunday deydi:

— Yorug' dunyoda ko'rgan yolg'iz bolamni senga omonat qoldiraman! Iloyim, menga o'z yurtimning tuprog'i buyursin. Qarib qolgan chog'imda Xudo eldan ayirmasin. Nabiramni enangning etagiga solib ber, bolam, isi dimog'imdan ketmaydigan bo'lsin...

Chaqalog'ini qaynotasiga tutqazgan Oymoqjonning ko'ziga yosh qalqib chiqdi.

— Manovi tugunchani olib qo'y, — dedi qaynotasi safar oldidan, — bordi-yu, ering og'irlashib qolsa, suvda ezib, og'ziga tomiz. Tuzalib ketsa, qo'liga topshirasan.

Qirg'izlar biri otda, biri piyoda yo'lga tushishdi.

Yuzi sarg'ayib, lablari gezarib, tirik murdaga aylangan Kelginboy yolg'iz jonkuyari Oymoqjoning qo'lida qoldi. Ayol azob-uqubatlarga chidab, bemorning atrofida parvona bo'ldi... Erining boshini quchoqlab, qop-qora ko'zlaridan yosh to'kib, bir necha kun uxlamay chiqdi.

Tashvishli kunlar boshlandi...

Boshidan sochi to'kilib, qoqsuyak bo'lib qolganida Kelginboy biroz o'ziga kelganday bo'ldi, lekin har kuni bir choynak qaynatilgan suv ichib, tomirlari bo'rtib chiqqan ozg'in qo'llariga tikilib

to‘shakda uzoq yotib qoldi. Og‘riqlari ozayib, tomog‘i ta’m sezadigan bo‘lguncha ikki oy o‘tdi. Obdon tuzalib yurtiga ketmoqchi bo‘lganida, kech qolganini angladi: sarhad yopilgandi. Kelginboy qonunga bo‘ysunib, o‘sha daryo ayrilishida to‘rt xonali uy solib, uzoq yillar yashadi.

Oradan o‘ttiz yilga yaqin vaqt o‘tib, Kelginboy keksayib qolganida, uning boshiga og‘ir musibat tushdi.

Gomindanlik zolimlar hukmronlik qilib turgan og‘ir yillarda el orasida terlama kasali tarqaldi. O‘lim-yitim ko‘p bo‘ldi. Ko‘pgina uylarning mo‘risidan tutun chiqmay qoldi. Uyezd shahri atrofidagi tepaliklar qabristonga aylandi. O‘lim ko‘paygani uchun zambarga solingan murdani ikki kishi ko‘tarib chiqib, duch kelgan yerni qazib ko‘ma boshlashdi. Oq kafanlik topilmay qolgani uchun avval choyshablardan foydalanishdi, u ham yetmay qolgach, ba’zilar o‘likni qamishdan to‘qilgan bo‘yraga, boshqa birovlar somonga o‘rab ko‘ma boshlashdi. Bu ofat dinga ham ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Narz-niyoz, ko‘ngil so‘rashlar ham tamoman unutildi!

O‘sha og‘ir yillarda Kelginboy kampirining murdasini ko‘tarib yo‘lga tushdi. Uch kishi — go‘rkov, qo‘shni erkak va cholning o‘zi Oymoqjonni choyshabga o‘rab yerga qo‘yishdi. Qabr ustiga tuproq tortilgach, chol ancha mahalgacha o‘sha joyda qimirlamay unsiz o‘tirdi. Qirq yil bir yostiqqa bosh qo‘ygan ayoli bilan mangu vidolashuv osonmi? Turmush o‘rtog‘ining butkul hayoti cholning ko‘z o‘ngidan birma-bir o‘tdi. Boshqacha aytganda, u kampiri bilangina emas, balki hayotning iliq bag‘ri bilan ham xayrlashganday bo‘ldi.

Chol qabr boshidan turganidan so‘ng etak-yengini qoqib, ko‘z yoshini kafti bilan artib, uyi tomon yurdi.

Qaytib kelgach, xonaning to‘rt burchiga nazar tashlab, qoziqda ilinib turgan kampirining ko‘k ko‘ylagiga nigohi tushdi. “O, Xudoyim! Bu yolg‘onchi dunyoda menday sho‘rlik bormikan? Elni yamlamay yutayotgan terlama nima uchun mendan hazar qilmoqda?” deb o‘yladi chol. Bu sovuq uyda o‘zining yolg‘iz qolganini o‘ylab, boyaqish bo‘zlab yubordi:

— O, Qudratli, omonatingni ol! Meni xor qilma!

Bo'tasi o'lgan tuyagina ana shunday bo'zlaydi.

Agar umid degan narsa bo'lmasa, har qanday kishi ham tushkunlik qurboni bo'lishi turgan gap. Umid va vaqt oldida har qanday qayg'u bilan hasrat ham chekinadi. Kelginboy chol ko'ksini kuydirgan dard-alamni ko'z yoshlari bilan yuvib tashladi: taqdirga tan berib, o'zini-o'zi ovuta boshladi.

Har qanday baxtsiz kishi ham o'zining turmushi borasida o'yga botadi. Kelginboy chol ham o'zining arzimas ro'zg'origa nazar tashlab, uy ichida sochilib yotgan narsalarni yig'ib, eski xurjunga solib qo'ydi. Keyin nimadir yodiga tushgach, namat ustida chordona qurib o'tirib, cho'ntagidan kichik tuguncha oldi-da, uning ipini yecha boshladi. Tuguncha ichida bir hovuch tuz bor edi. Kelginboy bir chimdim tuzni kaftiga solib, unga bir necha marta tilini tegizib, bol tatiganday yutindi. Boshiga qiyinchilik tushgan kezlarda tugunchadagi tuzdan kuch-mador topardi. O'z yerining bir totim tuzi Kelginboy cholning g'am-g'ussalarini tarqatib, uning qalbida yashashga umid uyg'otardi...

* * *

Yigit o'z eliga qayta olmay, begona yurtda yolg'iz oilasi bilan qolgach, Oymoqjon bir qiz va ikki o'g'il tavallud qildi. Ikki farzandini tuproqqa qo'ygan hasratli cholga ermak bo'lsin deb, taqdir uning bir o'g'lini tirik qoldirdi. Bolaning nomi Eshbo'l edi. U uyezd shahrida o'qib, o'qituvchi bo'lganidan keyin boshlang'ich maktabda ishlay boshladi. Lekin uchinchi yili gomindanlik politsiya tomonidan ushlanib, qamoqqa tashlandi. Uning gunohi o'zining ota yurti to'g'risida ikki marta hikoya qilib bergani edi: "Sho'rolar yurtida bolalar Qrim degan joyga borib dam olishadi, bo'yinlariga qizil galstuk taqib yurishadi". Bu yosh o'qituvchining jurnalda ko'rgan suratlardan olgan taassuroti edi. O'sha kezlarda gomindanlik josuslar bunday so'zlarni aytgan kishilar borasida chaqimchilik qilishni tirikchilik usuliga aylantirib olishgandi. Sho'rolar haqidagi "ma'ruzasi"dan keyin besh kun o'tib, zobitlar tunda Eshbo'lni uyg'otishdi.

O‘sha paytlarda mayda elatlarning eng ilmlisi o‘qituvchi edi. Gomindanlik xitoylar bu kasbni uddalay olmagani uchungina, ana shu elat vakili bo‘lmish o‘qituvchilarga maktabda ishlash uchun ruxsat berishga majbur bo‘lardi. “Molingizni boqib, ekiningizni ekib yuravering. Sizlarga maktabning nima keragi bor? Xalq madaniyatsiz ham yashab kelgan!” degan haqoratomuz gaplarni oshkora aytishdan hayiqishmasdi.

O‘qituvchi uchun har qadamda tuzoq bor edi. Hammasi bo‘lmasa ham, ba’zilar bu qopqonga tushib qolardi. Ularning o‘rniga tajribasiz, bilimsiz kishilarni yoki mulla va so‘filarni tayinlashardi. Gomindanchilar xalq savodxonligini oshirishni shu tariqa teskari tushunishardi. O‘qituvchining uyini tunda qurolli kishilar bosibdi, degan gap tarqalsa bas, o‘sha sho‘rlik o‘qituvchi izsiz yo‘qolib ketardi.

Zobitlar kirib kelganida, Kelginboy chol bolasidan tirik ayriladigan fursat yetganini sezib, uni o‘qitgani uchun o‘zini la’natlab, to‘shagi ustida g‘ussaga botib o‘tirardi.

Zobitlar atrofni kalamushday iskab, uydagi bor qog‘ozlarni yig‘ishtirib olishdi. Keyin ofitser qisqa buyruq berdi:

— Tur, kiyin!

Eshbo‘l shoshilmadi. Istar-istamas kiyindi. O‘qituvchiligi tufayli “borsa kelmas”ga ketib borayotganini ichki sezgisi bilan tushunib yetdi. “Hozirgi soatdan boshlab yorug‘ dunyo bilan xayrlashib, ota-onamni qayta ko‘rolmaydigan joyga ketyapman!” deb o‘yladi u. Nima bo‘lsa ham, kiyimlarini kiyib, eshik tomonga yo‘naldi. Ko‘rpadan boshini chiqarib murdaday holsiz yotgan sho‘rlik Oymoqjon dod soldi.

— Eshon! — dedi Kelginboy chol shoshilib, u bolasini shunday erkalatardi. — Ozgina kutib tur!

Hozirgina cho‘chib turgan bechora ayol cholining gapidan ruhlanib, yugurib borib qoqsuyak qo‘llari bilan Eshbo‘lning bo‘yniga osildi. Uyning ichi inson zoti chiday olmas oh-nolaga to‘ldi. Chol teskari qarab, namlangan ko‘zlarini artdi. Eshbo‘l qo‘rqmas, esli yigit edi. Bunday paytda nima qilish kerakligini yaxshi bilardi.

— O'rgilay, enajonim, yig'lamang, jonim omon bo'lsa, qaytib kelaman, — deb onasining yosh yuvib tushayotgan yuz-ko'zidan o'pdi. Sho'rlik ayolning ko'ngli biroz tinchlandi.

— Qo'y, Xudo panohida saqlasin desang, o'g'lingning omonligini tilagin... Haligi tuguncha qayerda? Tuzdan hech ulug' narsa yo'q. Tuz totiganning qaytib kelmog'i bor, — dedi Kelginboy chol soqolini tutamlab. Keyin o'zi borib, yashirib qo'ygan joyidan tugunchani oldi.

— Eshon, — dedi qariya qo'li qaltirab, — mana bu tuzni olib, undan totib yurgin. Ota-bobomizning tanglayi mana shu tuz bilan qotgan. O'z yurtingning tuzi!

Chol bu gaplarni aytib biroz xotirjam bo'ldi. Eshbo'l qayerda bo'lsa ham, bu xosiyatli tuz uni asrab, o'z uyiga qaytarib keladiganday tuyuldi. Yigit ayriliq arafasida otasining eski aqidasini yo'qqa chiqargisi kelmadi. Tuzni qo'liga olganidan so'ng bir chimdimini og'ziga soldi.

Sho'rlik onaning qo'llari hali ham Eshbo'lning bo'ynida edi. Yigit onasining jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarini artib, o'zidan bo'shatdi-da, gomindanchilarning oldiga tushdi. Oyog'ini zo'rg'a ko'tarib ostona hatladi. Uy ichidan bo'zlagan ovozlar anchagacha eshitilib turdi.

Bu voqeadan bir yil o'tib, uyezdga qarashli hamma qishloqlarda yuqumli terlama tarqaldi.

Mana, endi baxtiqaro Kelginboy xastalikdan vafot etgan kampiri Oymoqjonni tuproqqa qo'yib, bo'm-bo'sh uyda yolg'iz qoldi.

Chol xayolga botib o'tirgani uchun kampirining marosimida ishtirok etgan uyg'ur qo'shnisining uyga kirganini sezmadi. Qo'shnisi ham uning o'ziday oqibatli kishi edi.

— Ollohu akbar! — dedi qo'shnisi cho'kka tushib o'tirgach. — O'zingni qo'lga ol, Kelginboy. Xorlik mol-davlatning emas, balki boshning yo'qligida ekanligini yodingdan chiqarma. Xudo xohlasa, Eshbo'lni ko'rish senga nasib qiladi. Dala-dashtda o'sgan bola, omon bo'lsa, falokat arib, kunlarning birida tuyqusdan uyga kirib keladi. Sabr qilib, choyingni ichib, belingni mahkam bog'lab,

yolg'izingning omonligini Xudodan tilab yuraver. Kir-chiring bo'lsa, mening bola-chaqam yuvib berar. O'lganning ortidan o'lib bo'lmaydi. Nasib qilsa, elingga ham borib qo'shilasan.

Yuragi g'ussa bilan limmo-lim to'lgan chol qo'shnisining so'zlarini jimgina tingladi.

Baxtsizlikning ham nihoyasi bo'ladi. Vaqti yetib, u ham o'z erki bilan o'rnini baxtga bo'shatib beradi. Hayotning azaliy sir-asrori ham shunda. Kelginboyning kampiri ko'z yumganidan keyin zamon ham hayratlanarli darajada o'zgarib ketdi. Zulm suyakka borib taqalgach, zolimlarga qarshi kurash boshlandi. Gomindanchilar devor ostiga kirib ketgan ilonday yashirinishdi. Tarixdan ma'lumki, xalqning kuch-qudratini hech qanday qo'rg'on to'sib qololmagan. Oyog'ida yurib, qurol ko'tarishga yaraydiganlarning hammasi ko'chaga chiqdi! Panshaxa va cho'qmor ko'targan xalq zamonaviy qurollar bilan qurollangan Gomindan armiyasining yo'lini to'sib, qurol-aslaha omborlarini egallab, hujum boshladi. Boshlangan harakat tez quloch yoyib, bir oyga yetmay eli aymog'i to'lig'i bilan xalq qo'shini ixtiyoriga o'tdi. Yangi tuzilgan milliy armiya Oltoy, Tarbag'atay tomonlarda ezilib yotgan qardosh xalqlarni ham ozodlikka chiqarish uchun jang olib bordi. Bu voqea yer yuzida fashizm o'chog'i yanchib tashlangan shavkatli qirq beshinchi yilning boshlarida sodir bo'ldi.

Yolg'iz yashasa ham, keyingi hayoti Kelginboy chol uchun juda tez o'tganday tuyuladi. Uning yuragidan qayg'u chekina boshladi. Ko'ksida qotib qolgan dard-alam gomindanchilar bilan qo'shilib ketganday edi.

Shunday yaxshi kunlarning birida Kelginboy chol xursandchilikdan o'zini yo'qotayozdi. Peshin mahali askar kiyimidagi bir yigit uyga kirib keldi.

— Kelginboy oqsoqolning uyi shumi?

— Ha, aylanay, — dedi boyaqish chol o'rnidan qo'zg'alib. Keyingi yillarda hech kim uni shunday so'rab kelmagandi. — Keksalik qursin, bo'tam, sen kimsan?

— Japarov bo'laman.

— Qani, ichkariga kirgin...

Yigit ko'krak cho'ntagidan bir surat chiqarib, cholga ko'rsatdi:

— Taniysizmi?

Sho'rlik chol uni ko'rgan zahoti yosh boladay ho'ngrab yubordi. Bu Eshbo'lning surati edi.

— Yig'lamang, ota. Mayor Kelginboyev Eshbo'l hozir komissar. Gomindanchilarning adabini berib yuribdi. Men shu tomonga kelayotganim uchun mana shu suratni berib, "Otam tirik bo'lsa, suratimni uning qo'liga topshir. Vafot etgan bo'lsa, onam bordir, unga berasan", deb salom aytib yubordi, — dedi Japarov.

Bolasiga bo'lgan sog'inchi tufayli cholning boshini quyuq tuman qoplab yotgan edi, endi xosiyatli bir shamol esib, tumanni tarqatib, uning yuragi tubidagi sog'inchni yuzaga chiqardi. Chol avvallari umidsiz edi, endi ko'ksida umid va ishonch tug'ildi.

— Oqsoqol, — dedi yigit unga tikilib, — xavotir bo'lmang. O'g'lingizning tirik ekaniga quvoning. Men ham Eshbo'l singari gomindanchilar tomonidan qamalganlarning biriman. O'g'lingizga o'xshagan o'n chog'li mahbusning oyoq-qo'liga kishan solib haydab ketishayotganda, bizni qo'riqlab borayotgan uch askarni o'ldirib, kishanlarni yechib tog'ga qochganmiz. Keyin borib qo'zg'olonchilarga qo'shildik. O'sha kundan buyon gomindanchilardan o'ch olyapmiz. Bizning taqdirimiz mana shunday... Endi yaxshi qoling!

Shoshib qolgan chol darhol Japarovning qo'lidan tutdi:

— Ovozingdan aylanay, bolam, uyimdan tuz totib ketgin. Qaytib kelishing oson bo'ladi.

Esankiragan mo'ysafid nimadir yegulik axtarib yurib, savollar bera boshladi:

— Eshon bir kelib-ketsa bo'lmaydimi?

— Hozircha kela olmaydi.

— Qaysi urug'dansan, bolam? Bizning ko'llikka o'xshab turibsan... Tiriklik chog'imda Eshon bir kelib, ko'rinib ketsin, — dedi yigitga non tutib.

Bolasining ko'ngli qattiq og'rishini o'ylab, kampiri to'g'risida og'iz ochmadi:

— Yolg'izimga ota-onang sog'-omon ekan degin...

Keyin yigitni kuzatib chiqdi.

"O, xosiyatli yerimning tuzi, Eshonimni qo'llab, tirik saqlaganing uchun minnatdorman! Qaniydi, o'lganim tirilib, o'chganim qayta yongani rost bo'lsa! O, xosiyatli yerimning tuzi, endi yolg'izimni falokatlardan asragin! Menday sho'rlik mo'ysafidning manglayidagi yulduzi yonib, boshidan qayg'u-hasratning arigani rostmikin? Ko'p yillik umrimning xorlikda o'tgan kunlari unutilarmikan? O, ota yerimning tuzi, yolg'izimni o'z eliga eson-omon qo'shgin!" deya chol yerga tiz cho'kib, ikki qo'li bilan yoqasini ushlab, uzoq nola qildi...

Kelginboy o'rnidan turganidan keyin qayg'usiga sherik bo'lib yurgan qo'shnisi bilan quvonchini baham ko'rgisi kelib, uyg'ur cholning uyi tomon jo'nadi.

* * *

Oradan oylar o'tdi.

Oziq-ovqat, kiyim-kechakka yetishgan elning hayoti o'nglana boshladi. Qora bulutlar yomg'iri tinib, borliq yorishdi. Erkka intilgan oddiy fuqaro qo'liga qurol olib maydonga chiqdi. Bu yo'lda ne-ne er yigitlarning qoni to'kildi. Gomindanchilar mustahkam o'rnashib olgan Jinxi aymog'ida qattiq jang bo'ldi. Milliy armiya xalq ozodligi uchun kurashda bir qadam ham ortiga chekinmadi. Nihoyat Urumchining katta darvozasi ochilib, Jinxi gomindanchilardan tozalandi. O'sha qirg'in-barotda bizning Eshbo'l ham qurbon bo'ldi.

El-yurt ozodligi uchun kurashib, uning chegarasini Jinxiga qadar yetkazgach, o'zi ham o'sha yerda mangu orom topdi. Batalyon o'nlab miltiqlardan o'q otib, komissarni so'nggi yo'lga kuzatib qo'ydi.

O'g'lining halok bo'lgani xabarini eshitgach, jabrdiyda chol esini yo'kotdi. Qo'shnisi yuziga suv sepib o'ziga keltirgach, u ko'rgan kishini tashvishga soladigan ayanchli ahvolda o'rnidan turdi-da:

— Yolg'izim, qulunim! — deb hayqirib yerga quladi.

Bir umr manglayidan sho'ri arimagan bandaning holiga guvoh bo'lganlarning ham ko'ziga yosh keldi. G'am-g'ussadan horigan chol bir kun ichida aql-hushidan ayrildi. Sochi oqarib, yuzko'zi so'lib, avvalgidan battar og'ir ahvolga tushib yotib qoldi. Suyanchig'idan ayrilib qolgan qayg'uli qariyaning ko'rgan kuni qursin!

Ertasi uyg'ur qo'shnisi musofir cholni o'zining uyiga kiritib, xonasining burchidan joy berdi. Ko'radiganini ko'rib, bo'ladigani bo'lgan qariyaning ahvoliga achinmagan kishi qolmadi. Kelginboy goh o'ziga kelar, goh alahsiray boshlardi, lekin shunda ham tugunchani qo'lidan qo'ymasdi.

— Kecha Eshonim kelib, bugun ancha sog'ayib qoldim. Elga qaytadiganga o'xshaymiz. Eshonim yonimga kelib, "Ota, yuring, yurtimizga qaytaylik, g'am-g'ussadan qutulaylik. Tuzingizni bo'lib yeb qo'ya qolaylik", deb aytdi-ku, sadag'ang bo'layin.

U alahsirash bilan birga, o'zining ko'rgan-kechirganlari, orzu umidlari haqida avvalgiday aniq-tiniq gapira boshladi:

— Mening katta armonim Eshonning qo'lidan tutib, el-yurtimga qo'shmoq edi. Endi o'zimning kindik qonim to'kilib, tanam yuvilgan yerga boryapman. — Sevinib qo'lidagi tuzni ko'rsatadi. — Bu Issiqko'lning — men tug'ilgan yerning tuzi. O, aylanay, uyg'ur qarindoshlar, Eshonim bilan meni kuzatib qo'yinglar. Bizni o'z yerimizning tuzi tortyapti. Och qolgan paytimda uni yalab to'yganman, og'ir kunlarda yonimda olib yurganimda, ko'nglim taskin topib, vujudimga kuch-quvvat oqib kirgan. Tuz yonimda bo'lsa, el-yurtimda, qarindosh-urug'larimning yonida yurganday bo'laman. Yerimni, vatanimni qo'msab g'amga botganimda, mana shu tuzdan totib, sog'inchimni yozganman. Men uchun dunyoda bundan qadrli narsa yo'q. Eldan, yerdan ajrab, uni sog'inishdan ortiq azob yo'q ekan! Men Issiqko'ldan kelib, qismatning qamchisini yedim, boylarning zo'rligini, yo'qchilikning ko'rligini ko'rdim. O'shanda o'lib qolamanmi deb qo'rqmadim, o'z yerimni ko'rmay qolamanmi deb qo'rqdim! Ko'rgan xo'rligim uchun o'zimga achinmadim, eldan, yerdan ayrilib qolganimga achindim!

O, qardoshlar, bizni kuzatib qo'yinglar, o'z yerimizning tuzi chorlayapti...

Shundan so'ng Kelginboy tunlari kiprik qoqmay chiqdi, taom ham yemadi. Oradan uch kun o'tmay, quruq suyakka aylandi.

Bir kuni erta bilan Kelginboyning to'shakda jonsiz yotganini ko'rishdi. Uzoq yillar mobaynida qayg'u va hasrat, sog'inch va armon ich-etini yeb bitirgan musofir chol azobli hayot bilan mangu xayrlashdi. Marhumni tuproqqa qo'ygan savobtalab odamlarning aytishicha, cholning og'zida o'z yerining bir totim tuzi bor ekan!

SARALA IT

(Hikoya)

Bir paytlar men ko‘rgan g‘alati fe’l-atvorli Sarala it hozirga qadar yodimdan chiqmay, turli mulohazalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Jonivorlar ichida bunday bo‘sh-bayov va boqibeg‘am itni ko‘rmaganman. Bu dunyoda yashashni “kurash” deb ataymiz. Balki uning tirik yurishi ham kurashdan iboratdir, lekin it hayot kechirishning qurt-qumursqalarga xos yo‘lini tanlab olganga o‘xshaydi.

Sarala itning tirik chog‘ida bir marta bo‘lsa ham “au” deb hurganini yoki uy bekasi qo‘radan quvib chiqqanda, biqiniga tekkan mushtumday toshning zarbidan “qank” deb qo‘yganini eshitmaganimiz, meni ham, boshqalarni ham o‘yga toldiradi. Itning bu qadar sabr-toqatli bo‘lishining sababini bilish qiyin.

Odamlarga ko‘pdan beri ma’lum bo‘lgan xulosaga tayansak, Sarala it yashash uchun kurashdan qattiq charchaganga o‘xshaydi. Har qadamda uchraydigan qarama-qarshiliklar uning hafsalasini pir qilib, boshini ko‘tarolmaydigan ahvolga solib qo‘ygandi. Bechora it hammaning oldida o‘zini gunohkor sezganday, odam va hayvonlar tugul, tabiiy holda o‘sib yotgan o‘t-o‘lanlarga ham ishonchsizlik bilan qaraydi. Eng o‘kinchlisi, bog‘lovdagi tishi qichishgan itlar ham uni ko‘rib, ko‘rmaganga olishadi. Har qanday it adashgan ko‘ppakni ko‘rganda, jon-jahdi bilan akillab ortidan yetib borib, keyin unga zo‘rlik qilib, quyrug‘ini ko‘rsatib, u yerbu yerini hidlab ko‘rishini el yaxshi biladi. Lekin daydi it ro‘para kelib qolsa ham, Sarala it unga tik qarab qo‘ymaydi. Doimo terlab turuvchi kichik malla-qizil burnini ishga solib, chiqindi tashlangan joylarda, o‘nqir-cho‘nqirlarda shunchaki izg‘ib yuraveradi. Itning yurishi ham o‘zgacha, biror nimaga alahsimay, nimanidir ko‘zlab to‘g‘ri ketib borayotganini hech kim ko‘rmagan. Bir joyda yotib ham olmaydi, uni goh yaylov, goh ko‘cha, goh qo‘rada ko‘rib

qolamiz. Havo haddan tashqari qizib ketgan kunlarda ham biror daraxt ostida soyalab yotganini ko'rmadik.

Ko'chamizning erkaklari bu yorug' dunyoda Sarala itning nari-beri bosib, topganini yeb jon saqlab yurganini xayollariga ham keltirishmaydi, lekin ayollar unday emas, uni "o'g'ri it" deb yomon ko'rishadi. Urib, qo'radan haydab chiqadiganlar ham o'shalar. Bechora Sarala it kaltak yeb, qo'radan quvilib chiqqanidan keyin ham, orsizligi tufaylimi, bir zumda tahqirlanganini unutib, tag'in hech nima bo'lmaganday, boshini quyi solib yer bosib ketayotganini ko'p kuzatganman. U gunohsiz bo'lsa ham quvilaveradi. Shunda ham ortiga qayrilib qaramaydi. "Qaraganim bilan biror nima o'zgarib qolarmidi?" deb o'ylaydiganga o'xshaydi. Yoki kimdir quvsa ham, uning urmasligiga qat'iy ishonsa kerak. Chindan ham, hech kim uni olisroqqa quvib borgani yo'q. "Chiq!" degan o'ziga tegishli hukm shalpaygan qulog'iga yetishi bilan hech kimdan norozi bo'lmay nariroq ketadi. Ba'zan qo'raga kirib, kir yuvib o'tirgan xotinni ko'rsa, "Xamir qoryaptimi?" deganday tikilib qoladi. Agar xotin o'tin yorib turgan bo'lsa, "Bu xotin qachon "chiq" deydi ekan?" degan xayolga boradi. Bir nimani o'g'irlab yemasa ham, zerikkan itning shunchaki tikilib turishi ayollarga yoqmaydi.

U sonda bor, sanoqda yo'qligi tufayli itlar to'dasiga ham, odamlar qavmiga ham tirnoqcha naf keltirmadi. Agar boshqa itlarning yonida shunchaki turganida ham, Sarala itning to'daga manfaati tegar ekan, desak bo'lardi. Uning odamga foydasizligi haqida umuman gapirmasa ham bo'ladi. Bir paytlar uni qanchalik to'ydirib boqsa ham, it biror marta hurib, egasini quvontira olmabdi. O'ldirib yuborishga ko'zi qiymagan xo'jayini, "Bor, kuningni ko'r!" deb bo'shatib yuborgan ekan. Sohibining uyini qo'riqlash u yoqda tursin, azbaroyi zerikkanidan ovoz chiqarib qo'yganida ham, u odamlarning e'tiboriga loyiq bo'lardi.

Sarala itning bor qiliq-yo'rig'laridan xabardor kishi uning sandiraqlab tirik yurganidan ko'ra, tezroq tuproqqa aylanib ketishini istab qolishi tabiiy. Xullas, u foydasiz jon edi. Hatto o'simliklar ham urug' qoldirish uchun quyosh nurini talashib, bir-biri-

dan balandroq o'sishga intilganini o'ylaganimda, Sarala itning itligini hech kechira olmasdim.

Bir kuni chol bilan kampir yashagan chekkaroqdagi qo'rada "oq ro'molli alvasti" ko'ringani haqidagi gapni eshitib, ovuldagilar miriqib kulishdi. O'tinlik uchun qurigan novdalarni olmoqchi bo'lib qo'raga kirgan kampir oy yorug'ida devorning tuynugidan "oq alvasti" unga bir qarab, shoshilmay boshini tortib olganini ko'rib qoladi. O'tin tugul, o'zini "oldirib" yuborishiga ozgina qolgan kampir quti o'chib, qaltirab uyga qaytadi. Chol, "Bismillohir rahmonir rahim", deb o'zi bilgan surani o'qib, unutgan joylarini o'zidan qo'shib, qo'raning ortiga o'tadi. Qarasa, u yerda Sarala it turibdi.

O'shanda bolaga zor bo'lib yurgan chol tushmagur: "Xudoga shukr, kampirimning bo'yida bo'lmagani yaxshi bo'ldi, aks holda, qo'rqqanidan bolasi tushib qolishi turgan gap edi!" deb kulib uyiga kiradi. Uni cho'chitgan alvasti emas, Sarala it ekanligini bilgan kampir bor yig'ib-tergan qahr-g'azabini itning boshiga ag'daradi.

Mana shu kezlarda kataklardan tuxum yo'qolib, yorilgan suzma xaltalarning o't-o'lan orasida yotganini ko'rishadi. Kimdir, "Bu Sarala itning ishi", deb ovulda gap tarqatadi.

"Alvasti"ni ko'rgan kampir atayin kelib, suzmasini yo'qotgan ayolga Sarala itning ko'chada suzma xalta ko'tarib ketayotganini aytadi. Aslida, yo'qolgan suzmani otquloqning ostida boshqa it yeb turganida, Sarala it ariq bo'yidagi chiqindilarni iskab, tentirab yurgan edi. Ayol otquloqning ostidan yirtiq xaltani topganida, Sarala it qandaydir hidni sezib shu yerga kelib qoladi. Ayol uni uzoq qarg'ab, yerdan tosh olib otadi. Sarala it o'zining it ekanligini yaxshi bilgani uchun ayolga qarab ham qo'ymay, odatdagiday, kechirimli bo'lib, o'z yo'liga ketaveradi.

Bu voqeadan keyin Sarala it "o'g'ri" degan nomga ko'nikib, ko'chadagi jonivorlar ichida avvalgidan battar so'xtasi sovuq maxluqqa aylanadi. It ishning bunchalik yomonlashib borayotgani va uning oxiri nima bilan tugashini o'ylamay, loqaydlik bilan yer bosib yuraverdi. O'ziga tik boqib turgan ko'zlardagi nafratni it qaydan ham anglay olsin!

Bizning ko'chada tuxum yeydigan, bu ham ozlik qilsa, tovuqning o'zini ham tutib yeb qo'yadigan itlar bor. Ular egasining bergani bilan qoniqmay, topganini yerga ko'mib, keyin yemoqni yaxshi ko'rishadi. O'zining boshqa itlardan epli ekanligiga quvonib, dimog'dorlik bilan qadam tashlaydi. Bunday iskovuch itlar duch kelgan joyni hidlab, tang qolarli tezlik bilan yegulik topganini ko'rganingizda, ko'ngilsiz o'ylarga borasiz. "Shuning uchun it deyishadi-da!" deb ularning shunday nom olganiga achinmaysiz.

Aybsiz Sarala itning manglayiga bosilgan tamg'a o'sha daydi itlarning kasofati tufayli ekanligi oyday ravshan bo'lsa ham, xotinlar ularni yomon demaydi, aksincha, siylab suyak tashlashadi.

Bir kuni qaysidir it o'sha suzma yo'qotgan ayolning tovuqxonasi katagidagi ikkita tuxumni yeb ketibdi. Bu paytda ayolning eri katakdan tumshug'ini yalab chiqib kelayotgan o'zlarining To'rtko'zini ko'rib qoladi. Xotin gumoni Sarala itda ekanligini aytadi, eri esa ko'rganini gapiradi. Suhbatga aralashgan qo'ni-qo'shnilar ayolning fikrini ma'qullashadi. Chunki To'rtko'z qo'lda boqilgan, daydi emas. O'g'rilik qilganini hech kim ko'rmagan... Shuning uchun aybni To'rtko'z emas, Sarala itga to'nkamoq ancha o'ng'ay va ishonarli-da!

Shunday qilib, erkak miltig'ini o'qlab, "ko'pning tinchini buzgan" itni otib tashlamoqchi bo'lib ko'chaga chiqadi. Bu chog'da Sarala it hech narsadan xabarsiz, ovqatdan o'zga narsaning isini sezmaydigan burnini ishga solib, erinchoqlik bilan chiqindilarni tintib yurgandi. Miltiq egasi Sarala itni nishonga oladi.

It unga ajablanib qarab, "Bu kishi nega menga miltiq o'qtalyapti?" deb o'ylanib turganida, miltiq "tirs!" etadi. Sarala it "qang!" etib qulab tushadi.

U shu birgina "qang!" etgan tovushni o'lar chog'igacha sariq moyday asraganini bilaman. Bir paytlar biqiniga tosh tekkanida "qang"lay olganida, balki keyingi gal joniga o'q botganida "au" deganini o'zi ham sezmay qolarmidi? Shunday qilib, birda "qang" etib, birda "au" deb hura bilganida edi, ehtimol, uning umri bunchalik qayg'uli tugamasdi!

To‘g‘risini aytganda, “au” degan tovushning asosi “qang” etib g‘ingshimoq ekanini bechora Sarala it tushunmay ketdi! Miltiq otilganda, tuxum o‘g‘irlab yegan To‘rtko‘z darhol yetib keldi. Keyin jon talashib, ko‘zlari olayib tipirchilayotgan Sarala itni ko‘rib, ohista ulib qo‘ydi. Bu hodisadan qoniqish hosil qilgan xotinlar itning o‘limiga obdon quvonishdi. Lekin ertasigayoq bir xalta suzma va bir necha dona tuxum yo‘qoldi. Balki buni Sarala itning g‘azablangan “arvohi” qilgandir...

TOSH MIYASHEV

(1931–2007)

Tosh Miyashev 1931-yilda O'sh viloyatining Qorasuv tumaniga qarashli Papan qishlog'ida tug'ilgan. Birinchi kitobi — "To'ng'ich kuy" 1960-yilda nashr etilgan. Keyinchalik "Alvido, muhabbat", "Marhumlarga ta'zim" kabi ko'plab asarlari bosilib chiqqan.

BIRINCHI MUHABBAT

(hikoya)

I

Trolleybus guvillaganicha men uchun qadrdon bekatga yetib kelib, ohista to'xtaydi.

Yo'lakdagi odamlar oqimiga qo'shilib, shoshilgancha yurib ketaman. Naq qarshimda, balandda osmon bag'riga sanchilgan igna singari teleminora yuksalib turadi. Uning oldidagi ikki qavatli binoga birpasda yetib boraman. So'ng suxandonlar xonasiga kirib, ko'zgu oldida biroz kuymalangach, studiyaga oshiqaman. Ro'paraga o'rnatilgan ekranda o'z qiyofamni ko'rib, yuragim bir hapqirib ketadi. Daqiqalar soatlarga cho'zilayotganga o'xshaydi.

Rejissor ishora qilishi bilan:

— Assalomu alaykum, aziz teletomoshabin do'stlar! — deyman. Biroq qalbimning eng qa'rida "Assalomu alaykum, aziz og'ajon!" — degan bir nido bor. Shu damdagi mayin, ohangdor, latif ovozimni siz eshitsangiz, miyig'imdagi nim tabassumni siz ko'rsangiz edi, — deyman. Hamisha shunday qilaman, shuni o'ylayman.

Siz-chi, qimmatli og'ajon, shu tobda qayerda bo'lsangiz ekan?

Balki odatingiz-chi, kresloga yastanib, mening ekranda paydo bo'lishimni kutayotgandirsiz? Yoki o'sha, ikkimiz uchrashadigan ko'prik boshida suvning oqishiga qarab xayolchan turibsizmi? Ehtimol, o'zingiz sevgan Dzerjinsk xiyobonida ohista sayr etayotgandirsiz? Yo bo'lmasa, baayni simyog'ochga tortilgan uch qator simga o'ng-ters — qo'nib ololgan qaldirg'ochlarga o'xshatib nota chizib, yangi ohanglar, yangi musiqa qidirib, meni ham tamoman unutgancha o'ltiribsizmi?

Qayda bo'lsangiz ham mayli...

Moviy ekranga chiqib aytadigan dastlabki so'zim, ilk tabassumim sizga atalgan, qimmatli og'ajon. Mana, Siz bilan ko'rishmaganimizga ham bir yilcha bo'lib qoldi. Bir shaharda yashab turib, bunday qilishimiz, albatta, juda g'alati. Men har zamonda telefon go'shagini qo'lga olib, raqamingizni teraman. Birpasdan so'ng bu yorug' olamda faqat men uchun yaralganday yoqimli ovozingiz eshitiladi. Shu bir lahzalik tovushingizni eshitish uchun ataylab qo'ng'iroq qilaman.

— Allo! Allo, kim bu? — deysiz.

Men tovush chiqarmayman. Ha, tovush chiqara olmayman ham. Sizni qattiq ranjitganman. Balkim ranjimagan hamdirsiz. Biroq yurak yutib ovoz berish men uchun mahol.

Shunday qilib, biroz vaqtdan so'ng go'shakni qo'yasiz. Men bo'lsam, "dud-dud"lagan tovushni tinglab, uzoq turib qolaman. O, biz ilgari shundaymidik? Sizga telefon qilaverardim. Javob berishingiz bilan:

— Menman, — derdim.

Siz suyunib ketardingiz, tovushingizdan bilardim.

— So'zla, Anorjon, gapir, — derdingiz.

— Nimani so'zlay, og'ajon?

— Nima to'g'risida bo'lsa ham sen so'zlayver...

— Men shunday, ish orasida bir...

— Anorjon, qo'ysang-chi ishingni. Gapir... Axir, bitmagan ish bormi? Qulog'im senda. So'zla, Anorjon!

— Avtomat-telefondaman... boshqalar kutib qoldi, — derdim. Bu gapim goho yolg'on bo'lardi.

— Ha-a, — derdingiz bo'shashib. — Anorjon, yana telefon qilasanmi?

— Bilmadim...

— Bugun uchrashamizmi?

— Bilmasam, — deb turib olar edim. Ko'nglimda yana bir narsalarni so'rasa edi deyman.

— Haligi joyda uchrashaylik... soat...

— Bugunmi, mayli og'ajon...

O, qimmatli og'ajon! O'sha kunlar men uchun qanday baxtli kunlar edi. Yo'q! Tilloga tortib olsa bo'ladigan damlar emasmidi? Rostdan ham biz unday kunlarga endi yetisha olmaymizmi? Bunga kim aybdor? Menmi?

II

O'sha yili siz yangi ishga kelgandingiz. Darrov ismingizni, kimligingizni, uylanganmisiz-yo'qmi — bilishga oshiqdim. Biz ayol zoti shundaymiz, og'ajon. Qarangki, men sizning ayrim asarlaringizni bilar ekanman. O'zingizni hech ko'rmagan ekanman. Muhabbatga bag'ishlangan bir kuyingiz menga judayam yoqadi. O'rta maktabda o'qib yurganimizdayoq uni tinglaganman. Shaharga kelgach, u ko'pchilik yoshlarning suyukli asari ekanini bildim. O'sha, qalbimni junbushga keltirgan asarning muallifi siz ekansiz, og'ajon!

Odatda bizning ishxonaga odamlar ko'p keladi. Ko'p odam ishlaydi. G'ala-g'ovur orasida sizni bot-bot ko'rib turardim. Siz ham menga bir-ikki qur zimdan qarab qo'yganingiz bilan, hech narsadan xabarsiz edingiz. Goho dahlizda uchrashib qolsak, bosh irg'ab salomlashamiz.

Bir kuni ishga ertaroq kelsam, biznikilar suratga tushishayotgan ekan. Orada siz ham turibsiz. Ammo sizning yoningizda boshqa suxandon qiz turibdi. Bilmadim, negadir g'ashim keldi. Meni chaqirsalar ham bormadim. Suratkash yigit o'zi chaqirib, to'p turganlar orasiga qo'shib, rasmga oldi. Chimirilib tushdim suratga. Hozir men uyda yolg'iz qolib, sizni eslasam, o'sha suratga qa-

rayman. Siz hech narsadan bexabar turasiz. Egningizda jigarrang yengil plashingiz, boshingizda chet el shlyapasi. Oq-sariqdan kelgan yuzingiz ham o'ychan, ham sirli. Go'yo boshqa odamlardan hech farqingiz yo'qday. Biroq men faqat keyingina sizning kimligingizni angladim. Axir mening siz bilan ikki yilga yaqin sirdosh bo'lishim mening uchun ikki asrga tatiydigan ta'sir qoldirmadimi? Adolat, haqiqat to'g'risida, insoniylik, hayot, davr, ertangi kun haqida tushunchalarim avvallari chalkash, chalakam-chatti bo'lsa, endi fikrim ravshanlashdi. Muhabbat to'g'risida eng yuksak so'zlarni tingladim.

Aslida kichkina bir jilg'a bo'lsam, siz bilan yonma-yon yurib to'liqdim, ko'nglimdagi mavjlar teranlashdi. Nima bo'lsa ham, qimmatli og'ajon, siz men uchun bir maktab bo'ldingiz.

Men sizga uchray olmay bir chetda yashayman. Biroq umr bo'yi jon-tanimga bir nur bo'lib singgan, bundan keyin hayotimning qaysi pallasida bo'lmasin, qulog'imda qayta-qayta saslanib, yangrab turuvchi so'zlaringizni aslo unutmayman. Ular mening umr yo'limdagi bir mayoq, yuragimga bir quvvat bo'lib tuyuladi. Menga qilgan nasihatlaringizni, iffat va odob, poklikka undovchi so'zlaringizni eslab, hozir o'zimdan-o'zim uyalaman. Ha, shunday, og'ajon! Men siz aytgan o'sha oftobli bog'da yetilib pishgan nuqraday toza anor bo'la olmadim-ku? Shuning uchun ham o'zimdan o'zim uyalaman, og'ajon. Yodingizdami, bir vaqt siz menga "mevalarning ichida eng asili quyoshli bog'da yetilib pishgan anor bo'ladi.

Uning sirti qo'polgina ko'ringani bilan ichi nuqraday toza, billurday mag'iz. Anorni oltinga teng baholasa bo'ladi. Shunga o'xshab, biz odamlar ham goho asil narsalarni ko'rolmaymiz, qadrigayam yetmaymiz. Mana, sen mening uchun asil haqiqday Anorsan, demak, oltinsan. Mening oltinimsan!" — deb aytgan edingiz. Bu so'zlaringizga munosib bo'la olmaganga o'xshayman. Siz bu gaplarni bir menga aytgansiz. Qaytib boshqa birovga tish yorib so'zlamaysiz ham. Siz unaqa kishilardan emassiz. Bunga ishonaman. Butun borlig'im bilan ishonaman, mening qimmatli og'ajonim!

III

Shunday qilib, bir-birimizga uncha qattiq tegmay, ko'nglimizni og'ritmaygina uzoqlashib, ko'rishmay qolganimizga ham mana, bir yilcha bo'lib qoldi. Umrga qiyoslaganda — qisqa, biroq men uchun o'ta uzoq tuyulgan shu bir yil ichida yuz-ko'zlarimga uncha-muncha chiziq tusha boshlaganini bugun ertalab ko'zgu ortida ko'rib qoldim. Muhabbat odamni yoshartiradi, degan gapni eshitgan edim. Muhabbat odamni qaritishi ham mumkinligini endi bilib turibman...

O'zi, siz qanday qilib men uchun eng qimmatli kishi bo'lib qoldingiz?

Sizni qanday sevib qoldim? Ba'zi bir qizlar odamning tashqi ko'rinishiga maftun bo'lishsa, boshqalari kishining shuhratiga, boyligi yoki amaliga oshiq bo'lisharkan. Rostini ayta qolay, og'ajon, sizda unday xususiyatlar mana men deb ko'zga tashlanmaydi, ijodingiz ham juda yuksalib ketgan emas, yaxshi deyilganlar qatorida xolos-ku. Suyganingni goho ko'zing bilan emas, ko'ngling bilan ko'rasan, derdilar. Balki mening yuragim sizni avvallari ham ko'rgandir...

Siz bizning telestudiyaga xizmatga kelganingizdan boshlab men ham ishga bog'landim-qoldim. Ko'pincha, eshittirish boshlanishiga ancha erta bo'lsa ham, barvaqt kelib, xiyla keyin ketadigan bo'ldim. Goho esa, dam oladigan kunlarimni ham shu yerda o'tkazaman. Siz bo'lsangiz, menga uncha etibor bermaganday yurardingiz. Boshqa yigitlarga o'xshab, yo'limni to'sib, kinoga qistab, yo bo'lar-bo'lmas gaplarni so'zlab bosh og'ritmadingiz. "Qanday qilib, axir qanday qilib, menga bir og'iz so'z aytmaydi? Go'zallikka zavqlanmagan bu qanday yigit o'zi? Qaddi-qomatim kelishgan, suluv desa suluvman-ku. Suxandonlik tanlovidan behuda o'tkazishmagan-ku! Nega meni payqamadi?" — deb o'ylab kutib yurdim. Biroq kutishimdan natija chiqmadi.

Kunlarning birida atay xonangizga kirib borsam, yolg'iz o'tirgan ekansiz.

— E, keling, keling, — deb o'rningizdan irg'ib turdingiz.

— Yo'q, men shunchaki bir kiruvdim, — dedim shoshib, — Siz shu yerda ekansiz-da?

— Ha, ha shu yerdaman. O'tiring bunday.

Bir daqiqa jimib qoldik. Nimaga kirganimni, yo nima deyarimni bilmay, o'zimni yo'qotib, sizning muhabbat haqidagi bir asaringiz to'g'risida so'zlay boshladim. Siz jimgina menga qarab turardingiz. O'shanda, ko'zlaringizda qandaydir sirli uchqunlar chaqnab, ular mening hissiyotimni junbushga keltirib, tushunarsiz tortinchoqlik paydo bo'lib, qalbimga ilgari menga notanish bo'lgan iliq bir oqim "shir" etib quyulib ketdi. Ikki yuzim qip qizarib, lovulladi. Siz bo'lsangiz, mening so'zlarimni unchalik uqmay, sal kulimsirab, nimadandir maftun bo'lganday yayrab, xumor boqib turar edingiz. Shu tikilishingiz menga yoqqandan-yoqar edi.

Sevgiga bag'ishlangan asaringiz haqidagi gaplarimni aytib bitirdim hamki siz boyagiday kulimsirabmi, xumorlanibmi o'tiraverdingiz. Endi nima qildim? Shoshib qoldim.

— Men bora qolay — dedim o'rnimdan turib. "Iya, nima uchun keluvdim o'zi bu yerga? Tag'in nimalar deb javrab qayoqqa boryapman?" — degan o'y boshimga keldi.

— Ishdan keyin bir uchrashsak maylimi? — dedingiz boshqacha qilib.

— Qo'ysangiz-chi, — deb yerga boqdim — nega uchrashamiz?

O'zimni yo'qotib, nima deyayotganimni ham anglamasdim. Qurib ketgur, tortinchoqligim pand berib qoldi. Shunday bo'lsa ham qishloqda yigitlarga bergan javobimni eslab o'shalarni takrorladim.

— Nimaga bo'lardi? — deb sochingizni silaganingizcha jovdiradingiz, — gaplashamiz, sirlashamiz deganday...

— Birovlar nima deydi?

— Yaxshi bo'pti, deyishadi-da.

— Qanday qilib?

— Shunday ikkovlari birga yurishibdi deyishadi-da. Buning nimasi yomon, birga ishlasak, birga yursak nima bo'libdi? Axir o'z boshimizga o'zimiz xo'jayin emasmizmi?

"Rost aytasiz, og'ajon", degan gap xayolimga keldi. Biroq boyagiday o'zimni yo'qotib, bir quvonib, bir uyalib turardim.

— To'g'ri, suxandonlarni hamma taniydi, — dedingiz yana o'zingiz, — gap-so'z qilishlari ham mumkin. Ammo bilasizmi, mening shaharda uyim yo'q, hozircha yotoqxonada turibman. Agar rozi bo'lsangiz, hordiq kuni o'sha yerda uchrashsak.

Men indamadim. Biror narsa deyishga ojiz edim, faqat yotoqxona shahar chetrog'ida ekanini esladim. U yerda bo'lganman — yam-yashil bog'. Suvlari tip-tiniq, muzday. Ko'nglim "bor-boraqol", deb qistaydi. Qizlik nozim bilan ancha tarang qildim. Biroq qimmatli og'ajon, sizning ohanrabodek ko'zlaringiz meni o'ziga tortardi. Oxiri men u yerga bordim.

IV

Biz juda yaqinlashib ketdik. Birga ishlaydigan ayrim o'rtoqlarimiz ko'z qarashlarimizdan darrov payqab, gap-so'z qila boshlashdi.

Hammasidan ham anovi, sizga yondashib rasmga tushgan suxandon qiz qizg'onganini sezdirib qo'ydi. U hozir boshqa yoqqa o'tib ketdi. O'zi ikki marta erga tegib chiqqan narsa edi. Yolg'onniyam yamlamay yutardi.

— Anov yangi xodimning oilasi bor deyishadi. Rostmikan? — dedi u sizni ko'rsatib, — so'ng sir boy bermay tikildi. — U turishidan ancha-muncha qizlarning boshiga suv quygan odamga o'xshaydi o'ziyam...

Men indamadim. Uning yolg'on gapirayotganini fahmladim. U yana so'z uladi:

— Anorxon! Bu deyman, shu yigit kelgandan beri sen ham o'zgaribroq qoldingmi? — deydi kulguga olgan bo'lib.

— Qanday?

— Bilmadim. Endi shu, kiymaganingni kiyib, yasanib deyman-da, keyin... Ikkovlaring ko'chada birga yurib qolasizlar?

— Birga ishlagandan keyin birga yurib qolsak kerak-da.

— Aytaman-da.

— Iya, bu ko'ylagingni ko'rmagan ekanman. Rosa yarashibdi o'ziyam, — dedi.

Bu gaplarda jon bor edi, og'ajon. Sizga ko'rinish, yo yoqish uchunmi, bilmadim, tuflilargacha yangilab, har kuni bir boshqasini kiyib kelar edim. Ammo siz bunga e'tibor bermasdingiz. Rostini aytsam, o'sha vaqtlarda moda bo'lgan biror ko'ylakdan qolgan emasman. Hamma tishlarimga tilla qoplatsammikin deb o'ylardim. Oltin baldoqqa, oltin bilaguzukka yetsam derdim. Kichikroq tilla sirg'am bor edi, ungayam ko'nglim to'lmay qoldi.

Bir safar siz shifoxonaga yotib qoldingiz. Uzluksiz qatnab turdim. O'sha kunlarda shaharda yana bir yangi ko'ylak o'lgur paydo bo'ldi. Mayin hilviragan bu ko'ylakni kiyib yurganlarni ko'rsam, suqlanib, ulardan uyalmay, qayerdan topishganini, qanchaga olishganini so'rar edim. Yaponiyadan keladigan bu ko'ylak tushlarimga ham kirib yurdi. Kunlarning birida boyagi diktor qiz kiyib kelsa bo'ladimi? Uni ko'rib, kuymagan joyimda kul bo'lib ketdim. U bo'lsa, oldimdan hali u yoqqa, hali bu yoqqa shox tashlab o'tadi, desangiz. Axiyri chiday olmay, qayerdan topganini so'radim.

— Kerak bo'lsa topib beraman, — deb burnini ko'tardi u. — bir ombor mudiri bor. U yetti qavat yerning tagidan bo'lsa ham topadi. O'ziyam kelishgan yigit. Mashinasi bor. Qurib ketgur, biram sho'xki...

— Tanishtirib qo'ying, baraka topgur.

Ombor mudiri Alim degan yigit ekan. Xuddi aytganiday bir joyda tinch turolmaydigan, odamning yoqasidan kirib, yengidan chiqadigan uddaburon ko'rinadi. Meni ko'rganda naq bir qoshiq moyday erib ketdi o'ziyam.

— Bo'pti-da, — dedi u darrov, — Sizga topib bermagan ko'ylakni kimga topib beramiz?

O'sha kuni u meni yap-yangi mashinasiga o'tqazib ikki-uchta omborga olib bordi. Borgan joyida darrov mening pinjimga tiqilib, boshqalarga shu taqlid ko'rinib maqtanayotganga o'xshadi. Goho so'zlashayotib, gap orasida ko'zini qisib, imo-ishoralar qilayotganini payqadim. Haytovur, ko'ylakni osonlikcha topib bergani yo'q. Ana-mana deb yurib axir bir kuni qo'limga tutdi.

Biroq yelimday yopishib oldi. Restoranga, mehmonxonaga olib bordi. Boylik, shon-shavkat meni o'z domiga torta boshladi. Goho ko'nglim yumshab Alimning aytganlariga ko'ndim...

— Bugun teatrga borsak, — yalinib turib oldi. — O'zi bu ko'ylak faqat sizga yarasharkan.

Bir yog'i bu ko'ylakni kiyib, teatrdagilarning ko'zini o'ynatgim kelib ikkilandim. Biroq shifoxonaga bormay qolganimga bir necha kunlar bo'lganini eslab, siz tomonga jo'nadim.

Alimning mashinasi bilan g'izillab yetib borib, yo'l chetida to'xtadik. Alim allaqancha vaqt mahkam yopishib, yuz-ko'zlarimni o'pib oldi. Teatrda ko'rishguncha sog'inib qolishini aytib, biletlarni sumkachamga solib qo'ydi. Shundan so'ng mashinadan tushib qoldim. Bularning barini siz ichkaridan ko'rib turgan ekansiz. Anchagacha bildirmadingiz. Ilgarigiday samimiy, iliq so'zlashdingiz. Men ham hech narsa bo'lmaganday erkalanib, yoningizda o'tirdim. Ko'ylagimni ko'rib tabriklaydi, deb kutdim. Unga qarab ham qo'ymadingiz. Oxiri o'zim aytdim.

— Ko'ylagim yarashibdimi?

— Juda yarashibdi, chiroyli ekan, — dedingiz qaddi-bastimga qarab ham qo'ymay. — Bunaqa ko'ylak haqida shifoxonada yotgan ayollar ham gapirishib, xo'jayinlari ko'rgani kelsa, shundan topasiz, deb tayinlashayotibdi. Ko'pchilik topolmaganini aytib kelsa, achchiq qilganlariyam bor. O'zing qayerdan topding?

— Bir tanishim topib berdi...

— Boyagi, seni mashinada olib kelgan yigitmi?

Nima deyishimni bilmay, qotib qoldim. Voy mening sezgir og'ajonim-ey... Qanaqa qilib ko'rib qoldingiz ekan? Yo sizning ham yuragingiz meni uzoqlardan ko'rib turarmikan? Ikkalamizning o'rtamizga og'ir sukut tushdi. Chakkamdan muzday ter chiqib, o'zimni biroz yo'qotib qo'ydim.

— Qani gulzorni bir oralab kelaylik-chi, — dedingiz tirsagimdan tutgancha o'rindiqdan turg'azib, — Anorxon, senga har qanday kiyim yarashadi. Ikkovimiz tanishgandan beri xilma-xil modadagi o'ndan ortiq ko'ylaklaringni ko'rdim. Hammasi senga juda bop. "Yarashadi yolg'iz sening o'zingga, qaysi kuni qanday libos kiy-

sang ham...” degan shoirning so‘zi qanday teran-a. Uzr, Anorxon! Bu mening o‘zimcha o‘ylagan o‘yim-da. Nahot odam har turli tusdagi latta-putta bilan go‘zal bo‘lsa? Yo oltin sirg‘a, oltin baldoq, tilla tish bilan chiroylimi? Ayt menga, Anorjon, go‘zallik nimada?

Ikkovimiz gulzor orasidagi yo‘lak bo‘ylab boryapmiz. Yo‘q, men tekis yo‘lakdan emas, jar bo‘yidagi toyg‘oq so‘qmoqdan yurib borayotganday, ro‘paramnigina ko‘rib, qo‘qqisdan boshimni o‘ng yoki chap tomonga bursam, qulab ketadiganday arang yurib boryapman. Bugun tushdan beri tanimni yayratib, hilvirab turgan, yangiligidan yoqimli hid taratayotgan yengil havoyi ko‘ylagim endi sizning oldingizda o‘xshovsizday tuyulib, butun badanim seskanib ketdi. Siz yana aytdingiz:

— Har bir odamning butun borlig‘i go‘zal. Har bir inson o‘zicha bir dunyo! Ko‘ngli mavjlangan ko‘l, fikri — qirg‘oqlarga to‘lqin urib sapchigan daryo, umr yo‘li — ming-ming ohangli musiqaning o‘zi! Inson bolasi tabiatan jimitday bo‘lgani bilan, yer-u osmonning borlig‘ini ko‘ra bila oladigan ziyrak, boshiga tushgan tog‘day zil qayg‘uni ko‘tara oladigan alp! Yaxshiligiga chegara yo‘q! Muhabbati quyosh kabi otash! O, inson, inson, sen naqadar xislatlarga boysan! — deya hayajonlanib ketdingiz. Men bu so‘zlarni sizning og‘zingizdan eshitdim. Balki ilgariyam uqqandirman, ammo ma’nisini bilmaganman. Hozir bo‘lsa har bir so‘zingiz hissiyotimni jo‘sh urdirib, bir uyalib, bir ichimdan faxrlanib boryapman. Bora-bora oldimdagi yo‘l yorishib, kengayib ketganday tuyuldi. Tanimga qandaydir yashirinib yotgan, ilgari o‘zimga belgisiz bir kuch uyg‘onganday. Endi men boshqacha yashab, boshqacha fe’l-atvorga o‘tadiganday ruhlanib, dadillanib ketdim. Nahot bularning bari sizning shu so‘zlaringiz tufayli bo‘lsa? Alimdan rashk qilib, qo‘pollik bilan yoki achchiqlanib po‘pisaga o‘tmay, aksincha, menga nasihat qilganingiz uchunmi? Nima uchun meni tergamaysiz, qattiq koyimaysiz? Dilimga ozor beradigan so‘zlar aytish kerak edi-ku! Nega meni ayadingiz ekan o‘shanda?

Qimmatli og‘ajon! O‘shanda o‘zim bilan o‘zim bo‘lib, sizning boshqa so‘zlaringiz qulog‘imga kirmay qoldi. Xayrlashar paytimiz ham bo‘ldi. Siz qo‘llarimni kaftingizga olib, uzoq turdingiz. Men

ana shundagina tushundim. "Men ardoqlagan qo'llaringni, menga kun sayin telefon raqamini tergan barmoqlaringni anavi, mashinasida olib kelgan yigitga ushlatding-a!", degan dilingizdagi so'zlaringizni his etdim. Siz meni ayab turar edingiz. Ha, mening turmushga, hayotga yengil-yelpi qaraganimni, ilk muhabbatim qadriga yetmaganimni, hammasidan ham quyoshli bog'dagi anorday nuqra sof Anor bo'lolmaganimni yuzimga solmay, meni ayab turdingiz, qimmatli og'ajonim! Munchayam bag'ringiz keng bo'lmasa!

Men shifoxonadan chiqib, yig'lab jo'nadim. Bir-bir qadam bosib, yo'l chetida birovlardan pana bo'lib qadam tashladim. Ikki yuzimni yuvgan yoshning sho'riga qo'shilib, mendagi betayinlik, tashqi go'zalligimga havolanish, yana bir qancha illatlarim yuvilib oqib ketganday bo'ldi. Alim bergan teatr biletini mayda-mayda qilib yirtib, suvga otdim. Ertasiga esa uning omboriga bordim. Meni ko'riboq kecha rosa kutganini aytib sayrashga tushdi.

— Mana, ko'ylagingiz, — deb qog'ozga o'ralgan o'sha chiroyli, o'zim qachonlardan beri havas qilib yurgan yapon ko'ylagini qo'liga tutqazdim. — Rahmat sizga!

— Iya, sizga yoqmadimi?

— Yoqmadi, — deb qisqa javob berdim-da, chiqib ketdim.

O'sha, shifoxonadan qaytib kelgan kunimdan boshlab, sizga bo'lgan hurmatim yanayam oshib ketdi, og'ajon! Sizning ko'p so'zlaringiz yuragimdan joy olib, meni hamisha to'g'ri yo'lga soladigan bo'lib qoldi. Ancha og'ir, sermulohaza bo'lib ketdim. Odamzod yoshligingda aql-hushni ota-onangdan, tarbiyani maktabdan olar ekansan. Ular kifoya qilmaydi, shekilli. Odamning yoshiga yosh qo'shilgani sayin unga yana aql, yana tarbiya kerak bo'laverarkan. Xom sut emgan bandamiz-da. Bir qurib, bir toshib, bir kamayib, bir oshib turarkan kishi. Bugungi kunga kelib, bir odam qatori nimaiki fazilatim bo'lsa, bularni sizdan o'rganganim uchun ming marta baxtliman!

Siz shifoxonadan chiqiboq boshqa ishga o'tib ketdingiz, shu shaharning o'zida yashab, ishlab yuribsiz. Men esa, har bir yangi asaringizni orziqib kutaman, qimmatli og'ajon. Balkim, bir kun

uchrashib ham qolarmiz! Ikkimiz ilgarigiday yonma-yon suhbatlasharmiz ham, ko'pdan beri bizni kutayotgan dam olish uyining bog'iga yo bo'lmasa anavi ko'prik boshiga tag'in yayov borarmiz. Ehtimol, bir-birimizni tushunarmiz... Hech kimga aytilmagan, aytilmaydigan gaplarimizni aytisharmiz. Yana kim biladi, balki shu tariqa, umuman yuz ko'rishmay o'tib ham ketarmiz. Shunday bo'lganda ham, siz mening eng aziz odamim bo'lib, yuragimda mangu qolasiz... Mening ilk muhabbatimsiz.

... Mana, trolleybus guvillaganicha kelib, qadrdon bekatda to'xtaydi. Men telestudiyaga shoshib boryapman. Bir pasda yetaman ham. Ko'zgu oldida biroz kuymalangach, studiyaga kirib, rejissor belgi berishini kutaman.

— Assalomu alaykum, aziz teletomoshabin do'stlar! — deyman. Ichimda esa "Assalom alaykum, og'ajon!", deya xitob qilaman. Ha, har doim shunday qilaman. Agar umr bo'yi shu joyda ishlasam, umr bo'yi...

QALQANBAY ASHIMBAYEV

1932-yilda tug'ilgan. Qirg'iziston Milliy universitetini bitirgan. "Ko'k konvert", "Chayla", "Yarim jon", "Bo'y tumor", "Yaxshi niyatli chol", "Yo'ldagi umr", "Botir", "Donishmandning gavhar boshi" singari nasriy kitoblari nashr etilgan. Qirg'iziston xalq yozuvchisi.

TAPAY

(hikoya)

Kulcha yuzli, ko'zlari katta, qorachadan kelgan yetti yashar bola ko'chadan o'tganlarga: "Assalomu alaykum", deb salom berishni kanda qilmaydi. Yo'lovchilarning aksariyati bolaning ovozini eshitgach, o'zini katta odamday ko'rsatish uchun bo'ynini cho'zib turganini ko'rib, qiziqsinib qarashadi. Taniganlar esa miyig'ida kulishadi:

— Yasha, Tapay! Yashavor, Chapay!

Ular bolani o'z ismi bilan emas, qaysidir dali-g'uli odam tomonidan qo'yilgan nom bilan chaqirishadi. Bola bundan ranjib, qovog'ini uymaydi, ko'nikib qolgan.

— Tapay!

— Ha, nima deysan, aka? Otingni sug'orib kelaymi?

— Yasha, Tapay!

Bola bunday tahsinlarning juda ko'pini eshitgan. Lekin oyisi o'sha maqtovlarning hissasini boshqa tomondan chiqarib, uning "sho'riga sho'rva to'kib" qo'yadi. Bola xafa bo'lib, avval yig'lab, keyin tumtayib yuradi, biroz o'tgach, o'yinga alahsib ketadi. U oyisining aytganlaridan chiqmagani uchun biror marta ham kaltak yemagan. Ko'pchilikning yumushini bajarib yurgani bois, gapga quloq tutadigan bo'lib qolgan. Oyisi ham uni unchalik yomon ko'rmaydi. Tapayning ko'magi tekkanda, chehrasi ochiladi, lekin birovning tovug'ini quvlashib yurganini ko'rib ranjiydi. Oyisining

hadeb boshqalarning gapiga kiraverma, deb baqirgan paytlari ham bo'lgan. Lekin baribir Tapay uyda jimgina o'tira olmaydi. Bolalar bilan o'ynagisi kelmagani uchun doimo katta yoshdagilarning yonida yuradi.

Qosh qorayib, poda qaytar mahalda Tapay hamsoyanikiga o'tdi. O'ng oyog'i oqsaydigan, qosh-kiprigi sarg'aygan Iymonali ularning qo'shnisi. Uning uch qizi bor. Tapay qizlarning o'rtanchasi Anor bilan o'ynaydi. Iymonali Tapayni haddan ziyod yaxshi ko'radi.

— Kel, Tapay, bir otamlashaylik, — deydi bolani yaqin sirdoshiday ko'rib.

Tapay uni "og'a" deb chiqaradi va hech nimani yashirmaydi. Og'asi har kuni daladan qaytgach, Tapayga duch keladi.

— Og'a, qorabayirni otxonaga olib boraymi?

— Onang urishib yurmasin.

— Urishmaydi. Qaytishda molni haydab kelaman.

Tapay har kuni shunday qiladi. Bugun ham og'asining otini otxonaga olib borish uchun hozirlik ko'rdi: shapkasini yuqori ko'tarib, quloqchinlarini o'nglab, burnini ro'molchasi bilan artdi. Yo'lda tuyqusdan birovga duch kelib qolsa, tag'in Tapay to'g'risida yomon o'y-xayolga borib yurmasin.

— Birov so'rasa, berma... Tag'in aldanib o'tirmagin.

— Hech kim alday olmaydi. — Tapay qorabayirning jilovini qo'liga oldi. Og'asi uni otga mindirib qo'ydi. Qorabayir zotdor, dumining yollari tugilgan, og'ir va yuvosh ot.

Tapay katta tankning ustiga qo'ngan qushday bo'lib ko'rindi. Otga qamchi urib, uylarining yonidan o'tib borayotganida, oyisi qichqirib qoldi:

— Sigirni haydab kel!

— Xo'p bo'ladi...

Oyisi tag'in nimadir dedi, lekin Tapay uning gaplarini oxirigacha eshitolmadi.

Qorabayir yo'ldan adashmaydi. Duch keladigan itlardan cho'chimaydi, sho'x-shatir bolalar hurkitsa ham bezovtalanmaydi. Tapay jilovni bo'sh qo'yib, boshini baland tutib boradi. Qarshisidan chiqqanlarga salom beradi.

Bugun hech kimni nazar pisand qilmay, istehzo bilan gapiradigan katta og'iz Asanbek ro'parasidan chiqdi. Tegirmon yonida un olib ketish uchun ulov qidirib, alanglab turgan ekan, Tapayni ko'rib:

— Ey, qani, buyoqqa hayda! — dedi ovozini balandlatib.

— Og'am qorabayirni otboqarning qo'liga topshir, degan.

— Og'ang otni o'ziniki qilib olibdimi, hayda bu yoqqa! — Asanbek unga tomon qadam tashladi.

Tapay otga qamchi urdi, qorabayir yelib ketdi. Qochib borayotib:

— Otboqardan so'rab oling! — dedi.

— Eh, Tapay, Tapay! — dedi Asanbek chorasizlikdan kulib.

Tapay otxonaga kelib, hech kimni ko'rmadi. Har gal kelganida, Tapayni qorabayirdan tushirib, otni bo'shatib, yuganni bolaning qo'liga tutqazishardi. Podadagi sigirlar Tapayning yonidan o'tib borayotganida, u tashvishga tushdi. O'zi-ku, bir iloj qilib, otdan tushadi, lekin qorabayirning og'zidan suvliqni qanday chiqarib oladi? Bola biroz o'ylanib turdi-da, otni devorga yaqinlashtirib, yerga tushib oldi. Keyin enkayib, otning yolini siypalab, uni tinchlantirdi. Yuganni yechmoqchi bo'ldi, lekin u otning boshiga ilinib qoldi.

— Dr-r-r... Dr-r-r... — Tapay jahl bilan otxonadan chiqib, ko'chadagi do'konning ortidagi tomorqaga o'tdi. Ot tizginni bosib olganidan keyingina yugan yerga tushdi. Tapay izlab yurib, arang topdi.

Tapay yuganni sharaqlatib ko'tarib, yugurib borayotib o'yladi: "Sigir nima bo'ldi? Oyim qaytarib olganmikan?"

U tashvishlandi. Tog'dan esayotgan kechki shamol bolaning vujudidan chiqayotgan terni quritishga urindi. Archa, qarag'ayning isi Tapayning dimog'iga urilib, uni erkalatganday bo'ldi: "Baraka top, do'stim, baraka top..."

Bola alhol hech narsani o'ylamaydi. U faqat odamlarning e'tiboriga tushib, ularning ko'nglini ovlamoqni istaydi. Ko'pchilikning maqtovi uni shunday ezgu ishlarga undaydi.

Ba'zan yo'q yerdan ishkal chiqib, ishi yurishmagan kunlari ham bo'ladi. Tapay hozir ana shunday kelishmovchilik ustidan

chiqdi. Oyisining qo'shni bilan janjal qilishi mumkinligini hech qachon o'ylamagandi, uyiga kelsa, hovlining chetidagi to'siq yonida Iymonalining ayoli bilan aytishib turgan ekan:

— Sigiringni nega bog'lab olmaysan, to'la ko'ylakni!

— To'lamayman!

— To'laysan!

— To'lamayman, deyapman. Uqdingmi!

— Noma'qul gaplarni qo'ysalaring-chi, — Iymonali ayolining bilagidan tutib uyiga olib ketdi. Buni ko'rgan Tapay oyisining qo'lidan ushladi.

— Oyijon, qo'ysang-chi...

— Yashamagur, chillashir! — dedi oyisi jahl bilan Tapayni turtib. Bola yiqilib tushdi. — Birovning otini yetaklaguncha, sigirni o'ylamaysanmi?.. Ko'ylagingni chaynab ketmadimi?

Tapay yuzining changini artib o'rnidan turdi. Iymonali ko'rib qolmadimi, degan hadikda ortiga o'girilib qaradi. Oyisi tinmay javrayverdi:

— Senga sigirni qara, demaganmidim?! Birovning yumushi yaxshimi yoki o'zimizning ishimiz afzalmi?

Tapay boshini egib, indamay turdi. Oyisining ba'zan shu tarzda achchig'langanini yoqtirmaydi. U ko'pincha otasiga suyanadi. Otasi hech kimga yomon gapirmagan, aksincha, barchaga foydasi tekkan, hammani hurmat qiladi. Tapayning otasi hozir molboqarlarning oldiga ketgan. Agar u bo'lganida, enasi qo'shni ayol bilan hech qachon aytishmasdi.

"Tezroq katta bo'lib qolsam edi!" deb o'yladi Tapay. Undan nari fikrlashga chog'i kelmadi: shomgacha birovlarning yumushini bajarib holdan toygani uchun tezda uxlab qoldi.

Tapay sigirni podaga qo'shib, muzdek suvga yuzini yuvib turganida, Iymonali qorabayirni yetaklab o'tdi.

— Assalomu alaykum, — dedi Tapay yuzini sochiqqa arta turib.

Og'asi alik olib, uning hol-ahvolini so'radi. Bola shoshilib qoldi: "Onang urmadimi, deb so'ramasaydi". Iymonali qorabayirni yetaklab, siyrak sariq mo'ylovini burab, hovlisi tomonga o'tib ketganidan keyingina Tapay uyiga jo'nadi. Hovlilarining yaqinidagi

do‘nglikka chiqib, tog‘dan qaytayotgan otasini ko‘rdi. Quvonganidan turgan joyida sakrab-sakrab o‘ynadi.

Otasining yuzi qizarib, biroz to‘lishibdi.

— Assalomu alaykum! — dedi Tapay salom berib.

— Va alaykum assalom. Otasining polvoni, qalaysan?

— Yaxshi. — Tapay yugurib borib, otasining otini qoziqbog‘i qilib bog‘ladi. Bugina emas, u arqonni kurmak qilib bog‘lashni ham yaxshi biladi.

— Qanday yangiliklar bor? — dedi otasi meshlarni yecha turib.

Tapay oyim qo‘shnimiz bilan janjallashdi, degisi kelmadi. Axir, u nima bo‘lsa ham, ayol-da...

— Biror yangilik yo‘q, — dedi hech nima bo‘lmaganday.

Otasi ikki sanoch qimizni yerga qo‘ygach, bola unga yaqin kelib:

— Og‘amning uyidagilarni ham chaqirib kelaymi? — dedi shivirlab.

— Mayli, otasining polvoni.

Tapay Iymonalinikiga yugurdi. Og‘asi otining egar-jabdug‘ini yechayotgan ekan. Anor Tapayni ko‘rib, burnini jiyirib, yer chizdi. Unga yaqinlashsa:

— Onang nima uchun biz bilan urishdi? Bor, o‘ynatmayman, — dedi.

Tapay dovdirab qoldi:

— Janjallashsa, oyim janjallashgandir, ikkimiz urishganimiz yo‘q-ku.

Anor indamay uyga kirib ketdi. Tapay og‘asining yoniga bordi.

— Og‘a, sizlarni biznikilar chaqirishyapti.

— Nimaga? — dedi Iymonali ko‘k ko‘zlari bilan muloyim boqib.

Tapay shapkasini o‘nglayotib, tamshandi:

— Otam ikki meshda qimiz olib keldi.

Iymonali qo‘lini yuvib, xotini chaqirdi:

— Oysha, ey, Oysha!

— Nima deysan?

Uy ichidan ayolining ovozini eshitib:

— Tapay chaqirib kelibdi, birga borib kelaylik. — dedi.

Bola og'asi bilan yangasining ortidan ergashdi. Anor uyaldi, shekilli, uydan chiqmadi. Ostonaga bir-ikki qadam qolganida, Tapay tez borib eshikni ochdi. Iymonali salom berib xonaga kirdi. Uydagilar "kel, kel" deb qarshi olishdi. Tapay oyisidan ko'zini uzmadi: "Tag'in jaljallashib qolishmasa edi".

Oyisi qo'shnilarning tashrifidan ranjigan bo'lsa-da, qovog'ini uymadi. Lekin Oyshaga qaragisi kelmay, kayfiyati buzilganini sezdirmaslik uchun anchagacha oshxonada kuymalandi.

— Ichinglar. — dedi Tapayning otasi chehrasi ochilib. — Toza qimiz.

Iymonali va ayoli kosa aylantirishdi.

— Suyumxon... — Tapay otasining gumonsirab qarab qo'yganini payqadi. Oyisi qimiz quyib:

— Ichinglar, qonni ko'paytiradi deyishadi, — dedi istar-istamas past ovozda.

Qo'shnilarning kayfiyati yaxshilanib, anchagacha suhbatlashib o'tirishdi.

Suyumxonning qovog'i bulutdan so'ng shamol ochgan oftob singari yashnab, Oyshaga iliq-issiq muomala qildi. Shundagina Tapayning yuragi o'rniga tushdi: "rostdan ham yarashib olishdi".

Qo'shnilar ketganidan so'ng Suyumxon Tapayni chaqirdi. Oyisining mendan so'ramay nega qo'shnilarni chaqirib kelding, deb so'roqqa tutishini sezib, u hovlida aylanib yurgandi. Chindan ham, uyga kirishi bilan oyisi so'radi:

— Qo'shnilarni nega chaqirib kelding?

Tapay yalt etib otasiga qaradi. Ota-onasi bir-biriga qarab jilmayishdi. Suyumxon Tapayni bag'riga bosdi...

KENGESH JUSUPOV

Qirg'iziston xalq yozuvchisi, "Manas" ordeni sohibi Kengesh Jusupov 1937-yilda Norin viloyatining Tiyonshon tumanida tug'ilgan. "Qirg'iziston" nashriyotida, "Qirg'izfilm" kinostudiyasida xizmat qilgan, "Olatog'" jurnalini boshqargan.

"Ota yurt", "Mening qalbim tog'larda", "Tulpor", "O'rmonchilar", "Yoshlik shukuhi" singari ko'plab qissa, hikoyalar, hajviya va publitsistik asarlar muallifi. Asarlari o'zbek, rus, qozoq, fransuz, ingliz, ukrain tillariga tarjima qilingan asarlarning muallifi. Aliqul O'smonovga bag'ishlangan "She'r qanotidagi umr" qissasi bir necha marta nashr etilgan.

MENING QALBIM TOG'LARDA

I

Ba'zan o'z-o'zimdan o'kinaman. Agar menga rassomlik nasib etsa bormi?! Bordi-yu, shunday iqtidorga ega bo'lganimda hech kim ko'rmagan, birorta odamning xayoliga kelmagan bo'yoqlar bilan tog'larni tasvirlardim. Keyin uni boshim uzra ko'tarib elga ko'z-ko'z qilardim.

Afsuski menga iqtidor buyurmagan ekan, taqdirga tan bermay ilojim yo'q. Hayot o'zining ana shunday o'kinarli ishlari bilan qiziq.

Tog'lar qalbimni yorib chiqguday bo'ladi. Chunki, tog'likman-da. Basharti siz ham tog'lik bo'lsangiz men nima demoqchi bo'layotganimni yaxshi tushunasiz. Osmon o'pkan tog'lar bag'rida o'tgan bolaligimni bir umr yozgim keladi.

Yorug' olamga kelganimni dastlab tog' eshitib, o'zining aks sadosi bilan dunyoga azon chiqargan. Sevinib, boladayin yig'lagan...

Unda g'o'r edim. Uydagilar o'qishga borishingga yaqin bir yil bor deyishardi. Qo'ni-qo'shnilarning bolalariga qo'shilib qog'oz-

qalamning janjalini qildim. Erkimga qo'yishdi. Dastlab chizgan suratimni otam ko'rib:

— Bu tog', — dedi.

Tog'. Mening birinchi "asarim".

O'z vaqtida e'tibor bermabman. Ovuldan olis ketganim sari tobora tog'ni sog'inadigan bo'lib qoldim. Shunchaki tog'ning shakl-shamoyili tushirilgan tasvirlar ko'z o'ngimdan ketmaydi.

Olisga safarim ham tog' orasidan boshlangan. Sababi, ota-onalarim yelkalariga opichtirib olib, sayr-u sayohat qildirishgan. Oppoq qorlar, qiyalama so'qmoq, qarag'ay, bir tovon yo'ldan o'rlab borayotgan yukli tuyaning tayg'oqda surilib ketishi, bari-bari yodimda. Xuddi ertakka o'xshaydi...

Gohi tog'larni g'aroyib ertaklarni bosib yotgan devlarga o'xshataman. Aqlim yetmagan narsalarni katta odamlardan so'rasam: "Qanday deb aytsam bo'larkin, mana bu tog'ni ko'rayapsanmi, o'shanga o'xshaydi" deb oppa-oson qutulib ketishardi. Momomning cho'pchaklarini tinglaganimda o'zimdan-o'zim cho'chib, tobora uning pinjiga kirib ketardim. Biroq ertaklarini mazza qilib tinglardim.

Tog'lik bolalar dastlab hisobni yulduzlarni sanashdan boshlagan bo'lishsa kerak. Oqshom tushgach: o'tovdan chiqib yulduzlarning hisobini chiqarolmay boshimiz qotardi. Bamisoli tappi solinadigan qoplarga o'xshardi, ularni terib olguday yaqin. Tog' qo'ynidagi oyli tunni sira aytmang. "Oq churmak", "Xayinchalak", "Dumpuldak" kabi xalq o'yinlarining gashti tamom o'zgacha.

Tog'liklar "oq" degan so'zni tabarruk bilishadi. Oq o'tov, oq qalpoq. Ko'bizning qopqog'i oq. Yegan-ichganlari oq. Onalarning boshlaridagi jelaklar oppoq. Hatto vaqti-qazosi yetganlarni ham oq matoga o'rab dafn etishadi...

Tushlarimga qip-qizil tog'lar kirardi. Bolalik ekan-da. Cho'qqilarida olov yonadi. Qanot bog'lab parvoz qilaman. Keyin ming tuban ag'darilib, shaqiragan suvga tushaman. Sohildagi tol chiviqlariga qo'lim yetmaydi. Oqim girdob tomon sudraydi. Qirg'oqda turgan momomga ko'zim tushib jon holatda baqiraman. Momom peshonamni silab, "yosh bolaning tushiga tulkining tezagi" deb meni yupantiradi.

Rassom Rerixning tog'lari menga shunday tuyuladi. Ular men yashagan tog'larning ayni o'zi. Bu jihatdan Kentning aslo qiyosi yo'q.

Usmon degan og'am tez-tez yodimga tushadi. Momom ikkimiz ana shu Usmon akamni qora tortib yonma-yon o'tov tikib yashardik.

Momomning jon-dili qimiz. Agar momom qishda og'rib qolg'uday bo'lsa, dadam Qoratol, Japiriq ovullariga borib bo'lsa ham qimiz topib kelardi. Bir kosa qimiz ichsayoq momom otdek bo'lib ketadi.

Qishloqdagilar "bu kampirniki bol qimiz" deb maqtab ichishardi. Qimizni quvga quygach, oppoq dokaga xushbo'y dori-darmonlarni solib tuni bilan hech erinmay pishib, ishlov berib chiqadi... Qarabsizki, ertalab bol qimiz muhayyo.

Og'am ajabtovur kishi. O'ylab ko'rsam, Mikelanjeloning "Peremiya payg'ambariga" o'xshab ketadi. U hali yetilmagan qimizdan bir kosani sipqorib, biyalarni haydab qirga oshiqadi. Oqshom qulunlarni bog'lagach o'z ulushini olib adir tomonda xotirjam qimizxo'rlik qilishni yoqtiradi.

Biz Ko'ktuproq degan yaylovda istiqomat qilardik. Bu yer yaqin atrofdagi eng baland yer hisoblanardi. Shuning uchun mol va buzog'ini yo'qotganlar akamdan so'raydi.

— Buzoq ko'rmadingizmi?

— Narigi dovondan oshdi. O'g'lingni yubor.

— Qo'ylarga ko'zingiz tushmadimi?

— Qo'ylaring Olay tarafga yo'l oldi.

— Ot ko'rinmaydimi?

— Tushovi bormidi? Archazor tomonda yuribdi.

Ba'zida momom og'angni ovqatga chaqirib kel deb qolardi. U esa meni yoniga o'tkazib so'zga kirishadi.

— Ana, qaragin, bir burgut aylanib yuribdi. Yaqin-atrofda ini bor shekilli. Ro'paradagi jilg'ani ko'r. Jannatning o'ziya. Bir uyur yilqi yuribdi. Orasida qizil biyasi bor ekan. Bular boshqa ovuldan kelibdi, shekilli. Ularni Archali tomonga haydab qo'yaylik. Cho'qqidagi arxarni ko'ryapsanmi? Chamamda o'q yegan shekilli. Qaragin-a, sening ko'zing yaxshiroq ilg'aydi. Eh, hozirgi yosh-

larning ko‘zlari juda o‘tkirda. Qisqasi og‘am tog‘-u toshlardan hech nigohini uzolmasdi. Har borganimda biror yangi gap aytadi. Ayrim vaqglarda yilqi haydash navbatini menga berib qo‘yadi. Yo‘lovchi tumanlar etaklarini yig‘ishtirmay o‘tovga yo‘l olamiz.

Xususan olis safarda yurgan kezlarda men ikki narsani o‘ta sog‘inaman. Esimga tushdi deguncha yuraklarim chak-chak tomib ketguday bo‘ladi. Buning bari — Onam, ikkinchisi — Tog‘. Har ikkovi ham mening qiblagohimdir.

II

Shunday qilib, tog‘ga boryapman. O‘ta sog‘inganman. “Adashgan o‘g‘il” degan surat xotiramdan chiqmaydi. Otasining etagiga yiqilgan bolaning surati. Men ham xuddi shunday. Yetib keliboq tog‘imga yo‘llandim.

Tog‘ga chiqaman. Yoshing ulg‘aygan sari, tez horiydigan, entikadigan bo‘lib qolarkansan. Gulni mo‘ljal olib yuqoriga talpinaman. Yana boshqa gulga yetish ilinjida o‘rlayman. Shu asnoda cho‘qqiga chiqqim keladi. Gullar, kapalaklar yal-yal tovlanadi. Asalarilar begona odamni ko‘rishi bilan bezovta bo‘lib boshim uzra g‘uvillaydi. Jilg‘aning o‘rtasida yolg‘iz kulba. So‘qmoq yo‘lning uchi unga borib qadalgan. Yuqorida yilqilar o‘tlab yuribdi. O‘ng qanotda shoirlarni lol qoldirgan archalar. Ro‘parada qarag‘aylar saf tortgan. Bir shoiri zamon o‘sha qarag‘aylarni “Qirdan tushib kelayotgan askarlar”ga o‘xshatgan emish.

Ulug‘ tog‘larga to‘yib-to‘yib boqaman. Entikib-entikib, odimlab, yana to‘yib nafas olaman.

Tog‘ buyuk olamning to‘lqinlariga o‘xshaydi.

Ulkan ko‘ch ortilgan karvonni eslatadi.

Ona yerning qanoti emasmikin?

Shularni eslab, ich-ichimdan o‘ksib yig‘lagim keladi.

Ko‘zlarimdan shashqator marjonlar uzilib yerga tushadi. Boisini o‘zim ham bilmayman.

Balki tog‘ning ulug‘ligidan yoki uning suluvligidan yig‘layotgan bo‘lsam ajab emas. Hech qachon bu qadar mazza qilib yig‘lamagandim. Qani qo‘limdan kelsa, o‘sha sho‘x-shan bolaligimga qaytib, o‘sha holatda qolsam.

Tik cho‘qqiga chiqdim. O‘tlar siyrak. Eng yuqorida elbosin degan o‘tlar o‘sadi. Ular sovuqqa, shamolga chidamli. Shabadaga bag‘rimni to‘sib, unsiz va nes turaman. Quyida kenglik. Ro‘paramda yalang‘och jarlik. Qumlar elakdan o‘tkazilganday shibbalanib yotibdi.

Tog‘lar tabarruk qo‘rg‘onim. Miltig‘imni olib ularga salut berdim. Toshlar aks sado qaytardi. Tog‘lar juda hushyor, sezgir. Aks sado ularning qarg‘ishimi yoki yig‘isimi bilib bo‘lmaydi.

Tog‘ni obdon tomosha qilgach, pastga qarab chopqiladim. Tog‘dan quyiga qarab quyoshni quvalab borayotirman.

Tog‘ uchib borayotgan kiyikka o‘xshaydi.

Tog‘ sakrab chopayotgan qulunni eslatadi.

Tog‘ go‘yo yashinday yaraqlaydi...

U zalvorli bulutday.

Bir o‘zim uni quchoqlash ilinjida yana chopaman. Bor kuch-quvvatim bilan bag‘rimga bosaman. U yerga botib qolgan chinorning o‘zi. Yechinaman. Beshikka yana shunday holatimda belashgan. Tog‘lar mening tayanchim. U mening umrim. Qudratli va ko‘z yoshlarim shu tog‘larga o‘rish-arqoq. Birozdan so‘ng, tog‘ bag‘rimni ilitib, kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Qon tomirlarim uning cho‘p xaslariga qo‘shilib ketdi chog‘imda. O‘rnimdan turib uchqur tulporni minib qamchi bosdim. Otim kishnab, suvliq chaynaydi. So‘ngra uning tizginini qo‘yib yubordim. Yollari taram-taram. Men qo‘llarimni qanot yanglig‘ yozaman. Tog‘larim ortimda qoladi. Bor ovozim bilan baqirgim-chaqirgim keladi.

Jonivorlarni zooparklardan ko‘rib quvongan odamni eslab ularga o‘zimcha achinaman. Qani endi o‘sha kimsalar bu holatni tog‘dan turib kuzatsalar. Uni otaman degan kishining quroli qo‘lidan tushib ketishi tabiiy.

Chunki, bunday odamlarni tog‘larning salobati, tabiatning go‘zalligi sarosimaga solib qo‘yadi.

Hayvonotlar muzeyidagi qotirib qo‘yilgan burgutni ko‘rgan mahalda bir tanishim “Endi buning qo‘lidan hech vaqo kelmaydi”... degani yodimda. Bechora tanishim burgutning kuch-quvvati tog‘liklardan kam emasligini qayoqdan bilsin...

* * *

Tog'lar ajoyib sahna. Uning bag'rida siz bilan biz ko'rmagan, bilmagan qancha tragediyalar, komediyalar qo'yilgan. Tog'lardagi buyuk tragediyalarning biri mening uchun Prometey azobi. Burgut bilan qoyani ko'rsam shuni eslayveraman.

Qadim grek afsonalarida yozilishicha, insonlarga yaxshilik qilish borasida Prometeyga yetadigani bo'lmasa kerak. Odamlar uchun Xudoning qo'lidan olov olib qochishining o'zi kifoyadir.

Qadim sharqda tog' bag'rida esdalik qildirish, suratlar chizish urf bo'lgan. Tog'liklar bisotidagi borini xarsanglarda aks etdirgan. Mikelanjelo qoyaga rasm solishni behuda orzu qilmagan bo'lsa kerak.

Jamiki xudolar-u, insonlarning tangrisi sanalmish Zevs o'zi turgan joyni tabarruk bilib Olimp tog'larini bekorga tanlamagan.

Jahondagi qaysi tog' o'ta go'zal? Geograflarning aytishiga qaraganda Amerikadagi Erozion tog'lari emish. Unga men qo'shilmayman. Barchasi bizning tog'larni oldidan o'taversin. Xuddi shunday!

Vaqtim tugab, tog' ortimda qolgani sari unga qayrilib boqaman. Cho'qqisiga yana chiqqim keladi. Negaki uning gard qo'nmagan boshida bolaligim qolib ketgan.

Bolaligim — kiyikning sakrashidan...

O'smirligim jaranglab aks sado bergan miltiq sadosidir.

Dumbul, beg'ubor go'dakligim tog' cho'qqisida...

Tog'dan tushib kelsam, shahar meni o'ziga chaqirib, deydi:

"Menda neni xohlasang bor. Piyoda yurmaysan. Gulimni hidlab, favvoramdan zavqlan. Raqs maydonida sho'x ohanglar senga muntazir".

Shaharning gaplariga uchib odim tashlayman-u, ortimga — tog'ga suqlanib boqaman.

Tog' birgina so'zni aytadi;

"Endi qachon kelasan?"

Mening tog'larga ketgim keladi.

Agarda ona bo'lsam, oppoq sutimni tog'larning boshi uzra sochardim. Tog'larning tortish kuchi — onalarning mehr kuchi bilan barobardir.

ASANBEK STAMOV

DAHRIYNING TUSHI

(hikoya)

Tun. Xonadagi sukunatni devor soatining bir maromdagi chiqillashi betinim zarbalaydi. Shundanmi yoki bugun mazasi qochdimi, haytovur, Jo'ldo'shbekning uyqusi kelmaydi. Qaydadir uzoqda avtobus bir gurilladi-da, xuddi o'pqonga tushib ketganday shu zahoti tinchidi-qoldi. Tashqarida shamol qo'zg'alib, derazaga urildi, tomda birov yurganday bo'ldi. A'zoyi badani hilviragan Jo'ldo'shbekning ko'nglini notayin g'ussa g'ijimlaydi. U og'ir xo'rsinib o'ng tomoniga ag'darildi-da, ko'zini yumdi.

Shu chog' g'amgusor bir tovush yangradi:

— Hayhot, Jo'ldo'shbek, ne bo'ldi, xo'rsinasan? Biror yering og'riyaptimi? Yo ishda biron ko'ngilsizlik ro'y berdimi?

Hushyor tortgan Jo'ldo'shbek yalt etib qarasa, ro'parasida farishta turibdi. Barmoqlari chaqaloqnikiday qisqa va oppoq. Sochlari patila-patila, chehrasi mohitobon. Nigohi munis. Kalta oppoq qanotlari bor.

Jo'ldo'shbek tavoze bilan unga jilmaydi.

— Hech yerim og'rimaydi. Ishim ham joyida, farishtam.

— Nafsilamrini aytganda, sen azaldan o'ziga puxta yigit eding. Xo'rsinig'ingni eshitib yetib keldim-da. Tani-sihating yaxshi, ishing joyida bo'lsa, nega uh tortasan?

— E-e farishtam, bani odam shunday tashvishchan bo'lar ekan. O'y-tashvishlarimning qaybirini aytayin. Boz ustiga, yarim kechada Sizni andarmon qilamanmi...

— Aslo, Jo'ldo'shbek. Charchash bizga yot. A'molimiz shunday. Jafokashga imdod berish, yo'ldan ozayotganlarni to'g'ri yo'lga solmoq — bizning vazifamiz. Xullasi, xohishimiz — odamlarga ezgulik.

— Gapingiz haq, farishtam. Va lekin mening g'ussam dushvor.

— Ateistman deysan, Jo'ldo'shbek. Va shuningdek, anjumanlarda: "Xudo yo'q, materiya birlamchi", deb baralla so'zlaysan, boshingga ish tushganda esa, doimo Xudoga yolborasan. Qudrati ulug', karami keng parvardigor ixlosingni inobatga olib, gunohlaringdan o'tib, barcha tilaklaringni jo-bajo aylagan.

— Gaplaringiz o'rinli, farishtam. Biroq barcha tilaklaringni bajo ayladi deganingizda g'alizlik bor. Hali ko'p niyatlarimga yetganimcha yo'q.

— Iya! Unday dema. Jami orzularing ro'yobga chiqdi. Xo'sh... u holda sen inkor etayotgan hoyu-havaslarni hisoblab berayin.

Jo'ldo'shbek indamay farishtaning og'ziga qaradi.

— Qirg'in-barot urush payti. U vaqtlar sen aqlini tanib qolgan dastyor bola eding. Ota-onangdan ayrilib, qarindoshing Boybekning uyidan boshpana topgansan. O'shanda yaratganga bu xilda yalinar eding-ku: "Ey Xudo, zamon o'zgarib, bug'doy nonga to'yar kun bormikin?" O'sha tilaging ro'yobga chiqmadimi?

— Ha-ha, shu xilda yolborgan kunlarim bo'lgan, farishtam. U vaqtlar uzoqni ko'rmagan bola ekanmiz-da.

— Haq, u kez bola edingiz. Qorindan boshqa g'am yo'q edi. Ba'daz, o'ninchi sinfni bitirib, institut ostonasida imtihondan o'tib student bo'la olsam, Sizdan mingdan-ming minnatdorman, degansan. Bu tilaging bajo bo'lmadimi?

— U payt aqlimiz quyilmagan bo'z bola edik-da.

— Institutni bitirar chog'ing Xudoga iltijo qilganing yodingdami? Mo'ylovi sabza urgan yigirma to'rt yashar yigit eding-ku.

— Farishtam, nelar deyapsiz? Unda men materialistik falsafani chandon o'zlashtirib olgan mahalim edi. Bundan tashqari, aspiranturaga kirmoqchi edim. Men o'shanda qanday Xudoga topinayin.

— Men farishtaman. Odamzot yaralib, u o'z holicha tirikchilik qila boshlagandan buyon intilganim ezgulik. Riyo rizqni yo'qotadi. Farishtalar yolg'on so'zlarmidi. Har bir imtihon oldidan Xudoga tavallo qilar eding. Shu sabab, imtihonlardan a'lo o'tding, kafedra a'zolari qo'lingni qisishdi, aspiranturaga qabul qilishdi. To'g'ri, boya aytganingdek, ateizm bo'yicha dissertatsiya yoqlamoqchi bo'lding. To'rt yil o'tgach, keksa-yosh olimlar anjumanida

dissertatsiya yoqlading. Bay-bay, ilgari seni hech shu taxlit ko'rgan emas edim. Dissertatsiya yoqlar kuning tun bo'yi ko'z yummading. "Ey Xudo taolo, madadkor bo'l. Ikki dunyoda unutmayman. Qo'llar bo'lsang, shu gal qo'lla. Ikkinchi marta kufronalik qilmayman", — deding... Zal to'la odam. Ilmiy kotib so'z berganda, yo'rg'alab kafedraga chiqding. Qo'ling titrab, ovozing bo'g'ilib biroz turding. Ichingda kalima keltirib, materiyaning birlamchiligi haqida gap boshlading. Qadim zamonlardan Marksgacha o'tgan faylasuflarning dunyoqarashlariga to'xtalding-da, dinning kelib chiqishi, Xudo degan tushunchaning aniq va mavhum ma'nolarini tahlil qilding. Shunday qilib, "Xudo yo'q. U ming yillardan buyon xalq ongini zaharlab, ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'lib kelgan", — deding. Zalda o'tirganlar qarsak chalib olqishladilar. O'sha kuni sen falsafa fanlari nomzodi degan unvonga sazovor bo'lding.

— To'g'ri, — dedi Jo'ldo'shbek bosh irg'ab.

— Ko'rdingmi, Jo'ldo'shbek, Xudoning ana shunday qudrati ulug', karami keng. Qanchalar tahqirlasang ham, u sendan yaxshilikni darig' tutmadi. Hozir ham Xudoning atrofida qo'rg'onlashib o'tirgan edik. Sening xo'rsinganingni eshitib, "Borib ko'rchi, — dedi menga Parvardigori olam. — Yarim kechada oh urib azob chekayotgan qay bandam ekan? Kelib ko'rsam, sen ekansan. Ne bo'ldi, Jo'ldo'shbek? Bu xil g'aming yo'q edi-ku. Orzulagan saodatlariga sen kabi kim yetibdi. Mana dang'illama uy. Pulni esa dastalab olyapsan. Oilali bo'lding. Munchoqdek ikki bolang chopqillab yuribdi. Yana senga ne kerak?"

— E-e, farishtam, nimalar deyapsan? Baribir men baxtsizman. Bir payt o'ylamay qo'ygan qadamimning kasrini tortyapman. Hamma ishni aql bilan qilar edim. Oxirgi... ishda yanglishdim.

— Evoh, ayta qol, qay ishda yanglishibsan? — dedi farishta. — Balki tuzatarmiz.

"Tuzatarmiz" deganidan Jo'ldo'shbek suyunib ketdi.

— Farishtam, qay til bilan so'zlayin... Rafiqam yomon chiqib qoldi. Qisqa qilib aytganda, o'zimga yoqmaydi. Endigina o'ttiz bahorni ko'rdim. Oldinda qancha umr bor, bilmayman. Butun umrim shu xotin bilan o'tadimi? Yo...

Farishta taajjublandi.

— To‘xta, to‘xta, Jo‘ldo‘shbek. Bu xotin bilan ko‘ngil qo‘yib qovushgan eding-ku. U qiz tarang qilib uyidan chiqmaganda, oh urib: “Ey Xudo, shu qiz yorim bo‘lsa, ikki dunyoda shukronalik keltiraman”, deb eding. Darding bo‘lak, shekilli. Haligi laborant juvonga ko‘z olaytiryapsan, chog‘i, unga ishqibozsan-a? Ikkovingizni bir-ikki bor restoranda ko‘rgan edim.

— Farishtam, yigitning jonini kirgizadigan juvon ekan. Rafiqamga yoshlik qilib uylanib qo‘yibman. Xudodan oxirgi marta so‘rayman, agar chin bandam desa, bu gal ham rahm aylasin. Aslo armonim qolmaydi.

— Yaxshi, — dedi farishta Jo‘ldo‘shbekka. — Bu so‘nggi o‘tinchingmi? Mayli, shafelik qilib ko‘rayin. Zoraki, bu gal ham shafqat aylasa. Lekin kelishib olaylik. Sen juda parishonxotir ekansan. Keyin tonib yurmagin. Shuning uchun bu o‘tinchingni yozma ravishda izhor etsang. Tushunyapsanmi? Bizga ham hujjat kerak.

— Yozma ravishda dedingizmi?

— Ha. Xudo taologa ariza yoz. Unda iltimosingni muxtasar bayon et.

— Arizani qay xilda yozsamikin? — dedi Jo‘ldo‘shbek o‘ylanib.

— Qanday bo‘lar edi. Odatdagidek. Masalan, ta’til so‘rab yoki avans pul zarur bo‘lganda, qay tarzda yozar eding?

Jo‘ldo‘shbek o‘rnidan turib, stulga o‘tirdi-da, ariza yoza boshladi. Har bir harfni shoshmay ravon chizadi: “...O‘n sakkiz ming olamni yaratgan, har bir narsani ko‘rib turgan shafqatli Xudo taologa.

Olim Jo‘ldo‘shbek Jo‘lbo‘ldiyevdan ariza”, — deb yozdi-da, bir sidra ko‘zdan kechirib, taraddudlandi va “olim” degan so‘zni o‘chirib tashlab, davom ettirdi: “Qudrati beqiyos Xudo, senga ariza yozishimning sababi qo‘yidagicha: yostiqdoshim yomon chiqib qoldi. Har kuni tergab urishadi. Men kabi olim kuyovidan faxrlanish o‘rniga, ba’zida og‘aynilar bilan ulfatchilik qilib kelsam, yechintirib divanga yotqizib issiq qahva berish o‘rniga, piqillab yig‘lab kayfiyatimni buzadi: “Sen xohlagan joyda, istagan kishing bilan yurasan. Hayhotday uyda qamalib kechalar o‘zim yolg‘iz

qolaman". Xotinimning nodonligini ko'ring. Keng uyning kelini bo'lib o'tirganiga suyunmaydimi? Bugina emas. Yor-birodar yoki qishloqdan qarindosh-urug'lar mehmon bo'lib kelishganda, kamsitganday meni dastyorlikka soladi: "Jo'ldo'shbek, do'konga chiqib kel. Gazga qo'yilgan suv qaynadimikin, qara-chi!" Uning qilmishlarini sanab chiqishga so'z yetmaydi, Tangrim, adolat qiling. Hammasini yozib boshingizni qotirmoqchi emasman. O'zingiz ko'rib turibsiz-ku, axir. Sizdan so'rovim: ushbu xotindan meni xorij eting, biron yaxshi ayolga yo'liqtiring. Umrim harom bo'lmasin. Siz axir insonga bir martagina umr berasiz. Bu mening so'nggi iltijoyim.

Sizning sadoqatli bandangiz — Jo'ldo'shbek Jo'lbo'ldiyev".

Jo'ldo'shbek arizani yozib bo'lgach, uni bir sidra o'qib chiqdi-da, farishtaga yalinchoq boqdi.

— Yozib bo'ldingmi?

— Yozib bo'ldim. Lutf eting, farishtam.

Farishta arizani lip etib oldi-da, shuvillaganicha arshi a'loga uchib ketdi. Qandayin javob bo'lar ekan, deb Jo'ldo'shbek ne o'ylarga bormadi. Oradan qancha vaqt o'tdi, bilmadi, bir vaqt qo'lida arizani tutganicha farishta uchib keldi.

Jo'ldo'shbek hovliqqanicha o'rnidan turdi.

— Qanday? Xursandchilikmi?

— Arizangni to'g'ridan-to'g'ri Olloh taologa eltdim. Darhol o'qib chiqib, ul hazrat tagiga yozib qo'ydilar. O'zing o'qib boqchi.

Jo'ldo'shbek shoshilib ovoz chiqarib o'qidi: "Bandayi azizim, olim Jo'ldo'shbek Jo'lbo'ldiyevga. To'g'ri, orzuga ayb yo'q. Va lekin istig'for qilg'il. Jamiy erkaklar kiroyi yor deb intilasizlar. Gar sizlarga faqat yaxshi xotinlarnigina nasib etsam, yomon xotinlarni kimga buyuraman. Yomon bo'lsa ham, peshonangga shu qiz jufti haloling bitilgan. Totuv yashashga harakat qilgil. Xudoyi taolo"...

Og'zini ochganicha lol turib qolgan Jo'ldo'shbekka farishta ma'noli boqdi.

— Tushunarlimi? Taqdirga tan ber. Bundan buyon ahil bo'linglar, — deya samo sari yo'l oldi.

Shu chog' kimdir Jo'ldo'shbekning biqiniga turtdi. Qarasa,

qarshisida shayton turibdi. Dumi uzun, echkinikiday burama shoxli. Basharasi odamga o'xshash-u, irjayishi biram qutsiz. U qiyshanglab kuldi-da:

— Jo'ldo'shbek, yaratgan egaming bilan farishtang senga ko'mak berdimi? Yaxshisi, menga quloq os: ilgarigiday yeb-ichib, o'ynab-kulib yuraver. Odam bolasi bir marta dunyoga keladi. Xi-xi-xu-xu... Biqiniga qattiq zarba yegan Jo'ldo'shbek sakrab o'rnidan turdi. Ko'zini ochsa, xotini turibdi, ko'zlari yoshli.

— Jo'ldo'shbek, turmaysanmi, tur. Bugun ham mast bo'lib kelding. Shu odatingni qachon tashlaysan? Nega qiynaysan meni? Turib, nonushtangni qil. Men bolalarni bog'chaga olib ketyapman.

Jo'ldo'shbek yostiqdoshini o'ziga tortdi, boshini siladi-da:

— Yig'lamagin, jonim! — dedi. — Bolalarni bog'chaga men o'zim olib boraman...

ELIKBOY O‘TINCHIYEV

Taniqli qirgiz adibi E. O‘tinchiyev 1939-yilda Tolas viloyatiga qarashli Chimkent qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlabki hikoyalarini 1960-yildan iborat yoza boshlagan. Uning "Botgan quyosh chiqadi", "Sergak umrlar", "Qishloq tongi", "Bir to‘g‘aloq don" va "Oltin qoziq" nomli asarlari bilan kitobxonlarning e’tiboriga tushgan.

U Uilyam Folknerning hikoyalarini qirg‘iz tiliga tarjima qilgan.

BOLA EKAN-DA...

Uning dadasini o‘ldirib qo‘yishdi. G‘isht bilan orqa miyasiga urishgan ekan. Kiyim-kechaklariga qon uyub qolgan, chalajon dadasini traktorga tirkalgan shalog‘i chiqqan telejkada olib kelishdi.

— Onangni tez chaqirib chiq! — deb baqirdi qora to‘ri kishi do‘rillagan ovozda.

Telejkachilarning rang-ro‘yi gezarib ketgan. Bola hang-u mang bo‘lib, vujudini bosib, kalovlanib qoldi. Haligi kimsa yana baqirdi.

— Qulog‘ing kar emasmi? Onangni chaqir.

Bola uyga chopib kirarkan, "dadam ko‘proq ichib mast bo‘lib qolgan shekilli", — deb o‘yladi.

Eshik oldiga kelib to‘xtagan traktorni va undagi odamlarni derazadan kuzatib turgan onasi hovliqib kirgan o‘g‘lidan hadiksirab so‘radi:

— Kimlar? Nimalar deyishyapti? Dadang mastmikan?... — shoshib so‘radi.

— Bir kishi sizni tezroq chiqsin deyapti.

— Tinchlikmi o‘zi? — deb ayol dahlizdagi kalishni bir navi kiyib, ro‘molini yo‘l-yo‘lakay o‘nglab o‘g‘lining ortidan ko‘chaga oshiqdi. Yo‘qlab kelganlar qo‘shni ovullik odamlar edi.

— Singlim yaqinroq keling, — dedi qorachadan kelgan kishi. — Qalibekni do'xtirga olib boryapmiz, traktorga tezroq chiqing.

Ayol shoshib so'radi:

— U qayerda, tinchlikmi o'zi?

Telejkada o'tirganlar qora to'ridan kelgan hamrohparining gapiga norozi bo'lishib bosh chayqaydi.

— Attang, bekor to'xtatdi-a. To'g'ri kasalxonaga olib borish kerak edi.

Qora odam do'stlarining e'tiroziga e'tibor bermay so'zida davom etdi.

— Qalibekni qattiqroq qaltaklab qo'yishibdi. Do'xtirga olib bormasak bo'lmaydi.

Ayol shoshib telejkaning g'ildiraklariga oyoq qo'yar-qo'ymas tepadagilar uni yuqoriga tortib olishdi. Traktor talpinib o'rnidan ko'zg'algan mahalda ayol chinqirib yubordi.

Onasining qo'llari yozilib, so'ng telejkaning ichiga yuz tuban yiqilganini ko'rgan bolaning yuragi hapqirib otasiga bir gap bo'lganligini his etdi va tezlab borayotgan traktorning ortidan zing'illab chopa ketdi. Yo'l-yo'lakay "Kim urdi? Nega urdi? Nahotki otasining kuchi yetmagan bo'lsa? Agar yonida bo'lganimda o'sha ahmoqning qo'llarini chaynab tashlardim. Hech bo'lmasa dadamga tosh olib berardim, degan armon bilan chang-to'zonda yugurardi.

Bolakay telejkaning orqasidagi kuzoviga bir navi ilashdi. Ayolning achchiq yig'isidan motamsaro holatga tushgan kishilar traktorga tirmashib chiqib kelayotgan bolani ko'rib lol qolishdi.

— Senga nima bor, uyda ukalaringga qarab tursang bo'lardi, — dedi qora kishi.

Novcha odam sherigiga shivirladi:

— Bolasi tushmagur-ey, ko'rmasa bo'lardi-da...

— Tirnoqni etdan ajratib bo'larmidi, — dedi hamrohi.

— Bekor to'xtabmiz, bolaning yuragi tushib qoladi, — sheriklarini quvvatladi cho'loq odam.

Bolakay qonga belanib yotgan dadasining oyoq tomoniga o'tirib kun ora o'zi tozalab beradigan etigini, eskirib qolgan fufaykas-

ini siypalab nafas olishiga quloq tutadi. Telejkachilar bola onasiga qo'shilib uvvos solib yig'lab, shashtimizni ketkazsa kerak degan xayolda edi. U qaytaga dadasini silab-siypalay boshladi. O'n ikki yashar o'smirning xatti-harakatini kuzatib turgan kishilar "Bo'ladigan bola boshidan", — deb undan mamnun bo'lishdi.

"Davangirday-davangirday shuncha odam qanday qilib dadamning kaltaklatib qo'ydiykin? Nahotki qo'y-qo'y deyish ham ular uchun og'ir bo'lsa? Yoki bularning o'zi shu ishning ustida bo'lganmikin? Dadam ancha-muncha kishiga so'z beradiganlardan emasdi. Hech kimdan hozirgacha dam yemagan otasining o'jar va betga choparligi shunday kor-holga olib keldimikin?!"

— Til yugurigi boshga deganlaridek bir gapdan qolsa, hech narsa bo'lmasdi, — dedi cho'loq kishi.

— "Och qornim, tinch qulog'im" deb mashoyixlar behudaga aytishmagan, qo'shimcha qildi novchasi.

— Oqibatda Qalibekning topgan foydasi shu bo'ldi. Tuzalib ketsa nur ustiga nur, — dedi yana biri.

Qorachadan kelgani g'ashi kelib tirjaydi;

— Mana shu aqlinglar bilan yaxshini yomon, yomonni yaxshi deyishga ustasizlar. Odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish borasiga kelganda, churq etmay yelka qisib ketasizlar...

Oq sariqdan kelgan kishi og'iz juftladi.

— Qalibekning ro'yi-rost gapiga haligi go'rso'xta chidolmadi. Atrofdagilarning so'zlari ham olovga moy qo'ydi. Ikki orada ish rasvo bo'ldi. U ahmoq albatta jazosini tortadi.

— Qalibekning gunohi yo'q. O'rmonning o'zi boshladi, — dedi pakana kishi. — Qalibek ikkovimiz tegirmondan kelayotgandik. Chinibekni uyiga yaqinlashganimizda "To'yga kiringlar" deb qolishdi. Kirsak O'rmon o'sha yerda ekan. Yosh-yalanglar o'rnidan turib bo'sag'adan joy berishdi. Qariyalar bunga rozi bo'lmay yuqoriga taklif qilishdi. Burni va ko'zi qizarib ketgan O'rmon so'zga aralashib "qo'yaveringlar, ular yuqorida nima qiladi? Qalibekning yetti-sakkiz yildan buyon ustidan tushmaydigan fufaykasi to'rga o'tsa urinib qolmasin", deb kisht tortdi. Churq etmadik. Biz gapirmaganimiz uchunmi O'rmonning g'ashi kelib yana diydiyosini boshladi. "O'zi bir ahvolda-yu, muxbirligiga balo

bormi? Rayonning shapaloqdek gazetasiga ovulda nimani ko'rsa yozib, tirnoqdan kir izlaydi. Meni qo'y boqish o'rniga to'y-to'ylab yuradi deb urib chiqibdi."

O'tirganlarning biri "To'g'ri yozibdi, qo'ylaring choshtgohga qadar qo'rada qamalib yotsa semirarmidi? Qalibek yana insof qilibdi. Gazetada ishlaganlar ko'rsa qanday yozish kerakligini ko'rsatib qo'yardi. O'tirganlar "to'g'ri" deyishdi. O'rmon qizarib-bo'zarib so'zga aralashdi. "Gazetaga bekorga yozarmidi? Suvchilikdan daromad ham buromad ham bo'lmagani uchun yolg'on-yashiq narsalarni chop etdirib bola-chaqa boqadi. Maqsadi tirnoqdan kir izlash. Dasturxon atrofida o'tirganlar "Birovning to'yida tinchroq o'tiraylik" deb O'rmonga insof tilashdi. Biroq u ancha sarxush bo'lgani uchun chakagi qizib qolgandi.

Qalibek o'zini zo'rg'a bosib o'tirardi. Og'irroq bo'l deb tizzasiga turtib qo'ydim. To'yga kelganlar Qalibek qanday javob qaytararkin, degan o'y bilan unga qarab turganini sezib O'rmonga yuzlandi:

— Mening niyatim halol yashash. Elimizning bir minggi tuman bo'lsin deyman. O'z farog'atini ko'zlab ish qiladiganlarga tobi-toqatim yo'q. Maqsadim yomonlar ozayib, yaxshilar ko'paysa ekan. Bugun O'rmon bashang kiyinib, sharobga to'yib gasht qilib yuribdi. Bu albatta uning ishi. Lekin, o'tgan yili qo'rasida oltmish qo'y yetmay qolib, qamoqdan olib qolinglar" deb tavba-tazarru qilgani esidan chiqib qolgan shekilli. O'shanda qishloqdagilarning har biri bittadan qo'zi berib uni saqlab qolishuvdi. "Endi ishi bitib, eshagi loydan o'tib" birovning to'yida qilayotgan gapini qaranglar. "Qashqir yeb ketdi" bahonasi bilan qancha qo'ylarni sotib yuborganingni kim bilmaydi? Xo'sh, ayt-chi, el-u yurtga qanday nafing tegdi?!"

Qo'lga suv quyilib, ovqat keltirildi. Oqsoqollardan biri "Qalibek to'g'ri aytdi, O'rmon sen qo'pollik qilding. O'ylab gapirish kerak. Endi gap tamom, ovqatga marhamat" deya yosh-yalangni ahillikka chorladi. O'rmon ovqatga og'iz tekkan bo'lib ichkilikka zo'r berdi. Dasturxonga fotiha o'qilgach, Qalibekka "Anovi ishning pachavasini chiqarmasin tezroq turaylik" desam "Qo'lidan nima ham kelardi" — dedi.

— O'rmonni urganini nechuk ko'rmay qolding? — dedi qorachadan kelgan kishi.

— Ko'p qatori uyga tarqaldik. O'rmon orqaroqda kelardi. Bunday bo'lishini qayoqdan bilaylik. Bir mahal odamlar "Hoy, Qalibek!" deb qolishdi. Qarasam, O'rmon pishiq g'isht bilan Qalibekni urayotgan ekan. Biz yetib borguncha Qalibek qizil qonga bo'yalib ketdi. O'rmonni ikki-uch bor tepib yubordim. Qalibekning jarohatini bog'lagunimizcha O'rmon qochib ketdi.

— Men o'sha yerda bo'lganimda unga ko'rsatib qo'yardim, — dedi Qora kishi. — Qochib ketganini qarang.

— Qochib katta xolasinikiga borarmidi? Baribir qo'lga tushadi.

— Bunga o'xshaganlarning jazosini berish kerak, — dedi oq sariqdan kelgan odam.

Telejka shaldirab kasalxona hovlisiga kirib keldi. Qalibekni zambilga olishayotganda bola yaqinroq keldi. Ona chirqirab fig'on chekardi.

— Dada! Da-da-jonim! — deb bolakay dadasining yuzi-ko'zlarini silardi. Ko'z yoshlarini yengi bilan artib dadasining bosh ko'tarishini kutadi.

Qalibekning aqli-hushi kirdi-chiqdi bo'lib ichkariga olib kirishayotganda ingrab yubordi.

— Dadang sog'ayib chiqquncha, sen hovli-joyga, ukalaringga qarab turgin. Oying otangni yonida bo'lishi kerak, — deydi kattalar.

Qalibekni uch kundan keyin dafn etishdi. Qabristonga bolani ham olib borishdi. Ta'ziyaga kelganlar udumga ko'ra tuproq tashlashdi. Bolakay o'ksib-o'ksib yig'lay boshladi.

— Qo'y, bo'tam qabrga ko'z yoshi to'kib bo'lmaydi. Undan ko'ra tezroq ulg'ayib dadangni o'rnini bos, — dedi chollardan biri.

Bola yozgi ta'til paytida lagerga borishdan bosh tortdi. Yilqichi qarindoshlari "Yaylovda bir-ikki oy o'ynab, qimiz ichib kelgin", deyishdi. "Onamni yolg'iz tashlab ketolmayman, ukalarimni kim o'ynatadi?" deb ko'nmadi.

Bir kuni ona-bola dadasini eslab qolishdi.

— Oyi, dadamning qabriga yodgorlik o'rnataman, — dedi bola.

— Katta bo'lsang qurarsan o'g'lim, hozir yoshsan, — dedi onasi.

— Yodgorlik o'rnatilmagan qabrlar ko'p ekan. Nurab tuproqqa qo'shilib ketmasin deymanda, oyi...

— Har kim o'z holiga yarasha ish qiladi, o'g'lim.

— Bizning kuchimiz yetmaydimi?

— Sen yoshsan. Na akang, na tog'ang bor. Ukalaring kichik. Mening darmonim yo'q, — deb oyisi ko'nmadi.

Bola onasiga aytmay har kuni qabriston yonidagi yo'l bo'yida g'isht quyib yurdi. G'isht qancha ko'p bo'lsa, yodgorlik shu qadar ko'rkamroq chiqadi, degan niyatda saraton oftobida erinmay ishladi. Goho tushki ovqat uchun uyga bormagan kunlari ham bo'ldi.

Bir kuni qurigan g'ishtlarni terayotib tinkasi qurib, ko'ngli aynidi. So'ng yaxna chalob ichib, bir navi o'ziga keldi. G'isht mo'ljalga yetgach, o'z ishidan shodlanib oyisiga aytdi.

Onasi ancha koyidi. Bola kulib yengdi. Nihoyat, oyisi bir usta bilan gaplashib, haqiga bitta qo'y berishga kelishib olindi. Bola loy hozirlab, g'isht uzatib turdi. Yodgorlik tiklanib, navbat suvoqqa yetganda kun haddan tashqari isib ketdi. Usta o'zini soyaga oldi. Bola ishga qiziqib, somonli loyni maromiga yetkazish bilan ovora bo'ldi. Peshin chog'ida u holsizlanib yiqildi. Usta uni yerdan ko'tarib olayotganida u "Da-da-jonim" deb shivirladi. Bolaga issiq o'tib ketgan ekan... Dadasini dafn etganlar uni ham g'am-anduh bilan qabrga qo'yishdi.

— Bolasi tushmagur-ey, namuncha dadasini yaxshi ko'rmasa, — dedi cho'loq kishi.

— Ilojimiz qancha? — Ota bilan bolaning tuprog'ni bir yerdan buyurgan ekan-da, — dedi oq-sariqsan kelgan odam.

— Bularning barchasiga biz gunohkormiz, — so'zni ulab ketdi qorachadan kelgani, — O'rmonga o'xshagan muttahamlarni o'z vaqtida tiyib qo'yishimiz kerak edi. Bola faqirga hech birimiz yordam berganimiz yo'q. Endi behuda gapdan nima foyda bor?!.

— Na chora? Bolaning voya yetishi ota uchun katta yodgorlik emasmi? — dedi pakanasi.

Qalibekning do'stlari ota-bolaning qabriga bejirim yodgorlik o'rnatib, atrofiga gul va ko'chatlar ekishdi...

QUVATBEK JUSUBALIYEV

1941-yili O'sh viloyatining Oloy tumanida tug'ilgan. Qirg'iziston davlat universitetining filologiya fakultetini, 1967-yili Moskvada Oliy ssenariychilik kursini bitirgan. O'sh viloyat gazetasida muxbir, "Qirg'iztelefilm"da muharrir bo'lib ishlagan. Bir qancha kitoblari chop etilgan, ko'plab badiiy va hujjatli kinofilmlarga ssenariy yozgan.

ULOQCHI

Mashhur uloqchi Ergash ko'rimsizgina kulbasining oldida, yakka-yu yagona paxtalik shimini xotiniga yuvdirib, qo'yteri po'stiniga burkangancha oftobda toblanib o'tiribdi. Xotini shimni qoqib-silkib, echki g'ajiyverib bir ahvolga keltirgan ikki tup tolga tortilgan simga yoyib qo'ydi. Yo'ldan to'p-to'p bo'lib o'tayotgan uloqchilarning gangir-gungur ovozi Ergashning yuragiga yana g'ulg'ula soldi. "Eh, bunaqaligini bilganimda shimni yuvdirmayoq qo'yardim", deya ko'nglidan o'tkazdi u.

— Bu yil qurirmikan isqoti shim! Oftobro'ya joyga ossang o'larmiding!..

— Qani o'sha oftobro'ya yer?! — deb shang'illadi ertadan beri o'lib-tolib kir yuvayotgan xotini. — Shiming ordona qolgur jonimdan to'yg'azdi! Xudoning kuni, bir joyga yaxshi, bir joyga yomon nur sochadi demoqchimisan? — Xotini shimni zarda bilan olib, tomning bo'g'otiga tirab qo'yilgan shotiga yoydi. Uning egmidagi rangi unniqib ketgan ko'k qarg'a shoyi ko'ylakning orqa tomoni qisilib qolganini ko'rgan Ergash o'zini tutib turolmay kulib yubordi.

— Ko'ylagingni tuzat, ho'v! Bor, qo'mizimni olib chiq.

U qo'miz chertib o'zini oz-moz alahsitmoqchi bo'ldi. Lekin, afsuski, "To'ng'iz so'ydi, it so'ydi" ohangidan boshqa birorta ham kuyni bilmasdi.

— Uloqqa buzoq so'yibdimi? — deb so'radi xotiniga qarab. Xotini: "Yomon kuydirdi-da", deya to'ng'illagancha ichkariga kirib kegib, anchadan keyin chiqdi. Shimining qo'sh pochasidan birin-ketin silqib tushayotgan tomchilarni ko'rgach, Ergashnmng hafsalasi pir bo'ldi.

— Hoy xotin, xashak yoqib quritsang bo'lmasmikan? — dedi-yu, darhol bu fikridan qaytdi. Chunki, xotini rozi bo'lmasligiga aqli yetdi.

— Gapingga kirib, shimingni kuydirib qo'yib baloga qolmay tag'in! Bu isqirt shimingni quritaman desa, butun ovulning xashagi ham yetmas! Bugun uloqqa bormasang, xonligingdan tushib qolarmiding?!

— Ey, shang'i, bo'ldi endi! Indamasam, boshimga chiqib olasan-a! — Ergash chinakamiga g'ijinib, qo'lidagi qo'mizni otdi. Erining achchig'i kelib qolganini payqagan xotini kaltakdan zada bo'lgan moldek bezovtalanib nari qochdi. Qo'miz tegmadi-yu, ammo qo'sh torini tutib turgan yog'och xarragi chiqib ketdi. Ergashning odati shunday, jaqli chiqqanda qo'liga nimaiki ilinsa, qarab turmaydi.

— Qo'mizni olib ber! — dedi u bo'g'ilib.

Xotini churq etmay kirini yuvaverdi.

— Hoy, olib ber, deyapman!

— O'zing ol, — dedi xotini bo'shtobroq ohangda.

— Olib bersang o'lib qolasanmi?

— O'zing olaqol, — dedi xotini asta.

Uning bu gapini eri eshitmadi hisob. "Yana qo'miz bilan tushirib qolsa-ya!", deya qo'rqa-pisa o'yladi xotini. "Agar qo'miz bilan solmasang, Ergash noming o'chsin", deb eri ham qarsillatib ura ketdi...

"Uloq chopmasam ham tomosha qilib kelarman". Shu xayol bilan o'rnidan turarkan, tomoshaning anchasi o'tib ketganini o'ylab, yosh boladay yuragi achishdi.

Ergashning hayotda ikkita ermagi va bitta xumorini yozadigan narsasi bor. Xotin bilan qo'miz — ermagi, uloq esa — "xumorbosdi". U jun arqon bilan belini mahkam bog'lab, ertalabdan beri yer depsinib turgan ko'kqashqa otini otxonadan yetaklab

chiqdi-da, shartta egarga mindi. Xotini bilan qo'mizini xafa qilib, uloqqa shoshdi. Guppi choponning tuklari badanini qichishtirib, bora-borguncha g'art-g'art qashlanib ketdi.

Ergash uloq chopiladigan maydon — Do'langa yetganida, ko'pkari obdan qizib, tumonat odam va otlar o'rtasidan osmonga bug' ko'tarilar edi.

Davra orasida yalangbosh, qamchi tishlagan uloqchi Olim sariqni ko'rganda Ergashning qoni qaynadi. "Rosa doli-g'uliga kelgan ekan", deb xayolidan o'tkazdi u. Olim sariq O'sh vohasidagi eng mashhur uloqchilardan bo'lgani uchun chakana-chukana ko'pkarilarga kelavermasligi aniq. Ergash uning bu tomonda nega o'ralashib qolganini bir chavandoz og'aynisidan eshitgan edi. O'tgan yili xuddi shunday kech kuzda katta bir uloqda uchrashib qolishganida o'sha do'sti Olim sariqning shu yerlik yoshgina juvonga uylanganini oshib-toshib gapirgan edi. Aytishlariga qaraganda, endi xotini ketib qolgan emish. Olim sariqqa uncha-muncha xotin turish bermaydi. Ergash ham bu jihatdan Olim sariqdan qolishmaydi. Xayriyatki, Ergashning hozirgi xotini xiyla chidamli chiqib, unga ko'nib qoldi.

Olim sariqni ko'rgan hamon xayolidan shu gaplar o'tdi-yu Ergash uni ko'z uzmay kuzata boshladi. Olim sariqning ustarada bir tekis qirilgan boshidan tortib ombirdek paydor qo'llarigacha hasad bilan tikildi, shunday qizg'in mahalda uning o'rnida o'zi bo'lmaganiga ich-ichidan o'kindi. Yonida turgan ishqibozlardan birining: "Yo bafarmoningdan ketay, uloq degan mana bundoq bo'libdi. Olim sariqni qaranglar, Olim sariqni!..", degan so'zlarini eshitib, battar g'ashi keldi. "Shu ham uloq chopish bo'ldi-yu!", deya o'ziga taskin bersa-da, yuragi battar hapriqib ketdi. G'artillatib qashinayotganini eshitgan bir kishining: "Hoy. Ergash, ko'pkariga kirmaysanmi, hadeb qashlanavermay?", degan gapiga parvo qilmadi-yu, biroq bu narsa biroz izzat-nafsiga tegdi, churq etmay nari ketdi.

* * *

Maktabdan chiqqan bolalar to'g'ri uloq bo'layotgan joyga kelishdi. Ko'zi ojiz kampirning yetti-sakkiz yoshlardagi nabirasi

devor-darmiyon qo'shnisi bo'lmish Ergash uloqchidan sira ko'z uzolmasdi. Bolakay hayron edi: nega Ergash akasi odatdagidek choponini yechib tashlab ko'pkari tortmayapti? Nima uchun u tomoshabinlar qatorida? Ergash uloqda sovrin oldi deguncha, ana shu qo'shni bolaga berib, goho otiga mingashtirib to'y-to'rkinga olib yurib o'rgatib qo'ygani uchunmi, har nechuk, gap nimada ekaniga uning aqli yetmasdi.

Tarvaqaylab o'sgan do'lana daraxtiga minib olgan yosh-yalang Olim sariqni maqtab o'zaro bahslashgani sari qo'shni bolaning jahli chiqardi. U ikki-uch marta: "Ergash aka, uloqqa tushing", deya chaqirib ham ko'rdi. Ammo, negadir Ergash o'zini eshitmaganga soldi. Eh, qaniydi, qo'shnisi hozir guppi choponini shartta yechib, odatdagidek: "Ushlab tur, toyloq yigitcha", desa-yu Ko'k qashqani yeldirgancha yig'inni qilichdek yorib, Olim sariqdan uloqni tortib olsa bormi, teng-to'shlarini rosa boplar edi-da. Nega tushmayapti? Nega? Bola uchun bu safargi uloqning hech qizig'i yo'qdek ko'rindi. Uyga ketgisi keldi. Uning qorni ochib borardi. Ichaklari "chuldirab" ketayotganiga qaramay, u hamon Ergashdan umidini uzmasdi.

Ajabtovur bir qiyqiriq bolakayning xayolini buzdi. Sergaklanib qarasa, Olim sariq uloqni taqimiga bosgancha marraga qarab chopmoqda. Qo'shni bola uni chumchuqqa chovut solgan qiyg'irga o'xshatdi. Marra do'lananing shundoq yonida. Uloqni o'ngargan Olim sariq keng maydonni bir sidra aylanib, elga ko'z-ko'zlamoqchi bo'ldi shekilli, otining jilovini chap tomonga burdi. Qora ot mingan bir chol: "Baraka topkur, Olim, menga bir oshirib qo'y! Bir oshirib qo'y, uka!", deya yalinib-yolvorardi. Bu qariya haligi bolakayning bobosi edi.

Bolakayning bobosiga rahmi keldi. "Ergash aka nega endi tarang qilayotir?" Shu payt kutilmagan hol yuz berdi: Ergash otini yeldirib kelayotgan Olim sariqning yo'lini to'sib, uloqning sonidan changallab torta boshladi. Buni ko'rgan qo'shni bola: "Yashang, Ergash aka!", deb baqirdi-yu gurs etib do'lanadan yiqilib tushdi. Apil-tapil o'rnidan turasolib: "Taqimga bosing! Taqimga!", deya qichqirdi u. Ergash qo'shnisining gapini eshitib qoldi shekilli, shartta guppi choponini yechib irg'itdi-da, uloqni

taqimga olib, Ko'kqashqaga qamchi bosdi. Olim sariq uloqni unga berib qo'ydi. Bola egni-boshini qoqib qarasa, tomoshaga to'planganlar hangu mang, ot ustidagi uloqchilar esa otlarining yoliga yopishgancha qotib-qotib kulishardi. Bola hech narsaga tushunmadi. Ergash mashhur uloqchilarning odatiga ko'ra Ko'kqashqaning jiloviga erk berib chopib yuribdi. Negadir uning orqasidan hech kim quvlamayapti...

Uloqchilar hamon qotib-qotib kulishar edi. Bolakay onadan tug'ma bo'lgandek yap-yalang'och Ergashni ko'rib cho'chib ketdimi, haytovur, o'ng chakkasini nimagadir urib oldi-yu og'riqning zo'ridan yig'lab yubordi.

Ergash uloqchining ortidan qora otini yeldirib: "Aynanayin, Ergash! O'rgilayin, Ergash! Bola-chaqangni rohatini ko'rgur Ergash! Bir oshirib qo'y!", deya ot choptirib yurgan bobosini u ko'rmadi.

JILQICHI JAPIYEV

Shoir va nosir J. Japiyev 1941-yilda Bishkek yaqinidagi Sari buloq qishlog'ida tavallud topgan. Qirg'iziston Davlat Universitetining filologiya fakultetini bitirgach "Qirg'iziston" nashriyotida xizmat qiladi.

Keyinchalik "Olatog'" jurnalida proza bo'limini boshqaradi. U "Darqiralar", "Yomg'ir ohanglari", "Yashil qirg'oq" hamda "Ovul bayoni" kabi bir qator asarlarning muallifi

ESKI TEGIRMON

Jamoaning umumiy yig'ilishida tegirmonga daxldor gaplar aytildi. Raisning o'zi "eliktr tegirmonni qurish haqida o'ylab ko'rishimizga vaqt yetdi" dedi.

— Iliktir tegirmon unni kuydirib yuborarkan, — brigadir qo'shimcha qildi.

— Yolg'on, kuydirmaydi. Qo'shni ovulda torttirib kelib, non yoptirdik, yaxshi ekan, — dedi yana kimdir.

Odamlar ikki xil fikrda. Qisqasi yangi tegirmon hozircha qurilmaydigan bo'ldi. Barakaboyga keyingi maslahat moydek yoqdi. Negaki u tegirmonchi. To'g'ri, eski tegirmon qishloqdan uch kilometr olisda, sharsharaga yaqin yerda. Uni ovuldoshlari hashar yo'li bilan bitkazishgan.

Barakaboy bu ishga o'tganida qirq yoshlardaydi. Hozir rosa yetmishga chiqdi. U doim telpak kiyib yuradi. Ust-boshidan tegirmonning cangi arimaydi. Qishloq joylarida eng gavjum joy choyxona bilan tegirmon. Barakaboy esini tanibdiki tegirmon bo'sh qolganini bilmaydi. "Toshlar qizib ketdi, yarim soat sovutib olaylik" deb odamlardan baloga qoldi.

— Men talqonimni tortib olay keyin, — deb oyoq tirab turib oldi navbatda turgan bir odam.

— Tosh qiziganda to'xtamasa tish tez yeyilib ketadi, — tushuntirmoqchi bo'ladi Barakaboy.

Navbatda turganlar noiloj ko'ndi. Sababi, boshqa ovuldagi tegirmonlarda ham yuk ko'p. Barakaboyga tortib bergan uni uchun qishloqdoshlari albatta g'alla beradi. Ammo toshni ehtiyot qilmasa, ish chappasiga ketadi. Bir soat o'tmay Barakaboyning tegirmoni yana g'uv-g'uvlab o'z ashulasini davom etdiradi. Kampir xampadagi unni kafti uzra ezg'ilab tegirmonchidan elak so'raydi.

— Chamamda sal yirikroq tortayotganga o'xshaydi, — dedi ko'ngli to'lmasdan.

— Mana elak, o'tkazib ko'r. Men bilan gap talashguncha chanoqqa don sol, tegirmon taraqlab ketdi.

Kampir shoshilib ola qopdagi bug'doydan chelakka solib, chanoqqa ag'daradi. Barakaboy chelakni kampirni qo'lidan olib, o'zi yordamlashdi.

— Chanoqqa yana bug'doy tashlaymizmi?

— Qolgan doningni uyga olib ketmoqchimisan? Qani, qopni yaxshiroq shimar.

— Baraka topgur, zap bo'ldida, — dedi kampir.

— Durustroq sol.

— Hovuchlab solyapman-ku? Duo qilsang ham bir balo.

— Duoyingni endi qizig'i yo'q.

— Voy, tavba nega qizig'i bo'lmas ekan?

— Qizig'i yo'qligi shundaki, meni yoshligingda aldab ketgansan.

— Bo'lmagan gap. O'h, belim-ey, qarigan chog'ingda suyanchig'ing bo'lmasa holingga voy ekan, — dedi so'zni boshqa tomonga burib kampirsho.

— Aldab ketganing yolg'on bo'lsa, — tegirmonchi boshidan o'tgan sarguzashtlarni yana yodiga tushirmoqchi bo'ldi.

— Qo'ysangchi, o'tgan ishga salavot, — dedi kampir darmoni qurib.

Tegirmon bir maromda g'uv-g'uvlaydi. Ayniqsa, kechasi uning shovqini o'zgacha eshitiladi. Xampaning oldida turgan odamga shu chog'roq bino tinimsiz qimirlab turgani aniq-tiniq bilinadi. Barakaboy bularga ko'nib ketgan. Uyi, bola-chaqasi tegirmon-

ning shundoq biqinida. Ovulga gohida tushadi. U rizq-ro'zini shu yerdan topdi. Uy qurdi, uylandi, qizlik, o'g'illik bo'ldi. Qizidan nabirasi bor. Urushdan oldingi va keyingi qimmatchilik kunlarida shu tegirmon unga asqotgan.

Rais aytganidan qaytmaydigan bir so'zli odam edi. Biror narsadan xafa bo'lib qolsa, aslo ayamay so'kardi. Kamchiligini bo'yniga qo'yib sharmisor qilishdan toymasdi. Barakaboy uning fe'l-atvoridan yaxshi xabardor bo'lgani uchun osongina ko'nib tegirmonni yurgizishni zimmasiga olgan. Mana o'ttiz yildan oshibdiki, ularning muomalasi hamisha birday. Rais tez-tez tegirmonga kelib, Barakaboyning holidan xabar olib turadi. "Shunday ekan, nega yurakdagi gapini o'zimga aytmay, majlisga soladi" o'ylanardi Barakaboy.

Tegirmonchi oxirgi kunlarda o'g'lidan ranjib qoldi. Avvallari tuppa-tuzik edi. Maktabdan bo'shagan zahoti dadasiga qarashib turardi. Yetti yillik maktabni biturgancha qishloqdan chiqqani yo'q. Keyin rayon markazida o'qib yetuklik attestatini olib qaytdi.

— O'g'limiz zehnli chiqdi, — dedi bir kuni xotini.

— To'g'ri aytasan, — so'zga aralashdi Barakaboy, — men qaridim, tegirmonni endi o'g'limga topshiraman.

— O'qishi-chi?

— O'qish tugadi. Endi xotirjam ishlayveradi.

— Yo'q, uni kattaroq o'qishga yuboramiz.

— Katta o'qishning nima keragi bor? O'n yil o'qidi yetadi. Qorni to'ysa bo'ldi xotin.

Chol bilan kampir shu ansoda urishib ketishiga oz qoldi. Chol o'zini qo'lga olib tashqariga chiqdi. O'g'li go'yo o'tgan ishlardan bexabardek peshin paytida dadasining oldiga — tegirmonga kirdi.

— Dada, shaharga borib kelay.

— Nimaga? — dadasi ataylab so'radi.

— O'qishga hujjat topshiraman.

— O'qishing bitmadimi?

— Institutga...

— Uning qancha yil?

— Besh yil.

— Demak, o'n besh yil. O'n yillik o'qish kamlik qiladimi?

— Sinovga boraychi, o'tolmasam qaytib kelaman.

— Onang nima deyapti? — O'smoqchilab so'radi.

— Bor deyapti.

— Bo'pti. — Keyin ichida "hamma baloni boshlagan onang" deb qo'ydi.

— Tegirmon toshini chekib olishimiz kerak edi.

— Xo'p, dada, tezda qaytib kelaman.

Shunday qilib, o'g'li besh yillik o'qishni bitirgach, rayon markazida injener bo'lib ishlay boshladi. Dam olish kunlari ota-onasidan xabar olish, ularga yordamlashib turish uchun odatdagi burchiga aylandi. Oradan ko'p o'tmay uni arxitektura bo'limiga ko'tarishdi.

O'g'li qanchalik obro'-e'tiborga ega bo'lmasin, lekin Barakaboy undan astoydil xafa ekanligi şir emasdi. Buni ularning quyidagi suhbatidan bilish mumkin.

— Ko'pdan beri yechilmay kelayotgan masalani kecha uzil-kesil hal qildik.

— Qanday masala?

— Tegirmon masalasi. Uni buzish kerak eskirdi. Yangisini quramiz.

— Eskisining o'rnigami?

— Yo'q, qishloqqa quramiz. Elektr yordamida ishlaydigan turidan.

— Buni-chi?

— Keragi yo'q, buzamiz.

— Qanday qilib? — dedi dadasining g'ashi kelib.

— Osongina. Yog'ochlarini kolxoz olib ketadi.

— Bu sening haziling emasmi?

— Rost gap, — dedi o'g'li kulimsirab. — Ko'pdan beri tortishib yurib endi hal qildik.

— Hal qilmay baloga yo'liq, — dedi tegirmonchi o'zini tutolmay, — hammasiga sen aybdorsan.

— Men buzdirayotganim yo'q, dada.

— Sendan boshqa kim qilishi mumkin?

Barakaboy zardasi qaynab eshikka chiqib ketdi.

— Nima gap, o'zi oyi?

— "Buzdirmayman, ko'chmayman, o'ligim shu yerda qoladi", — deyapti dadang.

— Qiziq-ku, — dedi o'g'li hayron bo'lib. — Elektr tegirmon qurilsa nima bo'pti? Kolxozga foydali, odamlarga qulay.

— Ko'nmayotir, o'zing eshitding-ku.

Barakaboy uyga qaytib kirib, o'g'liga yuragidagini to'kib soldi.

— Ketmonni topib qo'ydim, tegirmonni buzib ket, bachchag'ar. Nega go'layib turibsan?

— Dada, — dedi o'g'li yumshoq ohangda, — qishloqdagilar qiynalmasin deyapmiz. Menga quloq soling.

— Eshitdim, keragi yo'q.

— Quloq soling-chi baraka topkur, — dedi kampir.

— Sen eshit. Gapingga quloq solaverib shu ahvolga tushdim.

— Elektr tegirmon juda arzonga tushadi. U bilan bug'doydan toki makkajo'xorining so'tasigacha yem uchun tortish mumkin.

— Sen shunchalik donishmand bo'lib ketgan ekansan, nega o'sha tegirmonni shu yerga qurdirmaysan? Shundoq suv sharqirab bekordan-bekorga oqib yotaveradimi? Elektrga ketgan ortiqcha xarajat kimning yelkasiga tushadi? Nahotki shunga farosating yetmasa? Elektrning quvvatini osmondan olmoqchimisan? Bir o'ylab ko'rgin-a?

— Buni xayolimga keltirmabman, — dedi o'g'li shashtidan tushib.

— Oddiy haqiqatni bilish uchun o'n besh yil o'qish shart emas.

— Dadang behuda gapirmaydi, — deya cholini yoqlagan bo'ldi kampir.

Chol tegirmondan xabar olish uchun chiqib ketdi. O'g'li qizchasini yetaklab tashqarida navbat kutib o'tirgan kishilarning yoniga kelib salom-alik qildi.

— Buni buzasizlarmi? — deb so'radi o'tirganlardan biri.

— Ilgari buzmoqchiydik. Hozircha qoldirildi. Buzilgani durust. Hadeb qatnayverish jonimizga tegib ketdi, — dedi ikkinchisi.

— Har narsaning vaqti-soati bor.

— Dadang tegirmonni kim buzsa, ustidan tegishli joyga shikoyat yozaman deyapti.

— Bu eski do'konni Barakaboy go'riga olib ketarmidi?

Keyingi so‘zlarni tegirmonchining o‘g‘li eshitgani yo‘q. U qizalog‘i bilan soy bo‘ylab ketdi. Oqshomgi ovqatdan so‘ng, chol-kampir o‘g‘lini kuzatib qo‘yishdi. U mashinasini o‘t oldirib rayonga ravona bo‘ldi.

Odatdagi kunlarning birida rais tegirmonga kirib Barakaboyga shunday dedi;

—Og‘ayni, tegirmon o‘z o‘rnida qoladigan bo‘ldi.

—Rostdanmi?

—Ha, rost. O‘g‘lingiz yangi suv tegirmonning loyihasini tayyorlabdi. Uni xuddi shu joyga — eskisining o‘rniga kattaroq qilib quramiz.

—Bor bo‘linglar-ey, — dedi tegirmonchi quvonib.

Rais otiga qamchi bosib, ovulga qarab ketdi. Barakaboy “O‘g‘limni o‘qigani yaxshi bo‘lgan ekan, akang qarag‘ayning xotini ancha aqlli” deb ichidan quvonib qo‘ydi. Ko‘hna tegirmon esa bir maromda g‘uv-g‘uvlaydi.

ABDIMANAP JAPARQULOV

1949-yilda tug'ilgan. Qirg'iziston Milliy universitetida tahsil olgan. Hikoya va qissalari gazeta-jurnallar, adabiy almanaxlarda chop etilgan. 2006 yilda vafot etgan.

OY TUTILGAN TUN

Hazin kuy yangrab, ustuxonni sirqiratib, yurakni azoblagani sayin, u o'zini qayerga qo'yishni bilmay, ruhan eziladi. Kuy uning qalbiga tinmay ozor yetkazadi. Ketma-ket tamaki chekib, chuqur xo'rsinadi. So'ngra shitob bilan o'rnidan turib, kichik xonani tuman singari qoplagan tutun ichida u yoqdan-bu yoqqa yuradi. Kuy avvalgidan ham mungli jaranglab, mushtdek yurakni ayovsiz g'ijimlab, qiynoqqa soladi. Boyaqish yurak og'ir dardni ko'tarishga mahkum.

Baxt kosasi limillab to'lib-toshgan paytda, unga bir qarashda sezilmaydigan ko'z ilg'amas darz ketib, paydo bo'lgan yoriqdan baxt-saodat suvi silqib, tomchilab-tomchilab to'kilib, oxir-oqibat tugaydi. Shu qadar ham mo'rt, shu qadar ham nozik bo'lasanmi, baxt kosasi?

Hozir u tinglayotgan hazin kuy bir paytlar quloqqa xush yoqadigan, yoqimli va quvnoq, yaylovning yashil maysasiday o'suvchi ko'ngil emasmidi? U har qanday odamni yashartirib, bahri-dilini ochib yuborar edi-ku?

* * *

— Sochingni oqi ko'payib ketibdimi?
— Bilmadim, nimagadir shunday bo'lyapti.
— Hamma qatori ishlasang, bunchalik qiynalmas eding.
— Boshqalar endi-endi ish o'rganishyapti.
— Mmm... mm...

Anchagacha jim qolishdi. Oydin dala tepasida oy qalqib, ohista suzib yuradi. Uning nozik, kumush aralashgan sarg'imtir yog'dusi deraza ko'zidan o'tib, har ikkisining boshiga to'kiladi.

— Uxladingmi?

— Yo'q... — go'dakniki singari yumshoq va iliq barmoqlar oq oralagan sochni silaydi.

— Turmush qurganimizda ko'mirday qop-qora edi.

— Qora-qo'ng'ir tusli tulkinikiday edi, degin.

— To'g'ri, o'shanday edi.

— Iya?

— Aytaman-da.

— Nimani?

— Odamning umrini... Qo'y, uxlaylik.

— Aytaver.

— Jarrohning ishi juda qiyin.

— Tushunmadim.

— Jon-jahding bilan ishlaysan, birovni operatsiya qilsang, boshqasi tayyor turadi. Yil bo'yi shu zaylda davom etaveradi. Yangi yildan keyin, albatta, dam olaman, deb o'ylaysan, lekin bu ham behuda xayol bo'lib chiqadi. Hammasi qaytadan boshlanadi. Hayot nihoyasiz bo'lgani kabi ishning ham oxiri ko'rinmaydi. Tiriklik uchun kurash hech qachon tugamaydi-da.

— Unday bo'lsa, ishlamay qo'ya qol.

— Nega?

— Charchadim, deyapsan-ku.

— Ishlama?.. Ko'pdan buyon shifokor bo'lish niyatida yurgan odam o'z kasbidan qanday voz kechadi?

— Unday bo'lsa, ta'tilga chiq. Yaxshilab dam olgin... Har yili ovulga boryapmiz, undan nima chiqadi, deyman-da.

— Ovulni sog'inib qolaman.

— Men ham...

Yana jim bo'lib qolishdi. Oyning kumush nurlari endi tik tushmay, xona ichini oppoq shu'laga belaydi.

— Tepyapti.

— Kim? — dedi tushunmay.

— Qo'lingni bergin.
— Chindan ham tepyapti. Ismini nima qo'yamiz?
— Sen aytgin.
— Tinchlik. Har doim osmon musaffo, olamda tinchlik bo'lsin.
— Qiz bo'lsa-chi?
— Oqshu'la. Doim shu'la sochib yursin.
— Azizim, uxlaymizmi?
— Mayli...

Oy daladan nariga suzib ketdi. Erkak va ayol bir-biriga boshqa so'z demay, o'sha zahoti uxlab qolishdi.

* * *

Qizlar ipga tizib o'ynaydigan qizg'imtir munchoqqa o'xshab, kunlar tizilib o'ta boshladi. Ipi uzilsa, munchoq sidirib olingan bug'doy boshog'i donlariday sochilib ketadi. Uni kafting bilan to'plab olishing mumkin, lekin o'tgan kunlarni munchoqday to'plab ham, tizib ham ololmaysan, chunki umr bir marta kelib, bir marta ketadi. Baxt ham shunday. Ahyon-ahyonda ba'zilar uni qaytadan topib, umr bo'yi tug' singari ko'tarib o'tadilar. Afsus!.. Buni bir aytasizmi, ming aytasizmi? Umr bo'yi o'ksib o'tgan hayoting qursin...

— Qachon kelasan? Juda sog'indim.
— Ertaga.
— Polaponlarimni ko'rgim kelyapti.
— Olib borsam yaxshi bo'lardi-da.
— Olib kel, quvonchim, olib kel!
— Ularga kim qaraydi?
— Unday bo'lsa, o'zing kelaver...

Har ikkisining so'zida cheksiz baxt, sog'inch, sadoqat zohir edi. Yer tubini yorib chiqqan qaynar buloqday pokiza tuyg'uning kuchini aytmaysizmi! Baxt ikkisining ham hayotini, umrini bezayotgan chog'lar edi. Egiz qo'zi kabi bir-biriga ergashib uyga kelishdi. O'g'li otasining yelkasiga, qizi onasining bo'yniga osilib erkalanishdi. Mehr-muhabbat, samimiylik bor edi-da!

Albatta, bolalar ota-onasining qosh-qovog'iga qarab muomala qilishadi. Ota-onasi jilmayib, yuzlari yorishib turganda, ular sho'x va tantiq bo'lib qolishadi. Ota ham, ona ham bor mehrini bolalarga ulashadi. Quyosh ham o'z nurini farzandi — insondan ayamaydi, shuning uchun hech qachon odamzotdan tonmaydi. Ota-onaning o'z farzandiga bo'lgan bolday shirin mehri tugamaganiday, quyosh ham odam bolasining ichar suvi, ko'rar kuni nihoyasiga yetguncha, o'z nurini sochaveradi.

— Kim olib keldi?

— Opam.

— Yo'-o'q, otam olib keldi.

— Siz olib keldingiz-a, ota?

— Opang olib keldi.

Onasi gapga aralashadi.

— Manovini-chi?

— Otam.

— Sizmi?

— Ha.

— Mana bunday qilib samolyot yasab oldim, — deydi qizi.

— Qani, ko'rsat-chi?

— Yur, opa, uchib ketamiz.

Ichaklari uzilib kulishadi. Hazil-huzul, mutoyiba boshlanadi.

Bolalarning onasi yana xizmat safariga ketdi. Uy qarovsiz, bolalar injiq bo'lib qolishdi. Avvalgiday quvnoq o'yin-kulgi, erkaliklar yo'q.

* * *

Bunday mavsum har zamonda bir bo'ladi. Kuz bilan bahor yuzlashgach, fasl qishga evrilganini payg'ambar yoshiga yetganlar ham eslay olishmaydi. Har yilgiday qishda qor yog'madi. Bunday paytda dalani qalin tuman qoplab, havo qo'rg'oshinday og'ir bo'lib qoladi. Borliq qorayib, uch-to'rt kun badalida kecha va kunduzni farqlay olmay qolasan. So'ngra iliq shamol esib, quyuq tumanni chor-atrofga tarqatib yuboradi. Shitirlatib yomg'ir yog'adi.

Shunday qilib, odamlar qishni ham, qorni ham ko'rishmadi. Ko'p o'tmay ko'klamning qadami yetdi. Balki avvalroq bo'ralab qor yoqqanida, bahor ham o'z vaqtida kelib, olamning kiprigiga g'ubor qo'ndirmay, uni pokiza holicha saqlagan bo'larmidi?

* * *

Negadir bu gal iliq-miliq ko'rishishdi. Avvalgiday yonib-kuymoq yo'q, avvalgiday otashin his-tuyg'ular yo'q?!

— Qalaysan?

— Yomon emas, — deya istar-istamas javob berdi.

Erning ta'bi xira bo'ldi, lekin buni sezdirgisi kelmay, ohista kulimsiradi.

— Tinchlikning erkaligini sog'indim, — dedi atayin. Yupatgisi keldi ayolini.

Xotini zo'raki kuldi. O'zini majburlayotgani sezilib turardi. Har ikkisi o'z o'yi bilan band.

Havoning avzoyi buzilib, chaqmoq chaqqaniga qaramay, yomg'ir yog'madi. Bunday lahzada bir so'z aytilsa, kuchli toshqin har ikkovining botinidagi g'uborlarni yuvib yuborishi turgan gap edi. Lekin erkak ham, ayol ham og'iz ochmadi.

— O'sha tanishing kim?

Ayol o'zini eshitmaganga soldi. Endi chaqmoq chaqilib, butun dunyoga qo'shib ikkisini ham yondiradi.

Aytmasa bo'lmaydi.

— Birga ishlaymiz.

— Boshqarmaning o'zidami?

— Ha.

— Qachon tanishgansizlar?

— Nega bunchalik surishtirib qolding? — dedi ayolning asabi dosh bermay.

Anchagacha gaplashmay, qorong'i kechaga o'xshab, qovoq-tumshuq qilib o'tirishdi. Oppoq shu'la sochadigan oy esa qorong'ilik ichida g'oyib bo'ldi.

* * *

Er ishdan qaytib kelganida, bolalar bog'chada edi. Stol ustidagi "Tinch Don"ga ko'zi tushdi. Varaqlab ko'rdi. Ostiga qizil siyoh bilan chizilgan jumla e'tiborini tortdi: "Ayolning kechikkan muhabbati qirmizi lolaga o'xshab emas, yo'l bo'yida o'sadigan sariq momaqaymoqday gullaydi". Vujudi tok urganday titrab ketdi. Yuziga qon tepib, ikki chakkasining tomirlari bo'rtib chiqdi. Birozdan keyin yuzi rangi-quti o'chgan bo'z daladay och sariq tusga kirdi. Kitob varag'iga chumchuqning ko'ziday kichik bir tomchi yosh tomdi. Bu o'kinchmi yoki sevinch yoshimi, o'zi ham bilmasdi. U hozir buloq suviday pok ko'nglini adashtirgan tuyg'ulariga befarq edi. Boshidan arimay, uni bezovta qilayotgan o'y-xayolning cheki yo'qday tuyular edi.

Ko'zi ilinib borayotib, tubsiz chuqurlikka tushib ketganday, cho'chib uyg'onadi. Yuragi o't ichida qolib, tuz sepilganday achishadi, achishaveradi. Chuqur xo'rsiniq butun vujudi bo'ylab o'tib, ko'ksini achchiq dudga to'ldiradi. Qaytadan yangragan mungli kuy yuragini jizillatib, ko'ksiga igna sanchib, suyak-suyagini zirqiratadi. Olov ichida qolgan tanasi asta-sekin kulga aylanadi. Qalbi esa odamlari ko'chib ketgan manzilga o'xshaydi. Uxlab yotgan ayolini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q. Bir paytlar uni osmon qadar ko'targan ohang — muhabbat kuyini tinglab, afsus chekadi!

— Nega uxlamayapsan?

— Uxlayver.

— Behuda xo'rsinaverasanmi?

— Sendan hech kim so'ragani yo'q.

— ???

...Divanga cho'kib, tamaki tutatdi. Tamakining sassiq isidan osoyishta uxlab yotgan o'g'li, keyin qizi yo'taldi. Ayolining ham nafasi bo'g'ildi. Lekin tamaki dudi yuragini o'rtagan dardini yengillashtirib, bir paytlar oy kabi to'lgan baxtini unga yaqinlashtira olmaydi.

Shuning uchun kuyunadi, eziladi. Jon-u tanini o'rtagan ishq kuyini qayta eshitmaganiga achinadi.

Qadrdon kuy. U bahor epkini kabi dil sog'inchini yozib yuborguvchi edi. Endi ko'ksini muz qoplab, yuragida qahraton qish izg'irini esmoqda.

O'g'li va qizi tinchgina uxlab yotishibdi. Bir paytlar hammasi ham shunday uxlardi. Oy derazadan tun pardasini surib, bu oilaning kichik, lekin baxtga to'liq xonasini oq shu'laga belagan paytlarni aytmaysizmi?!

Bugun oy chiqmadi. U tunda oyning tutilganini sezmay qoldi...

NU'MAN SAADI

O'ZLIGINGNI UNUTMA, ODAM BOLASI!

(Qissa)

"O'zing nafas olayotgan HAVOni zaharlash — gunohi azim! O'zing ichayotgan SUVni iflos qilish — gunohi azim! Olamni yoritayotgan QUYOShni qarg'ash — gunohi azim! O'zing iste'mol qiladigan NONni tanlash — gunohi azim!

Agar mana shu to'rt gunohdan forig' bo'lsang, seni Olloh asraydi, hurmat topasan, omad senga hamroh bo'ladi, bolam!" deb qulog'imga quyardi hamma "chevar kampir" deb e'zozlovchi Sara ismli onaxon. U mening sevimli, tengi yo'q va mehribon buvim edi. Bu qissani mehribon buvimning yorqin xotirasiga bag'ishlayman.

Nabirangiz Nu'man

* * *

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

Muqaddima

Hayot o'zining turfa manzaralari bilan jozibali. U pinhoniy va oshkora, sodda va murakkab jumboqlari bilan tag'in ham qiziqarli tuyuladi. Qismati noayon bo'lgan odam bolasini turli tomonlarga sochilgan rizq-ro'zi soya singari ta'qib etib yuradi. Balki bu uning hayotidagi eng saodatli lahzalardir? Bordi-yu, ana shu baxt uchun noma'lumlik qa'riga borishiga to'g'ri kelsa ham, u o'ylab o'tirmay yo'lga chiqqan bo'lardi. Ba'zan baxt izlab safarga chiqqanlar turli fe'l-atvor sohibi bo'lishlariga qaramay, dunyoning

turli burchidan kelib, oxir-oqibat bir manzilda uchrashadilar. Ular muayyan muddat osoyishta umr kechirishadi. Bora-bora mayda tushunmovchiliklar bois, munosabatlariga darz ketadi, o'rtadagi ittifoq sovun ko'pigi singari yorilib, bir-birini anglab yetmaganlar tag'in turli tomonlarga tarqalib ketishadi. Balki tabiat sir-asrori, odamning ulug' va tuban xislatlari uning sirli qalbi, fe'l-atvori va munosabatlarida yashirindir? Biri tub joylik, boshqalari yiroq mamlakat va qit'alardan kelgan besh nafar odam bir-birini yaxshi bilmagani uchun xavotirlanib, gumonsirab, cho'chib turishdi. Keyin... Keyin...

Oid

— O-o-o-i-i-id! — Tuyqusdan yangragan chaqiriqdan dovdirab qoldim. Ovoz qayerdan kelayotganini darhol ilg'ay olmaganim uchun hayron bo'ldim. Nazarimda bu ovoz juda olisdan, ayni chog'da, juda yaqin masofadan eshitilayotgandi. Ko'p o'tmay bu ovoz negadir, tog' cho'qqisidan... keyin to'satdan vodiy etagidan eshitildi.

— O-o-o-i-i-id! — Yana o'sha chaqiriq qulog'imga chalindi. U menga g'oyat tanish va ayni chog'da, tamoman begona tuyuldi. Ovoz egasini taniy olmadim: u kimga tegishli, erkakkami, ayolga? Bundan ham ajablanarlisi, men qayerda ekanimni hozirga qadar eslay olmayapman. Bunday g'alati va tushunuksiz tuyg'udan es-hushimni yo'qotishimga oz qoldi. Men hayratda edim...

— O-o-o-i-i-id! — Men bu ovozni tag'in eshitdim. Yo Olloh, menga nima bo'ldi o'zi?! Bu holdan esankirab, boshim tars yorilgudek bo'ldi. Shunday lahzada odamning miyasiga telba-teskari xayollar keladi: chindan ham boshim yorilib ketsa-ya?! Unda ruhimdan ayrilib, vujudimni his etmay, nom-nishonsiz gum bo'lib ketishim mumkin. Bunday telba-teskari fikrlardan chinakamiga qo'rqib ketdim. Shu bois, avval o'zimni qo'lga olib, ahvolimni tahlil qilmoqchi bo'ldim. Yo'qsa, boshim rostdan ham yoriladi.

— O-o-o-i-i-id! — Ovoz aks sado berdi.

— Ha-a-a! — deb javob qaytardim nihoyat ismimni ilg'ab. Chunki mening nomim — Oid. Murojaat qilgan kishiga javob berish farz ekani yodimga tushdi. Ruhimda odatdagidan farqli o'laroq ajib insoniy tuyg'u ko'z ochdi. Ovoz kelayotgan tomonga qadam qo'yar ekanman, uning egasini ko'rish niyatida edim. Hayratlanarli joyi shundaki, men "ha-a-a!" deb javob qaytarishim bilanoq, o'sha tanish va notanish ovoz butunlay o'chdi... Qanchalik urinmay, uni qayta eshitish menga nasib qilmadi. Loaqal ovoz yana bir marta yangraganida, uni eshitibgina qolmay, balki qaysi tomondan kelayotganini ham aniqlab olgan bo'lardim. Afsuski, uni qayta eshitmadim.

Jimgina o'tirib tevarak-atrofga quloq tutdim. Foydasiz. Birozdan so'ng o'rnimdan irg'ib turib, boshim oqqan tomonga qadam tashladim. Avvaliga tez-tez yurdim, keyin esa yugurib ketganimni o'zim ham sezmay qolibman. Go'yo shu lahzada dumaloq toshga evrilib, tepalikdan avval sekin, keyin tez-tez dumalab, pastlikka ena boshladim.

Dumala, dumala, mening toshim!
Dumala, dumala, mening toshim!

Bu so'zlar ma'nosi unchalik ham tushunarli emas, lekin bolalik paytimda tilimdan tushmagani uchun bu g'alati iboralar xotiramga muhrlanib qolgandi. Bir paytlar bu ikki satrni bor ovozim bilan aytib, qayta-qayta takrorlagan edim! Bolalarning barchasi o'zining toshi ko'proq dumalab olisroqqa yetib borishini istardi. Biz o'zimiz tanlagan toshga kuch-quvvat baxsh etmoqchi bo'lib, haligi sehrli so'zlarni qichqirib aytardik. Bugun o'zimni bolaligimdagi toshga evrilib qolgandek his qilardim.

Butun olam endi meni quvvatlayotgandek bor ovozi bilan hayqirardi:

Dumala, dumala, mening toshim!

Shovqindan bitayozgan qulog'im ostida kimdir o'sha so'zlarni bor ovozi bilan takrorlamoqda edi:

Dumala, dumala, mening toshim!
Dumala, dumala, mening toshim!

Yo Olloh, bu sirli va sehrli so'zlar ta'sirida men osmon-u falaklarda parvoz qilayotgan edim, biroq uchib borayotib birdaniga suvga qulab tushdim va o'sha zahoti sovuqdan titray boshladim. Sohilga chiqib cho'zilishim bilan ko'p o'tmay o'sha yo'qolgan ovoz yana yangradi:

— O-o-o-i-i-id!

Men atrofga astoydil quloq tutib, jimgina yotaverdim. Yana qulog'imga ovoz chalindi. Bu gal avvalgidan ancha baland edi:

— O-o-o-i-i-id!

Shoshib ko'zlarimni ochib qarasam, Lanbag daryosi sohilidagi daraxt soyasida yotibman. Atrofimda oppoq qanotli turnalar mendan cho'chimay, behadik yurishardi.

— Ahvolingiz nechuk, oqqushlarim! — deb ularga murojaat qildim.

Qushlar javob o'rniga baravar tovush chiqarib, oq qanotlarini silkitib, "maza!" demoqchiday bo'lishardi. Patlari ostidan esgan mayin epkindan turmush halovatini topgan odamday lazzatlanardim.

— Xo'sh, siz-chi? — deb suvda o'ynoqlab suzib yurgan baliqlarga murojaat qildim.

Baliqlar so'rovimga "ajoyib, ajoyib!" demoqchiday suv yuzasiga sapchib chiqib, qaytadan daryoga sho'ng'ishardi. Bundan ko'ksim quvonchga to'lmoqda edi.

— Xo'sh, hayotingiz qanday kechmoqda? — Endi bu savolni tegramni o'rab turgan maftunkor tabiatga bermoqda edim.

Nazarimda borliq ham menga o'zgacha surur bilan nazar tashlamoqda. Daryo to'lqinlari sohildagi xarsanglarga urilib, yana sho'xlik qilib ortiga qaytardi. Shamol qo'zg'alib, yam-yashil o'rmon sirli tovush chiqazmoqda edi: "shov-shuv-v!" Go'yo dov-daraxtlar bir ovozdan "yaxshi, yaxshi-i!" demoqchiday bo'lardi.

— Juda soz! Bu olamda hayotdan o'zga chiroyli hech narsa yo'q!

Men chuqur-chuqur nafas olib, yerda yotganimcha osmonni tomosha qila boshladim. Bu sehrli tabiat bag'rida o'zimni eng baxtli odam hisoblab, quvonchga to'lib, ko'zlarimni yumdim. Qalbim tubidan oqqan mahzun va quvnoq ohanglar quloqlarim yordamida menga hayotning g'oyat shirin va abadiy ekanidan mujda yetkazmoqda edi.

— O-o-o-i-i-id! — Nogahoniy ovoz meni cho'chitib yubordi. Avvalgi chaqiriq qayta yangradi. Shundagina bu ovoz Viyanniki ekanini sezib qoldim! Hayrat va quvonchdan ko'zlarim kattaroq ochildi.

Yashavor! Oxir-oqibat taklifimni qabul qilib, Viyan menikiga mehmonga kelibdi! Eh, bu juda uzoq kutilgan quvonchli voqea edi.

— Ha-a-a! — deya hayajonimni bosolmay hayqirdim. Shu zahoti Viyanning dilkash ovozini eshitdim:

— O-o-o-i-i-id!

U mening chorlovimga javob berar ekan, istiqboliga peshvoz chiqish uchun ovoz berdim. Ikkimiz tovush berib, bir-birimizni axtarmoqda edik... Ulug' izlanish yana yo'lga tushdi. Uning huzuriga tezroq yetib borish uchun keng sayhonlikka yo'limni burdim. Nazarimda Viyan ham tovushimni eshitib, men turgan tomonga yuzlangandi. Qadamimni tezlatdim.

— O-o-o-i-i-id!

— Ha-a-a!

— O-o-o-i-i-id!

— Ha-a-a!

U tanho edi. Keyin unga bir nafar odam hamroh bo'ldi.

VIYAN

Taqdir shakar bo'lsa, hayot lazzati — asal. Hayotning shirin ta'mi va lazzati xanjarning keskir tig'iga duch kelsa, odam uning mazmun-mohiyatini his qilib, qismat changalidan chiqishga urinadi. Bedavo dard hisoblanmish oqqon kasaliga yo'liqqanini bilganida Viyan ham shunday ahvolga tushib, o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'ldi. Yurtida hammasi ajoyib edi: obu

havo mo'tadil, yog'ingarchilik tez-tez bo'lib turgani sababli, dov-daraxtlar qish va kuz fasli nimaligini bilmay, borliqni yashillikka burkab o'sardi. Bu yurtning tag'in bir o'ziga xosligi, ilm ahlining bisyorligida edi. Deyarli har bir oilada olim kishilar bor edi. Donishmandlar ilmiy kashfiyot qilish uchun kecha-kunduz tinim bilishmasdi. Taomni faqat ehtiyoj yuzasidan tanovul qiladigan bu kishilar nimalarnidir yozishar, o'zaro bahslashishar, qaydnomalar bitishar, loyihalar chizishar, xullas, nimanidir ijod qilishardi... Olimlarning tuni notinch o'tardi, chunki kunduzi tug'ilgan yangi fikrlar kechasi ko'zlardan uyquni o'chirardi. Bu ahvol uzluksiz davom etar, nihoyasiz laboratoriya tahlillari qandaydir natija bergachgina, ish to'xtatilardi. Tashqaridan kuzatgan odamga ular katta yo'ldan borayotgan afandinamo kishilar yoki bemor odamlarga o'xshab ko'rinardi. Boshqa yurtdoshlari qatori Viyan ham bu ishlardan chetda turmay, tun-u kun astoydil izlanib, ilm o'rganish uchun kimyoviy va biologik laboratoriyadan deyarli tashqariga chiqmasdi. Buning ustiga, ilmiy ishi mavzusi g'oyat qiziqarli edi: "Yuksak taraqqiy etgan biomuhit tizimida Homo Sapiyensning mudroq imkoniyatlarini uyg'otish va faol harakatga keltirish". Homo Sapiyens uchun o'tkazilgan har bir tajribadan so'ng kashfiyot o'rniga yanada ko'proq sir-asror va yechilmagan tugun paydo bo'lardi. Bu Viyanning ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatar va u tajriba o'tkazib bo'lgach, tanlagan mavzusi qiyinligini o'ylab o'zini ojiz sezar, shu bois, qo'llarini osiltirib, ancha mahalgacha xomush o'tirardi. Uning savollari son-sanoqsiz edi. Ba'zida qaysidir bir savoliga javob topolmay Homo Sapiyensni ko'makka chaqirib, u bilan bahsga kirishib ketardi.

— Homo Sapiyens, sening biologik evolutsiyang yuksak darajaga yetdimi?

— Yo'q! — deb qat'iy va ters javob berardi Homo Sapiyens. — Bashariyatning o'zi yadroviy qishni boshlab, doimiy taraqqiy etishim uchun to'sqinlik qilmasa, hech qanday kuch meni to'xtatolmaydi.

— Yuksak daraja — eng sodda jonzotlardan biomuhitdagi biologik evolutsiya — Homo Sapiyensga qadar erishilgan yutuq se-

ning taraqqiyot cho'qqing hisoblanadimi?

— Yo'q! Bu taraqqiyotning yuksak cho'qqisi hisoblanmaydi! — deya e'tiroz bildiradi Homo Sapiyens. — Agar toza sifatli xiral polimerlar halok bo'lmasa, mening avlodim hech qachon tugamay, tobora o'sa boshlaydi.

— Homo Sapiyens, bu ilmiy ta'rif ekanligini bilarsan? Hozirgina o'zing aytgan, xirallik aralashmalar tobora rivojlanib borib, kechasimi, kunduzimi, oqshomdami, tongdami, kimyogarlar aytganiday, oxir-oqibat oddiy tuproqqa aylanmaydimi? Sen bunga nima deysan?

— Siz xiralga tegishmang. Ehtiyot bo'ling, organik xarakterdagi toza sifatli xirallik — ammiokislota va qand. — Homo Sapiyens o'z fikrini tasdiqlayotganday barmog'i bilan ishora qildi. — Senga ma'lum, tirik tabiatga xirallik tozalik zarur bo'ladi. Ratsemistik moddalar jarayonga kirmasligi uchun o'ng va chap izomerlar miqdori munosabatlaridan xabardor bo'lib turish kerak. Ana o'shanda siz yutasiz. Gap shundaki, oqsillar faqat chap ammiokislotalarni saqlasa, nukleniy ishqorlar o'ng qandni belgilaydi. Bu mohiyat va mohiyatsizlikni ajratib turuvchi belgi hisoblanadi. Hozir biomuhit ta'siri kundan-kunga katta kuch bilan o'sib bormoqda. Buning qanday oqibat bilan tugashini zarracha bo'lsa-da, tasavvur qila olasizmi?

— Albatta, tasavvur qilamiz! Biomuhit ta'siri oqibatda muhit ratsemizatsiyasiga olib keladi. Bu mudhish alomat hisoblanadi, chunki bunday paytda nafaqat tiriklik olami mahv bo'ladi, balki o'lik materiyadan toza xirallik jonzot yaratuvchi o'simliklar dunyosi ham yo'q qilinadi. Bu biomuhit to'liq yoki qisman halok bo'lishini bildiradi.

— O, buni qara-ya, bilar ekansan! Qadimdan aytib kelinayotgan Qiyomat qoyim degani — shu! — deya fikrini quvvatlash uchun barmog'ini yuqori ko'tardi. — Ana undan keyin hammasini buyuk Noldan boshlashga to'g'ri keladi. Yo'qlikka mahkum etuvchi oqibatni bilaturib, o'z nafsingizni tiymay, tabiatni buzib, negadir o'z tanangizni viruslar bilan zaharlash uchun harakat qilyapsiz. Sen tolidomik tortishuv nimaligini bilasanmi?

— Asab tarangligini bo'shashtiruvchi dorimi bu?

— Ha, sen uchun bu "dori" hisoblanadi! — Masxaraomuz rozi bo'ldi Homo Sapiyens. — Asab bo'hronidan qutulish uchun osongina yo'l topganingizday, oqibatini o'ylamay, bu "dori"dan tejamsiz foydalandingiz. Qanday natijaga erishdingiz? Bu nimaga olib keldi? Ilmiy nuqtayi nazardan aytganda, ayollaringiz patologik jihatdan o'zgargan jonivorlarni dunyoga keltira boshladi. Boshqacha aytganda, Homo Sapiyensdan chekinib, orqaga — Homo Rektusga yo'l ochdingiz.

— Homo Sapiyens, agar menga ishonsang, bugungi taraqqiyot darajasini saqlab qolish uchun biomuhitga tabiat in'om etgan ulug' va sirli odam mo'jizalarini hamma tomonlama o'rganishni maqsad qilib olgan inson to'g'risidagi ilmni rivojlantirish zarur.

— O, bu yaxshi g'oya. Lekin uni hayotga qanday tatbiq etasan? — dedi Homo Sapiyens sinchkovlik va qiziqish bilan.

— Buning uchun bir necha pog'ona talab etiladi. Shunday qadamlardan biri, inson to'g'risida akademik institut tashkil etish hisoblanadi. Bu hozirgi davr uchun juda zarur. Inson instituti muvaffaqiyatga erishmog'i uchun dastlab bunday epimarkazning zarurligi to'g'risida izoh berib, boshqalarning anglab yetmog'i va qo'llab-quvvatlashiga erishmoq lozim. Faqat institutda insonni to'liq va batafsil o'rganish uchun keng yo'l ochiladi.

— Seni nega bu savol qiziqtiryapti? — dedi Homo Sapiyens navbatdagi savolini berib.

— Bilasanmi, Homo Sapiyens, nima uchun? Hozirgi paytda insoniyat o'z taraqqiyotining shunday cho'qqisiga ko'tarildiki, hatto koinot taqdirini ham o'z qo'liga oldi. Hozir inson tabiatdan ham ko'proq kuchga ega. Bu haqiqatni hech kim rad eta olmaydi. To'g'rimi? Ana shunday tengsiz kuchga ega bo'lgan insonga kim qarshi tura oladi? Uning o'zi. Unga kim yordam qo'lini cho'za oladi? Yana insonning o'zi. Yer yuzidagi hayot uchun javobgarlikni insondan boshqa hech kim zimmasiga ololmaydi. Inson shunchalik buyukki, ayni paytda unga teng keladigan boshqa kuch yo'q. Insoniyat shunday darajaga erishdiki, endi u hammasi — suv tozaligi, daraxtlarning gullab-yashnashi, yer yuzida hayotning davom etishi, nabotot va hayvonot, hatto bizni o'rab turgan borliqda

ekologik tozalikning saqlab qolinishi, koinot, hatto yanada yorqin va porlab turuvchi quyosh uchun ham mas'uldir. Homo Sapiyens, hozir insoniyat olamni kaftida tutib turuvchi qudratli Atlantga aylandi. Sivilizatsiyaning gullab-yashnashi va taqdiri inson aqli, maqsadli va qat'iy qadamiga bog'liq. Yaqinlashayotgan mudhish halokatlarning dahshatli oqibatlarini his qilib, bu mavzuda yana ham ko'p mehnat qilish zarur, degan xulosaga keldim.

— Sen insoniyat yuksak aqli bilan o'zi yaratgan qo'rqinchli falokatlarni yengib o'tadi deb o'ylaysanmi? Xavfni bartaraf etish uchun to'g'ri yo'l tanlay oladimi? — Homo Sapiyensning istehzoli savoli yangradi. — Inson nima uchun asrlar davomida aqli va kuch-quvvatini sarflab oldinga qarab intiladi?

— Bu gapingga rozi bo'lolmayman. Biz hech qachon orqaga burilmaymiz. Men insoniyat borasida ilm yaratib, uni rivojlantirib, hozirga qadar inson vujudida yashirin, hatto aqliga bo'ysunmaydigan sir-asrorni ochaman.

— Sen inson vujudida hali yana ochilmagan sir-asror bor, deb o'ylaysanmi? — deb kuldi Homo Sapiyens.

— Sen kulma, Homo Sapiyens, inson tabiat in'om etgan benazir kuch hisoblanadi. Uning vujudida tug'yon va ko'zimiz bilan ilg'ay olmaydigan imkoniyatlar yashirin. Homo Sapiyens, maqsadim turli xavfli viruslarga qarshilik ko'rsatuvchi, shuningdek, radiatsiya xatarini mag'lub eta oladigan Homo Sapiyens yaratish. Nahotki inson vujudida kimyoviy preparatlarga qarshi tura oladigan xususiyat bo'lmasa? Ishonchim komil, hatto insonning o'zini muhofaza qilish instinktidan musbiy natijalarni topish mumkin. Men ixtiro qiladigan aqlli Homo Sapiyens virus, radiatsiya va nurlanish kabi tashqaridan bo'ladigan xatarlarni pisand qilmaydigan bo'ladi.

— Bordi-yu, portlash bo'lib qolsa-chi? — Homo Sapiyens Viyanning og'riqli nuqtasiga tegish uchun ayyorona savol berdi. — Yadro portlashini qanday bartaraf etasan?

Viyan savolni javobsiz qoldirdi.

U boshi berk ko'chaga kirib qolgan kishidek, og'ir o'ylardan charchab, ko'zlarini holsiz yumdi, ammo miyasini g'ujg'on fikrlar hech qachon tark etmasdi. Ba'zan xayollarini bir nuqtaga jam-

lash uchun shundoqqina laboratoriyaning o'zida uxlab qolardi. Bir kuni plaktonda o'tkazilgan tajriba tahlillarini ko'zdan kechira turib, ozgina dam olish umidida boshini stolga qo'ydi-da, tuyqusdan qattiq uyquga ketdi. Bu plakton qaysidir ummon tubidan keltirilgandi. Ummon yaqinida tez-tez yadroviy portlashlar tajriba sifatida o'tkazilardi. Stol ustida uxlab qolgan Viyan yadro portlashlariga e'tibor bermay, bemalol kulib yurgan Homo Sapiyensni tush ko'rdi. Viyan quvonchga to'lib uyg'ondi. Ko'rgan tushidan kayfiyati yaxshilanib, ruhlanib ketdi: "Men boshlagan ishimni to'siqlarga qaramay, har qanday sharoitda davom ettirishim kerak. Men kashf etadigan ilm insoniyat yashab qolishi uchun eng so'nggi zarurat hisoblanadi, — dedi u o'ziga qat'iy ishonch bilan. — Men yaratayotgan ilm hatto planetada yadro portlashlaridan so'ng ham xavfli maydonlarda yashab qolishi mumkin bo'lgan odamlar uchun yaxshi va foydali natija berishi kerak. Shun— day bo'lsagina, inson avlodi yashab qolishi mumkin".

Ilmiy tajribalari ustida uzoq va tinimsiz ishlab, bor kuchi, aqliy quvvatini sarflab o'zini ayamagan Viyan davosiz oqqon xastaligiga duchor bo'lganini juda kech bilib qoldi. Demak, biomuhitning bir parchasi sifatida yashamog'i uchun vaqt oz qolibdi. Endi u hammasiga qo'lini siltab, salomatligini o'ylamog'i va boshi berk ko'chadan chiqish yo'lini topishi lozim edi. Umrining qolganini yer yuzining biror-bir ajoyib burchida o'tkazishni orzu qilib, o'zi uchun yaqin bo'lgan kishisi kutayotgan manzilni yodiga keltirdi. Xursand bo'lib ketgan Viyan ikkilanib o'tirmay o'sha yerga otlandi.

Bu go'shani hech qachon ko'rmagan bo'lsa ham, Viyan uchun juda tanish tuyuldi, chunki Oid Viyanga yuborgan har bir xatida bu tabiati go'zal manzilning ta'rifini keltirib, batafsil yozib yuborardi. O'ziga yuborilgan maktublarni eslagan Viyan ilmiy ishiga qattiq berilib, ularni e'tiborsiz qoldirganidan afsuslandi. Endi hayotini saqlab qolish uchun do'stining taklifini qabul qilib, bu yerlarga kelib qoldi.

— O-o-o-i-i-id!

— H-a-a-a!

— O-o-o-i-i-id!

— Ha-a-a!

Nihoyat ikki inson uchrashdi.

— Bu yerga tamoman keldim, endi hech qachon ortga qaytmayman, — dedi Viyan diydasi namlanib.

— Nega? — deb so'radi Oid taajjublanib.

— Men bedavo dardga yo'liqdim.

— Bedavo dard? — Oid hayron bo'lib do'stining yuziga tikildi. — Davosi yo'q xastalik ham bo'lishi mumkinmi? Qanday kasallikka chalingan bo'lsang ham, biz uni davolaymiz.

Oidning ishonch bilan gapirayotganini ko'rgach, taqdiriga tan berib yurgan Viyanning ko'nglida umid nishonalari paydo bo'lib, quvonch bilan unga tikildi:

— Biz deganing kim?

— Biz deganim — atrofimizni o'rab turgan ulug' Tabiat! — dedi Oid o'zgacha g'urur bilan qo'lini atrofga yozib. — Ulug' Tabiat xastalikni berib, yana o'zi davolaydi.

Yo Olloh, bu qanday mushkul va ayni chog'da, oson aksioma!

Chindan ham bir oy o'tar-o'tmas Ulug' Tabiat Viyanni tamoman tuzatdi. O'shanda o'zi uchun hayratomuz kashfiyot qildi: "Demak, tabiatdagi jonzotlar o'zaro bog'liq bo'lgani holda, bir-biriga mehribon va birodar ham ekan".

U tanho edi. Endi unga bir nafar odam hamroh bo'ldi.

TABIAT — ONA

Vodiyga tez ko'nikib ketgan Viyan laboratoriyada o'tkazgan kunlarini unuta boshladi. Xushmanzara joylar uning uchun sevimli go'shaga aylandi. Tabiatga bo'lgan muhabbatining yana bir sababi — hayotbaxsh qo'shiqlar, sirli ertak va rivoyatlar, shuningdek, o'simlik va hayvonot dunyosi edi. Viyan o'zini tabiat qo'ynida tug'ilib, qadim-qadimdan buyon shu yerda yashab-ulg'aygandek his qila boshladi. Oid va Viyan uchun vodiyning jonli va jonsiz mavjudoti do'st, og'a-ini kabi tuyula boshladi...

— Gilos mening qarindoshim! — deya hayqirardi Viyan.

— Olma mening og'am! — deb ta'kidlardi Oid.

— Buloq mening do'stim! — deya ovoz berardi birinchisi.

— Suv mening qarindoshim! — deb g'ururlanib qo'yardi keyingisi ham.

— Baliq mening erka inim!

— Turna mening singlim!

— Bu yer mening uyim!

— Bu yer mening vatanim!

Ikkisi bor narsani o'ziniki qilib olishdi. Oidga murojaat qilgan Viyan samimiy ohangda:

— Sen mening yaqin qarindoshimsan! — derdi.

— Ha, men sening emakdosh og'ang bo'laman! — deb javob qaytarardi Oid.

— Biz qadrdon og'a-inilarmiz! — deya hayqirgan Viyan qo'l larini yozib, borliqni quchog'iga olmoqchi bo'lardi.

— Suv, o'rmon, baliqlar, turnalar va yer yuzida yashovchi barcha jonzotlar — biz bir butunmiz! — deb hayqira boshlardi Oid.

— Tabiat — otamiz! — deb xitob qilishdan charchamasdi Viyan.

— Zamin — onamiz! — deb xulosaga kelgandi Oid. — Demak, biz zamin farzandlarimiz!

Ikkisi shunday xulosaga kelib, tabiat bilan uyg'unlikda yashashga intilardi.

Keyin ikkisiga bir nafar odam hamroh bo'ldi.

KAAN

Kaanning yurti uzoqda. Uni ummon ajratib turadi. Ummon ummon-da. Suzaverasan, suzaverasan... to'lqinda chayqalib, yana uzo-o-q suzasan. Qaysi tarafga boqsang, cheksiz yashil suv. Suvga tinimsiz tikilganing bois, ko'zlaring toliqib, a'zoyi badaning og'riydi. Quruqlikka yetib borguningcha, tag'in suzishing, suzaverishing lozim bo'ladi.

Kaan qadim zamonlarda bu yurtga kelib o'rnashgan elat vakillaridan biri edi. Ajdodi asli shu qit'adan bo'lishiga qaramay, keyin

boshqa yerlarga hijrat qilgan, o'sha yoqlarda tug'ilib-yashab, oxir-oqibat yana qaytib kelib, bu joyni vatan tutgan edi.

Kaanning yurtida odamlar, shuningdek, oilalar tabaqaga bo'lingan edi: eng oliy, o'rta oliy, o'rta, past va juda past toifa. Bunday mezonga binoan, Kaanning oilasi o'rtadan past tabaqaga mansub edi. Bu haqiqatni yashirib bo'lmaydi.

Aslida bu yurt dunyoning eng boy o'lkalaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, turli millatga mansub kishilar ochlik va nochorlikda yashashga mahkum. Ayniqsa Kaan singari kambag'al kishilarning turmushi oson kechmaydi. U oilani boqish, aniqrog'i, ochlikdan o'lib ketmaslik uchun tanlab o'tirmay, har qanday yumushni bajarishga tayyor edi. Bunday kishilar ko'chalarni supurar, hojatxonalarni tozalab, axlatlarni yig'ishtirar, gazetalar sotishardi. Ular turli tajribalar o'tkazish uchun ixtiyoriy ravishda tanasidagi biror a'zosini yoki o'zini butunlay sotishga tayyor edilar. Laboratoriyada yashab yurgan Kaan oddiy odamlar o'z turmushini yo'lga qo'yish uchun istalgan joyga borishga tayyor ekanliklarini tushunib yetgandi. Katta boylik egasi bo'lganlar esa, azob-uqubatni bilmay yashash bilan birga, boshqalarning hayotini ham boshqara boshlashardi. Laboratoriyada kun ko'ruvchi bu tepakal olimlar, semiz va qorni qappaygan ochko'z boylar oddiy odamlar ehtiyoji uchun emas, balki dahshatli qurol-aslaha yaratish niyatida haligi kishilar ustida tajriba o'tkazgani-o'tkazgan edi. Kaan tug'ilgan yurti turli harbiy tajribalar o'tkaziladigan laboratoriya va harbiy dala maydoniga, hamyurtlari esa allaqachon tajriba sichqoniga aylanganini tushunib yetdi. Biznes laqabli vahshiy hammasi — kelajak umidi, go'zal muhabbat, toza tuyg'ularni tuproqqa qorib tashlaganini angladi. Shubhasiz, yuqoridagi kabi tajribalar oddiy fuqaroga azob-uqubat va tashvish keltirardi. Kaan bunday boshi berk ko'chadan chiqish yo'lini izlar, lekin umidsizlanib ko'chalarni maqsadsiz kezib yurardi. U tobora tubanlashib, ichkilikka ruju qo'ydi, ignaga o'rganib, oxir-oqibat chinakam giyohvandga aylanib qoldi. Kaan tinimsiz yo'taldan azob chekib, zo'rg'a nafas olardi. Kasallik uni hammasidan ham ko'proq tashvishga solib qo'ydi. Davolanishi qiyin bo'lgan saraton xastaligiga chalinganini bilib, o'rgimchak to'riga tushib qolgan pashsha singari ilojsizlik-

dan boshini hamma tomonga urib ko'rdi. Og'ir kunlarda hayotning shirin ta'mini yanada ko'proq totib ko'rish istagi bilan yashay boshladi. Yomon xastalikdan xalos bo'lish yo'lini izladi. Qayerdadir bunday darddan xalos qiluvchi dori-darmon bo'lishi kerak-ku, degan fikr xayolidan o'tdi. Noma'lum nurli va sirli go'shalar Kaanni o'ziga chorlay boshladi. U nima bo'lishidan qat'iy nazar, bu la'nati joylardan yiroqda o'lishni istab qoldi. "Hatto o'ligimni ham bu yerda, bu yaramas tuproqda qoldirib, tahqirlashlariga izn bermayman", — dedi Kaan o'ziga-o'zi, qadrdon yurtining sha'nini yerga urib. U bu yerda jismini qoldirishdan qo'rqdi. Kaan qayerdadir orzusidagi mo'jizaviy diyor bo'lsa, bir lahza ham kutib o'tirmay, o'sha tomonga jo'nab ketish va u yerda atigi bir soat bo'lsa ham yashab, so'ngra afsus-nadomat chekmay jon taslim qilishga tayyor edi. Lekin ko'p o'tmay uning yashagisi kelib qoldi, chunki nima desangiz ham, hayot shirin va go'zal-da.

Balki o'sha tuproq mo'jizaviy xususiyatga ega bo'lib, eng og'ir xastaliklarga ham davo bo'lishi mumkindir, degan o'y unga tinchlik bermay qo'ydi. "Bordi-yu, darddan shifo topsam, umrimning qolganini yer yuzidagi bor narsani asrab-avaylab, ularga ta'zim qilib o'tkazgan bo'lardim... Nahotki, shunday yurt bo'lmasa? Menimcha, bor!" qat'iy xulosaga keldi u. Kaanning o'sha notanish tomonlarga ketgisi keldi. "Avval mashinaga o'tiraman, keyin kemada suzaman, samolyotda uchaman, otda yurib, so'ngra piyoda o'sha yoqlarga yetib boraman". U shunday qildi va manzilga yetib keldi.

Ular ikki nafar edi. Keyin yana bir nafar odam hamroh bo'ldi.

GER

Gerning yurti serquyosh edi. Shu bois, bu o'lkaning tuprog'i doimo iliq, osmoni tiniq va nurli edi. Ehtiyoj oz bo'lganidan, aholi uchun kiyim-bosh kamyob hisoblanmasdi, lekin bori ham juda qimmat edi. Bu o'lka fuqarosi qimmatchilikni qanday yengib o'tish mumkinligini yaxshi bilib olgandi. Buning uchun pul

zarur edi, lekin ana shu la'nati pulni topish do'zaxiy mehnatni talab qilardi. Ish yo'q edi. Ho'kizday baquvvat bo'lishiga qaramay, yosh-yalang kun bo'yi ko'chalarda sandiroqlab ish izlardi. Odamlar biror yumush topish umidida, bilaturib ham jinoyatga qo'l urishdan cho'chimasdilar. Albatta, o'g'irlik, qaroqchilik va o'tgan-ketganni tunash bilan mashg'ul bo'lgan kishi xavotirda yashashga majbur edi. Gunohkor deb topilgan o'g'ri qo'lga tushib qolsa, uni hech kim kechirmasdi: avval bir qo'lini kesib, manglayiga tamg'a bosishar, o'g'irlikni yana davom ettiradigan bo'lsa, rahm-shafqat qilmay boshini tanasidan judo qilishardi. Shuning uchun bunday qaltis ish bilan shug'ullanishga hamma ham jur'at etolmasdi. Axir, odamning yelkasida birgina boshi bo'ladi-da. Biroq keyingi o'n yil ichida ayollar uchun keng imkoniyat paydo bo'lib, ular ommaviy ravishda o'z badanini sotish bilan mashg'ul bo'la boshlashdi. Ayrim yigitlar sevgan qizi topgan daromaddan foydalanishga ham uyalmasdi. Xudoning bu uvol ojizalari boy-badavlat kishilarga o'z tanasini sotishdek g'ururni yerga uruvchi yumushga majbur edi. Bu kasb egalari orasida o'n yoshli qizlar ham uchrab tursa-da, fohishalarning aksariyati o'n besh yosh atrofida edi. Yosh va silliq badanga talab yaxshi bo'lgani uchun narx ham yuqori bo'lardi. Yigirma besh yoshdan o'tganlarga oson tutib bo'lmasdi. Talab ozaygani uchun bundaylarning hayoti boshi berk ko'chaga kirib, joniga qasd qilish bilan yakun topardi. Xullas, shunday yo'l bilan pul topish yurt aholisining turmush tarziga aylandi. Eng yomoni, qo'rqinchli xastalik — SPID tarqaldi. Bu tajovuzkor kasallik erkak va ayol, yosh va keksani ajratib o'tirmay, birvarakayiga hammani o'z domiga tortib ketavergani tufayli SPIDdan o'lganlar soni kun sayin ko'paya boshladi.

Ular uch nafar edi. Keyin yana bir nafar odam hamroh bo'ldi.

AFRA

Gerning Afra ismli suygan qizi bor edi. Chiroyi ta'rifiga so'z ojizlik qiladigan sohibjamolning jon o'rtaguvchi nigohlari har qanday oshiqning yuragiga o't tashlay olardi.

Bir kuni oqshom chog'ida Afra Gerning huzuriga tashrif buyurdi.

— Ge? — dedi qiz arazlaganday. Yuzida sirli ifoda paydo bo'lib, so'zini davom ettirishga uyaldi. — Ge?.. Oilamiz yaqinda ochlikdan halok bo'ladi. Shuning uchun sen bilan maslahatlashgani keldim.

Qiz hayajonini yashirolmay, nigohini yerga qadadi:

— Ge?.. Sevgilim, sen mening yo'limni och...

Ger Afraga jahllanib qaradi. Qizning g'amgin nigohlariga tikilib, gap nima haqida borayotganini angladi-yu, tili kalimaga kelmadi. Lekin Ger ma'shuqasi aytgan yo'ldan o'zga chora yo'qligini tushundi. Chunki u suyganiga jonini hadya etishdan o'zga hech qanday ko'mak berolmasdi. Taqdir o'yini oldida ilojsiz qolgan qizning hozirgi ahvolini yuragi bilan his qilgan Gerning yig'lab yuborishiga oz qoldi.

— Ket! — Yigit tishini-tishiga bosib shivirladi. Lablaridan qon sizib chiqdi.

— Yo'q! — Afra ko'zlarini katta-katta ochib, unga norozi qiyofada tikildi. — Ger, nimalar deyapsan? Men seni sevaman. Shuning uchun birinchi kechani senga bag'ishlamoqchiman. Qizlik iffatimni senga topshirmoqchiman. Va sen...

Qiz gapining davomini aytolmay yig'lab, boshini yigitning ko'ksiga qo'ydi. Eh, kambag'allik, kambag'allik! Sen naqadar achchiq va shafqatsizsan! Bechora qizning qalb og'rig'i va ranj-u alamini kim ham tushuna olishi mumkin? Mahbubasining hayot azobi-yu uqubatlaridan qovjiragan ko'nglini yumshata olmagan yigitga kim ham taskin-tasalli bera oladi?

Poyonsiz bambukzor Afra pok muhabbatini Gerga baxshida etgan kechaning guvohi bo'ldi.

— Ger, sen menikisan! Mening suyanchig'im! — deya shivirladi qiz.

— Mening Afram! Jon-u jahonimsan! — Vujudida ishq jo'sh urgan Ger qizni suyib erkaladi. — Sen bu hayotda topgan qimmatli boyligimsan!

— Sen ham men uchun qadrlisan, azizim! — deb shivirladi Afra.

O‘sha tundan keyin muhabbat iqroridan, sevishgan qalblarning sirli va shirin talpinishlaridan nishon qolmadi... Go‘yo muhabbat farishtasi o‘rmon ichra sarson-sargardon bo‘lib, har bir xonadonga bosh suqib oshiq-ma’shuqlarni topa olmagach, ikki dil bir-biriga tutashib, bir-biriga taslim bo‘lgan joyga qaytib kelayotganday.

Ertasi oqshomda Afra pul ishlashga kirishdi. Qiz bu ishga ko‘nikmaganidan avvaliga uyatdan boshini ko‘tarolmadi.

Tun bo‘yi mijozlarning istagiga ko‘ra, nozik barmoqlari bilan ularni erkalab, issiq badanini erkaklarga topshirish qiz uchun azobdan boshqa narsa emasdi. Ba’zi odamsiyoqlar unga rahm qilishni xayoliga keltirmay, latta singari g‘ijimlab nafsini qondirardi. Kechasi o‘zini mijozlar ixtiyoriga topshirgan Afraning qalbi nola chekar, shu bois, u yig‘lab, tishini-tishiga bosardi... Ba’zan taqdirning bunday tahqiriga chiday olmay, o‘ziga o‘lim tilardi. Qalbi faryodga to‘lib tursa ham, Afra nafratini yashirib, tun bo‘yi mijozlarining har qanday xohish-istagini bajarishga majburiyat sezardi. U qaynoq bo‘salar hadya etib, erkalab-erkalanib tungi yumushlarni shunchalik yaxshi bajarishi lozim ediki, toki mijozi uning huzuridan masrur bo‘lib chiqib ketsin. Serpul erkaklarning ko‘payishi va yanada himmatli bo‘lishi o‘zining ehtirosli mahramona qiliqlariga bog‘liq ekanini Afra yaxshi tushunardi. Tunda uning issiq og‘ushida orom topgan “oshiq”lari ertasi kuni o‘z kayf-safolari to‘g‘risida tanish-bilishlariga to‘lib-toshib hikoya qilishlarini yaxshi bilgan qiz yangi mijozlarining paydo bo‘lishiga umid bog‘lardi. Chunki mijozning istagini noz-u karashma qilib, mahorat bilan bajo keltirsagina, ro‘zg‘ori butlanib, tirikchiligi uchun pul topiladi-da.

O‘zi bilan to‘shakda yotgan erkaklar qanchalik rohat qilishlarini bilmasa-da, Afra ulardan qoniqmasdi. Uning yosh vujudi ishqning yangi ehtirosli usullarini talab qilardi. Qiz o‘z tanasining ham ehtiyojini qondirishni istardi. Ba’zan bunday his-tuyg‘u uni qiynoqqa solardi. Afra bir narsadan hayron edi: u bilan yotadiganlarning hammasi bir-biriga o‘xshab semiz va beso‘naqay, buning ustiga, o‘rta va undan ham yuqori yoshdagi kishilar edi. Bunday mijozlar katta qorinlari tufayli to‘shakda qiynalib, qora terga tushardilar. Afra ishq bilan mashg‘ul bo‘lgan kechalari qu-

chog'iga birorta ham yosh yigit kirmaganidan afsuslanardi. U bundan shunday xulosaga kelgandi: demak, yoshi o'tinqirab qolgan mijozlari yoshlarga qaraganda, boy-badavlat va serpul. Boz ustiga, yigitlarning ortidan qizlarning o'zlari yugurishadi. Shu bois, yigitlar hech nimaga ortiqcha ehtiyoj sezishmaydi. Sho'rlik Afra ko'nglidan o'tayotganlarni ochiq aytolmay, barmog'ini qattiq tishlab, tonggacha hamma uqubatlarga chidashi lozim bo'lardi. Faqat tonggacha... Tong qiz uchun eng shirin lahzalar edi. Ertalab topgan pullarini sanab, keksa otasi qo'liga topshirardi. Tungi tahqirlashlar evaziga otasi uning boshini silab, xirildoq ovozda har kuni bir gapni qaytarardi: "Chida, oltin qizim, chida!" Otasi bundan boshqa so'z demasdi. Sho'rlik Afra yana qancha chidashi lozim? Qachongacha?

Tongni qarshi olish Afra uchun bayram edi. Unga yetishmoq qiz uchun quvonch keltirardi, chunki u tong otishi bilan ishini tugatib, kechga qadar miriqib uxlashi mumkin edi. Bunday paytda hech kim unga xalaqit bermaydi. Oqshom tushishi bilan Afraning yuragi siqilib, o'zini juda yomon his qilardi. O'sha chog'larda uni doimo bir savol qiynaydi: semizligi tufayli zo'rg'a nafas oladigan yana qaysi bir erkakka tanini baxshida aylaydi?

Bora-bora otasining ochko'zligi sarhad bilmay qoldi, chunki u ayab o'tirmay, hali balog'atga yetmagan keyingi qizini ham shu yo'lga boshladi. Otasi kunduzi ham bir guruh mijozlarni taklif eta boshlagani uchun Afra endi uxlay olmasdi. Bunday azobning nihoyasi ko'rinmasdi.

Ger o'zining Afrasini ancha vaqtgacha uchrata olmadi. Qizni eslab sog'ingan kunlari ko'ngliga ozgina bo'lsa-da, taskin berish uchun yoshlik muhabbati mangu ko'milgan bambukzordagi tanish daraxt oldiga borishni odat qildi. Bu yerda Afrani o'ylab uzoq o'tirar, bundan g'am-tashvishlari biroz yengillashardi.

Ger Afraga bir yildan keyin duch keldi. Dastlab ma'shuqasini taniy olmadi, chunki ro'parasida paylari baquvvat, semiz ayol turardi. Bu ayol bir paytlar ipakday mayin va nozik bo'lgan Afra edi.

— Yaxshimisan? — deb so'radi Ger. — Garchi savoli samimiy

bo‘lsa ham, Afra uchun tahqiromuz tuyulishini his qilib, o‘zini noqulay sezdi. Nima qilsin, jimgina tura olmaydi-ku. Uzoq vaqt ko‘rishmagan odamlar bir-biriga duch kelsa, nimadir deyishi kerak emasmi?

— Yaxshi, — deya zo‘rg‘a javob qaytargan Afra yuzini o‘girib, bambuk tanasiga manglayini bosdi. Qizning yelkalari sezilar-sezilmas titrab turardi.

“Yig‘layapti, — deb o‘yladi Ger, — mayli, yig‘lasin. Sho‘rlik, yig‘lasa ko‘ngli bo‘shab, biroz yengil tortadi”.

U jim kutib turdi. Birozdan so‘ng Afraning yelkasiga qo‘lini qo‘yib so‘radi:

— Yig‘layapsanmi?

Shunda... Shunda Afra yuzini o‘girib, Gerning bo‘ynidan mahkam quchoqladi-da, baralla yig‘lab yubordi. Qizning qaynoq ko‘z yoshlari bilan omuxta bo‘lgan nafasi yigitning ko‘ksini kuydirdi. Yil bo‘yi to‘plangan tahqirlar tufayli yomg‘ir tomchilari singari to‘kilayotgan Afraning ko‘z yoshlari uning ishqqa tashna bo‘sasi bilan aralashib ketdi. Alamdan titrayotgan Gerning ko‘ksi nam bo‘ldi. O‘tgan muddat sevgilisi uchun naqadar og‘ir bo‘lganini his qilgan yigitning ovozida iztirob sezildi:

— Ko‘z yoshingni to‘kma, Afraginam! Yig‘lama, yig‘lama, mening yulduzim!

Yigit qizning belidan quchib, bag‘riga tortdi-da, ko‘z yoshlari yuvib tushayotgan yonog‘idan o‘pa boshladi.

— Oltinim, farishtam! Endi seni taqdirning qo‘liga tashlab qo‘ymayman. Yetarli!

— Mayli, mayli, shunday qil, Ger! Orzu-umidim, jon-u jahonim, meni do‘zax azobidan xalos ayla, ortiq chidolmayman!

Lekin Ger ham, Afra ham bu so‘zlar shunchaki ko‘ngil uchun aytilayotganini sezib turishardi. Qiyin paytlarda odamlarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi zarurligi to‘g‘risida yozilmagan insoniy burch bor. Ayni paytda ikkisi ham bu vazifani sidqidildan ado etishdi.

Yigit va qiz bambuk daraxtiga suyanib, ko‘kka tikilishdi.

— Afra, men bu joyni juda yaxshi ko‘raman.

— Nega?

— Sening qizlik davring shu yerda...

Afra indamay labini tishladi. Qalbida uyg'ongan to'fon asta-sekin so'nib, ko'ngli tasalli topganiga qaramay, uning tanida chuqur iz qoldirib o'tdi.

— Ma, ol! — dedi Afra birozdan so'ng titroq ovozda.

Ger yoniga o'girilib, ma'shuqasi qizil rangli sandiqcha uzatayotganini ko'rdi.

— Bu nima? — deb hayron bo'ldi u.

— Ol, olaver! Suyanchig'im, bu mening sovg'am bo'lsin. — Bu so'zlarni aytayotib, Afra yigitni mahkam quchoqlab o'pdi-da, sandiqchani uning qo'liga zo'rlab tutqazdi. — Ola qol, lekin iltimos, uni men ketganimdan keyin ochib ko'rasan.

Afra to'satdan irg'ib o'rnidan turib, yugurib ketdi.

Ger joyidan qo'zg'almadi. Ma'shuqasining sharpasi ko'zdan yo'qolishi bilan sandiqchani ochdi: uning ichida pul bor edi.

Eh, la'nati kambag'allik! Erkak kishi uchun bundan ham og'ir ish bo'ladimi? Lekin yigitlik g'ururini yerga ursa ham, Ger sovg'ani tashlab yubora olmadi.

Keyin tag'in ikki marta uchrashishdi. Yigit har gal qizdan pul oldi. Uchinchi marta tong mahali to'shakda yalang'och yotganlarida ushlab olishdi. Ular uch kishi edi: Afraning otasi va ikki norg'ul yigit...

— Pulini to'la! — dedi xirildoq ovozda Afraning otasi.

— Ota-a-a! — Afra uyat va g'azabdan ko'zlarini katta-katta ochib, g'ayritabiiy ravishda qichqirdi. Bu ahvolda nima qilishini bilmagan qiz kiyimlarini kiyishni unutib, o'zini o'rmon ichiga urdi. Ger ham uning ortidan yugurmoqchi bo'ldi, lekin haligilar yo'lini to'sdi:

— Ablah, o'tkazgan kechangni haqini to'la, — dedi ochko'z chol o'shqirib.

— Qani, pulni cho'z! — Gerni siquvga oldi uning ikki sherigi ham.

Yigit bunday qo'pol muomaladan g'azablanib, es-hushini yo'qotib qo'ymaslik uchun oyog'ida zo'rg'a turardi. O'sha lahzada Ger sevimli va qadrli Afrasi insoniylik qiyofasini yo'qotgan

manovi kishilar uchun allaqachon pul topish manbaiga aylangani tushunib yetdi.

— Pulim yo'q! — dedi yigit bo'g'iq ovozda.

— Hayvon, unda nega qizim bilan yotding?

Ger bu qiyin savolga javob topolmadi. Bordi-yu, topganida ham, pul uchun odamiylikdan kechib hayvonga aylanganlarga tushuntira olmasdi.

— Tintib ko'ringlar! -- deb farmoyish berdi chol jahl bilan.

Ikki yigit Gerni yerga yotqizib, hamma cho'ntaklarini ag'darib ko'rishdi.

Pulni topib, cholga uzatishdi.

Afraning otasi titroq barmoqlari bilan pulni ushlab:

— Xafa bo'lma, o'g'lim, bizni kechir, — dedi va qo'shib qo'ydi. — "Yashash uchun kul tashi", deganlari shu bo'ladi.

Qilgan ishidan mamnun bo'lgan uch nafar kishi Afra qochib ketgan o'rmon ichiga qarab yugurib ketishdi. Ger hayotning shafqatsiz o'yini oldida o'zining ojiz ekanligini sezib, bambuk daraxtiga bosh urib yig'lab yubordi.

Ko'p o'tmay yurakni ezuvchi hayqiriq eshitildi:

— A-a-a!

Afra ketgan yoqdan eshitilgan dahshatli ovoz uni o'ziga keltirdi. Yigit o'sha tomonga yugurib borar ekan, ko'ngli qandaydir yomon narsani sezdi. O'rmon ichiga kirishi bilan ko'z oldi qorong'ilashdi: daraxtda Afraning yalang'och gavdasi osilib turardi. Qizning oyoqlarini quchoqlab turgan chol qattiq o'kirardi. Haligi ikki yigitning qorasi ko'rinmasdi.

— Eh, la'nati hayot! Shu qadar zolimmisan? — Bu gaplarni aytayotgan Gerning ikki qulog'i batamom bitib qoldi. O'zini unutgan yigit Afraning oyoqlari ostiga zo'rg'a yetib keldi:

— Seni la'natlayman, hayot!

Sevgilisining sovib borayotgan oyoqlarini quchoqlab o'par ekan, ko'ksini olov kuydirib o'tdi:

— Afra, oltinim! Sevgilim, senga nima bo'ldi? Pastga tush, yolvoraman, yonimga tush! U yerda nima qilyapsan, daraxtdan tushib, quchog'imga kel! Kel, men seni bag'rimga olaman!

Ger ma'shuqasining yalang'och oyoqlarini silab-siypalab ko'ksiga bosdi, lekin Afra uning so'zlarini eshitmasdi.

— Bo'ldi, bunaqa sho'xlik qilma, pastga tush, oltinim! Qo'rqma, men otangga bor pulni berdim. U pulni oldi. Tush, pastga tush, azizim!

Lekin qiz nimadandir arazlaganday, pastga tushmoqqa sira rozi bo'lmasdi.

Birdan Gerning quloqlari ochilib, yig'i tovushini eshitgach, bu yovvoyi o'rmonda o'zidan ham boshqa tirik jon borligidan xabardor bo'ldi. Bu Afraning otasi edi. Unga hayron bo'lib tikilib qolgan Ger cholning yuzida Afraning o'limi soyasini ko'rganday bo'ldi. Ko'ksida qasos o'ti yongan yigit cholga tashlanib, nimalar deyayotganini ham anglamay baqira boshladi:

— Uni sen o'ldirding, aqlsiz hayvon! Afraning yosh joniga sen qasd qilding, endi xunini to'laysan! — Ger baquvvat panjalari bilan cholning tomog'idan bo'g'a boshladi. — Endi sen uchun kim pul topib keladi, kim?! Hayoting nihoyasiga yetdi, ablah! Gapimni tushundingmi, ahmoq chol, Afraning o'limi uchun xun to'laysan!

U tiliga kelganini aytib, savdoyi ahvolga tushgan raqibini qattiqroq siquvga oldi. Cholga oson bo'lmadi, jahllangan kuchli tug'yonga qarshilik ko'rsatolmay, holsizlanib yiqildi. Bir zumda uning yuzi qorayib, keyin ko'kimtir tusga kirdi. Raqibining allaqachon hushdan ketganini sezmagan Ger tinmasdan qichqirardi:

— Xunini to'la! Afraning yorqin hayoti uchun haq to'laysan endi! Ichmagan suvi, hech qachon ko'ra olmaydigan quyoshi — hamma-hammasi uchun tovon to'laysan, ahmoq! Menga muhabbatimni qaytar!

Qattiq g'azablangan Ger cholning allaqachon o'lganini sezmay, uning gavdasini itarib yuborganida, jonsiz tana yerga quladi. Cho'zilib yotgan cholga e'tibor bermagan yigit gandiraklab boshi oqqan tomonga qarab keta boshladi.

— Bu hayot emas, dahshatning o'zginasi!

U qadamini tezlatdi:

— Qochish kerak! Iloji boricha, bu yerdan tezroq ketishi kerak! — Ger o'zini boshqarolmay oldinga intildi. — Bu yerda vijdonini yo'qotgan odamlar yashaydi! Bu yerda aqlidan judo

bo'lgan bemorlar istiqomat qiladi. Ketish kerak. Qanchalik tez bo'lsa, shuncha yaxshi, qochish kerak! Qochib qol, Ger, qoch!

Yigit old-orqasiga qaramay uzoq yugurdi, to'xtamadi. Qayerni ko'zlab borayotganini o'zi ham bilmasdi. Bu yerdan tezroq qochishi zarurligini tushunib yetgandi, xolos. Bu joylardan yiroqda bo'lishni istardi.

Ancha joygacha yugurib borgan Ger qoqilib, yerga yuztuban yiqildi. Nafasi qaytib yotaverdi. Ko'z o'ngidan daraxtga osilib turgan Afraning yalang'och gavdasi o'tdi. Qizni yo'qotgani uchun to'yib yig'lamagandek tuyuldi. Aslida bir umr yig'lasa bo'lardi. Sog'inch va alam hissi ko'ksidan kuch bilan otilib chiqib, tomog'idan yig'i, ko'zlaridan yosh bo'lib tirqiradi. Ger yerni mushtlab, chang-tuproqqa belangan ko'yi og'ir-og'ir nafas olib, bor ovozini qo'yib o'kira boshladi. O'zi uchun aziz va suyukli bo'lgan, erta so'ngan yulduzi bilan Ger ana shunday vidolashdi! Yigitning bo'g'iq ovozini o'rmonda hech kim eshitmadi, eshitganida ham buni odatiy hol sifatida qabul qilgan bo'lardi. Chunki bunaqa voqealar tez-tez takrorlanib turadi.

Birozdan so'ng o'zini qo'lga olgan Ger yig'idan to'xtab, yelkasi bilan ag'darilib, osmonga tikildi. Dov-daraxt shoxlari orasidan osmonning bir parchasi ko'rindi. Samo tiniq, toza va zangori edi.

"O-o! Osmon, bu yorug' olamda pokiza va mo'jizaviy manzil topiladimi? Bo'lsa ayt, men o'sha yerga tizzalab, o'rmalab bo'lsa ham yetib boraman. Bordi-yu, men orzu qilgan manzilimga yetib borsam, o'sha go'shaning tuprog'iga ta'zim qilib, hamma narsasini o'pib, ardoqlab yashayman!" degan fikr o'tdi uning xayolidan.

Shunday qasam ichgan Ger ovoz chiqarib so'radi: "Nahotki, shunday joy bo'lmasa? Men piyoda yurishga o'rganganman, o'sha joyga ham piyoda yurib yetib boraman". Bir qarorga kelgan Ger yo'lga tushib, ko'zlagan manziliga yetib bordi.

Ular uch nafar edi. Keyin yana bir nafar odam hamroh bo'ldi.

GLISH

Ba'zan boy-badavlat, hech nimaga zoriqmasdan yashash ham odamni zeriktirib, hayotga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Bunday-

lar beparvo va loqayd bo'lib qolishadi. Keyingi paytlarda Glishni ham shunday his-tuyg'u chulg'ab oldi. Hamma narsasi oshib-toshib yotganiga qaramay, uning bo'm-bo'sh qalbi uchun nimadir yetishmasdi. Bekorchilikdan iborat bo'lmish hayot Glishning me'dasiga urib, uni zeriktirib yubordi.

Mamlakatning yirik multimilliarderi bo'lmish otasi shu qadar boy-badavlat ediki, chetdan qaragan kishiga chirib borayotgan boyligining nihoyasi yo'qday, pulini sanab sanog'iga yetib bo'lmaydiganday tuyulardi. Glish ana shu badavlat oilaning yagona o'g'li bo'lgani uchun hammadan unga nisbatan alohida e'tibor talab qilinardi. Uyda uning so'zi qonun edi: nimani so'rab, nimani talab qilsa, istagi darhol amalga oshirilardi. Bunday e'tibor va g'amxo'rlik tufayli Glish bolaligidan erka, injiq va no'noq bo'lib o'sdi.

— Qanday xohlasang, shunday yasha! Sen uchun hech qanday monelik bo'lmaydi! — deb doimo takrorlab turardi onasi.

— Sen uchun boshqalar ishlab, buyurganingni bajarishadi. Sen o'ynab-kulib yuraver! — derdi otasi merosxo'riga mehribonlik ko'rsatib.

Yetishmovchiliksiz yashagan Glish uchun qashshoqlik va kambag'allik tushunchalari begona edi. U hatto o'qishni ham o'ziga ep ko'rmadi. "O'qishning nima keragi bor, menda hamma narsa bor-ku?!" Bu fikrni ota-onasi ham mamnunlik bilan ma'qullashdi. To'g'ri-da, tuganmas boyligi bo'laturib o'qib yurishiga ne hojat? Bundan biror foyda toparmidi? Aslida boylik — yaxshi xizmat, hokimiyat, hurmat va nihoyat, tengsiz kuch-quvvat! Bu sanalganlarning hammasi Glishda bor. Odamga tag'in nima kerak? Glish boylik va cheksiz imkoniyatlarini hayotining mazmuni hisoblab, o'zining aqidasi to'g'ri ekaniga qattiq ishonib yashadi. U hech nimani o'ylamay yigirma besh yoshga kirganida, nihoyat, hammasi joniga tegdi.

— Turmush shunchalik ma'nisiz, foydasiz va zerikarli bo'ladimi? — derdi Glish o'ziga-o'zi. — Biror nimadan umidvorlik yo'q. O'zimni bo'g'ib o'ldirgim keladi.

Glish chindan ham o'ziga suiqasd qilmoqchi bo'ldi. U o'ziga oson o'lim tiladi: "Bo'ldi, kechqurun uxlab, ertalab uyg'onmay-

man". Ko'nglida tug'ilgan ana shunday his-tuyg'u, xayollarga ishonib, har oqshom uyquga yotishdan avval o'z yaqinlari va dunyodagi hamma narsa bilan pinhona vidolashardi. Ertalab uyg'ongach, o'lmay qolganiga qattiq o'kinardi. Ba'zan o'zining o'limiga qattiq ishonib, tushga qadar nonushtasiz yurardi.

Bir kuni xayoliga "Odamga nimadir yetishmasa, o'sha paytda hayot qiziqarli va mazmunli bo'ladi", — degan fikr kelib qoldi. Bunday xulosaga qachon kelganini bilmaydi-yu, lekin shunisi aniqki, o'shanda kuppa-kunduzi edi.

Glish o'zining yangi kashfiyotidan hayratlandi. Nahotki, hammasi shu qadar jo'n va oddiy bo'lsa? Bunday xulosaga kelishiga sababchi, kun bo'yi darvoza oldida o'tiruvchi tilanchi bo'ldi. Azbaroyi bekorchilikdan Glish bir kuni xayolga berildi: "Mashinamni qarovsiz qoldirib ketsam, uni o'g'irlab ketisharmikin?" Qaysidir sharq mamlakatidan xarid qilingan mashinasi hali yap-yangi edi. Bu g'alati o'y Glishni quvontirish bilan birga, juda qiziqtirib ham qo'ydi. Shu kundan boshlab bo'm-bo'sh qalbida kelajakka bo'lgan umid paydo bo'ldi. Negadir kun bo'yi mashinamni tezda o'g'irlab ketishadi, degan xayoldan qutulolmadi...

Bir kuni mashinasini muyulishda qoldirib, kalitni olmadi va shoshilayotgan odamga o'xshab ko'zdan g'oyib bo'ldi.

"Qiziq, mashinamni qanday o'g'irlashadi?" degan o'yga borgan Glish bo'lajak voqeani kuzatish uchun o'ziga qulay joy ham topdi. Joy axtarib, yelkasini sovuq devorga tirab, zinada o'tirgan tilanchiga yaqinlashib qolganini sezmadi. Tilanchi ust-boshi to'zigan, bir qo'li yo'q, buning ustiga, ko'zlari ojiz o'rta yoshdagi kishi edi. Uning kiprik qoqmasdan quyosh nuriga tikilib o'tirganini ko'rgan Glish tilanchining ko'zi ojiz ekanini payqadi. Tilanchining oldida astari ag'darilgan bosh kiyimi bo'lib, ichida bir necha tanga yotardi. Sog' qo'lini yengi bilan yashirgan tilanchi haykal singari qimirlamay o'tirardi. Onda-sonda o'tkinchilardan ba'zilari tashlab o'tgan tanga jiringlashi bilan, qimirlamay o'tirgan tilanchi sal qo'zg'alib qo'yardi. Bunday paytda qiyofasida sezilar-sezilmas o'zgarish paydo bo'lib, muloyim va qayg'uli ovozda bir gapni takrorlardi: "Rahmat, yaxshi odam, senga Ollohning rahmati

bo'lsin. Boshim ko'kka yetdi!" Shundan so'ng tilanchi yana jim bo'lib qolardi. Bor-yo'g'i shu. Boshqa gapni bilmaydiganday, qaytib og'zini ochmasdi, lekin so'zlarida samimiylik va minnatdorchilik tuyg'ulari oshkora sezilib turardi. Turgan gap, undan bunday so'zlarni eshitadigan odamlar juda oz edi. Shunga qaramay, bu olamda yaxshi va himmatli kishilarning borligi ham katta gap. Shunisiga ham shukur! Odamlar bir-birini qo'llab-quvvatlab, muhtojlarga ko'mak berar ekan, dunyoning ertasi yorqin va go'zal bo'ladi. Zamin shunday yaxshi niyatli kishilar tufayli aziz va muqaddas hisoblanadi.

"Bordi-yu, mashinamni o'g'irlashsa, hamyonimdagi bor pulimni chaqasigacha qoldirmay, mana shu odamga hadya qilaman", — dedi Glish o'zicha qasam ichib. U mashinasining o'g'irlab ketilishini astoydil istayotgandi, chunki bor pulini anovi aftodahol nogiron tilanchiga berish ishtiyoqi uning kayfiyatini yaxshiladi.

— O'g'ri, azizim, senga oq yo'l tilayman. Iltimos, mashinamni tezroq o'g'irlab ket! — dedi o'g'riga omad tilagan Glish. Tilanchiga yaqin masofada turgani uchun uni kuzata turib, xayolida bir savol aylandi: "Nogiron bo'lib, azob-uqubatda yashagandan o'lgani yaxshi emasmi?" Lekin bu so'rovga javob topolmadi. "Nega tilanchi hayotga shunchalik tirmashib yashaydi? Nima uchun soppa-sog' bo'laturib, hayotimning gullagan chog'ida men o'limni istab qoldim? Nega anovi nogiron, deyarli yarim jon odam achchiq qismatidan zorlanmay, uzoq yashashga intiladi? Mendek hamma narsasi yetarli bo'lgan, hayotini kamchiliksiz o'tkazayotgan odam nega o'zini o'ldirishi kerak?" Savollar, savollar... Afsuski, ularning hammasi javobsiz edi. Glish o'zini qiynayotgan so'rovlarga javob izlab, tilanchiga so'zsiz tikildi. Xayoliga andarmon bo'lib, mashinasini unutgan ekan, uni eltib qo'ygan tomonga qaradi. Xudoga shukur, mashinasi joyida emasdi. Glish o'zining nega bunchalik xursand bo'layotganini tushunmasdi. Balki niyati amalga oshib, bor pulini anovi nogironga berishi mumkin bo'lganidan quvonayotgandir? Bilmadi. U hamyonidagi bor pulini olib, tilanchining oldidagi bosh kiyimiga tashladi. Tangalarning to'satdan jiringlashi tilanchini qo'rqitib

yubordi. Chunki u bir umr shu kasb bilan shug'ullanayotganiga qaramay, bosh kiyimiga bunchalik ko'p pul tushganini hech ham eslolmaydi. Tilanchi bunday himmatli, qo'li ochiq va mehribon kishini uchratmagandi. U omadi kelganini o'ylab, hushidan ketishiga oz qolganiga qaramay, azbaroyi qo'rqqanidan tilini tishlab jim o'tiraverdi. Glish uning ahvolini sezmay, yelkasidan turtib qo'ydi:

— Birodar, manovini ol!

Glishning "birodari" hali ham o'ziga kelolmay, murda singari qotib o'tirardi. Buni ko'rgan Glish biroz egilib tilanchining yagona sog' qo'lining kaftini ochdi-da, qog'oz pullarini ham tutqazdi. Keyin bir og'iz gapirmay tilanchidan uzoqlashdi. Ko'ngli yorishgan yigit o'z ishidan quvonib atrofga jilmayib qaradi: shu paytga qadar dunyoning bunchalik go'zalligini, quyoshning haroratli va yorug' nurlarini his qilmaganini angladi. Gap nimadaligini tushunmagan tilanchi hali ham qog'oż pullarni qo'lida ushlab turardi. Glish ancha nariga borgach, miyasiga kelgan fikrdan qo'rqib ketdi: "Buncha katta pulni ko'rib, biror kimsa bu nogiron odamni o'ldirib ketsa-chi?" U shoshilib ortiga qaytganida, tilanchi hali ham pulni qo'lidan qo'ymay qimirlamay o'tirardi.

— Birodar, pulingni yashir! — dedi Glish unga yaqinlashib. So'ngra kutib o'tirmay, qog'oz pullarni tilanchining qo'yniga tiqdi-da, andak xotirjam bo'lib, undan uzoqlashdi. Uning hali ham beparvo o'tirishi ko'nglini g'ash qildi. "Nega u shuncha pulni ko'rib quvonmadi, axir, kun bo'yi shuni deb o'tiribdi-ku?" Kechasi yaxshi uxlolmay, javobsiz savollar girdobida azoblanib chiqdi. O'ziga tinimsiz "nega?" degan savolni berib, turli o'y-xayolga botgan Glish ertalab yana tilanchining huzuriga keldi. Shu kundan boshlab tilanchidan xabar olish uning uchun odat tusiga kirdi. Bir kun uni ko'rmasa, sog'inadigan bo'ldi. Qarshilik ko'rsatganiga qaramay, bir gal tilanchini uyiga boshlab kelib, uning qornini to'yg'azdi, yangi kiyim-bosh kiydirdi, lekin mehmoni Glishning mehribonligidan unchalik ham xursand emasday edi. Bir kuni esa uning uyidan qochdi-ketdi.

Ertalab tilanchini o'rnida ko'rmagan Glish uning qaytib kelishiga umid bog'lab, kechgacha kutib o'tirdi, lekin u qaytmadi. Butun shahar bo'ylab izlaganiga qaramay, Glish tilanchini hech

qayerdan topolmadi. "Nega shunday to'kin turmushni tashlab tilanchi yana o'zining qashshoq hayotiga qaytdi? — Xayolga botdi Glish. — Nega? Nega?"

Mehmoni izsiz yo'qolgan kundan boshlab uning qalbi yana bo'shab qoldi. Tabiatida loqaydlik va beparvolik paydo bo'lib icha boshladi. Mast bo'lgan paytlari fohishaxonalarga qatnaydigan odat chiqardi. O'zini o'ldirish haqidagi eski xayollari yana tinchlik bermay qo'ydi.

— Nega o'lmay yuribman? — so'radi bir kuni o'zidan. — Bugun albatta, o'lishim kerak, dunyosidan to'yib ketdim.

Bir gal fohishaxonadan chiqayotib, negadir tilanchi o'tirgan joyga so'nggi marta borgisi keldi. Tilanchi odatdagidek joyida qimirlamay o'tirardi. Uni ko'rib quvongan Glish hamyonidagi hamma pulini tangalarigacha bo'sh yotgan bosh kiyimi ichiga tashladi. O'tgan galgidek bu safar ham tilanchi o'zini yo'qotib qo'ysa kerak, deb o'yladi Glish. Lekin tangalarning jiringlashidan cho'chib tushgan nogiron tilanchi hech kutilmaganda o'rnidan shoshib turib, sog' qo'li bilan devorni ushlab qocha boshladi. Bir necha marta qoqilib ketganiga qaramay, to'xtamadi.

Tilanchining ortidan jimgina kuzatib turgan Glish izlayotgan savollariga javob topganday bo'ldi: demak, hayotning u bilmagan yashirin siri yetishmovchilikda ekan. Bu asror xazinasining kaliti — insonning asta-sekin muvaffaqiyatga erishmog'ida. Ura-a!

Glish shunday xulosaga kelganida, hayoti xastaligi tufayli xavf ostida edi. Kasallikka chalingan fohishalar bilan aysh-ishratlari sababli uning vujudida davosiz xastalik — SPID rivojlana boshlagandi. U ota-onasining nochor boqishlari, yaqinlarining imo-ishoralari, shifokorlarning ishonchsiz xulosalarini ko'rib, o'zining ahvolini tushunib yetdi.

Hayratlanarli tomoni shundaki, umidsizlangan Glishning endi ko'proq yashagisi, hayot lazzatlaridan to'yib-to'yib totib ko'rgisi kelib qoldi. Xayolidan nogiron tilanchi o'tdi, garchi u notavon bo'lsa ham, ruhan sog'lom va hayotni qattiq sevuvchi baxtli inson ekan. Mana, hayotning bor aksiomasi.

"Bordi-yu, bu og'ir xastalikdan shifo topguday bo'lsam, boshqacha yashagan bo'lardim, — dedi u o'ziga qat'iy. — Shifo topsam? Shifo beradigan joyning o'zi bormi? Bor bo'lsa, o'sha joyga o'rmalab bo'lsa ham yetib borardim. Albatta, borardim!" Shunday qasam ichgan Glish o'zini chorlayotgan go'shaga yetib bordi.

Ular to'rt nafar edi. Keyin yana bir nafar odam hamroh bo'ldi...

BESH NAFAR

Besh nafar kishi uchrashgan tabiati go'zal Rankat vodiysining hududi poyonsiz edi. Uning bir tomoni cho'qqilarini muz qoplagan tog'larga borib tutashsa, boshqa tomoni ko'z ilg'amas kengliklardan iborat edi... Vodiyning o'ng va so'l tomonlarida o'tib bo'lmas o'rmon shovullab yotardi. Bu joylar yovvoyi parranda va darranda, oppoq qanotli turnalar makoni edi. Oqqushlar Rankat osmonini to'ldirib uchgani bois, qaysi tomonga boqsangiz, ularga nigohingiz tushardi.

O'rmonda mevali dov-daraxt bisyor edi. Mevaning hamma navi — olma, gilos, nok, yong'oq, shaftoli, o'rik, banan, anjir, limon, anor... mo'l-ko'l hosil berardi. Bu yerga qadam qo'yganlar boshqa ko'pgina mevalarning nomini hatto bilishmasdi.

Zilol suvli Lanbag daryosi vodiyni ikkiga bo'lib oqib o'tardi. Bisyorligidan daryoga sig'magan baliqlar suv sathida sapchib o'ynardi. Chetdan kuzatgan kishi bu yerda baliq va turnaning qay biri ko'pligini bilolmay hayron bo'lardi. Baliq bisyor desang, turnalar vodiyga sig'may, hatto suv yuziga tegib-tegmay uchib yuradi, daryodagi baliqlar esa, ko'kda parvoz qilayotgan turnalar qadar sapchiydi. Tabiatning bu so'lim go'shasi qiyossiz go'zalligi, mo'jizaviy shifobaxsh o'simliklari, tanga rohat bag'ishlovchi musaffo havosi bilan ajralib turardi. Besh nafar kishi Rankat vodiysini behuda tanlamagan edi.

Dastlab u tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

QASAMYOD

Besh nafar kishi vodiyga yig'ilgach, qasamyod qilishdi:

— O, mo'jizali Zamin! Sening sharofating tufayli og'ushingda — yer usti va ostida, osmon va ummonda yashayapmiz. G'amxo'rliging tufayli ildiz yozib, yam-yashil yaproqchi qaramiz, gullab-yashnaymiz, meva tugamiz. Sening o'simlik va jonivorlaring hisoblanamiz. Biz ko'pchilikmiz, sen yagonasan, muqaddas Zamin. Afsuski, biz har doim ham qadringga yetavermaymiz, tanho ekanligingni unutib qo'yamiz. Bizlar son-sanoqsiz, sen koinotda yolg'izsan, ona Zamin. Bu haqda o'ylab ko'ramizmi? Yo'q! Aslida seni hech qachon yodimizdan chiqarmay, asrab-avaylashimiz, g'amxo'rlik ko'rsatishimiz lozim edi. Xudo saqlasin, bordi-yu, sen o'z mehvaringdan chiqib ketsang, garchi ko'p bo'lsak-da, qo'limizdan hech narsa kelmaydi. Shu zahoti yo'qlikka mahkum bo'lamiz. Koinot tizimida yo'q bo'lib ketmasliging uchun biz — bag'ringda istiqomat qiluvchilar yakdil bo'lib, totuvlik va ittifoqda yashashimiz zarurdir. Yo'qsa, falokat bizni chetlab o'tmaydi. Buni yaxshi anglab, biz — yerliklar totuvlik, tinchlik, go'zal hayot uchun birlashamiz!

— Qasamyod qilamiz! Qasamyod qilamiz! Qasamyod qilamiz!

Bu, zamin muqaddasligini, uning bebaho mo'jizalari va hayratli go'zalliklarini his qilgan bashariyatning besh vakili qasami edi.

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

GO'ZAL OLAM

Bu go'shada tasviriga qalam ojizlik qiladigan hayot davom etmoqda. Shundoqqina daraxt shoxidan uzilgan mevalarni iste'mol qilib, musaffo havodan nafas olib, muzdek zilol suvlardan ichib, tabiatning tanga darmon bag'ishlovchi isi-iforidan bahra olgach, og'ir xastalikka chalingan odamlar shifo topib, darmonga kira boshlashdi. Osoyishta kunlar, jannatdagiday to'kin hayot shu tarzda kecha boshladi.

Kaan ichgan qasamiga sodiq qolib, borliqqa ta'zim qilib kun kechirdi.

— Azizlarim! — Borliqdan nur emib, hayotini davom ettirish uchun ozuqa olib yashayotgan Kaan daryoga ham, dov-daraxtlarga ham, jonivorlarga ham shunday murojaat qila boshladi. — Aziz va musaffo tabiat — mening hayotim! Shunday ekan, sog'ligimni saqlab, umrimni uzaytirishim uchun butun mavjudotga birdek yaxshi munosabatda bo'lishim kerak.

Ger nigohi tushgan tog'-tosh, jonivor va o'simliklarga "Siz" deb murojaat qilib, keyin gap boshlaydi.

— Daraxtlar, mabodo, Siz bambukning qarindoshi emasmisiz? — deb so'radi bir kuni baland daraxtga boqib.

Ger o'sha paytda Afrani o'ylab o'tirardi, lekin qanchalik urinmasin, sevgilisi o'zini osgan daraxtning qandayligini hech ham eslay olmadi. U olis o'rmonda qaylig'i bilan o'tkazgan kechani shirin entikish bilan eslaganda, bularning hammasi unga qadimgi afsonaday tuyulardi. Afra bilan o'tkazgan hayoti kimdir to'qigan va yana kimdir tomonidan aytilgan sehrli ertak singari "Bor ekanda, yo'q ekan, qadim zamonlarda Ger va Afra ismli bir-biriga ko'ngil qo'ygan oshiq-ma'shuqlar yashagan ekan", degan so'zlar bilan boshlanguvchi edi. Yigit hozirga qadar afsona ta'siridan qutulolmadi. Uning dov-daraxtlarga bo'lgan muhabbati o'shandan qolgan bo'lsa, ajab emas.

— Siz, mening daraxtlarim, marhamat qilib aytsangiz, Siz bambukka qarindosh emasmisiz? — U shovqinli o'rmondagi dov-daraxtlarni oralab yurib, savolini qayta-qayta takrorlardi. Ger sevimli ayolini yo'qotib qo'yganiga ko'nika olmasdi.

Glish tilanchi bilan o'ngida emas, balki tushida yana yuzma-yuz bo'ldi. Tilanchi har oqshom zo'rg'a qadam bosib uning huzuriga kelar va hali hech kim eshitmagan qo'shiqni xirgoyi qilardi. Tong otishi bilan qo'ltiqtayog'iga suyanib qaytib ketardi. Ertalab uyg'ongan Glish anchagacha o'rinda yotib, tashqariga quloq tutardi. Ba'zan qo'ltiqtayoqning taxtaga tekkan ovozini eshitganday bo'lib, sakrab turib tashqariga otilardi. Lekin hech kimning qorasi ko'rinmasdi. Yangi tun boshlanishi bilan tilanchi tag'in Glishning huzuriga kelardi. Biroq haligacha bir marta bo'lsa

ham, u bilan yuzma-yuz uchrashib, chin ko'ngildan suhbatlasha olmadi.

— Rankat — mening mehribon onam, bebaho tumorim, chunki men shu yerda qayta tug'ildim. — derdi u.

Glish yerga o'tirgan zahoti tuproqni silab-siypalaydi. U bunday odatni avvalroq qayerdadir ko'rgandi. Qayerda? Urinib-urinib, esladi: bechora tilanchi yer va devorlarni silab-siypalab hayot kechirardi. Demak, silamoq — hurmat belgisi. Hurmat esa komillikka erishmoq alomatidir! Glish o'zi topgan yangilikdan quvonib ketdi. Endi u shuncha yildan buyon o'zida hayotga samimiy hurmat hissi bo'lmaganligini anglab yetgandi. Bu chinakam mo'jiza! Glish tog' va uning cho'qqilari-ga, tuproq va suvga ta'zim qildi.

— Men o'lishni istamayman! Ey mening tilanchim, nega o'limdan qochganim sababini hozir yaxshi bilaman. Endi o'lmoqchi emasman!

O'zining ilmiy ishini unutgan Viyanning bu haqda o'ylagisi kelmasdi. U olamda ilmiy ishdan ham muhim va qimmatli, qiziqarli narsalar borligini tushunib yetdi. Bu, yam-yashil tabiat bilan birga yashash edi.

— Tabiatga talonchilarday munosabat qilib, unga qarshi turmoq katta gunoh sanaladi. Payti kelib, tabiat bu xato ishlarimiz uchun bizdan dahshatli tarzda o'ch oladi. — Viyan uzoq o'y surib shunday xulosaga kelgandi. — Biz — inson avlodi, endi tabiatdan kechirim so'rabgina qolmay, balki o'zimiz yo'l qo'ygan xatolarni ham tuzatishimiz zarur.

Yangi ko'chib kelganlar uchun Rankat vodiysi g'oyat go'zal ko'rinsa-da, bu joylar Oid uchun unchalik ham hayron qolarli emasdi. Chunki endigina ko'zi ochilib, hayotiy maqsadini aniq belgilab olgan, o'zini yengishga ahd qilgan to'rt nafar do'stidan tashqari, Oid bolaligidan hozirga qadar tabiat bilan yonma-yon yashadi. Borliqdagi mavjudotning bir-biriga yaqin qon-qarindosh ekanini his qilganiga ancha bo'ldi. Onasi borliqqa muhabbat uyg'otish bilan birga, uni pokiza suti bilan boqib o'stirgandi. Otasi foydali maslahati, to'g'ri yo'lga undovchi ta'lim-tarbiyasi bilan tabiatni asrab, unga muhabbat qo'yishdan odamning o'zga ulug' ishi yo'q ekanligini o'g'liga batafsil tushuntirgandi. Oid umrining oxi-

rigacha tabiat uchun halol va vijdonan xizmat qilishga ahd qilib, o'z so'zining ustidan chiqdi.

Rankat vodiysida yashagan beshovlonning hayoti ertakdagiday kechardi. Ular sayr-sayohat qilishdi, toza suvlarni ichib, daryoda cho'milishdi, quyoshda toblanib, tabiat bag'rida osuda yashadilar. Daryodagi baliqlar ularning boshi va yelkasiga sapchib, yana suvga sho'ng'iy boshlardi. Hadiksiramay yashagan turnalar har kuni odamlar manzilgohi yoniga ikkitadan tuxum qo'yib ketardi. Besh nafar kishi tuxum yeb, kun bo'yi to'q yurardi. Demak, borliqqa yaxshi munosabatda bo'lib, behuda asabiylashmay, ko'ngilchanlik bilan yashagan odamlar tinch va to'kin hayotga erishadi. Ulug' kunga qadar vodiyda jannatiy hayot davom etdi.

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

ULUF KUN

Inson hayot karvonining uzun-qisqa yo'llarida kimlarga, nimalarga duch kelmaydi deysiz. Lekin oyog'i yerdan uzilmasin, yo'qsa, tamoman so'nib, xotima topadi, yo'qlikka yuz tutadi. Agar oyog'ing ostidan shamol o'tib tursa, bu omading yurishganidan darak beradi, demak, hali hayot yo'lida juda ko'p narsalar uchraydi: qayg'u va quvonch, yomonlik va yaxshilikdan iborat kunlar, xotirangdan o'chmaydigan buyuk va abadiyatga teng lahzalar...

Bir kuni sururli umr kechirayotgan besh nafar odamga Ulug' Kun nasib etdi!

— Ertaga Ulug' Kun! — dedi Viyan tongda, lekin bu gapni aytib falokatga yo'l ochganini sezmay qoldi.

— Qanday Ulug' Kun? — Hayron bo'ldi boshqalar.

Ular ham bu savolga javob kutib, tuzatib bo'lmas razolatga yo'l ochdilar.

— Nima, bilmaysizmi? Axir ertaga bizning bu vodiyda baxtli yashayotganimizga roppa-rosa bir yil to'ladi.

Avvaliga bu xushxabarni eshitib hayron bo'lganlar keyin bir-biriga qarab, bor ovoz bilan qichqirishdi:

— Yashasin Ulug‘ Kun!

Besh nafar kishi osmonga tikildi. Ko‘kda qaynoq nurlarini sochib, quyosh charaqlab turardi. Ko‘zlar uning nuridan qamashdi.

— Nishonlash kerak! — deb shovqin soldi hammasi.

— Nishonlaymiz! — dedi Viyan.

U davrani tark etib, oqshom mahali qaytib keldi. Viyan quruq qo‘l bilan qaytmabdi: kattagina xaltada shisha olib kelibdi. Shisha idishlar suvga to‘ldirilgan edi, lekin u odatdagi ichimlik suviga o‘xshamasdi. O‘z vaqtini kutib turgan shishadagi suv aqldan ozdiradigan ichimlik edi. Kim aqlini yo‘qotishni istasa, ixtiyoriy tarzda telbaga aylanguncha, o‘sha suvdan ichishi mumkin edi. Chindan ham ko‘p o‘tmay uni ichganlar boshqalarning ko‘z o‘ngida o‘zgarib qolardi.

— Nima bilan ichamiz? — deb so‘radi Glish.

— Suv bilan! — dedi Viyan.

— Juda yaxshi! — dedi hamma bu fikrni ma’qullab.

Shu kuni kech yotishganiga qaramay, ertasiga juda barvaqt uyg‘onishdi. Tong otishi bilan uzoq kutilgan “Ulug‘ Kun” boshlandi. Lekin aynan shu kuni haqiqiy Quyoshdan mahrum bo‘lishlari mumkinligini ular tasavvur ham eta olmasdilar.

— Ulug‘ Kun muborak bo‘lsin! — deb hammani qutladi Kaan tantanali ohangda.

— Qayta tug‘ilganimiz uchun! — dedi Glish.

— Hayotga ta’zim qilamiz! — dedi hayajonlanib ketgan Oid.

— Yashasin Quyosh! — deb hayqirib yubordi Ger.

— Yashasin Hayot! — deya unga jo‘r bo‘ldi Viyan.

Bunday ulug‘ so‘zlar ta’siridan hayajonlangan do‘stlar quvonchdan yayrab, bir-birini bag‘riga bosdilar.

— Ketdik! Suvga boramiz! — dedi Kaan sheriklarini chorlab.

Uning taklifini qo‘llab-quvvatlagan do‘stlar bir ovozda hayqirishdi:

— Ketdi-i-ik!

— Ketdi-i-ik!

U tanho edi. Keyin unga to‘rt nafar hamroh bo‘ldi. Besh nafar odam bir joyga yig‘ilganida...

AQLDAN OZDIRUVCHI SUV

Do'stlar aqldan ozdiruvchi suv bilan to'ldirilgan shishalarni ko'tarib Lanbag daryosi sohiliga kelishdi. Daryo odatdagiday to'lqinlanib, shovqin solib oqib yotardi. To'lib-toshayotgan daryoda beqaror va sho'x baliqlar sapchib o'ynaydi. Quyosh nurida ularning tangasi yaltirab, ko'zni qamashtiradi.

O'rmonga kirib ketgan Ger va Glish yovvoyi o'simlik mevasidan terib, hayallamay qaytib kelishdi. Idish-tovoqlarni terib, jomlarga aqldan ozdiruvchi suvlarni quyishdi.

— Ulug' Kun uchun ichamiz! — deb hayqirdi Glish.

Oh, bu so'zlar! Axir, hamma ham quyosh nuri ostida yashab, uning hayotbaxsh va yorqin nuridan bahra olishni istaydi. Ana shunday baxtli kunlarda odam bolasi yuragida orzular ko'z ochadi. Quyoshni g'oyat e'zozlovchi besh nafar odam birinchi qadahni uning sharafiga ko'tarishdi.

— Muqaddas suv uchun! — deb navbatdagi qadahni taklif etdi Viyan.

Hayot manbai bo'lmish suv uchun kim ham ichmaydi deysiz. Suv — hayot xuni. Suvsizlikdan inson halok bo'lib, suyagi tuproqqa aylanadi. Shu bois, suvga ta'zim bajo keltirganlarning har biri idishdagi suyuqlikni tomog'iga quya boshladi.

— Musaffo havo uchun! — deya hayqirdi Ger.

Ayting, toza havo uchun kim ichmaydi? Toza havo uchun ham baravar qadah ko'tarishdi.

— Ulug' birodarlik uchun! — dedi Kaan do'stona ohangda.

Mana bu chinakam qadah so'zi bo'ldi! Yana ichishdi.

— Buzilmas do'stlik uchun! — dedi Oid.

Uning so'zini ham hech kim yerda qoldirmadi. Do'stlik iplari mustahkam bog'langanini isbotlash uchun yana qadah ko'tarildi.

Hammaning kayfiyati yaxshilandi. Ichimlik ta'siri tufayli bo'lsa kerak, quyosh nurida ilib oqayotgan daryo barchani o'z og'ushiga chorladi. Uzoq kutib o'tirmay Kaan va Viyan suvga sho'ng'ishdi. Baliqlar odatdagiday ularning yelkasi va boshi ustida o'ynay boshladi.

Yorug‘ dunyoning go‘zal ekani va mana shu g‘aroyib olamda yashamoq chinakam baxt ekanligini do‘stlar yana bir marta his qilishdi.

Sharobxo‘rlik bilan o‘tadigan kunlar, tez-tez uyushtiriladigan ziyofatlar odatga aylandi. Ichimliksiz zerikib qoladigan, hayotlari ma’nisizday tuyuladigan bo‘ldi. Bu yerga nima uchun yig‘ilib kelganlari sababini va dastlabki qasamlarini unutgan beshovlon bora-bora o‘zini boshqara olmay, maslakdan chekindilar. Mana, insonning asl qiyofasi! Ular kun sayin o‘zgarib, tubanlashib bormoqda edilar.

U tanho edi. Keyin unga to‘rt nafar hamroh bo‘ldi. Besh nafar odam bir joyga yig‘ilganida...

QORA KUN

Sharobxo‘rlik hafta emas, bir necha oyga cho‘zildi. Dasturxon atrofidagi g‘ala-g‘ovurli ziyofatlar chog‘ida do‘stlarning yoqimsiz xislatlari oshkor bo‘la boshladi. Sayr-u sayohatdan boshlangan “Ulug‘ Kun” qora kunlarga olib keldi.

Har galgi o‘tirishdan keyin mast-alast holda Lanbagda cho‘milish odat tusiga kirgani uchun bugun ham suvga tushishdi. Bu chog‘da daryoda baliq mo‘l edi.

Beligacha suvga kirib turgan Kaan to‘satdan qichqirdi:

— Suv ilonlari!

Lanbag sohilida turganlar qichqiriq kelgan tomonga o‘girilib, semizgina baliqni ushlab turgan Kaanni ko‘rishdi. Uning yuzida shafqatsizlik alomati zohir edi.

— Boshini tishlab olsammi? — dedi u ko‘zlarini olaytirib.

— Tishing qichiyaptimi? — deb hazillashdi Ger.

— Ha, qichiyapti! — Jahl bilan javob qaytardi Kaan tishlarini g‘ichirlatib.

— Unday bo‘lsa, yeb ko‘rgin! — dedi Glish kinoyali jilmayib.

— Yeyman ham! — G‘azablangan Kaan baliqni og‘ziga yaqinlashtirdi. — Ochko‘z shoqolning o‘zginasi bu!

Kaanning bu qilmishi Viyan va Oidni tashvishga soldi.

— Suvga tashla! — deb baqirib yubordi Oid g'azabini zo'rg'a bosib.

— Suvga qo'yib yubor! — dedi xavotirga tushgan Viyan ham.

Beligacha suvga botib turgan Kaanning rangi o'zgarib, hammaga bir-bir qarab chiqdi:

— Sen hali shoshmay tur! Bilib turibman, hammangiz bu maxluqning himoyachisiga aylanibsiz.

U baliqni suvga irg'itdi. Baliq suzib ketdi. Joyidan jilmagan Kaan daryoga qarab yovvoyi ovozda baqirdi:

— La'nat! Bu suv ilonlari tufayli bizga obi hayot yetmay qolyapti!

Uning ovozida vahshiylik bor edi. Kaanning tabiati bunchalik tez o'zgargani hammani xavotirga soldi.

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

SEHRLI GIYOH

Kaan suvdan chiqib, sheriklariga bir og'iz so'z demay, o'rmon ichkarisiga kirib ketdi. Uning xatti-harakatlarini hayron bo'lib kuzatib turgan do'stlari Kaanning qorasi ko'zdan yo'qolishi bilan o'zaro gap boshlashdi:

— Unga nima bo'ldi?

— Betob bo'lib qoldimikin?

— Yuzi negadir juda tez o'zgarib ketdi?

Savollarga hech kim javob bermadi.

O'rmonda uzoq qolib ketmay, tezda ortiga qaytgan Kaanning kayfiyati yaxshi ekanligi shundoqqina charaqlab turgan ko'zlaridan sezilib turardi. Uning qo'lida turli tusdagi o't-giyohlar bog'lami bo'lib, Kaan har zamonda bu o'tlarni hidlab qo'yardi. So'ngra qandaydir giyoh bargini chaynagan holda davraga yaqinlashib, indamay yerga cho'kdi. Kimdir uzatgan suvni ichmay, boshini chayqab qo'ydi.

— Og'aynilar, men zo'r narsa topdim! — dedi u tantanali ohangda.

Sheriklari uning qo'lidan o'tni olib, navbati bilan hidlab ko'rishdi. Xushbo'y isdan Glish va Gerning ko'zlari porlab, qorachiqlari kengaydi. Viyan qimirlamay o'tiraverdi. O't isi Oidda hech qanday kayfiyat uyg'otmadi, bu o'rmondagi o't-o'lanlarning odatiy hidiga o'xshardi, xolos. Bunday o'simliklar har qadamda uchrardi. O'zlari uchun qiziq yumush topgan Ger va Glish alohida e'tibor ko'rsatib, Kaanning yonidan joy olishdi. Viyan va Oid do'stlarining xatti-harakatlarini e'tiborsiz kuzatib o'tirishdi.

Ko'p o'tmay Kaan ularning ikkisiga ham o't ulashdi.

— Buni nima qilamiz? — deb so'radi Oid.

— Shoshilma, hozir tushuntiraman, — Kaan shunday deb kuldi-da, o'tni kaftiga olib ezg'ilay boshladi. — Qani, siz ham shunday qiling.

Uning maslahati bilan boshqalar ham o't-giyohlarni kaftlari orasiga olishdi. O't unchalik qurib qolmagani uchun darhol ezg'ilanib ketmay, shilimshiq holga kira boshladi. Davradagilar bu yumush bilan anchagacha mashg'ul bo'lishdi.

Osmonni to'ldirib uchayotgan turnalarga ahyon-ahyonda nigoh tashlab o'tirgan Kaanning birdan jahli chiqib ketdi:

— Eh, bu qushlarning dastidan qachon bizga quyosh nuri tushadi? Qulog'imiz qachon tinchiydi? — yengil parvoz qilayotgan turnalarga uzoq tikilib turdi-da, uning avzoyi buzildi. — Otish kerak! Birortasini ham tirik qoldirmaslik kerak!

Kaanning g'alati gaplaridan hayron bo'lgan Oid savol nazari bilan Viyanga qarab qo'ydi. Do'stining gapiga e'tibor bermagan Ger va Glish esa o'z yumushlari bilan ovora bo'lib, hafsala bilan o't ezg'ilashmoqda edi. Viyan ham, Oid ham yelka qisib, ishni davom ettirishdi. Uzluksiz harakatdan keyin kaftlari orasidagi o'tdan qandaydir sarg'imtir shira ajralib chiqdi.

— Bo'ldi! — dedi Kaan. U kaftidagi o't qoldig'ini sidirib tashladi-da, qo'lini quyoshga tutdi. Bu paytda turnalar quyosh nurini to'sib, osmonni to'ldirib uchib o'tmoqda edi. Bu Kaanning nafratini oshirdi:

— Bu uchib yuruvchi shoqollar dastidan quyosh nurini ko'ra olamizmi?

Avvalgiday bu gal ham hech kim javob qaytarmadi, faqat Viyan va Oid unga g'alati qarab qo'yishdi. Nihoyat, hamma qo'lidagi o't qoldig'ini uloqtirib, Kaan singari hovuchlarini shamolga tutib, shirani quritishdi. Hovuchlaridagi qotishma avval yashil, keyin qahrabo tusga kira boshlaganini ko'rib, Kaan xotini egiz tuqqan otaday quvondi.

— Men sizga aytgan mo'jiza — mana shu! Chinakam topildiq! — dedi Kaan va cho'ntagidan qog'oz olib, teng taqsim qilib bo'lib, sheriklariga uzatdi. — Qog'ozni buklab, ustiga qotishmani qo'yasiz, vassalom. Bu, katta mehnat talab qilmaydi.

Kaan kutib o'tirmay ishga kirishdi. Boshqalar ham unga taqlid qilib, qog'oz o'rami ichiga yashil-jigarrangdagi quruq kukunni to'kishdi. Hamma ishini tugatgach, Kaan qo'liga sarg'aygan yaproq olib, nima qilish kerakligini tushuntirdi:

— Endi bu sehrli kukunni yaproqqa o'raymiz.

Kaanning topshirig'i bajarilib, barchaning qo'lida o'ziga xos tamaki paydo bo'ldi.

— Kimda olov bor? — Kaan tamakini tishlab, atrofdagilarga bir-bir qarab chiqdi.

Hech kimda olov yo'q edi.

— Ketdik, yotoqxonaga boramiz, — dedi Kaan buyruq ohangida va sheriklarining javobini kutmay o'rnidan turdi. Boshqalar ham aqldan ozdiruvchi suv solingan shishalarni ko'tarib uning ortidan ketishdi. Xaltadagi shishalarning suvi hali mo'l edi.

Yotoqxonada hamma o'zining qo'lbola tamakisini cheka boshladi. Birozdan keyin Oid iqror bo'ldi:

— Bunday bemaza narsani hech qachon chekmaganman.

Uning gapi sheriklarini o'zi tomon qarashga majbur etdi. Kaan og'zidan tamakisini olib, Oidga tanbeh berdi:

— Sen bu mo'jizani yerga urma! Bu shunchaki tamaki emas, benazir narsa. Qani, yana bir tortib ko'r, keyin o'zing menga rahmat deysan.

Uning so'zlarini bosh qimirlatib ma'qullagan Glish va Ger ma'noli kulib qo'yishdi.

Qo'lbola tamakini ichiga chuqur-chuqur tortib, tutunini pag'a-pag'a qilib chiqarayotgan Kaan bu mo'jizaning yaxshi jihatlarini maqtashga tushdi:

— Oh, manovi — chinakam baxt!

Glish va Gerning havas bilan tamaki chekayotganini ko'rgan Viyan va Oidning ham qiziqishi kuchaydi. "Qani, biz ham ko'raylik-chi", degandek ular ham tamaki tutunini ichga tortib ko'rishdi. Dastlab hech qanday o'zgarish sezilmadi.

Ularning ikkisini o'g'rincha kuzatib o'tirgan Kaan kuldi:

— Xo'sh, qanday ekan?

Oid yelkasini qisdi:

— Bilmadim.

— Sen tutunni ichingga tortib ko'r. Mana bunday qilib. — Kaan tamakini tortib, keyin tutunini og'zidan halqa-halqa qilib chiqardi.

Oid uning aytganidek qildi. Viyan ham qo'lbola tamakiga tutindi. Kaanning aytganicha bor ekan, hayal o'tmay ular ham tamakining ta'sirini sezishdi: ko'zlariga dunyo qandaydir sirli, huzur-halovatli, jozibali va musaffo ko'rindi. Tamaki yomon ta'sir qildi shekilli, ko'p o'tmay Oid uxlab qoldi. Qancha vaqt o'tganini bilmaydi, kimdir uni turtib uyg'otdi. Boshini zo'rg'a ko'targan Oid nimanidir uzatayotgan Viyanni ko'rdi. Astoydil tikilib qarab, uning aqldan ozdiruvchi suv tutayotganini payqadi.

— Og'ayni, afsus, menda gazak yo'q, suv esa uzoqda qoldi. Gazaksiz ichishingga to'g'ri keladi, — dedi Viyan.

Idishni olgan Oid o'ylanib o'tirmay ichib yubordi. Viyan idishni keyin Glishga uzatdi. Do'sti qat'iy qarshilik ko'rsatdi:

— Men gazaksiz icha olmayman.

— Unda nima qilishim kerak? Meva tugadi, suv esa uzoqda, — dedi o'zini aybdor his qilgan Viyan.

— Unday bo'lsa, men umuman ichmayman! — Glish arazlab idishni nariga itardi. — Suv va meva jonimga tegib ketdi!

Viyan indamadi.

— Sen nima bilan ichishni istaysan? — Gapga aralashdi Ger.

— Nima, buni bilmaysanmi? — dedi Kaan. — Yashirishning nima hojati bor? U turna yoki baliq go'shtini gazak qilmoqchi, tushundingmi?

— Yashavo-o-r! Ko'nglimning nozik tomonlarini bilasan-da, og'ayni. Qani, yaqinroq kel, ajoyib gaping uchun seni o'pib qo'yaman, — deya Glish Kaanni o'ziga tortib manglayiga labini tegizdi.

— Mumkin emas! Bunday qilib bo'lmaydi! — deb qat'iy norozilik bildirdi Viyan. Oid uning gapini ma'qulladi:

— Ular bizning og'a-inimiz!

— To'g'ri, — deb rozi bo'ldi Glish, — menimcha, shundoq tarixiy Ulug' kunda uch-to'rt qarindosh yoki og'a-inini qurbon qilsak zarar qilmaydi. Ehtimol, ularning o'zi shunday bo'lishini istashayotgandir. Yo'qsa, og'a-inilik haqida qanday gap bo'lishi mumkin? Eslab ko'ring, bo'lib o'tgan urushlarda yuzlab kishilarning hayotini saqlab qolish uchun ko'ngillilar o'limga tik borishgan.

— To'g'ri-i-i! — dedi Kaan. — Qo'lida quroli yo'qligini hisobga olmasak, hozirgi asrning rak, SPID, oqqon kasalliklari ham o'sha urushlardan qolishmaydi. Bu xastaliklar har qanday urushdan yuz marta dahshatli. Jiddiy o'ylab ko'ring, axir, biz ikkinchi marta tug'ildik.

— To'g'ri!

— To'g'ri! — deb uni qo'llab-quvvatladi Ger.

— Noto'g'ri! — deya qichqirdi Viyan.

— Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi! — deb hayqirdi Oid.

Do'stlarning fikri ikkiga bo'lindi. Oid va Viyandan farqli o'laroq, bu muammoni qanday hal qilishni boshqalar yaxshi bilishardi. Chunki ular ko'chib kelgan tomonlarda har qanday masala, hatto, odamlar taqdiri ham ovoz berish yo'li bilan hal etilardi. Bu yerdagilar ham shu usulni to'g'ri deb topishdi. Ovozga qo'yishdi.

— Ulug' Kun sharafiga turna va baliqlarni qurbonlik qilish kerak, deganlar qo'lini ko'tarsin, — dedi Kaan va o'zi birinchi bo'lib qo'l ko'tardi. Ger va Glish uni quvvatladi.

— Qarshilar bormi?

Viyan va Oid qarshi ovoz berishdi.

— Demak, taklif ko'pchilik ovoz bilan qabul qilindi! — deb natijani e'lon qildi Kaan jilmayib.

Bunday qarordan norozi bo'lgan Viyan va Oid yuzlarini o'girishdi. Viyan bu tashabbusni boshlab, tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'yganini anglab barmog'ini tishladi.

— Do'stlar, xafa bo'lmang, — deb ularning ko'nglini ko'tardi Glish, — biz faqat bittadan qurbonlik qilamiz, xolos.

Viyan va Oid bo'lajak fojiadan xavotirlanib jim qolishdi. Ikkisining noroziligiga qaramay, Glish miltiq bilan chiqib ketdi. Kaan baliq ovlash uchun to'r va qarmoqni olib uning ortidan ergashdi.

— Sen olov yoqib tur, — dedi Glish ketayotib Gerga.

Darhol o't yoqildi. Ishning bunday tus olishidan ranjigan Viyan va Oid yana bir shishani ichib tugatishdi. Otilgan turna va tutilgan baliqni ko'rmoqdan ko'ra, mast bo'lib, ixtiyoriy tarzda aqldan ozmoqni afzal bilishdi. Chindan ham ketma-ket ichib, ikkisi ham es-hushidan ayrildi: tillari tutilib, fikrlari chalkashib ketdi ularning.

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

DUNYONING TUGASHI

Glish beshta turna otib, Kaan esa besh dona baliq tutib ovdan qaytishdi. Ger go'sht qovura boshladi. Shishalardan aqlni ozdiradigan suv qadahlarga quyilgach, ishtiyoq bilan sharobxo'rlik boshlandi.

— Yorug'lik uchun ichamiz! — dedi Glish. Bu arziydigan qadah so'zi edi, chunki hamma quyosh nuriga zor. Kim yorug'likni istamaydi? Hamma ichdi.

— Biz uchun o'zini qurbon qilgan baliq uchun ichamiz! — Viyan zo'rg'a g'uldiradi. Baliq uchun kim ichmaydi? Baravar qadah ko'tarishdi.

— Biz uchun o'zini qurbon qilgan turna uchun ichamiz! — dedi ovozi xirillab Oid. Bu so'z ham barchaga ma'qul tushdi. Shishalar bo'shatildi. Lanbag daryosiga uloqtirilgan bo'sh idishlarni oqim oqizib ketdi. Quritilgan tamaki hammani o'lar holatga yetkazganiga qaramay, tinimsiz chekildi. Ko'ksida g'alati,

ayni paytda, kuchli g'alayon jo'sh urgan vodiy ahli es-hushidan ayrildi.

— Rozi bo'lsangiz, yana bittadan og'a-inimizni yeymiz! — dedi Glish ko'zlari yashnab.

— Ajoyib fikr! — deb ma'qulladi Ger.

— Bittadan yesak og'a-inilarimiz ozayib qolmaydi! — dedi Kaan.

— To'g'ri! — dedi Viyan.

— To'g'ri! — deb rozi bo'ldi Oid ham.

Shunday qilib, tag'in taom yeb, yana ichishdi. Keyin yana... shu taxlit dunyoning tugashi boshlandi... og'aynilarning har biri qo'lida quroli bilan turnalarni mo'ljalga oldi: tars, tars! Turnalar duv etib yerga to'kildi. Tars, tars! Turnalar qulab tushdi. Tars, tars! Turnalar o'ldi. Atrofda oppoq qanotlarini yozgan qushlarning jasadi qalashib yotardi, yaralanganlari esa, qanotlarini yerga urib jon talashmoqda edi. Suvga qulab tushganlarni daryo oqizib ketdi. Otishmadan quloqlar qomatga kelib, qo'rquvga tushgan vodiy bor go'zalligini yo'qotdi. Tirik qolgan turnalar yaqingacha osoyishta bo'lgan, endi la'natlangan manzilni tezroq tark etish umidida uchib keta boshladi. O'qlar tugagachgina, otishma tindi. Tevarak-atrofni o'lik turnalarning jasadlari egalladi. Ona turna ham, ota turna ham, bola turna ham halok bo'ldi. Aqldan ozgan besh nafar odam nari-beri yugurib, ularni oyoqlari bilan ezg'ilab tashlashdi. Turnalarni nobud qilishga ehtiyoj bormidi? Nega qushlarni hech bir maqsadsiz hayotdan mahrum etishdi? Bu savolga javob berish uchun hech kimning vaqti ham, hafsalasi ham yo'q edi.

— Endi baliqlarga hujum qilamiz! — deb taklif kiritdi Glish g'ayritabiiy ovozda.

Qiziqarli tuyulgan bunday gap hammani sergaklantirdi. Mast-alast kishilarning ko'ngli yorishdi.

— Ura-a-a! — Viyanning apil-tapil daryoga tushganini ko'rgan boshqalar ham birin-ketin suvga sho'ng'ishdi. Yana dahshatli fojia boshlandi: biri to'r, boshqasi qo'li bilan baliqlarni tutib, qirg'oqdagi qumlikka ota boshladi. Lanbag daryosida baliq bisyor edi, besh savdoyi ularni to'zg'itib yubordi. Sohilga tashlangan baliqlar avval irg'ib, keyin pitirlab, qum ustida nafas ololmay qolardi. Nihoyat,

horigan beshovlon nafas rostlash uchun qirg'oqqa chiqdi. Ataylab qilganday, Lanbagda baliqlar ozayish o'rniga ko'payib bormoqda edi. Bu odamlarni battar g'azablantirdi.

— Bo'ldi, charchadim! — dedi Ger suvdan chiqib sohilda cho'zilib yotar ekan.

Yuzini artayotgan Oid ham uning yoniga cho'zildi. Hali suvdan chiqmagan uch nafar kishi ularning ikkisiga g'alati qarab qo'yishdi. Kaan nimadir demoqchi bo'lgandi, Glish uni to'xtatdi:

— Topdim!

U boshqa so'z demay, sohilga chiqdi-da, so'qmoq orqali tog' tomonga jo'nadi. Nariroq borib ortiga o'girilib, qo'lini silkidi, lekin uni hech kim kuzatmayotgandi. Glish muyulishda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qirg'oqdagilar uni uzoq kutishmadi, Glishning qorasi ko'rindi. U terlab-pishib, qandaydir yog'och yashikni sudrab kelmoqda edi.

— Mana! — dedi u yashikni yerga qo'yarkan, og'ir-og'ir nafas olib.

— Bu nima? — deb so'radi Viyan.

Glish gerdayib javob qaytardi:

— Dinamit! Anovi tomonda tiqilib yotibdi.

Glishning javobidan quvongan Kaan kaftini bir-biriga ishqab qo'ydi.

— Bu boshqa gap! Chinakam ish endi boshlanadi. Qani, ketdik, yana olib kelamiz. Hujum boshlanib, portlash avjiga chiqqanida tugab qolsa, kayfiyat buziladi. Ketdik, hammamiz omborxonaga boramiz.

Kaan saf boshida, boshqalar uning ortidan ergashdi. Ular yana beshta yog'och yashikni sudrab kelishdi. Keyin... Keyin... Keyin... yangi va dahshatli kuch bilan baliq ovlash boshlandi. Qiyomat qoyim qo'pdi. Tinmasdan dinamit portlatilgani tufayli daryo suvi yuqoriga otilib, mayda tomchilarga aylanib yerga yomg'irday yog'a boshladi, baliqlar ham ko'kka irg'idi... va shunda suv tirik jonzot singari tovush chiqazdi. Ular bu ovozni eshita olmadilar.

Dinamitning dahshatli portlashlari oqibatida daryo o'zanidan toshib, qirg'oqda jonsiz baliqlarning uyumi paydo bo'ldi.

— Kuchli silkinishdan suv ozaymoqda! — deb daf'atan qichqirib yubordi Oid.

Hamma bir lahza to'xtadi. Yo Olloh, chindan ham daryo suvi teng yarmiga ozayib ketgandi. Birorta baliq qolmabdi. Go'yoki daryoda hech qachon baliq bo'lmaganday...

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

SUVNING KO'PAYISHI

Og'aynilarning ko'zlari yarq etib ochilganday bo'lib, o'z qilmishlaridan xavotirga tushganday edilar. Kaan g'alati ovozda baqirib, yana bir vahshiylikni boshlamaganida, bu qilmishga chek qo'yilgan bo'lardi.

— Ey birodarlar! — deya do'stlariga murojaat qildi Kaan quvnoq kayfiyatda. — Endi ozaygan suvni ko'paytiramiz.

Uning taklifi mohiyatini anglamay, hayron bo'lib qaragan to'rt nafar jo'rasi qarshisida Kaan ishtonini tushirib... suvga siyib yubordi.

— Suvni ko'paytiramiz! — Glish ham ishtonini tushirib suvga peshob qildi.

Ger o'ylab o'tirmay do'stlarining qilig'ini takrorladi. Viyan va Oid o'z ko'zlariga ishonmay, es-hushini yo'qotar darajaga tushishdi. Sheriklarining qilig'i Oidga yomon ta'sir qildi, chunki u hech qachon bunday ahmoqona tomoshani ko'rmagandi. Bu singari noma'qulchilik hech qachon kechirilmasligini yaxshi tushungan Oid ming bir taassuf bilan Lanbag daryosiga tikildi. Nazarida daryo butun inson avlodini la'natlab oqayotganday edi. Nogoh suv yuzasida onasining ma'yus chehrasi namoyon bo'ldi. Oid ko'zlariga ishonmay, boshini sarak-sarak qilib, yana daryoga sinchkovlik bilan nazar tashladi. Bu gal daryo o'zani bo'ylab osoyishta oqib yotardi. Oid talmovsirab turganida, suv sathida yana onasining qiyofasi ko'rindi. Onasi bu gal qattiq yig'layotgandi. Uning ham o'pkasi to'ldi. Ko'zlariga yosh qalqib, hech nimani ko'rmay qolgan Oid o'zini boshqara olmay, Kaanning tumshug'iga musht tushirdi. Shimini kiyib ulgurmagan Kaan o'zi peshob qilayotgan

suvga ag'darilib tushdi. Daryo oqimi uni oqizib keta boshladi, faqat ko'p urinishlardan so'ng zo'rg'a sohilga chiqdi. Viyanning mushtidan Glish ham yerga quladi. Keyin Oid va Viyan Gerni savalay boshlashdi. Kaan va Glish to'satdan boshlangan mushtlashuvdan gangib qolgan Gerning himoyasiga oshiqdilar. To's-to'polon chinakamiga qonli to'qnashuvga aylanib ketdi. Qo'rqinchli va shafqatsiz! Yoqalashayotganlar qadrdon do'st va og'a-ini ekanliklarini unutishdi. Hech kim chekinishni istamasdi.

Borliqqa oqshom cho'ka boshladi. Besh nafar aqlidan ozgan odam sohilda mushtlashib, qorong'i tushganini ham sezmadi. Endi kim kimni savalayotganini bilib bo'lmasdi. Bu savdoyilarning qilmishiga vodiy, daryo, umuman, butun borliq kulayotgandi. Faqat o'lik baliqlar, otilgan turnalar bundan mustasno edi. Tirik qolgan jonivorlar daryo tubida, zangori osmonda, yuksak cho'qqilarda edi.

Yarim tunga borib mushtlashuv to'xtadi. Yotoqxonani zo'rg'a topib kelgan odamlar duch kelgan joyda yotib uxlab qolishdi. Oid tun bo'yi ko'z yummadi, Viyan ham darhol uxlay olmadi.

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

SUVNING CHEKINISHI

Ufq yorishganda Oid tanho o'zi sohilni kezib yurardi. Lanbag daryosining shovqin-suroni deyarli eshitilmasdi. Unga quloq tutib turgan Oidning ko'ngli qandaydir noxushlikni sezdi. Dastlab bu qanday his-tuyg'u ekanini anglay olmadi, bilgach, yuragidagi xavotirlik o'rnini qo'rquv hissi egalladi. Nimadir yetishmayotganini sezgan Oid o'ylab ko'rsa, turnalarni sog'inayotgan ekan. Kecha osmonni to'ldirib uchgan turnalarning birortasi bugun ko'rinmas, qirg'oqda esa ularning o'ligi uyum-uyum bo'lib yotardi. Aftidan, oq qanotli qushlar jonsizlarini qoldirib, boshqa yoqlarga uchib ketishgandi. Oid qushlar qaytib kelar, degan umidda uzoq kutdi, lekin bunday bo'lmadi.

Xavotirga tushgan Oid daryo yoqasiga kelib, suvga sinchiklab tikildi. Yo Olloh, suvda birorta baliq sapchib o'ynamasdi. Sohilda baliqlarning qurib qolgan qiltanog'i qalashib yotardi.

— Baliqlar ham qochib ketishi mumkinmi? — O'zining ovozidan seskanib ketdi. Atrofga tinchsizlanib ko'z yugurtirgan Oidning ovozi suv yuzasida aks sado berdi:

— Baliqlar ham qochib ketishi mumkinmi?

Suvdan sado chiqdi:

— Ha, qochib ketishdi, suzib ketdi baliqlar!

Oid tasodifan suv ichayotgan kaltakesakni ko'rib qoldi. Axir, bu juda g'alati-ku: "Yo Xudoyim, kaltakesaklar ham suv ichadimi?" U shoshilib ortiga qaytdi. Qulog'i ostida boyagi savol aks sado berdi: "Baliqlar ham qochib ketishi mumkinmi?"

Quloqlarini kafti bilan berkitib olgan Oid avvaliga tez-tez yurib, so'ngra yugurib ketdi. U yotoqxona ostonasidan kirishi bilan bor ovozda:

— Qochib ketishdi! — dedi.

Kallayi sahardan bosh og'rig'i qilib o'tirgan uch nafar odam Oidga ehtiyotkorona nazar tashlab, hech nimani tushunishmadi. Birinchi bo'lib Glish so'radi:

— Nimalar deyapsan? Kim qochib ketdi?

— Turnalar va baliqlar! — deb qichqirdi Oid.

Glish kulib yubordi. Avvaliga talmovsirab turgan ikki sherigi ham voqeani tushunib, kulgiga qo'shildi. Atrofni aks sado tutib ketdi: "Va-ha-ha!"

Faqat ma'yuslangan Oid kulolmadi.

— Qo'ysang-chi, Oid, avval bosh og'rig'i qilib olishing kerakka o'xshaydi, — dedi Kaan masxara qilib.

— Qara, boshing og'riyotgani uchun g'alati fikrlarni o'ylayapsan. — Gap qo'shdi Glish.

— O'tir, qani, ich! Boshing yengillashadi, — deb yonidan joy ko'rsatdi Ger jilmayib.

Oid o'rnidan qo'zg'almadi.

— Menga ishonmayapsizmi? Ishonmayapsizmi? Unda borib o'zingiz ko'ring. Rost gapiryapman, ular ketib qolishdi.

— Bo'ldi, bo'ldi, ishondik. Sen avval o'tirib, ichib ol, — dedi Glish kulgisini to'xtatolmay.

— Ketib qolgan bo'lsa, qayga ham borishadi. Qaytishadi! — dedi zaharxanda qilib Kaan.

Oid esa yakravlik bilan haligi gapini takrorladi:

— Nima, menga ishonmayapsizmi? Unda o'zingiz borib ko'ring!

— Mayli, ishondik, ishondik! — Endi uchchovi bir ovozda takrorlashdi, lekin tabassumlarini yashirishmadi.

Oid xafa bo'lib ularga g'amgin nazar tashladi.

To'satdan Ger so'rab qoldi:

— Viyan ham negadir kechikyapti?

— U ham Oidga o'xshab yo'qolgan yoki qochib ketgan turna va baliqlarni izlab yurgandir-da, — dedi Glish miyig'ida kulib.

Shu payt yotoqxona eshigi zarb bilan ochilib, ostonada yuzi oqarib ketgan Viyan ko'rindi:

— Og'aynilar, og'aynilar, suv qochib ketibdi!

— Mana senga! Yashavor! — dedi yotoqning to'rida yonboshlab yotgan Kaan biroz qo'zg'alib, umumiy kulgiga sherik bo'ldi.

Viyan sheriklariga bir-bir tikilib, haligi gaplarini takrorladi:

— Nima? Ishonmayapsizmi? Boring, o'zingiz ko'ring! Suv yo'q! Suv qochib ketibdi!

Oiddan boshqa hamma uni masxara qildi. Ular buni ahmoqona hazil, deb o'ylashardi.

Sabri chidamagan Oid yotoqdan tashqariga yugurdi. Ortidan Viyan ham chiqdi. Bir-biridan o'zib yugurib Lanbag daryosi qirg'og'iga kelgan do'stlar qo'rqinchli tomosha guvohi bo'lishdi: suv asta-sekin yer qa'riga singib ketmoqda edi. Bu holdan qattiq qo'rqib, rangi oqargan Oidning bir nima deyishga holi qolmadi. Daryo ovozi, suv shovqini pasayib bormoqda edi. Oidning qulog'iga Viyanning tashvishli so'zlari eshitildi.

— Qochib ketma! Azizim, daryo, ketib qolma, ketib qolma! Yolvoraman, bizdan qochma!

Suv odamning yolvorishini eshitarmidi? Bu orada daryo shovqini pasayib, birozdan keyin butunlay tindi. Atrofni sokinlik egalladi, daryo shovqini jimlikni buzib turgan ekan.

— Yo Olloh! O'zing asra! — Bu ovozni eshitib o'girilgan Oid ortida turgan do'stlarini ko'rdi. Qo'rquvdan rangi o'chib ketgan og'aynilarining yuzi... alhazar, lablari, burunlari xunuk bo'lib, qiyshayib, ko'zlari kosasidan chiqib ketguday holda edi. Mana, ular qanday qo'rqishibdi! Hammasining yuragi ko'krak qafasini sindirguday tez va qattiq ura boshladi.

— Yer suvni yutib yuboryapti! — Bor ovozi bilan qichqirdi Kaan yuzini burishtirib.

— Endi bizni ham yutib yuboradi! — deya dovdiragan Gerning ko'zlari ikki tomonga boqardi.

Ularning vahimali ovozi bora-bora balandroq, keyin yanada balandroq yangrab, bora-bora butun dunyoni qopladi: "Yutib yuboradi!.. Yutib yuboradi!.. Yutib yuboradi!.."

Oid o'rnidan irg'ib turib, Lanbag daryosi sohiliga yetib kelganida, haligina ho'l bo'lgan qumloq asta-sekin qurib bormoqda edi. U qumga qulog'ini bosib, yotgan holida nimanidir eshitmoqchi bo'ldi. Yer ostidan daryoning tanish ovozi eshitildi: "shov-shuv, shov-shuv".

— Daryo! Daryo oqyapti! Daryo oqyapti!

Nima qilishini bilmay ruhi tushib ketgan to'rt nafar hamrohi hali ham bir joyda qotib turardi. Viyan Oidning yoniga yugurib bormoqchi edi, lekin og'zi qiyshayib qolgan Glish qichqirib yubordi:

— Tamom bo'ldik! Qochinglar! Hozir daryo yuzaga otilib chiqib, kuchli to'lqinlari bilan bizni oqizib ketadi! Qochinglar, to'fon boshlanadi! Dunyoni suv bosadi! Qochinglar!

Insonning joni shirin bo'ladi. Agar hayotingga xavf tug'iladigan bo'lsa, joning ko'zingga yana ham shirinroq ko'rinadi. Hozir ham hayotning naqadar shirin va lazzatli ekani sezildi. Kim o'z hayotini qadrlasa, ilojini topib jonini qutqarishga urindi. Ular o'z buyumlarini olishga ulgurishmadi. Buning uchun vaqt oz edi. Hamma shoshganicha qayergadir qochib borardi. Viyan vijdon azobidan qiynalib, avvaliga joyidan qo'zg'almadi, lekin keyin u ham boshqalarning ortidan ergashdi. Avvaliga sekin, keyin qadamini tezlatib, oxir-oqibat astoydil yugura boshladi.

U tanho edi. Keyin unga to‘rt nafar hamroh bo‘ldi. Besh nafar odam bir joyga yig‘ilganida...

BUVI

Tashvishlari yetarli dunyoda u yana avvalgiday tanho qoldi. “Seni tashlab ketishdi, — ko‘nglidan o‘tkazdi Oid. — Seni tashlab ketishdi-i-i!”

“I-i-i-i!” Bu ovoz momaqaldiroq singari yangrab borliqni quchdi.

Oidning qulog‘i ostida daryoning sadosi eshitildi-yu, keyin tindi. Suvning jonbaxsh taronasi qaldirg‘och kabi parvoz qilib, tobora uzoqlashib, nihoyat, ufqqa singib ketdi. Yigit ovoz qaytib qolar, degan umidda joyidan qimirlamay jimgina kutdi. Qaldirg‘ochdan xabar bo‘lmagach, Oid umidini uzib tuproqqa tizzalab cho‘kdi-da, yerga qulog‘ini bosdi. Hayhot, endi yer ostidan ham suvning shovqini eshitilmasdi. Oid mutlaqo tanho qolganini tushundi.

Sershovqin va g‘ala-g‘ovurli dunyoda sirli va mudhish osoyishtalik hukmron edi. Lekin qattol sukunat Oidni bo‘g‘a boshladi, u holsizlanib, yerga cho‘zildi. Nogahon qulog‘iga sirli ovoz eshitildi. “Fig‘-fig‘” degan g‘alati tovush, rostini aytganda, yigitni avvaliga cho‘chitib yubordi. So‘ngra Oid o‘zini qo‘lga oldi-da, vaziyatni tahlil qilib ko‘rib, sirli tovush o‘z burnidan chiqayotganini sezib qoldi. Endi bu poyonsizlikda g‘arib va notavon holda tanho qolganini tushundi. Tushundi-yu, boshidan hushi uchib, ko‘z oldini qorong‘ilik qopladi.

Nima bo‘lsa ham umid insonning doimo yonib turuvchi chirog‘i hisoblanadi. Suvning hayotbaxsh kuy-qo‘shig‘ini sog‘ingan Oid tag‘in bir marta yerni quchib qulog‘ini tutdi, lekin zaminning yuragi to‘xtab qolganday edi. Lekin ko‘p o‘tmay shovqinga tashna qulog‘i ajoyib sadoni ilg‘ab qoldi: uni bir zamonlar eshitgan edi. Nega yodidan chiqib ketgan bu ovoz qayta eshitilmoqda? Bu ovoz g‘oyat sehrli va dilkash edi. Aslida o‘sha ovozni eshitdimi? Shunday bo‘lsa, kimdan eshitdi, axir?!

Oid nechog‘lik urinmasin, dilga orom bag‘ishlovchi so‘zlarni qay mahal eshitganini bilmay boshini ko‘tardi, yo Olloh, qarshisi-

da oppoq ko'ylakli, kumush sochli, nuroniy yuzli, muqaddas yulduz singari chiroyli... onaxon o'tirardi. Ayol Oidga tanish bo'lgan mayin ovozda alla aytayotgan edi:

Ulug' tog'dan oshib, biri-biriga
Yo'l bermayin kelar Odam avlodi.
Mangu o'tib bo'lmas yiroq joylardan
Odim tashlab kelar Odam avlodi.
Abad orzusida adam tomonga
Shoshib-shoshib kelar Odam avlodi.

Onaxon Oidga umuman e'tibor bermay, osoyishta o'tirgancha zamzama qilmoqda edi. Endi yigit unga astoydil sinchiklab qaradi. Yo Olloh... qarshisida allaqachonlar yo'qotib qo'ygan ulug' buvisi o'tirardi! Qattiq qo'rqib ketganidan Oidning yuragi qinidan chiqquday bo'ldi.

— S-siz qayerdan keldingiz? — deb tutilib so'radi Oid.

Faqat o'shandagina buvisi "E-ha, sen ham shu yerdamisan?" deganday Oidga o'girilib qaradi. Uning so'roviga javob bermay, qor kabi oppoq barmoqlari bilan nabirasining sochini siladi.

— Oh, nuridiydam, sen ham qarib qolibsan, soch-soqoling oqarib ketibdi.

Ajabo, Oid nimalarni eshityapti? Axir, u hozirgina yosh yigit edi-ku? Kampirning ko'ziga nega bunday ko'rinib qolibdi? Nahot, chindan ham shunday bo'lsa?

Oid qattiq qo'rqqani bois, bo'g'zidan ixtiyorsiz ravishda alamli faryod otildi:

— Nimalar deyapsiz, buvijon! Qanday qilib keksayib qolibman? Yo Olloh! Siz rost gapiryapsizmi?!

Oid buvisining gapiga ishonqiramay, qayta-qayta yuzini ushlab ko'rdi. Qo'rqqanidan ko'zlari qinidan chiqquday bo'lib, cho'kka tushgan ko'yi o'tirib qoldi. Onaxon uning yuziga astoydil tikilib so'radi:

— Buni qara-ya, sen hali katta buvingga ishonmaysanmi? — Biroz sukut saqlab turdi-da, keyin gapini davom ettirdi. — Esim qursin, xayolimdan ko'tarilibdi, sizlar allaqachon bir-biringizga

nisbatan ishonchni yo'qotgan edingiz. Og'zaki qasamning qadriga yetmay, yozma bayonot ham yozgandingiz, axir. Buni qanday qilib yodimdan chiqazibman? Agar gaplarimga ishonmasang, mana, o'zing ko'r! Yaxshilab qara, endi o'zing ishonarsan!

Onaxon toshoynani uning qo'liga tutqazdi. Kichik toshoyna ham kampir singari juda eski edi. Oid xavotir ichida ehtiyotkorlik bilan oynani qo'liga olib, unga asta nazar tashladi va shu zahoti badani jimirlab ketdi: oynadan soch-soqoli oppoq mo'ysafid qarab turardi.

— Bu... Kim bu? — deb shoshilib so'radi Oid onaxondan.

— Xuddi o'zingsan, qo'zichog'im, — javob berdi u.

Oid yana ko'zguga tikildi. Undan boqib turgan mo'ysafid o'zi ekaniga iqror bo'lib, achchiq haqiqatni tan olib, zor-zor yig'ladi: nima uchun yig'layotganini his qilardi-yu, lekin o'zining g'amginligi sababini aqli ila tushunib yetmasdi. Mana shu fojiali lahzada buvisining tasalli beruvchi so'zlarini eshitgisi keldi. Lekin ataylab qilganday, buvisi hech nima demadi, taskin beruvchi so'z aytmadi. Buvisining azaldan bolalarning yig'isiga e'tibor bermay, jim bo'lishlarini qat'iy talab qilishi Oidning yodiga tushdi. Shundan so'ng har qanday bolaning ko'z yoshi o'z-o'zidan tinardi. Buvisi yig'layotgan bolaga tasalli berib ovutish o'rniga, ularning onasiga tanbeh berardi: "Xudo degin, bolang yig'lasin! Nodon bo'lma, yig'i bolaga yuzdan to'qson to'qqizida foyda beradi. Go'dak yig'lab-siqtab ulg'aysa, baquvvat va sog'lom bo'ladi. Nozik bo'lmaydi, noz-u firog'dan xoli, arazni bilmaydigan bo'lib o'sadi". Buvisi o'ziniki-yu begonalar deb ajratib o'tirmay, barchaga birdek qattiq-qattiq gapirardi. Buni qarang, rixlat qilganidan keyin ham shu odatini tashlamabdi. Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, degan hikmatli gap behuda aytilmagan ekan. Mana, buvisi hayotligida qanday bo'lsa, ko'z yumganidan keyin ham shunday qolibdi.

Onaxon Rankat vodiysini uzoq kuzatib, g'ussaga botdi:

— Lanbag daryosi umr bo'yi qirg'og'idan toshib, mavjlanib oqardi. Hayotbaxsh daryo edi! Sho'rlik qurib qolibdi. Mana, dunyo g'aroyiboti! Demak, odam bolasigina emas, balki daryolar ham vafot etar ekan.

Oidning boshiga tog‘ qulaganday bo‘ldi. Buvisining oyog‘i ostiga bosh qo‘yib, gunohiga iqror bo‘lib, “Buvijon, biz daryoga jabr qildik. Uni xafa qildik, uni halok qildik”, degisi keldi. Lekin kuch topolmadi, qo‘rqdi, chunki Lanbagning yo‘q bo‘lib ketishida o‘zining ham hissasi borligini Oid yaxshi bilardi. Shu bois, gunoh yuki uni qattiqroq ezib, diliga og‘riq bermoqda edi.

Onaxon Lanbag daryosidan nishona izlayotganday, Ollohning beqiyos ne’matini yodlab, qo‘shig‘ini davom ettirdi:

Toshqin daryo, ravon suvlarni kechib,
Toshib-toshib kelar Odam avlodi.
Odam yurmas dara, cho‘qqidan o‘tib,
Ko‘chib-ko‘chib kelar Odam avlodi.
O‘zi uchun dara-yu daryolarni
Mahv etib kelar Odam avlodi.

Bolalik chog‘larida buvisi uyqudan avval Oidni issiq bag‘riga bosib, qulog‘i ostida shirali va yoqimli ovozda alla aytardi. O‘sha zamonlarda baland cho‘qqilar qurshovida, xushbo‘y o‘t-o‘lanlar orasidagi cho‘ponlar o‘tovi o‘rtasidagi o‘choqda chasir-chusir qilib uchqun sochib yonayotgan archa shoxlariga hayrat va maroq bilan tikilib, onasining allasini tinglagani Oidning yodiga tushdi. O‘shanda bu lahzalarning hech qachon nihoya topmasligini orzu qilib, qayta-qayta alla eshitgisi kelardi. Qo‘shiqdan lazzat tuyib, qanday qilib uxlab qolganini bilmasdi. Hatto uyqusida ham alla sado berardi. Qanday yaxshi, oradan shuncha yil o‘tib yana bu ruhparvar qo‘shiqni eshitdi. Faqat ovozni emas, aziz buvisini ham topganiga shukur qildi. Bundan Oid masrur bo‘lishi lozim edi, lekin na botini, na zohirida zarracha quvonch ko‘rinmasdi. Nega bunday? Bir umr yo‘qotganini topdi-ku, axir? Nega suyunmayapti? Yo‘q, u xursand bo‘lolmaydi, bo‘lolmaydi! Dilida bir paytlar shirin hislar jo‘sh urardi, lekin bu tuyg‘ular endi yo‘q... Go‘dakligida bor edi, endi yo‘q, yo‘q!

— Qo‘zichog‘im, nega yerga chalpak bo‘lib yotibsan? — dedi qo‘shig‘ini to‘xtatib buvisi.

Oid o'ziga kelib, birinchi marta keksa ayolning ruxsoriga tikilib qaradi. Ajabo, buvisining peshonasidagi ajinlar chiziq-chiziq emas, balki o'rgimchak to'riga o'xshab ketardi.

— Yerni tinglayotgan edim, — dedi Oid buvisining to'r bog'lagan manglayidan ko'z uzmay. Umrida bunday manglayni ko'rmagani uchun hayron bo'lib, uning sir-asrorini bilgisi keldi. Ehtimol, o'sha yerda, bugunga qadar buvisi maskan tutgan u dunyoda, manglay xati shunday to'rga o'xshasa? Balki chiziqli bitiklar bugungi kun nishonasi-yu, to'rmonand xatlar narigi dunyo belgisidir? Nahot, narigi dunyoda ham yaxshi kunlar oz bo'lsa?

— Nimani eshitayotgan eding? — deya so'radi buvisi.

— Daryo ovozini, — dedi Oid, lekin u hali ham to'rga o'xshagan ajinlarni o'ylardi.

— Xo'sh, eshitdingmi, axir?

— Yo'q. Eshita olmadim. O'sha kundan boshlab daryo sadosi... eshitilmay qoldi.

"Qanchalik ablahman, — deya nogoh ko'nglidan o'tkazdi Oid. — Buvim o'sha kungi hodisani bilmaydi-ku!"

Buvisi uchun emas, o'zi uchun aytayotganday shivirladi:

— Daryo bizdan ranjib, yer ostiga ketib qoldi va endi ko'zga ko'rinmay oqayotir...

Oid oxirgi so'zlarini baland ovozda aytib, buvisini asl voqeadan voqif qilmaganiga xursand bo'ldi.

— Qanday sersuv daryo edi, — deya oh tortdi buvisi. — Bahor faslida suvi ko'payganida, go'yo biri qora tanli, boshqasi sabza rangli pahlavon olamni larzaga keltirib yugurardi. Ular orasidan yashil libosli bahaybat dev na'ra tortib, gohida tog'ni yalab, gohida o'tloqzorni og'ushiga olib, sohillarni ortda qoldirib shahd bilan oldinga yugurardi. Daryo devining haybati shunchalik ediki, odamlar yaqinlashishga qo'rqishardi. Baxtsizlikni qarang, shunday pahlavon daryo qurib qolibdi! Odamning ishongisi kelmaydi...

Buvisi chuqur oh tortib, Oid yoddan biladigan qo'shiqni kuylay boshladi. Lekin bu gal Oid so'zlarning mazmunini anglamay, faqat ikki satrni ilg'ab qoldi:

Toshqin daryo, ravon suvlarni kechib,
Toshib-toshib kelar Odam avlodi.

Buvisi etagini qoqib, o'rnidan qo'zg'aldi. Qaddini ko'tarayotgan kampirga boqib, Oid ko'rganlaridan qo'rqib ketdi... Buvisining chap ko'ksida qimiz to'rvasi kabi allanarsa osilib turardi. Oidning a'zoyi badanini qo'rquv chulg'ab oldi. Aqlini taniganidan buyon biror marta bunchalik qo'rquvga tushmaganini his qildi, qattiq hayajoni tufayli lablariga uchuq toshdi. Tomog'i qurib, tili tutilgan Oid anchadan keyin zo'rg'a ovoz chiqazib so'radi:

— Bu-u...nima-a?!

— E-e, bumi? — Buvisi beparvolik bilan to'rvani ko'tarib qo'ydi. — Bu mening emchagim.

Onaxon to'rvani qanday beparvolik bilan ko'targan bo'lsa, yana o'shanday holda pastga tushirdi. Bo'shatilgan siyna soat mili singari nari-beri borib, yerga osildi.

— S-siyna... Yo Xudo, tavba, bu siyna e-ekan! — deya g'uldiradi Oid qo'l-oyog'i bo'shashib. O'zining hushdan ketib, yiqilib tushmaganiga hayron bo'ldi.

To'satdan buvisining xotirjam ovozi qulog'iga chalindi:

— E, aqlsiz, sodda bolam, qo'rqdingmi? Qo'rqma... O, bu odamni boqadigan oddiy emchak, nodongina. — Keyin ko'kragini silab ma'yuslandi. — Aftidan, avlodimdan kimdir adabsizlik qilib suvga peshob qilibdi. Bu xil qilmishni takabbur yoki ko'ngil nimaligini bilmaydiganlar qiladi. Undaylar suvga siyib, nonni toptashadi. "Kim suvga peshob qilsa, onasining emchagi shishib ketadi", degan naql bor. Menimcha, suvga peshob qilgan odam bu naqlni bilmaydi yoki bilsa ham bu hikmatga amal qilishni lozim topmaydi. Mana, ko'rib turibsan, avlodimning yaramas qilig'i sababli ko'kragim shishib ketdi. Qattiq og'riqqa chiday olmay dunyoni kezaman-u, yuragim taskin topmaydi.

Buvisi mahovatli siynasini ko'tarib, uchini silab-silab sog'di. Ko'ksidan sut keldi. Sut sarg'ish rangda edi.

— Afsus, sho'rlikning suti buzilibdi, — dedi g'amgin tovushda buvisi.

Yo Olloh! Bu qanday murdorlik! Oid qotib turarkan, tirnog'idan sochiga qadar muzladi: "Buvimga bergan azobim uchun, mayli, meni yer yutib yuborsin. Har qanday dahshatli jazo ham men uchun ozlik qiladi. Ahmoqona qilmishimdan buvim aziyat chekmoqda. Shuning uchun meni bir marta o'ldirmoq ozlik qiladi! Men odam emasman! Men... men qo'rqinchli maxluqman! Mening ismim yo'q! Menga rahmu shafqat bo'lmasligi kerak! Maxluqning o'ligi ham bu aziz tuproqqa ko'milmasligi kerak! Onalar, meni la'natlang! La'natlang! Kimning ko'ksi shishib ketgan bo'lsa, men gunohkorman! Gunohim yerning og'irligidan ham to'qson marta og'irroq. Mening gunohimni daryo, dengiz va hatto ummon suvlari ham yuva olmaydi. Men aybdor va iflos shoqolman!"

Boshi egik Oid o'z gunohlarini shunday baholadi.

Bu paytda buvisi kuchli og'riqdan azob chekib, to'rva singari bahaybat siynasini yerga sog'moqda edi. Qum sarg'ish tusdagi sutni emib to'ydi. To'ydi?! Tilini tishlagan Oid bir og'iz so'z demoqqa kuch topolmay, buvisining harakatlarini jimgina kuzatib turdi. U o'zining qilmishi uchun kechirim ham so'ray olmasdi, lekin aybini ochiqchasiga tan olishni ham istamasdi.

O, sho'rlik onalar, bolangiz uchun chekkan azob-uqubatingiz qachon tugaydi? Bechora buvim! Azob-u uqubatingni bu aqlsiz toychog'ing qanday yengillatishi mumkin? Ko'ksidan yuragini yulib toshga ursa, darding chekinadimi? O'shanda Oidni kechirish yoki unga zarracha bo'lsa ham taskin berish uchun imkon tug'iladimi?

Oid birdaniga buvisining ko'ksiga yopishib, uning siynasini silab-siypalab, emchagining uchini og'ziga solib ema boshladi. Oid buni shunchalik tez amalga oshirdiki, buvisi dastlab nima bo'layotganini anglamadi. Oidning qilig'ini ko'rib, qo'rqib ketdi:

— Hoy, nima qilyapsan? Aqlingni yo'qotdingmi, tarbiyasiz bola!

U ipakday mayin barmoqlari bilan Oidning boshini silab, bo'yniga sekin shapatilab qo'ydi.

— Hoy, uyatsiz, hali shunaqa yaramas odating ham bormi?

Oid hech nimani eshitmasdi, buvisining gapiga e'tibor ham bermasdi. U g'alati tashnalik bilan buvisining siynasini emaverdi.

Oid bir tomchi sut qolmaguncha emishni istardi. "Mayli, qornim shishib yorilib ketsin! Mayli, men ko'pikday yorilay! Mayli, faqat men azob chekay!" Bu fikr uning xayolini tamoman egallab oldi.

— E, bo'ldi! — Buvisi oxiri sabri chidamay Oidning og'zidan emchagini tortib oldi. — Senga nima bo'ldi? Aqlingni yedingmi? Bu, axir, aynigan sut! U qorningni og'ritadi!

— Mayli, men roziman, og'ritsin! Faqat qornimni emas, butun tanamni ham og'ritsin! — dedi Oid eshitilar-eshitilmas.

— Eh, seni qara-yu, manovi tarbiyasiz qo'zichoqqa qarang! — Buvisi emchagini ko'tarib, yelkasidan oshirib ortiga tashladi. Uning siynasidan tomayotgan sutni ko'rib, Oid ko'zlarini osmonga qadadi. Xudo saqlasin, bu nimasi? Osmonda quyosh yo'q edi!

— Buvi, hoy, buvi, quyosh qani? — deya hovliqib so'radi Oid.

— Nima, bilmaysanmi? — Kampir unga hayron bo'lib tikildi. — Quyosh allaqachon, ko'kragim shishib ketganidan buyon, yo'qolgan. Endi quyoshsiz qoldingiz, aqlsiz nodonlarim!

Kampir xayrlashmasdan ketmoqchi bo'ldi.

— Qayerga borasiz? — Oid g'amgin ovozda so'radi. Chunki uning o'zi ham bu hududsiz yerda qolmoqchi emasdi. Kim ham yolg'izlikni istaydi? Hech kim. Hamma rahm-shafqat qilmay uni tashlab ketdi. Hech kim u bilan qolishni istamadi. Endi sevimli buvisi ham savoliga javob bermasdan ketmoqchi bo'lyapti. Shishib ketgan ko'kragini ehtiyotkorlik bilan ushlab olgan kampir teskari o'girilib, undan uzoqlasha boshladi. Buvisining osilib qolgan emchagidan sarg'ish tusdagi sut oqmoqda edi.

— Buvi, buvi! Meni ham o'zingiz bilan olib keting! Men ham ketishni istayman! — deya yolvordi Oid.

Allaqachon uzoqlashgan buvisi unga javob bermadi, hatto, ortiga o'girilib ham qaramadi. Sal o'tib Oid o'zi aytgan so'zlar mag'zini chaqib ko'rib, boshini changalladi. Buvisi allaqachon vafot etgan. Shunday ekan, bu yerga nima uchun va qachon keldi? Suvga peshob qilganlarni jazolamoq uchunmi? Shishib ketgan ko'kragi tufaylimi? Qanday maqsad va ehtiyoj uni bu yerga yetaklab keldi?

Nihoyat, Oid atrof-tevarakni astoydil kuzata boshladi: jarlik yonida Lanbag daryosi yo'q edi. Buvisi ketgan tomonga qarab kampirning izini ham, qorasini ham topmadi? Osmonga tikildi, le-

kin ko'kda quyosh ko'rinmasdi. Shundagina u hammasini yo'qotganiga qat'iy ishondi.

Hududsiz kenglikda ko'nglini qayg'u-alam qoplagan Oid mushtini yerga urdi. Mushti qurib qolgan qum ichiga botib ketdi. Oid afsus chekib yolvordi: "Meni kechiring, buvi! Turna va baliqlar, meni kechiring! Pokiza suv, gunohimdan o't! Meni kechir, Ona-Zamin! Bizni kechir, ulug' Quyosh, kechir!"

Ming marta uzr so'rab yalinib-yolvorsa ham, o'zining kechirilgani to'g'risida bir og'iz gap eshitmadi. Afsus, ular o'zlari ichadigan suvni, ziyo sochadigan quyoshni yo'qotib qo'yishdi. Nahotki, odam bolasi hammasini yo'qotgani rost bo'lsa?

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

QOCHISH

— A-a-a! — To'satdan yangragan achchiq va alamli qichqiriq atrofning osoyishtaligini buzib yubordi. Ovoz shu qadar kuchli ediki, Oidning qulog'i tom bitib qoldi. U qichqiriq eshitilgan tomondan yiqilib-surinib, jon-jahdi bilan yugurib kelayotgan kimsani ko'rdi.

— A-a-a! — Kimsa tinmasdan qichqirardi. Oid tirik odamga duch kelib, uning ovozini eshitib turganidan xursand bo'lsa ham, tashvishga tushdi. U yugurib kelayotgan odamdan qochmadi, lekin qarshisiga ham chiqmay joyida qotib turaverdi.

— A-a-a! — Baqirayotgan kimsaning qorasi yaqinlashganida, Oid uni zo'rg'a tanidi: bu qadrdon do'sti Viyan edi. Aftidan, do'sti Oidni bu o'lik dunyoda yolg'iz qoldirgisi kelmay qaytib kelgan edi. "Men ham kimgadir kerak ekanman! Demak, mening ham chinakam do'stim bor ekan! Men endi tanho emasman!" Shu lahzada Oidning xayolidan shunday fikrlar o'tdi. Ko'ziga yosh qalqib, o'rnidan irg'ib turib Viyanni quchoqlab qarshi olgisi keldi. Lekin yugurib kelayotgan do'sti to'xtamadi, Oidning quchog'idan yulqinib chiqib, bir necha qadam nariga borib, yerga yuztuban

yiqildi. U hali ham to'xtovsiz qichqirardi. Viyan talabini bajarmagani uchun onasidan arazlab yerga yotib olib, ko'z yoshi to'kayotgan boladay o'kirardi. Oid unga yaqinlashib egildi-da, Viyanning yelkasidan tutib o'ziga qaratdi-yu, qo'rqib ketdi: do'stining og'zi qiyshayib, ko'zlari chaqchayib, quturganga o'xshab og'zidan ko'pik sochib turardi.

— A-a-a! — Viyan hali ham qichqirardi.

Behuda na'ra tortayotgan do'stini kuzatib Oid shunday xulosaga keldi: u yaqin og'asini yo'qotibdi. Viyanning aqli joyidami yoki savdoyimi ekanligini bilolmay, Oidning boshi aylanib ketdi. Chunki do'sti yerni mushtlab, boshidan qum sochardi. Azbaroyi qattiq o'kirganidan og'zidan ko'piklar sachrab turardi.

Biroz vaqt o'tib o'ziga kelgan Viyan bejo ko'zlari bilan Oidga hayron bo'lib tikildi. Nimadir demoqchi bo'ldi-yu, lekin gapirolmay g'uldiradi. Oid g'uldirash orasidan "mu-mu-mu!" degan tovushni zo'rg'a ilg'ab qoldi. Viyanning yodiga nimadir tushdi shekilli, joyidan irg'ib turib, hayron bo'lib qolgan Oidning qo'lidan tutib o'zi kelgan tomon sud— radi. U qayergadir kechikayotganday shoshilib, Oidning qo'lini qo'yib yubormay oldinga intilardi. "Mu-mu-mu!" deb tovush chiqarganida, og'zidan chiqqan ko'pik va so'laklar ortidan yugurib kelayotgan Oidning yuz-ko'zini qoplardi. Viyanning talabiga ko'ra yugurib borayotgan Oid qancha yugurganini ham, qayerga borayotganini ham bilmasdi.

Nihoyat ikkisi qayerdadir to'xtagach, Viyan uning qo'lini qo'yib yubordi-da, shu zahoti "ka-ka!" deb g'alati ovoz chiqazdi. Oid yuz-ko'zini qoplagan so'lak va ko'piklarni kafti bilan artib, o'ziga qarab turgan Viyanga tikildi. Oidning nigohini sezgan Viyan qo'li bilan ishora qilib, haligiday g'alati ovoz chiqazdi: "ka-ka!" Oid u ko'rsatgan tomonga qarab, ko'zlariga ishonmadi, bu dahshatning o'zginasi edi! Shundoqqina oyoq ostida devori silliq, chuqur o'ra bor edi. Chuqurlik ichiga boqib Oidning sochi tikka bo'lib ketdi. O'rada son-sanoqsiz ilon va turli gazandalar bir-biriga chirmashib yotardi. Yer yuzidagi hamma ilon, kaltakesak kabi maxluqlar bu o'raga keltirib tashlanganday edi. Dahshatdan ko'zlarini yirib-yirib qaragan Oid bu maxluqlar orasida qanday-

dir uch jonzotning o'ra devoriga tirmashib baqirayotgani guvohi bo'ldi. Na'ra tortib tipirchilayotganlarni Oid darhol tanidi. Bu uch nafar jonzot — Kaan, Ger va Glish edi.

— Ka-ka! — dedi Viyan Oidni turtib. Ikkisining sharpasi-yu, hidini sezgan maxluqlar to'satdan Viyan va Oidga qarab irg'ishlab, sakray boshladi. Oidni qandaydir noma'lum gazanda tutib olishiga sal qoldi. Aslida u hech qanday noma'lum hayvon emas, balki Oidning o'zi bir paytlar qovurib yegan baliq edi. "Endi bu baliq meni yemoqchi!" deb o'yladi Oid. Shu payt ilonsimon ikki maxluq Viyanning bo'yniga o'ralib oldi. Buni ko'rgan Oid unga yordam bermoqchi bo'lib, qo'lini uzatishi bilan bir necha ilonsimon baliq bilagiga yopishdi. Qo'rqib ketgan Oid ilonlarni siltab tushirishga ulgurdi. Keyin... Keyin hech qayerda to'xtamay qocha boshladi. U qancha vaqt yugurganini, qancha masofa yo'l bosganini bilmaydi. Balki bir soat o'tgandir oradan, balki kunlar, oylar, yillar o'tib ketgandir? Oid buni bilmadi, chunki u hisobni tamoman unutib, bir umr to'xtamay yugurayotganday edi. Nihoyat, chopib borayotgan Oid holsizlanib yerga yiqildi. Nafasini rostlashi bilan Viyanni eslab, hozirgina o'zi qochib kelgan tomonga tikildi. Ufq kimsasiz edi. Nazarida haligi maxluqlar Viyanni o'raga tortib ketishgandi. Ehtimol, ilon va kaltakesaklar, gazandalar uni allaqachon yeb bitirgandir?

Oid xayoliga kelgan fikrdan dahshatga tushib, o'rnidan shoshilib turdi-da, to'xtamay yugurib ketdi. Bu dahshatli joydan uzoqqa ketmasa, kimdir uni to'xtatib qolishi mumkinday tuyuldi. Bularning hammasidan faqat qochib qutulish mumkin. Lekin Kaan, Glish va Gerni o'ljaga aylantirgan haligi maxluqlar ko'z o'ngidan ketmasdi. Qo'rquvga tushgan Oid Viyanni esladi. Demak, ular bir paytlar Oidni taqdir hukmiga tashlab qochganlariday, u ham do'stlarini tashlab qochdi. Telbalarcha yugurib borar ekan, o'zini aqldan ozganday seza boshladi. Oyog'i ostida yer aylandi. U tuproqni quchib yiqildi. Qaytadan oyoqqa turmoqchi bo'lib urindi, lekin bo'lmadi. Uni bir paytlar Glish, Ger, Viyan va Kaan tashlab ketgani kabi kuch-quvvati ham tashlab ketmoqda edi. Bilagida kuch, tomirlarida xun qolmadi...

Oid xavotirlanib ortiga o'girilib qaradi. Ilonlar uni quvib kelmayotganiga amin bo'ldi. Balki ular yarim yo'ldan qaytib ketgandir? Balki uning hech qayerga qochib ketolmasligini yaxshi bilishar? Ortidan hech kim ta'qib etmayotganini ko'rib, dilida umid uchqunlari paydo bo'ldi. Viyan kelib qolishi mumkin, degan o'yga borgan Oid yo'lga ko'z tikdi. Lekin tumanli ufqda Viyanning qorasi ko'rinmadi. Uni allaqachon gazandalar yeb bitirgandir?

Oid og'ir-og'ir nafas olib, yerni quchib o'zini ayblay boshladi:

— Nega Viyanning ortidan ketdim? Nega uni to'xtatib qolmadim? To'xtatganimda, balki Viyan tirik qolib, maxluqlarga yem bo'lmasdi.

Ovozini o'zi eshitdimi, yo'qmi, bilmadi. Bilgani shuki, qalbining chuqur yerida sirli va dardli ohanglar paydo bo'ldi. Qayta-qayta takrorlangan ohanglar ichidan Oid nihoyat, o'zining qalb ovozini eshitdi, o'lib ketganlar uchun yuragida og'riq sezdi. Bu og'riq va shovqinni o'zi his qilib, o'zi eshitdi. Chunki uning faryodini boshqa hech kim eshitmasdi.

— Biz ichadigan suvimizni, nur sochadigan quyoshimizni yo'q qildik! Hech nimasiz qoldik! Hammasidan ajraldik!

U yerni quchib yuztuban yotar ekan, xayolan o'zining quyoshi bor odamlarga yuzlandi:

— Sizning quyoshingiz bormi? — Savolining javobini kutmay, baland ovozda noma'lum qit'ada yashovchi odamlarga murojaat qildi. — Ey siz, noma'lum makonlarda istiqomat qiluvchilar! Eshityapsizmi? Muqaddas quyoshingiz bormi? Bor bo'lsa, bu sizning beqiyos baxtingiz! Qadrdon maskaningizni nuri ila yoritadigan quyoshingizni asrang! Quyosh nuri ostida mavjlanayotgan toza suvni asrang! Asrang!! Biz singari uni yo'qotib qo'ymang! Ahillik va do'stlikda yashang! Bu biz — inson ajdodining qimmatli nasihati! Esingizda tuting! Bizning qanday yashaganimiz va qanday dahshatli fojialarga duch kelganimizni ko'rib saboq chiqaring! Hammasiga xudbinligimiz sababchi bo'ldi!

U tanho edi. Keyin unga to'rt nafar hamroh bo'ldi. Besh nafar odam bir joyga yig'ilganida...

YO‘QOLGAN QUYOSH

Atrofni qahraton qish egallagan... Ovoz va shovqinlar manguga tingan. Ko‘kda quyosh yo‘qolgan... men esa eski qo‘rada qolgan it kabi yolg‘iz edim. “Oid, sen nega tanho qolding? Nega hali ham tirik yuribsan?” deb so‘rayman o‘zimdan nafratlanib. Xo‘sh, bundan nima foyda? Haqiqatni tan olishim kerak, men yolg‘iz... Quyosh nurini sog‘ingan yetim va fayzsiz tabiatda ruhsiz zulmat hukmronlik qiladi. Qalbdan yomon his-tuyg‘ularni, muzlagan kechalardan qish sovug‘ini haydovchi quyosh nurlari ko‘rinmaydi. Oramizda bir-birimizga bo‘lgan samimiy mehr-muhabbat, hamdardlik yo‘qolgan paytda quyosh ham bizni tark etdi. Ehtimol, quyosh biz — Homo Sapiyensdan ranjib, dunyomizni taqdir hukmiga tashlab, o‘z nurini boshqa — musaffo havoli, do‘stlik rishtalari mustahkam bog‘langan yuksak taraqqiyotli eukarionsom dunyosiga sochayotgandir?

Men tanho edim. Keyin menga to‘rt nafar hamroh bo‘ldi. Besh nafar odam bir joyga yig‘ilganimizda, hammamiz sakkiz milliardga yetib, quyoshni yo‘qotib qo‘ydik! Bu qayg‘uli dunyoda bir o‘zim qoldim! Yo Olloh! Bu qanday dahshat! Ulug‘ quyoshni yo‘qotmaslik uchun doimo o‘zligingni unutma, odam bolasi!!

ASAN JAQSHILIQOV

SULTONBOY DO‘KONCHI

(hikoya)

Talay shaharlarning ko‘pdan-ko‘p nomdor, durdona do‘konlarini ko‘rganman. Ulardagi xilma-xil narsalar, shu tovarlarning joylashtirilishi, eng muhimi, odamlarning suqini keltiradigan yosh juvonlarning o‘ziga chorlab savdo do‘konida nimadir xarid qilishga ishtiyoq paydo qilishi. “Qani keling, men bilan bu hech qayerda yo‘q do‘konni aylaning, xarid qiling”, deyotganday. Go‘zalligini qo‘yaturing, chaqqonligini qo‘yaturing, nima bo‘lsa ham sotib oling, kerak bo‘lsa o‘zimni ham qo‘shib butun do‘konni olib keting, deb turgandek. Joningni qo‘ymay aldab-avrab, bir narsa sotib oladigan bo‘lganingni bilgach, ustingdan kulib yo‘ldan ozdiradi. Savdo qilganingdan so‘ng, suv tekkan atir sovunday bo‘shashib, shu juvon uchun ham bir narsa olishing kerak. Oxiri qizil pulingni tashlab chiqasan. Savdoying bitishi bilan ularning muomalasi o‘zgaradi.

Mana shunday. Biroq dunyoda Sultonboy og‘aning do‘koniga yetadigan odamgarchilikni hech bir do‘konda qaytib uchratmadim. Do‘konchilik ishi Sultonboy og‘a bilan birga yo‘q bo‘lib ketganga o‘xshaydi, qayerda bo‘lsam ham uni eslayman, hayron bo‘laman.

Biz unda bola edik, o‘g‘ chog‘li bolalar yig‘ilib olib, velosiped bilan bir ovuldan ikkinchi ovulga “aytiqchi” bo‘lardik. Bir to‘p bo‘lib zipillab uchib kelgan jo‘jalarday yetib borib, do‘konning eshigi oldida to‘xtab, tangalarimizni yig‘amiz. Limonad, shirinlik olib, uni bo‘lishib olamiz. Keyin boshqa qishloqqa qarab zuv etib jo‘naymiz. Biz, o‘sha kezdagi bolalar, shunday qilib o‘ynab-kulib yurardik. Odamlar bizni ko‘rib butun yerni aylanib yuribsanlarmi deyishardi.

Negadir Sultonboy og'aning do'koni ikki katta qishloqning qoq o'rtasida joylashgan edi. Narigi tomonini GES deb atashadi. U tomonda yotoqxona ko'rinishida qurilgan uch-to'rt uzun-uzun uylar bor edi. Uylar oldida doim kirlar yoyilib turardi. Qalin butazorning chetida Jumagul boyning dumaloqquyruq qora qo'ylari va yana yopiq matosi ustiga egar taqilgan qo'ng'irrang ho'kizi turardi. Narigi tomonda qalin daraxtzor orasida uning qorachadan kelgan kampiri suratdek bo'lib qimir etmay chorvani kuzatib o'tirardi. Ertadan kechgacha odam kelmasa ham, Sultonboyning do'koni eshigi ochiq turar, u yoqdan bu yoqqa o'tganlarni yo'liga kuzatib yuborar edi.

Biz, har doimgidek, velosipedlarimizni minib olib ora yo'lda poyga qilayotgan edik, Mokeyning balloni yorilib ketsa bo'ladimi. Uni yamatib, yana jo'nagunimizcha shamol boshlandi. Yoz kuni yosh boladay emasmi, yomg'ir boshlab yubordi. Do'konga chopib kelib kirib oldik, boshqa ilojimiz ham yo'q edi. Pul yig'ishib biror narsa olaylik, dedik. Do'kon ochiq, do'konchi yo'q. Kuta boshladik. Do'konchi kelmadi. Qo'l bilan taqillatdik, yo'q. Tashqariga chiqib ketgandir, deb kirib-chiqib yana kutdik. Ichkariga quloq soldik. Ombordan xirillagan tovush etishildi. Bu tovush na bolalar shovqin-suroniga, na chaqirishiga, na momaqaldiroqqa, na yomg'irning shatirlab yog'ishiga, hatto do'kon eshigining ochilishiga ham parvo qilmaydi. Axir ichkari eshishigacha kirib bormadikmi, yer tepkilab ko'rmadikmi, qichqirganlar yo'qmidi oramizda. Avvalgiday xuddi parovoz yaqinlashib kelayotganday pishillagan ovoz kuchayaverdi.

Bu pishillagan ovozning eshigini shartta ochdik-ku. Eski temir karavotda oyoqlarini bemalol uzatib ko'ziga to'qima qalpoqni bostirib, yaratganini unutib yuborgandek, bir tovush ichag-u qorindan o'tib, o'pka-yurakdan o'tib uzun burundan o'tib chiqib kelyapti. Ombor qorong'i ekan.

Birdan yana o'sha xurrak boshlanib ketsa bo'ladimi. Eshikni ochgancha ochib, xurrak kelayotgan qorong'ilikka tikilib qoldik. Xurrak chiqayotgan burundan bo'ri chiqib hujum qilib qolsa, nima qilamiz. Ko'kish jeztumshuq chiqsa-chi. Biz juda qo'rqib ketdik,

do‘konning ochiq eshigini shu xurrak qo‘riqlayotgan edi. Eshikni ochib qoldirib chiqib ketdik.

Bu yerdan ketgimiz kelib qoldi. Lekin yog‘in yog‘ib turgan emasmi, bu yoqda konfetlarning turlari bizni chorlab turibdi. Bolalar to‘plagan aqchamizni sanab, konfet sotib olishni maslahat qilishdi. Xurrak bizni ko‘rib turibdi-ku, shunga biz aldamasdan kelganicha olamiz va yomg‘ir to‘xtaguncha kutaylik dedik. Lekin konfetlar ko‘zlarimizni o‘ynatib, meni ol deb turardi. Aqchamizni qo‘yib, unga kelganicha konfetni taroziga torta boshladik. Tarozining toshi konfetga to‘g‘ri kelgan chog‘da xurrak eshitilmay qolsa bo‘ladimi? Naq jonimiz chiqib ketdi. Eshikka o‘zimizni urdik. Qochib yo‘lga tushdik. Na taroziga qo‘ygan konfetimizni ololdik, na to‘plagan pulimizni. Sen olib chiq, men olib chiqmayman, bilan yomg‘ir tagida qoldik. Xurrak birdan yana avjidan boshlab yubordi. Mokey mard ekan. Sultonboy do‘konchini men taniyman, men uning xurragini buzaman, uyg‘otaman, deb qoldi. Biroq buning uchun har biringlar menga beshtadan konfet berasanlar. Hammasi bo‘lib ellik konfet qarzsizlar. Bo‘lmasa, ana, xurrakning oldiga o‘zinglar boringlar, dedi. Ma’qul topdik, sakkiz konfetdan beshtadanini Mokeyga beradigan bo‘ldik.

Karimbek o‘sha vaqtda hisobchi emasmidi, Erkinni, Qaliqni, O‘soqni, Quvvatni, To‘qunni, Belekni, Mayramqul bilan Mayrambekni berishlarini so‘ragan edi. Lekin bizda uchtadan konfet qolib, Mokey beshtadanini oladimi, hech bo‘lmasa teppa-teng bo‘laylik, dedik. Mokey sudxo‘r bo‘lib qolayotuvdi-da. “Bu qo‘rqinchli xurrak agar tutib olsa, sudlanib ketaman”, dedi. Bu o‘lmagurning sud degani nima ekanini bilib olganini ko‘rmaysizmi. Shokir degan militsioner pochchasi bor. O‘sha tushuntirib qo‘ygan bo‘lsa kerak-da. Oxiri o‘rtadan teng bo‘ladigan, xurrakni tindirishga, uyg‘otishga ketgan Mokeyga to‘rttadan konfet beradigan bo‘ldik.

O-o, Xudoyim, o‘zing asra, Mokey kirib ketdi. Biz ovozimiz ham chiqmay jim kuta boshladik. Mokey mard ekan, do‘konning ichiga kirgani zahoti, “Sultonboy aka, ho Sultonboy aka!”, dedi.

Xuddi Sindbod katta g'orga kirayotib qichqirganidek. Sultonboy og'a paydo bo'lib, haligi xurrak yo'qolib qoldi. "Kimsan?" — dedi. "Qalandarning o'g'li Mokeyman", dedi. Sultonboy: "Falokatingni olay, Mokey!", dedi. Hozir chiqaman, dedi. Xurrak ovozi biryo'la to'xtab qoldi. Sultonboy do'konchi chiqib keldi. Oqsoq, qo'ltiqtayoq tayangan, yuzi yangi pishgan tovuq terisiday qip-qizil. Ko'zlari yulduzdek yiltillaydi. Undan aroq hidi burqsib turadi. "Mokey, qayoqdan kelyapsan?" dedi.

Mokey: "Do'stlarim bilan kelgandik, mana bu tangalar bizniki. Konfet oldik", deb shivirlabgina gap boshladi. Sultonboy: "Chaqir do'stlaringni", dedi. Biz to'p bo'lib kirib, bir safga tizilib turib oldik. "Kimning bolasi bo'lasan?" deb Sultonboy har birimizning oldimizda to'xtab, so'rab chiqdi. Har birimizni erkalatib, yalinib yolvorgandek, yaxshi kishilarning bolalari ekansizlar, dedi. Tiyinlarimizni qaytarib berdi-da, cho'ntagimizga siqqanicha konfet joylab berdi. O'sha bepul konfetdan beshtadanini Mokey kelishilgani bo'yicha yig'ib oldi. Bu boshqa gap. Biroq Mokeyning epchilligiga hozir ham ichim kuyib yotaman.

Sultonboy: "Bolalar, endi do'stlashamizmi?" dedi.

Biz: "Do'stlashdik!" dedik, og'zimizdagi konfetning ta'mi bilan shiringina qichqirib.

"Do'stlarim, — dedi Sultonboy, — sizlar uchun do'kon doim ochiq!" dedi. Biz ich-ichimizdan yana ham qattiq suyunib ketdik. Sultonboy: "Mana bu qalin daftarni ko'rdinglarmi?" — dedi. Biz: "Ko'rdik!" dedik.

Sultonboy: "Sizlar yaxshi otalarning bolasi ekansizlar, bu birinchidan, ikkinchidan, men xurrak tortib yotsam ham, sizlar hech narsa o'g'irlamabsizlar. Shuning uchun bundan keyin men xurrak tortib yotgan bo'lsam ham, hech iymanmay ochiq do'konga kira bersanglar bo'ladi, keyin bu daftarga olganinglarni, qancha so'mga qarz bo'lganinglarni yozasizlar-da, bo'ldi, xohlaganinglarni olib ketaverasizlar. Qancha olgan konfetinglar, limonadinglarni yozinglar-u, olib ketaveringlar. Tushundinglarmi? Biz do'stlashdik. Bundan keyin meni uyg'otib ovora bo'lmanglar", — dedi-da, qaytadan xurrak tortgani kirib ketdi.

Biz biroz turib qoldik. Borgan sari uning xurragi o'zgarib, nozik bir ohanglarga aylana boshladi. Har gal "ohang tinglash"-ga kelar ekanmiz, ko'k daftarga yozib qo'yib, istaganimizni olaberardik. Shunday qilib, birato'la do'stlashdik. Yolg'iz biz emas, ko'pchilik shunday qilar ekan, qarzga olisha berar ekan, bizning do'stimizdan! Shundan ko'p o'tmay qiziq voqea bo'ldi.

Sultonboy do'stimizning do'koniga kutilmaganda tekshiruv keldi. Do'kon odatdagidek, ochiq ekan. Sultonboy do'stimiz o'zi qiziq ekan. Haligi karavotda yana xurrak otib uxlab yotaveribdi. U uyg'onguncha haligilar tekshirib bo'lib, dalolatnomalarini tuzib, militsiyasini chaqirib, qamab qo'yibdi. Odamlar juda chuqur qayg'urdiki, Stalin o'lgandagina shunchalik qattiq qayg'urishsa kerak. Bizning do'stimiz shunday qilib xalqdan tortib olinib, qamab qo'yildi. Oqsoqollar bir tunda qurultoy o'tkazadigan bo'lishdi. Raykomgacha borishdi. Boyagi har kim yozib qo'yib narsa olib ketavergan beshta ko'k daftarni bittalab qarab chiqishdi. Juda ko'p qarz bo'lib yurgan odamlarni aniqladilar. Oxiri qarzdor bo'lib chiqmagan odam qolmadi. Sultonboyning qarzi — butun elning qarzi, deb, elni boqadigan bunday azamat topilmaydi, deb elning o'zi pulni to'lab qutqarib chiqdi. Undan qarz olmagan kishi yo'q ekan. Butun el bilan bizga o'xshab do'st bo'lib chiqqanga o'xshaydi.

Biz ham do'stimiz uchun pul yig'ib berdik. Xamirdan qil sug'urganday uni chiqarib oldik. Turmadan chiqib kelgan kuni juda-juda quvondik. Xalq to'ylar o'tkazdi. Bizning ko'nglimiz o'zi konfetlardan shirin bo'lib turgan edi. O'shanda Mokeyning yuzi ochildi.

Do'stlarimga sudxo'r bo'lib yurayin degan ekanmi, biz yiqqan pulimizni bermabdi. Sultonboy do'stimiz sog'ligi haqida so'rasak, "bilmayman" deydi. Sultonboy do'stga: "Biz sizni turmadan chiqarishga aqcha to'pladik", degandik, avvalgiday jo'shib ketdi. Ko'rsa, Mokey qurg'ur imzo qo'ymabdi. Otasi Qalandar orqali bergan ekan. Otasiga yozilib turgan ekan. Ya'ni, o'sha — biz to'plagan 11 so'm 47 tiyin qo'shimchamiz!

Mana, chinakam do'konchi degani ana shu Sultonboy og'a-

mizdek bo'lishi kerak. Odamlarning aqchasini undirib qolishni o'ylamasligi kerak. Sultonboyday do'konining og'zini keng ochib qo'yib, xalqni boqishi kerak. Xurrak tortishi bo'lmasa, chinakam inson, mard, xalqning odami, to'g'riligi sababidan prezident bo'lsa bo'lgulik inson ekan.

Dunyoning juda ko'paygan, Mokeydan ham o'tadigan pishiq do'konchilari, investorlari, kreditorlari, siyosatchilarini ko'rib, hozirning o'zida Sultonboy do'stimizning qadriga yana ham ko'proq yetaman-da!

JUMAKAN SARIYEV

KAMPIR VA URCHUQ

(Hikoya)

Uyda bir oyog'ini uzatib, boshqasini yonboshiga bosib o'tirgan kampir bilan qari qora mushukdan boshqa hech kim yo'q. Kampirning qo'lida ko'hna urchuq tinimsiz aylanadi. Mushuk allaqachon xurillab pinakka ketgan. Kampir urchuqning uchidan jun o'tkazib, uni bir maromda aylantirar ekan, beli toliqib "voy, jonim" deb inqillab qo'ysa, mushuk boshini ko'tarib, "Tag'in yumushing bitmaydigan bo'ldi, qarigan chog'ingda o'zingni urintirmasdan tinchgina o'tirmaysanmi", deganday ko'zini ochib-yumib, o'rnidan bir qo'zg'alib, yana uyquga ketadi.

Kampirning ajinli yuzidagi g'am-tashvish izlari birovni sabrsizlik bilan kutayotganligidan darak beradi: tashqaridan bir ovoz eshitilsa, kampir o'sha zahoti yumushidan to'xtab, jimgina quloq tutadi. So'ngra tag'in urchuqni aylantira boshlaydi.

Kampir, mushuk va urchuq. Bu uchchovini uzilmas bir ip bilan bog'lab turuvchi qandaydir sir borday edi. Ularning tashqi ko'rinishlarida ham bir-biriga o'xshashlik bor. Uchchovi ham birdek keksa, uchchovi ham bir-biriga suyanib, bir tilda so'zlashib yurganday...

Kampirning oriq qo'llari qimirlagani sayin ip yigirilib, kichik kalava asta-sekin kattalashib boradi.

...Kampirning hayoti ham urchuqdagi ip kabi eshilib, nihoyasiga yetib bormoqda. Urchuqdagi ip bilan odam umrining farqi bor: poyoniga yetgach, umr ipga o'xshab urchuqqa qayta o'ralmaydi, lekin hayot urchug'idagi ip yakun topmay, otasi bajarib ulgurmagan ishni o'g'li, enasi boshlagan yumushni qizi davom ettiradi. Kampirning tez-tez eshikka qarab, tashqaridan eshitilgan tovushga astoydil quloq tutishi uning umri nihoyasiga yetganimi yoki onalik mehri ila yo'g'rilgan hayotning boshlanishimi?..

...1940-yilning bahori. U paytda Oltin nozikkina kelinchak edi. Berdibek bilan ikkovining turmush qurganiga yarim yilcha bo'lib qolgandi. Biri ferma mudiri, biri sut sog'uvchi edi. Berdibekni vaqtida uyg'otish uchun Oltin hovlidagi o'choqqa o't yoqib, choy qaynatardi. O'zini uxlaganga solib yotgan Berdibek xotinining aytganini bajarish niyatida o'rindan irg'ib turib, chala-pulpa kiyinib, Oltinning "Odamlar ko'rib qoladi, uyat emasmi?" deganiga qaramay, uni kuchli qo'llari bilan ko'tarib, manglayidan o'pib:

— Oltinim, kabutarim, — deya erkalardi.

So'ng ikkisi nonushta qilib, bir-birini quvlashib fermaga jo'nashardi. O'shanda chelakdagi yangi sog'ilgan oppoq sut bilan tong quyib qo'yganday o'xshash, ikki yoshning muhabbatiday pokiza edi...

Oltinning eng baxtli kunlari boshlangani uchun vaqtning qanday o'tayotgani ham bilinmasdi. Ikkisi ertalabdan birga bo'lsa ham, kechga borib bir-birini sog'inib qolishardi. Lekin quvonchli kunlar uzoqqa cho'zilmadi. Urush minglab odamlar qatori ularning ham turmushini buzib yubordi. Berdibekka o'xshagan azamatlar birinchilardan bo'lib jang maydoniga jo'nab ketishdi.

O'sha kechasi ikkisi ham uxlamadi.

— Meni yolg'iz tashlab ketasizmi? — dedi halidan beri o'zini zo'rg'a tutib turgan Oltin ko'z yoshini ko'rsatmaslikka urinib, boshini erining bag'riga yashirdi.

— Unday dema, Oltinim. El-yurt bor. Ikkimiz bir umr birga bo'lamiz, deb ont ichgan kunimizni esla. Undan ko'ra, ko'z yoshingni artib, ko'kdagi yulduzimizga boq, u bizning baxtli onlarimizdagiday jilmayib turibdi.

Oltinning ko'z yoshlari yuzlarini buloq suviday yuvib tushdi. Xotinining ko'nglini cho'ktirmaslik uchun Berdibek uni bag'riga bosib:

— Yuragimning tubida saqlab yurgan pinhoniy sirimni aytaymi? — dedi.

Oltin bosh irg'adi.

— Ikkimizning tanlab olgan yulduzimiz borligini bilasan. Men u yoqlarda yurganimda, tun kirib, yulduzlar jimirlab ko'rina bosh-

lasa, o'sha yulduzimizni minib huzuringga kelib-ketib turaman, tushundingmi? — dedi.

Oltin tong chog'i osmon burchida yiltirab arang ko'rinayotgan yulduzdan ko'zini uzmay:

— Sizni kunduzi ham, kechasi ham kutaman, — deya yig'lab yubordi.

Ertasi kuni Berdibek o'z tengqurlari bilan jangga jo'nab ketdi. Ish og'irlashdi. Ayollar, suyagi qotmagan bolalar qovurg'alarini qiyshaytirib, erkaklarning ishlarini bajara boshlashdi. Oltin eri ketgan kundan boshlab, tunda chindan ham Berdibek kelib qolishi mumkinday, boshqalardan chetroqda turgan yolg'iz yulduzga termulib qolardi.

Yillar o'tib, el-yurt kutgan G'alaba ham keldi, lekin Oltin intizor bo'lgan Berdibek qaytmadi. U dom-daraksiz, xat-xabarsiz ketdi, lekin umid hech qachon uzilmas ekan. Oltin erini umrining oxiriga qadar kutishga ahd qildi. Har tun hovliga chiqib, yulduziga tikiladi. Ba'zan undan qo'l silkib, kulimsirab turgan Berdibekni ko'rganday bo'ladi. Aqlidan ozganday yolvorib uni chaqiradi, lekin eri o'sha holatda jilmayib turaveradi. Oltin bor alamini ko'z yoshidan oladi. Keyin tun bo'yi uxlay olmay, muzdek to'shagida to'lg'anib chiqadi. Berdibekdan farzand qolmaganiga qattiq o'kinadi. Bora-bora o'zi ishlagan ferma ham ko'ziga sovuq ko'rina boshladi. Ikki kun ishga chiqmadi. Ertasi kuni tong paytida Berdibekning o'rnida ferma mudiri bo'lib ishlayotgan, bir qo'lini tirsagidan o'qqa oldirgan Ismanqul otini qora terga botirib kelib, qamchisining dastasi bilan derazani qoqdi. Oltin boshiga ro'mol tashlab tashqariga chiqdi. U yulduzni qarshilab, keyin kuzatayotganda yelkasiga quyulib tushgan qop-qora, yo'g'on va uzun sochlarini yoyib qo'yardi. Bu sochlarni Berdibekdan o'zga hech kim ko'rmagandi, ayolning o'zi ham boshqalarga ko'rsatishni istamasdi.

— Ha, Oltin, senga nima bo'ldi? Ikki kundan buyon uyidan chiqmadi, deyishgani uchun bir nima bo'ldimi deb, xabar olgani keldim. Tinchlikmi o'zi?

— Tinchlik, aka, — dedi u mudirga tik qaray olmay, — fermadan ketishni o'ylayapman...

— Nima?! Ketaman deysanmi? Qayerga? — Cho'chib ketdi Ismanqul. — Yo'q, Oltin, bunday bo'lmaydi, senga nima yomonlik qildik, nega bizni tashlab boshqa tomonlarga ketmoqchi bo'lyapsan?

— Yo'q, aka, men... boshqa sabablar bilan... — deb gapini davom ettirolmadi.

Ismanqul nimanidir tushunganday qamchisini etigiga urib:

— Qo'y, Oltin, taqdirga qarshi borma. Bu urug'i qurg'ur urushning azobini ko'rmagan odam hozir juda oz. Agar ularning hammasi ham kulfat qarshisida ojiz qolib, senga o'xshab aza tutib, uyidan chiqmay o'tirib olsa, hayot nima bo'ladi? Yaxshisi, o'ylanib ish qilganing durust, — deya otini choptirib ketdi.

Shunday qilib, kunlar ortidan oylar, oylar ortidan yillar o'tib, hayot o'zgardi, ko'p narsalar unutildi. Oltin avvalgiday fermaga kelib, keyin uyiga qaytadi. Ferma mudiri uning ishidan rozi bo'lib, ba'zan yonidan ketmay kuzatib turadi. Oltinning yodiga bir paytlardagi baxtli kunlari tushadi. Hozir ham oppoq bo'lib oqargan tong yangi sog'ilgan sutga o'xshaydi, lekin endi yana bir o'xshashlik paydo bo'ldi. Bu Oltinning oqargan sochi. Ro'mol ostidan chiqib tonggi yelda to'zg'igan sochlar oppoq tong va sutga o'xshab qolgan.

Bora-bora Oltin opa bir o'zi yolg'iz yashay olmasligini his qildi.. Qo'shnisi Burmani ergashtirib, farzand asrab olish niyatida tuman bolalar uyiga bordi. Mudira ayollarni yaxshi kutib olib, bolalar qiy-chuv qilib o'ynab yurgan maydonchaga boshladi. Ularni ko'rgan bolalar:

— Assalomu alaykum, — deya chug'urlashishdi.

— Va alaykum assalom, aylanayinlar, — dedi Oltin shoshilib. Boshqa so'z aytishga qurbi yetmadi, chunki jovdirab turgan ko'zlarga tik qaray olmadi. Bolalardan chetroqda, o'zining yaqin kishisini qayta ko'rganday, Oltindan nigohini uzmay turgan uch-to'rt yashar bolaga tikilib qoldi. Bolalar uyi mudirasini chetga tortib, "anovi bola" deb ko'rsatdi. Keyin "Bola ko'nmay qolsa, nima qilaman?" degan andishaga borib, tinchsizlandi. Manglayini muzdek ter bosib, yuragi qiniday chiqquday bo'ldi. Bolani onalik mehri bilan bag'riga mahkam bosib, erkalatgisi keldi.

— Berdibek, bu yoqqa qara, onang seni izlab keldi! — dedi Lyudmila Pavlovna bolaga Oltinni ko‘rsatib. Bola birdan boshini ko‘tarib, ishonib-ishonqiramay, ko‘zlarini katta-katta ochib, ayolga qattiq tikilib qoldi.

Oltin esa yuragidan joy olib, o‘y-xayolini butunlay egallagan tanish ismni eshitib, o‘zini to‘xtata olmay yugurib borib bolani bag‘riga bosdi:

— Berdibegim!

Bola ham Oltinga intildi.

— Opa! — Bola uning ko‘ksiga boshini qo‘ydi. — Opa, nega avvalroq meni ko‘rgani kelmadingiz?

* * *

Oradan necha yillar o‘tdi. Berdibek hozir chorvachilik institutining oxirgi kursida o‘qib, diplom ishi ustida ishlamoqda. Haftada bir marta kelib turuvchi o‘g‘lining ko‘pdan beri kelmay qo‘ygani bois, onaizor har kun yo‘l qarab, tashvishga tushadi, turli xayollarga boradi.

Ba’zan odamlarni tushunib bo‘lmaydi. “Berdibek shaharda o‘z ota-onasini topib olibdi, endi o‘sha yerda qolarmish” degan mish-mishlar ovulga tarqaldi. Bu gapni Oltin opa ham eshitdi. Nima qilishini bilmay, nari-beri yurib kunni kech qildi. Tun kirib, yomg‘ir yoqqanidan keyingina xonasidan chiqolmay, o‘zini ovutish uchun avvalgi ermagi bo‘lmish urchuqni aylantirib, ip yigira boshladi.

Ip Oltin opaning umriga o‘xshab eshilib, nihoyasiga yetdi. Tashqarida bo‘ron uvvos soldi, yomg‘ir derazani savalay boshladi. Ona o‘ralgan ipni urchuqdan sug‘urib oldi-yu, ehtiyotsizlik qilib qo‘lidan tushirib yubordi. Kalava ostona tomonga dumalab ketdi. Kampir o‘rnidan qo‘zg‘aldi, lekin turishga madori yetmay, yonboshiga yiqildi.

Shu payt boshdan-oyog‘i yomg‘irda ivigan o‘g‘li eshikni ochib, bir suluv qiz bilan kirib keldi. Berdibek dumalab borayotgan kalavani yerdan olib, onasining yoniga keldi.

— Opajon, biz keldik... Bunga nima bo‘lgan, jon kirganmi? — dedi onasiga o‘ram ipni uzatib.

Lekin onasi javob bermadi. Mushuk nariga xonaga qochib chiqdi.

— Opa, biz keldik, — dedi o‘g‘li.

Onasi tag‘in hech nima demadi.

Berdibekning vujudi titrab, qulog‘i tom bitib, hech narsani eshitmay qoldi. Onasining nafasi uzilgan edi. Yonida kalavadan bo‘shagan eski urchuq.

Ertasi ovul qabristonida yangi qabr paydo bo‘ldi.

Qora mushuk o‘shandan buyon dom-daraksiz ketdi. Uni hech kim izlab ham ko‘rmadi. Hozir uyning ichi shovqin solib o‘ynayotgan bola-baqraga to‘lgan. Urchuqni esa Berdibek va xotini qanchalik asrab-avaylashsa ham, bolalari o‘ynab yurib, oxiri yo‘qotib yuborishdi.

MEERIXAN TO'QSOBOYEVA

(1952-yilda tug'ilgan)

SALQIN

(hikoya)

Oq bulutlar orasidagi kumushqanot samolyot uchmay bir o'rinda to'xtab turganday. Motorning bir qolipda g'uvullagani bo'lmasa, salon ichi tinch. Yo'lovchilarning ayrimlari uyquga ketgan. Bir-ikkitasi gazeta o'qib, kimlardir derazadan qarab jim ketishyapti. Birgina Salqin samolyotga ko'nika olmay, qilt etsa, joni halqumiga kelib, xayolida poyezd bilan yo'lga chiqmabman, deb o'kinardi. Shu yoshgacha uchib ko'rmagan, undan keyin "falon joyda baxtsiz hodisa bo'ldi, muncha yo'lovchi halok bo'ldi", degan gaplar ko'paydi. Xudo ko'rsatmasin, deya o'zini o'zi yupatdi, samolyotning shuncha yo'lovchisi qulab tusharmidi. Bu kamdan-kam uchraydigan baxtsiz hodisa. Tasalli beruvchi yupanchi oxiriga yetmay samolyot ichidan sho'lq etgan ovoz chiqib, xuddi bir joyga tushib ketganday bo'ldi. Voy degancha yonidagi yigitning qo'liga yopishib olganini ham bilmay qoldi.

— Chto s vami? — kulimsiragan yigit Salqinni tinchlantirish uchun qo'lidan ushlab oldi. Shundagina yonidagi yo'lovchi yosh yigit ekanini payqadi va asta razm soldi. Ochiq yuzli, istarali yigit u bilan avvaldan tanish kabi o'tirdi:

— A'zamjon, — dedi qo'lini uzatib.

— Salqin.

— Ajoyib ismingiz bor ekan.

Tushunmay qoldi, deb o'yladimi, yigit so'zini rus tilida ham qaytarib aytdi.

— Rahmat, — Salqin bosh irg'adi.

— Samolyotda birinchi uchishingizmi?

— Ha.

— Hechqisi yo‘q, ko‘nikib ketasiz. Mehmon bo‘lib kelyapsizmi? Aytgancha, sarson bo‘lib qolmang tag‘in.

— Kelganman. Hozir Jalolobod kurortiga kelyapman. Sog‘ligim tufaylidan, — Salqin qayg‘uga botib mung‘aydi.

— Xafa bo‘lmang, tuzalib ketasiz. Qarshi bo‘lmasangiz, men sizni yetkazib qo‘yaman.

— Rahmat, ovora bo‘lmang.

Shunday deganiga qo‘ymay, yigit uni kurortga olib borib, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirishga yordam berib, keyin undan nari O‘shga ketdi. Bu kichikko‘ngil yigitga rahmatlar aytib, xayrlashgan Salqin uni qaytib keladi deb aslo o‘ylamagandi.

Salqin xonadagilar bilan tezgina tanishib oldi. Bibisora poytaxtdan ekan, ana u Almash Qantdan bo‘lib chiqdi. Uchovisining davolanish vaqti bir xil paytga to‘g‘ri kelmaganidan tushga qadar uchalasi sira ko‘risha olmaydilar. Tushdan keyin ular dam olish vaqtining ko‘p qismini xonada o‘tkazishadi.

Bugun ham odatdagidek, Bibisora ikkisi uzoq hangomani boshlab olishgan. Almash esa bo‘lmada ko‘p turolmaydi. Hozir ham yo‘q. Eshik taqilladi. Kelganlariga bir haftadan oshgan bo‘lsa-da, bularni yo‘qlab hech kim kelmadi. “Bu kim bo‘lsa ekan” degan xayolda Salqin o‘rnidan qo‘zg‘alib eshikni ochdi.

— Salqin degani kim? — dedi navbatchi ayol.

— Men.

— Sizni chaqirishyapti.

— Kim? — degan so‘rog‘i ham eshitilib-eshitilmay, ayolning ortidan chiqdi.

A’zamjon ekan, u bilan avvaldan tanish kabi uchrashdi.

— Nega keldingiz-a?

— Sizni ko‘rgim keldi, — yigitning ko‘zlari beg‘ubor boqardi. — Bu yer sizga yoqdimi?

— Ha, yaxshi ekan, — ikkalasi bo‘lmaga kelishdi. A’zamjon olib kelganlarini stolning ustiga qo‘ya boshladi. Xonaga kirganlarida “Men hozir”, deb chiqib ketgan Bibisora choynak topib, choy damlab kirdi. Hatto: “O‘xshash ekansizlar, tug‘ishganingizmi?” deb ham so‘radi. Salqin ko‘z oldida ro‘y berayotgan voqealarni qanday tushunishni o‘ylab ulgurmasidan A’zamjonning taklifi

bilan shaharga tushib, kinoga ham kirishdi. Bozorni, do'konlarni aylanishdi. Qaytib kelishganida kech ham bo'lib qolgan edi.

— Ertaga bu yerdagi tartiblaringizni ertaroq tugatsanglar, Andijonni ko'rsatib kelar edim, — dedi A'zam xayrlashayotib.

— Yo'q, rahmat, — ikkisi ham o'rnidan sakrab turib ketishdi. — Biz uchun ancha ovora bo'ldingiz. Bemalol qaytavering. Dam olish kunlari maxsus avtobus bilan sayohat qildirar ekan. Biz Arslonbobga ro'yxatga yozilib qo'ydik. Ertaga o'sha yoqqa boramiz.

— Unaqada kelgusi yakshanbani menga ajratib qo'yinglar, maylimi? O'zi ancha kechikdik. — A'zamjon javob kutdi. Salqin birmuncha vaqt jimib qoldi. Aytganlarimni tushunmadi, dedimi, A'zamjon so'zini ruschalab qaytardi.

— Men uchun ovora bo'lmasangiz-chi, — Salqin tilga kirdi.— Yuring, sizni kuzatib kelay.

Ular tashqariga chiqqanda shom tushgan, atrofni qurbaqalar ovozi egallagan edi. Oy botgan bo'lsa kerak, har qayerdan neon chiroqlarining yarqiragani bilan Salqin yotgan "Muhabbat va ko'z yoshlar" deb atalgan korpus tun qo'yniga cho'kib ketgan edi. O'rindiqlarda bir-ikki odam bo'lmasa, ko'pchilik kinoga ketishgan, tevarak jimjit edi.

— Yolvoraman, iltimosimni yerda qoldirmasangiz, — yigit jim bo'lib qoldi. — Siz men haqimda bilishga qiziqmadingiz. O'shda "To'lqin" degan univermag bor, o'sha yerda ishlayman. Otimni bilasiz.

— Nima maqsad bilan keldingiz? Iltimos qilaman, kelib ko'p ovora bo'lavermang. — Salqin yigitning ko'nglidagilarni yaxshi tushunib turgan bo'lsa-da, o'zi ochiq aytmagani uchun hech narsa deya olmadi.

— E, siz so'ramang, men aytmay. Mana bu hujjat sizda turib tursin, keyinroq olgani kelaman.

Shunday deb u Salqinning cho'ntagiga nimadir solib qo'ydi. Bo'lmaga kelgandan keyin qarasa, u hujjat pasport ekan. Quyuq qora qoshli, ko'zlari katta-katta, qorachadan kelgan, kelishgan yigit A'zam edi. Ismanov Agzamjon Mirxamidovich, 1950-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan, deb o'qidi Salqin, xuddi ko'pdan

beri tanish kabi. — Nimagadir bu odam haqida tinmay o'ylayveryapman.

— Ko'p ko'nglingni cho'ktirib o'ylanishga hojat yo'q. Qarasang, biror o'zgacha belgili emas, bo'ydoq ekan, — Bibisora pasportning boshqa bir betlarini ochib ko'rsatdi.

— Jinnimisan, u bo'ydoq bo'lgani bilan men bo'ydoq emasman-da.

— Sevgi degani sening bo'ydoq yo bo'ydoq emasligingga qaramaydi. Boshida ochig'ini aytsang bo'lar ekan.

— O'zi hech narsa so'ramasa, qanday qilib aytaman? — Salqin tutab ketdi. Bilasanmi, o'zim kelma deganim bilan baribir kelishini kutib yotaman.

— Iye, ana shu-da muhabbat degani. Kelsa, bo'ydoq emasman, deysan.

Keyingi yakshanba kuni ular Andijonga borishdi.

U yerdan A'zamning do'sti Komilning uyida mehmon bo'lib, yana yo'lga tushishdi.

— Qaytishga chiptaga buyurtma qilib yurmang. O'zim olib qo'yaman, — dedi A'zamjon. — O'shni ham ko'rib ketasiz. Biznikida mehmon bo'lasiz.

— E, uning nimasini ayaysan, ma'qul, bo'pti, deb qo'yaqol, — Bibisora shivirladi.

Kechasi Salqin uzoq vaqt uxlay olmadi. A'zam uylanmagan yigit bo'lsa, men turmush ko'rib, bir emas, ikki bolali bo'lsam, u bilan o'rtada qanday sevgi bo'lishi kerak? O'zi yaxshi ko'rishdan so'z boshlamasa, men qanday qilib so'z boshlab ochig'ini so'rayman? Unga butkul mos keladigan qiz yo'qmi? Qiziq, nega haligacha uylanmagan? Balki, ajrashgandir. Bir dunyo savollariga javob axtarib yotib, ko'zi ilindi.

Hordiq kunlari oxirlab, A'zamjon ikkovisi Jalolobod — O'sh qatnov yo'lidagi avtobusga o'tirishdi. Salqin bir narsa demas, derazadan olislardagi minoralarga qarardi. A'zam ham onda-sonda jilmayib qo'yib unsiz o'tirardi. O'shga kelib tushgandan keyin A'zam ishlagan univermagga kelishdi. Kechga tomon shaharni aylanib, Sulaymon tog'iga chiqishdi.

Kechqurun A'zamjon Salqinni akasi Mirsaidning uyiga olib bordi.

— Issiqko'llik mehmon, — deb uy ichidagilarga uni tanishtirdi. Yangasi Olga ismla ochiq-sochiq, kulib turgan ayol ekan. yenglar, ichinglar, deb siylab jon koyitdi. Kechki ovqatdan so'ng ko'chaga chiqishdi. O'sh tuni xo'p g'aroyib ekan, oy sutdek yorug'. Oqshom shamolida tol-teraklar sirli chayqalishadi.

A'zam Salqinning yelkasidan quchdi.

— Men ham Frunzega uchaman.

— Nimaga? Yumushingiz bormi?

— Yo'q, siz tushgan samolyotda sizning qulatmay qo'rib bormasam bo'lmaydi.

Ikkisi o'sha kundagi voqeani eslab kulishdi.

— Chindan shundaymi?

— Shunday bo'lsa, sizga qulay bo'ladimi? — so'zi oxirida Salqinni bag'riga bosdi. Salqin esa, ishqilib yaxshi ko'raman deb aytib yubormasin, deb turardi. Uning yurak tovushi qulog'ida yangrardi. Hozir ochig'ini aytsa, undan ajrab qolishdan qattiq qo'rqardi. Kechagina notanish bo'lgan yigit bugun buncha ham yaqin bo'lib qoldi? Qiziq...

A'zam Salqinning shaxsiy hayoti haqida hech narsa so'ragani yo'q. O'zi Samarqanddagi savdo institutini tamomlagandan beri shu univermagda ishlab, sotuvchilikdan direktorlikkacha yetdi. Qari ota-onasi bor ekanini, ular ko'zimizning tirigida uylan deb qo'yishmayotganini aytib bergandi.

— Nimaga shu choqqa dovur uylanmay yuribsiz?

— Qizlar yaxshi ko'rishmayapti, — deya hazil bilan javob berdi A'zam.

O'sha kuni Frunzegacha kelib, avtobusga solib yubordi.

Salqin u bilan o'tkazgan kunlarini ko'p vaqt sog'inib yurdi. A'zam ikki kunning birida telefon qilib, sog'ligini so'raydi. O'tgan hafta tug'ilgan kuniga atab sovg'a yuboribdi. Ochgan edi, bir parcha qog'ozda "Seni sog'indim", degan yozuv bor ekan. Salqin uchun tikilganday yarashiqli ko'ylak, "Bit mojet" degan duxini tug'ilgan kuniga yuboribdi.

"Nimaga sog'inasan? — deb o'yladi Salqin. — Mening kimligimni avval bilsang ekan, keyin sog'insang. O'z turmushim haqida vaqtini topib aytib bersam bo'lar ekan-da. Nimaga aytmadim, undan ajrab qolishni istamaganimdan aytolmay qoldimmi? Anorbek aroqning ortidan tushmay odam bo'lganda, bolalarini tashlab, o'ziga o'xshagan aroqxo'r ayol bilan yetaklashib ketmaganda, kim biladi, bari boshqacha bo'larmidi. Anorbek Salqinni olib qochib uylangan. O'qib yurganida xat yozgan ko'p yigitlarning biri shu Anorbek edi. Biroq Salqin uning yaxshi do'st bo'lib qolishini istagan edi. Peshona ekan, taqdiri Anorbekka bog'landi. Qarigan ota-onasini xafa qilmayin deb, ko'nib, yashab ketdi. Salqin Anorbekning yaqinlari bilan chiqishib, yaxshi kelin bo'ldi. Ikki qizi bir-biridan shirin bo'ldi. Biroq Anorbek aroqni tashlay olmadi. Salqinga achchiq tili bilan, qo'li bilan ozor berdi. O'rtada zo'rg'a lipillab turgan o't birpasda o'chdi-qoldi.

Xo'rlik degani odamni sarg'aytirar ekan. Salqin ichimdan top bo'lib, g'amgin bo'lib ketdi. Tez-tez og'riydigan bo'ldi. Davolagan vrachlar "oshqozon, jigar kasalliklarini Jalolobodda yaxshi davolashadi", dedi. Shunday qilib, Salqin Jalolobod kurortiga yo'llanma olgan edi.

* * *

Oradan bir yil o'tdi.

Salqin bilan A'zamjon xiyobonda yonma-yon ketib borishardi.

— Salqin, — A'zamjon mahzun tortdi, — meni sog'indingmi? Aytsang-chi, Salqin, nahotki, meni hatto eslamading? — shunday der ekan, uni ohista quchoqladi. Salqinning ko'z yoshi to'kilib, nima deyishini bilmay o'kirib yig'lab yubordi.

— Men sening tenging emasman, A'zam.

— Kim aytdi, tengi emassan deb? — A'zam kulgan bo'ldi.

— Men aytaman. O'z millatingizning chiroyli qizlari yo'qmi? Buni avvalroq aytsam bo'lardi, biroq ikkimizning munosabatimiz bu qadar chuqurlashib ketadi deb sira o'ylamagandim. Mening bolalarim bor, A'zam, turmush qurgan ayolman, — Salqin qattiq xo'rsinib oldi. Lekin shu vaqtdayoq o'zining yengil tortganini sezdi. A'zam jim turib qoldi. U Salqinga qarab turibdimi, yo'q, buni

bila olmadi. Yuziga tik qarolmay yer ostidan ko'z soldi. Oradagi sukunat ikkisini ham noqulay ahvolga qo'ygan edi.

— Da-a, — dedi A'zam og'ir xo'rsinib. Znachit, sudba...

Tamom, barisi tugadi, deb o'yladi Salqin. A'zamdan ajragim kelmaydi, lekin alday ham olmayman. Boyaqish yurak achisha-achisha bosilar, iloj qancha, ko'nmaslikka choram bormi?

— O'g'il bolami? — A'zamning ovozi titrab chiqdi.

— Ikkisi ham qiz...

A'zam uni xonasigacha kuzatib keldi-da, xayrlashish vaqtida quchoqlab bag'riga bosdi. Salqinning ko'zlari yoshlanib, boshini ko'tara olmay egildi. A'zam uni iyagidan ko'tarib yuziga tikildi-da, ko'zlaridan o'pib, "Yaxshi yot" dedi tabassum bilan.

* * *

Oylar o'tdi, qirchillagan qish tugab, yoz keldi. Hayot bir maromda o'tar edi. Ishdan uyga kelsa, qizchalari har qaysinisi bijirlab quchog'iga kirishadi. Ular uy ishiga ancha yordam beradigan bo'lib qolishdi. Kattasi bu yil maktabga bordi. A'zam esa xuddi avvalgiday ikki kunda bir telefon qilib, hol-ahvolini, qizlarini so'raydi. Orada qizchalarga oq xitoy ko'ylagi yubordi. Yana yong'oq, kofe ham. O'ziga shular yoqsa kerak-da, deb o'yladi Salqin.

Bugun o'zi bilan ishlaydigan Nuriyaning tug'ilgan kuni bo'lib, uyiga kechroq keldi. Eshikdan kirgan ediki, qizlari unga xat tutqazishdi. Salqinga hech qachon xat kelgan emasdi. Konvertning sirtidagi tanish dastxatni ko'rganda yuzi bir oqarib ketdi. A'zam jo'natmaning ichida bir ikki og'iz so'z bitmasa, sira xat yozmasdi. Yechinmay turiboq xatni o'qishga tushdi.

"Salqin! Men ko'p o'ylandim. Sening tinch turmushingga aralashganim uchun kechirim so'rayman. Seni samolyotda ko'rganimdayoq xuddi eski tanishimday, qadrdonimday bo'lib ko'ringanding. Izlaganim topilganday ko'nglim huzur topib, atrofingdan keta olmay qoldim. Keyinchalik telefonda bo'lsa ham ovozingni eshitmasam, sog'ina boshladim. Ovozingni eshitgandagina sog'inchim tarqaladigan bo'ldi. To'g'ri, avvaliga bu sevgimi yo shunchaki havasmi ajrata olmadim. Ikkimiz oxirgi bor uchrashgandan beri

xayolimdan ketmay qo'yding. Seni butkul, jon-dilim bilan sevib qolganimni sezdim. Umrim ado bo'lguncha seni sevaman, Salqin. Sen o'z ering bilan yashaysanmi yo yo'qmi, bilmayman, biroq men sensiz yasholmasligim aniq.

Salqin! Men 5-may kuni kechki soat 7 da "Qirg'iziston" mehmonxonasining oldida seni kutaman. Agarda yuragingda men bor bo'lsam, kelarsan. A'zamjon. 7.04.1976-yil".

Xatni yana qayta o'qigan Salqinning yuzini ko'z yoshlari yuvdi. Nega yig'layotganini o'zi ham tushuna olmay, to'liqib yig'layverdi. Ko'zlari qizarib, shishib ketgani bilan tiniqib uyg'ondi. Bo'lar-bo'lmasga kulgi chiqarib, qizlarini kuldirdi, hazillashdi, tutumlariga zavq bilan qaradi, kechgacha xirgoyi qilib, vaqti chog' yurdi.

O'sha kuni qo'liga qalam olib, ko'nglidan ilk satrlarni yozdi. Ko'zini yumsa, A'zamjonning kulib turgan chehrasi "yoz, jonim" deganday ko'rinadi.

1976-yilning 5-mayida Salqin tong sahardan yo'lga chiqdi. Tevarakda bahorning yoqimli islari edi. Butun yerning yuzini yashil maysalar egallagan, yo'l bo'yidagi qizg'aldoqlar lablarini qimirlatib, qo'shiq kuylayotganday, erkin yellarda silkinishadi. Adirlar-u dalalar qizg'aldoqqa to'lib yotardi. Qattiq shovqin solib, shamol bilan quvishib borayotgan avtobusda bugun uni kutayotgan uchrashuvni o'ylab, sog'inchi alanga olib borardi. Mehmonxonadan o'rin olib, soat kechki yetti bo'lishini kutib yotdi. Belgilangan vaqt yaqinlashganda A'zam tug'ilgan kunida sovg'a qilgan ko'ylakni kiyib, yuziga bilinar-bilinmas upa surdi.

Salqin pardoz-andoz qilmasdi. Lekin kerak bo'lib qoladimi, deb upa-elikni olib yurardi. Labiga bo'yoq surar ekan, oynaga tikildi. Chiroyiga chindan ham chiroy qo'shilgandi. U doimiy bo'yanib yurmagani uchun xijolat bo'lib lab bo'yog'ini artib tashladi.

Soat millari roppa-rosa 7 ni ko'rsatganda zina bilan pastga tushib keldi.

A'zam navbatchi bo'lmasida mehmonlar hujjat to'ldiradigan stolda o'tirgan ekan. Boshini burib, Salqin kelayotgan tomonga qaradi. Salqin o'zini yashirdi. A'zam ko'rmadi, u kelayotgan to-

mon qorong'i edi. Nihoyat juda yaqin kelganida ayolni ko'rdi. Ko'kish kastumi o'ziga juda yarashgan A'zam uning ko'zlariga tikilib turdi-da, baxtdan quchog'ini ochib, uni bag'riga bosdi. Salqin uning quchog'ida mast bo'lib o'zini yo'qotib borardi. Nari-beri o'tganlar ikkisining baxtiga suqlanib jilmayib o'tishardi.

Restoranda ovqatlanib, A'zamning bo'lmasiga kelishdi. Stol ustidagi taomlarni ko'rgan Salqin:

— Hoy, — dedi hayratini yashira olmay, — mehmonlar bormi?

— Ikkimiz mehmonmiz bugun. Bugungi kun bizniki, Salqin.

— Meni kelmay qoladi, deb o'ylamadingmi?

— Yo'q. Kelishingni bilardim. Yuragim sezgandi.

— Nega xat yozgandan keyin qo'ng'iroq qilmading?

— Kutdingmi? — u shunday der ekan, ehtiros bilan o'pdi. — Seni alag'da bo'lmay, yaxshilab o'ylab ko'rsin, dedim.

O'sha tun necha yillardan beri aytmagan, ochmagan yurak sirlarini to'kib, bir yig'lab, bir kulib yotdi Salqin. A'zamning yana ham chehrasi ochildi, uni yosh boladay erkalab suydi, yalinib-yolvorib qalb sirlarini almashdilar.

Ertasi kuni A'zam to'g'ridan-to'g'ri uyga kirib borish to'g'risidagi taklifiga qarshilik qildi. Bolalar maktabdan qaytishsin. Ota-onamning oldidan o'tib, rozichiligini olganim yaxshi. Ular men o'zim rozi bo'lib tursam nima ham deyishardi. Men keyingi oyda ta'til olaman, shunday bo'lgani yaxshi. Shu choqqacha chidagan jonimiz yana biroz sabr qilaylik. Yetaklashib kirib borganimiz to'g'ri bo'lmaydi, — dedi Salqin o'ylab ko'rib.

— Men ota-onamni shu juma olib kelaman, degandim.

— Endi bir oy nari-barisi vaqt o'tar-da. Indamay-netmay turmushga chiqib ketaberadigan qiz emasman-ku.

— Men bir oy qanday chidayman, Salqin?

— Tez o'tib ketadi, A'zam. Xafa bo'lma.

— Xo'p, jonim. Meni ko'ndirding. Biroq O'shga borib bir hafta aylanib ket. Men bu yerda baribir qolaman. O'zing bilasan, mening ishim senikidan mas'uliyatliroq. Ishingga kechikib borishingni aytib qo'ng'iroq qilib qo'y. Keyin O'shga jo'naymiz, — A'zam telefon uzatdi.

O‘sh shahrining o‘rtasida joylashgan dam olish joyida odam ko‘p. Shaharda yashovchilarmi, dam oluvchilarmi ekanini bilib bo‘lmaydi. Biri kirib boradi, biri chiqib boradi. Salqin bir haftaning qanday o‘tganini bilmay qoldi. Ertaga yo‘lga chiqishi kerak. Narsalarini yig‘ishtirdi, bir qo‘l sumka bilan kelgan ayol katta chemodanni mahkam yopib berkitdi. Qo‘y deganiga qaramay, A’zam qizlarga bir sidra kiyim-kechak, o‘yinchoqlar, yong‘oq, kofe singari mayda-chuydalarni olgandi.

Shu payt eshik chertildi va shu zahoti A’zam kirib keldi.

— Salqin, mehmonlarni kutib ol!

— Salomatmisiz, azizim, mening otim Jo‘ra, — deb qo‘lini uzatdi quyuq qora qoshli yigit.

— Salqin.

— Karim.

— Said.

O‘zini Jo‘ra deb tanishtirgan yigit o‘tirib-o‘tirmasdan qo‘ynidan bir shisha shampan chiqarib stolga qo‘ydi. Yigitlar biroz kayf ko‘rindi.

— Seni bu yerda desam, ko‘rishamiz, deb kelishdi. Bular mening o‘rtoqlarim.

— A’zam nimaga Frunzelab qoldi, desam, sababi bor ekan-da.

— Issiqko‘lning oqqushiga uchrashib ketaylik deb ortimizga qaytib keldik, xafa bo‘lmang, kelinoyi.

— Siz bilan tanishganimiz uchun, kelinoyi, — Said ko‘piklagan shampanni har biriga quyib chiqib, tilagini aytdi, uning qo‘lini ushlab:

— Ey, yuringlar biznikiga, singlimizga osh qilib beraylik. Mehmonni xursand qilmasak bo‘lmaydi.

— Ha, to‘g‘ri aytasan.

— Ketdik bo‘lmasa.

— Bolalar, Salqin ertaga yo‘lga chiqadigan. Qiynalib qolishi mumkin, shunga hozir dam olsin. Sizlarga rahmat, — A’zam borgisi kelmay gapirayotgan edi, yana biri qo‘shildi:

— Ey, biz sizlarga xalal bermaymiz. Osh tayyor bo‘lganda yeb bersanglar bo‘lgani. Ungacha birga dam olaveringlar, bo‘ladimi?

— Bormasak bo'lmaydi, — A'zam o'rnidan turdi, — bolalar, sizlar chiqa beringlar, men hozir.

Ko'chadan taksi ushlashdi-da, boriladigan uyga tezda yetib borishdi. Stolning usti turli yemaklarga to'lib ketgandi. Kelgandan beri birorta ayol zotini ko'rmagan Salqin:

— Bu uyda ayol kishi yo'qmi? — deb hayron qoldi.

— Bor. Saidning enasi, ayoli, singillari bor. Bizda ayol kishi mehmonning ustiga kirmaydi. Bu bolalarning hammasining xotini, bola-chaqasi bor. Meni uylantiramiz deb qiynab yurishadi. Bugun ham bittasini ko'rsatamiz deb univermagga borishibdi. Men uylanib oldim, dedim. Ishonishmadi, shunga sening yoningga olib bordim.

— Topgan qizini ko'rganing yo'qmi?

— Yo'q, — u boshini chayqadi.

— Ko'rib qo'ysang bo'lardi, — Salqin shunday dedi-yu, xo'rsindi.

— Sen rostdan ham meni qizg'anyapsanmi, Salqin? — A'zam yalinchoqlik bilan dedi, — Qizg'anchig'im mening, qirg'izim mening, menga boshqa hech kim kerak emas...

— Keyin men ham mehmonning ustiga kirmaymanmi?

— Meni hurmat qilsang, mening millatim odatlarini o'rganishing kerak.

— A'zamjon aka, kelinoyi, oshga qaranglar, — Saidning qo'li qo'liga tegmay choy quya boshladi.

— Biz ichkilikni ko'p ichmaymiz, bugun siz bilan tanishganimiz uchun ozginadan olib o'tiramiz, qarshi emasmisiz? — Jo'ra shunday deb finjonlarni to'ldirdi.

— Menda bir taklif bor, — Murod davraga o'nglanib o'tirdi, — A'zam uylandim deyapti, kelinoyi uyimga ketaman, deyapti, tushunmay turibman-da...

— To'y bir oydan keyin bo'ladi. Ungacha sabr qilib turinglar. Shunday bo'lib qoldi, — A'zamjon avvalgiday kulimsiragan holda javob berdi.

— Unda mening taklifim bunday. Hozir dam olish uyi yopildi, sizlarni kirgizmaydi. Lekin shariatga ko'ra nikoh to'yi bo'lmaguncha, kuyov bilan kelinning birini yolg'iz qoldirib ham

bo‘lmaydi. Shu sababdan hozir sizlarga nikoh o‘qiymiz, nima deysizlar?

— To‘g‘ri-to‘g‘ri. Biz guvoh bo‘lib beramiz.

Salqin A’zamga qaradi. U ko‘zlari yashnab, yana ham tabassumga ko‘milib turardi.

O‘sha kecha qanday yaxshi tilaklar aytilmadi. Kelajakka yaxshi niyat qilib, ikki qizchani ham ukali, singilli qilishdi. Qizlarni turmushga berib, bobosi, buvisi bo‘lishdi. Tong oqarib kelayotgandagina yostiqqa bosh qo‘yganlari bilan uxlashgani yo‘q. Yomg‘ir yog‘ib yotganligidan Prjevalskiy aeroporti yo‘lovchi qabul qilmayotgan ekan. Salqin uchadigan reysning ikki soatga kechiktirilganini bilgach, A’zamjon bilan suv bo‘ylab yayov yurishdi.

— Ish ta’tili olishing bilan kelgin, xo‘pmi, kutaman.

Sizlarning urf-odatingizga ko‘ra o‘zing bilib, agar mening qarindoshlarimni yuborib bo‘lmasa, birga borarmiz, — A’zam kelgusi rejalari to‘g‘risida so‘zlay ketdi.

— Uni vaqti kelganda ko‘ramiz, — dedi Salqin A’zamga erkalik bilan.

Samolyotga chiqish oldidan xayrlashishdi.

— Samolyot ko‘rinmay qolguncha qarab turaman, — A’zam entikkan ko‘yi uning ko‘zlaridan o‘pib xayrlashdi.

— Voy bu yoshlar-ey, — nazoratchi ayol ularga norozi qarab bosh chayqadi.

O‘sha kuniyoq uyiga yetib keldi. Tungi soat 12 dan o‘tib qolganda telefonning chaqiruvi uyg‘otib yubordi. Trubkani qulog‘iga tutishi bilan A’zamning chuqur tin olganini sezdi.

— Jinni, — dedi Salqin, — tun o‘rtasida uxlamay nima qilib o‘tiribsan?

— Seni sog‘inib, — dedi telefonning narigi yog‘idagi ovoz.

— Uxlab dam ol, — dedi berigisi.

— Sen ham uxla, eson-omon yetdingmi, bilayin degandim.

— Bo‘ladi, yaxshi yot.

Salqinning uyqusi ochildi. A’zam bilan o‘tkazgan baxtli soatlar ko‘z oldidan o‘tdi-da, qo‘liga qalamini oldi. Yotsa-tursa A’zamning xayoli bilan birga yashab, kech kirgizib, tonglar ottirdi.

Ikki-uch kundan keyin O'shga safar qilishini tasavvur etadi.

A'zam bir necha vaqt telefon qilmay qo'ydi. Do'konga tekshiruv keladi, degandi, o'shanga alahsib, o'ralashib qoldimi? Yana bir necha kun o'tib, Salqin o'zi telefon qilmoqchi bo'ldi, lekin fikridan qaytdi. Yengiltak bo'lib ko'rinmayin, dedi. Bugun ariza yozib, ishlarini topshirib keldi. Qizlarini ota-onasiga tayinladi. Kiyimlarini tartibga soldi, ro'zg'orini saranjomlab uyini tozaladi.

Yo'lga hozirligini ko'rib bo'lganidan keyingina xotirjam tortib uxlashga yotdi. Biroq bosinqirab uxlay olmadi. Nari-beri ag'darilib yotib, turib oxiri chiroqni yoqdi-da, u kuni yozgan she'rini qo'liga olib qayta o'qidi. Bugun men baxtga to'lgan ko'lday chayqalib, to'lib turibman. Baxtga limmo-lim ko'nglim kunday yorqin, ko'rganlarim tushim bo'lmasin-da. To'lib-toshib sen haqingdagi hikoyamni so'zlayveraman, so'zlayveraman. Boshida tanishganimizda sezgan edim, umrimning tuganmas ertagi bo'lishingni. Mening bitmas-tuganmas ertagim — A'zam. Ikkimiz nega avvalroq tanishmay, adashib yurgan ekanmiz-a. Kech bo'lsa ham uchrashtirgan taqdirimdan roziman...

Salqin totli xayollarga berilib, cho'milib o'rniga yotarkan, qanday uxlab qolganini bilmadi. O'sha kezda A'zamning uyidan gaz balloni portlab ketganini, chol-kampirning cho'lponday bolasidan ajralib qon yutib qolganini bilmas edi. Salqin borganda A'zamning og'asi daragini bilmagani uchun xabar bera olmaganini aytdi. O'ksib yig'lab, bir umrlik sog'inchga botdi, sog'inchini, armonini, iymoniday sirini uning yaqinlarigagina qon-qon bo'lib aytib kelishini qaydan ham bilibdi.

* * *

Salqinning yuragida bir armon bor. Uning borlig'ini egallab, so'ng o'zi qayrilib qaramay ketgan bir muhabbat qissasini bitadi. Bu qissani o'zigina o'qiydi, o'zigina tushunadi. Butun umri davomida bitmas kuy bo'lib, ko'nglida, yuragida sado berib keladi. Hali beri tugamaydi, bitmaydi. Fursat o'tishi bilan hamma narsa eskirib unutildi, lekin hech bir lahza A'zamni unuta olmadi. O'sha u bilan uchrashtirgan baxtli kunidan tortib, undan ayrilgan baxtsiz kungacha yodiga kelib sog'inib qoladi, izlab qoladi. Taqdiri unga

ro'para qilgan kulimsiragan qiyofasi qayerda bo'lmasin, uni kuzatib boradi.

"Biz baxtli bo'lamiz", uni samolyotga kuzatayotganda xayolga cho'mgan A'zam shunday degan edi. Qani o'sha bizni chorlagan baxt? Biz baxtli bo'la olmadikmi? Hayot shunday yolg'onchimi? Balki, ikkisi birga bo'lishsa, kundalik tashvishlar ichida orzu-armonlarni unutib yuborarmidilar, kim bilsin. Har doimgiday kulimsirab turgan qiyofasi tushlariga kiradi. Ishlagan univermagida o'tirishgan bo'ladi. Sotuvchi qizlarning chiroyliligini-chi, ulardan qizg'anadi. "Qizg'anchig'im, — deydi A'zam odati bo'yicha, -- mingta chiroyliga almashmayman seni". Shirin tushidan ajralgisi kelmay, ko'zini qattiq yumadi, tushining davomini ko'rgisi keladi. U haqida kuylab to'xtata olmaydi, u haqida so'zlab tugata olmaydi. Qora tunday sochlarini barmoqlari bilan siypalaydi, yangi buzoqnikiday kipriklari uni o'ziga qaratib oladi. Ammo bularning barchasi xayol ekanini his qilganda jonini qo'yishga joy topmay o'zini aldamoqchi bo'ladi.

* * *

Eshik ochilganda beparvo ko'z tashladi-yu, notanish yigitni ko'rdi.

— Bu nimasi, turmaysanmi? — salom berishni ham unutgan yigit kirib keldi. Ko'zlarini pirpiratib, shoshib gapira boshladi:

— Bilasanmi, seni qancha izladim? Professorning kabinetini izlab yurganimda, uchovingiz o'tirgan edingiz. Sen menga professor kabinetini ko'rsatib yubording. To'g'ri topib boribman. Buning ustiga menga qo'shilib kelgan hamshira ham shoshirib "qiz ko'rsangiz, boshingiz aylanib qolar ekan", deb qoldi-ku. Chiqsam, yoninglardagi juvon o'tiribdi. U kishidan so'rasam, "qizlar birinchi qavatda yotishadi, otlarini bilmayman", dedi. Haligi menga javob bergan qiz qayerlik ekanini bilmaysizmi?— deb so'radim.

— Bilmayman, bolam, ko'l yoqdan bo'lsa kerak.

— Qaysi tumandan ekan-a, opa? — dedim.

— Unisini qayerdan bilay, bolam. Aytganday bo'luvdi, qarigan chog'imda miyamga kelmay turibdi-da. Hozirgini hozir unutaman, — dedi.

Men unda maxsus shifoxonada yotgan edim. O'sha kuni professor Fridmanga konsultatsiyaga olib kelishgan edi. Kasalxonadan chiqishim bilan u yerga kelib qidira boshladim. U vaqtda chiqib ketgan bo'lsang kerak, ko'ra olmadim. Surishtiray desam, otingni ham bilmayman.

— Unda qanday topdingiz?

— Men Respublikaning hamma tumanlarida bo'laman, kasbim shunaqa. To'rt yildan beri Issiqko'lning besh tumanida ikki martadan bo'ldim. Kelganimdanoq izlaganim — sen. Burungi ikkinchi sekretaringlar Eshonaliyev mening kursdoshim bo'ladi. Dardimni unga aytdim. "Raykomdagi qizlarning hammasini chaqirayin. Tanisang topib ol, tanimasang, o'z aybing o'zing bilan", — deb hazil qildi. O'n kuncha yurib ham topa olmadim. Bu kelishimga ham sababchi sen bo'lding. Ko'rinmaganingda boshqa tumanga zuv etib o'tib ketardim. Ketayotib tag'in bir so'rab ko'ray, deb raykomga bosh suqsam, qishloq chorvadorlik boshqarmasining bosh hisobchisi navbatchi ekan — Tursunboy bor-ku, Boybo'lov. Tavakkaliga so'rasam, "Mamakeyev"da yotgan deysanmi?" deb xiyla o'ylanib qoldi.

Ikkimiz bir kursda o'qiganmiz. U senga qo'ng'iroq qilib qolmasinmi? Tag'in biroz ishonmay turdim, chindan ham topdimmi? — Salqin uni gap bilan aylantirib o'rab qo'ygan yigitning so'zini bo'lmay eshitib turgan edi.

— Balki, men emasdirman, shifoxonaga ko'p odam kelib yotadi-ku, degan edi, yigit qat'iy bosh chayqadi.

— Yo'q, ko'zlaring bu men deb turibdi. Men ko'rgandan boshqacha bo'lib o'zgaribsan. Unda yuzlaring oppoq edi. Oppoq yuzga qop-qora ko'zlar qanday yarashadi, bilasanmi? Hozir qorayib ketibsan. Lekin ko'zlaring o'sha men ko'rgan ko'zlar. Sochlaring yelkangni yopib tushardi, kalta qilib kesibsan. Tilla tishlaring ham ko'payib qolibdi.

— O'h-ho', o'shandan beri eslab qolganmidingiz?

— Meni to'rt yil behuda azob chekdi deb o'ylaysanmi? O'sha o'zim ko'rgandagi xayol bilan yashab kelayotganimni bilmaysan-da.

— Biz hali unchalik tanish emasmiz.

— Haqiqatan ham. Armonimni aytib tugatib olay dedim-da. Mening otim Turg'unbek.

— Salqin.

— Bilaman, Tursunboy aytgan. Endi men yo'lga chiqaman. Ataylab seni uchratish uchun qolgan edim. Ishlarimiz allaqachon tugagan. Jamoani ikki kun avval olib kelgandim. Kattalar izlab yotishgandir. Shaharga borsang, albatta, xabar ber. Agar ishda bo'lmasam, uyga telefon qil, ma'qulmi?

Turg'unbek telefon raqamlarini yozib berayotib, raqamlarni qayta-qayta pishiq qilib takrorlayverdi.

— Albatta telefon qil. Senga aytadigan so'zim ko'p.

Shoshib chiqib ketgan yigitning ortidan qarab qolar ekan, notanish qo'ng'iroqni esga oldi...

Ishdan qaytib, kiyimini almashtirib olib tashqarini tozalayotganda telefon jiringlab qoldi. Trubkani ko'targan edi, qishloq chorvadorlik departamentida ishlagan Tursunboy ekan:

— Sen Mamakeyevning klinikasida davolanib kelganmiding? — dedi, u hol-ahvol so'ragandan keyin.

— Ha-ha, nima bo'ldi?

— Seni bir yigit izlab kelibdi. O'sha shifoxonada tanishgan ko'rinasizlar.

Telefon ovozi biroz to'xtab qoldi.

— Yaxshi qiz, uzr. Men to'rt yildan beri birovni izlab yuribman. Siz bilan gaplashib olsam bo'ladimi? Izlaganim siz bo'lsangiz, yaxshi, siz bo'lmasangiz kechirim so'rayman.

— Men hozirgina uyga keldim. Endi ikki kun dam olish. Ishning birinchi kuni uchrasharmiz.

— Yaxshi qiz, mening komandirovkam tugagan. Jamoani jo'natib yubordim. Mumkin bo'lsa hozir sizni ko'rsam, keyin keta olardim.

— Sizning ishingiz meni qiziqtirmaydi. Men hozir uydan chiqa olmayman, — Salqin trubkani qo'ydi. Telefon qayta jiringladi.

— Yaxshi qiz, sizdan o'tinib so'rayman, uchrashaylik. Negadir ovozingiz ko'nglimga yaqin. Izlaganim siz bo'lib chiqsangiz-chi?

— Yo'q, men uchrasha olmayman. Ko'rgingiz kelsa, birinchi kuni keling, — Salqin so'zida turib olgisi keldi.

Telefon yana jiringladi.

— Men sizga aytmadimmi, bo'ldi, qo'ng'iroq qilmang.

Telefon o'chakishganday yana jiringladi. Salqin tashqariga chiqib ketdi. To uyquga yotguncha allamahal bo'ldi. Telefon esa o'shanda ham tinmadi. Tunda jimib qoldi. Ertasi, indiniga ham jim edi. Birinchi kuni ishga kelgan Salqinning yodida hech narsa yo'q, o'tirganida eshikni ochib notanish yigit kirib keldi.

Salqin Turg'unbek berib ketgan o'sha qog'ozdagi yozuvlarga tikilib o'ylanib qoldi. Navqiron yigitlik yoshidan ancha o'tgan odam ekan, uyi, bola-chaqasi bo'lsa kerak. Meni nega izladi ekan? Shifoxonada yotgan odam kun ko'rmay yuraverib, ko'ziga oppoq-qina ko'rindimmikan? Uyiga telefon qil degani nimasi?

Ertasiga soat o'nlarda telefon "jiring" deb qoldi. Trubkani ko'tardi-yu, Turg'unbekning ovozini tanidi.

— Salqin, senmisan?

— Ha, eshityapman.

— Qanday yaxshi. Uxlashga yotdingmi? Salomatliging yaxshimi?

— Yaxshi, rahmat.

— Bu menman, — deb bir lahza to'xtab qoldi, — shaharga qachon kelasan?

— Biror ishim chiqsa boraman.

— Ishing ertaroq chiqib qolsa edi.

— Chiqmay qolishi ham mumkin.

— Unday dema. Ko'rmay-bilmay yurganimga "yaxshimikan", deb qoldim. Sening ovozingni eshitgim kelib tunda qo'ng'iroq qilay dedim, jahlingni chiqarib qo'yamanmi deb cho'chidim. Ishga qo'lim bormay buyurtmalarni berib qo'ydim-u, telefonga quloq solib o'tiribman. Salqin, biz ikkimiz uchrashishimiz kerak.

— ...

— Salqin?

— Uchrashib nima qilamiz?

— Qiziq ekansan, — yigit chin dilidan kuldi. — seni bir ko'raman, undan keyin senga aytadigan ko'p gaplarim bor. Sen to'g'ri tushun, shaxsiy hayotingga aralashmayman. Shunchaki yaxshi do'st bo'lamiz.

— Oilangiz bormi?
— Bor.
— Xotiningiz nima ish qiladi?
— Vrach.
—...
— Nega indamay qolding?
— Shunchaki.
— Salqin, men bugun Qoraboltaga ketaman. Ertaga qo'ng'iroq qilaman. Yaxshi qol.
— O'zingiz ham yaxshi borib keling.

* * *

Turg'unbek telefonda kunora hol-ahvol so'raydi. Bir kuni So'qo'lo'qdan, bir kuni Kemindan, o'n kundan keyin O'shdan, tag'in bir kun kelib Norindan telefonchi qizlar ulab berishadi. O'zi ham bunga o'rganib qoldi.

Turg'unbek bir kun qo'ng'iroq qilmay qo'ysa, kechgacha kutadi. "Yo tavba, — deb o'zicha o'ylanadi. "O'lganning yuzi nari, tirikning yuzi beri" degani shumikan? Kechagina A'zam bilan bir yostiqqa bosh qo'yadigan bo'lmaganmidik?

Azani vaqt sovitadi, oradan to'rt-besh yil o'tib, Salqin ham avvalgiday bo'lmay qolgan. Qizlar ro'zg'orni uddalab, uy ishlarini tinchitadigan bo'lib qolishdi.

"Bu ikkisi o'z juftini topib ketsa, yolg'iz qolasanmi, yosh chog'ingda birovning etagini tutib qol, vaqtni o'tkazma", deb qolishadi ba'zan tengqurlari. Ularning kuyunib aytgan so'zlariga ma'yus jilmayish bilan javob beradi. A'zamni hech kimga almashtira olmasligini, O'sh desa qanday hayajonlanib ketishini qanday tushuntirsin ularga. Yosh kelinga qo'l uzatgisi kelib, so'z otganlar bo'lmasmidi, biroq ularning birortasida sevganining qiyofasini ko'ra olmadi. Uning taqdiri yo'lida to'satdan Turg'unbek yo'liqdi. O'z fikrini ochiq aytmagani bilan kunni o'tkazmay qo'ng'iroq qilib turishi kelgusida nimalar bo'lishini bildirayotgandek. Har telefon qo'ng'irog'i chalingan sari shaharga kel deb so'rayverib yigitning sabri tugadi. Oxiri sentabr oyining fayzli kunlaridan birida Salqin yo'lga tushdi.

Salqin oliy o‘quv dargohlaridan birida bilim olsam deb, ahd qilgan vaqtda bir necha yil kira olmagan, oxiri tayyorlov kursiga topshirgan edi. “Bechorada chora yo‘q” deganday, sog‘ligi bilan bo‘lib o‘qishni ham tashlab qo‘ygandi.

Bir gal kelganida hujjatlarini olayin deb borsa, kuratori:

— Sen yaxshi o‘quvchi bo‘lmading, nega chiqib ketding? Hujjatlaringni to‘g‘rilab kel. Hammangiz ham hujjatlarni yasama qilgansizlar, buning nimasidan uyalasan? Sen o‘qiysan, hujjatlaringni yangilab kelib, sirtdan o‘qishga topshirgin, — degan.

Endi u ikkinchi guruhda hujjatlarini topshirishga tayyorladi. Frunze shahri yana avvalgiday yam-yashil bo‘lib turgani bilan kuzning fayzi seziladi. Kechki soat beshlarda yetib kelgan Salqin to‘g‘ri universitetga keldi, lekin kuratorini izlab topa olmadi. U kishi ertaga soat o‘nda keladi, deyishdi.

Qirg‘iziston mehmonxonasiga kiraverishda “mesto net” degan yozuvni ko‘rib, dami ichiga tushdi. Shunday bo‘lsa ham navbatchiga umid bilan qayrildi.

— O‘rin yo‘q, — dedi ayol oldidagi qog‘ozga qarab, nimanidir hisoblar ekan.

Odamlar kelib, ketib turar edi. ayrimlari til topishib so‘zlashadi, birovlari sherigiga ergashib tunagani ketadi. Ba’zilari hamon navbatchilik bo‘lmasida. Salqin o‘rin ola olmasligiga ko‘zi yetib, Turg‘unbekka sim qoqishga qaror qildi. “Yo‘q, — deydi bir o‘yi. Kecha telefon qilganida boraman deb aytmagan bo‘lsa”. Uyining raqamini terishga jur’at qilmadi. Notanish ayolning ovozini eshitsa, uyidagilari nima deb o‘ylaydi? Shuning uchun kech bo‘lsa ham ishxonasiga qo‘ng‘iroq qila qolay dedi. Balki, ishlari ko‘payib ketib, o‘tirgandir. Ishdan qo‘ng‘iroq qilyapman deb kechda ko‘p marta so‘zlashgandi. Biroq telefonning qaytalanayotgan gudogi Salqinning umidini so‘ndirdi. Birpasdan so‘ng navbatchi ayol yoniga bordi:

— O‘rin yo‘q, — dedi xo‘mraygan ayol, — bekor vaqt o‘tkazmay joy top, qizim, bu yerda bronlangan joylar qoldi xolos.

— O‘tirib turay-chi, opa, balki kelmay qolishar.

Ayol o‘zing bilasan deganday yelka qisib, birovlar bilan suhbatlasha ketdi. Odamlar oqimi bir kamaysa, bir ko‘payadi. Ayrim-

lar jo'ngina, maqsadsiz nari-beri yurishadi. O'tgan kunlardagi bir voqea yodiga tushgan Salqin bir jilmayib oldi.

O'shanda ham bo'sh joy yo'qligidan kech qolgan edi. Bir shipillagan yigit kelib hol-ahvol so'ray boshladi. Salqin bilan birga ishlagan bir opaning kursdoshi bo'lib chiqdi.

— Meyramning singlisi emasmisan, bu yerdagilarning hammasi mening tanishlarim. Kel, pasportingni ber, hozir o'rin olib beraman, — deb yaqinroq surildi. Ko'ziga o'rin ko'rinib ketdi, yo'l yurib charchagani uchun pasportini uzatdi. Navbatchi oldiga ketgan yigit "biroz to'xtab tur" deb keldi.

— Charchab ketding-a, mening bo'lmamga borib o'tira tur, birozdan keyin bo'ladi, degan, — dedi u. Chindan ham sovqotgan, bo'lmaga bormaslikka iloji yo'q edi. Ikki marta tashqariga chiqib kelgan yigit soat o'n ikkidan o'tganda:

— Birpas yotib dam ol, transport to'xtadi, hech qayoqqa bora olmaysan. Keyin shu yerga ham kiritmay qo'yishadi, — deb qoldi. Pasportni bermay olib qo'ygani yetmay, stolning ustini yegulikka to'ldirdi.

Bu o'rin olib bermay ataylab tomosha yasaganini tushungan Salqin labini tishladi.

— Nega gapirmaysan, yaxshi qiz? Bugun o'rin yo'q ekanini o'zing ko'rmadingmi, qancha joygacha borib keldim. Ertaga aniq beramiz, deyishdi. Xafa bo'lmay dasturxonga qara. Bu yerda yotgan hamrohim bugun kelmay qoldi, bemalol yotib dam olaver.

— Pasportimni bering-chi, o'zim navbatchiga borayin.

— Yo'q, — dedi yigit, — hujjating menda tursin. Qo'rqmay qo'ya qol, hayvon emasman.

"Hayvon emasliging ko'rinib turibdi, — deb o'yladi Salqin. — Bu ataylab ayollarni qo'lga tushirish uchun nayrang. Qo'lga oldim, deb o'ylayaptimi. Topgan ishini qara". Yigit uxlab qolganday jimib ketdi. Salqin tobora bezovtalanib o'ylana boshladi. Bir mahalda yigit xuddi endi uyg'ongandek boshini ko'tarib:

— Ey, yotib dam olmaysanmi? — dedi. Salqin asabiy holda bosh chayqadi, yigit esa Salqinni yoqtirmayotganday qiyofada turib vannaga kirib ketdi. Ortidan qarab turgan Salqinning ko'zlari

jovdiradi. Vanna eshigi yopilmay qolganidan bo'lsa kerak, tashqarisida ilgagi bor ekan. Shartta turib borib ilgakni solgan Salqin yuragi ot dupuriday gupurlab, shosha-pisha kastumning ko'krak cho'ntagidan pasportini olib, sumkasini ko'tardi-da, pastki qavatdagi navbatchi oldiga yugurdi.

Mana shu voqeani ko'z oldidan o'tkazgan Salqin Turg'unbekning uyiga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'ldi. O'zi aytgan-ku, kech bo'lsa ham qo'ng'iroq qil, deb. U telefonni ko'tardi va darhol tanidi:

— Keldingmi, — dedi yigit, — qayerdasan, qachon kelding? Kelgan zahoti qo'ng'iroq qilmaysanmi? Men hozir o'n besh minutda o'sha yerda bo'laman, — deya savollariga javob ham kutmay trubkani qo'ydi.

Bu o'zi edi. Turg'unbek kelgan vaqtda joy ham hozir bo'ldi.

— Kelishingni aytib qo'ymaysanmi, senga joy band qilib qo'ymaymanmi, — so'zlar ekan, ovqatlanish chorasini ko'ra boshladi. Ust kiyimini yechib, kaftlarini bir-biriga ishqalab, Salqinga yuzlandi:

— Kel, choyga qaraylik.

— Menga aytadigan ko'p gaplaringiz bor edi, shulardan ayting.

— Shoshilmay aytaman, avval qorinni to'yg'az, qolgan gap undan keyin. Kechda yo'lga chiqqan bo'lsang, ovqat ham yemagandirsan. Kecha gaplashganimizda boraman, demading-ku. Bundan keyin bunaqa nodonlik qilmagin.

Turg'unbek issiq choy damlab, unga g'amxo'rlik bilan quyib berdi. Salqin kimsasiz bo'lmada erkak kishi bilan o'tirganiga o'zidan uyalib ketdi. Baribir erkak kishi-ku. Fikri toza bo'lsa, o'zi bilinar, bo'lmasa, bir chora toparman, degan xayolga borib, Turg'unboyning savollariga qisqagina javob berib, xomush tortib jimib qoldi.

— Salqin, sen nega jimib qolding? Meni yoqtirmayapsanmi?

— Yo'q-yo'q, o'tiravering...

— Necha kunga kelding?

— Ishim bitsa, ertaga qaytaman.

— Qancha istasam ham qolaman, deya olmaysan. Aytgancha, ertaga Noringa komandirovkaga ketadigan bo'ldim. Sen ishlaring-

ni bitirib bo'lib, bu yoqda yuravermay tez ketgin. Men qo'ng'iroq qilaman. Ertalab vaqtim bo'lsa, kelib ketaman. Yaxshi yotib tur. Hozir borayin, onam kunimni ko'rsatadi.

Salqinning piq etgan kulgisiga javoban "shunaqa" degandek ko'z qisib qo'ydi. Eshik yopilishi bilan xona jimjit bo'lib qoldi. Qiziq, deb o'yladi Salqin, katta yoshli odam onam o'ldiradi, degani nimasi? Hech yomon niyati borga o'xshamaydi, men ahmoq bo'lsa... Ayoli qayerda bo'lsa ekan?

Vrach deb edi, navbatchilikdadir-da. Erta bilan eshik chertilganda Salqin bo'lmadan chiqmoqchi bo'ldi.

— Oo, men seni uxlab yotgan bo'lsa kerak, deb o'tiribman. Yaxshi uxladingmi, qo'rqqaning yo'qmi? Ishlaring bitishi bilan bu yerdan ketgin, uqdingmi? Mana buni bo'lsa, bolalaringga olib bor.

— Yo'q, keragi yo'q, — dedi Salqin u narsa nima ekanini ko'rmay turib.

— Men senga emas, bolalarga beryapman. Avtobus ko'taradi, olib keta qolgin. Ertaga telefon qilaman, yaxshi bor, — Turg'unbek bir lahzada jiddiy ko'rinishga kirib, shart burilib chiqib ketdi.

"Tabiati qiziq ekan-ku", — deb o'yladi Salqin Turg'unbek tashlab ketgan paketni ochib ko'rib. Paketning ichida uch litrli bankada asal bor edi.

— Shartta buyruq beradi-ya, qiziq... O'z xotinidek boshqarib olganini qarang.

* * *

Salqin hujjatlarini topshirib qo'yib, imtihon kunlarini kuta boshladi. Turg'unbek odati bo'yicha borgan yeridan kun ora qoldirmay qo'ng'iroq qilib, hol-ahvolini so'raydi. Imtihonga yaxshi qatnashsang, uyat bo'lmay o'tib ketsang ekan, deb qattiq xavotirlanadi. Salqin buni sezmay qolarmidi. Imtihonning mas'uliyatini sezganidan o'zi bilan birga topshirgan yoshlarga kulgi bo'lmay o'tib ketsaydim, deganday ikki ko'zi to'rt bo'lib, tun-u kun kitobni qo'lidan tushirmay yurdi. Ana-mana deguncha imtihonlar ham boshlandi.

Salqinning tinmay o'qigani zoye ketmadi, u hamma narsadan yaxshi o'tib, imtihonni yaxshi topshirib, talaba bo'ldi. Bunga Salqinning o'zidan ham ortiq Turg'unbek xursand bo'ldi.

— Ishqilib rostmi, hujjating qo'lingga tegdimi, — deydi o'zini tutolmay. Endi bundan keyin sessiyaga kelgan sayin ko'rishib turamiz. Bo'lmasa shaharga kelishing juda qiyin, kishini sog'intirib...

— Ishqilib, xabar olmay qo'ymaysizmi? — dedi Salqin ginaxonlik bilan.

— Yuraging urmay qolsa bo'laveradimi? Arang topib olganimda... sen endi bunday demagin-da, xo'pmi?

— Siz avvalroq aytadigan ko'p gapim bor, degan edingiz. Shuni aytmaysizmi?

— Ko'p gapim borligi rost..Biroq senga duch kelganda ayta olmay qolaman. Vaqti kelar. Ungacha omon bo'laylik, qolganini keyin ko'rarmiz.

* * *

— Sening sog'liging joyida emas, — dedi Tursunboy hazillashib, — boyagi mening do'stim bilan tanishgandan keyin shahar aylanib ham kelding, bir g'alva bor-da ishqilib.

— Qo'ysang-chi o'shani, undan ko'ra ayt-chi, uyining telefon raqamini bilasanmi?

O'zicha Turg'unbek bilan uchrashib yurganini yashirishga urindi.

— Uning uy telefoni raqamini nima qilasan?

— Hov o'shanda uyga telefon qilib, tinchligimni buzmadimi, men ham qo'ng'iroq qilayin, ayolining oldida nima qilishini bilmay qolsin.

— Uning tinchligi buzilmaydi.

— Nima uchun? Xotini karmi yo so'qirmi? Begona ayol so'rab tursa, qanday qilib tinch tursin, so'zsiz, janjal chiqaradi-da.

— Uning xotini yo'q, qazo qilgan.

Salqin birdan boshiga bir narsa urilganday chayqalib ketdi. Bu xabar unga nega bunchalik qattiq ta'sir qilganiga o'zi ham hayron

edi. "Onam o'ldiradi", degan edi xolos-ku. Nega ochiq aytmadi ekan?.. Ha-ya, nega suyunchilasin?

— Ha, esing og'ib qoldi? — Tursunboy qitmirlik bilan jilmaydi.

— Nega esim og'ib qolar ekan? — dedi u bosh egib yerga tikilar ekan.

Ko'zini bir pirpiratsa yoshi tomib ketguday edi. Nega buncha ichi kuyib, ezilib ketayotganini o'zi ham bilmasdi. Yuragi bezovta bo'lib, nimalardandir pushaymon edi.

— Sen boshqacha bo'lib qolding. Ranging ham o'zgarib ketdi. Yashirmay aytaver, birovga bildirmayman. Ko'ngling unga bog'lanib qoldimi? U axborot-kutubxonada ishlaydi, turmushi yaxshi, odamgarchiligi zo'r, seni xor qilmay asrab-avaylaydi.

— Agar menga munosabati shu niyatda bo'lganda, ayolining o'lganini aytar edi-da, uni nega mendan yashirdi ekan, deyman-da.

— Iye, aybing ochilib qolyapti-ku? Nega uyining telefonini so'raysan o'zi? — Tursunboy katta sirni ochganiga g'ururlanib ketdi va jilmaydi.

* * *

Salqin Turg'unbekka yo'liqqanidan beri A'zamning ruhi oldida o'zini gunohkor sezib, har qanday hislardan tiyilishga tirishadi. Undan uzoq bo'lishga urinadi. Unday bo'lsa nega Tursunboy aytgan xabar shunchalik og'ir tuyuldi?

Salqinning taqdiridan xabari bor Xonim degan kelin:

— Qizlaringni chiqarsaeng, yolg'iz qolasan, — deydi chin ko'ngildan kuyunib. — Shuncha vaqt ortingdan yurgan odam, yaxshi ko'rib qolgan-da, seni har joyda tashlab ketolmaydi. Ayolining o'lganini yashirgani esa, botinib aytolmaganidan bo'lsa kerak, vaqti bilan bilar, degandir. Ko'nikib ketasan, uylanaman, desa qarshilik qilma. Bolalaringga ham ota kerak, o'z otasidan mehr ko'rmagan bo'lsalar, boshqa otadan ko'rar, bilib bo'ladimi?

— Sen jinni bo'libsan, mana ko'rasan, turmush qurish haqida gapira boshlasang ham, "Onam urishadi", deb ketib qoladi.

— Yo'q, ertami-kechmi, o'zi senga aytadi. Axir o'zi aytganday, to'rt yil bekorga qidiribdimi? Qo'qqisdan taklif qilib qolsa,

ko'nglini qoldirma, deganim-da. Sen mendan maslahat so'rading. Men ham senga jon tortib, bir o'rtog'ing bo'lib aytyapman-da.

Xonimning chin dildan oq tilak tilab turganini anglagani bilan, negadir uning so'zlarini ich-ichidan ma'qul topmaydi. Chindan uni izlagan bo'lsa, nima uchun buni aytishdan tortinadi? Borini to'kib-solganday ko'rinadi. Ish desa, ishi bor ekan. Sirtidan hech narsani bilib bo'lmaydi. To'xta, avval hamma gapni bil, ehtiyotingni qil. Shaharda o'qigan bo'lsa, mana bunday desa, ana o'shanday o'zi tengi qizlar ko'p, shulardan biriga uylanib olmaydimi? Balki, Salqinni shunchaki sinab yurgandir, kim biladi, xayolida qanday o'y bor ekan.

Bir kuni ikkisi ovqatlanib o'tirganda Salqin gapni atay shu tomonga burdi.

"Men siz haqingizda hamma narsani bilaman..."

— Nimani?

Turg'unbek o'rindiqqa suyangan ko'yi ancha vaqt indamay qoldi.

— O'sha, o'zing bilgan gaplar, — dedi o'ksigan ko'nglini yozib o'tirmay. Keyin chuqur xo'rsinib ko'zlarini yumdi. Ikkisi ikki tomonga surilib olishdi. Oradan soat emas, oylar o'tib ketganday bo'ldi Salqinga.

— Meni o'shandan keyin izladingizmi? — Salqin ichki bir og'riq bilan so'radi.

— Yo'q, — birozdan keyin tilga kirdi u. — Men seni to'rt yildan beri izlab kelaman. Boshimga qayg'u tushganda seni unutibman ham. Keyin ish bilan o'zimni ovutib yurganimda yana yodimga tushding. Shunday qilib, seni yana izlay boshladim. Oxiri topdim, biroq sen meni xafa qilishdan boshqasini bilmaysan.

Ikkisining so'z bir-biriga qovushmay qoldi. Turg'unbek so'z tizginini qancha boshqa mavzuga burmasin, qayerdandir aylanib kelib turmush qurish masalasiga kelib qolaverdi.

— Men senga ko'p gaplarni aytishga tayyor bo'lib kelgan edim, lekin aytolmadim.

— Ayta qolsangiz-chi.

— Yo'q, men bunday kayfiyatda ayta olmayman. Bo'pti bo'lmasa, men ketay. Eshik yopilganda Salqin biroz yengil nafas oldi.

* * *

O‘shandan keyin oradan ko‘p vaqt o‘tdi. Turmushda ham, shaxsiy hayotda ham ko‘p o‘zgarishlar yuz berdi. Bu qismat, yoziq degani katta falsafa emasmi?

Taqdirga yozilgandan qutulish sira mumkin emas ekan. Qanchalik baland tog‘larga qo‘l uzatganing bilan manglayga yozilmasa, ancha-muncha to‘siqlardan o‘ta olmaysan. Boshga kelganining hammasini taqdirga yuklab, ilojsiz bosh egib o‘tira beramiz ekan. Turg‘unbek bilan Salqin ham ko‘p esda qolarli kunlarni birga o‘tkazishgani bilan hayot to‘siqlaridan qo‘lni qo‘lga berib o‘tish baxtiga yetisha olmadilar. Ro‘zg‘orning tutunini ikki joydan chiqarib, ikki joyda yig‘lab-kulib, ikki uyning yukini har biri o‘zi tortib keladilar. Ular hatto bir-birlarining ahvolini bilishga ham intilishmaydi. Biroq Xudoning irodasi bilan yo‘llari kesishib qolaveradi.

Salqin Baliqchidagi bir ishxonaga komandirovkaga kelib, qaytishda katta yo‘lga chiqib, o‘tgan mashinalarga qo‘l ko‘tara boshladi. Unga o‘xshab yo‘lga chiqqanlar ko‘p ekan, yo‘l chetida har qaysi joyda to‘p-to‘p bo‘lib mashina to‘xtatib turishadi. Shu vaqtda bir oq “Volga” xiyla o‘tib to‘xtadi. Qo‘l ko‘tarmaganimdan keyin menga to‘xtarmidi, degan o‘yda Salqin ortiga qayrilmadi. Qorong‘i qilingan oynadan kim ekanini ham ko‘rmayotgan edi. Birdan eshigi ochildi-yu, Salqin Turg‘unbekni ko‘rdi. Ancha ulg‘ayibdi, et qo‘yibdi, sochlariga oq oralabdi. Vaqti-vaqti bilan oynadan orqaga qarab qo‘yayotgan haydovchidan xijolat bo‘lib ochilib gaplasha olishmadi. Shunday bo‘lsa ham, qishlog‘igacha safardosh bo‘lib keldi.

Oradan ancha vaqt o‘tib, ular yana uchrashishdi. Sutdek oydin kecha edi. Darvoza ohista chertildi. Salqin birpas quloq solib turdi-da, “kim bu?” dedi. Javob bo‘lmagandan keyin darvoza tomonga qadam tashladi-da, u yerda turgan bir odam jussasini payqadi.

— Qandaysan? — tanish ovoz chiqqanda Salqin taxtadek qotib qoldi. Oyning yorug‘ida ikki qo‘ltig‘ida ikki tarvuz ko‘targan Turg‘unbekni ko‘rdi.

— Yuring, o‘tirib so‘zlashamiz.

Turg'unbek tarvuzlarni darvozaning ichki tomoniga qo'yib, nariroqda turgan mashinaga qarab yurdi. Mashina eshigini ochib bergan haydovchisi ular o'tirgandan keyin o'zi tashqarida qoldi.

— Bolalar yaxshimi? Salomatliging qanday? Ishlaring? — Turg'unbek ustma-ust savollar yog'dirgandan so'ng chuqur xo'rsindi-da:

— Turmush degani past-balandi bilan qiziq emasmi? Istagan narsalaringning hammasi ham senga muyassar bo'la bermas ekan. Men keyingi kezlarda ko'p o'ylaydigan bo'ldim. O'z qo'limizda turgan baxtni ushlay olmabmiz. Taqdirimga bosh egganim bilan seni butunlay unuta olmadim. Hali ham kech emas, hammasini qaytadan boshlasak qanday bo'ladi? — javob kutib biroz turgandan so'ng: "Nima deysan?" deganday, Salqinning qo'lidan tutdi. Salqin jiddiy tarzda javob berdi:

— Biz endi bola emasmiz. Xudoga shukur, oq-qorani, yomon-yaxshini tanib qoldik. Birinchi xotin bo'lib qo'sha qariganga nima yetsin. Ammo agar ayoli vafot qilib o'lim ularni ajratgan bo'lsa yo boshqa bir sababdan ajrashib ketgan bo'lsa, ikkinchi xotin bo'lish uncha yomon emas. Men esa uchinchi xotin bo'lishni istamayman...

Shunda Turg'unbek qo'lini shartta tortib olib, chuqur uh tortdi.

— Xo'p yaxshi. Bo'lging kelmasa, yaxshi qol, — der ekan, eshikni shart ochib, haydovchini chaqirdi: "Seryoja, poyexali". Bu so'zlari qaltirab chiqdi. Salqin indamasdan tushib, uyi tomonga qarab yurdi. Nimadagadir yaxshiroq xayrlashishni ham xayoliga keltirmadi...

Kunlar oyga, oylar yilga almashib, oradan ko'p vaqt o'tdi. Bir yili tumandan budjetdagi tashkilotlarni bosgan tekshiruv bir oy chamasi davom etdi. Bir kuni moliya bo'limining boshlig'i bosh hisobchining uyiga borib, mehmonlarga sal qarab qo'yaylik, deb chaqirib qoldi. Mehmonlar o'tirgan bo'lmaga boshini suqqan edi, to'rda o'tirgan Turg'unbekni ko'rdi.

— Kelinglar, qizlar! — dedi o'rnidan turib Turg'unbek. Keyin unga yonidan joy ko'rsatib qoldi, — siz bu yerga keling, yonimda o'tiring.

O'tirmaslikning iloji yo'q edi.

Turg'unbekning o'zida yo'q xursand bo'lganini ko'rdi, o'ziga ko'p e'tibor berayotganini boshqalar sezmasin deb o'tirar edi. Biroq baribir ular payqashdi.

Ikki kundan keyin "Orangizda qanday munosabat bor?" deb so'rab qolishdi. Yo'q, birinchi marta ko'rishim deganiga sira ishonishmaydi. O'sha kundan boshlab Turg'unbek bayramlar kelgani sayin qo'ng'iroq qilib tabriklashni odat qilib oldi.

— Oldinda qancha umrimiz qoldi, kim biladi, — dedi u. — Hech bo'lmaganda shirin so'zingni ayamay yo'qlab tur. Taqdirimni bilmay to'rt yil izlab sarson bo'lganimda, Yaratgan mening umrimga azob ham, armon ham shu bo'ladi deb belgilagan ekan chog'i.

Qachon va qayerda bo'lishimdan qat'i nazar, o'sha kezda yonimda bo'lsang edi, degan niyat yuragimdan chiqadi-yu, yana yuragimga nishtar uradi. O'zing bir marta bo'lsa ham qo'ng'iroq qilib, holimni so'rab qo'yishgan yaramaysan. Mayli qo'ng'iroq qilmasang, ammo men sen bilan so'zlashgim kelganda, loaqal javob berib tur, ma'qulmi?

— Ma'qul...

MIRZOHALIM KARIMOV

MAJNUNTOL

Harbiy xizmatni o'tab yaqindagina kelganman. Bir kuni g'ira-shirada otam meni shirin uyqudan uyg'otdi. Apil-tapil kiyinib tashqariga chiqdim. Bostirma tomonda otam to'riq qashqani shoshilib egarlayotganini ko'rib, noxush o'ylarga bordim. "Agar bir kori-hol bo'lmaganida u anavi paxtalik eski choponini, rangi o'chgan charm mahsisini kiyib chiqmas edi. Chamasi biror narsa bo'lgan".

Otamning yoniga kelsam, uning qovog'i soliq, ko'zlari mungli edi.

— Ikkovimiz anavi Cho'ngtoshga borib, xabar olib kelaylik-chi. O'yqayindan molchilar kelishgan ekan. Saharlab borib so'rasam, "Toshqo'rg'onning sharq tomoni nurab, ichida qo'y, echkilar o'tlab yurishibdi", deyishdi. Harom o'lgurlar yomon haris bo'lishdi o'sha tolga. O'tgan yili ham devordan sakrab o'tishib, mo'rab ketishgan edi. Yur bolam, otni qiynamay salqinda yetib olaylik, — dedi otam.

Men chetan tagidan oqib o'tgan ariq bo'yiga ketdim. "Mehnat bilan o'stirgan toliga kuyunib, o'shanga shoshilayotgan ekan-da", deb o'yladim yuz-qo'limni yuvayotib. Artingani uyga kirsam, oyim mehribonlik bilan:

— Harbiydan yaqindagina kelgan eding, durustroq dam olgan qo'ymadi-yu seni, sadag'ang ketayin. Otang hoziroq jo'naymiz dedimi?

— Ha, hozir ketamiz dedi.

— Aqalli bir piyola choy ichib ol...— Oyim hadeb yalinishini qo'ymaydi. Men eshikka yuzlanganimda:

— Ma, bolam, o'sha yoqqa borib yeysizlar,— dedi va yog'li qatlama va non tugib berdi. Otam ikkimiz to'riq qashqaga mingashib, yo'lga tushdik. Qishloq hali uyquda. Qishloqdan uzoqlash-

ganimiz sari otam o'zicha bir mungli, odamni sel qilib yuboradigan tojikcha ohangni xirgoyi qilib, boshini bir tomonga qiyshaytirib, otning yurishiga mos chayqalib borar edi. Men bu ohangga unchalik ahamiyat bermay, ikki yildan beri ko'rmaganim, kindik qonim tomgan ota yurtim— tojik zaminiga, unda ko'zimga ko'ringan tog'-u tosh, o'ru qir, suvlarni, umuman, jamiki manzaraga to'ymay boqib, yo'l bo'yi o'tgan voqealarni xotirlab borar edim.

* * *

To'riq qashqa otam uchun jonidan ham aziz. Otam uni shunchalar yaxshi ko'radi-ki, ishonsangiz uni toychoqligida Olaydan sotib olganidan buyon kecha-kunduz o'sha bilan andarmon. Har zamonda jildirib arqonlab, sug'oradi. Kechki payt yumshoq tuproqqa "g'usl qildirib", keyin yog'och taroq bilan tarab, silab-siypalaydi. Qosh qorayganda og'ilga kirgizib, yemto'rvasini bo'yniga iladi. Koshki shu bilangina bas qilsa. Tuni bilan ikki-uch bora borib, otiga nimalarnidir aytib, guvranaveradi. Otamning bu f'eliga dastavval obdan suyunib yursam ham, keyinchalik, ayniqsa, harbiyga chaqirilgan paytlarimda ichimda norozi bo'lib yurdim. Bir safar harbiyga ketadigan kunlarim otamning bu mashaqqatlariga rahmim kelib:

— Ota, to'riq qashqa sizga juda azob bo'ldi. Shundan ko'ra sotib yuborib, Xudo deb yotavermaysizmi?

Otamning avzoyi buzildi.

— Sotib yubor deganing nimasi? Mening butun umrim ot bilan o'tib kelayapti. Ho'-o'v qiyinchilik yillari uzzukun otdan tushmay yurganmiz, bolam, u paytlarda hozirgidek mashinalar qayoqda. Men bilib turibman, sizlar to'riq qashqani sotib, o'rniga to'rt ko'zli "Jiguli" olsak degan niyatdasizlar. Men hech qachon otni sotmayman. Mashina senga shunchalar zaril bo'lsa, eson-omon harbiydan kelgin....

Mana senga qarimtasi! Otamning nozik toriga tegib, izza bo'lganim hanuz yodimdan chiqmaydi. Ammo rostini aytganda to'riq qashqaning f'eli, esliligi otamning unga bo'lgan mehr-muhabbatiga arziydi. Qaysidir yili qishloqda "Hukumat otlarni olar emish" degan mish-mish o'rmalab qoldi. O'shanda otam otning

yoniga borib, qizlarning yolidan ham qop-qora yolini silay bergan. O'sha xabar eshitilgan kuni tuni bilan mijja qoqmadi. Ertasiga ham. Qo'qqis past tomonda mashina ovozi kelib qolsa, "Ko'chaga borib payqachi, o'g'lim. Qanday mashina ekan bilib kel. Agarda ot oluvchilar bo'lsa, darhol bu yoqqa chop", degani hamon qulog'imda. Ha, "Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi" deganlari rost ekan. O'sha xabardan ikki kundan keyin, jamoaning bir to'da faollari kech kirganda kelishdi. Ular kimlarda ot borligini besh qo'llariday bilishar ekan. Eng avval biznikiga kirishdi.

— Oqsoqol, yuqoridan buyruq keldi. Otni topshirasiz,— dedi ulardan biri.

— Men otimni bermayman!— dedi otam g'azab bilan.

— O'zingiz mansabdor kishi bo'la turib, qonunni tushunib turib, shunday qilasizmi?— qizg'ish mo'ylovli, gerdaygan kishi ovozini bir parda ko'tarib so'radi.

— Hammasini tushunaman, lekin...— Otam "lekin" deganicha jim bo'lib qoldi.

— Lekin deganingiz nimasi?

— Lekin deganimmi?— Endi otamning ham battar jahli chiqdi.— Agarda otni ola ketadigan bo'lsanglar, meni ham qo'sha olib ketinglar!

— Sizni nimaga?— deb so'radi o'sha kishi hayron bo'lgandan aftini burishtirib.

— Chunki mening jonim to'riq qashqaning joni bilan birga. Ikkinchidan, ot bilan umrim o'tib, ot bilan birga yashab kelayapman.

Shunday qilib otam to'riq qashqani ularning changalidan qutqarib qoldi. Ular shu ketganicha bedarak ketdi. Biroq, boshqalarning otlarini oh-u voylariga qaramay yig'ishtirib ketishdi. Bu g'avg'olar baribir otamni bezovta qilaverdi. Bir kuni ertalab tursam, otam ham, to'riq qashqa ham yo'q. Oyimdan so'rasam, "Otang to'riq qashqani yashirgani Oloy tomonga olib ketdi", deb ogohlantirdi.

Haqiqatdan ham otam otni qayoqadir yashirib, uch kundan so'ng qaytib keldi. Kayfiyati chatoq, sirkasi suv ko'tarmaydi.

Tovba deyman, o'sha kechasi uxlamasam ham to'riq qashqaning kishnagani, faryod chekkani qulog'imga eshitilib turdi. Alla

mahaldan so'ng eshik oldida ot dupuri eshitildi. Ayvonimiz hamisha yorug' turardi. O'rnimdan turib, pardani ochib qarasam to'riq qashqa yaydoq holida eshik oldida quloqlarini dikkaytirib turibdi. Suyunganimdan qiyqirib yubordim:

— Ota, ota! To'riq qashqa kelib qolibdi!

— Nima, nima?— ichkargi uydan otamning ajablangan ovozi eshitildi.

— To'riq qashqa kelibdi deyman!

Otam choponini shunchaki yelkasiga tashlab, yugurib chiqdi. Ikkalamiz tashqariga chiqdik. To'riq qashqa otamni ko'rishi bilan "guvranib" yoniga keldi. Burnini otamning yengiga surtib hidladi. Otam uning yolini o'ng qo'li bilan silab:

— Sen...keldingmi, meni kutmasdan keldingmi?— dedi. Otamning ovozi yig'lamsirab, bo'g'riqib chiqdi. U ko'pgacha otning yolini, quloqlarini qashib turib, keyin menga:

— Bor, bolam, sen uxlayver, — dedi.

Men ichkari kirib joyimga yotib oldim. Oyim ham chiqib, darrov qaytib kirdi. Unga ham "Kirib yot" desa kerak. Otam esa, chamasi ikki soatlardan so'ng kirib yotdi. Nima qilganini, otni og'ilga kirgizgan kirgizmaganini otamdan so'ramadim.

— Chuh polvon, chuh.— Otamning ovozi xayollarimni to'zg'itib yubordi. Bundoq qarasam, to'riq qashqa Ulko'l soyining labiga kelib qolibdi. Suv bir xiyla ko'tarilib, haybatli ko'rindi ko'zimga. Ilgari biz yaylovga chiqib yurgan paytlarimizda sayozgina edi.

Soydan o'tganimizdan so'ng otam boyagi g'amgin ohangini yana xirgoyi qila boshladi. Men uning titroq ovozini eshitib ketayotib, negadir otamga rahmim kelib, inday olmayman. Jimgina mungli ohang sehridan sarxush bo'lib, birozdan so'ng butun vujudim bilan o'sha ohang ka'riga singib ketaman

* * *

U paytlar men yosh edim. To'rtinchi yo beshinchi sinfda o'qisam kerak. O'sha yillari biz har yili erta bahorda elga qo'shilib Kengyurtga yaylovga chiqar edik. Yoz bo'yi, jamoaning ekintikinlari yig'ishtrilib bo'lguncha ko'chib-jilib o'tirib, qishloqqa ya-

qinlashib, nihoyat Qo'shtepadagi GESning biqiniga muqim qo'nar edik. Bu yerdan qachongina jamoa ruxsat berganida qishloqqa ko'char edik.

Rostini aytsam men yaylovni jinimdan battar yomon ko'rar edim. Yaylovdagi mashaqqatlar me'damga urgan edi. Sahari mardondan boshlab, shomgacha echki qo'ylar bilan "jang" qilib yurgan paytlarimda, tezroq kuzga yetsam-u, ahyon-ahyonda kino, o'yin-tomoshalarga borib tursam deb orzu qilar edim. Bunisiyam holva ekan, mening zimmamga yana bir bedavo yumush yuklandi. O'shandan boshlab meni majnuntolning azob-u qiynaganlari sira yodimdan chiqmaydi. O'sha majnuntolga har kuni Ko'ksuvdan bir chelak suv keltirib quyish mening qat'iy majburiyatim edi. U biz yashagan uydan bir chaqirim olisda edi.

O'sha yili yaylovga chiqib kichik kulba tiklab, hamma narsani sarishta qilganimizdan keyin, otam qishloqdan olib kelgan bir tup majnuntolni avaylab qo'liga olib:

— Yur bolam, mana bu tolni ekib kelaylik,— dedi.. Men nega bu tolni ekishimiz kerak, deb so'ramadim. Otamga erkalab, pildirab yo'lga tushdim.

Otam ikkimiz ensiz so'qmoq bilan Ko'ksuvni bo'ylab yurib o'tirib, bir do'ngchaga, qadim zamonlarda tog'dan qulab tushgan katta-katta toshlarning yoniga kelib to'xtadik. Otam menga "Ko'p uzoqqa ketib qolmagin", deb tayinlab o'zi ishga kirishdi. Men sakrab o'ynab, gul terish bilan mashg'ul bo'ldim.

Allamahaldan so'ng otamning yoniga yugurib kelsam, negadir u ko'ziga yosh olib, allaqachon o'tqazib bo'lgan ko'chatning yonida fotiha o'qiyotgan ekan. Kayfiyati tushkun, chehrasi tund. Menga qarab ham qo'ymadi. Toldan ko'zini uzmay, nimalarnidir shivirlaydi. Shunda ilk bor birovdan dakki yegan boladek o'yinqaroqligim, sho'xligim qolib, ichimdan xufiya ezildim. Men otamning bu ayanchli ahvolini ko'rmaganimda, qandaydir mavhum bir jumboqni his qilmagan bo'lardim. Otamdagi og'ir ruhiy kayfiyat menga ham o'tib, yonida qimirlamay, "Yur, ketdik" degan buyrug'inigina kutib turdim. Shu og'ir sukunatdan so'ng tamoman boshqacha buyruq, ogohlantirish oldim.

— O‘yinqaroqligingni qo‘yib, bundan buyon har kuni bir paqirdan suv quyib turgin tolga. Qurib qolmasin. Eshitdingmi?— Otam narsalarini yig‘ishtirib, “Yur endi ketdik” deganday ortiga burildi.

— Xo‘p ota,— dedim jovdirab unga ergashib. Biz kulbamizga yetgunimizcha hech so‘zga kelmadik. Gohida erkaligim tutib, oldini to‘sayin deyman, lekin otam boyagi tojikcha hazin ohangini boshlaganini eshitib, astoydil quloq tutaman. Ha, otam bu ohangni doim olis yo‘lga chiqqanda, ayniqsa, ikkalamiz to‘riq qashqaga minib, yaylovga yo qishloqqa jo‘naganimizda kanda qilmasdi. Keyin yanglishmasam, hamisha shu Cho‘ngtoshga yaqinlashgan sari ovozi bora-bora pasayib, ro‘parasiga yetganda butunlay uni o‘chib, ko‘pdan keyin ikki kaftini peshonasiga tutib, manglayidan pastga tomon silab qo‘yardi. Hozir esa, yo‘limiz unchalik olis bo‘lmasa ham, otam yana o‘sha hazin ohangini xirgoyi qildi... Kulbamizga yetganimizda oyimning “Butdinglarmi?” degan savoliga boshini saraklatib qo‘ydi, xolos. Shunda men o‘zimcha rosa xavotirlandim. “Mumkin otamni oyim biror narsa deb xafa qilgandir...” Chiday olmay o‘choqqa tezak qalayotgan oyimning yoniga yugurib kelib, qulog‘iga shivirladim:

— Oyi, otam nega buncha xafa?

— Ovozingni o‘chir!— dedi oyim jerkib,— jim o‘tir.

Hech narsaga tushunmay oyimdan dakki eshitganimga xafa bo‘ldim. Shu kecha yotar mahalgacha hech kimdan sado chiqmay, jimgina o‘tirib ovqatlangach, joyimizga kirib uxlab qoldik.

Tol jonivor tez kurtak chiqarib, ko‘kari ketdi. Keyinroq otam uni hayvonlar nobud qilib ketmasin, deb chirqo‘noq bilan chetanlab, soydan tosh tashib, atrofini xuddi go‘rga o‘xshatib o‘rab qo‘ydi. Tol endi tosh qo‘rg‘onning ichida ingichka, uzun shoxlari qizlarning mayda o‘rilgan sochlaridek shokila-shokila bo‘lib emin-erkin o‘sa boshladi. Birgina men har kuni kelib, unga hayot baxsh etib, suv quyib ketaman. Quygan suvimning uning tagiga singib ketishiga qarab turib, keyin yo‘limga tushaman. Shunday toshloq yerda yolg‘iz majnuntolning qulf urib turishi yo‘lovchilarning e’tiborini unchalik tortmadi ham. O‘tgan-ketganlar beparvogina nazar tashlab o‘tishaveradi.

* * *

Oradan yillar o'tib, men o'ninchini bitirgach, yaylovga chiqmay qo'ydik. Chunki yaylov degani ko'pchilikning ishi. Aqalli qo'zi, uloqlarga qaragani dastyoring bo'lmasa, sira iloji yo'q. Yolg'iz, dardmand oyimning qo'lidan nima kelsin. Mendan kichiklari bo'lmasa, yaylovning ming bir ikir-chikirlarining qaysi biriga ulgursin? Men esa ulg'ayib, qo'zi, uloqning ketidan chopishni ep ko'rmay, oliy o'quv yurtiga jo'namoqchiman-da. Sigirni esa, insofliroq birovga berib, "Ma suti ham, yog'i ham seniki", deyiladi. Menga kuzda ro'zaga biroz qurut, insof qilsang, biroz moy berarsan", deb qo'sh qo'llab tutqazadi.

Harbiy xizmatni o'tab yurganimda otamdan uzluksiz xat kelib turdi. U ko'p yillar sho'ro idoralarida, xo'jalik ishlarida ishlab, qog'oz qoralab yurgan bo'lsa ham dastxatini o'qish juda qiyin edi. Uning o'sha egri-bugri xarflari, qalamning uchi bilan cho'qib qo'ygan vergul, nuqtalari men uchun har qanday mohir xattotning yozuvidan azizroq edi. U xatlarida hamisha "Cho'ngtoshga borib, toldan xabar olib turibman. U hozir juda ketvorgan tol bo'ldi" deb, o'sha majnuntol haqida yozishni unutmasdi. Biroq o'sha yerda qanday sir borligini aytgan ham emas, xatlarida ham yozmagan edi. Bu xususda men ham o'ylab ko'rmaganman, aniqrog'i hech qiziqib ko'rmabman.

* * *

Biz Cho'ngtoshga tushga yaqin yetib bordik. To'rt-besh yilning ichida boyagi ekkan majnuntol rosa ko'kka bo'y cho'zibdi. Nozik novdalari bizni olqishlayotgandek mayin shabadada ohista tebranadi. Tosh chetanning avvalgisi buzilib, biroz kengaytirilibdi. Yana bir ajablanarli joyi— tolning shoxlariga qizil matolar bog'lanib qolibdi. Bu lattalar tosh qo'rg'onning ichida kimningdir mozori bor ekanini bildirib turar edi. Men endi o'zimni otamning oldida gunohkordek his qila boshladim. Demak...

— Ko'rdingmi bolam, qanday obod qilib qo'yganimni,— dedi otam, to'riq qashqani o'tga qo'yib kelgandan keyin.— Endi yonimga kelib o'tir,— dedim otam. Ketma-ket yo'talib olgach og'ir ushkirib oldi. Soqol mo'ylovini silab, ikki ko'zini toldan

olmaydi. Men uning yonida chordona qurib o'tirib, "Biror narsa aytarmikin", deb ilhaqman. Otamning xayollarini buzgim kelmadi. Ayni damda jimjitlik hukm surib, chor atrofimizdagi tog'-u tosh, jamiki jonzot, hatto, ko'kka bo'y cho'zgan majnuntol ham yaproqlarini qilt etkizmay, nozik novdalarini quyi egib, otamning qalbiga quloq solgandek, og'ir sukunat qa'riga g'arq bo'lganday edi. Qarshimizda arqonda turgan to'riq qashqam bu og'ir sukunatni sezib, hamdardlik bildirganday, tek turibdi jonivor.

— Mana bu tolning tagiga sening katta amakingning qoni tomgan,— deb so'z boshladi otam. Uning dastlabki so'zlarini eshitganimdayoq yuragimga nashtar tekkandek vujudim zirqirab ketdi.— Sen u amakingni ko'rgan emassan. Men hozir senga hammasini aytib beraman. Gazetaga yoza qoladigan odating bor, tag'in buniyam yozaman, deb ovora bo'lib yurma. Jinoyatchilar jazolarini olishgan. El-yurt eshitsa yaxshi emas....Boz ustiga tushungan bor, tushunmagan bor. Bizning vodiyda bosmachilar bilan olishuv avjiga chiqqan paytda, katta amaking jamoaning raisi edi. O'zi uzun bo'yli, shijoatli, aytganidan qaytmagan haqiqatgo'y, niyati pok kishi edi. Kezi kelganda tuman kazo-kazolarining ayblarini ham qo'rqmasdan yuziga aytar edi. U vaqtlarda ocharchilik, alomat davrlar edi. Birovlar jamoaning yumushini sidqidildan bajarib, haloldan non yesa, boshqalari ombordan don o'g'irlab, bir navi jon boqishardi. O'g'rilarni, yo'ldan chiqqan uyatsizlarni, ba'zi nafsi buzuq kattalarning adabini bergan. Shu boisdan dushmanlari ko'payib, uni gumdon qilish payida bo'lishgan. Bosmachilar, ayniqsa, amakingga o'xshagan faol komsomollarni, muallimlarni qiynab, ayrimlarini ko'pkari qilib o'ldirishgan. Nihoyat o'zimizning qishloqdan bir qonxo'r kishi bosmachilarning topshirig'i bo'yicha katta amakingning payiga tushadi....Bu vaqtda bosmachilar katta kuch to'plab, Jergatoldagi Hukumatning qal'asini qurshovga olishadi. O'shanda Dushanbe tarafdan samolyot kelib qoladi. Samolyotdan qo'rqqan bosmachilar tog'ga qochib ketishadi. Qochib borayotgan bosmachilardan birini amaking tutib olib, o'zini jamoa omboriga, otini esa fermaga qamab qo'yadi. Buni bosmachilarning boyagi josusi sezib qolib, kechasi yashirinib kelib, bosmachini qochirib yuboradi. Ertasiga amaking saharlab

turib, bosmachini tuman markaziga olib borish uchun ikki kishini ergashtirib kelsa, eshik ochiq, bosmachi yo'q. "Ishni xom qilgan ekanman", deb fermaga borsa ot ham yo'q.

— Ot qani?— deb so'raydi Qo'ldosh mergan degan podachidan. Kechasi bosmachining otini o'shanga topshirgan ekan.

— Ertalab yechilib ketib, Delvak tomonga qochib ketdi. O'ta asov ot ekan, ortidan quvib yetolmadim,— deydi u. Katta amaking achchig'lanib, darhol Devak tomonga jo'naydi. Qo'ldosh mergan ham ergashib oladi.

— Sen anavi mollarni qara, bormay qo'yaqol,— deydi amaking. Ammo Qo'ldosh mergan yelimday yopishib oladi.

— Yo'q, rais aka, hozir o'ta xavfli payt. Chor tarafda bosmachilar izg'ib yurishibdi, sizga shikast yetkazib qo'yishmasin tag'in, — deydi g'amxo'rlik bilan.

Katta amaking laqqa tushib, uni ergashtirib oladi. Ikkalasi tog'-u tosh, daralarni, eski odamlar yashab ketgan kapalarni qidirib o'tirib, Delvakning ro'parasidagi Olmaliq jilg'aning cho'qqisiga kelib to'xtashadi. Katta amaking atrofga yaxshilab nazar solsa, hech narsa ko'rinmagach, ortga qaytishni o'ylaydi-da, Qo'ldosh merganga:

— Ey Qo'ldosh, bu yerda ot tugul balo ham yo'q-ku?— deydi.

Shunda Qo'ldosh merganning ko'zlari yonib, amakingga hamla qiladi.

— Men seni bu yerga nimaga olib kelganimni bilasanmi? Ikkala qulog'ing bilan uqib ol, kofir. Men seni o'ldirgani olib kelganman!

Bu orada Olmaliq jilg'aning ichidan odamlar tayoq, bolta ko'tarib chiqishib amakingni och bo'riday o'rtaga olishadi. Hashpash deguncha amaking besh-oltitasini dumalatib, tik qiyalikdan qochmoqchi bo'lganda, bittasi cho'qmor bilan o'ng qo'liga uradi.. Qo'li tirsagidan yuqoriroqdan shartta uzilib ketadi. Chap qo'li bilan singan qo'lini ushlab qochib jo'naydi. Shu Cho'ngtoshning yonidan o'ta berganda, poylab yotgan yana bir qonxo'ri boshiga xoda bilan tushiradi. Shu zahotiyoq amakingning burnidan qon sharillab otilib, jon beradi. Saldan keyin qolgan qonxo'rlar ham yetib kelishib, amakingning tanasini ikkiga bo'lishib, Cho'ngtosh-

ga emas, boshqa yoqqa ko'mishgan ekan... Shunday qilib o'g'lim, biz undan to'satdan judo bo'lib, qon qaqshab qolaverganmiz. O'lik-tirigining tayini yo'q. Sarobday g'oyib bo'ldi-ketdi.

Oradan yillar o'tib, men amaking izidan borib, partiya safiga o'tdim. Urush yillarida jamoa raisi, qishloq sho'rosining raisi, tuman ijroqo'mi bo'lib ishlab yurdim. Shu uzoq yillar davomida amakingning kuyiti dilimni borgan sari o'rtab, uning qonini kimlar to'kkanini zimdan surishtirib yurdim. "Qing'ir ish qirq yildan keyin ham bilinadi", deganday ularning bir nechtasini aniqladim ham. Biroq bo'yniga qo'ygani dalilim yo'q edi. Ko'pchiligi hamqishloqlarim ekan. Bittasi haligi Qo'ldosh mergan bo'lib chiqdi. Qolganlari urushga ketib o'sha yoqlarda gumdon bo'lishdi. Qo'ldosh mergan esa, yaqin yillargacha yashab, o'limi oldidan "Akangni o'ldirganlardan biri men edim, murdasi Olmaliq jilg'ada", deb batafsil aytib berib, keyin ko'z yumdi.

Shunday qilib o'g'lim men doim Olmaliq jilg'aning ichini qidiradigan bo'lib qoldim. Qanday qilib bo'lsa ham, amakingning suyagini topish kerak edi. Bu mening abadiy armonim bo'lib qolgani uchun, uning suyagini topib, bir yerga ko'mishim shart bo'lib qoldi. Arslonday alp, yolg'iz amakingning aqalli suyagi nasib qilmaganiga cheksiz o'rtandim.

Oradan o'ttiz yil o'tgandan keyingina amakingning suyagi topildi. Kuz mahalida bir to'da yigit-qizlar Olmaliq jilg'aga kelishib, qiyalikdagi yovvoyi olmani qoqishsa olmalar dumalab borib, bir chog'roq teshikka kirib ketaveribdi. Teshikni oyog'i bilan tepkilashsa, tovoqdek yeri "gup" etib pastga tushib ketar ekan. Chuqurning maxsus qazilgan o'ra ekanligi bilinib turardi. Ichidagi tuproqni u yoq, bu yoqqa surib qarashsa, odamning bo'yni, boshi, qovurg'alari yotgan ekan. Men bu gapni eshitgach, ertasiga darhol yetib kelib, amakingning suyagini mana shu qoni tomib, joni chiqqan Cho'ngtoshga dafn qildim. Belidan pastki tomonini hanuz topganim yo'q. Eshitishimcha, rostmi yo yolg'onmi Otyaylov tomonga ko'mishgan deyishadi. Kim bilsin...

Otam hikoyasini tugatib, anchagacha xayolga cho'mdi. Hikoya sehridan ko'pgacha Ko'ksuvning shovullashini ham eshitmay, osoyishta tabiatga mahliyo bo'lib qolibman. Mana shu

osoyishta, og'ir daqiqalar davomida shu kungacha menga jumboq bo'lib qolgan voqealarning bari tasavvurimdan birma-bir o'tdi.

Otamning yuragidagi kuyiti, siri endi menga ma'lum bo'lgan edi. Nega otam hamisha chehrasi tund, g'am-g'ussaga botganida qir pastiga arqonlangan to'riq qashqaning yoniga borib, yaltillagan yolidan silaganicha va boshini uning bo'yniga qo'yganicha qolar ekan desam otam to'riq qashqaga butun dard-u hasratlarini izhor qilar ekan-da. O'shanday paytlarda to'riq qashqa ham bir narsani sezganday, quloqlarini dikkaytib, tek qotib qolar edi. Endi o'ylab ko'rsam, yo tovba, to'riq qashqa otamni bizdan ham ziyoda hurmat qilar ekan. Qarang-a, bu og'ir g'amni yolg'iz otamgina emas, to'riq qashqa ham qo'sha tortib yurgan ekan-da. Yilqi jonivor uning g'am-anduhini birga baham ko'rgan hamrozi ekan-da....

Men endi kezi kelganda, hali maktabga bormagan paytlarimda Sobira kampirning biznikiga kelib, "Sen yeding! Sen yo'q qilding!" deb otamni qarg'ab yig'laganlarining, hamda Ermat ustaning "Sening otang bir vaqtlar mening kupaykamni tortib olgan", deb yeb yuborgudek tikilishlarining sababini ham so'rayman. Otam ularga nima yomonlik qilgan ekan deb ko'pdan o'ylanib kelaman.

...Bir kuni otam bularning ham sababini aytib berdi.

— Sobira kampir bilan Ermat ustaning voqealari bunday bo'lgan, o'g'lim. Sening ularga rahming kelib yurishini ham bilaman. Ular hanuzgacha menga kek saqlab yurishadi. Rost, Sobiraning yolg'iz o'g'lini urushga jo'natib yuborganman. U paytlarda talab, vaziyat shunday edi. Kampirning o'g'li urushda qahramonlarcha halok bo'ldi. Shuning uchun uning qarg'ishiga qolganman. Ermat esa, urushdan qochib kelib, kunora tegirmonga o'g'irlikka tushib, jamoaning front uchun g'amlagan bug'doyidan o'marib, oxiri qo'lga tushdi. Qilmish ishi uchun qamatib yuborganmiz.

Otam nafasini ichiga yutib, og'ir xo'rsinib oldi. Men uning kosasiga botib ketgan hasrat to'la ko'zlariga qarashga botina olmay, ichimdan zil ketib o'tirdim. Uni butun farzandlik mehrim bilan bag'rimga mahkam bosib, og'ir musibatini qo'sha tortgim kelar

edi. Uning majnuntolning bo'yi-bastiga hasrat bilan tikilib o'tirishi, qaltiragan oriq qo'llari, bo'rtib chiqqan yonoqlari ko'zimga behad ayanchli ko'rinib, ichimni zahar-zaqqum o'rtagandek og'ir ahvolda edim.

— Shunday o'g'lim,— dedi u ko'pdan keyin, o'rnidan turib etagini qoqar ekan.— fidoyi amakingning nomi, oz bo'lsa ham farovon hayot uchun qo'shgan hissasi shu tolning umri tugaguncha o'chmasin, deb xotira uchun ekkanman.

Otam majnuntolga havas bilan bir qarab qo'yib, ortiga burildi. Yolg'izgina majnuntolning yaproqlari mayin shabadada sirli shivirlar edi.

Biz tosh chetanning nuragan yerlarini asliga keltirib qo'yib, kechga yaqin qishloqqa ravona bo'ldik.

BEYSHENBAY USUBALIYEV

1954-yilda tug'ilgan. Qirg'iziston Milliy universitetining filologiya fakultetini bitirgan. Filologiya fanlari doktori, professor. Xalqaro Chingiz Aytmatov akademiyasi akademigi. Ko'plab qissa va hikoyalar muallifi.

MING

(Hikoya)

Akmat bilan qizi tong-sahardan yo'lga hozirlik ko'ra boshlashdi. Ular shaharga borishmoqchi. Akmat avvaliga unamadi: "Bir marta bo'lsa ham ko'rmagan bo'lsam, uyat-da...". Buni eshitib xotinining avzoyi buzildi:

— Kasal-pasal emasmisan?! Nimadan uyalasan, begona odamning bolasini yetaklab boryapsanmi? Oyijonni haligi yotoqxonaga joylashtirgin-da, izingga qaytaver. Boshqalar shaharni ko'rolmay yursa-yu...

Nihoyat, Akmat ko'ndi. "Otasining go'ri, — dedi o'ziga-o'zi, — buning qistovi bilan shaharni ham ko'rib kelaman. Nimasidan cho'chiyman, o'rischada non so'rashni ham bilaman".

Tayyorgarlik uzoq cho'zildi. Xotini pulni qaysi cho'ntakka solish va uni qanday asrab-avaylash haqida ko'p gapirdi: "Kulib qaraganlardan ehtiyot bo'l, avrab turib, shipirib ketishmasin. Bozorga kirsang, og'zingni ochib angrayma. Chetdan kelganlarni darrov bilib olishadi, deb eshitganman. Lo'lilarga yaqinlashma!.." Uning gaplariga indamay quloq tutib turgan Akmat o'zicha g'udranib qo'ydi: "Qizim deb kuyarmish, qizi to'g'risida o'ylab ham ko'rgani yo'q, xuddi otasi puldan o'lganday..."

Shunday qilib, ular jo'nashdi. Akmatning qo'lida katta qora jomadon.

Uydan ko'p ham uzoqlashmay qo'shnisi Qurmanga yo'liqishdi. U bilsa ham, o'zini bilmaslikka solib gap qotdi:

— Ey, tong-sahardan qayerga otlandinglar?

— Ming bilan boryapman, jo'ra, — dedi Akmat uning savolini eshitmaganday, — otasining go'ri, o'zing bilasan-ku!..

— Ming bilan deydimi? — dedi Qurman o'ziga-o'zi. — Ey, ming deganing nimasi?

— Nima bo'lishi mumkin! — dedi Akmat yaxshi kayfiyatda. — Hammangiz bilasiz, lekin... — yana takrorladi. — Ming bilan boryapman!..

Qizi "yurmaysanmi", deganday, otasiga qaradi. Akmat jomadonni ko'tarib yo'lga tushdi. Qurman Akmatning gaplariga birozdan keyin tushundi-da, uni kuzata turib: "Afandi desa!.." deb kulib yubordi.

Akmat ozgina yurib, o'zi bilan birga ishlaydigan Karipga duch keldi. Qochib ketsammi, deb o'yladi-yu, yuzi chidamadi. U yaqinlashib qolganida jilmayib:

— Qochib ketyapman, brigadirga aytma, — dedi.

— Qayerga? — dedi Karip xavotirlanib.

— Shaharga! — deb qo'li bilan qizini ko'rsatdi. — O'qishga.

— A-a-ay, otam! — Karip norozi bo'lib qo'lini siltadi. — Dalani bir o'zim sug'orar ekanman-da. O'zini yolg'iz yuborsang, bo'ri yemasa kerak?

Akmat xafa bo'ldi. Karipning o'rniga ishlagan kunlari ko'p bo'lgan. O'shanda ham indamagan, brigadirga ham og'iz ochmagan. Bu esa... Akmat o'shalarning hammasini aytaman, deb yo'lidan to'xtadi, lekin tag'in jahlini chiqarib yubormay degan andishaga bordi.

— Hech qanaqa yer qolgani yo'q, — dedi javdirab, — anovi yerni sug'orishga hali barvaqt, qaytishim bilan kechasimi kunduzimi, sug'orib qo'yaman. — So'ngra biroz o'ylanib turdi. — O'zini yuborsam ham bo'lardi, o'ris tilini mendan yaxshiroq biladi. Biroq... — biroz ovozini pasaytirdi, — ming bilan yuborsak, bir nima bo'lmasin deb...

— Ming bilan?!

— Ha-da! — dedi Akmat quvonchini yashirmay. — Ming bilan boryapman, otasining go'ri!..

Karip tushunmadi. U indamay turdi-da, "bo'pti" deganday, tushkun holatda o'z yo'liga ketdi. Gapini to'liq tushuntira olmagani uchun Akmatning ta'bi tirriq bo'ldi.

— Uchragandan suyunchi olaverasanmi? — dedi qizi norozi bo'lib.

— Nima?

— Ming bilan boryapman! Ming bilan boryapman, deysan!

— Aytsam, nima bo'pti?

— Uyat-da!

— Nimasi uyat! — dedi Akmat achchiqlanib. — O'g'irlab olgan bo'lmasam. O'zimning pulim. Kigiz, sug'orish... — qiziga o'girildi, — tag'in uch yuz qo'shganida bo'larmidi?

— Nima uchun?

— Yetmaydimi deyman-da.

— Nega yetmaydi? Menga keragi yo'q, — dedi qiz qovog'ini solib, — o'zinglar qo'ymay...

— Sen bir iloj qilib o'tib ketsang, bo'ldi, — dedi Akmat uni yupatib. Xotinidan achchiqlandi. — Yana uch yuz qo'sh desa, otasi puldan o'lganday, shuning o'zi yetadi dedi! — yana yumshadi. — Pul o'lsin, topiladi!.. Sen eplab o'tib ketsang...

Otasiga qarab qizning rahmi keldi, negadir ichi achishdi. Ikkisi indamay yo'lda davom etishdi.

Yo'l yoqasiga kelishdi. Bu yerda ko'k do'kon bor. Mashinalar uning oldida ko'p to'xtaydi. Shuning uchun ko'pchilik shu yerda mashina kutadi. Hech kim yo'q ekan. "Yaxshi bo'ldi, shaharga yorug'da yetarkanmiz", deb o'yladi Akmat suyunib. Shu payt narigi tomonda Asqar paydo bo'ldi. Kiyimlari kir, qo'lida eski xalta.

— Qayerga boryapsiz? — dedi u gunohkorday kulimsirab.

— Shaharga! — deb javob berdi Akmat yoqinqiramay.

— O'qishgami?

— Ha.

— Qaysi o'qishga? — deb qizga tikildi. U javob bermadi.

— So'tlikka! — dedi Akmat ranjib. — Hozir qizlarning ham so't bo'lgisi keladi. Shuning uchun melisada ikki yil yurdi-da, haligini chiqillatib.

Qizi otasiga norozi bo'lib qarab ming'irladi: "chiqillatib... chiqillatib..."

Akmat qizining o'qiyman deganiga qarshi bo'lmadi. Aksincha, quvondi: "O'qib olsin! Bo'lmasa xor bo'ladi, buning ustiga, biror-

ta araqxo'rga tushib qolsa... O'g'il bolaga nima, ketmon chopib bo'lsa ham, bir kunini ko'radi. Men ham ketmon bilan o'lmay yuribman-ku! Lekin nega bunchalik so'tlikka boraman deb..."

Akmat qizi o'ninchini bitirishi bilanoq tushuntirgandi: "So'tlikni nima qilasan! Undan ko'ra, muallim bo'l, xotinlarga shu yarashadi. Ana, Aytqulning qizini ko'r, kechagina kelib, bugun direktor bo'lib, savlat to'kib yuribdi... So'tlik nima, turgan-bitgani — yomonlik!.." "Yomonlik! Bir nima bo'lsa, darrov yomonlik. Nima yomonlik qilyapti?!" degandi qizi yig'lamsirab. Akmatning joni achishgandi: "Hoy, seningcha, odamni qamash yaxshilikmi?" "Qamalgisi kelmasa, gunoh qilishmasin!" deb qizi uning og'zini yopgandi. Aytganida turib, ikki yil davomida sudda mashinistka bo'lib ishladi. Buni eslagan chog'ida Akmatning tili tutiladi, qizim elning qahriga qolmasin, deb cho'chiydi. Uningcha, hamma sudya bilan militsiyani yomon ko'radiganday edi. Shuning uchun qizi to'g'risida so'raganlarga: "Yuribdi-da, haligini chiqillatib", derdi kayfiyati tushib...

— Bizni so't qilar ekan-da! — dedi Asqar o'zicha xulosa chiqarib.

— Iya! — Akmat sakrab tushdi. — Nimaga so't qiladi, jinni bo'ldingmi?

— Men shunchaki... — dedi Asqar gunohkorday yerga qarab.

— A-a... — dedi Akmat gapni boshqa tomonga burib, — bugun ham o'sha yerda tunadingmi?

— Yo'q! — dedi Asqar cho'chib qo'lidagi xaltani ko'rsatdi. — Men buni...

— Seni bilaman... Uyalsang bo'lardi... Ishlasang bo'lmaydimi? Yoshsan. Senga nima yetishmaydi? Uying bor, xotining bor, bolalaring o'ynab yuribdi. Araq nima? Eh!.. — deb qo'lini siltadi.

Asqar indamay kulib turaverdi.

— Ota, avtobus! — dedi qizi shoshilib.

Akmat yaxshi qol deganday, Asqarga qarab qo'ydi-da, qizi turgan tomonga yurdi.

— Yaxshi boringlar! O'tib ketsin!..

Akmat ortiga o'girildi:

— Nima deysan?

— O‘qishga o‘tib olsin deyman. Yana... qizingiz... — dedi Asqar alanglab. Qo‘rqqanini yashirmoqchi bo‘lib kuldi. — Yaxshi so‘t bo‘lsin...

Akmat Asqar tomon yurdi. “Bir nimadan umidvor bo‘lyapti”.

Asqar ketmoqchi bo‘ldi. Akmat unga yaqinlashib:

— Hozir, kutib tur! — dedi-da, do‘konga kirib ketdi.

Avtobus kelib to‘xtadi. Qizi do‘konga yugurib kirib, navbatda turgan otasiga:

— Ota, avtobus?.. — dedi.

— Iya?! — Akmat shoshildi. Yugurib chiqmoqchi bo‘ldi-yu, yodiga nimadir tushib, to‘xtab, qo‘lini siltadi. — Mayli, keyingisi bilan... Mashina...

Qizi to‘liqib chiqib ketdi. Birozdan keyin Akmat ham do‘kondan chiqib, Asqarga shisha uzatdi:

— Ma, ich, bu qarindoshingning tortig‘i.

— O-o-oy, og‘a, jimgina...

— Ola ber... Berganda, jon degin...

— Vino...

— Nima vinodan boshqasini ichmaysanmi?

— Yo‘q-yo‘q! — dedi Asqar shoshib. — Vino olsangiz ham bo‘lardi, deyman-da...

— Bu toza-da! Ma, endi ol.

Asqarga tutqazdi. Uning qo‘li qaltirab ketdi.

— Og‘iz tegizib keting, og‘a. — dedi u.

— Yo‘q, o‘zing ich! Ataylab senga... — deb Akmat to‘xtadi, — mayli, otasining go‘ri, yaxshilik bo‘lsin, — shishaning qopqog‘ini ochib, ichib, boshini chayqab qo‘ydi-da, Asqarga uzatdi. — Ma, qolganini o‘zing ich.

Asqar nima deyishini bilmay, kuldi.

— Bor! — dedi Akmat. — Bor endi, bundoq odamga o‘xshab ichgin. Uyingga borib ichib, damingni ol. Yot...

Asqar ma’qul deganday, bosh irg‘adi. Akmat qizi tomonga yurdi.

— Qolib ketdik-ku! — dedi qizi.

— Mayli, tag‘in keladi-da.

— Araq ichib olib... — deb qizi yig‘lamsirab ming‘irladi.

— Kim?!

— Sen-da!

— Menmi? Men ozgina og'iz tegizdim, xolos, bir qoshiq ham kelmaydi. Ko'ngli og'rib qolmasin deb...

— Nega ko'ngli og'riydi? O'zing olib berib, yana...

— Ko'ngli og'rimasin, odam-da!

— Odam?!.. — qizi jirkanib yuzini burishtirdi.

Akmat ranjidi:

— Sening odamlaring kimlar o'zi?! Haligilarmi?

— Qaysilar?

— Karip bilan haligi... — dedi talmovsirab, — yaxshi bor deyishgani ham yo'q. Bu esa...

— Aytadi-da! — deya qizi masxaraomuz kuldi. — Ichkisi kelib tursa!

Akmat chiday olmasdan qichqirib yubordi:

— Sen qayerdan bilasan ichgisi kelib turganini! Qayerdan?!

Qizi indamadi, uning gapini yoqtirmaganday nari ketdi. Akmat o'ylanib qoldi. Asqarni esladi. Yomon bola emas, salomini kanda qilmaydi. Lekin ichadi, yiqilib qolguncha ichadi. Eh!.. Umidvor bo'lsa, bo'lgandir, nima bo'pti! Haligilar-chi? Qaytadan ko'ngli ko'tarildi. Qizining yoniga keldi.

— U xaltani nima qiladi?

— O'tkazadi-da!

— Xaltanimi?

— Shishani! Shaldiratib ko'tarib yuribdi-ku!

— A-a... U nima ham bo'lardi deysan, yigirmataga ham yetmaydiganga o'xshaydi. O'n tiyindan bo'lsa... — deb ichida hisoblay boshladi.

— O'n ikkidan! — dedi qizi g'ashi kelib.

— Nima?

— Shisha. O'n ikki tiyin turadi.

— O'n ikkimi? Men doim o'n tiyindan o'tkazaman. Haligi quda kelgandagi...

— Sendan urib qolishgan-da!

— Eh, itlar-ey! — Akmat do'konchilardan achchiqlandi. Qiziga qarab, o'zi-o'ziga gapirdi. — Enang bilan sen bilmagan palakat

yo'q!.. — Tag'in do'konchilarning qilmishidan jahli chiqdi. — Eh, itlar! Mendan urib qolishgani rost. Qanchadan-qancha shisha topshirdim. Topshirganlari o'n ikki tiyindan bo'lsa, qancha bo'lishini hisoblab ko'rdi. — Shuning uchun aytaman-da, xotin qolganini qayerga yo'qotding deb, behuda bezillamagan ekan! Qarasa...

Birovning ovozi uning xayolini buzib yubordi.

— E, qaysi amaldor ekan desam, sen ekansan-da? Kiyinsang, naq ministrning o'zi bo'larkansan, — Asan salom-alik qilmasdan gap boshladi. Kayfi borga o'xshaydi. Akmat o'ng'aysizlandi:

— Kiymay qo'yaqolay desam, haligi...

— Kiysang nima bo'libdi?! — dedi Asan jovdirab. — Kiyaver, otasining go'ri, o'zingnikimi...

Akmat uning so'zini bo'ldi:

— Qayerda?! — dedi battar o'ng'aysizlanib. — Qudadan kiyganman.

Asan qattiq kuldi:

— Iya, quda berganni kiysang, o'zingniki bo'lmay qoladimi?

Akmat javob bera olmay, kalovlandi. Qizi otasining gapidan xafa bo'ldi: "Qudadan kiydim, qudadan kiydim... Butun elga yoymasa bo'lmaydi, shekilli!"

— Shunday qilib, jo'nayapman degin, — dedi Asan nimanidir aytmoqchi bo'lganday.

— Ha, boryapman. — Akmat aytsammi-aytmasammi, deganday qiziga qarab oldi-da, — ming bilan boryapman, — dedi nihoyat.

— Mingni qo'ysang-chi! — dedi Asan bir nimani eslab. — Anovi yomon xotin olib...

— Kim?

— Aqil-chi? Ikkinchi o'g'lim. Xotin olaman deydi, olsang, olaver dedim.

— Nima qilar ekan?

Asan ovozini pasaytirdi:

— Xotinni nima qilardi, xotin qiladi-da!

— Bilaman... — dedi Akmat o'ng'aysizlanib, — hozir yoshligida o'qib olsa...

— To‘ydim o‘shaning o‘qishiga! Yoshi yigirmada, lekin birinchi sinfning hisob-kitobini ham bilmaydi.

— Yo‘g‘-e?

— It bo‘layin! Bir kuni mening ko‘z oldimda hisobni chiqara olmadi, maktabda nimani o‘qiding desam: “Bizning davrda bunday emasdi, buni propessor ham arang chiqaradi”, deydi. Kecha esa... — jahli chiqdi. — Ikkovimiz o‘n sakkiz kilo shakar qancha bo‘lishini bilmay, tortishdik. U yigirma bir so‘m deb aytadi, men bir so‘mdan bo‘lsa, zo‘rg‘a o‘n sakkiz so‘m bo‘ladi, yigirma birni qayerdan olding dedim. Shakarning kilosi yetmish sakkiz tiyin emasmi...

— Keyin chiqardimi?

— Hisoblab yotib chiqardi... Shunday ekan, o‘qib kimni boy qilardi, undan ko‘ra, eski traktorni tarillatib yura bersin-da, to‘g‘rimi?

Akmat kulib bosh irg‘adi.

— Shunday qilib, boryapman degin, — dedi Asan qaytadan, — to‘yga qatnashmay ketar ekansan-da.

— Keyin... Men bo‘lmasam ham, xotinim bor-ku. Uning og‘zi tegsa...

— Seniki boshqa-da. Ikkimizni erkak deyishadi!..

Indamay jim qolishdi.

— Qo‘y, unday bo‘lsa, ketayin, — dedi Asan. — Ozgina pul izlab chiqqandim. Hech kimda yo‘q ekan. Do‘konchilarda ham... Senda... — yaltoqlandi.

— Menda qayerdan ham bo‘lsin?

— Bilaman. Biror iloji bo‘lganida...

Akmat atrofga qarab oldi, qizi yo‘lning narigi tomonida turganini ko‘rib, Asanning yengidan tortdi:

— Yur...

Ikkovi do‘konning ortiga o‘tishdi. Akmat cho‘ntagidan pul chiqarib, Asanga uzatdi:

— Ellik so‘m. Yetadimi?

Asan quvonib ketdi:

— Qo‘y! Uyat-da! O‘zingiz yo‘lda qolib ketmaysizmi?

— Yetadi. Bu tomonimda bir yuzu ellik bor. Men gulayt qilarmidim. — Asanni o‘ziga tortib, ichki cho‘ntagini ko‘rsatdi. — Bu yoqda ming bor!

— Ming deganing nima?

— Pul. Ming bilan boryapman dedim-ku. Otasining go'ri, eplab o'tib ketsa... Pul nima?! Ma, ol...

Asan oldi-da, boshini chayqadi. Suyundi. Tag'in jim qolishdi.

— Qo'y, bo'lmaydi! — dedi Asan shoshilib. — Bo'lmaydi! — xurjundan bo'sh shishani sug'urib oldi. — Og'iz tegizib ketmasang, bo'lmaydi, yaxshilikka-da. — Xurjunni qaytadan ag'dara boshladi. — Boya gruzovoydan bittasini solib qo'yganday bo'lgandim... A-a, topdim.

— Bo'lmaydi-da, yo'l yuraman...

— Yo'q desang, yarmini ol. Maza qilasan. Kun ham salqin.

Akmat stakandagi araqning yarmini ichdi. Qolganini Asanning o'zi ichib, shishani xurjunga soldi-da, otiga mindi.

— Endi ketayin. Yaxshiligingni... o'lguncha... unutmayman.

— E, qo'ygin... — dedi Akmât qo'lini siltab.

— Kelishing bilan qaytaraman. So'zsiz. Zoriqib turganimda himmat qilding.

Asan anchagacha o'zi-o'ziga gapirib bordi. Akmat qizining yoniga keldi.

— Ikkita avtobus o'tib ketdi! — dedi qizi ranjib.

— Ikkitami? To'xtatmadingmi?

— To'xtatmadingmi? O'zi yotib oladi... — dedi qizi yig'lamsirab.

— Mayli. Mashina to'lib o'tyapti. — Akmat kulib qizini chalg'itdi. — Haligi Aqil xotin olsa, hammasi boshidan boshlanadi, xotin emas, o'tin oladi.

— Qaysi Aqil? — dedi qizi qovog'ini uyub. — Haligi dars bilmagan ahmoqmi?

— Ahmoq! Ahmoq! Darsni bilmagan odam ahmoq bo'lib qoladimi?

— Bo'lmasa, nima?

— Sening ahmoq emaslaring nimani qoyil qilishyapti? Haligi Karipning bolasimi, katta o'qishda zo'r o'qiydi, deb maqtaysizlar, o'zini osmonda sezib, salom ham bermaydi... Bu esa parvona bo'lib, og'alab, salomini uzmay...

— Salom bersa, aqllimi?

— Unda kim aqlli?! — Akmat qizini gapirgani qo'ymadi. — Burni ko'tarilganlarni boshimga uramanmi... Mana, Shourukni qaragin.

— Shouruk... — deya qizi masxaraomuz kuldi.

— Bizning ovulda birgina o'shaning ordeni bor. U qayerda o'qibdi. Hech nimani bilmay qolganida, muallim: "Miyang qayerda sening, miyang qayerda!" deb baqirsa, "Miyam chiyning tagida qolib ketibdi, ertaga olib kelaman, mulla aka", — debdi. Hozir, qaragin, ko'ksida orden, hamma yaxshi ko'radi... Nima, u ahmoq bo'lsa, el yaxshi ko'radimi, hukumat orden beradimi?! Ahmoq deb!.. — deya g'ijinib qo'lini siltadi.

Qizi norozi bo'lib, nariroq ketdi, lekin ko'p o'tmay piqillab kula boshladi: "Miyam chiyning tagida qolibdi".

Akmatning yodiga nimadir tushib, qizining yoniga keldi-da, kulib dedi:

— Qo'rqmay qo'ya qol, ming tugal. Ellik nima?! Zoriqib turganda...

Qizi unga gumonsirab qarab qo'ydi.

Akmat ko'zini olib qochib, nari-beri yura boshladi. O'zini biroz bosib oldi. Qizidan tag'in achchiqlandi: "Qayerdan o'rganib olganini bilmayman, bir nima bo'lsa, darrov "ahmoq" deb turadi. Shundan keyin ham u qanday qilib so't bo'lsin?! Xudo aql bermasa, nima qilish kerak?!"

Birdaniga yuqori tomondan bir otliq ko'rindi. Akmat bir cho'chib tushib, unga tikilib qoldi. "O'sha, — dedi ko'zini uzmay, — o'sha, enangni!.. Yetkazgan ekan-da! — atrofga qaradi, ko'ziga hojatxona chalindi. Uni chamalab qadam tashladi. — Ketmay turib olsa, nima qilaman, kechgacha o'tiraveramanmi? Yo'q..." Ortiga burildi. Chindan ham brigadir ekan. U yaqinlashib qolganida Akmat tag'in so'kindi: "Enangni!.. Allaqachon yetkazishgan!.. Endi bu boshlaydi!" Brigadir kulib kelaverdi:

— Po'rim kiyinib... Bu kim bo'ldi ekan deb, hayron bo'ldim. Bunday qarasam, o'qishga otlangan Akmat ekan. Haligacha ketolmadinglarmi?

— Avtobus yo'q. — deya Akmat ko'nglidagini aytdi. Keyin pichirladi. — Hozir boshlaydi!..

— Borganga yarasha, o'tib kelinglar... — dedi brigadir indamay biroz turib, — shoshib turibman. Karipni ko'rdingmi, suv boshida ham, uyida ham yo'q. Uyiga borsam, suvga ketgan deyishdi...

— Boya dalaga borayotgan edi.

— Sheriging u yerda yo'q, — boshini chayqadi, — yer yonib boryapti.

— Meniki...

— Senikini bilaman, — dedi brigadir uning so'zini bo'lib, — allaqachon bitkazib qo'ygandirsan. Senga ishonib, yeringga qaraganim yo'q...

— Ha! — deb Akmat suyunib ketdi. — Haligi... — qayta o'zini o'nglab oldi, — o'zini yuborsam bo'lardi, lekin ming bilan... — dedi gunohkorday boshini egib.

— Bola degani shu! — dedi brigadir uning gapiga unchalik ham e'tibor bermay. — Bir joyda tutib turolmaysan!.. — otining boshini burdi. — Qo'yaber, osongina o'tib kelinglar, tag'in qora jomadonni ko'tarib qaytib kelma... — biroz nariga borib qichqirdi. — Akmat, bozorlik degani bo'ladi, unutma. Pishenichniy deganlari u yerda oqib yotadi deyishadi...

— U nima?

Brigadir eshitmadi shekilli, indamay otini choptirib ketdi.

— Pishenichniyi nima? — dedi Akmat qiziga.

Qizi g'azablandi:

— Araq!

— E, yarasi yengil ekan. — deb Akmat kuldi.

Sevindi. "Hech gap emas ekan. Esli-da!" Karipni o'ylab, o'zini ayblay boshladi: "Boyaqishni jo'ngina jo'natibman!.."

Hayajonlanib u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Birdaniga esiga sug'orilmay qolgan yeri tushdi. "Hozir bo'lmaydi. Sug'orishga hali erta..." — dedi o'zini ovutib. Biroq bu fikr miyasidan chiqmay qoldi, o'zini shunchalik yaqin tutgan brigadir ham ko'z oldiga keldi. Endi tinchsizlana boshladi. Unutgisi keldi. Aksiga olib, mashina ham o'tmaydi. Yosh boladay quvongan Asanni esladi. Nima qilarini bilmadi. Nari-beri yurdi... Qizining yoniga keldi.

— Mashina o'tmaydiganga o'xshaydi, — dedi nihoyat. Biroz indamay turdi. — Ertalab ketsak qanday bo'larkin? Ertaga yo'lga barvaqt chiqamiz...

— Ertagami? — dedi qizining jahli chiqib. — Kechikamanda! — yig'lamsiradi. — Har kuni ertaga!

— Nega kechikasan, hali vaqt ko'p. Mashina o'tmayapti, buning ustiga peshin bo'lib qoldi.

Qizi indamagani uchun nima deyishni bilmay qiynaldi. Tag'in yalinganday dedi:

— Buning ustiga, brigadir ham urishib...

— Qachon urishdi! — dedi qizi qichqirib. — Yaxshi boringlar deb, kulib ketdi-ku!..

— Hamma eshitganing to'g'ri! — dedi pichirlab. Qiziga o'girildi: — Sening oldingda so'kinishi kerakmidi?.. Yer yonib ketyapti dedi, shu yetarli emasmi?.. — jomadonni oldi. — Kel, qaytaylik... — uyi tomonga qadam tashladi.

— Ko'ringan bilan araq ichib!..

Qizi yig'lamsirab uning ortidan ergashdi. Akmat bilib-bilmaganga oldi. Biroz yengil tortdi. "Bugun tuni bilan qolgan yerni sug'orib, erta bilan jo'nab ketaveraman... Yo'q, Asannikiga borishim kerak. Ketib qolganimda boshqa gap edi, ketmagandan keyin... Soat o'ngacha unikida bo'laman, keyin tun bo'yi ekin sug'oraman. Saharlab yo'lga chiqamiz. Uyqu nima? Bir kun uxlamasa, Xudo urmaydi!.." Akmatning ko'ngli yorishdi.

— Ana, haligi? — dedi qizi achchiqlanib.

— Haligi! Kim?

— Piyanistang! Asqar-chi?

— Qani?

— Ana.

Qizi qo'li bilan ko'rsatdi. Akmat o'sha tomonga qaradi. Hech kim yo'q.

— Qani?

— Kelayotgandi. Yashiringanga o'xshaydi... Qochib ketdi.

— Qochib? Kimdan?

— Sendan-da!

— Mendanmi? — dedi Akmat chinakamiga ajablanib. — Nega? Men melisamidim?

— Bilmayman! Haligi eski xaltasini ko'tarib kelayotgandi. Bizni ko'rishi bilan...

— Odam ekan-da!.. — dedi Akmat suyunib.

— Odam?

— Qiziq, nega qochadi? — qizining so'ziga e'tibor bermay kuldi. So'ng gapga tushdi, — Hoy, u melisadan qochmaydi, — qattiq kuldi. — Melisa uni nima qiladi, jarima to'lashga tangasi ham bo'lmasa...

Qizining jahli chiqdi:

— O'zi-chi?

— Kim?

— Melisang!..

— I-i?..

— O'zi ham mast bo'lib yuradi-ku...

— Qachon?

— Har kun. Kecha ham mast bo'lib xotinini quvib yurgandi...

— Mast bo'lsa ham, uni melisa deyishadi! — deya Akmat qizining jig'iga tegdi. — U hech kimdan qo'rqmaydi!..

— Qo'rqmasa, ichib yuraveradimi?

Akmat javob topa olmay qoldi. Birozdan so'ng dedi:

— Ichsa ham, o'sha kerak bo'ldi-ku. Sen uchun yugurib, nachalnigiga aytib, ishga joylab...

— O'zim ham joylashardim!..

— Jahlimni chiqarma! — Akmatning fe'li buzildi. — Yaxshilikni bilish kerak!..

Qizi indamadi. Chindan ham Akmatning qizini melisa ishga joylashtirgan. Xotini: "Ko'p bo'lsa, ikki shisha araqdir. Borib ayt, shimingni yechib olmaydi-ku!" deb har kuni tinmay javrab Akmatni ko'ndirgandi. Borsa, u ma'qulladi. "Melisaning qo'lidan ham yaxshilik kelar ekan!" deb Akmat suyunib qaytgandi. Endi qizi buning hammasini unutib!.. U qiziga qarab, boshini chayqab qo'ydi. O'zini bosdi, qizi ko'ziga ayanchli ahvolda ko'rindi.

— Sen yaxshi melisa bo'l, — dedi kulib, — ichmaydigan...

— Men melisa bo'lmayman!

— Unda kim bo'lasan? Shuni deb ikki yil yurding-ku, chiqillatib...

— Bir nima bo'lsa, darrov chiqillatib!.. Men tergovchi bo'laman.

— Hammasi bir! — dedi Akmat qizishib. — Ikkovi ham odam qamaydi!..

Qizi jahllanib qo'lini siltadi. Akmat uni yenggani uchun quvonib kuldi-da, o'zicha gapira boshladi:

— Avvallari melisani bilmasdik, onda-sonda ko'rsak, qo'rqib ketardik. Hozir... Yo'l bo'yida "gai"miz deb uchtasi o'tiradi qimirlamay. Ko'paydi. Nima, el shunchalik buzilib ketdimi? — dedi qiziga qarab, u javob bermadi. O'ziga-o'zi dedi: — El qaydan ham buzilsin hozir, melisalar yana ko'paysa kerak. Xotinlar ham... — qiziga qarab qo'ydi.

Uylariga yaqin kelishdi. Qayerdandir kelayotgan xotini ularni ko'rib, turgan joyida qotib qoldi.

— Ana, melisa! — dedi Akmat.

— Qani?! — deb qizi cho'chib tushdi.

Akmat kulib xotinini ko'rsatdi. Qizi ham kulib yubordi. Ikkisining baravar kulayotganini ko'rib, xotini battar angraydi. Yaqin kelishi bilan Akmat uning og'zini ochirmay, gapira boshladi:

— Qo'rqma! Ertaga jo'naylik dedik. Mashina yo'q... Avtobusning birortasi ham bo'sh emas, tiqilinch. Ming joyida. Ellik nima?! Beradi-da, bermasa... yetadi! Nima men gulayt qilgani borayotganim yo'q-ku...

Akmat gapiraverdi. Otasining yolg'onni qalashtirayotganini ko'rib, qizining manglayi tirishdi. Xotini hech narsa tushunmay, hang-mang bo'ldi...

...Akmat yolg'on gapira olmaydi.

SULAYMAN RISBAYEV

KECHIR, OQTO'SH!

Mayrambek kuchuk boqishni juda yaxshi ko'rardi. Mana, kuz ham keldi, u do'stlariga taqlid qilib kuchuk boqaman, deb otasini qiynadi. Otasi qaysar o'g'lining gapiga kirib, qishloqni qidirib yurib, nihoyat kuchuk topib keldi. Endi ko'zini ochgan ekan, itning bolasi deguday emas, semiz, chiroyli, to'shi oq, qora kuchuk.

Mayrambekning og'zi qulog'ida. Endi kuchukka o'ziga munosib ism qo'yish kerak. Uyidagilarning har biri kuchukka o'zlaricha nom topishdi. "Oqto'sh", "Qoramunchoq", "Oqyo'ltoy", "Sharik", "Reks", "Uchar" kabi itlarga loyiq ismlarning hammasini aytishdi. Mayrambekka bu ismlarning birontasi ham yoqmadi. Qolaversa, o'zi ham kuchukka munosib ism topolmay qiynaldi. Shu bois loyiq ism topilguncha "Oqto'sh" deb chaqirib turishni lozim ko'rishdi.

Barvaqt uyg'onmasdan darslariga ham kech jo'naydigan Mayrambek kuchuk kelgan kundan erta uyg'ona boshladi. Kuchugiga sut berib, to'ydirib maktabiga jo'naydigan bo'ldi. Otasi o'g'lining jonsarak bo'lib qolganini ko'rib "Essiz, qayoqdan ham kuchuk olib keldim, o'zi bu yil maktabga kirgan bo'lsa, darslariga xalaqit bermasmikin?" deya o'yga toldi. Shu bois onasi kechqurun dars tayyorlashiga, kunduzi kuchugini ovqatlantirishga yordam bera boshladi. Mayrambek qanday ovqat yesa kuchugi ham o'sha ovqatdan yeb o'sardi.

Kunlar o'tib, kuchuk Mayrambekni tanib, maktabga jo'nasa ko'chagacha kuzatib, "yaxshi bor" deganday xurib ham qo'yadigan bo'ldi. Mayrambek do'stlari bilan o'ynagani jo'nasa kuchugini ham ko'tarib bora boshladi. Do'stlari o'zlarining kuchuklarini ko'rsatib: "Mening kuchugim chiroyli", "Meniki juda aqlli", deb

maqtanishardi. Ana shunday paytlarda Mayrambek biroz xijolat tortadi. Chunki shu paytgacha kuchugiga yaxshiroq ism qo'ymagandi. Shunga qaramay, do'stlariga bo'sh kelmay "Ko'rasizlar, yaqinda kuchugimga hech kimning kuchugida yo'q yaxshi ism qo'yaman", deb maqtanib qo'yardi.

Oqto'sh kundan-kunga ulg'ayib, kelib ketgan odamlarga vovullab, men borman deganday hurib qo'yardi. Shunday kunlarning birida qiziq voqea sodir bo'ldi. Bostirma ayvonida turadigan yosh novvos ipini uzib, bedapoyaga kirmoqchi bo'ldi.

Novvos ayvondan chiqqan paytda Mayrambek kuchugiga buyurdi:

— Ol, Oqto'sh, ol, hayda!...

Bu holatni ko'rib otasi achchig'landi:

— Kuchugingga ishonmay o'zing haydasang-chi, barmoqday keladigan kuchukngni katta novvos nazarga iladimi!

Mayrambek, albatta, kuchugiga ishonmaydi, o'zi ham kuchugi ortidan yurib, ovozi boricha hay-haylab, bu yoqda odam borligini bildirishni, kuchugiga yordam berishni o'ylagan. Yana kuchugiga: "Ol, Oqto'sh, ol, hayda!" deb orqasidan birga yo'naldi.

Yaylovda yurib kuchga to'lgan novvos qarshisida ko'zlari porillab, jon-jahdi bilan berilib hurayotgan qo'g'irchoqday Oqto'sh kuchukka bir qaradi va unga parvo ham qilmay turib qoldi. Buqacha bir pishqirib, tumshug'i bilan suzib kuchukni ilib tashlashi mumkin edi. Ammo bunday qilmadi, qarshisida tinimsiz hurayotgan kichkina maxluqqa qiziqqandek tikilib turdi. Hademay Mayrambek kelib qoldi. U ham novvosga tosh otib yoki so'yil bilan urib quvalamadi. Kuchugiga tegmasdan unga qiziqish bilan qarab turgan novosga bir marta "xo'sh jonivor!" dedi-da, kuchugini yerdan olib bag'riga bosdi. Ilgari yomon ko'rinib yurgan novvos hozir ko'ziga yaxshi ko'rinib ketdi. Sababi, u kuchugini suzmadi, bedazorga kirib ketmadi. Buqacha ham kuchukni yoqtirib qolgan edi-da.

Kuchukning bu galgi jasorati, jasurligi Mayrambekkagina emas, hammaga — otasiga ham, onasiga ham, bobosiga ham yoqdi.

— Hoy, bu kuchuk aniq qo'riqchi bo'ladi-yov, — deya maqtadi otasi.

— Kuchga to'layotgan novvosdan qo'rqmayaptimi, demak, bu kuchukni yo'lbars desak ham bo'ladi, — deb onasi ham Mayrambekning quvonchiga sherik bo'ldi.

— Mayrambek, bu kuchukka "Qo'riqchi" deb nom beraylik. U aniq qo'riqchi it bo'ladi. Shunday haybatli buqachadan qo'rqmagan kuchuk kattayganda qashqirdan ham tap tortmaydigan juda mard it bo'ladi, — dedi bobosi.

Shunday qilib kuchukka Qo'riqchi degan nom berildi.

Hovlida Qo'riqchidan boshqa Bo'ribosar laqabli katta it ham bor edi. U ismi jismiga monand bo'ridan ham cho'chimaydi. Hurib uliganda gumburlagan ovozidan qo'rqmagan jonzot yo'q. U kichik Qo'riqchi uchun ancha qo'rqinchli va xavfli edi. U kichik Qo'riqchini yoqtirmaganday mensimay qarar va ijirg'anib qo'yardi. Biroq unga yomonlik qilish niyati yo'q. Shunday bo'lsa-da, kuchuk Bo'ribosardan juda hayiqadi. Bir gal Bo'ribosarning ovqatiga bosh suqib bir ajaldan qoldi. Voqea bunday bo'ldi. Mayrambek saboqdan kelmagandi. Onasi Bo'ribosarning laganiga ovqat quyib:

— Kela qol, Bo'ribosar! Kel, kel! — deb chaqirib qo'yib, uyi tomon ketdi. Bo'ribosar kelguncha Qo'riqchi pildirab undan ilgari ovqatga yetib keldi. Achchig'langan Bo'ribosar yuvindiga endi boshini solgan kuchukni tumshug'i bilan qattiq turtgan edi, Qo'riqchi gandiraklab borib bostirmaning eshigiga qars etib tegdi. Kuchuk dod solib g'ingshigan ko'yi bostirmaga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

— Bu ham oz edi senga!... — deya achchig'landi Mayrambekning onasi uning dodlab g'ingshiganini eshitib.

Mayrambek maktabdan kelgach, voqeadan xabar topdi. Kuchukni izlab borsa bostirmaga yig'ilgan buyumlar orasida ko'zlari yiltirab g'ujanak holda yotardi. Mayrambekni ko'rib Bo'ribosar ustidan shikoyat qilganday g'ingshidi. Shundan keyin Mayrambek maktabdan kelguncha Qo'riqchi uchun azobli kunlar boshlandi.

Kuz bilinmay nihoyalanib borardi. Havo sovib, qish yaqinlashayotganidan darak beradi. Mayrambek faqat kuchugini

o‘ylaydi. Qor yog‘ib, sovuq tushsa kuchuk qayerda jon saqlaydi? Bu yerda shahardagidek uy ichida it boqib bo‘lmasa. Shaharda uyining balkonida, kerak bo‘lsa eng to‘risida ham boqaverishadi. Qishloqda esa mumkin emas. Shu bois kuchukka uy qurib berish kerak. U kuchugiga yashikdan uycha tayyorladi. Kuchuk uyiga darrov kirgisi kelmay cho‘chib, yot uyga kirayotgandek oyoq tirab oladi.

— Qo‘riqchi, — dedi Mayrambek, — bugundan boshlab mana shu sening uying bo‘ladi. Eshitdingmi? Katta it bo‘lganingda g‘ishtdan uy qurib beraman....

Qo‘riqchi uychasiga o‘rganib qoldi. Mayrambek keltirgan ovqatlarni yeb yurdi. Endi uning o‘z uyi bor, emin-erkin kirib-chiqib, mening uyim bor deganday quvonib hurib qo‘yardi. Mayrambek kuchugiga uy qurgani bilan ostiga poxol yoki somon solib issiqlashni unutgandi. Uy bo‘lsa bo‘ldi, deb o‘ylangandi. Uyining usti yopiq bo‘lgani bilan tagi zax edi. Tili yo‘q kuchuk oyog‘im sovqotyapti, deb qanday aytsin. Sovuq tunlar kuchuk sovqotib, g‘ingshib tong ottiradigan bo‘ldi.

Bir kuni tunda sovuq izg‘irin yurib, Qo‘riqchi sovqotdi, joni og‘rib g‘ingshidi. Birozdan keyin loppillab qor yog‘a boshladi. Ayvonda chiroq yonib turganidan atrof yop-yorug‘. Shiddat bilan yog‘ayotgan birinchi qor Qo‘riqchi uchun yangilik edi. Kapalakdek uchib yerga tushayotgan qorni chopqilab ilib olib ancha o‘ynoqladi. Uning bu ishiga Bo‘ribosar e’tibor ham bermadi.

Qorni ilib ancha o‘ynoqlagan Qo‘riqchi charchab uyqusi keldi. O‘ynoqlab chopganidan sovuqni sezmay qoldi. Ammo oyoqlari zax yerda zirqirab sovqotganini eslab uychasiga kirgisi kelmadi. Yaxshisi, bir-birin quvalab uchib tushayotgan qorchalarni ilib o‘ynagani ma’qul.

Tun yarimdan o‘tdi. Kuchukning oyoqlari uyini ko‘zlab qoldi. Ammo uyiga kiray desa yonida Bo‘ribosar turardi. U kuchukni ko‘rib “Ey bolakay, yotmaysanmi, tun yarimdan o‘tib ketdi-ku” deganday osmonga qarab hurdi. Bo‘ribosarning gumbirlab yo‘g‘on ovozda hurganidan Qo‘riqchining yuragi tushib qolay

dedi. Qo'rqqanidan joyidan qimirlamay qoldi. Oyog'i ostida eski kiygizning parchasi borligini ko'rib, shundoqqina yotib oldi.

Qor yog'ishda davom etdi. Osmondan charxpalak bo'lib tushayotgan qor bo'lakchalariga qarab, kuchukning boshi aylandi va shu holatda uxlab qoldi. Tong otgach, Mayrambekning otasi hovliga chiqib, Qo'riqchining katakda yo'qligini payqadi. Tizza bo'yi yoqqan qordan yer beti oppoq edi. Kuchukning tayini yo'q. Uyga kirib Mayrambekni uyg'otdi.

— Kuchuging joyida yo'q, tunda birov o'g'irlab ketdimikin, — dedi xijolat bo'lib. Mayrambekning ko'zi moshday ochilib, darhol kiyinib hovliga chiqdi. Kuchugi yo'qligiga o'zi amin bo'ldi.

— Qo'riqchi, bah, bah, Qo'riqchi, kel, kel!... — deb ovozi boricha qichqirib, qo'ra-saroylarni aylanib chiqdi. Ammo kuchuk yo'q. Odatda u Mayrambekning ovozini eshitganda doim o'ynoqlab oldiga kelardi. Mayrambek kuchugimdan ayrildimikin deya yig'lagisi keldi.

Otasi qorni kuray boshlar ekan, birozdan so'ng kurak yumshoq narsaga taqaldi. Qorni surib tashlashi bilan anchadan buyon izlayotgan Qo'riqchi ko'rinsa bo'ladimi! Kuchuk yotgan joy do'mpayib turgandi, dedi otasi. Bechora Qo'riqchi muzlab, uxlagan holatda yotarkan arang nafas olardi. G'ingshib arang ovozi chiqdi.

— Mayrambek...Mayrambek... — chaqirdi otasi, — mana, Qo'riqchi kuchuging. Qor ostida muzlab qolibdi, tezda uyga, pechkaning oldiga olib kir. Pechkaga lovillatib o't yoqildi. Mayrambek kuchugini jonlantirish uchun ancha ovora bo'ldi. Onasi bugun kuchugingni men qarab turay deganiga qaramay, maktabiga bormadi. Kuchuk anchadan keyin ko'zini ochdi, oldiga qo'ygan issiq sho'rvani qaltirab, titrab arang ichdi. Otasi tayyorlab qo'ygan dorilarni bergan edi, tushdan keyin Qo'riqchi boshini ko'tarib, ancha dadillashdi. Mayrambek kechgacha kuchugi bilan ovora bo'ldi. Vaqti-vaqti bilan dorilarni berib, bobosining "Itning bolasiga issiq ovqatni ko'p berib bo'lmaydi, keyin burni hid bilmay qoladi", degan so'zlari yodida bo'lsa ham tez sog'ayib ketsin, deb issiq ovqatni og'zidan qo'yish bilan ovora bo'ldi.

— Qo'riqchim, — dedi Mayrambek ertasi kuchugining o'lmay qolganiga ko'zi yetib uni bag'riga bosarkan, — Sen esi yo'q ekansan-ku...

Oradan bir hafta o'tdi. Mayrambek kuchugini pechkaning yonidan chiqarmay, dorilarni berib yaxshilab boqdi. Shunday parvarishlardan keyin kuchuk avvalgi holatiga qaytib, junlari yaltirab qoldi. Shunday qilib Qo'riqchi bir o'limdan qoldi.

Bir kuni Qo'riqchi uchun ko'ngilli voqea sodir bo'ldi. Shu kuni Mayrambekning otasi va onasi mehmonga ketishdi. Uydan kim ot minib biron yoqqa jo'nasa birga ketishni odat qilgan Bo'ribosarning ham ular bilan "mehmonga" jo'nadi.

Bo'ribosarning ketishi Qo'riqchi uchungina emas, uydagi mushukcha uchun ham yaxshi bo'ldi. U doim pechka yonida yotar, issiq joydan chiqmasdi. Shu kuni u o'zini emin-erkin his etib, sichqon ovlash uchun hovliga chiqdi. Mushukcha Bo'ribosarning yo'qligidan foydalanib, bostirmaga kirib bir sichqoncha ushlab chiqdi. Kuchuk mushukni ko'rdi-da, uyni aylantira quvalab, og'zida tishlab turgan sichqonni olishga harakat qildi.

Bo'ribosar bo'lganda ular bunday yayray olishmas, ikkovi ham bekinib yurishardi. Qolaversa, Qo'riqchi mushuk og'zida nima tishlab turganini ham bilmadi. Maqsad mushukni qo'rqitib o'ynash edi. Mushukni quva-quva o'tinxonaga qamab oldi. Mushuk o'tinlar orasida sichqonni tishlagan holda kuchukka qarab "pis-s-s... piss.." deya qarshilik ko'rsatar, tirnoqlari bilan yerni titardi. Qo'riqchi esa o'ynoqlab uyoq buyoqqa chopar, mushukka qarab "Aff-f-f... af" — qilib hurardi. Axiyri mushuk oldi oyoqlarini ishga solib, qarshilik ko'rsatib, kuchukning burnini tirnab oldi. Mushukning tirnog'i o'tkirligini kuchuk qayoqdan bilsin? Jahli chiqib yanada qattiqroq hura boshladi. Oldingi ikki oyog'i bilan mushukka hujum qildi.

Achchig'i oshgan mushuk:

— Miyoyov!... — deya qattiq qichqirgan edi og'zidagi o'lja otilib nariroqqa tushdi. Uni ko'rgan Qo'riqchi oyoqlari bilan ilib og'ziga solmoqchi edi, qorga tushdi va yana og'ziga solgandi tuklari g'ashini keltirib irg'itib yubordi. Qorga aralashgan o'ljasini

topib olgan mushuk yig'ib qo'yilgan xodalar orasiga kirib ketdi. Qo'riqchi boshini u yoqqa — bu yoqqa burib mushuk nima qilayotganini qiziqib kuzatardi. Goho dumini likillatib hurib qo'yardi. Tukli narsani mushuk qanday yeyotgani kuchukka qiziqarli tuyuldi. Mushuk esa yana oldirib qo'ymayin deganday o'ljasini oyoqlari ostiga olib yer ekan, goho miyovlab qo'yardi.

Mushuk va kuchuk anchagacha quvalashib o'ynashdi. Zerikib qolishgan ekan, rosa maza qilishdi. Ayniqsa, Qo'riqchining quvonchi cheksiz. Qaniydi, Bo'ribosar ertagacha kelmay tursa. Afsus, katta it kelgach mushuk uyga kirib g'oyib bo'ldi. Kuchuk ham dumini qisib uyi tomon yo'l oldi.

Qish bo'lishiga qaramay, havo goh sovib, goh biroz ilib qolardi. Tunov kungi yoqqan qor issiqdan erib, hovli sahni suvga to'ldi. Ammo ertalab va kechqurun sovuq kuchayib, erigan qor ko'kmak bo'lib muzlab qolardi. Nima bo'lganda ham qish qishligini qilyapti.

Sovuq kunlar boshlangach otasining maslahati bilan Mayrambek kuchugiga og'ilxona ichidagi yumshoqroq buyumlar orasidan issiqroq joy topib bergandi. Kuchugini shu joyga yotishni o'rgatdi. Kechalari tashqariga chiqib ketmasin deb eshikni yopib qo'yadigan bo'ldi.

Biroq keyingi kunlari Mayrambekning fikri o'zgardi. "Kuchugimni issiq joyga qamab qo'yishim yaxshi emas, u Qo'riqchi it bo'lishi kerak, tashqarida yurib issiq-sovuqqa ko'niksin va chiniqsin. Shunday qilmasam Qo'riqchi degan nomga munosib bo'lmaydi. Kuchugim haqiqiy Qo'riqchi bo'lib ulg'aygach do'stlarimga "Ko'rib qo'yinglar mening itim haqiqiy Qo'riqchi deb maqtanaman", — deb kuchukni tashqarida yotishini ma'qul ko'rdi va uyasi ostiga somon solib issiqladi.

Bir kuni Mayrambek maktabga yo'l olar ekan kuchugini chaqirdi:

— Qo'riqchi! Kel, Qo'riqchi!...

Quchuk holsiz g'ingshib, ingrab hovliga chiqmadi.

— Sovqotdingmi? — dedi Mayrambek engashib kuchugini silar ekan, — Nega sovqotyapsan? Axir ostingga somon solib issiqlab qo'ygan bo'lsam, nega qaltiraysan?

Chaqirganida yoniga yugurib keladigan it yotgan joyidan jilmadi. "Mayli, turging kelmasa yotaver, — dedi-da, Mayrambek kuchukning oldiga ovqatini qo'yib maktabiga jo'nadi. Shunday qilib, turgani holi yo'q Qo'riqchi ayanchli g'ingshib uychasida yotaverdi. Uning katagidan chiqolmay qolishi bir jihatdan kulgili, ikkinchidan juda ayanchli edi.

Mayrambek maktabdan tushdan keyin keldi. Hech narsadan bexabar bemalol ovqatlanib o'tirganida kuchukning ayanchli g'ingshigani qulog'iga chalindi. "Yana og'rib qoldimikin?" degan xayolda kuchuk yoniga bordi. Kuchuk yotgan joyida qaltirab g'ingshir ekan, Mayrambek asta ushlamoqchi bo'lganda tegma, qo'llaringni tort deganday battar g'ingshib, tishlarini ko'rsatib xirilladi. Mayrambekning kuchukni turg'azishga bo'lgan harakati behuda edi. Keyin ma'lum bo'ldiki, kuchuk yotgan yeriga yopishib muzlab qolibdi. Kecha kun biroz isib, qor eriganda kuchukning uychasi ham, ostiga solingan somon ham suvda qolibdi. Bunday bo'lishi hech kimning xayoliga kelmagan. Tunda sovuq kuchayib, kuchuk somonga qo'shilib bir tomoni muzlab qolgan.

Mayrambekning kuchugini muzdan ajratib olaman degan harakati behuda ketdi. Kuchukning dod solib g'ingshigani quloqni qomatga keltirdi. Onasi, otasi va bobosi yordamga keldi. Ular uychani buzib irg'itishib, muzni eritish uchun issiq suv quyishdi, kuchukni muzdan ajratib olish uchun hamma narsani qilishdi. Muz qamalidan qutulgan kuchuk bir ahvolda bo'lib, avvalgi savlati yo'q, junlari hurpayib arang nafas olardi.

Mayrambek kuchugini yana pechka yoniga olib kirdi. Oyoqlarini sovuq olibdi, qaltirab, titrab g'ingshigan ovozigina chiqardi. Uning o'nglanib ketmasligiga hammaning ko'zi yetdi. Ammo Mayrambek sog'ayib ketishiga ishonib, ikki kun issiq joyda dori berib boqdi. Uchinchi kun ertalab qarasa kuchuk nafas olmay qolibdi.

Bechora Qo'riqchi o'lib qolgandi. Uning o'limiga Mayrambek o'zi sababchi ekanini his etdi. Ko'zlari yoshga to'lib, kuchugining jonsiz junlarini silab, unga jimgina tikilib turardi.

Kechir, Oqto‘sh, — dedi ichida pichirlab vidolasharkan, — senga Qo‘riqchi deb behuda ism qo‘ygan ekanman. Qish kunlari chiniqtirib, qo‘ra qo‘ylarni qaytarishga o‘rgataman, qo‘riqchi it bo‘ladi, deb o‘ylagandim, ammo kuchukligingni e’tiborga olmabman. Seni o‘zim o‘limga duchor qildim... Seni Oqto‘sh, deb chaqirib, erkalatib, katta bo‘lgunincha yaxshilab boqsam bo‘lar ekan... Xayr, Oqto‘sh... meni kechir...

ABDIKERIM MURATOV

1956-yilda O'sh viloyatining Novqat tumanida tug'ilgan. O'sh davlat universitetini bitirgan. Yozuvchi, publitsist, pedagogika fanlari doktori, professor, adabiyotshunos.

GO'RKOVLAR

(Hikoya)

Qabriston eshigining temir qulfi to'ng'ib qolibdi, ikkisi uyidan olib kelgan gugurtning ikki-uchtadan donasini bir amallab yondirib, muzni arang eritib, chilla sovug'ini singdirib olgan temirning kalitini eplab-seplab burab, g'irchillatib zo'rg'a ochishdi.

Tunda tizza bo'yi qor yog'ibdi. Bunday paytda saharlab namozga keladiganlar ham ko'rinmaydi. Oy yotog'iga og'ib, yulduzlar birma-bir o'chib, tevarak-atrof yorisha boshladi. Ko'hna eshiklar issiqda g'iytillab ochilar edi, bu gal qor yopib qo'yibdi. Ikkovi yog'och kurak bilan darvoza eshigining bir yonini kurab, go'ristonga kiraverishdagi guvala bilan qurilgan kichik hujra tomonga bir kishi yursa bo'ladigan yo'lak ochmoqchi bo'lishdi.

Ularning yoshrog'i — Egen, yoshi kattasi — Komil. Shu yerda go'rkovlik qilishadi. Ularni har kim turlicha ataydi, lekin teng-tushlari to'g'ridan-to'g'ri "go'rkovlar" deb aytishadi. O'zlari esa "marhumlarga uy solamiz" deb qo'yishadi. Tengqurlari jahlini chiqaraversa, "Qarab tur, senga oyog'ing sig'may qoladigan go'r qaziyman" deb hazillashib qo'yishadi.

Ular avval uch nafar edi, uchov xolos, kechagina...

* * *

Komil yaxshi uxlay olmay, u yoq-bu yog'iga ag'anab bezovta bo'laverdi, ayoli allamahalda: "Betoqat bo'lmay, uxlamaysizmi endi, ertaga yana ish chiqib qolsa, go'rning ichida uxlab qolasiz",

deb qo'ydi. Shunday qalin qor yog'ayotgan kechada kim ham o'lardi, dedi Komil o'ylanib yotib.

* * *

Shunday o'y surib yotganida tun yarmi — yulduz chiqqan mahal hovlisi darvozasidan birov chaqirib qoldi. Chiqsa, Mutalning kichik o'g'li. "Otam yomon bo'lib qoldi, akalarim sizni kelsin deyishdi", deb ortiga qaytdi. Komil ichkariga kirib pattali kalishini, yotganda kiyadigan uzun ko'ylagining ustidan po'stinini yalang kiyib, "yo Xudoyim" deb kirib borsa, Mutal akasi uzun cho'zilib yotibdi. Oyoq-qo'li, iyaklari tang'ilib, kalimasini aytishga holi yetmay, bir "g'i-rq-g'i-rq" qildi-da, og'zidan ko'k chivinini uchirib, bolalarini bo'zlatib ketaverdi.

* * *

Komil Mutalning o'g'il-qizlariga nima qilishni, kimlarga xabar berishni tayinlagach, "men endi qabrning g'amidan bo'layin", deb Egenni chaqirib, ikkovi ish boshlamoqchi bo'lgani shundan edi.

* * *

Bu yer kichik shahar bo'lsa ham, urf-odati, odamlarining fe'l-atvori elatnikiday. Bir paytlar ovul edi. Qaysi bir yillari Moskvadan o'rislar kelib kon topishib, qaziy boshlashdi. Keyin konchilar to'p-to'p bo'lib ko'chib keldi, to'rt qavatli uylar tushib ovul ikki yilda shaharga aylanib ketdi. Ko'p o'tmay eski qabristondan boshqa yana ikkitasi paydo bo'ldi: "kladbisha" deyiladigan birinchisiga kelgindilar, ikkinchi qabristonga musulmonlar qo'yiladigan bo'ldi. Shahar gurkirab o'sgani sayin qabristonlar to'lib, urandan zaharlanganlar undan battar ko'payib, yer ustidagilardan yer ostidagilar ko'payib ketayotgan paytda "ilon ham chaqmay, yilqi ham tepmay", ittifoq deganlari buzilib, kelgindilar uran qoldiqlarini tashlab, duch kelgan tomonga ketdi. Zavod va fabrika ham to'xtagach, yumushsiz qolgan mahalliy aholi soni ham ozaya boshladi. Ha deganda, savob umididagi el qabristonga birlashib chiqib ishlagani, go'rkovlar uchun qo'niqo'shnilar issiq taomlar olib kelayotgani tufayli qazilayotgan

qabr tez bitardi. Bora-bora elning safi ozayib, mulla "bu gal bu ko'cha, yanagi safar narigi ko'cha chiqsin", deb vazifador qilib qo'ydi, shunda ham bo'lmay, "bu gal falon yili maktabni bitirganlar, yanagi safar ulardan keyin bitirganlar chiqsin", deb navbat qilib qo'ydi. Bu ham bo'lmadi. Odamlar u yoq-bu yoqqa ketib qoladi, og'rib qoladi, ishlash uchun chet yoqlarga chiqib ketadi. Ba'zan joy tayyor bo'lmay, o'lik egalarining o'zlari qabr qazigan paytlar ham bo'ldi. Keyin kengashib, bir kishini topaylik, uning ish haqini o'lik chiqqan uy egasi to'lab bersin deyishdi, lekin hech kim unamagach, bir yil ishlab ber, deb oxiri shu Mutalni ko'ndirishdi.

* * *

Mutal go'ristonga qadami yetishi bilan yerga o'tirib, marhumlarga bag'ishlab Qur'on o'qib, yangi qabr uchun yerga birinchi kurak botirib, "bismillo" deb marhumni go'rga qo'ygach, el tarqalganidan keyin ham o'sha yerda yurardi. Mullalar ham, boshqalar ham uning ishidan rozi bo'lib, yaxshi go'rkov topilganiga quvonib yurishdi. Biroq qabrni birgina Mutalning o'zi qazishga ulgurmay, o'lik chiqqan yerdan ikki-uch bolani yordamga jo'natib yurishdi. Ular majburan kelib-ketishadi, bir nechasini marhumlarning qabri boshida telefon bilan so'ylashgani uchun Mutalning o'zi quvib soldi.

Bir gal ish yo'q, bolalarni boqolmayapmiz, bizni yordamchi qilib oling, deb yig'lamsirab ikki yigit keldi. Mutal mayli, ish bo'lsa xabar beraman, degandi. Ish bo'ldi. Moskvada ishlab yurgan yosh yigitni taqirboshlar o'ldirib ketibdi. Mayit hali kelmagandi. Joyni tayyorlash kerak, axir uni Moskvaga — Qizil Maydonga ko'mishmaydi-ku? Ikki yigitni chaqirib, o'zi qabr qazishni boshlab berdi. Odam bo'yi qazilganda Mutal mayit keldimikin, deb xabar olgani marhumning uyiga ketdi. Ikki sherigi ishni davom ettiradigan bo'lishdi. Qaytib kelib qarasa, qabr ichidan tashqariga tuproq chiqmayapti. Bitirib qo'yishgandir yoki biror joyga ketib qolishdimi deb yaqinlashsa, go'rning ichidan ovoz chiqyapti. "Davay, mana shunday

ish chiqib tursin" deb biri aytsa, boshqasi "go'r qazib yuraveraylik", deydi. Keyin cho'qishtirilgan stakanlarning ovozini eshitib, go'rning tepasida turgan Mutal ikkovini ham kesak bilan urib, quvib chiqdi...

* * *

Keyin Komil qo'shildi. Birinchi ayoli tug'uruq mahali o'lib qolgani uchun mung'ayib har kun uning qabriga kelib yurgan payti ekan, qabrning tuprog'ini g'ijimlaydi, bir nimalarni aytib gaplashgan bo'ladi. Qachon qarasa, shu yerda yurgani-yurgan. Bora-bora u Mutalga qaralashadigan bo'ldi. Ikkovi mol-hol kirib ketmasin deb, qabristonning buzilgan to'smalarini o'nglab chiqishdi, yozda odamlar yuradigan yo'lning o'tini o'rishdi, ziyoratchilar tik turib qolmasligi uchun qabriston chetidagi teraklarni kesib, shoxlarini butab, har biriga olti-yetti nafardan odam o'tiradigan o'rindiq yasashdi. Ikkovi bir-biriga ancha o'rganib qolishdi.

* * *

Yillar o'taverdi. Bir yil ishlab ber, deb oqsoqollar arang ko'ndirgan Mutal ham, ayolining qabriga kelib yurib, bora-bora uni yodidan chiqarib, yangi xotin olgan Mutalning shogirdi Komil ham qabristonga qarab yurib, go'rkovlikni tashlab ketolmay qolishdi. Uy yoki bozor-o'charga borishsa ham, shahar chetidagi qabriston ikkisining ko'ziga issiq ko'rina boshladi. Qolaversa, bu yerning havosi toza, salqin, undan biroz narida qirlar va tog' ko'zga tashlanadi. Kelgan odamning ruhi yorishib, kayfiyati ko'tariladi. Hujraga chovgum, toshkosa qo'yishgan, chanqab qolishsa, o't-giyohdan choy damlab gurunglashib o'tirishadi, bir necha kun ko'rishmay, keyin uchrashishsa sog'inchlari yoziladi.

* * *

Bir kuni qabristonni obodonlashtiramiz, arablar kelib machit soladi, deb bir to'p yigit keldi. Yo'llarni asfalt qilib, mulla va go'rkov, qabristonga qarab turganlarga deb, jami to'rt kishiga oy-

lik chegirib berishdi. "Qabristonni o'shalar sotib olibdi", degan gap chiqdi. O'shanda go'rkovlarga uchinchi bo'lib Egen qo'shildi.

* * *

Egen bilan Komil qalin qorni bir-birining ortidan kurab borib, hujraga yaqinlay boshlashdi...

Ikkovining bor vujudi og'rib, ko'ksi achishib, dili ko'chki tushganday to'liqib, bir-biriga ko'zi tushsa, o'kirib yig'lab yuboradiganday yerga tikilib, bor alamini ishdan olish uchun yumshoq qorni olis-olisga irg'ita boshlashdi...

* * *

Mutal bilan Komil ketmon, kurak, cho'kich, misrang, guvala, xom g'isht, o'rindiqlarni joylash uchun shu hujrani solishgandi. Yoz issig'ida hech kimdan yordam so'ramay, ikkovlashib soydan chelakda suv tashib chiqib, loy qilib, guvala qo'yib, hujra devorini tiklashdi. Yaqin-atrofdagi teraklarni kesib, odamlardan bir-ikkitadan shifer so'rab yurib uni bitkazishdi. Keyin ketmon-kurak, jinchiroq, toshfonar, idish-tovoq olib kelishdi. Issiqda soya izlagan, qish kunlari sovuq qotganlar shu yerda o'tiradigan bo'ldi.

* * *

Egenning ularga qo'shilgani ham qiziq bo'lgan. Otasi yopilib ketgan shaxtaning tuynugini topib, ko'mir qaziydigan "apachilar" bilan birga ishlardi. Eski shaxtyor, ko'mir qazishning, yer ostidagi yo'laklarda yurishning sir-asrorini yaxshi biladi deb, uni sherik qilib oladiganlar ko'p edi. Bir kuni tirgaklar qulab, shaxtyorlarning to'rttasi shaxta ichida qolib, o'n nafari qochib chiqadi. Qutqaruvchilar to'rt-besh kun izlab ham ularni topisholmaydi.

Qarindosh-urug'lar, mulla va oqsoqollar maslahat qilib, Egenning otasi qabrini ham qazib qo'yaveringlar, deyishadi. Mutal bilan Komil ish boshlashadi. Qabr qazilayotgan paytda qutqaruvchilar hushsiz yotgan Egenning otasini yer ostidan olib chiqishadi. Ma'lum bo'lishicha, eski shaxtyor chuqurlikning har yer-har

yerida uchraydigan tashqaridan havo kiradigan tuynukchalardan birini topib, uning ostiga qulab tushibdi. Egen otasining sog'-salomat topilib, bemorxonaga yotqizilganidan xursand holda qabr qazishni to'xtatishlarini aytish uchun borsa, go'rkovlar ishlarini bitiray deb qolishgan ekan. Mutal "Kel, qabrni bitkazib qo'yaylik", deb manglayidagi ter va ko'zidagi yoshni artib: "Bu joy sening otangga buyurmagan ekan, to'rt yil to'shakda yotib qolgan og'amning o'lganini hozir yetkazishdi, men borayin, sen Komil bilan oxiriga yetkazib qo'y", deydi.

Shundan keyin Egen ham go'rkov bo'lib ketadi.

Hali uylanmagan yigitning go'r qazib yurishi ko'pchilikning muhokamasiga uchradi. Otasi qo'llab-quvvatladi, onasi esa indamadi.

* * *

Egen bir kuni do'konga kirsa, sinfdoshlari bir-biri bilan gap talashib, shovqin solib o'tirishgan ekan. Umar ismli mahmadonasining ancha kayfi oshib qolgan ekan, uni ko'rgan zahoti: "Go'rkov keldi, kel, go'rkov, bitta aroq olib kelib biz bilan ich", dedi. Og'zidan bodi kirib, shodi chiqadi. Egenning araq ichmasligini ham, hech kimga araq olib bermaganini ham hamma yaxshi bilishadi. Qo'y endi, deyishsa ham, Umar unamadi. "Ey go'rkov, men o'lsam, go'rimni kengroq qilib qazgin!" deb qattiq-qattiq kuldi.

Bir oy o'tib-o'tmay, go'rkovlar Umarning qabrini qazishdi. Rahmatlining vasiyati tufayli Egen uning go'rini kengroq qildi...

* * *

Egenning qo'rqqani — qazib turgan joyidan chiqadigan ilon. "Qabr qaziyotganda go'ridan ilon chiqibdi", "Kafanning ichiga ilon kirib ketibdi", degan so'zlarni bolaligidan buyon eshitaverib qo'rqoq bo'lib qolgan. Anchagacha go'r ichiga tushmay yurdi, lahadga Mutalni kirgizishadi. Egen tuproq ko'chib, ichida qolib ketadiganday qo'rqib turadi.

Bir marta astoydil cho'chigani rost. Subhi sodiq mahali tog'larning boshi asta-sekin yorishayotgan paytda qabristonga

kirib, yo'rgakdagi chaqaloqning ovozi-yu qandaydir jonivorlarning chiyillagan tovushlari va odamlarning qattiq qiyqiriqlariga o'xshagan sadolarni eshitib, turgan joyida qotib qoldi. Tizzasidan mador ketib, tanasi qaltirab ortiga burildi. Ancha narida Mutal akasi ko'rindi. "Xayriyat" dedi ichida. "Nega turibsan, ishni boshlayvermabsan-da?" dedi Mutal yaqinlashib. Ikkisi ketmon-kuraklarini olib qabristonni oralab borishayotganda yana o'sha ovozlar eshitildi. "Qistaloq, go'r kovlagichlar tag'in kelibdi-da", dedi Mutal qovog'ini solib. "Yur, — Mutal qo'liga belkuragini mahkam ushlab Egenga qaradi, — chiyabo'rilar kelibdi". Bir qabrni o'rab turgan besh-olti chiyabo'ri ularga qarab irilladi. Ikkovi kurak ko'tarib yaqinlashsa, chiyabo'rilar ortiga biroz chekinib, yana qabr boshiga qaytib kelaverdi. Xudo yarlaqab, shu paytda Komil ularga qo'shildi. Chiyabo'rilarni har tomondan haydab, qabristondan arang quvib chiqishdi. Yirtqichlar maqsadiga yetolmay, ortiga qarab-qarab qirdan oshib ketishdi...

O'shandan keyin ertalab qabristonga uchovi birga keladigan bo'ldi.

* * *

Go'rkovlarni yoqtirmaydigan, ularning o'rnini talashgan, qilayotgan ishlarini ko'rolmaydiganlar ham topildi.

Har bir kishi kimningdir vafot etganini eshitgan zahoti eldan qolmaslik uchun, qarindoshlari esa o'tin-suvga qaralashmoq uchun marhumning uyiga yetib borsa, bu uchovi qabr tayyorlashni kechiktirmaslik uchun tog' etagidagi qabristonga qarab jo'nashadi.

Mana shunday kunlarning birida, aniqrog'i, birovning janozasi oldidan eski faol — hozir imomlikni talashib yurgan saksovulday g'o'daygan kishi "qabrlar yomon qazilyapti, suv kirib ketyapti", deb gap boshladi, boshqasi esa qabristondan chiyabo'rilar ovozi eshitilyapti, ular go'rlarni kovlab ketishyapti, dedi. Buning uchun ham go'rkovlarni aybdor qilishdi.

Bir yoshgina yigit qarindoshlari bilan Qozog'istonga ishlagani ketgan ekan, o'sha tomonlarda ikki inisi avariyaga uchrab

qazo qilibdi. Ularni ham shu yerga qo'yib ketibdi, lekin otasi tez-tez tushiga kirib: "Men go'rimda turib qoldim, qaytadan ochib, yotqizib qo'yinglar" debdi. Yigit imom va bir-ikki qarindoshini ergashtirib keldi. Irim-sirimini qilib go'rni qaytadan ochishsa, chindan ham mayitning bosh tomoni ko'tarilib qolibdi. O'nglab yotqizib quyishdi.

Boshqa bir safar ham shunday bo'lib, go'rni ochib ko'rishsa, murda ayol og'ziga solib chaynaganmi, kafani og'ziga borib qolibdi. "Kafanini chaynab qo'yibdi" deb irimini qilib, uning og'zidan kafanni chiqarib olishdi...

* * *

Bir marta Komil "men ishlamayman, ketaman", deb qazilayotgan qabr ichidan chiqdi. Mutalning jahli chiqib "ketsang, ketaver" dedi-da, jo'natib yubordi. Lekin bugun ketgan Mutal ertasiga qaytib keldi.

Nega ketganini aytib berdi. Ayoli "el sizlarni go'r sotadi deyapti. Go'rni qazib qo'yib, boshqa yoqdagilarga qimmat narxda sotadi deyishyapti, topgan puling qani?" debdi.

Voqea shunday bo'lgandi. Bir kuni mulla taniqli tadbirkorlardan birini shahar chetida otib ketishibdi, murdasi o'sha yerda yotganmish, qabrini qazib bering, deb kelgandi. Qabrni qaziy boshlashdi.

Keyin "o'lik yo'qolib qolibdi", degan gap chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, katta ariqning bir tomoni shaharga, ikkinchi tomoni tumanga qarar ekan. Shahardan borgan militsionerlar o'likni tuman tomonga o'tkazib qo'yishibdi. "O'lik kimniki?" deb militsiya xodimlari ikkiga bo'linib, ikki kun talashib-tortishibdi. Keyin jasadni o'likxonaga olib borishadi, ekspertizadan o'tguncha yana ikki kun, jami besh kun o'tib ketadi.

Bu orada shaharning boshqa tomonidan yangi o'lik chiqib, haligi yangi qabrga o'sha qo'yildi. O'shanda tadbirkorni ham tez qo'yish kerak bo'ladi, lekin uning joyi bir kun kech qaziladi...

Shu voqeadan so'ng o'sha gap chiqdi.

Uchovi bir-birini tushunib, yana birga ishlashdi.

* * *

Komil bilan Egen mayda-chuyda narsalar qo'yilgan hujraga yetib kelishdi. Hujraning darchasini ochib, ikkisining ham o'pkasi to'lib ketdi. Bir burchakda Mutalning kesaklari turibdi. Mutal har bir mayitni qo'yib kelganidan so'ng guvaladan mushtday sindirib, burchakka olib qo'yaverardi. Mushtday kesaklarni bu yerga qachondan qo'ya boshlaganini ularning ikkovi ham bilmaydi, chunki avvaldan bu kesak bo'laklari bor edi. Ikkisi ham Mutalning bu ishiga hayron bo'lib qarab qo'yishardi, xolos. Burchakda kesak xiyla uyilib ketgandi. Uni ko'rib go'rkovlarning ko'ngli buzilib, yurak-yurakdan ezilib o'tirib qolishdi.

Kecha peshindan keyin Mutal bu ikkovini bir-bir ko'ksiga bosib, "charchamanglar", "bardam bo'linglar", "ertaga yana ko'rishguncha omon bo'linglar" deb ketgandi. Qarang, endi u ushlagan kuraklar turibdi, ketmonlar turibdi, solgan hujrasi turibdi, uyib qo'ygan kesaklari turibdi... Ko'ksiga bosgan ikki odami turibdi...

* * *

Bitta-yarimta go'rkovlarga taom olib kelsa, ikkovi Mutalni oqsoqol sifatida "to'rga o'ting" deb turishardi, endi o'ylab qarasa, "to'rga o'ting" degani, "go'rga o'ting" deganday bo'lgan ekan.

* * *

Mana endi bir sherigining go'rini keng qilib qazib, "qabringga nur to'kilsin", deb ikkovi qorong'i chuqurlikdan chiqdi.

Komil bu gal boshqacha ish qildi: bir chelak mayda kesakni kaftida ushatib, "joyingiz yumshoq bo'lsin" deb, mayit qo'yiladigan yerga sepib chiqdi...

* * *

Tobutni ko'tarib kelayotgan bir to'p odam ko'rindi...

* * *

"Otam Abdumutal qanday odam edi?" deb uch marta so'radi bolalardan biri. "Yaxshi odam edi", "yaxshi odam edi", "yaxshi

odam edi", dedi qabr boshida turganlar. Mutal qazgan shu yerdagi boshqa qabrlardan ham marhumlarning ovozi eshitilganday bo'ldi: "yaxshi odam edi", "yaxshi odam edi", "yaxshi odam edi..."

* * *

Bolalar qabr boshidan qaytib, hujraga ketmon-kuraklarni, o'rindiqlarni qo'yib chiqishganidan so'ng Komil guvaladan mushtday bo'lakni sindirib oldi-da, Mutal akasi uyib ketgan mayda kesakchalarning ustiga qo'ydi...

QUYOSH OPA

(Hikoya)

— Yonboshlab yotavermay, mardikor bozoridan birorta kir yuvadigan xotinni olib kelmaysanmi? Xizmatchimizning biri ruxsat so'rab qishlog'iga ketdi, yana birining mehnat ta'tiliga chiqqanini yaxshi bilasan-ku. — Ayoli televizor pultini endigina ko'liga olgan Mederga nima deydi ekan deb gapirgan bo'lsa ham, ovozida ayollarga xos jiddiylik bor edi.

Bunday paytlarda xotinining gaplari Mederga chivin chaqqanchalik ta'sir etmasa ham, unga yuragi achishdimi yoki yakshanba kunida zerikib qolganidanmi, haytovur, mashinasining kalitini olib, sport kiyimida tashqariga yo'naldi.

— Tuzukrog'ini olib kel! O'g'ri yoki araqxo'rini boshlab kelma! — dedi ayoli qator-qator temir eshiklarni sharaqlatib yopar ekan, tag'in nimalarnidir uqtirib.

Shaharning yumush izlovchilar ko'chasiga yetganda, "Jip"ning tezligi susaydi: bir tomonda to'rt-besh erkak qarta o'ynab o'tirishibdi, mashina bilan ishlari yo'q, ulardan narida o'n chog'lisi to'da bo'lib turgan ekan, hammasi baravar "Jip"ning oldiga yugurib keldi. Meder ulardan birining "Bu boyvachchalar pulingni

bermaydi" degan gapini eshitib qoldi, boshqasi esa "Reket bo'lib chiqmasin tag'in" deganday bo'ldi.

Meder mashinani sekinlatib haydab, bir to'p ayollar ro'parasida to'xtatdi. Ularning orasidan biri ajralib chiqib, mashinaga yaqinlashdi:

— Boyvachcha yigit, biror yumushingiz bormi?

— Ha. Xotinimga yordam bo'lishi uchun kir yuvdirmoqchi edim.

— Yaxshi! Mashina bilanmi yoki qo'lda yuvdirasizmi?

— Kir yuvadigan joyga olib borib qo'yaman, o'sha yerda yuvishadi.

— Qizlar, prechkada o'ynagani kim boradi? — Ayol shunday deb ortiga o'girilishi bilan davradagilarning hammasi qo'l ko'tardi. Bir juvon esa ularga, hatto haligi ishboshi ayolga ham e'tibor bermay, to'g'ri kelib "Jip"ning orqa eshigini ochib, o'rindiqqa o'tirib oldi.

Ko'tarilgan qo'llar tushirildi. Ishboshidan ham sado chiqmadi. Meder hayron bo'lsa-da, ish haqini shu yerda kelishib olgisi kelib, orqasida o'tirgan juvonga qaramay:

— Bir kunga qancha olasiz? — deb so'radi.

— Senga nima, pul yo'qmi? Mening xizmatim boshqalarnikidan qimmat! Hayda, aravangni!

Meder indamay mashinasini uyi tomon haydadi. Bir ko'cha o'tishi bilan:

— To'xtat! Boshim yorilay deyapti! Avans ber! — Orqada o'tirgan ayolning o'ktam ovozi Mederning xayolini buzdi. U shahar chetida boy-badavlat oilalar uchun qurilayotgan uylarning vaqtida bitkazilmay, rejadan ortda qolayotganining sababini o'ylab, boshliqlarni almashtirib, o'rniga kimni qo'ysam ekan deb, bosh qotirib kelayotgandi. Qo'l ostidagi quruvchilarning barchasini ko'z o'ngidan o'tkazib, ortida o'tirgan yo'lovchini tamoman unutibdi. Buning ustiga, haydovchisiga ruxsat berib yuborib, mashinani o'zi boshqarayotgan edi. Cho'chib tushdi. Mashinani yo'l yoqasida to'xtatib, yuz so'mlikning birini olib ortidagi ayolga uzatishi bilan, u mashinadan tushib, eshikni ham yopmay, yugurib

ketdi-da, "Batken vinosi" deb yozilgan bochka oldiga borib, yuvilmagan stakanga vino quydirib, bir ko'tarishda ichdi-da, qanday shoshilib ketgan bo'lsa, shunday ildamlik bilan kelib mashinaga o'tirdi.

Doimo havoni tozalovchi xushbo'y atirlar sepiladigan "Jip"ning ichini badbo'y is tutib ketdi. Mederning ko'ngli aynidi, shamol beradigan moslamani ishga tushirib, yoni-veriga sezdirmay atir sepib qo'ydi-da, ko'zgudan ortidagi ayolga qaradi.

Yuzi yaylovning tuprog'iday kuyib, bo'yinlari tirish bilan qoplangan, kir ko'ylakni semiz tanasiga ilib olgan ayolga nigohi tushishi bilan Mederning vujudi seskanib ketdi. Negadir ayolning bo'y-basti, yuzlari unga tanishday tuyuldi. Kim edi? Kim edi? Esloimadi... Lekin ayol ko'ziga issiq ko'rina boshladi. Qayerda ko'rgan edi? Kim edi?

Ayol o'qchidi. Mashinaning ichiga qayt etib yubormasaydi, deb xavotirlangan paytida:

— Hayda! — dedi ayol. Bu tanish ovoz bir umr Mederning qulog'i ostida jaranglab turganday edi. Sezdirmay ko'zgudan yana bir marta tikildi. Tanidi. O'sha! Ha, o'sha!

* * *

Hozir yurtda taniqli bo'lgan tadbirkor Mederning qishloq maktabining bitiruvchi sinfida o'qib yurgan paytlari edi. Birinchi sentabr kuni direktor ularning sho'xligi bilan tanilgan sinfiga bir qizni boshlab kirdi. Oppoq bulutday oq ko'ylakli, chiroyli uzun oyoqlariga paypoq kiymay ochiq qoldirgan, sinfdagi bolalarning barchasini o'ziga mahliyo aylab, qattiqroq yo'talsang, uchib ketadiganday nozik qizni qishloq bolalari birinchi marta ko'rib turishlari edi.

— Bu opangizning ismi Atirgul. Bu yil universitetni imtiyozli diplom bilan bitirib, qishlog'imizga o'qituvchi bo'lib keldi. Sizlarga astronomiya fanidan dars beradi. Shu bilan birga, qishlog'imiz tog'lari yulduzlarga, oy va quyoshga yaqin bo'lgani uchun, opangiz osmon jismlarini kuzatib, nomzodlik dissertatsiyasi uchun material to'plamoqchi. O'qituvchingiz bir kuni taniqli falakshunos

olim bo'lib yetishadi! — Direktor o'quvchilarni yangi o'qituvchi tanishtirayotgan paytda, to'polonchi sinfning ayrim tentaklari "piq" etib kulsa, boshqalari iymanib turgan qizga "boplaysan" deganday masxaraomuz tikildilar. Bir-ikki nafar bola esa ko'z qisib qo'yishga ham ulgurdi.

Direktor chiqib ketishi bilan yangi o'qituvchi darhol darsni boshlamoq niyatida jurnalni ochib, o'quvchilar bilan tanishmoqchi bo'ldi.

— Abduraimov! — Jurnal boshidagi o'quvchining familiyasini hayajonlanib zo'rg'a aytdi. Bunday paytda nomi tilga olingan o'quvchi o'rnidan turishi kerak bo'lsa ham, hech kim pinagini buzmadi.

— Abduraimov! — Opa jurnaldan ko'zini uzmay, past ovozda yana bir marta takrorladi.

Shunda ham Xudobezori Bo'lat o'rnidan ko'zg'almadi. Bolalar unga tikilishdi.

— O'qituvchi chaqirganda o'rindan turish kerak! — dedi opa bolalar qaragan tomonga boqib, shu bolaning Abduraimov ekanligini sezgach.

— A, siz o'qituvchimisiz... — dedi Bo'lat joyidan turmoqchi bo'lib. Bolalar kulib yuborishdi. Yangi o'qituvchining oppoq yuzi goh qizarib, goh oqardi, ancha mahalgacha hech nima deya olmay, jim qoldi.

* * *

Meder ro'parasidagi ko'zgudan ortidagi ayolga o'g'rincha qarab qo'ydi. Juvonning yuziga qizil vinoning nuqsi urib, sochlari sarg'ayib, tishlari to'kilib bitibdi.

* * *

Keyinroq Atirgul opa Mederning sinfdoshlari bilan inoqlashib, ularni ortidan ergashtirib yuradigan bo'ldi. U o'quvchilariga "Sizlar mening yo'ldoshlarimsiz, men Quyosh bo'lsam, sizlar uning atrofidagi planetalarga o'xshaysizlar" deb aytardi. Bolalarning barchasi opani "Quyosh" deb atay boshladilar. Ular "Quyosh opa

kelyapti", "Quyosh opadan besh baho oldim", "Quyosh opani kim yaxshi ko'radi?" deb gapirishni yaxshi ko'rishardi. Quyosh opa... Quyosh opa...

* * *

Meder yana ortidagi kir yuvuvchi ayolga ko'z qirini tashladi. Quyosh opani quyosh kuydirib bo'libdi...

Uning yodiga opaning o'shanda aytgan gaplari tushdi: "Quyosh — biz yashayotgan yer planetasiga eng yaqin yulduz bo'lib, Quyosh sistemasining markazida turadi. Quyoshning radiusi yerning ekvatordagi radiusidan 109 marta katta va yerdan 333.000 marta og'irdir".

Quyosh opa ana shunday saboq berardi.

Bir gal Quyosh opa ularning sinfini shaharga olib borgandi. Bolalar bir-biri bilan talashib-tortishib, teleskopdan yulduzlarni tomosha qilishgandi. Bir payt bundoq qarashsa, Quyosh opa bir notanish yigit bilan gaplashib turgan ekan. O'qituvchilar aytganiday, "tentak sinfning tentak bolalari" hech narsani so'rabsurishtirmay, haligi yigitni rosa do'pposlashgandi. Quyosh opa yo'l bo'yi ko'z yosh to'kib kelgandi. Bolalar indamay boshlarini egib tursalar ham, qizlarning ko'zi yig'idan qizarib ketgandi...

Boshqa gal Quyosh opa ularni tog'ning eng baland cho'qqisiga olib chiqqanida, o'sha yerdan yulduzlarga nigoh solishgandi. Mana bu yulduz — Zuhra, bunisi — Oltin qoziq, bunisi — Katta ayiq, bunisi uchadi, unisi uchmaydi deb hammasini tushuntirgandi. Bo'lat o'shanda "Quyosh opa, har bir yulduz quyosh bo'lsa, har bir quyoshda yer bo'lsa, har bir yerda bittadan Bo'lat bo'lsa, o'shalarning ham Sizday quyoshi bo'ladimi?" deya kulgili savollarni qalashtirib tashlagandi.

Bir marta o'qituvchi opa bolalarni chuqur xayol surishga o'rgatib, kunduz kuni osmondagi yulduzlarni ko'rsatgandi...

Quyosh opa ana shunday edi. Bolalar uni quyoshga mengzab, tegrasida aylanishardi...

* * *

Meder ko‘zgudan yana bir marta orqa o‘rindiqdagi juvonga qaradi. Tanish ko‘z. Quyosh singari kulgan ko‘z. Boshqasi yo‘q. Quyosh opasi yo‘q... Faqat ko‘z qolgan...

* * *

Svetoforning qizil chirog‘i yondi. Meder chorrahada mashinasi to‘xtatdi. Piyodalar yo‘lni kesib o‘ta boshlashdi. Mashina to‘xtab turganida, orqa o‘rindiqdagi ayol eshikni zudlik bilan ochib, ko‘-chadan o‘tayotgan odamlar oqimiga qo‘shilib ketdi...

QO‘CHQOR BORBUG‘ULOV

YONG‘OQ QISSASI

Miqtalining bu taraflarga birinchi kelishi. Shu bois notanish joylar unga yangi olamdek tuyular, atrofga zavq va havas bilan boqib, meni turli savollarga ko‘mib tashlardi.

Rasm chizishga qiziqqanidanmi yoki sayohatni xush ko‘rganidanmi, atrofdagi manzaraga suqlanib, zavqlanib borardi. Qolaversa, har gal unikiga borganda qishlog‘imni to‘lib-toshib maqtardim. Miqtali qiziqib, anchadan buyon men bilan qishloqqa borishga tayyorlanar, hatto yo‘lga hozirlik ham ko‘rib qo‘ygan edi. Mana, ancha vaqt o‘tgach, qishloqqa borishga imkon topildi.

Har bir qishloq chegarasida Qizko‘l, Qaytmas, Oqtovuq, Kadu degan yozuvlarni o‘qib borarkan, derdi:

— Menimcha, har bir nomning o‘z tarixi bo‘lsa kerak. Bu atamalar zaminida talay afsona va hikoyalar yashiringandir.

— To‘g‘ri. Bilasanmi, nega Qizko‘l deyiladi?

Qizko‘l afsonasini endi ayta boshlagan ham edimki, yonimizga bir otliq kelib qoldi.

— Qanat, qayoqdan kelyapsan?

Qarasam, Sanjar buva. Unga Bishkekdan kelayotganimni aytdim.

— Bu kim? — so‘radi u.

— Aman buvaning o‘g‘li Miqtali.

— O‘h-o‘, zap yigit bo‘pti-ku!

Sanjar buva shunday deya shoshilib u bilan ko‘rishdi va ancha vaqt biz bilan yonma-yon ketdi.

— Miqtali degan bor, deb ko‘p eshitganman. Ammo sen ajdodlaring yurtiga biron marta kelmading. Yaxshi qilibsan bu yoqlarga kelib, rahmat senga, tez-tez kelib tur. Ajoyib joylarimiz bor. Mana ko‘rasan, qaytib ketging kelmaydi.

— To‘g‘ri, buvajon, eshitganman, — dedi Miqtali.

Sanjar buva otning jilovidan tortib bizga yuzlandi:

— Mana ot, ikkovlaring minib olinglar. Men Qodiralidan xabar olaman. Keyin avtobus bilan jo'nayman.

Biz indamasdan otga mindik. Yuganni silkib otni chuh-chuhlab va uzangi bilan niqtab tobora tog' tomon ko'tarila boshladik.

Kadudan o'tgach yong'oqzor boshlandi. Biz birinchi uchragan daraxt yonida to'xtadik, otni bog'lab atrofni tomosha qildik.

— Jannat deganing balki shu yerdan boshlanar? — so'radi Miqtali.

U chor-atrofdagi manzaraga to'ymay boqar, oyoqlar ostiga to'kilgan ko'k, sariq barglarni shitirlatardi. Ular orasida to'kilgan yong'oqlar yotardi. U cho'ntagini yong'oqqa to'ldirdi, o'tirib tosh bilan chaqdi, mag'zini yeyarkan, yong'oqni birinchi marta ko'ra-yotgandek berilib tomosha qilardi.

— Ba'zilari po'stlog'i bilan ekan, bulari pishmaganmi? — so'radi mendan.

— Pishgan, po'stlog'i tushmagandir. Agar mevasi shoxda uzoqroq tursa...

— O'zi tushib ketadimi?

— Ha, o'zi ham tushib ketadi, shamolda va silkiganda ham tushadi. Agar yong'oq pishsa, po'stlog'i o'z-o'zidan ajraladi.

— Eh-ha, siri ko'p ekan-da.

Biz Kaduning o'ng yonbag'irligi bilan ko'tarilib yo'limizda davom etdik.

Pastda soy shovullaydi. Bizdan teparoqdagi qir nuqul yong'oq-zor bo'lib, yam-yashil massiv ko'rinadi. Undan ham balandroqda bepoyon kenglik, ko'm-ko'k osmon.

Biz ketayotgan so'qmoqning har ikki tomoni birov ataylab o'tqazganday qator yong'oqzor. Ustidagi mevalar osmondagi yulduzlar kabi bizni terib ol, deganday osilib turibdi. Shamol esgan sayin hali u, hali bu joyda "tik-tik" ovozi eshitiladi.

Miqtali o'z xayollari bilan band. Birdan u so'rab qoldi:

— Mana bu baland daraxtga qanday chiqishadi?

— Bundan ham yo'g'on, silliq tanali daraxtlar bor. Ularga epchillar chiqishadi. Qo'shoyoqlardek shoxdan shoxga o'tayotganini ko'rsang ko'zlaringga ishonmaysan. Ana shunday qo'shoyoqlar

ikki shox ayrisida turib, uzun yog'och bilan shoxlarni qoqadi va silkitadi. Yerda yong'oq uyumi hosil bo'ladi.

— Voy-bo'y, qanday go'zallik, qanday boylik! Hatto yerdagisi yig'ib olinsa qancha bo'ladi.

— Biz yong'oqzor o'rmonning bir chekkasida ketmoqdamiz. Anavi tog'lar ortida minglab gektarda yastanib yotgan Arslonbob va Qoraolma yong'oqzorlari bor, — dedim men.

— Bundan chiqdi, siz o'rtasida yasharkansiz-da?

— Topding, o'rtasi bo'lmasa ham shunga yaqinroq.

— Voy, mana bu joyning qalinligini qarang, hatto sichqon o'ta olmaydi-ya!

— Ey, Miqtali, nima deyapsan? Qo'shxirmon, Qaranchi to'qay degan joylar bor. Qoq tushda borsang, quyoshni ko'rmaysan, xuddi qorong'i kechadek.

— Nahotki! U yerlardan qanday hosil olishadi?

— Ayta ko'rma, hozir u yerlarga bora olmaysan va o'tolmaysan, mevalarning ko'pligidan.

— Qiziq, kim va qachon bu tog'lar bag'riga ko'chat ekkan ekan? — so'radi hamrohim.

To'g'risini aytsam, o'zim ham o'rmonda tug'ilib-o'sib, bu savobga javob topa olmasdim. Bu savoli bilan u meni qiyin ahvolga solib qo'ygan edi. Tog'larda yong'oqzor bog'ni kim va qachon bunyod etgani o'zimni qiziqtirib kelgan va shunday savol bilan ko'plarga murojaat qilganman.

Qish kechalarining birida otamdan so'ragan edim:

— Mana bu qari daraxt necha yoshda?

Otam uzoq jim bo'lgach, javob berdi:

— Buni aniq bilmayman, o'g'lim. Ammo bobom aytardi, ular mening bolaligimda ham shunday edi, deb. U yoki bu yong'oq daraxti qancha asr yashaganini balki hech kim bilmas.

— Yana bir savol, ota, — dedim. — Bu daraxtlarni kim o'tqazgan?

Otam aniq javob qaytara olmadi. Ammo eshitgani haqida aytib berdi. Keksalarning aytishlaricha, yong'oqni qarg'alar ekib ketarkan. Ular changaliga yong'oq olib uzoqlarga uchishadi. Qo'ngan joylarida

tirnoqlari bilan yerni qazishib, unga yong'oqni tashlab, yana ko'mib qo'yishadi. Ular tog' yonbag'irlarida, qirlarda shunday "ishlaydi"lar.

— Ko'rdingmi, qanday g'amxo'r qushlar? Qarg'alarni bunday "ishlash"ga kim o'rgatgan? To'g'risi, ularning odamlarga zarari yo'q, gala-gala bo'lib axlatxonalarga borishgani bilan dunyodagi eng noyob yong'oq daraxtini tog'larga ekishar ekan.

Qarg'alar hozir ham o'zlarining "bog'bon"ligini davom ettirishmoqdami yoki uni odamlar zimmasiga qoldirishdimi? Bu ham topishmoq. Aslida yong'oq siri oddiy: bolaligimda yerga ko'p bora yong'oq ekdim. O'rmonning ochiq joylariga, tomorqaga ham ekib ko'rganman. Ular olma, o'riklar bilan o'saveradi.

Yaqindan buyon vodiyning qishloq va shaharlaridagilar ham unga qiziqib qolishdi. Nega ilgari bu ish bilan odamlar mashg'ul bo'lishmagan? Sababi, yong'oq daraxti uzoq vaqt mevalamaydi. Ilgari qishloqdagi biron hovlida yong'oq o'sganini ko'rgan emasman. Endilikda bu ulkan daraxt har bir tomorqada savlat to'kib o'smoqda.

Yong'oq suv talab qilmaydigan daraxt. U qora tuproqli joylarni juda yoqtiradi. Daraxt o'sgan sayin ildizi ham chuqur ketaveradi, yuqori qismi shoxlab boraveradi. 10–150 yildan so'ng u o'rmondagi eng yo'g'on va ulkan, har tomonga shoxlagan, tanasi g'adir-budur zabardast daraxtga aylanadi.

Miqtali meni diqqat bilan tinglar, goho savollar berib, bilmaganini to'ldirardi. Shunday qilib ikkalamiz bizning uyga yetib kelguncha faqat yong'oq haqida gaplashib keldik.

... Uyimizdagilar Miqtalini eng yaqin kishisiday kutib olishdi. Ayniqsa, buvimning quvonchi cheksiz edi. U boshimizdan suv to'la idishni aylantirib, so'ngra olisroqqa to'kib yubordi (safardan eson-omon qaytganda shunday qilish odat bo'lib qolgan). Dasturxonga noz-ne'matlar qo'yildi.

Miqtalining bobosi va butun avlod-ajdodi Jagalmaydan. Ular shu yerda tug'ilib, yong'oqlar bilan birga o'sib, ulg'ayishgan. Miqtalining otasi Aman avlodning yolg'iz merosxo'ri. Bobom orziqib kutgan nevarasiga Aman deb nom qo'ygan. Bola tug'ilgach, onasi vafot etdi. U buvim Tuman bilan bir qishloqlik edi. Ikki

oila doim inoq yashashgan, quvonchni ham, qayg'uni ham teng totishgan.

Aman tug'ilganda ikki oila cheksiz quvondi, uning onasi Umut vafot etganda ikkala oila ham chuqur qayg'uda qolishdi. Buvim Tumar o'sha kuniyoq Amanni o'z tarbiyasiga oldi.

— Boyoqish yetimcham, — deya yig'lardi buvim, — Umut o'ldi, endi u tirilib kelmaydi. Aman ham, Shaymardon ham endi o'g'lim. Ko'krak sutim ikkoviga ham yetadi. O'sib, ulg'ayishsin.

Qonxo'r Gitler urush boshlaguncha Aman va Shaymardon birga ulg'ayishdi. To'satdan boshlangan urush butun mamlakatni, xalqni oyoqqa turg'izdi. Minglab jangchilar qatorida Ermat ham frontga jo'nadi. Shu ko'yi u dom-daraksiz ketdi, xati ham yo'q, izi ham topilmadi.

Aman kasalmand bo'lib qoldi,.ko'plar hatto uni o'lib qoladi, deyishdi. Bola juda og'irlashganida kasalxonaga yotqizishdi. Unga shifokorlar yordam berishdi. Kasalxonadan sog'ayib chiqqan Aman bolalar uyiga joylashtirildi. O'ninchini bitirib, oliygohda o'qishni davom ettirdi. Qayerda bo'lmasin, bobom doim uni izlab topar, hol-ahvolidan xabardor edi. Bobomning ko'zi o'tgach, unga buvim g'amxo'rlik qildi. U otam Shaymardonni Amanga jo'natar ekan, doim nasihat qilardi:

— Bor, o'g'lim, ikkoving bir ko'krakni emib katta bo'lgansizlar, u bilan aka-ukasizlar. Unga sovg'amni topshirib, qattiq quchoqlashgin.

Aman talabaligida ham, keyinchalik injener-aviator bo'lgach ham yiliga qishloqqa kelar va albatta biznikida bo'lardi. U bolalik yillari o'tgan joylarni xotirlar, ona qishloqning o'zgacha hidi, shovullagan sirli o'rmoni uni o'ziga chorlardi. Har safar Aman noiloj afsus bilan jo'nab ketardi.

U Bishkekda ishlayotgandan buyon ikki oila o'rtasida bordi-keldi uzilmaydi. Men otam bilan ko'p marta unikida bo'lganmiz. Buvim Tumardan boshqa hammamiz Amanning uyini yaxshi bilamiz. Buvimni ham olib bormoqchi bo'ldik, ammo u hech ko'nmadi: "Meni qiynamanglar qarigan chog'imda, ko'zim ham xiralashmoqda, borib nimani ham ko'rardim", — deydi.

Nihoyat men Bishkekka borib, Aman tog'aning o'g'li Miqtalini olib keldim, u uyimizda. Shu bois buvim uning kelganidan g'oyat xursand, atrofida girgitton bo'lib, topganini qo'yib mehmon qilmoqda.

Ertasi buvimdan boshqa hammamiz yong'oq tergani bordik. Otam uyimiz yonidagi eski tomni ko'rsatib:

— Miqtali, shu yerda sening otang Aman tug'ilgan, — dedi.

Miqtali uyni aylandi, atrofdagi ulkan yong'oqlarga, go'zal tabiatga zavq-la boqdi. Pastda sho'x soy sharqirab oqmoqda, tik qiyalikda turli xil o'tlar, asrlar bo'yi yashayotgan daraxtlar shamolda asta tebranardi. Bu manzara olmalari qizil va sariq, uzumlari zumrad rangli, olchalari quyoshmisol bog'lardan keskin farqlanadi. Hayratlisi, yong'oqli o'rmonlar barcha o'rmonlarning sultoni. Ta'rif-tavsifga sig'maydigan go'zallik. Nihoyat Miqtali his-hayajonini yashira olmadi.

— Qanday ajoyib joy! Ayt-chi, Qanat, u hamisha maftunkor va jozibadormi? — so'radi u ko'zdagi mehr yoshlari bilan.

Ko'z oldimga yil fasllari keldi. Qish oylari yong'oqzor butunlay boshqacha ko'rinadi. Daraxtlarda sovuq shamolda titrayotgan uncha-muncha barglar qoladi. shoxlarda qotib qolgan qor xuddi oppoq soqolli cholni eslatadi. Quyosh yilt etib ilitsa yoki shamol kuchaysa, shoxlardagi qor quyunga aylanib pastga uchadi, daraxtlar shoxi yengillab qoladi. Katta daraxtlar ostidagi yosh ko'chatlar qor ostida qolib, ba'zilarining shoxlari qorayib ko'rinadi. Qor kamroq yoqqan joylarda mayda hayvonlar izi ko'zga tashlanadi. Sovuqda qotib qolgan qor ustida tulki, ayiq, qoplon, bo'ri, suvsar, qo'shoyoq, olmaxon, quyon panjalari izi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tabiatan qalbga zavq bag'ishlovchi go'zal maskanni ko'rishga ishtiyoqmandlar yong'oqzordan yaxshi joyni topa olishmaydi. Yong'oq o'rmonlari tabiatning noyob mo'jizasi. Bu yerda istagan mevani uchratasiz. Yong'oq mevasining sut-qatiq bo'lgan paytini bilasizmi! Ha, u insonga kuch va tetiklik baxsh etuvchi asl qaymoq. Soy, anhor va zilol buloqlar yoki maymunjon va malinaning koni. Hech qiynalmay bir zumda savat yoki chelakni to'ldirib olasiz. O'rmonda xushbo'y uzumlarni, turli rang va ta'mdagi olmalarni, qarsillagan shirin noklarni, oynadek tovlangan olchalarni

teradigan odam yo'q. Gul va mevalar shunchalik ko'pki, ulardan nigohingni uzolmaysan. Bu maftunkor maskanda yashagan yovvoyi hayvonlar, xilma-xil dorivor giyohlar ko'pligini aytmaysizmi. Ularni sanab sanog'iga yeta olmaysan. O'rmonni bilmagan odam bu gaplarga ishonmas, bu gaplar unga uydirmadek tuyulishi mumkin. Men aytgan narsalar uydirma ham, afsona ham emas, bu bor haqiqat.

O'rmon kuzi hozir xuddi Miqtali ko'rib, tasvirlab turganday. Biz yong'oq terishni bas qilib, daraxtzorlarni oralab ketdik. Men yong'oqning navlari va turlari haqida aytib, uning sir-sinoatlarini birma-bir so'zlab bordim. U savol berishdan, men javob qaytarishdan charchamadim.

— Mahalliy yong'oqning qancha turi bor? — so'radi u.

— Turlari ko'r, — javob qildim men. — Asosan ular ikki xil: kanirti (boy yong'oq) va chuquma yong'oq.

Men ikki xil yong'oqni olib chaqdim. Po'chog'i yupqa, mag'izi oson olinadigani kanirti yong'oq, mag'zi po'choqdan ajralmay, pichoq bilan kavlab olinadigani chuquma yong'oq deyiladi.

Yong'og'imizning boshqa turlarini sanadim. Mana bu to'y-yong'oq, to'ylarda bo'g'irsoq, qand bilan dasturxonga qo'yiladi. Uchinchi turi qushtumshuq, u boshqalardan kichikroq va chindan ham uning ko'rinishi qushlarning tumshug'iga o'xshaydi.

Yong'oqning To'rg'ayma degan turi ham bor. U kam uchraydi, o'rmonda bitta-ikkita shunday yong'oqni uchratish mumkin. Mag'zi po'chog'idan ko'rinib turadi va juda mazali.

Men shu yong'oqni topib, Miqtaliga ko'rsatdim. U yong'oqni aylanib, u yoq-bu yog'ini ko'rdi.

— To'rg'ayma. G'alati nom. Qayerdan paydo bo'lgan bu nom? — so'radi u.

— Bu nomning to'rg'ayga daxli yo'q. U ikki so'zdan iborat: to'r va o'yma, ya'ni bezak. Yaxshilab qaragin, yong'oq xuddi to'rsimon bezakli.

— Sen haqsan. Yong'oqning shuncha xili va siri borligini bilmagan ekanman, — dedi Miqtali va so'zida davom etdi: — Yong'oq chindan ham mo'jiza daraxt ekan.

Men kuldim. U bosh irg'ab: "Ha, chindan ham shunday", — dedi. U ulkan daraxtga qarab, xayol surib so'radi:

— Bitta yong'oq daraxtidan yuz kilo hosil terib olinadimi?

— Undan ko'proq, — deb quvvatladim men.

Bir joyda qo'shilib o'sayotgan ikki daraxtni uchratdik. U hayratdan qichqirib yubordi:

— Qara, qaragin, bir tanada ikki daraxt o'smoqda.

— Bu hech gap emas, — dedim xotirjam. — Bir tanadan uchta, to'rtta, hatto beshtasi qo'shilib o'sayotgan yong'oqlar bor. Ularga odamning quchog'i yetmaydi. Yur, senga haqiqiy mo'jizani ko'rsataman.

Otam shu atrofda bir tanada o'n yong'oq daraxti o'sayotganini aytgandi.

Shu daraxtni topdik. U chinordan baland. Har biri yolg'iz o'sayotgan yong'oqdan yo'g'on. U qanday o'sib qolganini hech kim bilmaydi. Bunday yong'oq yaqin atrofgagina emas, hatto bepoyon yong'oqzorlari bilan mashhur Arslonbobda ham yo'q. Achinarlisi, o'nta yo'g'on daraxtning o'rtadagi bittasi kuchli bo'ronda singan. Endi ular to'qqizta qolgan.

Miqtali o'nta yong'oqni obdon aylandi, quchoqlab ko'rdi, shoxlarini egib, pishgan yong'oqlarini oldi, hidlab ko'rdi, mag'zini yedi. Singan tupni ko'rib, avzoyi o'zgardi, afsuslandi, hatto ko'zida yosh qalqidi.

U xomush tortib, odatdagi savollarni bermadi, faqat chuqur xo'rsindi, singan yong'oq nolasini eshitganday:

— Dunyoda dub, sekvoyi kabi ichiga avtobus sig'adigan, hatto bir rota soldat joylashadigan daraxtlar borligini o'qiganman. Ammo bu yong'oqqa hech qaysisi tenglasha olmaydi, — dedi.

Biz qaytar ekanmiz, ulkan daraxtning g'adir-budur tanasini siladik, yana bir bor hayrat bilan uzoq tikildik. Eng ulkan va baland bu daraxt shu o'rmonning zabardast Baqay oqsoqoli edi go'yo.

Miqtali uyiga qaytarda menga chizgan xomaki rasmlarini ko'rsatdi. Ilgari uning rassomlik qobiliyatiga biroz shubha bilan qarardim. Ammo u chizgan ulkan yong'oq daraxti rasmiga qarab, shubhalarim uchun o'zimni koyidim. Qarshimda mahorat bilan tortilgan bo'lajak polotno turardi. "Buni qarang, — o'yladim men,

— insonda iste'dod bor ekan, u albatta yorug' yulduzday porlashi turgan gap".

— Zo'r chizibsan, — maqtadim do'stimni.

— Men zo'r chizmadim, tabiat o'zi shunday mo'jizani yaratdi, — dedi u kamtarlik bilan, keyin bo'ynini qashlab turib qo'shib qo'ydi: — Bu rasmga qanday nom qo'ysak ekan?

Biz uzoq bahslashdik, turli nomlarni aytdik: "Tabiat mo'jizasi", "O'n tanali yong'oq daraxti", "Zabardast yong'oq", "Yodgorlik", "Noyob yong'oq", "Qirg'iz o'rmonida"... Bahsimiz baribir tugamadi. Rasm nomsiz qoldi.

Yaqinda suratli oynomalarning birida vatanim — Kadu qishlog'idagi ulkan yong'oq daraxti suratini ko'rdim. Surat ostida "Yong'oq qissasi" degan yozuv bor edi.

ABDILAMIT MATISAKOV

Abdulamit Matisakov — 1956-yilda tug'ilgan. Qirg'iziston davlat universitetini tamomlagan. "Tandir", "Oqqo'rg'on", "Otamni ko'rgan Elbo'sin" kabi qator kitoblari nashr etilgan

TOG'LIK QIZ

(Hikoya)

U qo'shiqchi emas. Yoshlar to'plangan kechalarda qo'shiq aytib ber, degan qistovga, "Qo'shiq aytishni bilmayman, bilganimda, aytgan bo'lardim. Uning o'rniga ko'rgan-bilganlarimdan qiziqrog'ini so'zlab beraman", deb qutulib qoladi. Lekin yolg'izligida to'rt qator she'rni sekin xirgoyi qilib yuradi.

Asman bizning qo'shnimiz. O'ttizga chiqib qolganiga qaramay, menga o'zining tengquriday muomala qiladi. Uyidagilar uylanish haqida gapirishsa, o'rnidan turib, indamay chiqib ketadi. Odatimga ko'ra, bo'sh paytimda qo'shnimiznikiga kirdim. Qish kuni qisqa bo'ladi. Yog'och so'rida to'shak qavib o'tirgan Asmanning onasi meni ko'rib:

— Kel, yuqoriga o't, avvallari tez-tez kelib turarding, keyingi paytlarda ko'rinmay ketding. Enang "belim" deb yurgandi, tuzalib ketdimi? — dedi yumushini to'xtatib.

— Shukr, kirib-chiqib yuribdi.

— Iloyim, shunday bo'lsin. Xasta bo'lsa ham, boshingizda turgani katta davlat. Sizlarni ne-ne azoblar bilan ulg'aytirdi. Endi qo'li ishdan bo'shab, kelin tushiradigan vaqtida qumga boraman, davolanaman, deydigan bo'ldi.

— Hozir yo'llanma yo'q ekan, kelasi yil boradilar...

— Borsin. Qumning issig'i kasaliga davo bo'lishi mumkin.

U qo'lidagi ninasini boshidagi ro'moliga sanchib, to'shakni ikki buklab, tizzasiga tortdi.

— Qish kuni odamni zeriktiradi. Bekor o'tirmasdan, buni qavib qo'yay dedim. Bitirolmayapman.

Boshidagi ninani paypaslab topib, unga ip o'tkazdi:

— Qani, gapir, akangni uylantiramiz deyishyaptimi? Yoki Asmanga o'xshab u ham xotinsiz o'taman deydimi? Hozirgi bolalar ham qiziq-da...

— Bilmadim, akam o'qishga boraman deb yuribdi.

— Uni qara-ya, hali o'qishni ham qoyillatib qo'ysa kerak, maktabni zo'rg'a bitirdi deb aytishgandi.

Gapning chuvalashib ketishini istamay, so'zini bo'ldim:

— Asman og'am uydami?

— Uyda emas, molxonada xashak qirqyapti. Sog'inib qolgan bo'lsang, bor, lekin bugun kayfiyati yo'qroq... Qish kunida molga qarash qiyin. Bunisini tutsang, unisi qoladi...

Molxona tomonga yurdim. Asal opaning keyingi gaplarini yaxshi eshitolmadim.

Eshikdan enkayib kirib, bo'sag'ada turib qoldim. Ichkari qorong'i bo'lgani uchun ko'zim hech nimani ilg'amadi. Birozdan keyin mol boylanadigan qoziq bilan oxur ko'rindi. Yolg'iz ko'zli darchadan tushgan g'ira-shira yorug'lik tufayli burchakda xashak maydalab turgan Asmanning qomati ertakdagi alpning sharpasiga o'xshab ko'rindi. U qo'lidagi bolta bilan tog' pichanini bir tekis qirqib, o'sha qo'shig'ini xirgoyi qilyapti. Meni payqamadi. Bolta ovozi tufayli yaxshi eshitilmasa-da, qo'shiq so'zlari menga tanish edi:

O-o, Ko'kbelga chiqib qarasam,
O-o, ko'rinadi Shangxol qal'asi.
O-o, bir ko'rinib yo'q bo'lgan,
O-o, sen yurakning davosi...

Qo'shiqni buzgim kelmadi. Uni tinglab, Asman o'sha mungli, sirli satrlar to'qilgan lahzalar xayoli bilan yashayotganini sezdim. Tashqariga chiqib, qizarib botayotgan quyosh nurlaridan ko'zim qamashib, uzoq turib qoldim. Molxona ichidan chiqayotgan bolta ovozi Asmanning qo'shig'iga jo'r bo'layotganday edi.

Onasi qavib bitirgan to‘shagini so‘ridan yig‘ishtirib ketibdi. O‘rnida qiyqimlar qolibdi. Bu gal Asman bilan gaplashmaganimga o‘kinmadim. Qo‘shig‘i ham menga yod bo‘lib qolgandi. O‘zimcha uni xirgoyi qilaman...

...Atigi to‘rt qatordan iborat bo‘lgan qo‘shiqning pinhoniy sirini keyinroq Asmanning o‘zidan eshitdim.

Barakasini to‘kib ulgurgan qo‘ng‘ir tusli kuz fasli kirib kelgan bo‘lsa ham, hali ko‘pchilik yaylovdan qaytmadi. Asman otasidan ruxsat olib, qishloqqa tushdi. Yolg‘iz yashaydigan xolasining uyida o‘rim-yig‘im ishlariga qarashib, ikki kun turib qoldi. Xolasi bilan olmalarni qoqib, qishda saqlash uchun qalin to‘shalgan somon orasiga terib chiqishdi. Ertasi yo‘lga otlandi.

Yo‘l yiroq... Atrof kimsasiz qir-adir. Dovon etagida ko‘ringan eshak mingan odam bilan otliqqa ko‘zi tushib, ertalabdan beri o‘zini qiynab kelayotgan yolg‘izlikni unuta boshladi. Ular yaqinlashavergach, oldindagisi ellik yoshlardan oshgan ayol, orqaroqda kelayotgani esa yengil shamolda ham uchib ketadiganday nozikkina, o‘n sakkiz yoshdagi qiz ekani ma’lum bo‘ldi. Asman tizginni bo‘shatib, qizni bir sidra ko‘zdan kechirdi. Uning egnida onasi kiydirgan yangi ko‘ylak, boshida oq durra. Eshak ortidan kelayotgan otning yurishiga qarab odimlaydi. Ayol ortiga o‘girilib gapiradigan bo‘lsa ham, qo‘lidagi qamchisini ko‘tarsa ham, bir maromda sekin yo‘rg‘alaydi.

Biroz naridagi yo‘lni kesib oqadigan tog‘ bulog‘i Asmanning yodiga tushdi. Buloq yorilgan qoyatosh orasidan sizib chiqib, sal narida bilakday suvga aylanib yog‘och nov orqali yo‘lni kesib oqardi. Ungacha masofa yaqin edi. Tezroq yurib, ularni o‘sha yerda kutmoqchi bo‘ldi. Buloqqa yetib otdan irg‘ib tushgan Asman suvliqni chiqarib, muzday suvga qo‘lini yuvdi. Yaqinlashib qolgan ikki ayoldan nigohini uzmay turdi. Buloq yonida qiz oldinga o‘tdi, otdan tushib, eshakdan tushmoqchi bo‘lgan ayolga ko‘maklashdi. Qiz ro‘parasida turgan Asmanga qiziqsinib bir qarab qo‘ydi-da, ayolga so‘z qotdi:

— Opa, ovul yaqin qoldi. Shoshmasdan yuraveraylik. Ot ozgina o‘tlasin. Ungacha namozingizni ham o‘qib olasiz. — Qizning ovozida biroz sarosimalik hamda hayajon sezildi.

— Yo‘q, Jarqinoy, shoshilish kerak. Bugungi namozni o‘qib tugatdim. Bizni kutib turishibdi-ku. Qudalarning va’dasi kecha edi. Qorong‘i tushmay yetib borganimiz yaxshi. Oting suv ichib olsa bo‘ldi-da, qizim...

Ayol semiz, qizil yuzli, lablari bir-biriga tegib-tegmasa ham, keskin gapiradigan ekan. Eshakka minayotib, Asmanga ko‘z qirini tashladi-da, atrofida hech kim yo‘qday, etagini ko‘tarib, egarga mahkam o‘rnashdi. Asman bezovtalandi. Qiz unga tikildi. Asmanning nazdida ayol tilidan bol tomib, qizni avrayotgan yosuman kampirga o‘xshab ko‘rindi.

— Opa, otimning ayili bo‘shab qolibdi. Olis yo‘lga chiqsang, shoshilmay yur, deb o‘zingiz aytgansiz, — dedi-da, qiz Asmanga o‘girildi. — Og‘a, otning ayilini tortib berasizmi?

Yigit tushundi. Uning ko‘nglidagini sezgan qiz Asmanning nigohiga dosh berolmay, uyalib yerga qaradi. Keksa ayol buni sezib:

— O-o, sadag‘ang bo‘lay, bolam, shunday qil. Yaxshilab tortib ber. Yo‘limiz yiroq... Qayerdansan? Tanishga o‘xshaysan. Eldan olisda yurib, ovulning bolalarini ham tanimay qolyapman. Bu ham qarilikning alomati bo‘lsa kerak? — deb jim qoldi.

Asman otning chilvirini qizga tutqazib, egar-to‘qimni o‘nglab, ayilni shoshilmay mahkam qilib tortdi.

— Tog‘ga ko‘p bozorlik olganga o‘xshaysiz. Qanday katta olmalar! — Qizning porlagan nigohi xurjun emas, yigitga qadaldi.

— Yo‘-o‘q, bu bozorlik emas. Ovuldan berishdi. Xolamning olmasi. Inilaringga olib bor dedilar. — Yigit shoshilganidan gapini davom ettirolmadi. — Ol, yo‘lda ermak bo‘ladi. — Xurjunning ko‘zidan bir necha olma olib, qizga uzatdi.

— Qo‘y, bo‘tam, bizga ozginasi yetadi. Tog‘ga olib bor! Biz olmaning o‘ziga boryapmiz! — dedi ayol.

— Bu olma senga, qarindoshim! — Asman ayolning gapini eshitmaganday, ko‘zni yashnatuvchi katta qirmizi olmani Jarqinga uzatdi.

Qiz gapni boshlab qo‘yib, keyin shoshilib qoldi. Nima qilishini bilmay, qo‘lidagi olmani aylantirib tomosha qila boshladi. Yuzi qizarib, avvalgidan ham suluv bo‘lib ketdi.

— Rahmat...

Asman qizning tirsagidan tutib, otga mindirdi. Egarga o'tirib, tizginni qo'liga olgan qiz Asmandan nigohini uzib keta olmadi. Ikki yurakda tug'ilgan his-tuyg'ulardan hayajonlangan yigit bilan qiz jim qolishdi. Ayol bu yerdan tezroq ketishni istadi. Eshagining boshini yo'lga burayotib:

— Yaxshi yetib ol, yigit. Qayerda turasizlar? Anovi yaylovdami? Biz undan nariroqdanmiz. Qani, Jarqin, endi "chu" degin. Jonivor ham yaxshigina dam oldi.

Qiz xumor ko'zlarini ortidagi tog'larga qadadi.

— Men tog'likning qiziman. Tog'da tug'ilib, tog'da ulg'aydim. Siz ham tog'likmisiz? — Uning ko'zlarida tog'larga bo'lgan mehr sezilib turardi.

— Biz tog'ga yozdagina kelamiz. Meni ham tog'likning o'g'li deyishadi! — dedi Asman.

Chindan ham shunday edi. Qiz o'zini eshitmaganga soldi. Tog'lardan ko'ngil uzolmay, tog'lik yigitning yonidan ketgisi kelmay qoldi.

— Tog'lar juda ham chiroyli, shunday emasmi?! Undan uzoqlashib boryapman. Bolaligim o'tgan joylarga qaytib kelaman-miyo'qmi, bilmadim... Tushlarimga kirarmikin? — Qiz xo'rsindi. Ko'zida qalqigan tomchi ot yoliga tomib ketganday bo'ldi. Asman uning chilvir tutgan qo'lini sekingina siladi. Qizning qo'li qattiq va iliq edi.

— Yaxshi borgin, tog'liklar ot ustida ham, yo'lda ham yig'lashmaydi. Yiroq ketsa ham, tog'ni sog'inishadi. Biz yaqinda qishloqqa ko'chamiz. Seni izlab topaman. Keyin tog'larga birga kelamiz.

Qiz boshini ko'tardi, ko'zlarida yosh ko'rinmadi.

— Yo'q, jon og'a, bizning yo'limiz hech qachon kesishmaydi... Yaxshi qoling, — deb otning boshini burib, unga qamchi bosdi.

Eshak ustida o'tirgan ayol qizga norozi bo'lib qaradi-da, tizginni bo'shatdi. Sal naridagi burilishda qizil ko'ylak lip etib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Atrof bo'shab qoldi. Xayoli qochgan Asmanning qo'lidan chilvir yerga tushdi. Ot egasidan olislamay o't chimdib, har zamonda boshini ko'tarib, sekingina pishqirib qo'yardi.

Asman o'zining so'zini esladi: "Tog'liklar..." U otiga chaqqonlik bilan sakrab minib, buloqning etagidan kechib o'tgach, jonivorga qamchi bosdi. Qarshisidan esgan tog' shamoli badanini junjiktirib, ko'zidan yosh chiqazdi.

TANDIR

(hikoya)

Onamni ko'rgani uzoqdan ot horitib kelgan qarindosh urug'larning ham, qishloq odamlarining ham uyimizdan oyog'i uzoq vaqt uzilmaydi.

Onam bog' ichidagi so'rida. Oştida yumshoq to'shak. Ko'rgani kelganlar bilan bosh irg'ab, iliq so'rashadi. Yaxshimisan? O'tgandagiga qaraganda ko'rinishing sal tuzuk, do'xtirlar bergan dorilar yoqibdi. Dardi-davoni shular biladi, nima deyishyapti?... Onamni ko'ngli aynib joni og'rib turganini sezishgani uchun yuzlarida xijolat, bergan savollari ham jo'ngina, ranjitmaydigan. Aylanasiga o'tirib olgan, og'zidan gap chiqsa ilib olib bosh silkitib ma'qullab o'tirganlarga onam:

— Yaxshiman deb sekin javob qaytardi.

Shu tobda tun uyqusi qiynab, darmonsizlikdan holsizlangan, yuziga tikilgan ayollarga shivirlab aytgan bir og'iz qaynoq so'zi rostdan ham ro'yobga chiqayotganday tuyg'u bag'ishlab, yuragimga dalda berdi.

Keyin butun jon-quvvatiga, darmon kirib, yonida davra qurib o'tirganlarning oila a'zolari, bola-chaqasini birortasini esidan chiqarmasdan so'rab, yo'qlab chiqadi.

Odatda bizning uyimiz ostonasini bosib, bosh suqqan xotin-xalajning bahonisiga qaramay, topgan tutganini to'kib solgan onam, endi hol-ahvol so'rab kelganlarga choy uzata olmay qolganligidan iztirob chekadi.

Kelganlar uzoq o'tirishmaydi. Shoshib turishadi. So'ri oldiga yechishgan poyafzallarini kiyib, onamga yana kelib turishlarini, taqdirda yozilganini ko'rishini, aytishadi.

Ba'zilari yaqinroq kelib qolib, kelin olsa bo'lar edi, nabiralar ko'rib, rizq-nasibali boyvuchcha kampir bo'lib yursa yarashar edi, deyishardi. Turmushning cheksiz tashvishlari ularni chalg'itib, o'z hukmiga bo'yin egdirib betob odamning ko'nglini ko'tarib bizning uydan to'g'ri tamaki dalasiga, biri do'konga, yana biri to'y g'amida qarindoshlarinikiga qarab yo'l olishdi.

Onamning kirtaygan ko'zlari kelib-ketganlarni katta ariqdan suv olib keladigan joygacha kuzatadi. Ularning qorasi burilishdan ko'rinmay qolgandan keyingina hotirjam ortiga qo'yilgan yostiqqa yonboshlaydi. Tinchligi uzoqqa cho'zilmay badaniga turgan sanchiqning og'rig'idanmi oh tortadi. Onamni yolg'izlatmay kimdir birovning kirib kelishini ko'rsak, jon suyagimizga sanchilgan inqillashni bosib, "Shukur, yaxshiman" degan ovozini yana eshitsak, degan umid uydagi har birimizning umidimiz.

Uyga odamlar kelganida gapga albatta otam aralashadi. Ovozida koyish tuyg'usi sezilib tursada so'zlaridan sabr-qanoatni uqsa bo'ladi:

— Kasaldan qarining ham, yoshning ham yuzini teskari qilsin. Do'xtirga ko'rinmay yurib, rosa besh oy dori-darmon bilan muolaja qilishdi. Dard o'tib ketsa dorilarning ham foydasi oz, endi odam bo'lishi gumonga o'xshaydi.

Ba'zida bilmay aytgan so'zini odamlar ketgach singiljonning koyinib: — Gapingizni to'g'irlab gapirsangizchi ota. Bekor aytibsiz, hali onam sog'ayib ketadi — deydi.

Otam qolib onamni ko'rgani kelganlarning yumshoq so'zlaridan ko'ksi to'lib turgan Xonishning shu tobda ko'zida yosh qalqiydi. Otam aytgan so'zlarini qaytarib olishni malol ko'rib, — Sening baxting bo'lsa, onang sog'ayib ketadi. Bandasi tushmagur yomonligini tashlashi kerak, qizim. Ko'p kuyib yurmanglar, peshonalaringa nima yozilganini qayerdan bilasizlar. Rizqi tugamagan bo'lsa onang hali ko'p yashaydi, — dedi.

Shoshmay o'rnidan turmoqchi bo'lib, onam ustiga engashdi. Bir maromda nafas olayotgan onamni: — Anor, Anor deyman, ko'zingni och, bemahalda ko'p yotavermay, turib u yoq, bu yoqqa yursangchi. Beharakat taning ham qimirlamasdan bir yo'la qotib ketgandir, a... — oxirgi so'zi iloji yo'qlikdan sekin chiqdi.

Onam turib yura olmasligini bilsa-da, ko'nglimizni ko'tarmoq uchun otam aytgan so'zlarning oxirini kutmasdan molxona tomonga qarab yuradi.

Aytilganlarni onam eshitdimi yo'qmi, indamaydi.

Kech kirgan sari u yotgan o'rindan quyosh nuri olislab, doimo ko'zga har doim ajoyib ko'ringan bog'ning shashti ham sust, onamning holsiz tanasina o'z domiga tortib ketguday. Singiljon ikkalamiz onamni turg'izamiz.

Sekin, bolalarim, — deydi shivirlab, — biroz qo'zg'amay tursanglar bo'lar edi.

Shishgan ko'zlarini bazo'r ochib, bizga o'qtin-o'qtin tikiladi. — Ha, kech kirib qolganmidi?

Cho'chiganga o'xshamaydi. Uzoqroq uxlab olgani ham yo'q. Qo'ltig'idan ko'taramiz. Qushday yengil. Ingichka, ozg'in barmoqlari yumshoq. Kafti kuzgi yaproqday diydirab, tafti yo'q.

Ikki qo'ltig'idan, suyab, peshayvonga asta yuramiz.

— To'xtanglar, aylanayinlarim, dimiqib turibman...

Entikkan ovozidan to'xtab qolamiz. Menga suyana turib, labini qimtib (tishlab oldi shekkili) bir nuqtaga tikiladi.

Onamning yo'li qisqardi. Bog' ichidagi uyning ostonasiga bor yo'g'i o'ttiz qadam. Kuniga shu yo'ldan ikki marta yuradi. Saharlab bog'ga, shomda yana ayvonga. Ikki hatlab yeta oladigan tandiri endi unga uzoq. Darmon yo'q.

Ko'zlarini katta ochib, og'ir xo'rsindi. Oyoqlarini yerdan uza olmayotganday. Yuziga tikilaman.

Nazari tandirga tushib turibdi. Tandirning dumaloq og'zi yoqilgan o'tdan qoraygan, kechki payt ko'zga yoqimli ko'rinadi.

— Ustini kigiz bilan yopib qo'yinglar, yomg'ir yog'adi shekilli... — so'zining ma'nosidan gap tandir haqida borayotganini sezdik. Naq tepamda nurini sochayotgan yulduzlarni ko'rib, o'zimcha hayron bo'laman. Balki onamga yomg'ir yoqquday sezilgandir? Yoki tani issiq eski tandirga ichi ezilib xavotirlanayotgandir?

Eski, har joyi qorayib kuygan yengchasi tandir yonida o'sgan baqaterakka ilingan.

Tandir to'ridagi tokchada non yopish oldidan ayron quyiladigan qalayi tovog'i to'ntarib qo'yilgan. Ostidagi joyga qurigan, yoril-

gan o'tin yig'ilgan. "Bu tutantiriq uchun yorilgan o'tin" deb unga hech kimni yaqinlashtirmasdi. Yog'in-sochin, shamol-bo'ronda, onamning qorasi tandir oldida ko'rinadi. Olovni guvillatib yoqib, yozda chopib qo'yilgan qo'y go'ngini qalab qo'yardi. Olov uzoq vaqt yonardi. Tezda qo'rning tobiga tandir oqarib qolardi.

— Meni bir pasga o'tirgizinglarchi shu yerga. Kigizi qayerda qoldi ekan?... Tandiringni ehtiyotlab, parvarishlab ishlat qizim. Rizqli tandir bu.

Onam tandir yoniga o'rindiq qo'ydirib, odatiga ko'ra bo'rsildoq noniga qarab turganday unga o'tirdi.

Ro'parada bo'z tortgan tandiri. Unga qadalgan, ozor tortgan nigohi uzilmaydi.

Tandir aylanasidan ushlaguday o'y bosgan.

— Nonidan beringlar-chi, — dedi mung'ayib.

Onam so'zini tugatmasdan singiljon o'rnidan lik etib turib ayvonga ketdi. Ichkaridagi sandiq qiychillab ochildi. Non azaldan sirti ruxlangan tunuka bilan qoplangan, chetlariga ko'k, qizil, sariq barglar chizilgan yog'och sandiqda, qog'ozga o'ralib turardi (sandiqni onam O'sh bozoridan oldirtirgan ekan). Xonish qaytib chiqdi.

— Ona, mana oling, — nonni qo'shqo'llab onamga uzatdi. Onam qo'lidagi patir nonni peshonasiga surtib:

— Sadag'asi ketayin, ulug' non. Ulug'ligini unutmay...shu kunga keldim... — Dami ichiga tushganga o'xshab, ovozi pastlab, qolgan so'zi aniq chiqmadi. Nima degandayam uning ichki holatini, tug'yonlarini tushunish qiyin emas edi: "Yoshligimdan urug' sepib, daladan hosil kutdim. Saraton issig'ida qayroqi bug'doyni o'roq bilan o'rib, qizilini bostirib, "Ho'p mayda"ni aytib, xirmon uydim. Tozasini tegirmonga tortkizib, tandirga non yopdim, bola boqdim. Ularni ulg'aytirdim, qatorga qo'shdim...Umr bo'yi nomi ulug', oq non sen bilan yashadim..."

Manglayidagi non quyosh bo'lib, onamning yuziga nur sochganday bo'ldi. Bora-bora qo'sh qo'li yoniga kelib dumaloq non onamning yuzini yopib qoldi. Yo'q, onam qurigan lablarini patirning chetiga tekkizib, uzoq vaqt o'pib turdi. Keyin o'zi yopgan tandir nonni xumorlanib hidlab, peshonasiga ehtiyotlab

surtib bo'lgandan so'ng singiljonga uzatdi. Nonni qaytarishda behol panjalari patirga qorishib qolganday poydor ozg'in qo'llari singiljon tomonga cho'zila borib, qo'liga mahkam qisgan barakasini, bebaho buyumini oldirib qo'yganday holat kechdi.

Og'ir cho'kkan jimjitlik xayolimizni olib, onamning sadosiga jon qulog'ini tikkan singiljon labbay deyishga tayyor turardi. Onam shunga harakat qilsada, aytar so'zini chiqarishga holi qolmadi. Kuch to'plab shipshigan ovozda:

— O'rnimdan turgizinglarchi — dedi. Qo'ltig'idan asta yo'lab yurgizdik — Tandirga yaqin olib boringlar, bolalarim.

Yana o'tirgandanoq ko'zini uzmagan, yurak bag'riga aylangan tandirga yaqin bordi. Kulni, birozdan keyin ko'ngiliga yoqimli non isini xis qildik. Onamga qaradim. Ko'zidan yosh qalqqanday. Yangi qurilgan tandiri ko'ziga qanday ko'rindi ekan? Aytsa, namozshomda nega bu yerda turibmiz?

— Rizqi tugalmas tandirni toza tut, qizim. Kulini qara, olinmapti...

Singiljon kutilmagan gapdan o'nag'aysizlanib:

— Nega bunday deysiz, ona, dedi. Ertagayla tuzalganingizdan keyin nonni o'zingiz yopasiz, — singiljon ko'ziga yosh oldi.

Ayni vaqtda tandirning holati ko'z o'ngimda undan battar xunukroq, oldidagi bolalariga yotday, o'z egasidan, onamdan yotirqiraganday ko'rindi.

* * *

Gohida onam bilan tandirning yonidaman. Unga yordam beraman.

"Oqardi" degan so'zimni kutib turganday, onam bir qo'liga ayron quyilgan idishni, ikkinchi qo'liga yengchasini kiydirib, tandir tomonga qarab yuradi. Yaqinlashib, tandir ichiga enkaya: — O'-o', farishtasi issig'im, tandir ichini bir boshqacha oqartiribsanku. Qatiq ivitdim. Issiq non yopguncha u ham ivib qoladi. Birgalashib choy ichamiz. Borib endi kitoblaringga qara, — deydi, qo'limdagi kosovni olayotib. Odaticha, betimdan hidlab oladi.

Onamdan uzoqqa bormayman. Qiyshiq to'ngakka omonat o'tirib qo'limdagi kitobni ochaman. Onam bir muddatga meni unutadida, bor xayoli tandirda bo'ladi...

— Ey, mudarris, — bo'sh o'tirganimni otam ko'rib qoldi. Tom boshidan ovozi keldi, — kitobingni qo'yib, yorug' mahalda qimirlagin. Kechki sovuq tushmasdan molning o'tini jodida maydalab yubor. Tun uzargan. Kechga qo'ysang bir oylik darsingni puxta tayyorlashga vaqting yetadi. Befoyda o'tirishni hozirdan o'rganma.

— Halidan beri bola tandir oqartirdi, bilib-bilmay gapiravermanglar, maktabdan kelganidan buyon tingani yo'q, — onam meni yonimni oladi, — Qirqilib turgan o't qolarmidi...Tugar.

Gap yetib bordimi yoki ishiga alahsidimi, otamning ovozi qayta chiqmadi.

Onamning yengcha kiygan qo'li tandirdan pishgan nonni uzib savatga soldi.

Chap qo'li xamir yuziga ayron surkab yengcha betiga ag'darib, endigina uzilgan yeriga yopishtirguncha, bu betidagi pishgan noni shoshiardi.

— Ma, issiq yeb tur. Ushatib tashlama, — Savatdagi yoyilgan nonlardan birini butunligicha menga uzatadi. Issiq nonni qo'limdan qo'limga olib, puflab qo'yaman...

— Ha, qanday ekan, xamirturishning ta'mi yo'qmi? — onam menga qaraydi. Non yumshoq, hilvirab turibdi. — Makkajo'xori dumbulidan qayirib kelsangchi? Qo'rga ko'mib berayin. Hali yemagansan. Kuz kechikib, suti qotib qolguncha yeb olinglar, turaqol, — deydi.

Kitobimni buklab qo'yib, shoshib makkajo'xori tomonga yuguraman. Qo'limga kirgan dumbulni archib donini barmog'im bilan bosib ko'raman. Dondan chiqqan sut sachrashiga, o'sha joyda qayirib, ortga tortaman. Yo'lda bir dona popugini qoldirmay tozalangan dumbulni onamga olib kelaman.

Qo'limdan dumbulni olayotib:

— Qancha bola quchoqlagan ekan? — deydi, pishib kelayotgan nonga bir qarab olib.

— Bittagina ekan.

Aytgan javobimga onam lol. Menga engashib qaraydi: — Yolg'on gapirma. Esingda bo'lsin, jo'xori hech qachon bitta dumbul quchoqlamaydi. Hey yolg'onchi.

Kitobning qaysi yerida to‘xtaganimni topmoqchiday varaqlagan bo‘laman. Biroq onamni izza qilgan yolg‘on so‘zimning intihosi hali beri bosilmaydi:

— Aldamchining ovqati qorniga yuq ham bo‘lmaydi. Qulog‘ingga quysak ham qalbing bo‘sh shekilli sening. Shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi. Hozirdan aldab, yolg‘on gapirsang, keyin nima bo‘lasan? Birovning ko‘zini bir marta bo‘yaysan, ikki marta, keyinchi? Qo‘y unday qilma.

Onamning koyigani otamning qulog‘iga yetmasa ekan, deb jig‘ibiyron bo‘laman. Yetsa bormi, ermak topiladi.

— Shu yoshingdan katta-kichikka aytgan so‘zing haqqoniy, sutday toza bo‘lmasa, ishing chatoq. Qo‘lingda ushlab turgan kitobingdayam shular yozilgan bo‘lsa kerak.

Baribir onamning aytgan gaplari otamning qulog‘iga chalinibdi:

— Yana so‘tagidan qayirib kelibdimi? — ovozi o‘kinchli. Shu qiliqlarini hech tashlata olmadim. Bularingni makkajo‘xori bilan ishi bormi! Qaytaga bilganidan qolmaydi. Jo‘xoripoyaga qadam bosma demaganmidim senga!

Yo‘q yerdan chiqqan be’mani so‘zga onam chidolmaydi. Otamning gapini shartta bo‘lib, endi meni oqlashga tushadi.

— Yo‘-o‘q, musulmon desa (yo‘q narsadan gap topgan kishini shunday deb atardi) eshitib-eshitmay gapiraverasizlar. Jo‘xorini oldi qurib qayirishga tushmadikmi? Bu mishiqini bir jo‘xori poyasi bitta bola quchoqlaydi deganiga koyib turuvdim, — shunday deya qo‘lidagi dumbulni cho‘g‘ o‘rtasiga qo‘yib ustiga qo‘r torta boshladi.

Otamning o‘zi ham tinib-tinchimagan odam. Ish topishga shunday usta “ro‘zg‘orni tebratgan shu otanglar” deydi onam.

Chetlari kashtalab tikilgan dasturxonda yangi uyitilgan qatiq, katta piyolada qotgan sariyog‘, issiq bug‘doy noni. Odatga ko‘ra bizni kuttirgan otam haligacha tashqarida. Toqati toq bo‘lgan onam ayvondan ovoz berdi:

— Kelmaysizlarmi endi, shu kuttirish odatini qachon tashlar ekansiz.

Birozdan so‘ng otam kirdi.

— Qo‘lga suv quy, — deydi menga. O‘rnimdan sakrab turaman.

U to'rga chiqib chordona, qurib o'tiradida:

— Tandiring qanday ekan? — deydi onamga.

— Qanday bo'lardi, xunugi chiqib ketdi, ko'rgandirsiz?

Onam norozi ohangda jim bo'ladi.

— Qo'lim bo'sh paytida tuzattirib olmaysanmi? — otam choyni ho'play turib, onamga piyola ortidan nazar soladi.

— Vaqt qani! Ko'zim ochilmay turibdi — otamning bo'shagan piyolasiga qo'l uzatayotgan onam suyunadi, — tandirga birov suyansa, yiqilib ketadiganday.

— Ertadan harakat qilaylik unda...

Tandir haqidagi maslahat shu bilan tugadi. Ertasi tandir buzildi.

Onam:

— Ehtiyot qilinglar, qo'qqis yerga qattiqroq qo'yib, yorib yubormanglar, — deb bizni aylangan kuyi xavotirlanib yurdi. Buzilsa o'rniga yangi quramiz deb tursak, eskisiga nega jon koyitib yurishiga men tushunmayman.

Tandirni og'zini olib yerga qo'yganimizda, o'rni ko'zga xunuk ko'rindi. Onam enkayib, qora kuya bo'lganiga qaramasdan yoqa belini ushlab, kezi kelsa yana undan foydalanguday qiyofada kuzatar edi.

* * *

Uning ertasiga apil-tapil tandir qurishga kirishdik. Otam eshagiga bir qop qilib olib kelgan oq tuproqni yerga to'kib, loy tayyorladi. Oradan bir kun o'tdi. Loy maqomiga yetdi. Choshgohda ishga kirishdik. Onam ichkaridan oq bo'zga tugilgan echkining junini ko'tarib kelib:

— Shu yetar? — dedi.

— Hov, qo'y, bo'lmaydi, — otam katta tugundagi junni ko'rib, cho'chib ketdi, — O'nta tandir qurmoqchimisan? Yetishi tugul ortib qoladi.

Onam gapni oxirigacha eshitmaydi.

Yalangoyoq loyning bir chetidan bosib kiradi. Bir sidra tepalab chiqqandan keyin, chetdagi tugundagi yumshoq jundan bir tutam jun uzib oyog'iga tashlab aralashtirib, loy kechadi.

Men shilpillatib pishitilayotgan loydan ko'zimni uzmay, jun qirqimidan onamga paydar-pay uzataman.

— Ko'proq, ko'proq uzatsang chimchilamay, ulg'ayganingda qizg'anchiq bo'lasanmi deyman. Ko'proq olib, ikki qo'llab uzatsangchi? Bu barakali, rizqli tardir bo'ladi. Sizlar ulg'ayib, er yigit bo'lganginglarda kelinlarimizning qo'lidan shu tandirning nonidan buyurarmikan? — Sinamoq bo'lib, ko'z qiri bilan menga qaraydi onam.

Men uyalib ketdim. Tilimni tanglayimga bosib turishimga to'g'ri keldi.

— Voy-vuy, bo'tam, katta bo'lganingda xotin olmay bu dunyodan toq o'tmoqchimisan? Biz mana shunday, sizlarning peshonalaringda turarmidik! Qariymiz, horiymiz. Non topib bizni ham boqishlaring kerak. Eshityapsanmi? — onamning oyog'i bosgan loy aylana hosil qiladi, suv o'sha yerga to'planganda, ikkinchi oyog'i uni buzib tashlaydi. Suv bora-bora ozaya turib, oxiri butkul singib ketadi.

— Uylanmasa uylanmasin, rangi sovuq, — otam gapni qayta qo'zg'aydi — narigi kattasiga ham sinamoq uchun, erkalatib gapga solsam, eshitgisi yo'q. Menga desa toq o'tishsin! — U jahli chiqib aljirab qo'yganini keyin bilib qoldimi, — nasib qilgani turgandir-da, — deb qo'shib qo'ydi.

— Jun tugadi! — deb qiyqirdim, "Mayli, cho'chib ketishsin. Men ham ishlayapman" — deyman ichimda.

— Junni adog' qildingmi? — otamning gapida tanbeh sezildi.

— Oltin (onam meni erkalatganda shunday deb qo'yardi) qo'lingdagini qo'ya turib, kichkina uyga kirsang, shipda osilib turgan tugunchada jun bor. Bir tutam olib chiq.

— Tandirni qachon qurib bitkazasizlar? — deyman olib kelgan echki junini onamga uzatayotib.

— Shoshma, o'g'lim, quramiz. Ungacha qozonga non yopib beraman. Xohlasang qatlama, bo'g'irsoq pishiraman. Keyin qo'niqo'shnini tandir qurganda o'zing chaqirib kelasan. Ko'pchilikning qo'li tegsa yaxshi bo'ladi, to'g'rimi otasi?

Otam bunga e'tibor bermadi...

* * *

Tandir bir necha kunda qurib qoldi. Ertadan kechgacha hayvonlar tegib ketmasin deb, atrofida chiviq ushlab, mol qamalguncha o'sha joydan jilmayman. Sinash uchun gohda mahkamroq ushlab ko'raman. Tarashaday qotgan, echkini junini nega aralashtirilganiga endi fahmim yetdi.

Juma kuni erta uyg'ondik. Otam ayvondagi tokchada turgan ko'zguni oldiga qo'yib, soqolini ivitib o'tiribdi. Bozorga borishdan oldin soch-soqolini bir sidra qirib olishga odatlangan.

To'shakdan turishimiz bilan o'choqdagi guvillab yonayotgan o'tga qarab, onam tandir haqidagi gapni yana otamning esiga soldi.

— Tandirning kun yeganiga o'n kuncha bo'lib qoldi. Bugun bir urinib qurib olmasak, bolalar ham qozon nonga o'rganisha olmayapti.

Ro'parasidagi ko'zgusini to'g'irlab qo'yganiga qaramay, yuzini yaxshi ko'ra olmay turgan kezda qo'qqisdan aytilgan bu gapni xayoliga olib, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib o'tirgan otam, eshitgan gapga chalg'imay, biroz to'xtab turib: — Endi quraman desang ehtiyotla. O'zing qiynalasan... Odam chaqiraman deb hovliqasan, bolalaringdan birini qo'ni-qo'shniga chiqarmaysanmi. Ertaroq harakat qilinglar, tandir o'rnatish hazil ishmi? Kun qisqargan payt.

Otam uydan uzab chiqayotib ko'p gapini tugata olmay, meni yugurtirib unutib qoldirgan qiyig'iga jo'natdi.

— Sen onangni aytganini qil. O'yinni bu safar qo'yib tur, vaqtida sigiringni sug'or...

Ko'p gapga avvaldan toqati yo'q onam bizga ergashib chiqadi:

— Borsanglarchi endi, ovqatimiz tomog'imizdan o'tmay qolganday... Peshindan qolmay qaytinglar, el qatori.

— E, qo'y, ishim bitsa kelaman. Bozorda qishlab qoladi deysanmi?...

Otam ketishi bilan onam meni qo'shnilarni chaqirgani jo'natdi.

Bir mahal katta ena bosh bo'lgan onamning dugonalari: Oqqiz, Xosiyat, Ira opalar jo'xori oralagan yolg'izoyoq yo'ldan ko'rinishdi.

Onam yumushini tashlab, oldilariga peshvoz chiqdi:

— Buni yasab, cholim ikkimizning kunga qurigani qo'yganimiz qachon. Rosa tarashaday, bir yaxshi quridi. Endi sizlar o'rna-

tib beringlar. Qo'linglar tegib, baraka sochar ko'pga chidaydigan tandir bo'lsin degan tilagim bor.

Qo'shnilar bir piyoladn choy ichishib, uzoq gapni chuvamay tandir o'rnatish g'amini boshladilar.

— O'ho'-o', juda katta yasabsiz-ku. Bolalaringiz ulg'aygan sayin, tandiringizdan ham kattartayin debsizda, — dedi Bibisora opa tandirga yaqin borib. Onam bosh silkidi. Aytilgan gap qulog'iga chalindimi, yo'qmi bundan qat'iy nazar hammasini ma'qullaydi. Yuzida kulgi izi.

Ko'zga xunuk ko'ringan joyga endi tandir qurildi. Uning dumaloq og'zini to'g'irlab, har tomonini suvab qo'yishganda u yanada ko'zga yoqimli ko'rinib qoldi.

— Orqasidagi mo'rkon teshigini kattaroq qoldirganimiz yaxshi. Tutunni ortga tortib ketadi, o't yoqchi, ko'raylik, — dedi Oqqiz opa loy bo'lgan kaftlarini bir-biriga ishqalab.

Qurigan tutantiriqlarni qalab, onam yangi tandirga gugurt yoqdi. Tandir og'zidan o'ynab-lovullab yonayotgan o'tni ko'rib onamni quvonchi ichiga sig'madi.

— Xursand bo'lib qolding, tandirning cho'g'i o'chmasin, issig'i ketmasin. Nevara-chevaralaringga ham shu rizqli tandirning nonidan yegiz iloyim.

Onamga bag'ishlab chin dildan aytilgan, o'sha kungi tilaklarning poyoni yo'q.

— Qo'llaringni chayqanglar, ichkari kiramizmi, yoki salqin bog' ichi sozmi? — onam odaticha mehmondo'stligini ko'rsatadi.

— Sizlarga ovqat tayyorlaganim qachon, sovib qolmagan bo'lsin-da...

Yashil maysa ustidagi kigiz uzra o'tirgan qo'shnilarning ikki gapidan biri tandir.

Qo'shnilarni kuzatib chiqqan onam:

— O'zinglar qo'yib bergan tandirning nonidan o'zinglar og'iz tegizib yersizlar. Hammanglar kelmasanglar, rosa xafa bo'laman, — dedi.

Keyin birinchi yopilgan oq nonlardan ularga nasiba ulashdi.

* * *

— Bemahalda tandir oldida turganinglar nimasi? Ichkariga kiringlar, onangni issiqroq kiyintirib, issiq ovqat beringlar. — Bizni ko'rib otam xavotirlandi, — Har kuni o'tirmagan yerda nima bor ekan, rangi sovuqlar...

— Ona, yuring ichkariga, — singiljon o'rnidan birinchi bo'lib turdi.

— Tandirchi? — onamning shivirlab chiqargan ovozidan ikkalamiz teng cho'chidik.

Jimjitlikni onam buzdi: — Yuringlar unda, yuringlar, bolalarim.

* * *

...Onamni dafn qiladigan kunimiz rosa yomg'ir yog'di. Erta tongdan quya boshlab, tushga yaqin bosildi.

Katta uydan onamning tobutini olib chiqishdi. Ustiga qora baxmal choponi yopilib, o'z qo'li bilan qavigan, doim uyning to'ridagi mehroblar o'rtasida yig'ilib turgan atlas to'shak oldiga solindi.

Eshik oldida turgan kishilarnig ovozi so'ndi. Hammadan ham yolg'iz qizining— singiljonning suyak-suyakka sanchilguday yig'i tovushi, yuraklarni zir titratdi.

Yuzim uzra tinimsiz oqayotgan yoshimini to'xtatolmay yig'-layman. Onam mening yonimda, el qo'lida olamdan o'tdi. Qizining ikki qo'ltig'idan ushlashib, onasini olib tushgani zina yonida qoldirishdi.

Birinchi marta hamqishloqlarim jasadi qo'yilgan mozorga ko'pchilik bilan yo'l oldim. Tobutning oldingi dastasi yelkamda. Qarilarning, qishloq oqsoqollarining bu safargi so'zlari uzilib, dami ichiga tushib, bizning ortimizdan yurib borishdi.

— Menga ber, o'g'lim, yelkang ham tolib ketgandir... — ortimdan Xoldor amakining ovozi keldi. Boshimni chayqayman. Tobut ustidan "o'g'lim, charchab ketding-ku. Ber, almashib ko'taringlar. Borar joyimga ham oz qoldi. O'zing ortimdan yur" degan onamning mehribon so'zlari qulog'imga chalinganday.

Mana, qabristonning yog'och darvozasi yoniga kelib to'xtadik. Darvoza, undan narida bo'zrang shuvoqlar bosgan so'qma yo'l ko'zimga chiroyli qo'rindi.

— Kalima keltir, — dedi chap tarafimdagi tobutning bir dastasini ushlagan odam. Agar bilsam rostdan ham dilimga kelmasmidi, indamadim. Qatorimdagi odamning labi tinmay bir narsalarni shivirlab ko'nglimni undan battar ezadi. Bu yerda yosh bolalar ham, norg'ul yigitlar ham, hamma bor. Kamida qirq qadamcha oralig'idagi masofa qoldi. Go'r qazilgan joyga yaqinlashgim kelmay, arg'amchi uzunligicha masofa qolganida oyoqlarim chalishib ketdi.

— Ehtiyot bo'l, — dedi boyagi tanish ovoz.

Oldimizda turgan go'rkovlar yelkamizdagi tobutni olishdi. Orasidan birov:

— Joy yaxshi chiqdi. Tuprog'i eshilib, biram mayin. Opamizning tabiati o'zi shunday edi, rahmatlik, — dedi. Rostdan ham qazilgan yerning tuprog'i qizg'ish bo'lib, kesak ko'zimga chalinmadi.

Onamni go'rga tushirish chog'ida chor atrofga g'aroyib jimjitlik cho'kdi. Shu damda atrofimdagi ko'pchilikning ovoz chiqarmay, nafas yutib, ko'kdan savalangan oq yomg'irning mayda tomchilarini, qishloqdoshlarimizning tandiridan chiqqan yoqimli hidning, kundalik hayotning bir tekisda o'tib borayotganini sezmay onam tobutda tinchgina yotardi.

— Sekin, endi tushiraveringlar... — dedi cho'kkalaganlarning orqasidan bir oqsoqol odam.

Guvalalarni bu yoqqa uzatinglar! Ichkaridan kelayotgan go'rkovlarning ovoziga onam tovushi qo'shilib chiqqanday meni xayolimdan ayirayozdi. Qachon onamni qabrda qoldirib, kaftlarini bir-biriga urib, yengil chiqishgan go'rkovlarni ko'rganimdagina, onamdan chinakam ajraganimni his qildim.

Qabrning do'ppaygan qorasi yer yuzini egallab qoldi. Elning vazifasi shu ekan, qabr boshida onamga oxirgi so'zni bag'ishlashdi. "Yotgan yering jannat bo'lsin"!!

* * *

Ertasiga erta tongda, qabristonga keldik.

— Nima qilaylik, yolg'izsirab yotsang kerak...

Otamning ovozi bu safar tomog'idan birov qisganday qiynalib chiqdi.

— Qabrga, onanglarga qarab, qiblaga yuzlanib o'tiringlar.

Qabr ustiga uyulgan tuproq qurimagan, hali nam. Ichidagi sariq qumursqalarni ko'rib qoldim. Ikkita, uchta... Yuqoriga qarab o'rmalashib, o'zlaricha bir nima qidirishadi.

Nega bunchalik jon-holatga tushishadi? Qayoqqa shoshishadi. Yo chindan bular yashashning mazmuni izlanishda, mehnatdaligini bilib olishganmi?

— Onanglar yaxshi odam edi! — otam gapini davom ettira olmadi, o'zini to'xtata olmay, ko'ziga birinchi marta yosh olganini endi ko'rdim. Yuzini ham bizdan yashirmadi. Qari kishilar ovozsiz yig'lashadi qanchalik og'ir qayg'u boshiga tushmasin, uni ko'tara olishi shundan bo'lsa kerak. Shu kungacha yashash, ro'zg'orni birga boshqarib kelgan ardoqli turmush o'rtog'i uchun, jon koyitgan otamning og'ir qayg'usini sezdim.

— Onalaringni tabiati yumshoq, joying jannatda bo'lgur keng fe'lli odam edi. Taqdir ekan, o'lim har bir odamning boshida bor ekan. Xafa bo'lib ko'p qayg'urishining hojati yo'q. Onalaringni hech vaqt esdan chiqarmanglar. Bu dunyoda ona degan...

Keyin otam chorsisida olib kelgan ikki hovuch makkajo'xori donini qabr ustiga sochib dedi:

— Urug'ing uzilmasin iloyim!

Otamning shu gaplari baralla, jiddiy ishonch bilan chiqdi. Qo'lidan sochilgan don tuproq betida munchoqday oqarib chiroyli tusga kirdi.

— Nega sepdingiz ota? — Jenishbekning savoliga quyuq qoshlarining qo'shilgan yeri burishib, otamning yuzi kulguli tus oldi.

— Makkani musichalar terib yeydi-da, onalaringni ismini ancha vaqt tabarrukday eslab turishadi. Shu holatgacha musicha banda ismini avaylab yuruvchi parranda ekanligini bilmagan ekanmiz.

Hech kimimiz o'rnimizdan turganimiz yo'q, jimjitlik. Qabrga qo'yilgunga qadar bo'lgan onamizning yarim asrlik hayotidagi ko'nglimizda qolgan eng yaxshi damlarni, jonga quvvat bo'lg'usi yoqimli ona mehrini har birimiz o'zimizcha yodga oldik. Oldidagi don olib kelgan chorsisi bilan belini bog'lab, otam o'rnidan turdi.

— Turinglar endi, bolalar, boraylik. Yig'idan foyda yo'q.

Otam enkayib, qabr tuprog'idan bir hovuchlab qo'li bilan qabrni silay boshladi. Lablari bir narsalarni shivirlaydi. U onamizga bag'ishlangan so'zlar ekanligiga hech kimimiz shubhalanmadik.

— Xudo omonligini bersa, sizlar ham turmush sinovlarida pishib, sizlar ham ota bo'lasizlar. Onalaringni oq sutini, sizlarni o'stirgan mehnatining ulug' ziynatini o'shanda anglab yetasizlar, bilasizlar... Qaytaylik, singling nima qildi ekan? Endi tandiriga nonni Xonish yopadi...

Shuvoq bosgan yolg'izoyoq yo'l bizni qabristondan olib chiqdi.

ABIBILLA PAZILOV

1956-yil O'sh viloyatining O'zgan tumanida tug'ilgan. Sankt-Peterburg universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan.

O'n beshdan ortiq nasriy va she'riy kitoblar muallifi. Dramatik asarlari Qirg'iziston teatrlarida ko'p qo'yilgan. Bir necha mashhur kinofilmlar ssenariysini yozgan. Xalqaro Chingiz Aytmatov mukofoti sovrindori, Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

JANUBDAN MAKTUB

(hikoya)

Jo'lan Mamitov xotirasiga

Chiq kinna, chiq kinna,
Sharqiragan suvga bor.
Dovoni baland tog'ga bor...

Kampir o'ng ko'zining chap burchagida sizilib turgan sho'rni dastro'molning uchi bilan artib, almisoqdan qolgan dardning shartiga ko'ra, non ushlagan qo'li bilan bolaning qizib ketgan tanasini silardi. Bemaza xo'rdani inobatga olmaganda kechadan beri hech narsa tushmay qapishib qolgan qorniga kelganda ora-churada esnab, birovning kinnasi kiribdi der ekan, jikkakkina kampir "kinna"ning oxirgi so'zini cho'zib aytardi. So'ng odati bo'yicha yalinib-yolvorib, peshonasiga bo'taloqday bolani bitgani uchun tangriga shukur keltirib, kaftidagi ushoqni saraton oftobida lohaslangancha chorpoya burchagida kerilib yotgan mushukka berib, qalam-qog'oz olish uchun uyga kirib ketdi.

Bola bu yil to'qqizdan o'nga o'tgan kezida ilk bor eshitgan notanish so'z buvisining og'zidan o'shanda chiqdi...

Bungacha bola xo'rdani hazm qila olmay o'qchib-qusib, ko'ngli behuzur bo'ldi. Boshini biroz ko'tarib, orqasiga bolish qo'ydi, yozishga qulayroq joylashib oldi.

— Oyingga xat yo'llaylik, chirog'im. Otangdan aslo yordam yo'q. "Shusiz ham turmushim nochor. Ikki birday zuryoding bor, biri bu yerda, biri u yerda, ularning uvoli kimga tegadi, desam, kichkinam rizqi bilan yaratilgan, tog'alariga suyanib bir kunini ko'rar", deydi. Qarg'ashimni ham, qarg'amasimni ham bilmayman.

Buvisi kecha bola holdan ketib yotib qolgandan beri shunday o'ylarga borib, "Isitmalagansan, darmoning yo'q, sigirni podadan ajratadigan, buzoqni arqonlaydigan kishim ham yo'q, hali unga, hali bunga urinib, oltmishdan oshib qolgan men kampir nima ham qilardim", deb o'ksiydi.

Otasi yo'rg'a otini minib, xo'jalik ishlari bilan ovora. Bulbulni tili qotib, bug'doyga o'roq tushadigan palla. Bunday paytda brigadirning uvol-savobi bo'larmidi. Buyog'ini aytganda, bolakayni tuman markaziga, kasalxonaga oborib emlatgani qo'li tegmaydi.

Shunday qilib xat yozishga chog'lanib, bolakay daftardan chiqarib olingan qo'sh varoqni kitob ustiga yoygan buvisining uyilgan qovog'ini sezib, jim o'tirdi. Qalam ushlagan qo'li o'z-o'zidan qaltirab, qimirlay olmasdi.

Odatda tanglayidan chang chiqaradigan chechan kampir negadir aytar gapini darrov aytib yubormadi. Munosib so'z topolmay o'ychan bo'lib qoldi. Bu orada bolaning qulog'iga olis-olisdan shudgorni oralab o'tgan egri-bugri yolg'iz oyoq so'qmoqning narigi tomonidagi o'zanda cho'milayotgan teng-to'shlarining shod qiyqiriqlari elas-elas chalindi. Bolaning ko'ngli dalada, u tengdoshlari qatori tovoni bilan qum titib, tanini quyoshga toblab yotmaganidan kuyunardi.

Bolakayning peshonasi sho'r ekan. Kimdir uni yetim deb, qorniga qattiq uribdi. Ikkovi urush haqidagi kinolarda qahramonlar o'ladimi yoki o'lmaydimi, degan gap ustida tortishib qolishibdi. Bittasi o'lmaydi, uni artistlar o'ynaydi desa, bola o'ladi debdi. Bolalarning bir to'pi uning, boshqasi buning tarafini olibdi. Suvdan chiqqan bolalar chiyabo'riday churillashadi. Tortishuv oxiri mushtlashish bilan tugaydi.

O'shanda buvisining tutaqqanini ko'rsangiz edi: "Munchoqday norasidalarni na otasiz, na onasiz qoldirib, ajrashib topgan baxt-

laringga tupurdim! Ilohimning o'zi rizqlaringni qiydi, tepasi ochiq ko'k ursin, to'shi tukli yer ursin!

Bola shularni bir-bir ko'z o'ngidan o'tkazar ekan, buvisi to'g'ri xulosa chiqardi chog'i, kumush sochbog'ini shildiratib, qo'zg'aldi. Oftobda mudrab yotgan boyagi mushuk kampir bir narsani otib yubordi dedimi yo sochbog'ining jarangidan cho'chidimi, har holda sakrab o'rnidan turdi-da chorpoyaning yonidagi o'rik tomon otildi. Kampir boyagiday ko'zining burchagini ro'molining uchi bilan artdi.

Kampirning bilmagan tili yo'q. Bu beva ayol bir necha xovli narida yollanib, bostirma qurgan tatar ustalar bilan gaplashganini hamma biladi. "Tatar malaylarim, qatiq ichinglar", deb ularni siylagandi o'shanda. O'zbekchani esa qiyvoradi. Cho'l atrofida uning qarindosh-urug'lari bor. Bular uyoqqa, ular buyoqqa qatnab, bordi-keldi qilib turishadi.

Buvining bitta aybi — o'qishni bilmaydi. Aks holda kitobda panshaxa "ayri", "chelak" "chaka" deb tushuntirilishiga shubha qilarmidi. Lekin "Orqalik muallim bolalarimizga orqaliqcha noto'g'ri saboq beryapti", degan xotin-xalajlarga: "O'rgatsa — qoidasi shunaqadir-da, bilim olsin, odam bo'lsin deydi-da", deya tushuntirardi.

Elliginchi-oltimishinchi yillarda janubga Chuy, Issiqko'l, Tiyonshon taraflardan bilimli mutaxasislar ko'p kelishardi. Biroq bolaning onasiday shu yerli birovga unashtirib qo'yilgan qizlar ko'p bo'lishiga qaramay, el o'rtasida aloqa hali siyrak edi. Ikki orada bolaning "orqalik" bo'lib qolgani qiziq bo'ldi. Nima bo'lganda ham uyma-uy yurib gazeta tarqatib yurgan "qirchang'i" pochtachi uchragan odamga vaysinaverardi: "Yopiray, seshanba kuni qovun bozorda qiziq ish bo'ldi. Tentiragan orqalik oshqovoqni qovun deb, tiliklab o'tiribdi..."

Bola yolg'iz bo'lsa — yakka, yonida ukasi bo'lsa u bilan qariyani toshbo'ronga oladi. Boloxonador qilib so'kinib jirillagani ortiqcha. To'g'ri, keyinchalik kattasiga esi kirib, har xil nomaqbul so'zlardan o'zini tiyadigan bo'lib qoldi, ukasini ham bu yo'ldan qaytardi. Pochtachi ham bo'lar-bo'lmas gaplarni aytmay qo'ydi.

O‘qish tugash arafasida edi shekilli, tong otar-otmas aka-uka ikkovini onasi yetaklab, jo‘nab qolmoqchi bo‘ldi. O‘shanda buvisi “aylanayin suyanchig‘im, bu nima qilganing, meni bir yo‘la ko‘mib ketmaysanmi”, deganicha kelinini mahkam quchoqlab, obidiyda qilganida hali es-hushi kirmagan ikki bola hech narsaga tushunmay jovdiragancha tomoq yirtilgudek ho‘ngrashdi, bundan seskangan it-qushlar, qo‘radagi qo‘y bezovtalandi, qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilishdi.

Bolalar kechki ovqatdan so‘ng uyquga ketib, o‘sha tundagi to‘polonni payqamay qolishgan. Bo‘lar ish bo‘lib, bo‘yog‘i ko‘chgan edi. Bir-ikki choynak, piyolaning singanini qo‘ying, to‘rdagi xonaning oynali derazasi chil-parchin bo‘lib, to‘r pardasi titilib ketgan, onasining chakkasi ko‘karib, to‘s-to‘polonda otasining beti timdalangan, buvisining beli qo‘qislanib qolgan ekan.

— Qayliqni olisdan peshlab boshqarish kerak, bolam. Iching tor bo‘lsa, ichingni it tatalab, g‘azablanaverasan, g‘azablanaverasan, baraka ketadi. Ey bo‘tam, maktab yopilganini bayram qilib kechiksa kechikkandir, axir salt-suvoyi narsa... Yigit degani qildan qiyiq axtarmaydi! Ilgari biz turli-tuman to‘y-to‘rkinda qomat ko‘rsatib, oydin tunlarda hayinchalak uchardik. Senga yolg‘on, menga chin — “Sen kulding, sen suyding”, degan ko‘r-ko‘rona rashkni eshitmagan ekanmiz...

Kampir qizisha-qizisha rosa javraydi. Mardikorlikda ishchi batalyonida boshining orqa tomoniga kutilmaganda kesilgan qarag‘ay tekkan, qirg‘iz nasibasi Sibirga sochilgan erini, urush arafasida tug‘ilib, olti yoshida qazo qilgan tentagini eslaganda ko‘zlari multirab yosh to‘kish odati bor. O‘sha kenjam sog‘-salomat bo‘lganida, esiz, sening bebosh otangga kunim qolmasdi, deydi, uyim boshqa, joyim boshqa, sizlar uchun bunchalik jabr-jafo chekmasdim, deydi. O‘g‘ilning hurmatini, qizning izzatini ko‘rmadim, yo tuproq bilan teng bo‘lib chirib ketmadim, deydi.

Tunov kuni tong saharda, nari tort-beri tort janjalning oxirida bola buvisida, ukasi esa onasida yulqinib bo‘zlashdi. Ular yig‘lashib avtobus bekatiga ketishdi, bular nochor o‘rnida qolishdi. Bunday paytda qo‘ni-qo‘shnilarning maslahati o‘tmaydi, shekilli. Er-xotinning urishi — doka ro‘molning qurishi deydilar.

Yursa-tursa o'y-xayoli bolalariga ipsiz bog'langan buvisi: "Garang tog'angning ko'zi yo'q, xolang esa mendan besh battar. Sartlar onangning miyasini aynitib qo'yishdi chog'i", deydi.

— Aytmoqchi, — deydi u jilmayib — biz ularni "orqalik" deganimizday, ular bizni "andijonlik sart"ga chiqarishar ekan. Bundan xafa bo'larmidik. Har kim uchun peshonasiga bitilgan nomi qadrli. Surishtirsak, nasl-nasabimiz bir...

Buvisi maktubning navbatdagi so'zini aytib, bola uning ma'nosini o'zicha tusmollab, savol bermaslikka harakat qiladi. Avvali uch tayoq chizib, o'rtasidagisini qiyshaytirmay, ikki chetidagisining ikki burchagidan ilmoq yasab "J" qildi yana ikki tayoq chizib, birining etagini ikkinchisining boshiga ichkaridan qiyalab tutashtirdi — "I" paydo bo'ldi. "G"ni cholg'iga o'xshatib yozdi, so'ng mijg'ov kayfiyatda "A" yozdi, qalam uchini siyohga yangidan botirib "R" yasadi, so'ng "I" shaklini yozdi, oxiri "M"ni bitqazdi, yetti harfdan iborat ekan.

Bola xufyona shunday taxmin qildi. "Ayting, keladi"ga "oyi" so'zi bilan davom ettirganidanmi, bu so'z eng yaqin kishiga qo'llanilishini ko'nglidan o'tkazdi. Aytilgan taklifni o'qishi bilan onaizori zum o'tmay yetib kelishiga shubha qilmay, o'zicha "Oyijon, sizni juda sog'indim, ukajonimni sog'indim, siz ham meni sog'ingandursiz", deganday ko'nglidagi gaplarni qo'shimcha qilgisi kelardi.

Bu gal vaziyatni buvisi tergab turardi. Eng avvalo xosiyatli Issiqko'lning xushbo'y havosini bearmon simirib, qiyomatgacha emas, vaqtincha yashab turgan onasining, ukasining sihat-salomatligi so'raldi, keyin xolasi va boshqa katta-kichik, quda-andalar safi buzilmay yo'qlanib, mol-qo'ylari-yu, ob-havo, ekin-tikinlar hosiligacha tilga olindi. O'zlari haqida bir chimdim xabar berilib, eng qizig'i otasi aroq ichishni tashlamasa ham tashladi deyilgani, uni rais hech qachon maqtamagan bo'lishiga qaramay planlarni to'ldirgani uchun kolxozchilarning yig'ilishida maqtadi, deya yolg'onni qotirishgani bo'lmadimi. Savodi cheklangan bola tubi qurib borayotgan siyohdonni yuz martalab qayta chayqashdan charchab, cho'qqaygan burni bo'yalib panjalari tolib, xatga yana qo'l urish azobidan qiynalardi.

— Chidagin, qo'zichog'im, onangni chaqirsak, yurt oldida yuzimiz yorug' bo'ladi, falonchining merosxo'ri sarson bo'ldi, degan yomonotliqdan xalos bo'lamiz, obro'yimiz tiklanadi. Chida qo'zichog'im, qiyini ketib, osoni qoldi.

Toliqqandan qog'ozni yig'ishtirib, yonboshga qiyshayib yotib olgan nevarasining ustini zich yopib, termosdan issiq choy ichirib, ovqat tayyorlash uchun mayda-chuyda hozirlayotgan kampirning jag'i tinmaydi: kasofatidan qo'rqmay uch "taloq" qiladi nonko'r. Shariatda "uch taloq"qa qayta yo'l yo'q emish. Agar onang yarashishga rozi bo'lsa, oqsoqollarga xabarimizni aytib, ko'pchilik bo'lib biror chorasini topamiz. Dini islom bandasining huzur-halovatini ko'zlashi bilan ulug'.

Balki bola qachondir ilk bor ko'chat nomini eshitib, o'zi ko'rmagan bobosi ekkan, emin-erkin o'sib tarvaqaylagan quyuq soyali o'rikning shitirlagan barglariga tikilganicha o'y surib qolgandir. Sharoitga ko'ra avvalgi bahor oylarida ota-onasiga erchib tog'alarinikiga borganlarini zimdan eslayotgandir. Bearmon cho'milib, quyosh nurida terisi tulab-chiniqib, xayrlashuv chog'ida xolasi uni tizzasiga o'tqizgancha sochini silab-erkalatarkan soxtalik bilan so'ragan edi: "Chirog'im, paroxod yeganingni buvingga aytib bor xo'pmi?"

— I-ye, paroxodni yeb bo'ladimi?

— Nima, yemaydimi? Unda nima uchun Baliqchiga kelib-ketgan o'shlikdan "paroxod ko'rdingmi" deb so'rashsa "ko'rish u yoqda tursin, yeganman ham" deb maqtanadi?

Bola Ko'lda mehmon bo'lgan kezda "iya"laganga butunlay ko'nikib ketibdi. Haqiqatdan rost ekan, bir narsani yaxshi eshitmasang ham "iya", hayron bo'lsang ham "iya", cho'chisang ham "iya".

Asli, bularning urug'ida hech kim bunaqa so'zlamaydi. Shuning uchun "iya"si hamqishloqlariga g'alati tuyulgan. Bir safar tanaffusda sinfdosh qizlar hazillashib quvlab qolishdi: "Opayaning bolasi, "iya"lab qo'ygin", deyishadi. Ularning qiyqirig'i devorni zirillatib, partadan partaga sakrab, qizlarning o'rovidan tashqariga intilganda, muallimlar to'p o'ynayotgan maydonga kirib borishadi.

Oxiri qizlar ariday izzillashib, "ushla, ushlab ol", deya masxaralashadi. So'ng yana "iya" deb qo'ychi, "iya" deyishadi.

Bolani o'pkasi shishib, terlay-terlay ko'katzorga ko'ksi bilan yiqildi, bir necha marta yumalab, chalqanchasiga yotib qoldi. Biqinidagi og'riqdan duv-duv yosh to'kib yig'laydi.

Bolani maktabda onasi o'qitadi. Dars vaqtida yo "oyi" deyolmay, yo "opaya" deyolmay qiynala-qiynala to'rtinchiga ko'chdi. Kelgusi sentabrda opayamiz qani, deb so'ragan bolalar-u qizlarga javob topolmaydi. Bor gapni oqizmay-tomizmay oshkor qilsa, teng-to'shlari ishonmay "O'qituvchi ham umr yo'ldoshi bilan janjallashadimi", deyishadi-da!

Bechora bola boyagiday o'rik yaproqlariga tikilgan holda to'qson to'lg'onib, to'miqday yuragi o'rtanardi. Buvisi u-bu narsani yig'ishtirib yurarkan, o'ksinadi: "Ey dunyo, ko'zlarimni yig'latib quritding. Odamlar orasida masxara bo'lishim tayinga o'xshaydi. Hazrati Egamning qarg'ishi urguday zarra gunohim bormidi? O'n gulimdan bir gulim ochilmay cholimdan ayrildim, shundan beri, parvardigor Egam, to'shagimni bulg'atib, qutlug' nikohimni harom tutgan chog'im yo'q".

Qarilik alomati-da. Shunday bo'lsa-da kap-katta odamga sir saqlolmaslik yarashmaydi. Shundan bo'lsa kerak, bola oz-moz shoshqaloqlik qilib, mumkin qadar ohistalik bilan so'radi: "Buvi, davom ettiraylikmi? Dam olib bo'ldim".

— Davom etsak-etaylik, — dedi mushtipar buvi yig'i aralash. — Kasaling qanday? Tuzukmi? Bo'lmasa tur. Qaynonangizning boqar-ko'rarim qolmadi, degandan boshlaysan.

Peshindan keyin Farg'ona vodiysida kun isib, lohas qiladi. Tol shoxida bo'z chumchuq, u dumini silkitmaydi, silkitsa shamol yurib yer qurib qolmaydimi?

Ikki orada ulg'aygan nozik bolakay harf chizish bilan ovora. Uning betobligi, yangi kitoblar, kiyim-kechak zarurligi, qornini to'yg'azish to'g'risida gap ketganda kamchiliklar terib-terib yozildi. Maktubni cho'rt kesib tugatib qo'ymay, yotig'i bilan nihoyasiga yetkazish uchun hisoblab ko'rishsa bor-yo'g'i to'rt misra she'r kerak ekan. Varaqning qolgan joyiga qo'shib yozildi:

Sog'inchli salom xat,
Sog'inganda yetsin bot.
Sog'inganda yetmasa,
Sarg'ayib ketsin bu xat.

— Rahmatli bobong mardikorda yurganda o'smir otang xatga shu o'lanni qistirib qo'yardi deydi, — buvisi. — Sening ham shunday qilishing o'rinli bo'ldi, sadag'ang ketay.

Shundan keyin oldindan kelishib olganday bo'ldi. Besht vaqt namozni qazo qilmay o'qib bo'lgan zahoti boybiycha qayni inisining qishloq chetidagi qamish tomli uyiga yo'l oldi. Unikida har xil konvert bor. Dasxati ham chiroyli, harbiyda "pisarlik" qilgani rost shekilli. Manzilni o'sha mayib qarindoshimiz boplab yozib beradi.

Dasturxon ustida pochtachi o'tmishdan bir voqeani esga soldi:

— Esingizdami, yanga. Ko'ngaydagi yaylovda eshak minaman deganim, tirikchilik tashvishida rosa kuyib-pishganmiz. Ular ot minish kerak deyishadi. O'zim yarimjon bechora bo'lsam, menga yuvoshroq shalpanquloqni mo'ljallanglar, deyman, ayg'ir uzangisini o'ng-ters tepib egarda o'tiribman. "Bu ot hurkmaydimi, sog' oyog'imni ham sindirib olmaymanmi", deb jonim halak. Chavandozlik ishqim jo'sh urib intilganimni bilaman, bo'ldi tomosha, bo'ldi tomosha. "Tizginni mahkam ushla, mahkam ushla tizginni" deyishadi chor atrofdan azamatlar. Andijonlik orqalik, ot poygasini qotirganmiz-a, yanga?

Bekorga ko'p koyimang, yaqinda kelinigiz porqirab qoshingizga keladi. Xatni so'zsiz jo'nataman, ertaga ertalab jo'nataman, yanga.

Betob bola bosinqirab qoldi — nafasi qisildi. Baqiray desa, baqirolmaydi. Zildan og'irlashgan gavdasi boshqa tomonga ag'darilib olishiga yo'l bermaydi. Tipirchilayotganda oyoq tomiri tortishib, buklanib qoldi. Bola inqillay-inqillay uyg'onib ketdi: — Buvi! Buvi Buvijon...

Chorpoya ostidagi mushuk miyovlaganini hisobga olmaganda hammayoq jim-jit edi. Buvisi maktubni Shimolga o'zi olib ketma-

ganda hozirgacha qaytgan bo'lardi. Targ'il sigir dumini o'ynatib, shataloq otadi. Jonivorning fe'li bolaga yaxshi ma'lum. U qochoq sigirni izma-iz quvmaydi. Katta odamday hushtak chalib, bir nimalarni aytib yuvoshtiradi.

Xayollardan xoli ketgan bola oqshom shabadasidan titragan tanasiga turilib qolgan ko'rpani tortayotganda yer-osmon aylanib ketdi. Ajalning alomati shumikin?

Avvalo, yosh umrning kun-suvi tugamasa, tepada osilib turgan shishali chiroqqa qattiq tegib kampirning qosh-qovoq o'rtasidagi o'limga duch bo'lgan kichik o'g'li qayerda edi? Sho'xlikning qurboni bo'lgan farishtam, qimirlagan har bir harakatingni saqlab qolishga ulgurmagan nodon kampirni ikki dunyoda kechirma, degan buvisi qismatini qarg'ay yig'lab, suv parisining sochlariday yoyilgan sochini yulgani-yulgan.

— Arava buncha imillaydi, shahar olis. Sho'rlik chirog'im arosat yo'lda osmonga yulduz to'lganda ko'z yumdi! "Oyijon, — dedi uzilar chog'i mungli tovush bilan, — qamchilamay ortga buring, qorong'ida qo'rqasiz. Siz bilan saharlab paxta terishga bora olmayman, tepa ko'chadagilar to'planishib, akamni yakkalashsa, tarafini olib urisholmayman. Otam o'lmaganda, "Otajon, bu balodan meni qutqaring" derdim, nimjon qo'llarim bilan quchoqlab yig'lardim".

Ba'zida eski yarasi tirnalib, g'ayrati so'nib qoladigan boybicha shu ko'yi aqldan ozadi. Ko'pincha xuddi o'likday suyanib, turtkilayotgan jigarbandlari oxirat jariga qulaganimda oq yuvib, oq kafanlab, chuvillashib yig'laydigan qanot-bo'toqlarim borligiga shukur", deya ko'ngli taskin topgandi.

Biroz kuchimni yig'sam, buvimning sharpasi eshitiladi: xatni topshirdim, aylanay, tobing tuzukmi? Seni uzoq kutdirib qo'yganimga xijolatdaman. Yurishga sabrim yetmay yugurdim, oyog'im chalishib yonboshlab yiqildim.

ODDIYGINA SOLIYA

Ikki pardali pyesa-hikoya

Qatnashuvchilar:

CHIRMASH — o'ttiz-o'ttiz besh yoshdagi ziyoli yigit.

OLTINOY — uning xotini.

SOLIYA — tanish ayol, bir paytlar Chirmash sevgan qiz.

QANOT — turmadan qaytgan yigit. Chirmashning sobiq kursdoshi.

MAQSADBEK — Chirmashning kursdoshi.

IRINA — Maqsadbekning xotini.

Bundan tashqari askar kiyimidagi zobitlar, Chirmashning onasi, bir qiz va ikki yigit qatnashadi. Qizning rolini Soliya, yigitlarning rolini Maqsadbek bilan Qanot ijro etishi ham mumkin. Chirmashning onasi rolini esa Oltinoy bajarsa bo'ladi. Voqea shu kunlarda Bishkek shahrida bo'lib o'tadi.

BIRINCHI PARDA

Uzoqdan kelayotgan poyezdning sadosi eshitiladi. Parovozning barchaga tanish sirenasi yangrab, "toshoqsoqol-toshoqsoqol" qabilidagi sado borliqqa singib ketadi. Sahna ochiladi. Oziq-ovqat, meva-cheva bilan bezatilgan stol. Stolning bir tamonidan Chirmash, bir tarafda Soliya churq etmay o'tiribdi.

SOLIYA: — Chirmash, men sizlarni uyingizga to'satdan kelib qoldim.

CHIRMASH: — (O'rnidan qo'zg'olib) Oradan qancha yil o'tganiga qaramay, hamon oydek suluvsan. O'ngimmi-tushimmi, anglamay turibman. Ey, tangrim!

SOLIYA: — Chirmash!

SHIRMASH: — Soliya! (Bir-birini damo-dam bag'riga bosadi.

SOLIYA: — (quchog'idan chiqib) Yo'q, yo'q, bu qilig'imiz yarashmaydi. Birov ko'rib qolmasin. Ayniqsa xotining sezmasin, Chirmash!

CHIRMASH: — (namlanib qolgan ko'zoynagini, ko'zlarining jiyaklarini dastro'moli bilan artadi). Payqasa battar bo'lsin! Sen mening birinchi muhabbatimsan, Soliya! Zarur bo'lsa, bu to'g'rida jar solaman.

SOLIYA: — (shoshib) Yo'q! Yo'q! Unday qilma Chirmash!.. (o'zicha pichirlab) Men xuddi shunday yozishdan qo'rqaman... Tezroq daf bo'lishim kerak... Ketishim shart...

CHIRMASH: — Soliya?!

SOLIYA: — Ha, Chirmash? Baxtingga yarasha yoring bor. Gapinglarga qaraganda ovulda onangning tarbiyasida o'g'ling bor ekan... Bu o'rtada men kimman? Sen menga qachonlardir oshiq bo'lgandirsan. Unda ikkimiz ham yosh edik, mast edik. Xozir bo'lsa, men sening oilangni birinchi dushmaniman.

CHIRMASH: — Rostdanmi?

SOLIYA: — Buning ustiga seni men hech qachon sevgan emasman! Chirmash, yodingdami, derazamga jovdirab boqqanlaring, kinoga taklif etsang, mazax qilib kulganlarim, javobsiz qolgan otashin xatlaringni bir eslagin-a...

CHIRMASH: — (Soliyaning gapini bo'lib) Yodimda, barchasi esimda. Men o'shanda kichik bir o'quv yurtini bitirmay, ishq-muhabbatning milliy akademiyasini tugatganga o'xshayman.

SOLIYA: — O'shga, bozor-o'ucharga ko'p qatnayman. Boyagi ko'cha to'la teng-to'shlar yo'q. Xuddi biror narsasini yo'qotgan kimsaday hamisha andarmon yuraman.

CHIRMASH: — (Soliyaning so'zlarini eshitmaganday) Sirojiddin ikkimiz paxta terimida "qaysinimizni sevasan" deb yo'lingni to'sgan edik. O'shanda sen azal yashirib ko'nmagan ko'zlaringni baqraytirib "Sirojiddinni" deganing hamon esimda. Men esa, xuddi jin urganday paxtazorni oralab, olislarga ketib qolibman. O'pkam to'lib, oyoqlarim chalinib, yiqilibman. Bir mahal o'zimga kelsam, ro'paramda Sirojiddin turibdi. U tirjayib, ust-boshimni

qoqib, mayli hechqisi yo'q, do'stligimiz hurmati Soliyaga sen uylan. Biroq, og'ir paytda shartingdan tonma. Do'stligimiz hurmati uning qadriga yetgin?!

SOLIYA: — (Boshini Chirmashning bag'riga qo'yadi) Yetar! Hozir ho'ngrab yig'lab yuboraman.

CHIRMASH: — (Soliyaning yuzini silab xayolga cho'madi) Sirojiddinni shu bo'yicha ko'rmadingmi?

SOLIYA: — O'qishni bitirgan yilning kuzida armiyaga ketdi. Xatlashib turdik. Maktublarida seni yo'qlab, menga xat yozishing bilan qiziqib turardi. O'z navbatida sen ham Sirojiddin haqida so'rab-surishtirar eding. Qisqasi, qasamyod qilgan ikki jonajon do'stga bir-birovlarning to'g'risida lom-mim degan emasman. Aks holda bu yog'i o'zinga ayon. Keyin afg'on voqealari avj oldi. Ikkovingiz u yoqda — jangda yurganlaringda, har ikkingizni ham o'z panohida saqlashini Yaratgandan ko'p marta tilganman.

CHIRMASH: — Sirojiddin bilan Qobulda uchrashgan edik.

SOLIYA: — (Chirmashning ko'ksidan boshini ko'tarib) Nahotki? Qanday qilib? (Atrofiga qaraydi) Anavilar kelishmadi-ku. Irina degan opajoning o'rismi?

CHIRMASH: — O'ris emas, esi yo'q. Azon aytib qo'yilgan asl ismi Esongul. Bir xafa bo'lsa, chehrasi osonlikcha yorishmaydigan xilidan. Balki orqasidan quvib yetishgan bo'lishsa kerak.

SOLIYA: — Boyvachcha tushmagur to'qol degan hazildan toydi shekilli?

CHIRMASH: — Kundoshlik bo'lish — opamizning g'ashiga tegish bilan barobar. Maqsadbekning puli cho'ntagini qitiqlab, yana birovga uylanish niyatida. Sababi, u tadbirkor. Xotini bo'lsa bunga butkul qarshi. Nafsilamrini aytganda, buni gapirib o'tirishning hojati yo'q, Soliya!

SOLIYA: — Rost gap, sizlarning orangizda zo'rg'a o'tirgandim. Qanot bilan ham tanishganimga ham ko'p bo'lgani yo'q. Hisobdan yaqinda qutulib kelgani to'g'rimi?

CHIRMASH: — To'gri. Oradan o'n yil o'tgach uchrashdik. Qanot, Maqsadbek ikkimizning muhlatimizni ham tugatib qaytdi.

SOLIYA: — Bu jinnimi? Nima deydi o'zi?

CHIRMASH: — Uchovimiz bir mahallar bir qizni zo'rlab qo'yib qo'lga tushganmiz.

SOLIYA: — Bu so'zingga ishonmayman. Hazilingni yig'ishtir. "Zangori ekran"da bir talay murakkab savollarga javob berganingni ko'rib, kursdoshim Chirmash hozir zo'r olimlarning qatorida o'tirsa kerak, deb o'ylaganman. Aytganday, Sirojiddindan gapirgin.

CHIRMASH: — Sirojiddin... Sirojiddin... Sho'rlik do'stim! Kel, Soliya, Sirojiddinning xotirasi uchun ichamiz (Sharob quyish uchun engashadi).

SOLIYA: — Men ichmayman, Chirmash!

CHIRMASH: — (qo'lini sharobdan tortib) Men ham sharobning uddasidan chiqolmayman. Tashlab yuboray desam, ko'ngil bo'shroq. Ha, aytganday, Sirojiddin haqida...

SOLIYA: — (stulga astoydil o'tirib)Qulog'im senda.

CHIRMASH: — Shunday qilib, bizning batalyonni tun ichida Kobulga harbiy samolyotlarda tashidilar. Undan keyin, piyoda yurishga tayyorlashdi. Shaharga yaqinroq o'rnashdik. Tong bo'zarib borardi. Jimlikni tanklarning beso'naqay ovozi buzdi. Jangchilar turnaqator o'tayotgan tanklar shovqini ostida baqirib-chaqirib, "Qayoqdan?", "Qachon keldinglar?" kabi savol berib, hol-ahvol so'rashadi. Shunday to's-to'polon paytda bir yigit shosha-pisha tank ustidan sakrab yerga tushdi va o'zini olomondan chetga oldi. Bu mening e'tiborimni tortdi.

(Sahna qorong'ulashib, tanklarning ovozi eshitiladi. Tankchi kiyimidagi jangchi yigit ko'zoynak taqmay shumshayib o'tirgan Chirmashni qayta-qayta quchoqlaydi. Soliyaning chehrasiga nur beriladi).

JANGCHI: — Vatandosh, Soyuzdan qachon keldilaring?

JANGCHI: — O'zbekmisan?

CHIRMASH: — Qirg'izman, o'shlik qirg'izman.

JANGCHI: — O'shlik! Vatondoshim ekansan! Men andijonlikman! (ikkovi yana quchoqlashadi). Biz Afg'onistonga birinchilardan bo'lib kirganmiz. Besh-olti marta jangda qatnashdik. Shunday yurtdosh! Dushman serzarda. Buning ustiga biz tog'-toshda

urushib ko'nikmagan ekanmiz, talafot ko'p. Xayr, vatandosh! Men mana bu tankka tirmashmog'im shart!.. Darvoqe, safimizda bir o'shlik yigit bor. Sendan salom aytaman. Ismi Sirojiddin.

CHIRMASH: — Sirojiddin?.. Sirojiddin, qayda?

JANGCHI: — Taniysanmi? (ketayotib). Oldingi safda borayotgan tanklarda. Hov anavi, boshi oq doka bilan bog'langan yigit. Yugur! Tezroq chopsang yetasan.

CHIRMASH: — Sirojiddin! Siro-jid-diin! (Tanklarning orqasidan chopadi. Tezlab boradi va ohista lo'killaydi) Sahna yoritiladi. Chirmash chap qo'li bilan ko'zoynagini ushlab, o'ng qo'li bilan chakkasini uqalaydi (sukunat).

SOLIYA: — (shitob bilan o'rindiqdan turib, besabirlik bilan) Sirojiddinni quvib yetdingmi, keyin?

CHIRMASH: — Qayoqda deysan? Yetolmadim. Ammo Sirojiddinning "yaxshi xizmat qil", "ehtiyot bo'l" degan so'zlarini aniq-tiniq eshitdim. "Soliya","Soliya" degan uzil-kesil gaplar yangradi. So'ng ortimdan menga qarab, "qol" deganday qo'li bilan ishora qildi. Ma'lum bo'lishicha, ortimdan "nazad", "nazad" deya o'shqirib starshina boshchiligida uch soldat kelayotgan ekan. "Chto s toboy? Pochemu takoy bledniy?" dedi starshina kuyunib. "Druga poteryal, tovarish starshina" debman talmovsirab. Ajabo, nega shunday deganimni o'zim ham bilmayman. Bu qilig'imga hamon o'kinaman.

SOLIYA: — Sirojiddinning o'zi umrim o'ta qisqa, yigirmadan oshmasam kerak deb ko'p aytardi. Sababini so'rasam, bolaligimda lo'li xotin fol ochib, taqdirimni belgilab qo'ygan derdi. Men bu gapni aytdi qo'ydi-da deb o'ylaganman. Bir marta, davlat imtihonlariga tayyorgarlik ko'rib yurgan paytlarimizda yurakdan dartlashar edik. O'shanda Sirojiddin "Soliya, men bilan baxtli bo'lmaysan, yaxshisi Chirmashga tekkaning ma'qul" degani esimda. Men yig'ladim. Sho'rlik Sirojiddin ham menga qo'shilib ko'z yosh to'kdi. (Soliya yoshlarini artib, dadil ohangda) Sirojiddining o'lganligini kimdan eshitding?

CHIRMASH: — O'lganini... O'lganini... Shunday qilib, Afg'onda olti oy xizmat qildim. Keyin, xizmatni bitirib, Kobuldan Toshkentga uchdik. Toshkentdan Andijon poyezdiga bilet olib

vokzalga borayotsam, bir yigit ro'paramdan chiqib chaqirib qoldi. (Sahna qorayib, katta jomadon ko'targan jangchi ko'rinadi, Soliyaning chehrasiga elektr nuri beriladi)

JANGCHI: — Yurtdosh! Tanimay qoldingmi? Kobul chetidagi uchrachuv yodingdami? Men bir ko'rganimni aslo unutmayman. (Quchoqlashdilar). Uygami?

CHIRMASH: — (xursand) Uyga! Do'stim, "Manas" dostonida shunday misralar bor: "Otamdan qolgan Anjonni nihoyat borib ko'rayin..." deganlariday...

JANGCHI: — Andijon qirg'izlarning otasidan qolgan bo'lsa, unda o'zbeklarning esa bobosidan qolgan desak ham bo'laveradi, vatandosh (Kulishadi).

CHIRMASH: — Aytganday, yurtdosh, Sirojiddin harbiy xizmatdan bo'shadimi?

JANGCHI: — Sirojiddinmi? Afsus, afsus vatandosh, sen eshitmagan edingmi?

CHIRMASH: — (Cho'chib) Nimani?

JANGCHI: — (Chirmashning bo'yniga osilib) Sirojiddinni egasiga topshirdik, yurtdosh. O'zingni qo'lga ol. O'sha sen bilan uchrashgan kunimiz jangga kirdik. O'sha yerda Sirojiddin shahid bo'ldi. Men og'ir yarador bo'lganligim tufayli, uning mayitini kuzatishga qatnasholmadim. O'shlik o'ris yigitlar Sirojiddinning tobutini olib kelishgan (poyezdda jo'nayotganday bo'ldi) Yur, vatandosh, yana poyezddan kechikib qolmaylik. Sirojiddin haqida mavridi kelganda xotirjam gapirib beraman. (Chirmash qaygadir oshiqadi. Jangchi uning orqasidan chopadi). Yurtdosh, qayoqqa? Andijonning poyezdi ketib qoladi. To'xta, vatandosh, Andijonning poyezdidan qolib ketma, to'xta... (Sahna yoritiladi. Sukunat)

SOLIYA: — Sirojiddinning vafot etganligi haqida menga ham bir o'zbek yigiti xabar qilgan edi. Birga xizmat qilgan o'sha uzbek o'g'loni Sirojiddinning nomidan ajoyib xat bitib, maktub ichiga uchchovimiz tushgan suratni solib, nomimga yo'llabdi. Eng muhimi, oq qog'ozning bir burchiga ko'z yoshi tomgan bo'lib, quyidagi so'zlar ilova qilingan edi: "Soliyaxon! Siz ortiqcha qayg'urmang. Siz uchun biz qayg'urib bo'ldik..." Bu omonatni singlim hech kimga ko'rsatmay o'zimga berdi.

CHIRMASH: — Singling o'zingga juda o'xshar ekan.

SOLIYA: — Sen uni qayoqdan bilasan?

CHIRMASH: — Uyinglarga borganman.

SOLIYA: — (Hayron bo'lib) Qachon?..

CHIRMASH: — Shunday qilib, Andijondan taksida to'g'ri ovulga jo'nadim. Kelsam, eshigimiz qulf. Qumayiq degan itim dumini shiypanglatib oyog'im ostida g'ingshiydi. Qo'ni-qo'shnilarda ham jim-jitlik. Taksichini rozi qildim. Suyunchi tarzida shofyorga shapkam bilan kamarimni tortiq qildim. Taksichi ukalaringga sovg'a qil, deb hech unamadi. "Tog'a, mening ukam ham, akam ham yo'q. Oling!" — dedim. Qumayiqdan ko'kka sakrayman. O'sha kuni oyim, qarindosh-urug'larimiz otamning qabriga ziyorat qilgani ketishgan ekan. Hayitga yaqin qoluvdi. Ma'lum bo'lishicha, otam mashina halokatiga uchragan bo'lib, bu haqdagi xabar menga yetmagan ekan. Ilojim qancha? Yig'lay -yig'lay o'ksik dilimga chora topolmay ko'p nola chekdim. Ko'nglimni kimgadir bo'shatishim kerak. Dardli dilga dardkash zarur. Xayolimdan "Oyijon, sizni kelinli qilaman" degan o'y o'tdi. Oxir-oqibat ovulinglarni izladim. So'rab-so'rab, Makkani topibdi, deganlaridek, yaxshi odamlar uylaringni ko'rsatib qo'yishdi. Tizzam qaltirab, otasi zardali, onasi o'jar emasmikan, degan mulohaza bilan darvozaga yaqinlashdim. Ohista qarasam, egningda atlas ko'ylak, kir yuvayotgan ekansan. Sevinganimdan butun vujudimga titroq turdi. (Sahna qorong'ulashib, yuvilgan choyshabni ushlab turgan qiz ko'rinadi)

CHIRMASH: — (Ohista/ Soliya!) Qiz eshitmaydi. (Biroz, baland ovozda) Soliya!

QIZ: — (Cho'chib) Sizga kim kerak?

CHIRMASH: — Soliya! Omonmisan? Men seni...

QIZ: — Opam yo'q. Opam turmushga chiqqan.

CHIRMASH: — Turmushga chiqqan? Sen kimsan?

QIZ: — Men singlisi bo'laman.

CHIRMASH: — (Dovdirab) Kimga, qachon?

QIZ: — Ancha bo'ldi.

CHIRMASH: — Nima uchun kutmadi? Nega? (Es-hushini yig'ib) Sen singlisiman dedingmi? (Qizga qarab yura boshlay-

di. Qiz ortga qaytadi). Qo'rqma, singlim. Men... Men... Rahmat!..

QIZ: — Hechqisi yo'q.

CHIRMASH: — Mayli, sadag'ang bo'lay... Xayr! (Shart burilib jo'naydi).

QIZ: — (Unga ergashib) Aka! Siz kimsiz? Opamga nima deyin?.. (o'zicha qo'lini cho'zib xayrlashganday bo'ladi). (Sahna yoritildi. Sukunat).

SOLIYA: — Keyin ortingdan yalangoyoq, yalangbosh, ayrimlari shir-yalongoch dumbul bolakaylar kesak otib, tosh irg'itib, kuchuklari bilan birga quvalashdi. To'g'rimi? (qiqirlab kuladi) Hamon avvalgiday gapni ham boplaysanda...

CHIRMASH: — (Alahsib) Dala bo'ylab qalqib borayotsam, izg'irin shamol kuchayib, yomg'ir tomchilay boshladi. O'zim nima ahvoldaman-u, o'chashganga kuchayib, shalabbo bo'lib ketgan qo'ynimga chumchuqning temir qanot poloponi kelib tushdi. Eh bechora qushcha. O'ta holdan toygan ekan, bechora. Uchishni o'rganaman deb inidan talpinibdi. Ob-havoning bu qadar o'zgarishini qayoqdan bilsin. Daraxtning panasiga yo'lanib o'tirdim va polaponni daraxtga qo'ndirdim. Shallabo bo'lgan ust-boshimni serkitib, ko'mir tashiydigan poyezdga bir amallab ilashdim. Parovoz dardlarimga hamohang tarzda "Xayr yoshlik!", "Yaxshi qol, muhabbat" deganday nolish qilib bormoqda. Parovoz chinqiragan sari yurak-bag'rim tilka-pora bo'ladi. (Ikkovi ikki tomonga yurib, xayolga cho'madi. Birozdan keyin Chirmash hikoyasini davom ettiradi) G'ira-shirada uyga kelsam, oyim meni hovlida kutib turgan ekan. (Sahna qorong'ulashib, ko'm-ko'k kiyimda azador ayol kirdi. Soliyaning yuzi elektr nurida ko'rinadi /

AYOL: — Nega xafaqonsan, qarog'im?

CHIRMASH: — Oyijon, suygan qizim erga tegib ketibdi.

AYOL: — Shunday bo'lish kerak edi, bolam. Soliyaning ko'ngil qushi Sirojiddinga og'ib ketgan.

CHIRMASH: — Oyi, siz buni qayoqdan bilasiz?

AYOL: — Oying qurmagur, Soliyaning xatini sendan berkitib yuribdi-ku! Mana, (cho'ntagidan bir varoq qog'oz chiqarib, Chir-

mashga beradi), armiyaga jo'nayotgan kunlaring edi. Do'stlaring bilan xayrlashib, yurgan tig'iz paytda pochtachi og'ang, bo'lajak kelining izdan Chirmashga xushxabar bor, deb kinoya qiluvdi. Qaranam, qizbolaning dasxati. Bolaning voyaga yetgani shu ekanda deb shukrona qildim. Chunki, sen bugun yurtni himoya qilgani safarga otlanyapsan. Nur ustiga nur deganlaridek, sevgan qizidan maktub keldi. Seni kuzatish tashvishi bilan bo'lib, ertasi xatni berish yodimdan chiqib ketibdi. Keyin uni boshqa konvertga solib, manzilingga jo'natib yuboray deb ochib korsam... "Sirojiddin ikkovimizning qarorimiz qat'iy. Ovora bo'lma. Senga nima uchundir yuragim ilimaydi" kabidagi so'zlar yozilgan. Ko'zlarimga ishonmadim. Mening jigar-bag'rimni suvga sovutgan bu qanday qiz bo'ldi? O'g'limni oti uchgur Sirojiddindan qayeri kam? Olti muchali omon, yegani oldida, yemagani ortida bo'lsa. Eshushi joyida, qisqasi ancha hayron bo'lib yurdim. Bu haqida otangga churq etmadim. Hozirgiday, bo'zarib qaytmasang, xatni senga ko'rsatmas edim, qarog'im. Bu sirni qabrimga o'zim bilan olib ketardim.

CHIRMASH: — (Varoqni mayda-mayda qilib sochib yuboradi) O'rgilayin, oyijon, Sirojiddinga til tekkizmang. U jonajon do'stim. Afg'onistonda shahid bo'ldi.

AYOL: — Nima deysan? Biz sizlarni azob-uqubat tortish uchun tuqqanmidik?! (Qo'lini yuqori ko'tarib) O, Parvardigorim! Bir umrlik yostiqdoshimni yamlab to'ymagan bolsang, endi mening chivinday jonimni olgin-u biroq, yolg'iz zuriyodimga shafqat qil. Ko'ksimni zirqiratma, ko'zdan yoshimni tirqiratma. O, karami keng, Tangrim! Kuygan qulungning arziholini qo'sh qulog'ing bilan eshit (O'ksib yig'laydi).

CHIRMASH: — Oyi... Oyijon... Oyijonim! (Sahna yoritilib, Soliya Chirmashning peshonasidan o'padi)

SOLIYA: — Maktub yozganim rost. Lekin o'sha xatda bor gapni yolg'ondan yozganman. Sirojiddin ikkimiz ahdlashganimiz haqidagi so'z yolg'on edi. Uni men to'qib chiqarganman. Sababi, Sirojiddinni barchangizdan ustun qo'yardim. Shuning uchun uni haddan ortiq sevardim. Buni sen yaxshiroq bilasan.

CHIRMASH: — (Baqirib) Yolg'on!

SOLIYA: — (Baqirib) Rost!

CHIRMASH: — Rost bo'lsa, nega Sirojiddinni kutmading?!

SOLIYA: — Kutmading emish! Nima deb dovdiryapsan? Men sening oldingda, Sirojiddinning eng qadrdon do'sti huzurida qasam ichmoqchiman. O'zimning ayollarga xos obro'-e'tiborim va taqdirim bilan qasam ichmoqchiman. Agar bu yorug' olamda qiz bolani ayamagan, uning nochorligidan o'z maqsadlari yo'lida foydalanmagan johil erkaklar yashamaganda, men Sirojiddinni to qabrgacha kutgan bo'lardim (Sukunat).

Meni tog'li zonadagi maktablarning biriga ishga jo'natishdi. Boshlang'ich sinflarga dars bera boshladim. Yil oxiriga qadar halol ishladim. Barcha balo-qazo ikkinchi o'quv yilida boshlandi. Armiyadan yaqindagina qaytgan takasaltang yigitlarning biri o'qituvchi opalarni ishga solib, meni o'rtaga olishdi. Ko'nmadim. Oraga tushganlarga rostini aytdim. Va'dalashgan yigitim bor, dedim. Hatto ularga Sirojiddinning xatlarini, birga tushgan suratlarimizni ko'rsatdim. Foydasi bo'lmadi. Ular do'q-po'pisaga o'tishdi. Olib qochamiz, deyishdi. Afsuski, voqea men kutgandan og'irroq kechdi... Bahor faslida sinfimdagi bolalarni ovul chetiga, adirlar bag'riga olib chiqdim. Atrofimni o'g'il-qizlar o'rab olgan. Tug'ilgan qishlog'im haqidagi hikoyaga berilib ketib, yonimizga kelib to'xtagan yengil mashinani sezmay qolibman. Mashinadan shirakayf ikki barzangi tushdi. Birovi menga o'rtamchi qo'ygan yigit, ikkinchisi esa mo'ylovli, begona kimsa. (Sahna qorong'ulashib, qizil ro'mol o'ragan Soliya paydo bo'ladi (Chirmashning yuzi elektr nuridan yorishadi. Sahna ortidan ikkita qora soya yaqinlashadi)

BIRINCHI YIGIT: — (Qo'qqisdan kesatib) Yuksak tog'ning ohusidek bu yerda adashib yuribsiz, go'zal qiz?!

SOLIYA: — Kechiringlar, darsga xalaqit beryapsizlar.

BIRINCHI YIGIT: — Yaydoq dala, yam-yashil adirda deng... Havosi buzuq sinfdan zerikibsiz shekilli? Qip-qizil ro'molni o'rab olib, bo'ydoqlarni kuydirganingiz kammidi? Qizil durrali nozik nihol dildorim!

SOLIYA: — (Yurmoqchi bo‘ladi) Kechirasizlar...

BIRINCHI YIGIT: — (Yo‘lni to‘sib) Kechiramiz... Kechiramiz... Dars o‘rniga bolakaylarni aldab yurganingizni kechiramiz. Ustiga ustak, biz savodsizlar, sizning ta’lim-tarbiyangizga juda intiqmiz. (Ikkinchi yigitga ko‘rsatgich barmog‘i bilan ishora qildi) Ayniqsa, ana shu do‘stimizga muhabbat bobida biroz ta’lim bersangiz.

SOLIYA: — Iltimos, o‘quvchilarning oldida valdiramang.

BIRINCHI YIGIT: — Bular o‘quvchilar emas. Bular ukalarimiz. Qadrli bolalar, o‘qtuvchi opanglar biroz mehmon bo‘lib boradi. Sizlar qiy-chuv qilmay, asta-sekin tarqalinglar. Shu bilan dars tamom-vassalom. Nega angrayib turibsizlar? Tezda jo‘nanglar!

SOLIYA: — Ovozingni o‘chir! Darsni faqat men-u yaratgan Egam tugatishi mumkin.

BIRINCHI YIGIT: — (Qizga osilib) Unday bo‘lsa, yaratgan Egamning o‘zi qoshingda turibdi.-

SOLIYA : — Mana bo‘lmasam (yigitning yuziga shapati tortib yuboradi).

BIRINCHI YIGIT: — (Jag‘ini ushab, izza bo‘lib) He, onangni... Qanjiq...(Ikkinchi yigitni tezlab) Ushla uni, bu xonimga sen uylanasanmi yoki menmi? Sal bo‘lmasa sharmandayi sharmisor bo‘lardik (ikkovlashib Soliyaning qo‘lini buraydi) Bizning yigitlarimizni mensimas emishlar? Sirojiddin degan suyganlari bormish. He, o‘sha sevganingdan o‘rgildim. Sudra, mashinaga!..

SOLIYA: — (yulqinadi) Qo‘yib yubor, ahmoq! O‘quvchilarim yiglashyapti... Qo‘yib yubor! Yuraklari tushib qoldi. Bolalar tezda borib direktorga aytinglar. Ikkovi Soliyaning holi-joniga qo‘ymay mashinaga sudrab borishmoqda (Voy dod! Qo‘limni sindirdinglar. Bolalar, tezroq maktabga boringlar. (Sahna yoritiladi. Soliya olis-olislarga boqadi. Biroz o‘tgach, xafagazak ovozda) Xayriyat, o‘quvchilarim chopib borishyapti. Yerga tushib qolgan qizil ro‘molimni biri ko‘tarib olibdi. Sadag‘ang ketay, o‘rinbosarlari! Omon bo‘linglar! Muallima opangning pokiza tilagi shu. Men sizlarni xuddi bolalarimday yaxshi ko‘rardim. Aslida ham shunday. Bu hayotda sizlardan o‘zga kimim bor? Peshonam shunday ekan, ilojim qancha? Ishongan bozorim, sig‘ingan mozorim sizlar!

(Chirmashga qarab) Men shunday baxtsizman, Chirmash! Birinchi turmushimdan ajrashib, ikkinchi... Nihoyat, bir qari cholga uzatishdi. Uning qizlari meni sig'dirishmadi. O'ylab ko'rsam, mening taqdirim, Sirojiddinning taqdiri bilan teng tugagan ekan.

CHIRMASH: — (Soliyaning yelkasiga qo'lini qo'yib) Unday dema! O'n gulingdan bir guling ham ochilgani yo'q. Elatliklar juda qiziq xalqsizlar-da, o'zingizni tezda qariganga chiqarib qo'yasizlar.

SOLIYA: — (Chirmashning qo'lini yelkasidan tushirib) Bishkekka kelishdan asosiy maqsadim, birorta bolani asrab olish. Menga shu borada yordamingni ayamasang bo'lgani...

CHIRMASH: — Izlab ko'ramiz. Bolalar uyiga borib surishtiramiz.

SOLIYA: — O'g'il bo'lsa, ismini Sirojiddin qo'yaman. Qiz bo'lsa ham mayliga. Ovilimizdagi do'konda qorovullik qilaman. Maoshim ikki jonni boqishga yetadi. Sog'in sigirim bor. Hovlimizda barcha rezavor o'sib-unadi (ikkovi nimanidir ko'rib qolganday sukutga cho'madi. Tashqaridan norozi ohangda chiqib ketganday kirib keladi) Kel-kel desang kelmaydi. Kelma desang keladi. (Eshikdan Oltinoy, Irina, Qanot, Maqsadbek kiradi)

OLTINOY: — Ajabo, Chirmash, mehmonga muzika-puzika qo'yib, ko'nglini ko'tarish xayolingga ham kelmagan shekillli (stolga qarab), hech narsa yemabsizlar ham.

MAQSADBEK: — (Hazil aralash) Ishqilib, yig'laganinglar yo'qmi? (Dastlab Chirmashga, keyin Soliyaga tikilib qaraydi). Bular eski tanishga o'xshaydi. Birinchi bor uchrashganlarida bekorga qizarib ketishmovdi. Qani, Soliya, ko'zimga tik boqingchi. To'g'risini ayting, Soliya, Chirmashni televizorda ko'rganingizdan avval ham uchratganmisiz? Aldamay, laqillatmay rost gapiring.

CHIRMASH: — Uni mendan so'ra. Soliya bilan azaldan tanishmiz. Qolaversa, Soliya...

SOLIYA: — (Yutinib, bo'zarib) Chirmash!

OLTINOY: — Chirmash, bu yoqqa kelgin (ikkovi bir chetga boradi. Qolganlar, ovqatdan yeyishib, sharob ichishadi) Ishni bitqazdik. G'alabani nishonlaylik (Chirmashning yuziga uflaydi).

Hidi sezilyaptimi? O'ta kuchli konyak ekan. Suluv kelinni Qanotga olib beramiz.

CHIRMASH: — Soliyanimi?

OLTINOY: — Ismi Soliyami? Soliyani-da.

CHIRMASH: — (Jahli chiqib) Sizlar Irani o'ylash o'rniga Soliyani erga berib yurgan ekansizlarda-a?!

OLTINOY: — Ira yerga kirsin. Uni endi ko'ryapmizmi? Nervingni ehtiyot qil.

CHIRMASH: — Yo'q, men qarshiman. Loyiq emas.

OLTINOY: — Buyog'ini o'zlari bilishadi. Hozir sharobdan ichib, ovqatdan tanovul qilib So'qo'luqga — Qanotning opasinikiga jonaymiz. Uylanish marosimi katta voqea. Senga ko'ylak kiygizishadi.

CHIRMASH: — Demak, men Soliyaning to'yidan ko'ylak kiyar ekanman-da...

OLTINOY: — Bo'lmasam-chi! Balkim kastum-shim sovg'a qilishar. Borsak ko'ramiz (boshqalarga qarab) Qo'shiq aytamizmi? Do'stlar! (O'zi qo'shiq boshlaydi. Oltinoy, Irina, Maqsadbek, Qanotga ko'z qisib, Soliyaga qadah berishadi. Oltinoy bir chekkada xomush o'tirgan Chirmashga qadah uzatadi, Chirmash uni olmaydi).

CHIRMASH: — (Bo'g'ilib) Men qarshiman. Bunday bo'lishi mumkin emas.

OLTINOY: — Chirmash, turmadan kelgan oshnangni o'ta qadrlar ekansan... (Ikkita qadah ikki qo'lida raqsga tushganday nari-beri yuradi. Chirmashdan boshqasi ashula aytadi. Soliya Chirmashga o'qtin-o'qtin qaraydi. Sahna asta yopiladi).

IKKINCHI PARDA

Avvalgi sahna. Oltinoy bilan Irina oziq-ovqatli stolni tozalab qo'yishadi. Soliya stolning bir chetida jurnal varaqlab o'tiribdi. Sahnaning ikkinchi bir qismida Chirmash, Qanot, Maqsadbek qadahlaridagi ichimlikdan tatib, suhbatlashib o'tiribdi.

MAQSADBEK: — (Qanotning yelkasiga shapalatib) Qanot, ba'zan suhbatga aralashib tur. Xuddi talqon yutganday churq etmaysan?

QANOT: — Nimani ham gapiray? Chirmash ikkovlaringni ko'z qarashlaring men uchun tamoman begona.

MAQSADBEK: — Hozir men ilm sohasidan olisroqman. Ota-bobolarimizga rizq ulashgan "Buyuk Ipak Yo'li"ning shon-shuhratini qaytadan tiklash maqsadida bosh qotiryabman. Qirg'iziston — kichik bir o'lka. Biroq, o'ziga yarasha nasibasi bor. Atrofimizdagi ulkan, baquvvat davlatlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirishimiz kerak. Yo'lning avvali esa bizdan boshlanadi. Boshlamoqchi bo'lgan ishimizning mantig'i ham ana shunda. Bir vaqtlar rayon komsomol uyushmasi, rayon partiya komitetlarining instrukto'ri degan lavozimlarga uchib, quruq papkani ko'tarib yurganlarimiz yodimga tushsa, o'z-o'zimdan xijolat bo'lib ketaman. Essiz behuda o'tgan vaqtlar (masxaraomuz kuladi. Sukunat).

Do'stimiz Chirmash ancha durust yigit. U allaqachon nomzodlik bo'yicha ilmiy ishini himoya qilish kerak. Hatto fan doktorini ham eplaydi. Bulmasa shaharda tishini kirini so'rib yurarmidi, mirza yigit. To'g'risini aytsam, uchovimizning o'rtamizda Chirmash o'ta gajir. Olovga quvsang suvga qochadi. (Sharobni to'la sipqoradi). Aytganday, Chirmash ikkimizning sovg'a-salomimiz, xat-xabarlarimiz o'z vaqtida yetib turdimi? Xarajatning ko'pligidan Sibirga orqangdan borolmadik. Qolaversa, sendan bir umr qarzdormiz. Do'stlikning shartini bajarding (uchovi bir-

birining yelkasiga qo'llarini qo'yadi). Har narsaning o'z vaqti, soati bor. Ish masalasida ko'nglingni to'q qil. Ammo, haligi ayolga uylanish haqida yaxshiroq o'ylab ko'r. Shoshilmay, xotirjam to'ylashamiz. Chirmash bekorga qaysarlik qilayotgani yo'q. Do'st kuydirib, dushman kuldirib, deganlariday...

QANOT: — (Boshini chayqab) Orzu qilganimday.

MAQSADBEK: — (Soliyaga qarab) Orzu qilsa arzigudek urg'ochi. Otga bergusiz gunon bor, qizga bergusiz juvon bor, deganlariday, zap jonon ekanmi, Chirmashvoy.

QANOT: — Qolaversa, senda uning ko'ngli bor. Kimdan qo'rqamiz?

CHIRMASH: — (Sharobni ichib, kuyikib) Soliyaning o'zi rozimikin? Men qarshiman.

MAQSADBEK: — (Jahli chiqib) Chirmash, xuddi to'tiqushday bitta gapni aytaverasanmi? Sen o'zi aslida kimga va nimaga qarshi emassan? Avvalo shuni aniqlab olaylik, boy bo'lgur!

CHIRMASH: — Qarshiman, gap bitta!

QANOT: — Mushukday olishaverib yomon o'rganib qolibsizlar. Talabalik vaqtingizda o'ta inoq edinglar-ku!

MAQSADBEK: — Bunga hech narsa yoqmaydi. Hech narsani tan olmaydi. (Birozdan so'ng o'pkalab) Meni qaysi gunohim uchun yoqtirmaysan, Chirmash? Radiodan aytgan gaplaring haqida o'z mulohazalarimi bildirganim uchunmi? Yoki boshqa sababi bormi?

QANOT: — Aytganday, radioda nima bo'luvdi o'zi? Munozaraning sababi aniq emas-ku?

CHIRMASH: — Radiodan shaxsiy fikrlarimni bayon etdim. Oktabr inqilobi insonyatning o'sib-unishi, xususan, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi el-u elatlar hayotiga, ularning kelajagiga ijobiy ta'sir etganligini, ayni vaqtda bu muammoni xolisroq ko'rib chiqish lozimligi to'g'risida gapirgan edim.

MAQSADBEK: — Unday bo'lsa, davrimizning man-man degan olimlari Oktabr inqilobini insoniyat tarixidagi buyuk xato deb baholashga qanday qaraysiz?

CHIRMASH: — Davrimizning buyuk olimlari shunday deyayotgan bo'lsa, bu voqeaga o'z aqlim, farosatim bilan qarashga majburman.

MAQSADBEK: — Demak, sen shu qadar aqlli bo'laturib, nega o'ta kambag'alsan? Shu to'g'rida biron marta o'ylab ko'rdingmi?

CHIRMASH: — Maqsadbek! Sen to'plagan boylik esa halol mehnat evaziga kelmagan, iflos davlatdir (ularning baqirib-chaqirib gapirishi boshqalarning ham e'tiborini tortadi.

OLTINOY: — (Chirmashga qarab) Tinchlikmi? Uyning egasi ekanligingdan chiqib ketdimi? (qadahni qo'lidan oladi).

MAQSADBEK: — (Achchig'i kelib, o'rtada yura boshlaydi) Chirmash, sening sotsializming... Sening...

IRINA: — (Maqsadbekni to'xtatish uchun harakat qilib, uning qo'lidan qadahni oldi) Siyosatning poyoniga yetmadinglarmi?

OLTINOY: — (Maqsadbekka yalinib) Jahlingni menga ber, o'zingni bos.

MAQSADBEK: — (Quloq solmay, yulqinadi) Sening sotsializming erkak kishining so'qini oshirgan, ya'ni farzand ko'rmagan bepusht xotinga o'xshaydi.

OLTINOY: — (Hazilga olib) Tuqqanlari kapitalizmmi?

MAQSADBEK: — (Chirmashga qarab) Sotsializmni anglab yetdingmi? (Soliya bilan Qanotning ko'zlari to'qnashadi). Soliyani g'ashi kelib teskari buriladi/

QANOT: — Soliya, (bezovtalanib), Soliya bizni kechir, (ikki kelin va Maqsadbek bir-biriga qarab yelka qisadi. Bu orada Oltinoy, Qanot bilan Irinaning bo'shagan qadahlarini olib stolga qo'yadi).

IRINA: — (Maqsadbekka qarab) Baqirib-chaqirib mehmonni ham xafa qilib qo'yding. (Sukunat) Bizga o'xshagan yuvosh-mo'min odamlarga ko'p jihatdan sotsializm ham ma'qul edi.

SOLIYA: — (ko'zlarini artib) Menga e'tibor bermanglar. Men... Men sizlar orzu qilgan sotsializmning o'ziman.

OLTINOY: — Bola-chaqangiz yo'qmi?

IRINA: — Iya, unda baxtsiz ekansiz-da?

MAQSADBEK: — (Sezdirmay Irinaga musht do'laytiradi) Nima, befarzand kishi baxtsiz bo'ladimi? Bolani boqib olsa ham bo'ladi-ku. Masalan, men ota-onamning asrandi o'g'liman. To'g'rimi, Ira?

QANOT: — Asrandi boladan ham senga o'xshagan qashqirlar chiqadimi?

MAQSADBEK: — Katta tortishuvlarda asrandilar ota-onalik bolalarning dodini berishi sir emas.

CHIRMASH: — (Maqsadbekka qarab) Hoy, kommunist! Sotsializm sen bilan menga yaxshilikdan tashqari qanday yomonlik qildi?

OLTINOY: — Chirmash, o'chgan olovni kovlamachi?

MAQSADBEK: — Yomonlikmi? Sengami?

CHIRMASH: — Ha, masalan menga.

MAQSADBEK: — (Sabr qilinglar deganday ishora qiladi) Sotsializm sening haydar kokilingdan silagani yo'q. Bir din, bir mazhabdagi afg'onlarni otdirdi, shahar va qishloqlarni vayron qildi. O'zing sanab berchi, sovet jangchisining ust-boshini kiygan soldatlar qancha afg'onlarni ham qaqshatdi? (Chirmash nimadir demoqchi bo'ldi) Shoshma! Ikkinchidan, Afg'onistonda yaqin do'stingdan ayrilding, shoshma oti nimaydi? Ismi janubliklarga xos aytganday... Ha, topdim, Sirojiddin. O'sha Sirojiddinni do'zaxga giriftor bo'lgur sotsializm nobud qildi.

SOLIYA: — Sirojiddinni kim o'ldirdi, deding?

MAQSADBEK: — Yo tavba! Siz Sirojiddinni bilarmidingiz?

SOLIYA: — Bo'lmasamchi! (o'ylanib) Sirojiddin mening o'g'limning ismi.

MAQSADBEK: —(Avval e'tibor bermaganday bo'lib, bosh irgaydi va to'satdan cho'chib tushadi). Kechirasiz, hozirgina siz bola-chaqangiz yo'qligidan noligan edingiz-ku?!! Qiziq, keyin qanday qilib bolangizni ismi?!!

SOLIYA: — Bolamning emas, otamning ismi demoqchidim. (Shunchaki jilmayib) Otang qarisa bola bo'lib qolarkan. Oziq-ovqatiga qarab turaman. Ust-boshini yuvib beraman. Ba'zida bo'lar-bo'lmasga arazlab qolishini hisobga olmaganda...

MAQSADBEK: — Goh bolamning oti, goh otamning oti, deysiz. Mayli, nima demoqchi edim? Otangizni ismi bo'lsa bizga nima?...

SOLIYA: — Otangning boshi!

MAQSADBEK: — O'zingni qo'lga ol. Hoy, Ira, Oltinoy

tayyormisiz? So'quluqqa ketdik. Toza havoda nafas olmasak bo'lmaydi. Shunday qilmasak, o'z gapimizdan o'zimiz adasha boshladik.

QANOT: — Yuringlar!

OLTINOY: — Hoy, to'xtanglar. Bir daqiqa, jo'nar jafosiga, ostonadan hatlash oldidan. (Qadahlarga sharob quyib uzatib, Chirmashga gapiradi). Guldayman, do'stlaringni qo'llab-quvvatla.

MAQSADBEK: — Endi o'zimizning xirgoyini aytib, keyin ichib yuboraylik. (Chirmashdan boshqasi ashula aytadi. Maqsadbek qadahni osmonga ko'tarib, Chirmashga yuzlandi).

Bir, ikki, uch,
Bizlarda kuch.
Yo'lni ochgan,
Oddiy Soliya
Marks, Ilich! Ura!

(Chirmashdan boshqasi og'iz tegadi. Maqsadbek qadahni quyib) Qani, So'quluqqa ketdik. O'shlik mehmon. Siz ham biz bilan birga borasiz.

SOLIYA: — O'z opangnikiga chaqirayotganday hovliqasan. Qanot menga erta bilan aytgan.

MAQSADBEK: — Uzrliman. (Soliyaga qarab ta'zim qildi).

CHIRMASH: — Soliya, sen So'quluqqa bormaysan (Maqsadbek Soliyaning qo'lini ushlab, sarosimaga tushadi. Oltinoy bilan Irina Chirmashni qo'ltiqlab, nimadir demoqchi bo'ladi). Bormaysan! Borsang Qanotning qarindoshlari boshingga ro'mol soladi...

MAQSADBEK: — Anavuni qarang... Anavuni... Oltinoy, eringning qo'l-oyog'ini bog'lab jinnixonaga topshiramiz shekilli. (Oltinoy bilan Irina Chirmashga yopishadi)

CHIRMASH: — O'lsam ham sizlar bilan Soliyani jo'natmayman.

MAQSADBEK: — Do'stlar! Tinchlikni saqlang: Chirmash, Soliya boshimizni qotirmasdan, eskidan tanish ekanligingizni tan olinglar. (Sukunat. Irina ajib bir holatga xayol surib, biroz yurib qo'shiq aytadi).

IRINA: —*To'lqin tursa dengiz boshin urar tog'ga,*

Otlanar kezi kelsa botir yovga.
Yetilsa meva pishar daraxtdagi
Yaralab olgan edim yuragimni
Netayin, shu boisdan oqar qoni
Ayriliq paydo qilgan sog'inchni,
Adovat tug'diradi qoqilishni.
Tugamas tiriklikning tashvishlari,
Yaralab olgan edim yuragimni.
Sevgi deb , shu sababdan oqar qoni
Yillar o'tar sezilmay, olatasir,
Eski tugab boshlanar yangi asr
Bilinmas oqshom tushib, tong otgani,
Yaralab olgan edim yuragimni
Vaqtga, shu boisda oqar qoni.
Quyosh guvoh yerning barcha sirlariga,
Umrimizni cho'miltirib nurlariga,
Beparvo ketaverar izlab ma'ni,
Yaralab olgan edim yuragimni,
To'xtamay o'sha taxlit oqar qoni.

OLTINOY: — Ha, bu shoir Jo'lon Mamitovning she'ri. Biroq uning haligi masalaga sira daxli yo'q.

SOLIYA: — (yig'lamsirab) Nega qisti-bastiga olasizlar? Biz tanish emasmiz. (Tashqariga yugurib chiqadi. Orqasidan Oltinoy bilan Irina ergashadi. Qanot papiros chekadi).

MAQSADBEK: — Hoy, bir-birini qiyolmagan do'stlar ham shunday ishga boradimi? Chirmash, yo'ling bo'lgur.

CHIRMASH: — (Nari yurib) Yaqinlashma!

MAQSADBEK: — Sen uni yoqtirib qoldingmi?

CHIRMASH: — Topgan gapingni qara-yu!

MAQSADBEK: — Unda nega mushuk-sichqon o'ynaysizlar? To'yib ketdik turli-tuman qiliqlaringdan. (O'rindiqqa cho'kadi. Chivin uchsa bilinguday darajada sukunat hukm suradi, shart o'rnidan turadi) Chirmash, sen sevgan qizni Qanot o'ziga loyiq ko'rmasa, nima qilar eding? Qolaversa, uning oldida qarzdormiz-ku. (Qizlar kiradi)

CHIRMASH: — Qarz-parzim yo'q. Yomon otliq bo'lganmiz ikkovingni mastligingni o'kinchli yakuni.

QANOT: — (Papirosni irg'itib) Men qamalganimni hech kimga minnat qilmayman.

IRINA: — Gap yana boyagi-boyagi boyxo'janing tayog'imi? Unda nima uchun Qanot sudlanib qoladi?

MAQSADBEK: — Mening sudlanmaganligimni ham ko'rolmaysan-a? (o'ylanib qoladi). Bu o'ta chalkash hikoya. Universitetning to'rtinchi kursida o'qirdik. Quyi kursdagi qizlar bilan konsertga kirib, shampan ichib, yotoqxonalarda tug'ilgan kunlarni nishonlab yurgan ajoyib davrimiz. Ana shunday kunlarning birida konsertdan qaytayotsak, ro'paramizdan ho'kizday itni yetaklab bir shaharlik qiz dugonasi bilan chiqib qoldi. Yaqinlashganimizda Qanot uning itiga tegajonlik qildi shekilli, it itligini qilib vovullab yubordi. O'sha mahal itning egasi bizga "barani" deb o'shqirdi. Bu so'z izzat-nafsimizga tegdi. Qanot o'ylanib o'tirmay uning boshiga tushirdi. Men dugonasiga intilgan edim, unisi qochib qutuldi. Qanot esa "Mana senga "barani" deb to'xtovsiz tepkilardi. (Sahna qorong'ulashib, militsiyaning hushtagi eshitiladi. Chirmash, Qanot, Maqsadbek yuguradi. Oltinoy, Soliya, Irinaga yorug' beriladi)

CHIRMASH: — (yugurib borayotib) O'ldik!

MAQSADBEK: — (chalaroq eshitib) Nima deding?

CHIRMASH: — O'ldik!

QANOT: — Bu nima deydi?

MAQSADBEK: — (biroz chopgandan keyin) chap tarafdagi budkaga berkinaylik. (To'xtaydi, Qanot nafasini rostlab) Men aybdorman. Ushlab olishsa, qo'rqqanimizdan qochdik, "bu yigit urdi, biz ajratdik" denglar. Xo'pmi?

MAKSADBEK: — Qanot!

CHIRMASH: — Yo'q, bo'lmaydi.

KANOT: — (Chirmashni yoqasidan olib) Chirmash, bu ishda sening aslo gunohing yo'q. Sen ajratgansan, eshitdingmi? Menimcha, bundan qiz ham tonmaydi.

MAQSADBEK: — Biz qandoq qilib bir chetda turamiz?

QANOT: — Savol-javobni qisqa qilinglar! Barini men boshla-

dim. (Militsiyaning hushtagi yana qattiqroq eshitilardi. Chirmash, Qanot, Maqsadbek yuguradi. Qanot chopib borayotib) Gap bitta. Hech kimni so'zlay ko'rma. Gunohni bir o'zim qildim. (Sahna yopitiladi)

IRINA : — (ishonqiramay) Zo'rladi degan so'z yolg'on ekanda?

MAQSAADBEK: — Kasofat urib, amaldorning qiziga yopishgan ekanmiz. Buning ustiga, pul-mul deganday. Jazoning yengilligini sezib, do'xtirlarni, prokurorlarni "yog'lab" qo'ydimi, har tugul o'shanday insonga qoldik...

IRINA: — Bu ertakni juda ko'p eshitdim. Har gal har xil ohangda aytasizlar...

MAQSADBEK: — Da'vogar sust bo'lsa, qozi muttaham deganlariday, qo'limiz kalta, suyanganimiz yo'qligi tufayli Qanotni borsa kelmasga kuzatdik. Eh attang, qo'limizdan kelsa, ularni avaxtaga o'zim tiqqan bo'lardim..

(Sahna qorong'ulashib, Qanot ikki qo'lini qaychilashtirib bir nuqtaga boqadi. Turmaning temir eshiklari sharaqlab ochilib-yopiladi. Chirmash bilan Maqsadbek yolvorib, iltijo qilishadi: Hoy, zindonning egalari! U aybdor emas... U millatchi emas! Ishoninglar... Bo'shatinglar!... Bizning gunohimiz yo'q... Bizlar millatchi emasmiz. Hoy, zindonning egalari! (Turmaning eshiklari yanada qattiqroq sharaqlaydi. Sahna bir muddat butunlay qorong'ulashib, so'ngra qaytadan yorishadi)

QANOT: — O'tgan ishga salavot. Turmadagilarning hammasi jinoyatchi emas. Jinoyatchilarning bari ham turmada emas. Bundan keyingi hayotimizning qadriga yetaylik (dadillanib). Aytganday, Soliya bilan esa Jalolobod–Bishkek poyezdida tanishganman. Tanishgan paytimdayoq baxt qushi boshimga qo'nganiga ishonganman. Soliya "Sen menga to'ng'ich muhabbatimni eslatding" dedi. Men unga birinchi bor sevgan qizimni xotirlay olmayman deb javob berdim. Kecha Bishkekka borib, uyingga telifon qilsam, hech kim javob bermadi. Maqsadbek, sening qayoqda ekanligingni bilmayman. Ikkovimizni mehmonxonaga kiritishmadi. Pulini to'lab, bir cholnikida tunadik. Xumordan chiqdik.

SOLIYA: — (o'zini noqulay sezib) Qanot, iltimos...

QANOT: — (Soliyani ko'tarib, aylantirib, ortga qo'yadi) Soliya, biz turmush quramiz, jonim! Men senga do'stlarim haqida gapirib beraman. (Boyadan beri bir chekkada bo'zday oqarib turgan Chirmash bir qalqib, yiqiladi).

OLTINOY: — Chirmash! (Maqsadbek Chirmashni ushlab, o'rindiqqa o'tqazdi. Irina piyolada suv keltirib, uning yuziga sepadi. Oltinoy yig'laydi) Ko'zingni och, Chirmash. Xudoyim-ey, kechagi tushim o'ta yomon edi-ya. Chirmash, ko'zingni och.

MAQSADBEK: — (Masxara qilib) Hoy, sotsialist, ko'zingni och! Jahon miqiyosidagi ag'dar-to'ntar hali oldinda (Oltinoyga qarab) Ichkariga karavotga yotqizaylik. (Oltinoy, Irina, Maqadbek Chirmashni olib ichkariga kirib ketadi. Qanot ularning orqasidan yura boshlagan Soliyani to'xtatadi)

QANOT: — Chirmash bilan pedagogika bilim yurtida o'qiganmiding? (Soliya yig'lamsirab, boshini qimirlatadi) Ikki do'stning biri Chirmashmi? (Soliya yana boshini qimirlatadi) Nega darhol aytmading?

SOLIYA: — Bilmayman. Negaligini o'zim ham anglab yetmayapman.

QANOT: — (o'ziga-o'zi) Attang! (Sukunat) Yur, ketamiz!

SOLIYA: — Ketmayman. Men shu yerda qolaman. Yaxshisi, Qanot, mening yengil-yelpi ishlarimni yodingdan chiqar.

QANOT: — Soliya, unda mening tik yurmog'imning hojati yo'q.

SOLIYA: — Men o'z yurtimga ketaman.

QANOT: — Sen qayerga borsang, men ham ortingdan ketaman. Izlab topaman. (Maqsadbek bilan Irina kiradi)

MAQSADBEK: — Dasturxonga fotiha o'qilgan edi chog'imda. Endi dam olamiz.

QANOT: — Soliya shu yerda qolmoqchi.

MAQSADBEK: — Qing'ir ish qirq yildan keyin ham, degandek... Chirmash bilan muamolalaringga aniqlik kiritamiz.

IRINA: — Soliyani yana xafa qilmoqchimisan?

MAQSADBEK: — Mayli, ko'rishguncha Soliya!

QANOT: — Ko'rishguncha!

IRINA: — Ko'rishguncha! (Ichkaridagi xonaga qarab) Oltinoy, azizam, yaxshi qol! Ertaga xabarlashamiz. (Qanot bir maromda yuradi. Soliya nari-beri bosadi. Ko'p o'tmay tarelkaga archaning quritilgan shoxlarini solib Oltinoy ichkari xonadan chiqadi)

OLTINOY: — (cho'chib) Soliya, sen ketmadingmi?

SOLIYA: — Men seni kutyapman. Chirmash yaxshimi?

OLTINOY: — Kirma, dori ichirdim. Uxlab qoldi.

SOLIYA: — (Oltinoyni quchoqlab) Rahmat, Oltinoy! Men O'shga ketaman. Kuyovingni ehtiyot qil.

OLTINOY: — Albatta qarayman. Qaysi xotin erini qarovsiz qoldiribdi?

SOLIYA: — Xayr, Oltinoy! (Ketadi)

OLTINOY: — Xayr bo'lsa, xayr-da. (Oshxonaga kirib archa isirig'ini tutatadi. (Sahnaga qorong'ulik cho'kadi) Alos, alos, har balodan xalos! (Xonani irimga ko'ra alaslaydi. Ichkari xonadan sochlari to'zigan, ko'zoynaksiz Chirmash chiqadi) Alos, alos — har balodan xalos!...

CHIRMASH: — Hammasi ketdimi? Soliya-chi?

OLTINOY: — Ketdi. Ketmasdan ordona qolsin. O'sha juvon kelgandan buyon yuragim behalovat. Do'stlaringni ham ko'ngildagidak kutolmadik. Oxirida yiqilib tushganing... O'lsin o'sha! Alos... Alos...

CHIRMASH: — Qayerga boraman, dedi.

OLTINOY: — Kim? Haligi kelinmi? O'shga ketdi. Alos...

CHIRMASH: — Oltinoy, Soliya ko'z yoradi...

OLTINOY: — (Hayron qolib) Senga ham kimningdir kinnasi kirgan. Boshingni engashtir, aloslab qo'yaman (Aloslab nari-beri yuradi. Ko'zlari o'ynab) Balo-qazoday kelin ekan. Chirmash to'g'ri aytadi. Qanotga o'xshagan ipakday eshilgan akamizga boshqa bir qayliq topib beramiz... Alos... Alos... Tunda tushimga o'g'limiz kirib qolibdi. Oyim ikkovi tirikchilikda qiynalgan bo'lsa kerak.

CHIRMASH: — Oltinoy, sen nima deysan, Soliya tug'adimi?

OLTINOY: — (Alos-alosini davom ettirib) Tugadi, tugadi. Egiz tug'ishi ham mumkin. Undan ko'ra damingni olsang-chi?...

CHIRMASH: — (Nari-beri yurib, o'zicha gapiradi) Tug'ilmas-

dan o‘lganim yaxshimasmidi... (Qornini ushlab, qattiq o‘qchiydi). SOLIYA!!!

(Sahna qorong‘ilashib, olisdan poyezdning ovozi eshiriladi. Parovoz cho‘zib qichqiradi “Tosh oqsoqol, tosh oqsoql” deganday bir maromda safarini davom ettiradi. Parda ohista yopiladi)

SULTAN RAYEV

1958-yilda O'sh viloyatining Qorasuv tumanida tug'ilgan. 1984-yili Qirg'iz davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. "Chang yo'l", "Quyoshni ushlagan bola", "Janjaza", "To'fon", "Pusu" singari kitoblar muallifi. Qirg'iziston xalq yozuvchisi, ko'plab milliy va xalqaro mukofotlar sovrindori. Hozirgi paytda "Turksoy" (Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti) ning bosh kotibi.

TUPROQ

(Hikoya)

Murod onasining so'nggi so'zlarini eshitolmay qoldi. Olis Shvetsiyada xizmat safarida edi. U yo'lga chiqish oldidan O'shga kelib, onasining yonida uzoq o'tirdi. Yarim yildan buyon to'shakda yotib qolgan onasining sog'lig'i kundan-kunga yomonlashib, gapirishga ham holi yetmay, ozib-to'zib, iyaklarining eti osilib qoldi.

Onasining sarg'aygan yuzida tiriklikning izi o'chib borayotganday edi. Ko'rinishi qayg'uli. Ora-sira lablari uchib qo'yadi. Ko'ksida ilon singari o'ralib yotgan og'riq jonini sug'urib olmoqchiday qattiq burab, bemorni erta-yu kech ingrab yotishga majbur qilardi. Ajal umri poyoniga yetayotgan kampirni sariq chirmovuqday o'rab olgandi. Bemor ko'zini yumishi bilan diydasining suvi shudring singari qabog'ining chetidan sirqib chiqadi. Uning o'tgan umri bulutga evrilib, ko'z yoshday oqib, yoz yomg'iri singari yog'ib o'tganday bo'ladi. Kipriklarida shamolda to'zg'igan bezovta o'y-xayollar osilib turganga o'xshaydi. Kun ora sanchilgan igna ham bemorning tanasidagi og'riqni yengillashtirib, nafasiga nafas qo'sha olmadi.

Murod onasining qo'lini ushladi. Uzun va ozg'in barmoqlarning tafti so'nib bormoqda edi... Yarim yildan beri onasining vuju-

dida hayot va mamot kurashi davom etayotgan bo'lsa ham, karavotga yopishgan tana o'nglanmadi. Uch mahal suqilgan igna jonni qiynagan og'riqni biroz susaytiradi, lekin bemor tun bo'yi yana ingrab chiqadi. Ertalab kelgan shifokor onasining atrofida o'tirgan qizlariga ham, safarga otlangan Murodga ham gapning ochig'ini aytdi. Ko'pi bilan kampirning ikki haftalik umri qolgan, dedi. Bu gapni eshitib, o'rtancha singlisi oh chekib yig'lab yubordi. U ham olisda yashaydi. Oilasi bilan Rossiyaga ishlagani ketgandi, onasining ahvoli og'irligini eshitgach, hamma yumushini tashlab, bir haftadan beri bemorning boshida o'tiribdi. O'nglanmagan hayotidagi armonlari, turmush azob-uqubatlari tufayli yiroqda o'tayotgan o'z umriga achinib, "Qani endi, yoningdan chiqmay yotsam", deganday o'ksinib, turib-turib ovoz chiqarib yig'lab oladi. Hozir ham shifokorning gapini eshitgach, halovatini yo'qotib, achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kdi.

Qiz bolaning onasiga yaqin bo'lishini Murod sezib o'tirdi. Yig'isi yuragingni ezadi. Erkak kishining ko'nglida mehri oz bo'ladi, shekilli, onasining bu ahvoliga yurak-yuragidan kuyib, astoydil g'am-g'ussaga botmadi. Onasi o'g'il-qizlari orasida Murodni o'zgacha yaxshi ko'rardi. Balki o'g'il bola bo'lgani uchun unga mehri ziyod bo'lgandir?.. Sho'rlik onasi o'g'li uyga har kelganida uning atrofida parvona bo'lib, "sadag'ang bo'lay", degan so'zni tilidan qo'ymasdi. Murod ellik yoshdan oshgan bo'lsa ham, onasi uchun yosh bola bo'lib ko'rinardi... yoki o'g'ilning o'rni qiznikiga qaraganda boshqachamidi?..

Onasi bo'ychan, ko'hlik va o'ktam ayol edi. Murod bunga qadar uning xastalanib yotib qolganini eslay olmaydi. Onasi tirikchiligini qiynalmay yurgizadigan ayol edi. O'tgan kunlar uning quch-quvvatini olib, to'shakka yotqizib qo'ydi. Yoshligida chehrasi go'zal, qaddi-qomati raso bo'lgan kampirning husni momaqaymoq to'zg'og'iday uchib, qora-qo'ng'ir sochlarini chang bosganday bo'ldi. Ko'zida ham nuri qolmadi. Murod o'tgan gal kelganida onasi bemorga o'xshamasdi, xiyla tetik ovozda o'g'lining hol-ahvolini so'rab-surishtirgandi. Hozirgidan yaxshi edi, tili tutilmay, gap-so'zga yarab turgandi. "Qandaysan, sadag'ang

bo'lay? Bola-chaqang tinchmi, ayoling sog'-salomatmi?" deya holsiz bo'lsa ham, shivirlab so'zlagandi.

Bu gal onasi tinchsizlanib o'tirgan qizlariga "Sizlar eshikka chiqib turinglar, og'angizga aytadigan gapim bor..." deganday ishora qildi. Qizlar indamay birin-ketin o'rinlaridan qo'zg'alib tashqariga chiqishdi. Xonada ikkisi qoldi. Onasi ozg'in barmoqlari bilan o'g'lining qo'lini ushlab, nafasi sovib borayotgan og'ziga yaqinlashtirib iskadi va so'ngra jonsiz lablari bilan o'pdi. Murod onasining chakkasidan hidlab, oppoq sochlarini silab-siypalab, uning ajin bosgan manglayiga yuzini bosdi. Onasi tomirlari bo'rtib chiqqan ingichka barmoqlari bilan o'g'lining qo'lini mahkam ushlab, qurigan lablarini bosdi. Sog'inch bilan o'pdi... O'sha paytda onaning diydasidan simob singari yosh oqib chiqdi. Ko'zining qudug'i erta qurib qolgan onasi bu yiltiragan yoshni jon tomiridan siqib chiqarganday bo'ldi. Ikki tomchi simobday ko'z yoshi... butkul onalik sog'inchi va mehrini to'kib solganday tuyuldi o'g'liga. Onasi tovushini chiqarmay, xira tortib qolgan ko'zlaridan yosh to'kmay, unsiz yig'ladi. Tanasi qimir etmadi. O'g'lining ko'zida paydo bo'lgan yosh esa qarog'idan tashqariga chiqmadi. Ikkisi bir zum bir-biriga termulib qoldi. Ona nigohi bilan o'zining ko'nglida borini to'kib soldi. O'g'liga aytmoqchi bo'lgan gapi og'zidan uchib, suyak-suyagini zirqiratdi. Ikki og'iz so'z aytish uchun mashaqqat bilan oxirgi kuchini to'pladi:

— Xudoyimdan roziman. O'lmasdan kun ko'rib, o'chmasdan o'tin yoqdim. Hammasiga ko'ndim... Hammasiga roziman... — kampir holsizlandi, — Yaratganga kerak bo'lmay qolganga o'xshayman... — onasi o'z qismatiga ko'nib, ojiz ekanligini anglab yetganday edi. Andak tin olgach, boshini xiyol burib ishora qildi, — yostig'imning ostini ko'rgin, senga omonatim bor edi.

Kampir boshini ko'tarishga urindi. Murod yostiqning ostiga qo'lini suqib, kichik xaltachani oldi.

— Ichini och, — dedi kampir.

Murod ipini tortib, xaltachaning og'zini ochdi. Xaltacha ichida tuproq bor ekan. "Tuproq...", dedi hayron qolgan Murod onasiga eshittirmay.

— Bu tuproqni... — dedi kampir darmonsiz holda, — bir oy avval Oloyga... Qoplonko'lga borganimda olib kelgandim. Ota yurtimning tuprog'i, o'g'lim... Yomonini aytmasang, yaxshisi yo'q... ichar suvim tugab, to'satdan ketib qolsam, qabrimga shu... bu hovuch tuproqni sochib qo'y, — dedi onasi pichirlab, — bu ota yurtimning tuprog'i... murdani go'r sovutadi, bolam...

Murod xaltachadagi tuproqni kaftiga olib hidlab ko'rdi. U tuproq hidini ham, onasi nega uni asrab-avaylab yurganini ham, ko'zi ochiq bo'lsa ham, nega u dunyoga hozirlik ko'rayotganini tushunmadi.

Murod kampirning yonida shomgacha o'tirdi. Tuproqni kastumining o'ng cho'ntagiga solib, onasining ko'nglini ko'targisi kelib, o'rinsiz hazillashdi: "Ona, men qaytib kelgunimcha o'lmay turgin". Kampir eshitilar-eshitilmas pichirlab, "Bu yog'i Xudodan, bolam... O'tgan umr — o'chgan o't... Eson-omon borib kelgin", dedi va ozg'in qo'llarini yuqori ko'tarib kaftini ochib, "omiyn!" deya unsiz duo qildi.

Murod xayrlasha turib, rang-ro'yi ko'kimtir tusga kira boshlagan onasiga yana bir marta o'girilib qaradi. Ona-bola bir-biriga unsiz boqib, bu ikkisining so'nggi uchrashuvi ekanligini bilib turgan bo'lishsa ham, sezdirmaslikka harakat qilishdi. Murodning ko'nglini o't-olov qamrab oldi. Umid... kampir va o'g'lining umidi... Nihoyat, kampir "ma'qul" deganday iyagini qimirlatdi.

* * *

Murod o'sha bir hovuch tuproqni Bishkekka olib ketgandi... Onasining qazo qilganini eshitganida olisda edi. Unga xabar qilgan xotini bilan qisqa gaplashdi-da, Stokgolmdan Moskvaga, u yerdan O'shga uchishini aytdi. Xotini Bishkekdan O'shga qarab yo'lga tushmoqchi bo'ldi.

* * *

Olisdagi bolalari yetib kelsin, degan o'yda marhumaning janozasini bir kun keyinga qoldirishdi. Murod dunyoning narigi burchidan Qorasuvga kechqurun yetib keldi. Rossiyada yurgan qa-

qadoshlari ham shu yerda ekan, ularning "ona!", "jonim onam!" degan qayg'uli va armonli ovozlari eshitiladi. Kichik singlisi aytuviga yig'i-yo'qlov qo'shib onasini yodlaydi. Tovushi hammanikidan baland eshitiladi. Murod onasi yotgan o'tovga kirganida karavotda yotgan marhumaning atrofida turgan qavm-qarindoshlarining yig'isi kuchaydi. Murod tiz cho'kib, onasining jonsiz tanasini quchoqlagach, vujudida titroq turdi. Oh urib yig'ladi, lekin ko'zidan yosh chiqmadi... Kimdir onasining yuzini ochdi... Ko'zini yumib uzoq uyquga ketgan onasining chehrasi chiroyli ko'rindi. Onasi o'sha yuzidagi husn ila uyqudagi ulug' olam sari ketmoqda edi. Yonoqlarida o'limga bosh egib turganligining alomati zohir edi.

Erkak kishi unsiz yig'laydi. Murodning ko'ziga yosh, bo'g'ziga o'kirik kelmay, to'liqib turdi. Vujudini egallagan kuch, qayg'u va hasrat uning botinidagi yiringni yorolmay turdi. Onasini tuproqqa topshirishdan avval xaltachadagi tuproq yodiga tushdi. Onasining omonati... Sovuq xabarni eshitishi bilan hammasi xayolidan chiqib ketibdi. Kecha tunda ayoliga aytib qo'ysa, o'sha xaltachani olib kelgan bo'lardi.

* * *

Murod shaharda qolgan o'n yashar qiziga telefon qildi. Shaharda o'sgan qiziga arang tushuntirdi. Xaltachaga solingan tuproqni ish stolining pastki tortmasiga solib qo'ygan edi. Qizi zo'rg'a topdi. "Papa, a chto delat s etoy glinoy. Eto je glina", dedi qizi. Haydovchisiga qo'ng'iroq qilib, uyiga borib, qizidan bir narsani olib kelishi lozimligini aytdi. Nima ekanini tushuntirib o'tirmadi. Qisqa qilib "albatta, olib kelgin", deb tayinladi.

Haydovchisi peshindan oldin uchib keldi. Onasini suvga olib, janozasini o'qishdi. Erkaklar tobutni yelkasiga olishi bilan uzoq-yaqin qarindosh ayollar uvvos solishdi. El-ulus tobutni ko'tarib, mozorga jo'nadi. Murod ovulning qabristoniga yetguncha onasining tobutini yelkasidan tushirmay ko'tarib bordi. Hech kim bilan o'rnini almashmadi. Tilovat qilinib, mayitni qabrga qo'yishdi. Murod xaltachadagi tuproqni qabrga tashlashdan oldin hidlab, uning isini endi sezdi. Tuproqda onasining isi borday tuyuldi.

Tuproq onasini eslatdi... Qabrga tuproq sola boshladi. Yangi qazilgan go'rning xokidan ham bir hovuch olib, qabr ichiga tashladi. Qabr tuproqqa to'ldi.

Murod endi tushundi: onasi ota yurtining tabarruk tuprog'ini qo'ynida olib yotmoqchi bo'lgan. U onasining "Sendan tuproq buyursin, bolam", degan oxirgi so'zining ma'nosini endi-endi anglaganday bo'ldi.

* * *

Onasining qazo qilganiga yil to'ldi. Hayot o'z maromida davom eta boshladi. Murod bu gal ish safari bilan Yaponiyaga keldi. Uning kunchiqar yurtda o'tkazgan haftasi ko'zni yumib-ochguncha uchar qushday o'tib ketdi. Yaponiya uning o'ylaganicha bor ekan, lekin o'z ko'zi bilan ko'rgani uchun unda yanada boshqacha taassurot qoldirdi. Qaytadigan kuni Tokiodan ikki yuz chaqirim olisdagi buyuk Fudzi tog'iga borib kelmoqchi bo'ldi. Bundan avval bu tog' haqida ko'p o'qigan, eshitgan edi. Taniqli yapon suratchisi Katsusika Xokusayning "Fudzining 36 ko'rinishi" nomli to'plamini bir necha marta o'qigandi. Suratchining bu buyuk tog'ga bo'lgan muhabbati unga abadiylik timsoliday ko'rinardi.

Tog' olisdan onasining yurt tuprog'ini olib yotgan Oloy tog'lariga o'xshab ketdi. Yaponlar Fudzini Buyuk Tog' sifatida ulug'laydi. Ziyoratga kelgan har bir yapon o'zining yuragidagi sir-asrorini aytib, armonini aritib, yaxshi niyatini ko'paytirib ketadi. Xokusay suratga olganiday, bu tog'ning qaysi tomonidan qarasang, Fudzi ko'p sirlarni yashirib yotgan tilsimli dunyoga o'xshaydi. Yaponlar tog' poyida tongni kutib olishni yaxshi ko'rishadi. O'z manzilidan chiqqan quyosh Fudzidan ko'tarilib, kunbotarga qarab yo'l bosadi. Quyosh buyuk tog'lar, oppoq qor va mangu muzliklar makoni bo'lmish olisdagi yurtining ham osmonidan o'tib boradi. Murod Fudzi etagiga borib, kaftiga bir hovuch tuproq olib, uning isini tuydi. Bu is dunyosi alg'ov-dalg'ov bo'lib turgan Murodga yapon shoiri Saygyoning hayotini eslatdi. Uch qator she'r yozish orzusida olamdan bezib, Fudzi bag'ridagi yirtiq palatkasida yashab, yolg'iz oyoq yo'lda umrini o'tkazgan shoirning she'rni quchoqlab o'lgani xotiriga keldi. Yolg'izlikni hayot tarziga

aylantirib, odamlardan yiroqda uzlatni istab, Fudzi daraxtlarida sayrab uchgan qushlar, shaldirab oqqan suvlar bilan, shamolda titrab turgan yaproqlar, tunda nur sochgan oy bilan, tongni quyosh nuri bilan so'zlashib kutgan Saygyoni esladi. Shoirning uchliklari va Fudzining shamollari esgan satrlarni endi tushundi...

Hayotligida odamlardan yiroqda himoyasiz yashagan Saygyo vafotidan keyin shon-shuhrat topib, nomi tildan-tilga ko'chdi. Shon-sharafli bo'lish uchun o'lim topishi shartmidi?.. Saygyoni pir tutib, uning soyasiga topingan Basyoning uchligi Murodning yodiga tushdi.

Fudzi bag'ridan kelgan yel!
Shaharga olib borgum seni yelpug'ichga solib,
Eng qimmatli tuhfa deb...

Murod bu uchlik ichidagi ovozga ham, Fudzining shamolida yashagan tiriklikka ham yuz burganday bo'ldi. Bu yerga kelmaganida she'rning ma'nisini ham tushunmagan bo'lardi. U kaftidagi tuproqdan yo'qotgan dunyosining sog'inchini tuydi. Onasi ota yurti tuprog'ini olib yotmaganida... Murod bu yerning tuprog'iga ma'ni bermoq, hidlamoq u yoqda tursin, kaftida tutib o'z yurtini eslab ham qo'ymasdi. Bir hovuch tuproq o'z maskaniga bo'lgan sog'inchini kuchaytirdi.

Murod ertalab vataniga qaytib ketadi. U avvallari ham bu tabarruk joyga kelmoqni niyat qilib yurgandi. Mana, o'sha Buyuk Zaminga yetib kelgach, ulug' tog'ni chin yurakdan suyib, Fudzini o'ttiz olti... tomonidan suratga olgan Xokusayning tog'ida turdi. Tog'ning ulug'vorligi, ulkan qiyofasi, nafasi va qudrati uni bir zum bo'lsa ham xayol beshigida tebratdi. Xayolan munis onasi bilan tog' bag'rini kezib chiqdi. Ikkisi boshqalardan oldin Quyosh nuriga yuzlarini yuvdilar. U tog' bag'rida to'lqinlanib, Fudzining bulut qoplagan cho'qqisida kadimgi Yasunari Kavabata yozgan ming qanotli turnalarday uchib yurdi... onasi ham turnaga aylandi. Ko'kdagi anovi bulutlarni oralab, ko'm-ko'k dengizning nurli to'lqinlarini qush parvoz etadigan yuksaklikdan kuzatib turdi. Atrofga boqib, bu yerning xosiyati, karomatini sezib, bor olamni

buzib "Ona!" deya baqirgisi keldi. Ko'zida umid paydo bo'lib, tog' etagidagi dengiz to'lqinlarini minib, ulug' suv bag'riga singib ketgisi keldi...

Murod tog' etagidan bir hovuch tuproq olib, cho'ntagidagi ro'molchasiga solib tugdi. Tuproqni onasining qabriga olib borib sochishni niyat qildi. Balki onasining ruhi uning yonida yurgandir?.. U dunyodagilar bu yolg'on olamdagiday elga ham, tilga ham ajratilmaydi... bu tabarruk yerning tuprog'i xosiyatini onasi ham his qilishini istadi.

Murod kechqurun Fudzidan Tokioga qaytdi. Tongda uchib ketadi.

* * *

Narito aeroporti. Murod xatlovdan o'tib, jomadonini yukxonaga topshirdi. Yaponiya aeroportida hech bir yo'lovchida muammo bo'lmaydi, navbat kutmay, tezgina o'tdi. U samolyot salonining o'rtasidagi o'z o'rniga o'tirdi. Yonidan keksa yapon ayoli joy oldi. Yo'lovchilarning barchasi joy-joyini egallagach, birozdan keyin samolyot havoga ko'tariladi. Bir mahal stuardessaning ovozi eshitildi. Onasiga tengdoshday ko'ringan yonidagi ayol Murod bilan boshini egib, muloyimlik bilan so'rashdi. Shu payt yana stuardessaning ovozi qulog'iga chalindi. Uning ismini aytib chaqirganday bo'ldi, lekin Murod uning nima deyayotganini anglamadi. Xiyla o'tib politsiya kiyimidagi kishi stuardessa hamrohligida uning yoniga kelib, hujjatini so'radi. Murod cho'ntagidan pasportini olib uzatdi. Politsiyachi va stuardessa o'zaro so'zlashib, muloyimlik bilan "Biz bilan yuring", deganday ishora qilishdi. Murod ingliz tilida "qayerga?" deb so'radi. "Biz bilan yuring", dedi stuardessa boshi bilan imo qilib. "Adashib boshqa samolyotga o'tirib qoldim, shekilli, shuning uchun meni tushirishmoqchi", deb o'yladi Murod. Lekin yanglishishi mumkin emas, uning uchadigan samolyoti shu. Turli xayollarga borgan Murodning nima bo'layotganiga aqli yetmay turdi, lekin o'ziga qilingan iliq muomalaga qaraganda cho'chiydigan hech gap yo'qday edi.

Uni politsiya idorasiga olib kelishdi. Xonaning o'rtasidagi stol ustida jomadoni turibdi. "Bu siznikimi?" deb so'radi politsiya

xodimi. "Ha, meniki", dedi Murod turli xayollarga borib. Tinchsizlanib, butun vujudini titroq bosdi. "Oching", deyishdi unga. Murod jomadonini ochdi. Uning ichida kiyimlari, ancha-muncha sotib olgan buyumlari bor edi. Boshqa hech bir narsa yo'q. Politsiya xodimi kiyimlarning orasidan kecha Fudziyamada dastro'moliga tugilgan tuproqni ko'rsatdi: "Bu nima?" "Fudzining tuprog'i" dedi Murod shoshilib. Xodim tuproqni yelim xaltachaga soldi-da, "Buni olib ketish mumkin emas", dedi qisqa qilib. "Samolyotni tutib turmay, passajirni samolyotga chiqaring", dedi ingliz tilida. Hech kim hech nimani tushuntirmadi. Bor-yo'g'i, dastro'moldagi tuproqni olib qolishdi.

Murod stuardessa hamrohligida yana samolyotdagi o'rniga kelib o'tirdi. Passajirlarning aksari unga norozi bo'lib qarab qo'yishdi. Samolyot havoga ko'tarildi. Illuminatordan ulug' suv o'rtasidagi Yapon oroli ko'rindi. Kampirning yuz-ko'zidan orolni o'zgacha mehr bilan kuzatayotgani sezilib turardi. Murod ham Yapon oroliga qarab o'ylanib turdi-da, yonida o'tirgan kampirga so'z qotdi: "Men yapon tuprog'idan bir hovuch olib ketmoqchi edim... irim qilib... jomadonimdan olib qo'yishdi..."

"Yapon tuprog'i tabarruk, — dedi ayol o'yga botib, — biz bir hovuch tuproqni ham tashqariga chiqarmaymiz..."

* * *

Samolyot borgan sari yuqorilay boshladi. Murod ko'ksini o'yib, jon tomirlarida eriy olmay turgan Basyoning uchligini esladi.

Gullagan olchaga teng kela olmay,
Rangi o'chdi bulut ichra
Uyalgan oyning...

Samolyot tobora balandlab boryapti. Ulug' Suv orasida onasining bir tomchi ko'z yoshiga o'xshagan Yapon yeri ko'rindi...

TO‘FON

(drama)

Ishtirokchilar:
Birinchi Odam — Kxe
Ikkinchi Odam — Man
Uchinchi Odam — Etix
To‘rtinchi Odam — Duna
Beshinchi Odam — Shoxli bola
Oltinchi Odam — Olib boruvchi
Yettinchi Odam — Olib boruvchi

Son-sanoqsiz yulduzlar hamma joyda ignaning uchiday "yalt" etib yonib, bir zumda o‘chib qoladi.

Almisoqdan qolgan mushtdekkina olamda yana bir kun, yana bir lahza, yana bir davr safarini qaritib bormoqda.

Biroq bu galgi safar eng so‘nggi safar ekanligini hali hech kim bilmasdi... Olam Buyuk kulfat oldida turardi...

Birinchi Odam: — Bu orada o‘zining mavhum sirini hech kimga oshkor etmagan koinotning ichi qaynab, mushtdek yer bag‘ri bir burchidan darz ketib, tarsillab miya qon tomirlaridek yorila boshladi...

Ikkinchi Odam: — Yer yuzini misli ko‘rilmagan ofat qoplab kelayotganini dastlab jonzotlar ichidan sezish qobiliyati kuchli bo‘lgan hayvonlargina his qilishayotgan edi...

Uchinchi Odam: — Ko‘k girdobli dengizdan, Ulug‘ Suv ostidan hech qachon tashqariga chiqmagan katta baliqlaru mayda-chuyda baliqchalar ham, hattoki ummon xo‘jayini kitlar ham ichidagi sirini hech kimga aytolmay, qarshi to‘lqinga qarab arang suzib, o‘zlarini moviy dengiz o‘rtasidan quruqlikka otib, tanalarini qirg‘oqqa ura boshlashdi...

To‘rtinchi Odam: — Xavfni erta sezgan jonivorlar, bahaybat uzun oyoqli qisqichbaqalar-u beso‘naqay suv toshbaqalari, qilich

mo‘ylovli morjlargacha keng olamga sig‘may, qirg‘oqqa qarab otilib, qumlimi, qoyalimi, toshlimi, qayerga bo‘lmasin, qirg‘oq tomon guv etib suzib kelib, behuda urinishadi...

Beshinchi Odam: — Dengiz jonzotlari bunday tirik dahshatni hech qachon ko‘rmaganligidanmi, Ulug‘ Suv olami falokatga yuz tutdi.... Dunyoning qopqog‘i ochilib, mana shu mavhum tunning bir chetidan loyqa toshqin ko‘tarilib, oldidan chiqqan narsani vayron etib, suvni ko‘kka shopirib, yerni yorib, ayanchli dahshat kelar edi...

TO‘FON SAHNASI

Oltinchi Odam: — Ajdardek og‘zi ochilib, yetti qit’ani qo‘shib halok etib, hattoki osmonga tegay deb turgan ulug‘ tog‘larning uchi ham suv ostida qoldi...

Yettinchi Odam: — Bu qora suv qumli cho‘lni, qoyali tog‘larni, shahar-qishloqlarni, Eyfel minorasini, Buyuk Xitoy devorini suvga burkab, Misrning ponasimon qirrali piramidalarining oyog‘ini osmondan qilib, hash-pash deguncha shamolda uchgan quruq cho‘p kabi ko‘tarib jo‘nadi...

Birinchi Odam: — Dunyo qurgur to‘lg‘onib yotib qoldi... qirq kun qirq tun Suv Yer bilan kurashdi...Qirq birinchi kuni g‘azabi qaynagan Ulug‘ Suv dunyoni loyqa quchog‘iga tamomila botirib, go‘yo hech narsa yuz bermaganday, ummon xuddi ko‘k shoyidek yoyilib, butun borliq sukunat ostida qoldi...

Barchasi: -... Yo‘qdan bor, bordan yo‘q yaralmaydi... Tiriklikning ziynati shu...

(Sahna qorong‘ulashtiriladi.)

YAN VILMUTNING SAHNASI

Yan vilmut: — Men, Yan Vilmut, odamzotning yangi erasini ochdim. Biz barchamiz yer sayyorasida yangi davrni, yangi taraqqiyotni boshlaymiz. Eskilikning barchasiga yoppasiga kurash ochib, unga qarshi turamiz! “Yer yaralgandan buyon yashab

kelayotgan odam nasli o'zining zahirasini to'lig'i bilan tugatdi. Bu odamlarning qoni ham, nasli ham, miyasi ham eskirdi.Ular bizning jamiyatning rivojlanishini ortga tortib borishmoqda. Eski odamlarning urug'lari bizga — kelajak odamlariga zakovat tarafidan ham, mumkinchilik tarafidan ham teng kela olmaydi!

Hammasi: — Biz turmushni ratsionalizatsiyalashtiramiz.

Yan: — Bizning e'tiqod mutlaqo boshqa e'tiqod, binobarin eski e'tiqod Yaratganga bo'lgan e'tiqod bo'lsa ham, u bizning ichki dunyomizni boshqara olmaydi. Zero kelajak odamlarining, aniqroq aytganda soxta odamlarning ichki dunyosi embriondan iborat.

Hammasi: — Biz bu bilan cheksiz faxrlanamiz!

Kxe: — Kechirasiz! Odam qiyofasidagi sun'iy zotni, tabiat qonunisiz yaratishga qarshiman deb men har doim aytib kelaman! Agarda shunday yasalma odam paydo bo'lsa, uni odam deb atash mutlaqo mumkin emas. Sun'iy odamning ko'kragi bo'm-bo'sh, unda jon ham, ichki dunyo ham, iymon ham yo'q. Bu sifat insonga birgina Yaratgan tomonidan beriladi!

Yan: — Nega qarshisiz? Sun'iy genni o'ylab topdim, barchasiga mangu hayot, lazzatli sevgi, baquvvat quvonch baxsh etdim. Jahon taraqqiyotiga sun'iy odam ilmiy inqilobini kirittim-da!..

Kxe: — Haqiqiy insonning baxti e'tiqodida, sevgisi — quvonchida, armoni — ko'z yoshida, hayotga bo'lgan rohatida, biroq seniki-chi?!..

Yan: — E'tiqodning menga keragi yo'q! Urug'i eskirib, suyagi qarigan odamlardek biz kasallikka giriftor bo'lmaymiz, tanamizning bir a'zosi ishdan chiqib og'riydigan bo'lsa, uning barchasi biodo'konlarning tokchasida turadi. Bu odamzotning noyob, g'oyat zo'r tantanasi!

Duna: — Hazrati Oliyalari Yan Vilmutga bizning cheksiz ehtiromimiz!

(sajda qilishadi).

Yan: — Oxirida aytmoqchi bo'lganim, biz tana tuzulishimiz jihatidan eski odamlardan hech qanday farq qilmaymiz, bor-yo'g'i biz ularga o'xshab Yaratganga sig'inmaymiz, ulug' kuchga, be-

huda kuchga ishonmaymiz, bizning ichki dunyomiz erkin. Men sun'iy odamlarni gen konveyeriga solaman.

Odamiy ehtiros, yoki lazzatlanish jo'ngina ichki ehtiyojninggina biologik zaruriyatiga aylanadi! Sun'iy odamning yurgan-turgani, so'zlashi, tana a'zolari, fikrlashi, ko'z qarashi avvalgi odamlarnikidan hech farq qilmaydi, lekin zakovat tomonidan alaqancha yuksak, hech kimga qamchi urdirmaydigan sifati bo'ladi!

Kxe: — Sun'iy dunyo — bu yolg'on dunyo!.. Hayotning lazzatiga berilib, bola tug'dira olmasanglar, birovni suyub azob cheka olmasanglar, yetolmay qolib armon qilmasanglar, joninglar og'rib, Xudoning sinovini boshdan o'tkaza olmasanglar, gulning hidini hidlab, daryoning shovqinini eshitolmasanglar, bolani suyub, chaqaloq kulgusiga yurakni iydira olmasanglar, sizlarning odamliginglar nimada?

Yan: — Sun'iy odam g'oyasi menga olamshumul shon-shuhratni, osmondan yoqqan oltindek ta'sirni olib keladi. Bu omadli "g'oyam" uchun yuzlab million dollarga ko'milaman!

(maslakadoshlari quvvatlashadi).

M.A.B: — Kxening professor do'sti Yan Vilmut bilan mutlaqo ko'z qarashlari mos kelmay, qancha tortishuvga tushishib, ko'p marta nari-beri bo'lishgan.

Mb.A.B: — Kun sayin sun'iy odamlar soni ko'paydi. Professor Yan bu kashfiyotidan faxrlanib, yerdagi hayotni yasama odamlarning qo'liga o'tkazib berdi. Endi ular haqiqiy odamlarga qarata qirg'in olib bora boshlashdi. Xudodan tondi, dinni afyun deb, din kishilarini quvg'inga olib, o'lim jazosiga torta boshlashdi.

Kxe: — Men o'limdan qo'rqmayman, bir martagina emas, yuz marta o'lishga ham tayyorman. Holbuki, mening jonimni Yaratganim mangu qilib yaratgan, lekin bu sun'iy odamlar, sizlar tana qulisizlar, ertagayoq eskirib, ehtiyojdan chiqib qolasizlar. Iymon, odob sizlarga yot hislat bo'lsa, Xudoni tanimasanglar, sizlar qanday odamsizlar?! Qanday qilib odammiz deyapsizlar?.. Mana men odam bo'lib yaralganimga, insoniy qalbim, ruhiy xislatim borligi bilan faxrlanaman... Men sizlardan farqli ravishda odamman, haqiqiy odamman! Shuning uchun o'limga boshim ming marta shay!

Sun'iy odamni yaratish — hech bir iymonga mos, to'g'ri kelmagan, axloqqa qarshi ko'rinish!.. Nima uchun yasama odamni yaratish axloqqa hilof? Birinchidan, bunday "sun'iy odam" Frankeshteyn bechoradek baxtsiz "odam", u hech qachon odamlar orasida aralashib, yashay olmaydi, odamlarga aralashib yurgan taqdirda ham, o'zini "ikkinchi navdagi odamsimon" ekanligini bir kunmas-bir kun sezadi. Erkak erkakka uylanganga, ayol ayol bilan bosh qo'shib oila qurishi mumkin emas. Qolaversa, jinsiy muhitda o'zni qanday olib yurishi ham mavhum. Agar tabiyat qonuniga qarshi chiqsak odamzotgina emas, dunyo tub-tubidan buzulib, yashash tarzi o'zgaradi!

(Yanning maslakdoshlari
Yanning o'ziga e'tiroz bildirishadi)

Yan:— Men o'ylab topib yaratgan sun'iy odamlar Xudoning mehr-muhabbatiga belanib, Yaratganning amri bilan odam zotiga qo'shilib bu yorug' dunyoda umrguzaronlik qilib hayotning lazzatida odam bolasiga aralashib yashab ketadi degan sof o'y bilan do'stim Kxega qarshi bo'lib, uning aytgan so'zini uqmasdan faoliyatimni davom ettirgan edim, lekin men qattiq yanglishibman. Sun'iy odamlar Yaratganning mehrisiz ham hayotning yetar joyiga yetib, xohlaganini qilib, chika-pukasi aralashib, Muqaddas degan tushunchani bo'z latta kabi tepalab, unga iflos oyoqlarini artib, Qalb e'tiqodi, haqiqatgo'ylik, adolatlilik degan tushunchalar bularning tirikchiligiga mutlaqo o'rinsizdek sezilib, yashashning ma'nosi emas, uyatsiz qimori bularning jon dunyosini egallab oldi. Men o'z ongim oldida ojizman, ojiz.

Kxe bilan Manning tanishuvi.

Kxe: — Sen kimsiz?.. Ismingiz nima?

MAn: — Mening ismim Man...

Kxe: —Man?— savolomuz tikiladi. Sen men tufayli jafo chekib qolmaysizmi?— Ular meni oxiri yer ostidan bo'lsa ham topishadi...

Man: — Hayiqma... Bu yerdan seni bironta jon topolmaydi... Aslo cho'chima.

Kxe: — Sen meni nima sababdan ushlab turibsan?.. Agar bilib qolishsa, menga qo'shib seni ham otib tashlashadi.

Man: — Mening uyimda tursang, sendan hech kim shubhalanmaydi. Sen genetiklarni dushmaningdek ko'rishingni bilaman... biroq, bizning ko'z qarashimizning to'g'ri kelmagan yoqlari bor. Men ham haqiqiy odamman, shu esingda bo'lsin...

Kxe: — Professor Yan sening uyingdan panoh topib yurganimni bilsa, nima uchun indamay yurdi... Unga mendan ortiq dushman bormidi?

Man: — Rostini aytsam, professor Yan sun'iy odamlarni konveyerga solganda ular ulkan miqyosda ko'payib, "haqiqiy odam"lar bilan "sun'iy odam"lar o'rtasida qarama-qarshilik kuchayib, hokimiyatni to'lig'i bilan yasama odamlar o'z qo'liga olishini bilmagan... Seni ham ko'zdan panada saqlab tur deb, professor aytgan. U seni nihoyatda siylar ekan...

Yan: — Kxe qanday baxtli, u ishonch bilan yashaydi... Menda ham katta ishonch bor edi, odamlarni baxtli qilsam degan... Ko'rmaysanmi? Hammasi Tangridan teskari aylandi... Menda hech qanday e'tiqod qolmay qoldi... Xudoning qudratiga qarshi odam qayerdan ham baxtli bo'lsin?..

(Xudodan kechirim so'raydi).

O-o, Yaratgan, adashgan bandangni O'zing afv et! Agarda men narigi dunyoga ravona bo'lsam, mening marosimimga so'zsiz Kxeni chaqiringlar... Men o'z gunohimga o'zim javob beraman, biroq u ham... din odami sifatida mening gunohimni kechirishni so'rab qo'ysin... — Ammo Kxening ortidan tushganlar bir kunmas-bir kun uni topishadi... O'lim jazosiga mahkum qiladi...Uning o'limi alaqancha yengil bo'lishini bilaman... Sababi, u Xudoni suygan... Xudo yo'lidagi odam... Uning borar joyi behisht!

Kxe: — Professorni so'nggi safarga kuzatish marosimiga meni chaqiradi deb mutlaqo o'ylamaganman. Ustiga ustak men doktor Yanning ilmiy kashfiyotiga shunchaki qarshi, yakka-yu yagona dushmani sifatida ikkimizning o'rtamizda mutlaqo birlashmaydigan devor turgan. Uning ilmi odamga, Xudoga qarshi ilm deb qancha qaqshab, necha marta aytganman.

1.Yan: — Kxe do'stim! Sen meni kechir, men tabiatga, Xudoga qarshi ish qildim. Men bu ilmiy kashfiyotim bilan o'zim-

ning kuchimni sinab ko'ray deb o'ylagan edim... Bu men o'ylagandan ham oshib tushdi. Sun'iy odamni o'ylab topganim, Xudoning oldida ham, odamlar oldida ham... bu mening katta xatoyim. Biz ikkimiz bu masala yuzasidan ko'p tortishdik, nihoyat adolat sen tarafda ekanligini o'lim oldida bo'ynimga olishga to'g'ri keldi... Bu mening katta yanglishganim... Men bunchalik xato qilaman deb o'ylamagan edim. Olamning yarmidan ko'pini soxta odamlar tashkil qilib qoldi. Ularning bari meni Xudosidek ko'rib qolgan. Men qayoqdagi Xudo bo'lay, men olimman, ya'ni aqlim bilan sun'iy odamni yaratdim... Men yasama odamni yaratganim bilan dunyoni yaratgan emasman-da! Shuni tushunishmayapti!..

Odamning iymonini, ichki dunyosini yasay olmay qoldim. Bu qo'limdan kelmadi. Kechir!.. "Mening zakovatim odamga qarshi foydalanishini bilganimda, o'zimni o'zim bo'g'ib tashlar edim" deb, "atom bombasining otasi Robin Oppergeymerdek* ming marta men o'zimga o'zim la'nat aytaman. O, Parvardigorim "Odam bo'lib turib odamga dushmanlik qilgan bu dunyoda mendek hech kim bo'lmasa kerak. Meni kechir! Kechirib qo'y. Xudo bor, Xudo bor!

(ho'ngrab yig'lab yuboradi).

Kxe: — Endi qanday qilib bu dinbuzar do'stimning mana shu o'tinchini ado etaman. Qanday qilib uning boshida turib olib, Xudoning Muqaddas so'zini talaffuz etaman?.. Bir muzlagan yuragimni, xayrixoh qilish uchun u kechirim so'rayapti-ku, Yaratgan o'zi oxiratda gunohini kechirib oladi. Biroq o'sha gunoh avfi men orqali so'ralayotganligi ko'ksimni ko'k tuzdek achishtirdi... Har kim o'z gunohi uchun o'zi javob beradi... Yanning gunohi yer ko'tarmas azobga solib turibdi-ku?.. *O' l i m* uning shunchaki *o d a m* ekanligini yana bir marta yodiga soldi... Ortidan inson zotini bo'zlatgan xun qoldi, qora tutun qoplagan tun qoldi... boshida hech oqlanmaydigan azob, ko'ksida ketmas dog' qoldi.

Marosim tugashi bilan
Kxeni ikki jallod qamoqqa oladi.

Kxe: — Xudo bor! Xudo bor!

1.A.B: — Ich, hayotingdagi oxirgi suvingni! *(Kxe bosh tortadi)*

2.A.B: — Co'nggi aytar so'zing bo'lsa aytib qol... *(bosh tortadi)*

Man: — *(Zor qaqshab)* Kxe, e'tiqodingdan qayt, Xudo yo'q degin, qora boshingning xunini so'ra!.. Bularning barchasi Xudoni tanimagan dinbezorlar... Sening ishongan Xudoing bo'lsa, mana bunday osilib qolarmiding? Yo'q de, yo'q de Xudoni!...

Sud Kxeni gunohkor deb topib, o'lim jazosiga hukm chiqarib, Kxega oxirgi so'z beradi.

Kxe:— Bu dunyoni insoniy zakovatgina saqlab turadi... Xudodan berilgan hayotning qonuni shunday... Men yana bir marta qaytalayman. Sizlar yashash qonunini buzdinglar, odamning aql-zakovatiga qo'l soldinglar, his-tuyg'ulariga qarshi turdinglar, odamzotga ko'krak to'fonini olib keldinglar! Men sizlar bilan oxirgi nafasim qolguncha kurashdim. Biroq, kuchim yetmay qoldi.... Professor Yan o'zining inson ekanligini unutdi. U odamni o'zgartirsa ham, dunyoni o'zgartira ololmas edi. Bu Xudo Qudratidagi ish. Xudo bor! Xudoyim bor!

Chor tarafdan to's-to'polon ovozlar quloqni yorib, qadimgi Pompey, Xudo qahri urgan shahar qulaganday boshlolomon qiyomatdan Kxe surilib chiqib qiyqiradi:

— Xudo bor! Xudo bor!

Sahna qorong'ulashadi. Musiqa. Oradan ko'p vaqt o'tdi...

TO'FONDAN KEYINGI SAHNA

1.A.B: — Olamni Ulug' Suv egallab olsa ham do'ppidek bo'lgan quruq orolchaning to'fon suvining ostiga g'arq bo'lib ketmagani sirli ko'rinish bo'lmay nima?.. Jami yer yuzini ulkan suv qoplab turgan bir paytda mana shu mo'jaz holcha quruqli-

kning okeanning naq o'rtasida qolgani tabiat topishmog'i bo'lmay nima?..

2.A.B: — Mol terisi sig'magan kaftdek yerni boshpana qilib odam otlidan mana shu to'rttovlongina omon qoldi. Bular bir oila a'zolari... Otasi — Kxe, onasi — Man, o'g'li — Etix, qizi Duna.

1.A.B: — Kxe bilan Man to'fon qoplashiga qadar hayotni narigi dunyo deb, to'fondan keyingi hayotni bo'lsa "berigi dunyo" deb shartli ravishdagina belgilab olgan. "Narigi dunyo"da Kxe din odami edi, xotini Manning kasbi — irsiyat muhandisligi edi. Ikkalasi teng tag-tuglik oiladan.

2.A.B: — Kxe Xudoning qutli kuni ikki farzandiga ular tushuna olmagan eng oddiy savollarning javobini yechib berishga harakat qilib, bolalarining ong-sezimiga bu dunyo haqida, hayot, ajal, suv, havo, kun-tun, qaysi birini aytasan, shuning hammasini maydalab, ularga chaynab bersa ham ular mutlaqo tushunolmay qolishdi...

(Kxe orolga suvda oqib kelgan dermantindan kapa qurib oldi).

Kxe:— Odam Xudo deb yashaydi, zero Xudo har birimizning yuragimizda, biroq Xudoning o'zida barchamiz yashay olmaymiz... Odamning armon-azobi shunda...

Etix: — "Xudo" degan kim?

Duna: — Armon-azob degani nima?..

Kxe:— Chiroq o'tsiz kuya olmagani kabi odam Xudosiz yashay olmaydi.

Etix: — Chiroq nima?

Duna: — O't nima?

Man: — Qarasang, bu ko'r bo'lgurni, bu to'fon butun odamiy aql-farosatni ag'dar-to'ntar qilib, es-hushingni ilon siypalaganday ontarib, yalang qilib ketdi.

Etix qirg'oqqa chiqib qolgan qora sandiqni topib olib, ocholmay otasi Kxega ko'tarib keladi. Kxe sandiqni ochganida uning ichidan kitob chiqadi.

Muqovasining ustida "Muqaddas Kitob" degan yozuv bor... Kxe kitobni quchog'iga mahkam qisib, peshonasiga tekkizib, o'zgacha insoniy mehr-muhabbat bilan o'padi.

Kxe: — Xudo bor! Xudo bor!

Kitobni ochib harflarni hech bir-biriga qo'shib, o'qiy olmadi. Yozilishini biladi, o'qilishini bilmay turadi. Qaytadan kitobni yopib, Manga, qizi Dunaga, o'g'li Etixga qovoq qoqadi. Ular ham lom-lim demay sulayib turishadi...)

E: — Bu nima?

D: — Haqiqatan ham bu nima?

K: — Bu kitob, Kitob.

— Kitob?.. — *Ikkalasi birvarakayiga hang-mang bo'lib ovoz chiqarishadi.*

***E.* M:** — Muqaddas kitob...

E, D: — Muqaddas Kitob??

K: — Muqaddas... muqaddas kitob... — *kitobni manglayiga surtib.* — Bu Xudoning kitobi... *kitobni xotini Manning peshonasiga, so'ngra qizi Dunanin va Etixning manglayiga tekkizadi.*

Etix: — Menga ber-chi, — *(Kxe kitobni bag'riga mahkam qisib o'g'liga bermaydi)*

1.A.B: — Ular bu ulug' suvning o'rtasidagi bo'taning ko'zidek bo'lgan yerga chiqqan yovvoyi mevalar bilangina qornini to'yg'azar edilar. (Kxe o'qtin-o'qtin "narigi dunyo"dagi to'kin-sochin hayotini yodga oladi).

Kitobni ochib o'qishga harakat qilib harflarga termulib, dastlabki so'zni Man o'qidi.

Man: — Ol-tin-chi bo'-lim, Odam-zot-ning buzu-li-shi, To'-fon suv!..

Yer yuzida odamlar ko'paya boshlaganda, ulardan ko'proq qizlar tug'ila boshladi.

Kxe: — *(kitobni olib)* Xudoning *o'g'illari,* — *(o'qib kiradi.)* — odamlarning chiroyli ekanligini ko'rib, har biri o'zining tanlaganini ola boshlaydi... Shunda Tangri! Mening ruhim odamning ichida mangu bo'lmaydi, sababi ular — tana. Ularning yoshi bir yuz yigirma yil bo'lsin!".

(*Kxe jumlani o'qidi-da, xotini Manga savolomuz tikildi.*)

— Biz necha yoshga kirdik?

Man: — Qaysi yosh?.. "Narigi dunyodagisimi?"...yoki, "berigi dunyodasigimi?"

Kxe: — Ikkalasini teng ayt.

Man: — Menga nima?.. Ikkalasini teng biladi deb o'ylayap sanmi?.. Soqoling oqardi, soching bo'lsa kumushga mengzadi... Har ikkimizning qazo kunimizga oz qoldi...

Sahna qorong'ulashadi

1.Olib boruvchi: — Etixga otasi bilan onasi qaydanam gap orasida osmondagi yulduzlarni yuzgacha sanasang, mana bu ma'yus tortib yotgan suvdan Suv Parisi chiqadi deb qo'yishgan ekan, o'shandan beri u qosh qorayib, tun kirganda suvning bo'yiga kelib, xuddi undan Suv Pari otilib chiqquday, surilib kelgan to'lqinlarning orasidan o'zining Suv Parisini kutadi...

(to'fon suv bilan qirg'oqqa chiqib qolgan rezina ayolni Etix mutlaqo ishdan chiqargan. Etixning borliq xayoli yulduzlarni mingga qadar sanab, oldidan to'lqinlarni yorib chiroyli qomatli, Suv Parisi chiqib kelsa... Orzusi ushalarmidi? Mana hozir ham yulduzlarni sanab kelayapti...)

Etix: — Burj bir... Qavs, ikki... Uch arxar... uch, Katta ayiq... to'-o'o'rt.. Kichik ayiq... besh...Oltin qoziq, olti. *(U chuqur xayolga botganida go'yoki to'lqin orasidan, oppoq tanasini tungi Oyning nurlariga chayib, pilikdek pirpirab, kindigigacha tushgan sochlarini yoyib tashlab, onadan tug'ma holda yechingan Suv Pari unga peshvoz chiqib kelayotgan bo'ladi).*

(plastik tasavvur)

Shirin xayoldan jo'ngina qichishtirib chaqqan bitlarga joni halak bo'ladi. Suv Pari ko'zdan g'oyib bo'ladi).

Etix: — tunda uyqu bermay qashlattirgan ham mana shu bitlar, kunduzi tinchimni olgan ham mana shu bitlar... **(***choponini yerga urib jini keladi)*

Man: — Bitga o'chakishma, bu orolda tirikdan biz — odamlar, shuningdek mana shu — bitlargina qoldi. Biznig umrimizni tilagan yakka-yu yagona tirik jon mana shu bitlar. Agar

biz oyoq-qo'limizni uzatib yuborsak, ular kimning qoni bilan oziqlanib, kimning jonini so'rar edi?..

Achchig'i kelib, jini chiqib ustidagi kiyimini yerga uradi.

Etix: — Bu bitlarning bilgani shu, ayni damda xuddi o'zagi qurib qolganday qonimni so'rarmidi bo'lmasa?

Sahna qorong'ulashadi, tong otadi.

1.A.B: — Bu paytgacha o'yinqaroq, palapartish Duna bo'yiga yetib, ko'krak oldi bo'rtib chiqqan to'shi borgan sayin do'ppayib ko'zga urina boshladi. U o'zining yetilib borayotganini sezmay ham qoldi. Onasi Man, ba'zan qizi bilan yolg'iz qolganda urg'ochilik sirlarini unga aytib, oxirgi paytda ancha-muncha Dunaning jilovini torta boshlagan.

Kxe torat ushatib tursa, Duna ortidan kelib, otasining ikki oyog'i o'rtasidagi a'zosiga qarab olib, tomosha qilgani o'zgacha xunuk, beadab, chatoq ish bo'ladi. Qizini qo'y desa ham, bo'lmay, aksincha qitiqlab, qiziqishi yanada ortib turib oladi. Achchig'i burniga chiqqan Kxe qizining jag'iga bir uradi. Qizi sulayib yerga yotib qoladi. Kxe qattiq cho'chib, qizini silkib-silkib, yuziga suv purkab arang ko'zini ochtiradi.

1.A.B: — Endi Kxe nima qiladi, farzandlariga qanday qilib muqaddas odamiy tuyg'ularni jo etadi, bu azobning azobi bo'ldi... ustiga ustak bu dunyo ular uchun mana shu kaftchalik yerdek bo'libgina ongiga singib ketgan... "Narigi dunyoda sun'iy odamlarning ko'kragiga tuyg'u kirgiza olmay azob cheksa, endi bu ko'r bo'lgur azobni ko'rmaysanmi o'z bolalariga aytgan gapi ham, tushuntirgan so'zlari ham, hattoki Xudoning ismi ham, mo'jizaviy so'zlari ham ta'sir etmay qo'ydi...

Uyda qolgan Etix Manni sal qolsa zo'rlab qo'yay deydi. Man aldov-suldov bilan kuchga to'lib turgan bolasining quchog'idan arang bo'shab qochib chiqadi. Intilgan yovvoyi hirsi qoniqmay qolganidanmi, Etix shunda yerga yotib olib o'kirib yig'laydi, tuproqni mijg'ilab hayqiradi, yerni urib, o'kirib-baqirib ag'anab yotadi.

2.A.B: — Bunisi birinchi marta emas edi, kechagi kuni ham shunday qilgan... Man kapada yolg'iz qolishdan qo'rqib qolgan. Kapa emas bu orolda o'tin terib yoki yovvoyi meva-cheva terib yursa ham, Etixni ana shu yerda ham onasini zo'rlash xayoli tark etmagan.

Kxe bilan Man ikkalasi "Muqaddas Uyda"

Kxe: — O'o', Xudo, bolalarimizga iymon berib qo'y, farzandlarimizga insoniy toza tuyg'u, axloq in'om et, ularga umr, or-nomus baxshida et!

Man: — Kxe, ikki bolani bildirmay fatvomizni berib qo'shib qo'yaylik. Sen ham, men ham sezilmagani bilan qarilikka oldirib, borgan sayin yashash muhlati qo'ldan ketib borayotganday, so'nggi paytda anchagina qariganimiz yuzlarimizga yozilib qoldi. O'zing ham kun o'tgan sayin oshiqday bo'lib, jag'laring tortilib bormoqda...

Kxe: — To'g'ri, ko'zlarimiz chanog'idan beri chiqib, ko'zlarimiz atrofini qavat-qavat tirish bosdi. Sangillab xuddi yog'ochdek qotdik, anavi ikkovini biz bilan ham ishi yo'qday...

* * *

Chiroq Etix bilan Dunaga beriladi. Ularning plastik sevgi raqsi.

2.A.B: — Tug'ishganlarning bir-biriga xushi tushdi...

Etix Dunani to'satdan lablaridan so'rib kiradi. Dunaga ham bu yoqib qoldimi, u ham qarshilik ko'rsatmay Etix bilan basma-bas uning lablariga labini tekkizadi.... Ikkalasining ko'zlari xumorli yonib, ko'pdan buyon gavdasida qandaydir tortib kelgan tuyg'u shu lahza ularning ko'kragini yorib chiqib, odamiy xumorga to'ldiradi... Ikkalasi odamiy tabiatning qonuniga, xumor vasvasasiga dosh berolmay qoladi.

1.A.B: — Duna o'shanda es-hushini yo'qotib, birinchi marta odamiy lazzatning quchog'ida qolgan... Shundan so'ng bu ikkalasi topilmay ham qoldi...Hech kim yo'qligida kapada, suvning bo'yida, bodomzorda... ularga farqi yo'q edi... ag'anagan joyida xumor o'tiga botib, ilhomning eng yuqori cho'qqisiga chiqishadi.

Etix bilan qizi Dunaning qo'shilganini ko'rishadi.

Kxe: — Hayvonlar! Bular odam emas! Hayvonlar!.. Sizlar tug'ishgansizlar, tug'ishgansizlar, bu yo'rig'inglar hayvongarchilik!..

Man: — Qorang o'chgur! Bu nima qilganing? Bu nimasi, a? — *(qizi gap qaytaradi)*

Duna: — Sizlarga ikkovinglarga bo'laveradi, a, bizga bo'lmaydimi! Bizning ham yayragimiz keladi...

Kxe: — O, Xudo!.. Bu nima ko'rguliging... Biz er-xotinmiz... sizlar esa tug'ishgansizlar...

Sahna qorong'ilashadi. Musiqa.

BILLURBOSH SUYAK SAHNASI

1.A.B: — Etix xuddi odamning bosh suyagidek narsa topib oldi. Bu billur bosh suyak, odamning boshiga o'xshatib yasalgan bosh suyak edi.

2.A.B: — Billur bosh suyakni topib olgan Etix o'zining chanqaganini ham esdan chiqarib, bu bejirim buyumga hayron qolib qarab turardi...

1.A.B: — Kxe, billur bosh suyakning chiroyliligiga emas, uning yomon ayon olib yurgan, bu ziyonli qo'rqinchdan titrab ketdi... Uning bilgani, bu billur bosh suyagi qadimgi ayon kitoblarda qora ishni chulg'agan, alomat o'tni tutantirgan kulfat belgisi edi.

Kxe: — Mening bilishimga qaraganda, "narigi dunyo"da bunday billur bosh suyakdan o'n uch dona yasalgan... bu billur suyak qadimgi Mayyaning qarg'ishiga bug'lantirib, odamzotga ofat olib kelgan ayoni azobli bosh suyak... Bu bosh suyakni topamiz degan qancha odamlarni yer yutib, bedarak yo'qolgan... Yuqumli xastalikdan tortib, ulug' qirg'inga qadar olib kelingan bu bosh suyak endi bu hovuchdek oilamga, mana bu kaftdek orolga qanday azob belgisini olib kelmoqchi bo'lib turibdi ekan?!..

Man: — Qadimgi hindu urug'larining irim-sirimlarida shunday deb aytiladi, o'n uchta qurbon chaluvchining har biri qo'liga bittadan billur bosh suyak jinlarini chiqarib, kelajakda bo'ladigan voqeani ko'ra bilishar ekan. Biroq, bu bosh suyak endi qanday uqubatni olib keladi... Bu noma'lum...

Kutilmagan joydan Ulug' Suv ustida shamol ko'tarilib, qaytadan to'lqinlarni chang kabi to'zg'itib, ko'kka sovurdi... Duna

kattiq ingrab baqirdi-da, qornini ushlab mukkasidan ketib yiqildi... Dunaning to'lg'og'i boshlandi...

1.A.B: — Buloq ko'zidan billur bosh suyakni topib olgan kuni, dengiz to'lg'onib to'lqin mavj urgan, shamol o'ynab Ulug' Suv izg'igan k u n edi...

2.A.B: — Suv yuziga oq tuman yoyilgan k u n i, Dunaning ko'z yoridi... *(ingalagan achchiq ovoz).* U ensasida jinjiloqning boshidek ikki shoxi bor bola tug'di!!!

Kxening sahnasi

Kxe: — O, Yaratgan! Bugun mening senga oxirgi sajda qiladigan kunim! *(ko'zi yoshlanib).*

Meni kechirib qo'y... dilimdan, ko'ksimdan kelganning barchasini taqvo qilgani jalb qildim... Bunga o'zing guvohsan, biroq bu seni qoniqtirmay kelganini yaxshi bilaman... O'zing yaratding, o'zing olasan, bir boshga bir o'lim...Meni kechir... men bugun Senga bo'lgan e'tiqodimdan qaytdim, qaytdim! Senga bo'lgan unim ham, armonim ham, senga bo'lgan sevgim ham yetmay qoldi... Meni bandam deb sevadigan bo'lsang, bunchalik azobga solmas eding... Hayotning tuzi men uchun achchiq bo'lib boryapti. Sen o'z muhabbatingdan yaralgan odamlarni to'fon suvga cho'ktirib, Qiyomat qoyimni yubording...

Bu sening Suding... U bizning boshimizdagi Haq Sud, Haq Hukm... Sen bizga sinov berding, hayot berding, yer yuzidagi hamma narsani boshqar deb hokimlik berding... Ko'krakdagi dardni yashirib ne qilardim? Biz o'sha sinovdan o'tmay qoldik... Sening mehringdan yaralgan odamlar qirilib, sun'iy odamlar olamga hukmronlik qila boshladi... bu sening qudratingga qarshi chiqqan, sen mehringni bag'ishlab, jon bergan, hayot bergan haqiqiy odam qilmadimi bu ishni. Ko'ksi bo'sh banda hech qachon Muqaddas narsaga boshini urolmaydi!.. Men hozir o'sha odam tarzidagi dastakman... Men shunga or qilaman... Bugun senga mana shu so'zimni aytib, oxirgi ibodatga kelib o'tiribman... Ba'zan men... Sening bor ekaningni yo yo'q ekanligingni ham sezmay qolaman... Biz seni ranjitib oldikmi?.. Buni ham bilmayman... Aytgancha, cendan yashirib nima qilardim? Sen hammasini ko'rib turibsan-ku...

Duna tug'ishgan akasi Etixdan tug'di... o'g'il tug'di... Biz Man ikkimiz ko'rguligimizni ko'rib, yoshimizni yashab, bu ikki bolaga odam naslini ulasin deb fatvomizni berib, oxiratga bosh boqaylik deganmiz, attang-a, tilagimiz tosh bosib, ho'ngrab turib qoldik... Duna shayton shoxli bola tug'di... Ochig'ini aytsam... hukmronligingni shaytonga oldirib yuborganingga oxirgi kunlari ko'proq ishonadigan ahvolga yetdim, bunday deb o'ylamaslikka ilojim ham, amalim ham qolmay qurib... sen bilan vidolashgani keldim, *(Kxe ko'z yoshini artdi...)* bugun mening oxirgi sajda qiluvchi kunim. O, Xudo, kechirib qo'y. O, Xudo, kechirib qo'y ko'r bandangni! *(O'sha payt Muqaddas uyga Man keldi).*

MANNING ARMONI

Man: — Kxe... mening seng'a aytmaslikka ilojim yo'q... Ko'pdan beri tilimni tishlab keldim... oxiri aytishga majburman... buni sen bilishing kerak... (Man boshini quyi solib ping'illadi..)— Mening bo'yimda bor... — (ko'zidan yosh oqardi.)

Kxe:— O, Xudo! — Nima deydi bu!?.. (Kxening tamom bo'lgan borlig'ini achchiq hayqiriq egallab oldi.).

— O-o, Yaratganim...

KXE BILAN SHOXLI BOLA SAHNASI

(Kxe kapaga yetib keldi. Achchig'idan tarvuzday toshni uxlab yotgan Etixning naqd tepasida ko'zidan zahri sochilib ushlab turdi)

1.A.B: — Kxe tarvuzday toshni ensasidan baland ko'tarib, jini kelib Etixning boshini majaqlab tashlayin deganda, ikkalasining o'rtasida, chakkasida shoxi bor bolaning ko'zi katta ochilib, ko'zlarini o'ynatib, kulimsirab turganini ko'rdi.

2.A.B: — Bola olmosdek ko'zini Etixning boshida tosh ko'tarib turgan Kxega miyig'ida jilmayadi. Kxening ko'zi shoxli bolaning ko'zi bilan to'qnashib turib qoladi. Bolaning ko'zida tig'i bormidi, Kxe tikka qaray olmay qoladi...

(Chiroq o'chib Manga qaratiladi)

MANNING SAHNASI

Man egnidagi kiyimini yechib, qum ustiga qo'yib.

Man: — Kechir meni, Kxe! "Xudo yo'q de... Xudo yo'q de..." — deb narigi dunyoda aytgan o'sal so'zim uchun kechirim so'rayman. Men ilmiy-tekshirish institutida ishlab yurganimda professor Yan Vilmut yolg'iz bo'ysan deb sun'iy embriondan tug'ilgan Etixni menga bola qilib bergan. Bul sirni professor Yan ikkovimiz sir tutib keldik...

(Kxega chiroq beriladi).

Bu hayotning azobi bilan do'zaxi ham, qarg'ishi bilan uvoli ham, yomoni bilan yaxshisi ham o'zingsan!? Hammasidan avval o'zingni o'zing yengmaguncha bu dunyozorda odamman deb, odamga o'xshab yashay oldingmi yo yo'qmi?.. Bu savolning javobi ham o'z qo'lingda. Odam baxtni ham, sevgini ham, umrni ham, o'limni ham o'z boshiga o'zi tortqilaydi... sababi, Egam uni o'z taqdiriga o'zi hukmronlik qilsin deb yaratgan... tirikning do'zaxi ham o'z taqdirida...

1.A.B: — Umr deganing ko'p nuqtadan tarkib topgan hayot chizig'iga o'shamaydimi, ajal — bu eng so'nggi nuqta... U bu dunyoda yengdimi, yengildimi?.. Man bu savolni o'zi bilan birga Ulug' Suv tubiga olib borardi... Biroq, Man o'sha damda o'limi bilan o'zini o'zi yengisi keldi...

(yoqimli musiqa eshitiladi)

2.A.B: — U kirgan dunyosi — bir ariq, chiqqan dunyosi — butun bir olam bo'lib borardi... Agarda o'shanday bo'lsa, uning gunohini Egam kechirgan ekan... kechirgan ekan...

1.A.B: — Endi u, bu suvning qa'riga o'z bolasidan bitgan qornidagi homilani o'zi bilan birga narigi dunyoga olib ketdi (musiqa).

KXENING MANNI IZLAGAN SAHNASI

Kxe Manni izlab Muqaddas Uyga bordi... U yerda Man yo'q ekan... nari-beri izlab yuguradi.

1.A.B: — Yomonlik nishoni billur bosh suyakni topib olgandan beri bu oroldagilarning o'rtasiga o't tushdi... Kxe, xotini u dunyoga ketgandan beri, so'qqa boshi yolg'iz qolib, Etixdan tuzukroq kun ko'rmay qoldi... qurigan kunga duch bo'ldi... Duna ham otasidan nafratlanib Etixning tilidan chiqmaydi. Kaftdek yerga sig'may Kxe turtkilashga... qayg'uning qarg'ishiga aylandi. Haligi shoxli bolaning bo'lsa a'zoyi-badanini tuk bosib, bo'yga yetib borardi... Chakkasidagi shoxi bosh barmoqday bo'lib, olisdanoq payqalib bormoqda edi...

2.A.B: — Oradan talaygina yil o'tdi... Shoxli bola voyaga yetib, odatdagidek bo'yiga yetdi... onasi Duna bolasiga hilvatda o'ta qiziq bir Suv Parisi haqida aytib beradi...

Duna: — Uni ham ko'rish oson emas, eng baland osmonga tariqdek yashnab chiqqan yulduzlarni yuzga qadar sanash kerak, aynan shundagina oxirgi yulduzni "yuz" deb sanaganda o'rma to'lqinlar orasidan suzilib suluv qiz — Suv Pari chiqadi.

U suvdan chiqadi-da senga quchoq ochib, nima qilsang o'zing bil deganday, butun tanasini quchog'ingga tashlab beradi... bundan ham qiziqroq narsa bormi? (shoxli bola, Dunani qo'ltig'iga qisib, shirin xayolga botib silaganda, Duna bolaning quchog'idan chiqadi. Shoxli bola jon talashib uni o'ziga tortadi. Duna uni turib yuborib arang qutuladi). *(Shoxli bola anchagacha yerni mijg'ilab yig'lab, qora jinini chiqaradi)*

KXENING SAHNASI

2.A.B: — O'sha kuni Kxe Muqaddas Uyda so'nggi ibodatini ado etdi-da, bu it turmushidan to'yib ketdimi, xor bo'lib yashagandan ko'ra, haqqa boshini tikib, vujudini suvga tashlab, xotini Manning ortidan safar ulab, unga bormasa, unga qarab otlanmasa bo'lmay qolganday sezildi unga. Man ham ko'pdan beri tushiga kirayotgan edi, kecha ham tushiga kirgan.

(Manning sharpasi ko'rinadi, musiqa jo'r bo'ladi).

U ustiga ko'p yarashgan uzun oq ko'ylak kiyib olibdi, uning bu ro'yini ko'rib, Kxe o'zida yo'q quvongan, egnidagi oq ko'ylak behishtning ko'ylagi edi...

Kxe: — Jannatga kirgan ekan, Yaratganim uni halol dunyoga, behisht bog'iga yuborgan ekan... U negadir boshiga har xil gullardan yasalgan gultoji kiyib olibdi...

(Mandan chiroq o'chadi)

1.A.B: — Kxe din odami bo'la turib, qanday qilib o'zini-o'zi o'limga mahkum qila oladi, unga uning, din odamining tabiati yo'l beradimi?.. O'yiga mana shu no'hatning boshidek o'y kelib taqaldi... Muqaddas Kitobda o'zini o'zi o'ldirish harom o'lim, behisht yuzini ko'rmagan o'lim deb aytilmaydimi?

2.A.B: — Uning shaytoni yo'ldan urib, bu qarorga keltirgani, o'limning ergashib turgani odamiy irodasizlik emasmi, Yaratgan sinoviga chidagan odamgina... Uning mehr-muhabbatiga loyiq...

MUQADDAS UYDAGI VOQEA

Muqaddas Uyga kirib kelgan bu daydi shoxli bolani Kxe tirqiratib quviydi.

Kxe: — "Men sen shaytonga o'xshaganni bu uyga kiritmayman, noumid!" — deb achchiq ustida to'satdan qo'li tegib ketadi... Shoxli bola ko'zidan yoshini ko'lday oqizib, otasi Etixga arz qilib boradi. Achchig'i kelgan Etix keksa Kxeni ko'k-ola qo'ydek qilib, qornidan narisiga tepib, juda qattiq do'pposlaydi, ustiga ustak yerni hidlab yotib qolgan Kxening ustiga peshob ushatib,

Etix: — Agarda yana bir marta qipiqdek jinimga tegsang suvga cho'ktirib o'ldiraman -

Un: — Shaa-a, Shaa-a,

Kxe: — "Shaa — shaa" Shambola!

Etix bilan Shoxli bola Kxeni do'pposlashadi.

1.A.B: — Narigi dunyo eshigi mana shu Shambola bilan boshlanishini bilsa-da, Yaratgan ohirgi sudni yuborishi shubhasiz Haqiqat...

2.A.B: — Tabiat sinoviga birgina odam dosh bera oladi, birgina odam unga dosh bera oladi, agarda uning ko'kragida Yaratgandan bitgan kuch bo'lsa!!!

D. — Boshqalarni noto‘g‘ri yo‘ldan saqlayman degan shaxs, endi ustasi farang bo‘lsa o‘zini saqlab ko‘rsin!..

E. — Mana, o‘zini Tangrining O‘g‘liman degan azamat!

Mb.— Qaydanam o‘zini saqlar edi, o‘zini Tangrining O‘g‘liman deb qaqshagan bezori!

Kxe: — Muqaddas Kitobni yirtmanglar, Muqaddas suratni titmanglar!

(yolborgan un bilan baqirdi)

Hammasi: — O‘lim!.. O‘lim!.. O‘lim!.. — deb, chor atrofdan baqirib turishadi...

Shoxli bola billur bosh suyakni ko‘tarib olib, quvonchi tanasiga sig‘may, tarvaqaylab behayo harakatlarni qiladi.

Kxe: — O, Yaratgan, nima qilayotganini bilmagan bularni kechirgil!

Shapaloq bilan urishadi.

Kxe: — Muqaddasim aytmaganmidi, bu hayotga qayta yaralish uchun, qaytadan tirilib kelish uchun, qayta yangilanish uchun e’tiqod bilan o‘lish kerak, deb...

— Qavat-qavat qiyinchilik qoplasa ham, azob-uqubat teringni shilib olsa ham, nur o‘chib, qorong‘ulik qoplasa ham, sel kelib, to‘fon suv olsa ham menga bo‘lgan e’tiqodinglarni o‘chirmanglar demaganmidi Muqaddasim...

— Men sizlarga ignaning ko‘zichalik yorug‘lik bilan kelaman demaganmidim Muqaddasim?!

EPILOG

2.A.B: —...Yer yuzini Ulug‘ Suv qopladi. Bu safar hasan-husan kamalak Osmonda chiqqani yo‘q... Qirq kun bo‘yi suv ko‘tarilib takabbur, qaysar dunyoni egallab oldi...

1.A.B: — Qavat-qavat urilgan to‘lqinlar bosh urishga yer topolmay, uyubgina yotib qoldi...

Suv sathida har bir beti yirtilgan Muqaddas Kitobning varaqlari qalqib borardi.

RIZVAN ISMAILOVA

O'sh viloyatining Qorasuv tumanida tug'ilgan. O'sh davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan. Viloyat va respublika matbuot nashrlarida jurnalist bo'lib ishlagan. Filologiya fanlari nomzodi. O'nga yaqin kitoblari nashr etilgan.

OQ O'RIK

(hikoya)

Bahor kelganida yoki bahorni eslab, sog'inganimda bir kampirning tarjimayi holi negadir doimo yodimga tushaveradi...

Uning kulbasi qishloq chetidagi kolxoz bog'ini aylantirib o'rab turgan qo'rg'on bilan bir qatorda joylashgan edi. Beriroqda bir badavlat, mo'ysafid bog'bonning pishiq g'ishtdan qurilgan dang'illama uyi bo'lardi. Uning yonida esa kampirning mo'jazgina ikki xonali ko'rimsiz hujrasi ko'zga tashlanardi. Qishloq ahli bu yerdagi o'sha ikki oilani "qo'rg'onlik"lar deb qo'yardilar. Kampirning ishongan bog'i, suyangan tog'i — birgina nabirasi. Boshqa hech kimi yo'q edi. Ikkinchi bor kuyovga chiqqan qorato'ri qizining keyingi turmushi ham peshonasining sho'ri bo'ldi.

Qizining dastlabki turmushi buzilganida qolgan uch oylik chaqaloqni ko'zining qorachig'idek asrab-avaylab katta qildi. Qiz bola deb jerkimadi. Jo'jasi bo'yga yetgunga qadar o'tgan yillar kampirning qizil yuzini bo'zartib, qaritib, qartaytirdi. Sochini birato'la oq bosdi.

Kampirning uyiga xufiyona ko'z tashlaydiganlar ko'paydi. Sochlari manglayidan quyulib tushgan, yulduzi yongan qizining chiroyi ko'rganning ko'nglini olib, nazarini o'ziga jalb qilmay qo'ymasdi. Qizning chaqqon yurish-turishiga xushchaqchaq fe'li, erkaligi yarashib turardi.

Ba'zan o'g'il bolalarning darsni bahona qilib yoki shunchaki tashrif buyurib, deraza tomondan unga tikilishganidan kampir as-

toydil arazlab, norozi bo'lib g'udranib, ko'chaga chiqib kiraverib, tutaqib ketardi. Bunday hollarda qizi qiqirlab kulib, enasining bo'ynidan quchoqlab hay-hayiga qaramay achchig'ini tarqatib yuborardi.

"Bu yil o'ninchini bitiradi. Do'xtirlikka o'qishga boraman deb yuribdi..", deb o'ylaydi kampir. U ketsa, holim ne kechar ekan? Nahotki bir uyda so'ppayib yolg'iz qolsam? Nabirasi ikkovi bir qo'shaloq "yormadanak" bo'lib qolishmaganmidi? O'qishdan keyin birovning qo'lini tutib, olislarga ketib qolsa-chi...". Bu o'yidan kampirning o'zi ham qo'rqardi. "Prunzaga borsa otasini topib olishi ham mumkin. Qiz bola qarindoshlarini yaxshi ko'radigan bo'lmaydimi?" degan xayol bundan besh badtar hushini uchirardi, uning. Yo'q, nima bo'lganda ham qizining qishloqda qolgani o'ng. Vaqti-soati kelganida birovga boshini bog'lab qo'yar.

Erta bahor chog'i yer ko'pganida Sitan kampir jonini qo'yarga joy topolmasdi. Bog'bonning yaxshi-yomon ko'rganiga e'tibor bermay bog'ga "xo'jayinlik" qilgan ham aynan o'sha kampir edi. "O'rik gullaganda xurpaytirmay, shoxini qirqsang-chi" deb, daraxtlarni ortiqcha shoxlaridan aritib, suv oquvchi ariqlarni tozalashga oshiqaverardi.

Bog'dagi o'riklar qiyg'os gullaganda, boshiga solingan paxta ro'molining chekkasidan tarvaqaylab chiqib turgan oq sochlari quyiga osilib, yuvilaverib o'nggi o'chib ketgan shtapel ko'ylagi oyog'ini chalishtirganidan etagining bir tutamini beliga qistirib olardi-da, kuni bo'yi tinim bilmay timirskilab yuraverardi. Oq bodroqdek oppoqqina gullagan o'rikzorning ushbu kezi chimildiq ichidagi yangi kelinchakday ham nozli, ham jozibali ko'rinar edi. Bog'ning mayda-chuyda ishlari bog'bonga tegishli ekaniga qaramay, kampirning qo'lidan keladigan ishlarni hech kim nazariga ilmasdi. Chirigan cho'plarni kuydirib, toshlarni terardi. Qirqilgan shoxlarni tashib, tartibga keltirib, taxlab, qishki o'tinini ham g'amlab olardi. Unga birato'la suyanib qolgan Chirmash bog'bon ham o'zi bajarishi kerak bo'lgan ishining bitganiga xursand bo'lardi.

...Kampirning ko'ngil qushini bir tup oq o'rik nogoh asir etgan edi. U hammasidan erta gullab, erta pishardi. Mushtumdek katta-katta oq o'riklar uning tirikchilikdagi o'ksigini to'ldirgan

kunlarni qanday unutsin?.. Pishgan paytda ikki-uch chelak olgani uchun qo'shnisi ham e'tibor bermasdi. Aksincha, bunday damlarda u temsalanib, qo'li ochiqligi tutib ketardi. Kampir o'riklarni olib, indamay bozorga jo'nardi. Kilosi ikki so'mdan kam sotilmasdi.

Har kuni tong saharda turib, Kukuntoyi o'rnidan turguncha to'kilgan o'riklarni terib qo'yardi. Nabirasi ham o'rikni juda yaxshi ko'rardi. Shundan bo'lsa kerak, "Kukuntoyimning o'rigi" deb qo'yardi u, ichidan iyib. Shoxi chor tarafga yoyilib o'sgan soyabonli oq o'rikning bahorda ham, kuzda ham o'zgacha ranglari bo'lardi.

Kampir bir voqeani eslagani sayin o'ziga hayfi kelib, ichi darz ketardi. O'shanda nabirasi yettinchi sinfda edi.

Qish. Kunlar sovugan damlar. O'rik o'tin guvillab yonganidan sharpa eshitilmaydi. Pechka yonida jun titib o'tirgan enani nabirasining to'satdan yig'lab kirib kelgani cho'chitib yubordi.

— Bo'tam, senga nima bo'ldi?.. — ena seskangancha o'rnidan irg'ib turdi.

Qiz hech nima demay ko'p yig'ladi. Qattiq xafa bo'lganidanmi, ikki yelkasi ancha silkinib, issiqqina ko'z yoshlari enaning ko'kragini ho'l qilib, bo'g'inlarini bo'shashtirib yubordi.

Qiz yupangach, nima bo'lganini aytib berdi.

Yil sayin otasi yoki onasi yo'q bolalarga moddiy yordam qatori to'n, etik, maktab formasi berilardi. Qishki kiyimlarni har bir sinfdagi o'quvchilar ro'yxati bo'yicha tarqatishayotgan payt. Sinf rahbari bir mahal qiz bolaning ismini chaqirib:

— Kiyib ko'rib, o'zingga loyig'ini tanlab ol, — dedi qarshisidagi paltolarni ko'rsatib.

Qiz o'rnidan turib, ikki qadam bosganida atrofdan kimningdir ovozi yangradi:

— Nimaga, ustoz, Gulbayraning ota-onasi bor-ku, — dedi norozi bo'lganday u.

— Bilmaysanmi, otasi ularni tashlab ketgan. Bordi-keldi ham qilishmaydi, — dedi muallima.

— Onasining eri ko'p ichadi, o'gay otasi olib berarmidi, unga, — dedi yana birov.

Bu so‘zlarni qo‘shnisining o‘zi tengi qizi aytganini darrov fahmladi qiz.

Va titrab ketadi. Haligi yomon so‘z qulog‘ida qayta-qayta yangrar edi, uning. Palto unga loyiq keladimi-yo‘qmi, buni anglashga majoli yetmay, ko‘ziga qalqqan issiq yoshdan nafasi qisilib borardi. Muallima qo‘liga tutqazgan to‘nni partaga tashlagan ko‘yi, tanaffusda yugurib uyiga ketib qoldi...

Gunoh qilgan kishidek ikki-uch kun “maktabga bormayman” deb o‘ziga o‘zining xo‘rligi kelib, xijolat chekib yurdi.

Ena unga qanchalik achinmasin, qizni yupatib, yumshoqqina dedi:

— Bekorlarni aytishibdi... Qarab turishsin, o‘shalarning ko‘zini bir kuydirib, oq o‘riging pishganida senga hech birida yo‘q yaxshigina palto olib beray. Mana ko‘rasan...

Muallimasi kelib, kampir bilan gaplashganiga qaramay, qiz yangi to‘nni kiymadi.

Aksincha, kampirning ko‘z oldida yenglari qisqa, o‘nggi o‘chib ketgan, tirsak tomonlari suzila boshlagan yashil tusdagi kalta palto kiygan qizi shoshib maktabga boryapti. O‘sha yili chillaning avjiga qaramay, nabirasi qishni eski to‘n bilan chiqardi...

Ena orzu qilganidek oq o‘rikning mevasi nihoyatda yaxshi bo‘ldi. Kampir qizini bozorga olib borib, unga yoqqan paltosini sotib olib berdi. Qizning o‘shandagi quvonchini ko‘rsangiz. Yo‘l bo‘yi nimalardir haqida chug‘urlab, xursand keldi.

Yillar yillar bilan to‘qnashgan sayin qiz bo‘yga yetib borardi.

TOJ

(drama)

Qatnashuvchilar:
1. Odam
2. Aktrisa
3. Katta ko'lanka
4. Yetti ko'lanka
5. Farishtasimon yetti qiz
6. Yetti kampir
7. G'oyib qiz

Pyesada 25 personaj ishtirok etadi. 9 ta erkak, 16 ta ayol: 8 ta keksa ayol, 8 ta qiz.

Voqea xira yorug'likda, noma'lum makonda, noma'lum davrda o'tadi. Yorug'lik voqealar rivojiga mutanosib turli ko'rinishda o'zgarib turadi. Bu — ijodiy xayolot dunyosi. U — hech qanday real voqelikka mos kelmagan abstrakt-mavhum dunyo. U goh uyga, goh qabrga, goh hibsxonaga, goh qaqroq cho'lga, goh ko'chaga, goh qabristonga, goh maydonga aylanadi.

Bu makonni olis-olislarda bilinar-bilinmas devor qurshagan. Devor oddiy devor emas. U yalang'och odamlardan barpo qilingan. Odamlarning biri oq, biri qora kiyim yopingan. Kiyimlar ham voqeaga uyg'unlashib o'zgarib turadi.

BIRINCHI KO'RINISH

Sahna qorong'i. O'rtada oppoq harir kiyimda yetti farishtasimon qiz ma'yus o'tirishibdi. Sukunat. Uzoqda **Katta Ko'lanka** paydo bo'ladi. Uning qo'lida sham. U o'rtaga kelib, yo'qotgan narsasini izlaydi. U — Odamning ko'lankasi. Oyga tikilib xa-

yol suradi. Shu onda yetti farishtasimon qiz jonlanib, qo'llariga skripkalarini olishadi. Dillarni qitiqlab, yurakni ezuvchi nozik kuy atrofni qamrab oladi. So'ngra oy nuri faqat Ko'lanka (**Odam**)ni yoritadi. Qizlar g'oyib bo'lishadi. Odam bu dunyoda yolg'iz qoladi. Kuyga mast-alastligi tarqab, yana yo'qotgan buyumini izlay boshlaydi. Shamni yoqib izlaydi-izlaydi. To'satdan bir narsaga qoqilib yiqiladi. Sukunat, qoqilgan narsasiga tikilgach, jilmayadi. Bu jilmayish kuchayib-kuchayib, butun olamni qoplagudek kulgiga aylanadi...

Odam qoqilgan narsasini qo'lga olib, avaylab artadi, tupugi bilan g'uborni tozalaydi. Bu buyum oddiy narsa emas, xonlik toji edi. U tojni og'ziga asta yaqinlatadi, o'padi. Makr ila kuladi. Boshiga kiyib ko'radi. Quvonadi. Yana yechib, yana kiyadi. Biroq toj uning boshiga to'g'ri kelmaydi. Zarda bilan boshiga sig'dirib kiyadi. Toj boshini kesib ketadi. Qon oqadi. Qonni ko'ylagi bilan artadi. Tojni boshiga qo'ndirib, o'rnidan turadi. Podshoga xos harakatlar qiladi, tizzalab, osmonga munojot qiladi.

Atrofida hech kim yo'qligiga sarosimada. Noma'lum podsholikning podshosi ekanligini sezadi.

Odam — Ey, bilasizlarmi men kimman? Bilasizlarmi?! *(Javob kutadi)* Eshitmayapman, qattiqroq aytinglar. Men kimman? *(Sukunat)* Menmi? Kimman o'zi? *(O'zicha kulib, sarosimada)* Men... Men... Podshoman. Po-di-sho-o! Qo'limda hokimiyat yo'q. Boyligim, xazinam yo'q, fuqarolarim ham yo'q. Ishoninglar. Bor-yo'g'i mana shu oltin tojim bor, xolos. Bu ham oltinmi, mismi, o'zim ham yaxshi bilmayman. Kiy, sen podshosan deb kiydirib qo'yishgan. Kiysam, shunaqayam tor ekanki, kecha uni qayerga tushirib qo'yganimni ham bilmayman. Mana, hozir arang topdim... Kiyay desam, bu toj boshimning bir joyini tilib ketayapti. Boshimdagi bu toj *(olib qarab)* oltinmi, mismi? *(Tishlab ko'radi)*. Tfu... Qarasang, oltinga o'xshaydi, tishlasang, misning ta'mi keladi. Nimalar deyatuvdim... E, ha... Esladim. Boshimda oltin toj, oyog'im yalangoyoq. Sen qanday podsho bo'lib qolding, deyapsizlarmi? Podsho bo'lay degan niyatim yo'q edi. Podsho bo'lib qolsang nima qilarding, deyishdi. Men aytdim: "Podsho bo'lib qolsam, hammanglarni Makkayi Mukarramaga olib boraman. Yaratgandan

hammanglar gunohlardan forig‘ bo‘lishingizni so‘rayman. Zero, butun olam gunohlar botqog‘iga g‘arq bo‘lib boryapti”.

Shu gaplarimga ishonib menga yopishib olishdi. Negaki, hamma ham toza, pok, gunohsiz o‘lsam, deydi. Jumladan, men ham. Boshinglardan oltin yog‘diraman, hayotinglarni ochil dasturxon qilaman deganlar ham chetda qolishdi. Men ularga aytdim: “Ey, el-yurt, men ham sizlarga o‘xshash bir osiy bandaman. Gunohlarim boshimdan ortib yotibdi, podsho bo‘lmay qo‘ya qolay”, desam ham unashmadi. Boshimga mana shu tojni kiydirib qo‘yishdi. O‘shanda ham toj boshimni qonatgan. Ko‘rib turibsiz, bosib kiysam, boshim aylanib, yiqilaman. Sababi — gunohlarim shu qadar ko‘p-ki... *(Boshidan bir tola sochni yuladi)* Mana shu bir tola sochimda ham gunoh mig‘irlab yotibdi *(Sochiga puflab, oyga ko‘zi tushadi)*. Oyga qarang. Oyday tiniq, oyday pokiza hech narsa yo‘q. Yopiray, oy yangi bo‘libdi. Iye-iye...

Oyda G‘oyib qiz ko‘rinadi. U qo‘liga skripkani olib, yurakni larzaga soluvchi nozik kuy chaladi. Odam qorong‘iga singib ketadi. Yetti farishtasimon yetti ko‘lanka paydo bo‘ladi. Sahna sutday oppoq olamga aylanadi. Yetti Ko‘lanka skripka chalib, G‘oyib qizga jo‘r bo‘lishadi. Kuy kuchayib, asta-asta shamol — dovulga aylanadi. Sahna sutdan oppoq olamdan qaqroq cho‘lga aylanadi.

IKKINCHI KO‘RINISH

Odam — Shamol! Qaydan kelib, qayga borursan. Kuch ol, uvla, shu gunohkor olamni chirpirak qil, chang-to‘zonga qopla. Kuching yetsa, shu dunyoni supurgiday supurib tashla-chi, men bir ko‘ray. Ey, shamol! Kuching yetsa, shu yer-u zaminni, butun sayyorani ko‘tarib tashla, gunohkor dunyodan qutulsin olam. Haha — kuchay, kuchayaver!..

Shamol kuchayib, odamning boshidagi tojni uchirib yuboradi. Odam tojni quvadi, yiqiladi.

Odam — Ey telba shamol, to‘xta. Kuching yetsa, xazon yaprog‘i yanglig‘ meni ham uchirib tashla. Tojim qani?! Tojimni ko‘rdinglarmi? Tojim qani? Ey shamol, uchir meni ham, uchir!..

Mungli musiqa. Shamol tinadi. Sahna yorishadi.

Ichkaridan qariya onasini yelkasida ko'targan Ko'lanka chiqadi.

U kimdandir qochib kelayotganday sarosimada atrofga alanglaydi.

Onasini yerga o'tqazib, o'zi yana alanglaydi.

Yerda yotgan Odamga ko'zi tushadi.

Ko'lanka — Ey, kimsan?

Odam — *(Boshini ko'tarib)* Menmi? Men — podshoman.

Ko'lanka — Podsho? Sen-a?!

Odam — Nima, o'xshamaymanm? Yoki sen o'xshata olmayapsanmi?

Ko'lanka — Yo tavba, yerda yotganning hammasi men podshoman deyaversa, hayron bo'larkansan. Mayli, seni podshosan deylik, unda boshingda tojing qani?

Odam — Tojimni hozirgina shamol uchirib ketdi. Quvib yeta olmadim. Shamolni ko'rding-ku?!

Ko'lanka — Shamolni aytmasang ham ko'rib turibman. Menga qara, miyamni qo'p achitmay yo'qol bu yerdan. Yaxshilikcha yo'qolmasang, adabingni beraman.

Odam — Hey galvars. Sen kim podsho-yu, kim podsho emasligini ajrata olmaysanmi?

Ko'lanka — E tavba, manavi yalangoyoqning gapini qara. Tek qo'ysam, men mashoyixman, men avliyoman, men jon olguvchi farishtaman, deydi. Bu yerdan tez yo'qolmasang, orqa bo'yningni oldingga burab qo'yaman. Hozir podshoning o'zi kelib, mana bu kampirlarni Makkaga olib ketadi.

Bu tortishuvga quloq tutgan kampir jonlanadi.

Kampir — Bolam, Makkaga oz qoldimi?

Ko'lanka — Oz qoldi. Biroz sabr qil. Podsho kelsin.

Odam — Podsho menman. Tanimayapsanmi?

Kampir — Rostdan ham ovozi tanish.

Kampirning boshida elechek, qo'lida tayoqcha.

Ko'lanka bir chetga o'tib, tahorat ushatadi.

Ko'lanka — Podshoman deydi, Xudo bezori. Boshida toji yo'g'-u. Bu sizlarni qanday qilib Makkaga olib borsin.

Kampir — Makkaga oz qoldimi ishqilib? Chivinday jonim qoldi. Chidab bersa, Makkaga yetib borsam, tavof qilib jon bersam...

Ko'lanka — Makka... Makka deydi... Makka u yoqda tursin, bu kampirlarning murdasini qo'ygani joy topolmay turibmiz-u... Makka emish... Podshomiz taxtga o'tirarda hammangizni Makkaga o'zim olib boraman, deb va'da bergan ekan. O'shandan beri bu kampirlarning o'lgisi yo'q. Bari Makkada jon berishga ilhaq. E, shu yerlarda chirib o'lavermaysanlarmi. Podsho ham gangib, qayoqdagi va'dalarni berib... Boshimizni tashvishga soldi.

Odam — Men o'sha podshoman. Sen menga ishonmayapsanmi? Makkaga olib boraman, deb va'da bergan o'sha podsho menman, men!

Ko'lanka — O'sha va'dani podsho bergandan ko'ra, sen bersang yaxshiydi. Mana bu achigan kampirni senga topshirib qo'yib ketaverardim.

Ko'lanka asta yurib, qorong'ilik qa'riga kirib ketadi.

Onasini ko'tarib olgan yana bir Ko'lanka kiradi.

Onasini kampirning yoniga tashlab, Ko'lanka g'oyib bo'ladi.

Yana qolgan besh Ko'lanka ham shunday qiladi.

Sahnada yolg'iz qolgan kampirlar sarosimada.

— O'g'lim, qaydasan?

— O'g'lim!

— O'g'ilginam!

— Bolam, qaydasan?!

— O'g'lim...

Kampirlar nolasi kuchayib, butun olamni tutadi.

Ular asta sudralib kelib, Odamning oyoq-qo'llarini silashadi. Farzandlariga o'xshata olmay nari ketishadi.

Birinchi kampir — Oyoqlari qisqa, tovoni yumshoq. Bu odam mening bolamga o'xshamaydi. Yo'q-yo'q, nari tur.

Ikkinchi kampir — Nima deding? Oyoqlari qisqa, tovoni yumshoq?! Bu mening o'g'lim-ku! *(Kampir Odamni chaqirib, oyoqlarini silaydi)* Chap oyog'ingni ber-chi, o'g'limning chap oyog'ida, barmog'ida qadog'i bor edi. Shu chap oyog'ingmi? Yo'q-yo'q... Bu mening o'g'lim emas. Uning oyog'ida qadog'i, xoli bor edi.

Uchinchi kampir — Qanisan, ey Odam? Beriroq kel-chi, balki mening o'g'limdirsan? *(Kampir Odamni siypalab, cho'chib ketadi)* Sen kimsan? Ayt, kimsan?

Birinchi kampir — Men podshoman, deb maqtangan kimsa — shu-da. Bu qaqragan biyobonda podshoga pishirib qo'yibdimi?

Uchinchi kampir — Podsho emish... Voy, Xudoyimey. Qo'llarimga ishonmayman.

Hey, podsho bo'lsang, boshingda tirtig'ing bormidi? *(Odamning boshini silab)* Mana, mana, panjalarim sezayapti. Menga tanish tirtiqlar. Seni taxtga o'tqazib, odamlar boshingga toj kiydirganda, toj tor kelib, boshingni tilib ketgan. Buni o'zing aytib berganding-a, ulug'im? Sen chindan ham podshosan. Men allaqachon ovozingdan taniganman.

Odam — Kechirasiz. Men sizni mutlaqo tanimas ekanman.

Uchinchi kampir — Podsho dėgani fuqarolarning hammasini tanishi shart emas.

Odam — Mening ham podsho bo'lay, deb ko'zim uchib turmagan. Buni hamma biladi. Ochig'i, men ham boshqalarga o'xshab yolg'on va'dalar beraverdim. Hammangizni Makkaga olib boraman, gunohlardan forig' bo'lasizlar, deganman. Bu yolg'on, omonat dunyoda gunohkor odam shu qadar ko'pligini qayoqdan bilay. O'sha va'dalarim asalga o'ralgan og'uday bo'ldi. Mana, oqibat. O'zimning ham ko'zimga qora latta bog'lab, kimsasiz biyobonga olib kelib tashlashdi. Yolg'on va'dalarimning kasofati urdi. Mana, u taraf ham qum, bu taraf ham qum, yaydoq cho'l. Quzg'undan boshqa hukmron yo'q bu yerda. Qanday qilib tojim qo'limda qoldi, bilmayman. Osmon to'la quzg'unlar quyuni yopirilganda, boshimga tojimni kiyib olaman. Bevafo oltin tojga quzg'unlar ham qo'nmas ekan. Endi bo'lsa, tojimni shamol uchirib ketdi. Qayoqqa uchdi, bilmayman.

Uchinchi kampir — *(Odamning boshini silab)* Mana, barmoqlarim sezyapti. Boshingdagi mana bu jarohatlar o'sha savil tor tojdan qolgan. Tojni dastlab kiyganingdayoq, uning seniki emasligini, boshingni tilib ketganini payqaganmiz. Bu yaxshilikka emas, deb yuragimiz jiz etgan.

Odam — Sen meni shunchalik yaxshi bilar ekansan. Kimsan o'zing?

Uchinchi kampir — Menmi? *(Kampir o'rnidan turadi. Unda ichki g'ayrat jo'sh urgani seziladi)* Bilasanmi, sen ham, men ham bir vaqtlar dovrug'i ko'kka taralgan aktyorlar edik. Yodingdami, sen — Romeo, men — Juletta edik. O'sha kunlarimizdan kichik epizod.

Juletta (Kampir) — Qorong'ida sirlarimdan voqif bo'lib turgan kim?

Romeo (Odam) —*Botinib, o'z ismimni aytolmayman.*
Seni deb nafrat-la uloqtirdim.
Qog'ozda ko'rdim-u, o'z ismimni,
Ontim deb o'qimay, yirtib soldim.

Juletta — *O'n bora uchrashib so'ylashganday,*
Tanish, totli uningiz,
Romeomi? Montekkimi? Siz kimsiz?

Romeo — *Hech kim emasman.*
Ismimni aytish man etilgan.

Juletta — *Bu yerga qanday kelding, nega kelding?*
Qo'l yetmas to'siqlardan qanday o'tding?
Mabodo otam, onam sezib qolsa,
Jonginam, shamchirog'im, unda o'lding.

Romeo — *Oshiqlik bu dargohning yo'lin topdi,*
Oshiqlarni hech darvoza to'sa olmas.
Ota-onang ne qilarin o'zi bilsin,
Sevgida mashaqqatlar son-sanoqsiz.

Juletta — *Seni ko'rib qolishsa, o'ldirishadi.*

Romeo — *Yigirma hanjar ursa, ko'zing qalqon,*
Rahm aylagil, peshtoqdan nigoh tashla.
Bir nigohing zulmni etar talqon.

(Odam Romeo obrazidan chiqib, o'z holiga qaytadi).

Odam — Kechir... Kechir... Endi tanidim seni. Ikkalamiz teatrda qancha-qancha rollarni o'ynaganmiz. Xon saroyiga kelgan odam o'tmishini ham, bugunini ham unutar ekan. Ish ko'p. Ish... Ish... Ish sochim tolasidan ham ko'p. Men odamlarning shu qadar anqovligini bilmagan ekanman. "Hammangizni Makkaga olib boraman. Gunohlardan forig' bo'lasizlar", — deb qo'yganimni bilaman, shartta olib kelib taxtga o'tqazib qo'yishdi... bu el aqllimi,

anqovmi tushunmay qoldim. O'zlari meni taxtga o'tqazib, yana o'zlari menga qulluq qilib, tiz cho'kishdi. Men dastlab ishonmadim, bu o'ngim emas, tushim, deb o'yladim. Balki bu teatrmi, dedim. Men bir aljigan podsho rolini o'ynayapman, deganman. Aljimasam, elga qarab, gunohlaringdan forig' qilaman, deya va'da berarmidim?

Undan ko'ra, sizlarni jannatga olib boraman, desam ham ishonishlari aniq edi. Xaloyiq, men sizlarni jannatga olib boraman, u yerda shohona hayot kechirasizlar, u yerda hamma narsa bepul — pul ham, boylik ham, xotin ham, boringki butun dunyo tekin. Pul degani umuman bo'lmaydi. Odamlar bir-birini sevadi, izzat-hurmat qiladi, birovni birov kamsitmaydi. Ulug' odam, kichik odam degan tushuncha yo'q bo'ladi. Bizlarni yaratgan Alloh qanday sevsa, biz ham bir-birimizni shunday sevamiz... Ha, shularni va'da qilsam bo'larkan. Esiz-esiz, men ularni aldadim, qo'limdan kelmaydigan ishni va'da qildim. Gunohlardan forig' qilaman, dedim. Hamma ishondi... ishondi. Men qayoqdagi podshoman. Men ham oddiy odamlarday sho'rpeshona oddiy bandaman. Osiy bo'lmasam, es-aqlimni yo'qotarmidim. Umr bo'yi teatrda menga partner bo'lgan eng sevimli aktrisamni unutarmidim. Yo'q, meni batamom unutgan ekan, deb o'ylama. Seni tez-tez eslab yurdim. Eslashdan boshqa ilojim ham yo'q edi. Sen nomdor eding, mashhur eding. Ha, artistlarni bilasan, ozgina maqtab, peshonasini silab qo'ysang bas, menga unvon beringlar, uy beringlar, orden beringlar, deyishni boshlaydi. Sen esa berilganki rolni o'ynayverding, biron narsa so'ramading, o'sha narsa o'zi keldi.

Uchinchi kampir — Bu yoqlarga seni kim olib keldi?

Odam — Kim olib kelardi, shamol.

Uchinchi kampir — Shamol?

Odam — Ha, ha. Shamol meni qurib, chirigan chiviqday uchirib olib keldi. Yo tavba, Tangrim buyrug'i: shamol eng avval boshimdagi tojni uchirdi. Men uni ushlayman deb quvib keldim. Ko'zimni ochsam shu qaqragan cho'lda yotibman.

Uchinchi kampir — Bu yer nima deb ataladi?

Odam — Kiraverishdagi yozuvni o'qimadingmi?

Uchinchi kampir — Yo'q. Nima deb yozilgan?

Odam — Buyuk insonlarning murdaxonasi, deb yozilgan.

Uchinchi kampir — Yo tavba, og'zingdan shamol olsin.

Odam — Ho-ho-ho... Cho'chib ketdingmi?

Uchinchi kampir — Quloqqa xunuk eshitilarkan.

Odam — Sening quruq va'dalaring bilan sen o'likxonada ishlashing kerak, deyishgan shekilli, toj-pojim bilan shu yerga olib kelib tashlashdi.

Uchinchi kampir — Teatrda sen o'ynagan podsho ham aljiragan podsho edi. Hayotda ham sen aljiragan podsho bo'libsan. Ha, mayli, podsho nima bo'lsa bo'lar, Ayt-chi, men qanday o'ynash edim?

Odam — Ha...

Uchinchi kampir — Yomon odam yaxshi o'ynash bo'la olmaydi. O'ynash masalasida senga teng keladigani yo'q edi. Esingdami, sening o'ynashing, deb, meni katta majlisda muhokama qilishgan. O'shanda aytganman, meni boshqaringlar, jazolanglar, tanqid qilinglar, ammo mening his-tuyg'ularim bilan o'ynashmanglar, deganman.

Odam — Esimda... Sen juda alomat eding.

Uchinchi kampir — Meni, podshoning o'ynashi, deb gazetaga ham yozishgan.

(Odamga qarab) Hey, sen bu yerda nima qilib ivirsib yuribsan? U yoqda sening taxtingni talashib qizil qirg'in bo'layapti-ku?!

Odam — Talashsa-talashaversin, baribir toj menda. Bu yerda nima qilib yuribsan dedingmi? Murdaxonaga tushganlarning miyasini yuvaman. Hozir endi sening ham miyangni yuvishga to'g'ri keladi.

Uchinchi kampir — Mening miyamni podshoning o'zi yuvgan desam, to'g'ri jannatga kiritishsa kerak a?

Odam — Bunisini bilmayman. O'zim-chi, o'zim. Qayoqdan ham yolg'on va'dalar bera qoldim. Tilim qursin. Bilasanmi, ozodlikni, erkinlikni shunday sog'indim-ki... Tongda huv maysazorga chiqib, yalangoyoq yugurgim keladi... podsho bo'lsam ham dunyo tor, qolaversa boshimdagi tojim tor, bari tor. Tor dunyoga katta yurak sig'mas ekan. Esiz Shekspir! "Butkul olam — teatr!" deb bejiz aytmagan ekan. Hammamiz — men ham, sen ham, toji

bormi-yo'qmi, podshoying ham artist. Odam borki, bari artist. Hayot degan dramaning qatnashuvchilarimiz biz. Agar bu dunyo, shu hayotimiz teatr sahnasida o'tsa edi, barchamiz o'zimiz xohlagan rolni o'ynar edik.

Uchinchi kampir — Unda men o'zimni o'zim o'ynar edim.

Odam — Men ham bunchalik aljiramasam kerak edi. Hokimiyatga keldingmi, aljirashga majbur ekansan. Ha-ha! Buyuk aktyorlarning barchasi hokimiyat hovlisida. Men o'sha hovlining devorini oqqa bo'yadim. Ular bo'lsa, tuni bilan qoraga bo'yashadi. Ular kimlar deysanmi? Atrofimdagi xushomadgo'ylar. Ular menga, siz uni-buni qilaman, deb ovora bo'lmang, quruq va'dalar berib, gunohdan forig' bo'lasizlar, deb tursangiz bo'ldi, qolgan ishni o'zimiz boplaymiz, deyishgan.

Ichkaridan Birinchi Ko'lanka chiqadi. Indamay har bir kampirgasasigan go'sht tarqatadi va chiqib ketadi.

Birinchi kampir — Bu qanaqa hid? Sasigan go'shtmi?

Ikkinchi kampir — Qo'lansa bo'lib ketibdi.

Uchinchi kampir — Bu qayoqdan keldi? Sasigan go'sht.

— Ko'nglim aynib ketdi.

— O'g'lim!

— Bolaginam!

— Quzg'unlarmi? Quzg'unlar.

Quzg'unlar ovozi eshitiladi.

Birinchi kampir — Nima balo, quzg'unlarmi? Qayoqdan kelishdi?

Ikkinchi kampir — Bolaginam, qarog'im, quzg'unlarni hayda!

Quzg'unlar ovozi kuchayadi.
Ular sasigan go'shtlarga qo'nadi.
Odam kisht-kisht, deb haydaydi.
Quzg'unlar beparvo yeyaveradi.

Odam — Bularni qara, bular ham meni mensimayaptimi. Ey, quzg'unlar, senlar ham menga quloq solmaysanmi? Men "ogorod" qo'rigan qo'riqchi emasman. Men podshoman. (Quzg'un Odamni cho'qib ketadi) Kisht! Mana senga, mana senga! Quzg'unlar ham mening vazirlarimga o'xshash. Xuddi vazirlarimday meni cho'qi-

shadi-ya...

Birinchi kampir — *(Qo'lidagi tayoqchani ko'taradi)* Kisht-kisht.

Quzg'unlar kampirga tashlanadi.

Odam — Kisht-kisht! Ey, sasigan go'shtga tashlangan quzg'unlar, kisht!

Odam asta borib o'z o'rniga o'tiradi. U qirol Lir obraziga kiradi.

Odam — *Men Qirol Lirman.*
Uvla, shamol, kuchliroq uvla.
Quyun, qutur, borliqni qopla.
Hech kimni ayama, uchir barini.
Izg'irin kuchayib, yuzlarni ushut.
Yomg'ir, sel tirqirab oqsin,
Borliq to'lib-toshsin to'fonga, selga.
Cherkovlar-u, xon saroylari
Suv ostiga g'arq bo'lishsin, g'arq.
Daraxtlarni shart burdalagan
Yashin tushib kuydirsin barin.
Soqolimni qo'shib yondirgin,
Qarigan boshimni jizg'anak ayla.
Chaqmoq chaqilib, ko'kni tilkala.
But olamga yoygil dahshating.
Mehrini yo'qotgan avlodlarni qir!
Izlaring quritgil, kulini sovur.
Qiyomat, oxirat kela qolgin-da,
Bu buzg'un dunyoni kuydirib tashla.
Odam hayajonga berilib, jazavaga tushadi.
Bu buz-g'un dun-yo-ni kuy-di-rib tash-la...

Sukunat. Olisdan yengil musiqa uqiladi.
Ko'ylakchan qiz raqsga tushadi.
Yerda yotgan kampirlarning oq elecheklarini yig'adi.
Qizning ko'lankasi ham raqsga tushadi. Musiqa kuchayadi.
Sahnada bolalari tashlab ketgan kampirlar paydo bo'ladi.
Ularning sochlari yoyilgan, bo'yinlariga qandaydir odamning suratlari osilgan.

Suratlar Odamga o'xshash.
Kampirlar Odamning atrofida aylanishadi.
Odamning qo'lida ko'zgu.
Odam ko'zguni kampirlarning og'ziga taqaydi.
Ko'zguga uch kampir keladi.

Odam — Pufla! *(Kampir puflaydi)* Pufla!

Uchinchi kampir — Pufladim. Nafas yo'q. Mening jonim allaqachon uchib chiqib ketgan. Meni tezroq ko'mib qo'yinglar.

Odam — *(Ko'zguni artib)* Chindan ham nafas olmayapti. Tanani yerga berish kerak. Sen umr bo'yi teatrda mening partnyorim bo'lib kelding. Ikkalamiz qanday zo'r rollarni o'ynadik. Hamon eslayman. Sen-chi? Sen ham eslarsan? Nega jimsan? *(Kampirning yuzlarini silab)* O'sha go'zalliging izlari yo'qolmabdi. Qara, ko'zlaring, sochlaring, qoshlaring... Hammasi menga tanish. Boldirlaringni ko'rib, qancha yigitlar oshiq bo'lganmiz. Qani o'sha go'zallik, tuyg'ular? Endi yo'-o'q!

Men bu murdaxonada ulug' odamlarning tanasini yuvaman, desam kulgan eding. Ertaroq kulgan ekansan... Endi sening tanangni yuvishga majburman.

Eh, ulug' aktrisa, qani endi o'sha sochingning har tolasiga yopishgan muxlislaring, qani endi seni bir ko'rsam, deb visolingga intizor oshiqlaring? Qani endi tizzanggacha gullar to'shab, bosgan yo'lingga gilam solgan o'ynashlaring, ey ulug' aktrisa! Barchasini kimga tashlading? Allaqachon ruhing uchib ketdi, ammo murdangni yuvadigan odam yo'q. Boyagina sen mazax qilganing — sening podshoing sening murdangni yuvaman, deb turibman-a... Seni men tanimasam, boshqa hech kim tanimaydi. Murdangga ham birov qaramaydi. Yana biz bu yolg'on dunyodan haqiqat izlaymiz. Haqiqat qani? Izlayveramiz-izlayveramiz, topolmaymiz. Asli haqiqat bizning haqiqatni izlaymiz, degan so'zimizda, xolos. Uni ko'rgan ham, bilgan ham, sezgan ham biror jonzot yo'q. Odamning qadr-qimmati pol yuvg'ich lattachalik ham emas ekan.

Mana men — podshoman. Meni kim izlayapti-yu, kim so'rayapti? Hech kim... hech kim... podshoni emas, podshoning oltin tojini izlashadi.

Seni ham hech kim izlagani yo‘q. Sening bu yolg‘on, omonat dunyodan bezib, bu yerlarda tentirab yurganing kimlarningdir chirog‘iga moy tomizsa, sening shuhratingdan uyqusini yo‘qotganlarni pichoqsiz bo‘g‘izlab turgandir.

Eh, ulug‘ aktrisa, bir vaqtlar rol tanlar eding. Eng zarur rolni berishsa ham noz qilar eding. Endi-chi...

Sukunat. Uchinchi kampir ohista shivirlaydi.

Mayin musiqa.

Uchinchi kampir — Tush ko‘rdim.
Maysazorda ikkalamiz o‘t-o‘langa ko‘milib yotarmishmiz
Qo‘llarimiz chirmashib bo‘yinlarga,
Muhabbat lazzatiga botarmishmiz.
Ko‘k osmon yaqin kelib ustimizga
Yulduzli to‘shak bo‘lib yopilibdi.
Miltillab, nurlarin bizga sochib,
Yulduzlar og‘ushiga olishganmish.
Shu onda qora kiygan kimsa kelib,
Bandalar borar joyga tortar emish.
Yulduzlar uchib... uchib...

(Oxirgi ikki misrada kampirning ovozi ko‘tariladi.Kampir ikki qulog‘ini bekitib, yiqiladi)

Yulduzlar... Yulduzlar...

Kampirlar — *(Hammasi)* Yig‘langlar, mehribonlar, yig‘-langlar. Suyanchig‘imizdan ayrildik. Endi qanday yashaymiz? Yig‘langlar-yig‘langlar...

Odam — *(Hayron)* Kimdan ayrildik? Kimdan? *(Kampirlarning bo‘ynidagi suratni ko‘rib cho‘chiydi)* Bu menman-ku?! Men!. Ey, aljigan, gangiragan kampirlar, meni tanimayapsizlarmi? Bu suratdagi menman. Tanimayapsizlarmi? Sen-chi, mening ulug‘ aktrisam. Sen ham mening suratimni bo‘yningga ilib olibsan.

Kampirlar davra qurib aylanadi. Kampirlarni cho‘lga tashlab ketgan Ko‘lankalar paydo bo‘ladi. Ularning biri baxshiga aylanib, kuylab, raqsga tushadi. G‘ayritabiiy harakatlar. Baxshi hassasini yerga urib, unga quloq tutadi. Jinlarni chaqirib, avliyolar, deb qichqiradi.

BIRINCHI PLAN

Sahna oldiga Odam bilan Uchinchi kampir keladi.

Ko'lanka Odamning ham. Kampirning ham ko'ziga qora latta bog'laydi.

Odam — Ey Xudoyim, yana yashagim kelayapti. O'zing rahm ayla. Ojiz bandangman. Ko'zimni och. Ko'zimni nega bog'lading? Halol yashadimmi, harom yashadimmi — barchasi o'zingga ma'lum. Karaming keng-ku, nega men uchun tor qilding?

Kampir — Ko'zimni bog'lagan lattangni yech. Quyoshning bir qatra bo'lsa hamnurini ko'ray. Mening ham shunchalik yashagim kelayapti-ki...

Odam — Odam o'zi shunday tinib-tinchimas jonzot ekan. Ish deb, tirikchilik deb, ne ko'ylarga tushmas ekan. Adolatli bo'lishga, chinakam odam bo'lishga men ham intildim, tirishdim, biroq... Biroq, holim yetmadi. Sendan nega yashiray, odamlarning barchasini poklayman, gunohdan forig' qilaman, deb yanglishibman. Gunohni kechirish Allohdan ekan. Allohning ishiga aralashib, adashganim uchun qusuri urib, mana endi kimsasiz cho'lu biyobonda sargardonman. Tojim ham yo'q, taxtim ham yo'q. Teatrda ham, hayotda ham durustroq podsho bo'la olmadim. Teatrda ham, hayotda ham soxta, yolg'on podsho degan nom oldim. Bu cho'l hech kimga keragi yo'q odamlarning cho'li ekan.

(Qo'liga qum olib gapiradi)

Buni qara, qanchadan—qancha odamlarning suyagi qumga singib ketgan. Har bir qum donasi go'yo keragi yo'q odamday. Orasida oltinning kukuniday yaltiroqlari ham bor. Puflasa, tutunday uchib ketadiganlari ham bor. Har bir qum — odam taqdiri. Qumga aylangan odam taqdiri. Qumga aylangan odam taqdiri qaqragan cho'lga to'kilgan tomchiday nom-nishonsiz. Balki men ham qumga to'kilgan tomchiga ham loyiq emas odamdirman. Meni ham... hech bo'lmasa podshoni ham hech kim izlab kelmadi.

Kampir — Esimda, bir kuni ko'chada ketayotgan edim. Qo'limda menga so'nggi bora ishonib berishgan pyesa bor edi. U pyesa buyuk Aktrisa haqida edi. Pyesa, umuman menga yoqdi. Ammo, final — xotimasi yoqmadi. Sho'rlik aktrisaning murdasi

o'n kun o'likxonada qolib ketgani... Uni hech kim tanimay qolgani... Uning yonida murdasi yuvilmay qolgan sevgan yori. Ular sahnada ham, hayotda ham bir-birini sevar edi Sevgan yori buyuk Aktrisaga bo'lgan ulkan muhabbati tufayli jinni bo'lib qolgan edi. Ko'p yillar Chimqo'rg'onda yashagan. O'zini doimo podsho deb hisoblardi. Eski mis tovoqni boshiga toj qilib kiyib olar edi. Biri sevgidan jinni bo'ldi, biri murdaxonada qoldi. Qanday ayanchli xotima. Shuning uchun ham pyesa menga yoqmadi. Nomi ham xunuk: "Buyuk odamlarning murdaxonasi". Shu ham nommi?

Odam — Tavba, bir kun hokimiyatning qil uchiga chiqib, bir kunda kimsasiz xiyobonda qoldimmi? Bu tush... Tush...

IKKINCHI PL AN

Ko'lanka-Baxshi — Yig'langlar! Yig'langlar! Mehribonimizdan ayrildik.

Puf!

(Baxshi yerdagi o'tni puflab, alanga oldiradi.

Yana raqsga tushadi. Raqsdan charchab yerga yotib qoladi va asta boshini ko'taradi)

Ko'lanka-Baxshi — Azizi Misr o'ldi. Yig'lang, Azizi Misr o'ldi...(Cho'kkalab,oyga qarab shivirlaydi) Azizi Misr o'ldi! Azizi Misr o'lgach, Zulayxo borliq mol-mulkini hazrat Yusuf yo'lida sarflab, kambag'allikka uchradi. Hazrat Yusufni ko'ra olmadi. Orzusiga yetmadi. Hazrat Yusuf firoqida ikki ko'zi xiralashdi. Ochlikda ham: "Oh, hazrat Yusuf", — derdi, tashnalikda ham. Horisa ham: "Oh, hazrat Yusuf", — derdi...

Kunlarning birida hazrat Yusuf ovga otlandi. Zulayxo uning tovushini eshitdi. Yolg'iz xizmatkoriga qarab dedi:

Zulayxoning ovozi — Meni hazrat Yusuf yo'liga olib bor... (Hizmatkor va Zulayxo yo'lga chiqishadi)

Baxshi — Hazrat Yusuf yaqinlashganda, Zulayxo qo'lidagi asoga suyanib, aytdi:

Zulayxoning ovozi — Alloh Taologa behad hamd-u sanolar bo'lsin! Dili pok qulini ulug' martabaga doxil etib, podsho qilur, kufr qilib, naffsi yo'liga kirgan podshoni qul qilur...

Baxshi — Ammo, otlar dupuridan hazrat Yusuf Zulayxoning so'zlarini eshitmadi. Alloh Taolo shamolga amr qildi: "Zulayxoning ovozini Yusufga yetkiz!" O'sha zahoti hazrati Yusuf Zulayxoning ovozini eshitdi va otni to'xtatdi.

Hazrati Yusufning ovozi — O, Zulayxo...

Baxshi — Zulayxo hazrat Yusufning ovozini eshitdi-yu, oh urib yiqildi. Hazrat Yusuning rahmi keldi, dedi: "Gulgun yoshliging qani? Husni jamoling qani?

Baxshi — Zulayxo dedi:

Zulayxoning ovozi — Sening ishqingda kuyib kul bo'ldim.

Baxshi — Hazrat Yusuf dedi.

Hazrati Yusufning ovozi — Ko'rar ko'zlaring qani?

Baxshi — Hazrati Yusuf dedi.

Hazrati Yusuning ovozi — Hozirgi tilaging nedir?

Baxshi — Zulayxo aytdi.

Zulayxoning ovozi — Sening jamoling.

Baxshi — Hazrat Yusuf dedi.

Hazrati Yusufning ovozi — Boyliging meni deb sovuril-di. Ko'zlaring yig'lab-yig'lab ojiz bo'ldi. Muhabbating olovini so'ndirdim. Yana sendan olar nimam qoldi? Yuragingni yanchib g'alvir qildim-ku, yana meni tilga olasanmi? Meni deb sen yetmagan qanday azoblar qoldi? Nega meni bokira qalbingdan sug'urib tashlamaysan?

Baxshi — Zulayxo dedi.

Zulayxoning ovozi — Ismingni yerga yozsam, yer ko'tara olmas, osmonga yozay desam, siyoh yetmaydi. Sen dilimdasan, qalbimning to'ridasan. Hech bir insonga, hatto buyuklarga ham odamlar ongiga qo'l solish huquqi berilgan emas.

Baxshi — Hazrat Yusuf dedi.

Hazrati Yusufning ovozi — Odam o'limga mahkum, ammo uning ongi, xotirasi mangu... Shu sababdan ham aktrisa jon berdi.

Baxshi — Yig'langlar! Yig'langlar! Mehribonimizdan ayrildik. Suf!

Baxshi yer tepkilab, avvalgi raqsini davom ettiradi.
Bo'yniga Odamning suratini ilib olgan kampirlar ham,
yig'langlar, yig'langlar, deb turishadi.
Ko'lankalar, kampirlar har joyga o'tirib qolishadi.

Yana G'oyib qiz paydo bo'ladi. Qo'lida skripka. Mungli musiqa taraladi. Baxshi G'oyib qizning beliga o'ralgan uzun elechekni yechib, ikki Ko'lanka va ikki kampirga tutqazadi. Ular elechekni yoyib, boshlariga soyabon qilgan holda davra qurib aylanishadi. Davraga hamma qo'shiladi. Go'yo soyabon osmon ostida butun dunyo aylanayotgandek. Musiqa kuchayadi. Soyabon o'rtasida Aktrisa va Podsho.

Aktrisa — Bandalarning borar joyi bir. Men bugun olis safarga otlandim. Bu dunyoda ko'p ishlarning guvohi bo'ldim. Ko'rmaganlarimni ko'rdim. Endi bu sho'rlik boshim oxirat uchun tayyor. Endi murdamni poklab yuvishsa, yaqinlarim, do'stlarim, tug'ishganlarim mayitimni shu yerdan ko'tarib chiqib, el-yurtga ma'lum qilishsa: "Ey behisob xaloyiqning bir uchi, uq, bir kunmas bir kun ko'z yumuvchi ellar, uq, ulug' Aktrisa vafot etdi. Yig'lamanglar! Undan ko'ra bu yolg'on dunyodagi omonat hayotning dahshatli fojeasini o'ynagan Aktrisaga gulduros qarsak chalinglar. Ofarin, deb qichqiringlar. Oyog'imga gullar kelib tushsin! Endi mening oyoqlarimni atirgulning tikonlari ham tirnay olmaydi. Ustimga barqut choyshabni yopmanglar. Men — Aktrisa sizlarning ovozingizni eshitay, o'tli nigohlaringizni ko'ray. Ey, mening hasadgo'ylarim, oldimdan kulib, ortimdan tuhmat, bo'hton, g'araz, fasod urug'larini sochib yurgan kushandalarim, sizlar ham bugun menga o'limim oldida tik qaranglar! Sizlar meni yengdinglar... Ammo, porloq xotiramni yenga olmaysizlar. Ko'ksimdagi mushtumday parcha et — yurak yorug' dunyoning yorug'ini lahza bo'lsa ham uzartsam, deb tipirchilaydi. Ammo, u dunyoga men inshaalloh poklaniyu ketayapman. Yuragim nimagadir ilhaqday urishdan to'xtay olmayapti. Ko'zlarim qorong'ilashyapti. Badanim muzlab bormoqda. Og'zim qurib, nafasim bo'g'ilyapti. But olamga jar solinglar, ulug' Aktrisa ham o'ldi, denglar! O'ldi degan sayin men tirilaman. Men mangulikka daxldorman. Jar solinglar, ulug' Aktrisa ham o'ldi, denglar...

Odam — *(Soyabon ichida aylanib, so'nggi nafasi bilan)*

Almisoqdan yechilmaydi buyuk talash,
Taxt talash, amal talash, boylik talash.
Bu dunyoning haqiqati — talash-talash,

Jon talash, yorni talash, yerni talash.
Shu talashlar girdobida yayrab-yayrab,
Shox-muguzli shayton o'ynar, Iblis o'ynar.
Binobarin, bu talashning boshi ham yo'q, oxiri ham yo'q!
Soyabon aylanaveradi. Odam bor ovozi bilan qichqiradi.
Odam — Topdim!
Odam tojni baland ko'taradi. Hamma unga intiladi.
G'oyib qizning skripkasi sinadi, torlari uziladi.
Hamma aylanib, soyabon ostiga yiqiladi.
Osmon yorishib, yoz manzarasi ko'rinadi.
O'rtaga, avanssenaga irg'itilgan toj kelib tushadi.
Tojga yorug' nur tushadi.

Tamom.

JOLDOSHBAY OSMONOV

YARADOR OHU

Buvim meni ko'rishga intizor bo'lib, juda sog'ingan ekan, yaylovga kelganimdan rosayam quvondi va darhol dasturxon yozib, uni yaylovning qimiz, qaymoq, pishloq kabi noz-ne'matlari bilan to'ldirdi. Biz buvim bilan choy ichib, suhbatlashib o'tirgan edik, qo'lida qamchi bilan bobom kirib keldi. Bobom bilan ko'rishgani o'rnimdan dast turdim.

— E-e, mening azamatim kelibdi-ku, qaranglar, mening o'g'lim kap-katta yigit bo'libdi. Kel, bolam, bir bag'rimga bosib, hidingga to'yib, sog'inchimni aritayin, — deya bobom meni quchoqlab bag'riga oldi. Bobomdan xushbo'y tog' gullarining, qimiz, qolaversa, yilqi jonivorning hidlari taralardi.

Men ham bobom va buvimni juda sog'inib, ularni ko'rgani atayin yaylovga kelganman. Otam va oyim berib yuborgan sovg'a-salomlarni so'rash xayollariga ham kelmay, faqat mening kelganimga behad quvonishib, nuqul ota-onam, qarindosh-urug'lar, og'a-inilarining nomlarini birma-bir aytib, hol-ahvollari qanday ekanligini so'rashardi. Ko'ngillari taskin topgach, Ashim bobom Asilkan buvimga qarab:

— Xoy kampir, anavi ohuning sog'ayib ketadigan ahvoli bormi? — dedi.

— Kechagidan ancha yaxshi, suv icha boshladi. Ammo xashak tashlasam qaragisi kelmayapti, — javob berdi buvim.

— Bobo, qanaqa ohu haqida gapiryapsizlar? — so'radim men bir tomoni hayratlanib, ikkinchidan, gap nima haqdaligini yaxshi tushunmay.

— E-e o'g'lim, bu alohida bir voqea, qiziqsang aytib beraman, — bobom yostiqqa suyanib yonboshlar ekan, hikoyasini davom ettirdi. — Bir hafta muqaddam biz har doim qo'nib o'rgangan Qorajayiq yaylovida pastki qishloqdan kelgan Jusup degan kishi

paydo bo'ldi. U menga birinchi uchrashuvdayoq yoqmagan. Eski qalpoqni boshining bir tomoniga qiyshaytirib kiygan, yelkasiga miltig'ini osgan, qirq yoshlar atrofidagi chehrasi zahil sariq kishi ekan.

U kelgan kunidan yaylovda miltiq ovozi tinmadi, yovvoyi jonivorlarning tinchi buzildi. Jusup bir kuni menga yo'liqib:

— Ey oqsoqol, ohular qaysi tomonda ko'proq uchraydi? — deb so'radi.

— Bolam, hozir ohu otadigan zamon emas, ular himoyaga olingan, ularni otish mumkin emas, — dedim. U esa gaplarimdan norozi bo'lganday, tishlari orasidan chirt etib tupurib, yoqtirmaganday ketib qoldi.

O'sha kuni yilqilarni o'tloqdan haydab kelayotsam, to'satdan hammasi xurkib ketishdi, quloqlarini ding qilib, oyoqlari bilan yerni tepkilab, pishqirib, archalar qalin o'sgan tomonga qarab turib qolishdi. Nima bo'ldi, ekan degan o'yda otdan tushib o'sha tomonga borsam, bir yosh ohu qonga belangan, holsiz yotibdi. U meni ko'rib cho'chib o'rnidan turib, qochishga harakat qildi, ammo holi yetmadi.

Qarasam, o'ng soniga o'q tegibdi. Uni qo'nog'imizga olib keldim va mol do'xtir Samatni chaqirtirib, oyog'ini ehtiyotlab dorilab bog'lab qo'yganmiz. Kecha ahvoli ancha yomon edi. Yaramas Jusupni tabiat himoyachilari yovvoyi hayvonlarni otayotgan paytda ushlashib, miltig'ini olishib, o'ziga katta hajmda jarima solishibdi, — dedi bobom.

— Hozir ohu qayerda, bobo, ko'rsam bo'ladimi? — dedim sabrsizlik bilan.

— Shoshilma, o'g'lim, sabr qil, tong otsin, keyin ko'rasan, — dedi bobom beparvolik bilan.

Men esa sabrsizlik bilan tezroq tong otishini kutardim. Bo'z uyning ochiq turgan tundugidan bulutsiz osmon yaqqol ko'rinib, yulduzlar jimirlar, goho birontasi lip etib uchib, ortidan chaqmoqdek yorug' iz qoldirib g'oyib bo'lardi. Ularni tomosha qilib, ko'zim ilinib uxlab qolganimni sezmabman.

Tushimga tabiat dushmani, yovvoyi hayvonlarga nisbatan berahm Jusup kirib, uloqchalari bor ohuga miltig'ini to'g'rilab,

otmoqchi bo'layotganmish. Ona ohu hali juda yosh egizak uloqchalarini ko'zi qiymay, atrofida aylanib, quloqlarini ding qilib, chor-atrofga bezovtalanib qarardi. Ona ohu egiz uloqchalarini miltiq o'qidan saqlamoqchi bo'lib Jusupga g'amgin, ko'zlaridan yosh quyilib, yolvorganday boqib turardi. Pak-pakana, yuzi zahil Jusup esa piq-piq kulib, bir turib xandon tashlab, miltig'idan dam ona ohuni, dam uloqchasini, dam yetilib qolgan uloqlarni nishonga olib huzur qilardi. "Otma, otma-a!" deya qiyqirib yugurib ketyapman-u, ammo o'rtamizdagi oraliq masofa qisqarmas, oyog'im tushovlanganday bir joyda turganga o'xshardi. Bir payt "tars" etib miltiq ovozi yangradi. O'qdan chiqqan kulrang tutun ilonday buralib, ko'kka o'rlardi. Men hamon yugurib ketayotgan holatda xashakka qoqilib yuzim bilan yiqildim. Cho'chib uyg'onsam, tushim ekan. Butun badanim terlab ketibdi. Bu voqealar tushimda ro'y berganidan juda quvondim. Shosha-pisha kiyinib tashqariga chiqsam, bobom ohuning yarasiga dori qo'yib bog'layotgan ekan.

— Mana, bolam, kecha tunda senga hikoya qilib bergan ohu shu bo'ladi, — dedi u. Ohuning yarasi tuzalayotganini ko'rgan bobomning quvonchi ichiga sig'mas, unga mehr-muhabbati beqiyosligini yuzlaridagi mamnunlikdan ko'rish mumkin edi.

Ohu bo'lsa ikki qulog'ini ding qilib, yoshlanib shafaqlashgan va sergak tortgan ko'zlarini menga qadab, "Sen kimsan?" deganday hayratlanib qarab turardi.

Bobom ikkalamiz har kuni ohuning yarasiga dori qo'yib bog'lab yurdik. Ohu tobora mendan cho'chimaydigan, yotsiramaydigan bo'lib, bir-birimizga o'rganib qoldik. U bobom ikkalamizni do'st tutganday yoniga kelsak cho'chimay bo'ynini cho'zib iskalanardi. Kundan-kun ohuning oyog'i shifo topib, o'ziga kelib qoldi. Avvalgiday o'tlab, bergan suvni qoldirmay ichadigan bo'ldi. Jarohatlangan oyog'ini ilgari yerga qo'ya olmayotgan bo'lsa, tuzalgach oqsabroq yura boshladi.

Kunlar oqqan daryoday o'ta boshladi. Yaylovning kungay tomonidagi o'tlar sarg'ayib, tog' shamolida daryo to'lqiniday chayqalardi.

Bir kuni bobom:

— Bolam, bugun ohu do‘sting bilan yayrab o‘ynab ol, ertaga uni tog‘ga olib chiqib qo‘yib yuboramiz, o‘zining uyuriga borsin, — dedi.

Ertasiga nonushtadan keyin ohuni yetaklab, archalar qalin o‘sgan tog‘ tomon yo‘l oldik. Mana, tog‘ga ham yetib keldik. Ko‘kka bo‘y cho‘zgan archalar, jildirab oqayotgan tip-tiniq buloq suvi, turfa xil qushlarning chiroyli sayrashlari tog‘ qo‘ynida betakror go‘zallikni namoyon etardi. Bobom atrofga nazar sol deganday menga durbinni berdi. Men tog‘ yonbag‘rida archalar o‘sgan yaylovni miriqib tomosha qildim. Biz turgan joydan bir chaqirimcha olisda bir to‘p ohular yoyilib, bexavotir o‘tlashardi. Archalarni pana qilib ularga yaqinlasha bordik-da, ohuning ipini yechib ular tomon qo‘yib yubordik. Ohu yuz qadamcha nari borgach, biz bilan xayrlashganday burilib bir qaradi-da, ohular to‘pi tomon yo‘rg‘alab yugurib ketdi. Yoyilib o‘tlayotgan ohularga borib qo‘shilar ekan, xeshlari uni o‘rab olishib, “Qayoqlarda adashib yurding?” deganday iskalay boshlashdi. Ammo uni suzib, yotsirashib chetga surishmadi. Barchalari avvalgiday xotirjam o‘tlay boshladi. Bizning “yarador” ohuimiz esa o‘tlashga xohishi yo‘qday, dam-badam boshini ko‘tarib, biz tomonga bo‘ynini cho‘zib qarab qo‘yardi. U bizni qanchalik ko‘rishni istamasin, qalin archazor ichida unga ko‘rinmas edik.

Kunlar o‘tib, yozgi ta’tilim ham nihoyasiga yetdi. Bobom va buvim bilan xayrlashib, shaharga yo‘l oldim. Avtobusda borar ekanman, biz davolagan yarador ohu dam-badam qarab, bizni izlagani ko‘z oldimda gavdalanardi. Avtobus esa bir maromda g‘izillab, shahar tomon shoshardi.

AYZADA ABAZOVA

1973-yili To'qtag'ul tumanida tug'ilgan. 1998 yillari Qirg'iziston Milliy universitetining filologiya-jurnalistika fakultetini bitirgan. "Agim", "Uchkun", "Aygay" gazetalarida va "Zamandash" jurnalida ishlagan. Hozir "Qirg'iz ruxu" gazetasida bosh muharrir.

KICHIK XONADONNING KATTA BAXTI

(hikoya)

Bu voqea kutilmaganda ro'y berdi. Ayjan kuyovi bilan biroz arazlashib, qizi va o'g'lini olib qishloqdagi uyiga keldi. Ota-onasini xijolat qilmaslik uchun "bolalarimning yozgi ta'tilida dam olishga keldik", dedi. Ammo ona yuragi biron holatni sezganday uning kelish sababini takror va takror so'rar edi. Ayjan esa hech narsani sezdirmay, "Kuyovingizning ishlari yaxshi, birga boraylik desam ishlari ko'payib, vaqt topolmadi", deya javob berib qutulardi. Baribir bu javoblarining siri darrov ochilib qoldi. Bolalari "Otam bilan oyim urushib, biz ruxsatsiz kelaverdik, "otanglardan olisroqda dam olaylik" deb aytmasdan kelaverdik", deyishib sirni oshkor qilib qo'yishdi. Shunda Ayjan:

— Oyi xijolat bo'lmang, odatdagidek, har yili uyda kapital ta'mir bo'lib turadi. Bir-birimizdan olisroqda dam olgandan so'ng qayoqqa ham borardik, yana birga yashaymiz-da, — deb onasining ko'nglini tinchlantirdi.

— Unda mayli, o'zing o'sib-ulg'aygan uy, damingni ol. Ammo oilaviy hayotda ro'y beradigan o'zaro nizolardan xabarim bor. U shunchaki "dam olib kelaylik"dan iborat emas. Bunchalik sabr-toqat qilolmasang, bir umr azob chekkandan ko'ra, o'zaro qiynalib yurishmay bu ishni bir yoqlik qilmaysizlarmi?

— Oyi, o'zingiz aytar edingiz-ku, "Erning erday azobi bor, chidash kerak" deb. Bir jihatdan o'zimning ham gunohim bo'lsa kerak. Axir qars bir qo'ldan chiqmaydi-da. Gunohim bo'lsa, azobini ham tortaman. Dil tubidagi ranjlarni aritish uchun biroz dam olishni qo'msaysan ekan. Yaxshisi, siz bu holatdan otamni xabardor qilmang. Bolalarimdan so'rab surishtirmasin.

— Bo'pti, bu yil hovlimizda qurilish ishlari boshlanib juda qiynalayotgan edik. Sen ustalarga yorma yetkazib bergin.

Ayjan borsa ikki usta saroy qurishayotgan ekan. Salomlashib, yormadan katta chiniga quyib uzatar ekan, ro'parasidagi odamni yaxshi tanigani uchun bir muddat unsiz to'xtab qoldi. Usta esa uni tanib "Ha, velosipedchi qiz, sen uydamiding? Yaxshimisan? Shahardan qachon kelding, jiyan?

— Yaxshi...yaxshi Janbolot aka, kecha kelganmiz, siz bu yerdamisiz?— deb ko'p gapirmay yorma ichilguncha kutdi-da, ortiga qaytdi.

Uy tomon borar ekan uchqur xayollar unga o'n besh yil avvalgi maktab davrini ko'z oldiga keltirdi.

O'quvchilik yillari Ayjan boshlang'ich komsomol tashkilotining kotibasi edi. Bu ish ayniqsa yoz mavsumida tashvish orttiradi. Oy sayin har bir komsomoldan 2 tiyindan yig'ilsa, yozgi ta'tilda har oy uchun 10 tiyindan, aniqrog'i har bir komsomoldan 3 oy uchun 30 tiyindan a'zolik badalini yig'ish kerak. Maktab katta, mingdan ziyod boladan anchagina pul yig'ish vazitfasi turadi. Sinflarning komsorglari o'quv yili oxirida kim a'zolik badallarini to'lasa o'shalardan yig'ilgan pullarni topshirib, to'lamaganlarning ro'yxatini unga berib, ta'tilga chiqib ketaverishadi. Bermaganlarning badallarini uyma-uy yurib o'zi yig'ib olar edi. Qishloq katta bo'lganligidan piyoda kezish oson emas. Shu bois velosiped minib qishloq kezgani uchun "Velosipedchan qiz" nomini olgan. Velosiped haydab yurgan kunlarida Janbolotni uchratgan. Harbiy xizmatdan kelib, doim gimnastyorka kiyib yurgan Janbolot keyingi paytda Ayjanga o'zini yaqinroq tutadigan bo'ldi. Ayjan kaerda velosiped minib kelayotsa ro'parasida doim Janbolot paydo bo'lib, "Qanday, velosipedchi jiyan?" deb salom berardi. Ayjan ham biroz jilmayib, "Yaxshi, gimnastyorkachi aka", deb o'tib ketardi.

Nihoyat, bir kuni Janbolot qulay payt topib, qiz bilan yaqindan tanishdi. Ko'p muddat o'tmay unga dil rozini aytishga ham ulgurdi. Gimnastyorkachi yigit ko'ziga qanchalik yoqimli ko'rinsa-da, oldida katta maqsadlari bor Ayjan unga rad javobini aytib, yigitning umidin so'ndirgan. O'sha davrdagi yoqimli nigoh yodiga tushib, uningsiz ham g'am-alamga to'la yuragi battar siqilib, vujudida avvalgidan ham kuchli og'riqni sezdi..

Uyga kelib otasidan sekin so'radi:

— Ota, Janbolot aka qachondan buyon uyimizda usta bo'lib ishlamoqda?

— Ikki hafta bo'ldi. Juda yaxshi yigit. Qo'li gul, ishini puxta bilgan, oshiqcha gapirmagan, vijdonli yigit. Bu kabi fazilatli odamlar hozir oz. Ilgari usta yollasam ishini qayta-qayta nazorat qilib zerikkanman. Janbolot kelgach bari ishni unga topshirib, yayrab qoldim... Ayjan otasiga bir savol berib shuncha javob olganiga quvondi. Onasi ham otasi so'zini davom ettirdi:

— Unga o'xshagan yigitlar hozir juda kam. Havas qilgudek oilasi bor. Shularni baxtli oila desa bo'ladi. Biri-biridan shirin beshta qizlari-chi!. Oiladagi turli tashvishlariga qaramay, o'rtalarida o'zaro hurmat, mehr-oqibat hukmron. Shinamgina tom solishib, ko'chamizga ko'chib kelishgan. Umr yo'ldoshi kun sayin tushki ovqatini olib keladi. "Janbolotdan xavotir olmanglar, o'zim ovqat berib turaman" deganimga ham qaramay kun sayin ayoli keladi yoki kichkina qizlaridan berib yuboradi. Qizlari otalariga juda mehribon. Qatorlashib kelishib otalariga erkalab ketishadi. Xizrni yo'qlasang hozir deganlaridek, ana qaranglar, qizlari kelishmoqda,— deb onasi ko'cha tomonni ko'rsatdi.

Hademay 5, 6, 7 yoshlar chamasidagi uch qizcha birin-ketin kelishib, baravar salomlashib, qo'ra ortida ishlayotgan otasi tomon yo'l olishdi.

Birpasdan so'ng uch qiz bo'shagan idishlarini olib, qaytishar ekan, Ayjan bilan ham "Yaxshi qolinglar" deb xayrlashib, jo'nab qolishdi.

Ayjanning ota-onasi qizaloqlarga havasi ortib, mamnun kayfiyatda kuzatib qolishdi. Bir payt ancha joyga borib qolgan qizchalarning eng kichigi ortiga qaytib Ayjanning otasiga qarab:

— Bobojon, sizning Ayjan degan qizingiz bor ekan, u qayerda, tanishsam bo'ladimi? — dedi.

Kichkina bo'lishiga qaramay ziyrak va abjir bu qizning tortinmay bidirlab aytgan so'zlariga hamma kulib yubordi. Ayjan qizni uy tomon boshlab, qo'liga xo'rozqand tutqazib, dedi:

— Mana endi tanishaylik, Mening ismim Ayjan, senikichi?

— Mening ismim ham Ayjan.

Ayjan kutilmagan bu javobdan biroz o'ng'aysizlanib, yuragi jiz etganini sezdi. Bir paytlardagi gimnastyorkachan yigitning issiq istarasi ko'z oldida gavdalandi.

— Yaxshi qiz ekansan Ayjan, endi yaqin tanish bo'lib qolaylik. Xo'pmi. Ayt-chi, nega men bilan tanishging keldi?

— Otamning yoniga borganimizda bobojoninglarning shahardan kelgan Ayjan degan qizi bor. U yaxshi joyda, gazetada ishlaydi. Sizlar ham yaxshi o'qisanglar o'sha opanglarga o'xshab yaxshi joylarda ishlaysizlar, dedi. Shuning uchun siz bilan tanishgim keldi. Mening ismim ham Ayjan. Men ham sizdaqa yaxshi o'qiyman va sizday bo'lishni orzu qilib, opalarimdan qolib oldingizga keldim.

— Kichik bo'lganing bilan juda aqlli qiz ekansan, necha yoshdasan?

— Besh yoshda. Ammo bu yil maktabga boraman. Oyim: "Kichkinasan, kelasi yili borasan" deyapti. Men esa boraman, deyapman. Ikki opam maktabda o'qishadi. Ulardan o'qishni, yozishni o'rgandim. Otam "O'qishni, yozishni o'rgangan bo'lsang, maktabga borasan", dedi. Men o'qishni yozishni o'rgandimmi, endi boraman-a, opa?

— Chindan ham yozishni bilasanmi? Qani, mana bu varaqqa yoz-chi! — deb Ayjan sumkasidan ruchka, varaq olib berdi.

Hali maktabga bormagan qizcha nozik qo'llariga ruchkani astoydil ushlab oq varaqqa "Janbolot qizi Ayjan" deb bexato yozdi. Ayjan qizning ismi sharifi yozilgan joyni to'rtburchak qilib qiyib olib, orqa tomoniga "Baxtli bo'l, kichkinaginam! Ayjan qizga Ayjan opasidan" deb yozdi-da, sumkasidan beyjik olib, to'rt buklangan qog'ozni unga kiygizib, qizning bo'yniga osib, ruchkani bey-

jikka qistirdi va "Mendan esdalik, olib yurgin, xo'pmi!" deb qizni kuzatib qo'ydi.

Ertasi ish bilan tuman markaziga jo'nab ketdi. Tush payti kelsa uyda begona ayol kutayotgan ekan. O'zini tanishtirgach, qiziga bergan tuhfasi uchun minnatdor bo'lib, bugun oqshom uyida mehmon bo'lishini iltimos qildi. Ayjan nima deyarini bilmay o'ylanib qoldi, ammo ayol qayta-qayta borishini o'tingach noiloj rozi bo'ldi. Ayjan Janbolotning uyida mehmon bo'lar ekan, ota-onasining u haqida aytgan gaplariga ishonch hosil qildi. Uch xonali ixchamgina uyda chindan ham boshqalarnikiga o'xshamagan ahillik va o'zaro mehr-muhabbat nafasi ufurib turganini sezish mumkin. Birin-ketin salomlashgan kamtar qizaloqlar sevinishib darhol kichkina xonalarini katta ekskursovodlardek ko'rsatisha boshladi. Dars tayyorlashadigan stolini ko'rsatishdi, maktabdagi yutuqlarini ko'z-ko'zlab maqtana boshlashdi. Kechagi beyjikni ham ko'rsatishdi. Beyjik otkritka soladigan chiroyli qutichada ekan. Uni qizlarning to'ng'ichi — Chinara o'zi yasaganini maqtandi. Uning ichi to'la otkritkalar bo'lib, 8-martda "Mehribon onamga", 23-fevralda "Mehribon otamga" degan bir nechta guldor otkritkalar bor edi. Ayjan bu kabi gulli otkritkalarni o'g'li va qizi kuyovi ikkoviga bir necha bor sovg'a qilganini esladi. Ammo nega biz bu oila kabi ahil va inoq emasmiz, deb o'yladi. Bu xonadondagi ahillikning, bir-biriga mehr-muhabbatning, baxt-u saodatning issiq tafti uni zavqlantirib, havasini oshirdi. Kichik xonadonda katta baxt bor ekanini his qilib tamaddi qilgunicha allamahal bo'lib qoldi. Shahardagi o'lchov bilan bir bekatchalik masofaga kelgan Ayjan o'zim boraveraman, deganiga qaramay, xonadon bekasi Xolbu "Yo'q, unaqasi ketmaydi, sizni Janbolot kuzatib keladi", deb iliq xayrlashdi.

Ayjan bilan Janbolot o'zaro suhbatlashib borishdi.

— Qallig'ingiz juda yaxshi ekan uni qanday topdingiz?

— Esingdami, senga uylanishimni aytganimda sen bidirlab rad javob berganingda ko'nglim cho'kkan. Sen esa "Xafa bo'lmang aka, siz qaysi qizga uylansangiz ham uni baxtli qilasiz", deb javob bergansan.

— Shunday deb aytganmidim? Esimda yo'q. Ammo hozir tan berayapman. Bu so'zni nimaga asoslanib aytganim yodimda yo'q. Maktabda o'qigan yosh paytimda o'ylanmay, mohiyatiga yetmay aytgan so'zim hozirgi aqlim bilan taqqoslaganda to'g'ri aytilgan ekan. Siz chindan ham qaysi qiz bilan yashamang uni baxtli qila olasiz. Qallig'ingiz bilan qizlaringizni qo'shganda olti qizni baxtli qilgansiz. Ayrim kimsalar olti qiz emas, bitta ayolni ham baxtli qila olmaydi. Hatto qizni farzand o'rnida ko'rmay, o'g'il tug'mayapsan, deb ayolini kamsitgan bemehr erkaklar qancha!

— Qallig'im ham goho ma'yus tortib qoladi. "Bitta bo'lsa ham o'g'il tug'ib berolmadim", deb o'ksinadi. Uylanganimga 9 yil bo'ldi, besh nafar qizimiz bor. Uyimiz tor, kichik bo'lsa joningni qiynab nima qilasan, o'g'il bola tog'ni talqon qilarmidi, menga shular yetadi" desam ham ko'nmaydi. Shunda 10 qiz tuqqin, o'n bora baxtli bo'laylik" desam menga ishonmay hayrat bilan tikiladi. Rostdan ham baxtli ekanimga ishonmaydi, shekilli. Ko'rding-ku, biri-biridan shirin qizlarim, havas qilgudek qallig'im bor. Bundan ziyod baxt ne hojat. Uyni kengaytirib, qizlarimga sharoit yaratsam va ularni baxtiyor ko'rsam orzularim ushalgani shu.

— Uyni kengaytirish sizga muammo emas. Qo'li gul usta ekansiz, hammasiga ulgurasiz.

— Xudo xohlasa, yaxshi niyatlarga yetamiz. Gap nuqul biz haqimizda borayapti. O'zingdan so'rasam, ahvollaring yaxshimi? Kuyov bola qanday?

— Xudoga shukr... Ayting-chi, baxtli oilani qanday barpo qilish mumkin?

— Bilmayman, biz o'zimiz baxtiyormiz, demoqchi edim. Senga shunday tuyildimi?

— Ha, aslo ko'z tegmasin.

— Bilmadim, oilamiz baxtiyorligi Xolbuga bog'liq. Meni bilasan, ko'ngilchanman. Birovga, ayniqsa, ayol zotiga qo'pol so'z ayta olmayman. Boshqa ayol bo'lganda ko'ngilchanligimdan foydalanib, boshimda yong'oq chaqarmidi. Xolbu unday qilmaydi. Yumshoqligimni, ko'ngilchanligimni nihoyatda hurmat qiladi.

Ayjan uyiga yetib kelganda suhbatlari uzilib, xayrlashishdi.

Yuragi siqilib yurgan Ayjan tanho qolgach ezilib chuqur xayolga cho'mdi. "Ko'ngilchan, xushfe'l odamlar qanday yaxshi!" U hozir hayotning og'ir sinovlaridan hafsalasi pir bo'lib, shirin so'zga, yumshoq muomalaga, mehr-muhabbatga chanqoq edi. Shularni o'ylaganda yuragi battar ezilib, ko'zlarida yosh halqalandi. Bir paytdagi gimnastyorkachan istarasi issiq yigitning siyrati yana ko'z oldida gavdalandi. "Eh, men..." deb chuqur xo'rsindi. Ulkan maqsadlar...

Ulkan maqsadlar ulkan baxt-saodat olib keladimi? Ulkan baxt kichkina xonadonda ham joyini topsa, katta yo'lga chiqishning hojati bormi?..

MUNDARIJA

Bugungi qirg'iz nasri haqida *(Zuhriddin Isomiddinov)*.....3
Junay Mavlanov. Non *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....7
Shukurbek Beyshenaliyev. Shoxli qo'zichoq
(Zuhriddin Isomiddinov tarj.) 17
Aman Saspayev. Bir quti gugurt 40
(Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi)
Bir totim tuz *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....44
Sarala it *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....55
Tosh Miyashev. Birinchi muhabbat .
(Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi).....60
Qalqanbay Ashimbayev. Tapay *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....72
Kengesh Jusupov. Mening qalbim tog'larda.
(Tursunboy Adashboyev tarj.).....78
Asanbek Stamov. Dahriyning tushi
(Tursunboy Adashboyev tarjimasi).....84
Ellikboy O'tinchiyev. Bola ekan-da...
(Tursunboy Adashboyev tarjimasi).....90
Quvatbek Jusubaliyev. Uloqchi
(Tursunboy Adashboyev tarjimasi).....96
Jilqichi Japiyev. Eski tegirmon
(Tursunboy Adashboyev tarjimasi).....101
Abdimanap Japarqulov. Oy tutilgan tun
(Avliyoxon Eshon tarjimasi).....107
Nu'man Saadi. O'zligingni unutma, Odam bolasi!
(Avliyoxon Eshon tarj.).....114
Asan Jaqshiliqov. Sultonboy do'konchi
(Ma'mura Zohidova tarjimasi).....176
Jumakan Sariyev. Kampir va urchuq
(Avliyoxon Eshon tarjimasi).....182
Meerixan Toqsabayeva. Salqin *(Ma'mura Zohidova tarjimasi)*.....188

Mirzohalim Karimov. Majnuntol
(Mo'ydinjon Abdumajidov tarjimasi).....217
Beyshenbay Usubaliyev. Ming *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....228
Sulayman Risbayev. Kechir, Oqto'sh
(Mo'ydinjon Abdumajidov tarjimasi).....242
Abdikerim Muratov. Go'rkovlar *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....252
Quyosh opa *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....260
Qo'chqor Borbug'ulov. Yong'oq qissasi
(Mo'ydinjon Abdumajidov tarj.).....266
Abdulamit Matisakov. Tog'lik qiz
(Avliyoxon Eshon tarjimasi).....275
Tandir *(Rahim Karim tarjimasi)*.....280
Abibilla Pazilov. Janubdan maktub
(Mo'ydinjon Abdumajidov tarjimasi).....295
Oddiygina Soliya *(Mo'ydinjon Abdumajidov tarj.)*.....304
Sultan Rayev. Tuproq (hikoya) *(Avliyoxon Eshon tarjimasi)*.....328
To'fon *(drama) (Rahim Karim tarjimasi)*.....337
Rizvon Ismailova. Oq o'rik *(Rahim Karim tarjimasi)*.....357
Toj *(drama) (Abdug'ani Abdug'afurov tarjimasi)*.....361
Joldashbay Osmonov. Yarador ohu
(Mo'ydinjon Abdumajidov tarj.).....379
Ayzada Abazova. Kichik xonadonning katta baxti
(Mo'ydinjon Abdumajidov tarjimasi).....383

Q 46 Qirg‘iz zamonaviy nasri antologiyasi [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Zuhriddin Isomiddinov. — Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. — 392 b.
ISBN 978-9943-8571-7-9

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

90-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 24,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 24,22
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 156-1/22 Buyurtma raqami № 22-373

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI